TO‘PLAM

"KELAJAK O'QITUVCHISI-KELAJAK BUNYODKORI“
mavzusidagi Respublika ilmiy-onlayn yoshlar anjumani

Republican scientific-online youth conference on the topic
"FUTURE TEACHER - FUTURE CREATOR“

Республиканская научно-онлайн молодежная конференция
на тему **«БУДУЩИЙ УЧИТЕЛЬ - БУДУЩИЙ ТВОРЕЦ»**

Namangan 2024-yil, 03-aprel

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas’ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas’ul muharrir o‘rinbosari: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ’ A T I

Aniq va tabbiy fanlar: *akad. K.Tojibayev, akad. A.To‘rayev, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, PhD. Sh.Xudoyqulov, PhD. A.Abdunazarov.*
Ijtimoiy gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov, f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. SH.J.Yusupova, p.f.d., prof. O‘.M.Asqarova. p.f.n., dots., Sh.Ubaydullayev, PhD. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, p.f.n., dots. S.Misirov, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev*

Texnik muharrir: A.O‘rmonjonov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko’chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks: (***0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

*"Kelajak o'qituvchisi - kelajak bunyodkori" mavzusidagi Respublika ilmiy-masofaviy anjumani materiallari to’plami NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-aprel 2024-yildagi 04-sonli kengaytirilgan yig’ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma **№ 04**). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2024

KELAJAK O‘QITUVCHISINI TAYYORLASH VAZIFALARI

p.f.d (DSc).prof.Ernazarova Gulnora Oblaqulovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti umumiy pedagogika kafedrasi mudiri
E-mail: g.ernazarova@cspi.uz
Avazova Ruxshona Fayzulla qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
E-mail: avazaova11@gmail.com

Annotatsiya*: ushbu maqolada ta'lim jarayonida bo`lajak pedagoglarning ijtimoiy buyurtmaning jaxon standartlari asosida belgilanishini ta'lim sub'ektlari faoliyatini ijtimoiy buyurtmaga yo‘naltirish; ta'lim sub'ektlari (oila, mahalla, maktabgacha ta'lim, maktab, pedagog, ta'lim oluvchi, monitoringchi) faoliyatini ijtimoiy buyurtmaga yo‘naltirish usullari haqida fikr yuritilgan*

***Kalit so`zlar****: ta'lim jarayoni, bo`lajak pedagog, ijtimoiy buyurtma, ta'lim, tarbiya, ta'lim sub'ektlari, munosabat, o‘qitish usullari, bilim va ko`nikma*

ЗАДАЧИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

p.f.d (DSc).проф.Aazarova Gulnora Oblakulovna
Заведующий кафедрой общей педагогики Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: g.ernazarova@cspi.uz
Авазова Рухшона Файзулла кызы
Студент Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: avazaova11@gmail.com

Аннотация*: В данной статье рассматривается определение будущих педагогов в образовательном процессе на основе мировых стандартов социального порядка ориентация деятельности субъектов образования на социальный порядок; методы ориентации деятельности субъектов образования (семья, махалля, дошкольное образование, школа, педагог, воспитатель, наблюдатель) на социальный порядок*

Ключевые слова*: образовательный процесс, будущий педагог, социальный порядок, образование, воспитание, учебные предметы, отношение, методы обучения, знания и умения*

THE TASKS OF TRAINING A FUTURE TEACHER

p.f.d (DSc).Prof.Aazarova Gulnora Oblakulovna
Head of the Department of General Pedagogy of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: g.ernazarova@cspi.uz
Avazova Rukhshona Fayzulla kyzy
Student of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: avazaova11@gmail.com

Abstract: *This article examines the definition of future teachers in the educational process based on world standards of social order orientation of the activities of educational subjects to social order; methods of orientation of the activities of educational subjects (family, mahalla, preschool education, school, teacher, educator, observer) to social order*

Keywords*: Keywords: educational process, future teacher, social order, education, upbringing, academic subjects, attitude, teaching methods, knowledge and skills*

Hozirgi davrda o‘quvchilarning kasb tanlashlari ko‘p jihatdan ota-onalarning xohish irodasi va jamiyatdagi ijtimoiy, sosial-iqtisodiy munosabatlarning ta’siriga bog‘liq bo‘lib qolmoqda [1]. Oqibatda yosh mutaxasislarning o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatlari turlicha bo‘lib, ular tanlagan soha bo‘yicha o‘zlarining ichki potesialini to‘la ruyobga chiqarishi va o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishi yoki tanlagan kasbiga sovuqqon munosabatda bo‘lib, jamiyat oldidagi o‘z vazifasini yuzaki ado etishi mumkin.

Shu boisdan ham o‘quvchilarni to‘g‘ri tanlangan holda kasbga yo‘naltirish va provardida yuzaga keladigan kadrlar salohiyati va insonlarni o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatlari jamiyat rivojlanishining juda muhim omillaridan biri hisoblanadi [4].

Hayotda ko‘pgina yoshlar o‘zi sevgan va qiziqqan kasbini tanlab shu soha mutaxassisi bo‘lib yetishishida bir qancha muammo va to‘siqlarga duch keladi. Masalan sportga qiziqishi baland bo‘lgan o‘quvchini ota-onasi va murabbiysi uni bu borada qo‘llab quvvatlamasligi. Yoki o‘quvchi o‘zi tanlagan kasb bo‘yicha Oliy ta’lim muassasasiga kiraolmasligi va shunga o‘xshash sub’yektiv, ob’yektiv hamda ijtimoiy-sosial munosabatlardan kelib chiqadigan omillarning ta’siri. Natijada o‘quvchi

o‘zining ichki tuyg‘ulari, imkoniyatlari, qiziqishlaridan kelib chiqib o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha olmaganidan keyin boshqa biror bir kasbni egallashga intiladi.

Kasbga yo‘naltirish faoliyati keng qamrovli va murakkab bo‘lib, uning mukammal tizimi to‘lig‘icha ishlab chiqilgan emas. Bu borada ba’zi mulohazalarni keltirmoqchimiz.

- Kasb xaqidagi bilim va malakalarni yaxshilash maqsadida bitiruvchilarga turli xil kasblarning zamonaviy mehnat faoliyatlari, ularni ijtimoiy-iqtisodiy va sosial munosabatlarga ta’siri, jamiyatni professional kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji, kasb mahorati ham bosqichma-bosqich pog‘onalar bo‘yicha takomillashib borishi to‘g‘risidagi bilimlar berib boriladi. Yoshlarga kasb tanlash borasida ma’lumotlar berish va ularni kasbga yo‘naltirish bu boradagi iqtisodiy, ijtimoiy, psixofiziologik muammolarni yechish bilan belgilanadi.

- Yoshlarga kasb tanlashda va kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tavsiyalar berishda kasb malakalari, kasb turlari va shu bilan birga ular to‘g‘risidagi psixologik, psxofiziologik va tibbiy xulosalar inobatga olinishi kerak.

- Yoshlarni psixologik qo‘llab quvatlash metodlari ulardagi psixologik tangliklarni yumshatishga qaratilgan bo‘lib, ularda ijobiy yondashuvlarni vujudga keltirishga va kelajakga bo‘lgan ishonchni tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

- Kasb tanlash yo‘nalishidagi kasbiy mahorat tarbiyasi o‘z oldiga yoshlardan o‘z kasbiga ma’suliyatni, o‘z kasbi oldidagi burchni hamda o‘z kasbi faoliyati sha’ni va layoqatini anglashni maqsad qilib qo‘yish kerak bo‘ladi.

- O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish faoliyati ustoz-murabbiylar, sinf rahbari, maktab ma’muriyati va ota-onalarning birgalikdagi faoliyat bo‘lib, har birining roli albatda inobatga olinishi zarur.

Bugungi kunda maktab o‘quvchilarini kelajak o‘qituvchisi qilib tayyorlab borish ya’ni ularda pedagog kasbiga mehr va qiziqish o‘yg‘otish muhim ahamiyatga ega [2,3].

Bo`lajak pedagoglarning ijtimoiy buyurtmaning jaxon standartlari asosida belgilanishini ta’lim sub’ektlari faoliyatini ijtimoiy buyurtmaga yo‘naltirishning mohiyatini, innovasion faoliyat komponentlari (kuzatuvchilik, assistentlik, moderatorlik, fasilitatorlik, mentorlik)ni, zamonaviy imijning zaruratini, o‘quv reseptorlari nimalagini va unga ta’sir etish usullarini, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish hususiyatlari va toifalarini, ta’lim jarayonini faollashtirish va natijaga yo‘naltirishni, dars va mashg‘ulotlarga maqsad belgilashni, adaptiv didaktik vositalar muhimligini va ularni modellashtirishni, ta’lim oluvchilar akademik-ijtimoiy harakatlarini prognozlash va baholashning asosiy yo‘nalishlarini, davriy xisobotlar tayyorlash va taqdim etishning zarurligini va zamonaviy yo‘llarini, dars va

mashg‘ulotlarni modellashtirishda akademik va ijodiy erkinlik muhimlinini va unga erishish yo‘llarini, hamkorlikda ishlash yo‘llari va mexanizmlarini bilib olishlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Bunda:

-pedagogik tamoyillar asosida faoliyatini bashoratlashni va tavisflashni, ijtimoiy buyurtmani muayyan dars mavzusi doirasida jaxon standartlari asosida sharxlashni, ta’lim sub’ektlari (oila, mahalla, maktabgacha ta’lim, maktab, pedagog, ta’lim oluvchi, monitoringchi) faoliyatini ijtimoiy buyurtmaga yo‘naltirishda nimalarga e’tibor qaratish lozimligi yuzasidan shaxsiy xulosalarni shakllantirish;

- o`quv faoliyati komponentlari doirasida shaxsiy faoliyatni prognozlash orqali modellashtirish,

-shaxsiy zamonaviy imijini-portret asosida tayyorlashni, o‘quv reseptorlari tavsiflari va ularga mos metodlar tanlashni va mazkur metodlarni transformatsiyalash;

- ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish xususiyatlari va toifalari bo‘yicha muayyan tinglovchi, o‘quvchi, bolaga pedagogik-psixologik tavsifnoma yozish;

-ta’lim jarayonini faollashtirish usullarini va mazkur usullar asosida qanday natijaga erishish mumkinligini baholash;

-zamonaviy pedagog imiji, maqomi, burchi. Tanqidiy, mantiqiy, mustaqil fikrlash va uning ahamiyati;

-shaxsiy zamonaviy imijini-portret asosida tayyorlash, o‘quv reseptorlari tavsiflari va ularga mos metodlar tanlash va mazkur metodlarni transformatsiyalash;

- ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish xususiyatlari va toifalari bo‘yicha muayyan o‘quvchiga pedagogik-psixologik tavsifnoma yozish, ta’lim jarayonini faollashtirish usullari va mazkur usullar asosida qanday natijaga erishish mumkinligini baholash;

-kasbga yunaltirilgan interfaol usullar va ularning didaktik imkoniyatlaridars va mashg‘ulotlarga maqsad belgilashning SMART mezonlarini, adaptiv didaktik vositalarni muayyan mavzu doirasida va ta’lim oluvchilar o‘zlashtirish hususiyatlariga ko‘ra tayyorlash mashqlari;

- ta’lim oluvchilar akademik-ijtimoiy harakatlarini prognozlash va baholash usullari, yo‘llarini, instrumentlarini, shaxsiy faoliyati (mustaqil ta’lim va pedagogik amaliyot) yuzasidan davriy xisobotlar tayyorlash va taqdim etish;

- akademik va ijodiy erkinlik asosida taqdim etilgan mavzu bo‘yicha dars va mashg‘ulotlarni modellashtirishni, oilalar, ijtiomiy institutlar va raqobatchilar bilan hamkorlikda ishlash yo‘llari va mexanizmlarini namoyon etish va shaxsiy xulosalarini shakllantirishga oid bilim va ko`nikmalarni shakllantirish kabi vazifalar amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli Qarori.

2.Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. -T. 2010 y.

3.Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., Sharipov Sh.S. Kasb ta'limi metodikasi" fanidan o'quv-metodik majmua Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 20 b.

4.Muslimov N.A., Abdullayeva Q.M., Mirsoliyeva M. "Pedagogik mahorat" fanidan o'quv-metodik majmua. Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 322 b.

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA GLOBAL TA'LIM

Islamova Maftuna Sharofiddinovna,[1]
Soxiboyev Zoyirjon Erkinovich[2]
Chirchiq OTQMBYU "Tabbiy-ilmiy fanlar" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD) dotsent
Chirchiq OTQMBYU Taktika kafedrasi katta o'qituvchisi, dotsent, podpolkovnik, QK Akademiyasi magistri

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv, global ta'lim, O'zbekiston global ta'limining umumiy holati, global ta'lim muammolarini yachish yechishda amalga oshirilayotgan ishlar tahlili xususda fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar. *Globallashuv, globat ta'lim, global tarmoq, ta'lim, qamrab olish koeffisenti.*

ГЛОБАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Исламова Мафтуна Шарофиддиновна,[1]
Сохибоев Зоиржон Эркинович[2]
доцент к.п.н. (PhD) доцент кафедры , «Естественно - научных дисциплин»[1]
доцен, старший преподаватель кафедры тактики ЧВТКИУ, магистр Военной Академии ВС, подполковник[2]

Абстрактный. *В данной статье основное внимание уделяется глобализации, глобальному образованию, общей ситуации глобального*

образования в Узбекистане, а также анализу проводимой работы по решению проблем глобального образования.

Ключевые слова. *Глобализация, глобальное образование, глобальная сеть, образование, коэффициент охвата.*

GLOBAL EDUCATION IN MODERN PEDAGOGY

Islamova Maftuna Sharofiddinovna,[1]
Sokhiboyev Zoyirjon Erkinovich[2]
associate professor of the "Medical and scientific sciences" department of the ChHTCIS, associate professor of Ph.D.
senior teacher of the Department of Tactics of the Military associate professor, lieutenant colonel, master of the Academy of Military Academy

Annotation. *This article discusses globalization, global education, the general state of global education in Uzbekistan, the analysis of the work being done to solve the problems of global education.*

Keywords. *Globalization, global education, global network, education, coefficient of obtaining the amount.*

Globallashuv tushunchasi ilk bor *1833 yilda* Britaniyalik iqtisodchi *Foter* tomonidan ilmiy maqolada qo'llanilgan[35] bo'lib, globallashuv - deganda dunyoning barcha mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda har bir sohada milliy chegaralarni bekor qilish orqali birlashishi tushuniladi. Tushunchaning kengroq ta'rifi: *"global integratsiya, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishi va rivojlanishi, mafkuraviy tafovutlarga asoslangan qutblanishning barham topishi"* sifatida tariflanadi.[36] Globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha jabhalari shu jumladan ta'lim tizimi va metodikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda har bir mamalakat ta'lim tizimida ***global ta'lim*** tushunchasi mavjud bo'lib, unda har bir mamalakat yoshlarinig chet el talim muassalaridagi ta'lim ulushi asosiy manbaa hisoblanadi.

Shu jumladan O'zbekiston respublikasida ham globat ta'lim keng rivojlanib, bugungi kunda ko'plab mamlakatimiz talabalari jahon oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-

5847-son farmoni 1-ilovasi 2- Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar bobi)da quyidagi asosli ma'lumotlar keltirilgan:

Bugungi kunda respublikada *114 ta oliy ta'lim muassasasi* mavjud bo'lib, ulardan *93* tasi mahalliy hamda *21* tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so'nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasasi, *17 ta* filial va *14 ta* xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali tashkil etildi. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga *329 ta ta'lim yo'nalishi* va *582 ta magistratura mutaxassisligi* kiritildi.

2019/2020 o'quv yilida *59 ta oliy ta'lim muassasasida* sirtqi ta'lim, *10 ta* oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha *410 ming*, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa *13 ming* nafarni tashkil qilib, so'nggi *3 yilda 1,7 baravarga oshdi.*

Talabalarning *54,8* foizi gumanitar va pedagogik, *25,2* foizi ishlab chiqarish-texnik, *5,2 foizi* ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, *5,9 foizi* qishloq va suv xo'jaligi, *4,4 foizi* sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, *4,5 foizi* xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

Magistratura talabalarining *40,8 foizi* gumanitar va pedagogik, *23,3 foizi* ishlab chiqarish-texnik, *13,3 foizi* ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, *5,9 foizi* qishloq va suv xo'jaligi, *13,5 foizi* sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 3,2 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

2019/2020 o'quv yili uchun qabul parametrlari *121 ming*tani tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan *18 foizga,* 2016-yilga nisbatan esa *92 foizga* oshdi.

Respublikaning *16 ta* oliy ta'lim muassasasida *2018/2019* o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni *84 tani* tashkil qilmoqda (2017-yilda 48 ta). So'nggi 3 yilda *1 693* nafar professor-o'qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni *9 636* nafarga yetdi (shundan *2 130* nafari fan doktori (DSc), *7 506* nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati *5,1* foizga oshishiga erishildi.

So‘nggi 3 yilda oliy ta’lim muassasalarining *1 611* nafar professor-o‘qituvchisi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi ta’minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisligiga *112* nafar, doktoranturasiga *51* nafar yoshlar ta’lim olishga qabul qilindi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali *46 nafar* professor-o‘qituvchining *Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya* davlatlarida stajirovka o‘tashi ta’minlandi.

2017 -2019-yillarda ta’lim jarayoniga *1 154 nafar* xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (*AQShdan 94 nafar, Yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar*). Oliy ta’lim muassasalarida fan doktori ilmiy darajasiga ega professorlarning bazaviy lavozim maoshlari 2016-yilga nisbatan *3,2 baravarga* oshirildi.[37]

Oliy ta’lim tizimi sohasida sezilarli islohotlar va o‘zgarishlar olib borilayotgan bo‘lishiga qaramay, oliy ta'lim tizimi amaldagi qonunchilik doirasida O‘zbekiston Respublikasi hududida bakalavr – *kunduzgi 4 yil*, *sirtqi ta'lim – 5 yil*, shuningdek, *kechki ta’lim* shaklida olib borilish ham ko‘p sonli o‘zbek yoshlarini qaymrab olish koeffisientini qoniqarli deb bo‘lmaydi. Shu sababdan o‘zbek talabalari orasi global ta’lim asosida xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalariga xujjat topshirish va tahsilning ma’lum davridan so‘ng respublikamiz hududidagi OTMlarga tahsilni ko‘chirish istagini bildirish holatlari juda ko‘p uchraydi. Xususan: Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, *2019 yilning 8 oyi* statistikalari bo‘yicha, xorijiy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish uchun eng ko‘p murojaatlar *Qirg‘iziston* Respublikasi ta’limini tugatganlardan (*45,7 foiz*) kelib tushgan. Ikkinchi o‘rinni esa *Tojikiston* (*16,7 foiz*), so‘ng *Rossiya* (*14,3 foiz*), *Qozog‘iston* (*10,6 foiz*) egallagan.

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, *2019* yilning *8 oyi statistikalari* bo‘yicha, xorijiy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish uchun eng ko‘p murojaatlar *Qirg‘iziston Respublikasi* ta’limini tugatganlardan *(45,7 foiz)* kelib tushmoqda. Ikkinchi o‘rinni esa *Tojikiston (16,7 foiz)*, so‘ng *Rossiya (14,3 foiz), Qozog‘iston (10,6 foiz)* egallagan.

Masalan 2019 yilda 1 milliondan ortiq talabgor oliy ta’lim muassasasalariga hujjat topshirdi. Garchi islohotlar natijasida keyingi yillarda qabul kvotalari *9 foizdan 12-13 foizga* oshgan bo‘lishiga qaramay umumiy ehtiyojni qondirish uchun bu qamrov hali kam.

2018 yil avgust holatiga ko‘ra, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarining tan

olinishi uchun jami *1 ming 481ta* ariza kelib tushgan bo‘lib, ularning *543tasi* tan olingan.[8,9]

O‘zbekistonda davlat byudjyetidan har bir talabaga to‘g‘ri keluvchi xarajat Rossiyaga nisbatan 2 marta, Turkiyaga nisban 3 marta, Malayziyaga nisbatan 7 marta kam. 2000 yildan beri oliy ta’limni moliyalashtirishning umumiy miqdorida davlat g‘aznasidan xarajatlar *60 foizdan 35 foizacha* kamaydi. Davlat xarajatlari kamayishi bilan oliy o‘quv yurtlari ko‘proq ta’lim uchun to‘lovlar hisobiga moliyalashtirishga o‘tmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta’limni xususiy moliyalash darajasi (60 foiz) AQShga nisbatan (57 foiz) va Buyuk Britaniyaga nisbatan (52 foiz) ham yuqori. Aholi daromadlari yuqori bo‘lgan mamlakatlar orasida oliy ta’limni xususiy moliyalashtirish o‘rtacha 29 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda oliy ta'limni xususiy moliyalashtirish hajmining oshishi nafaqat to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan talabalar soni oshishi bilan, balki ta’lim uchun to‘lovlar miqdorining ko‘payishi bilan ham bog‘liq. [8,9]

Ta’lim sifati va samaradorigida global tarmoqqa ulanish va jahon ma’lumotlar va yangiliklar bazasidan samamrali foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etadi bu borada XXI asrda raqamli texnologiyalar asri ekanligi inobatga olib,
raqamli iqtisodiyot izchil rivojlanishining birinchi va eng muhim omili — zamonaviy AKT-infratuzilmasini yaratish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Xususan 2020 yil boshidan bugungi kungacha respublika bo‘yicha internet tarmog‘iga keng polosali ulanish portlarining umumiy soni **2,2 mln.ga** yetkazildi, 7,8 ming km. optik tolali aloqa liniyalari qurilib, ularning umumiy uzunligi **44,4 ming km.**dan oshdi. Shundan **7,3 km.** optik tolali aloqa liniyalari 9410 ta ijtimoiy soha ob’ektlariga tortilishi natijasida *4 786 ta* maktab, *2 895 ta* maktabgacha ta’lim va *1 729 ta* sog‘liqni saqlash muassasasini tezkor internetga ulash imkoniyati yaratildi. Bu o‘z navbatida yosh avlodning zamonaviy bilim olishida ahamiyatlidir.

“Ookla” kompaniyasining Speedtest.net servisi internet tezligi bo‘yicha 2020 yil iyun oyi natijalariga ko‘ra yangi ma’lumotlarni e’lon qildi va ushbu Speedtest Global Index reytingida O‘zbekiston keskin o‘sishni namoyon etib Internet tezligi bo‘yicha 94-pog‘onani egallab turibdi, bir yil ichida 36 pog‘onaga ko‘tarilish kuzatildi. Umuman, oxirgi yil natijalariga ko‘ra O‘zbekistonda simli internet tezligi **2,5 barobarga** o‘sdi.[7] Ushbu ijobiy o‘zgarishlar har bit ta’lim oluvchi va ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan pedagog kadrlarda global tarmoq imkoniyatlaridan keng foydalanish, o‘z ta’lim sohasi bo‘icha o‘lkan axborot va ma’lumotlar bazasiga ulanish va undan samarali foydalanish, ma’lumot almashihs va o‘z bilim va maakasini mustahkamlash imoniyatini yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gömleksiz, Kılınç, (2012). "Küreselleşmenin Eğitim Programları Üzerindeki Etkisine İlişkin Akademisyen Görüşleri: Nitel Bir Çalışma", Mustafa Kemal Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 9(17), 397-413.
2. Çelik, Gömleksiz, (2000). "A Critical Examination of Globalization and İts Effects on Education", Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 10(2), 133- 144.
3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni 1-ilovasi
4. **Zilola G'aybullayeva** https://kun.uz/uz/news/2019/09/15/masofaviy-talim-shakli-ozbekistonda-tan-olinmaydi-qoshni-davlatlar-universitetlarida-oqiyotgan-yoshlar-muammolari
5. https://hozir.org/talim-global-muammo-sifatida.html
6. https://mitc.uz/uz/news/2315

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MASOFAVIY TA'LIM

Islamova M.,[1] Qodirova A.,[2] Risqitillayeva N.[3]

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasi dotsenti,[1] Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti magistri [2,3]

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XXI asr - distansion ta'lim tiziming paydo bo'lishi, distansion (masofaviy) ta'limda jahon tajribasi, masofaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari, oily va o'rta ta'lim tizimida masofaviy ta'limning qo'llanilishi, O'zbekistonda 2019-2020 yillarda distension ta'limning istiqbollari hamda masofaviy ta'lim yuzasidan umuiy xulosalar xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar. *Distansion, distansion ta'lim, masofaviy o'qitish, sirtqi ta'lim, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, internet tarmog'i, masofaviy ta'limning moodle tizimi, masofaviy ta'limning interaktiv va interaktiv bo'lmagan texnologiyalari, masofaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari.*

ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Исламова М.,[1] Кодирова А.,[2] Рискитиллаева Н.[3]

Доцент кафедры «Общая педагогика» Чирчикского государственного педагогического университета,[1] Магистр педагогического факультета Чирчикского государственного педагогического университета [2,3]

Аннотация. *В данной статье рассмотрены появление системы дистанционного образования XXI века, мировой опыт дистанционного образования, преимущества и недостатки дистанционного образования, применение дистанционного образования в системе высшего и среднего образования, перспективы дистанционного образования в Узбекистане в 2019-2020 годах и общие выводы по дистанционному образованию.*

Ключевые слова. *Дистанционное, дистанционное обучение, заочная форма обучения, государственные и негосударственные образовательные учреждения, сеть Интернет, система moodle дистанционного образования, интерактивные и неинтерактивные технологии дистанционного образования, преимущества и недостатки дистанционного образования.*

INFORMATION TECHNOLOGIES AND INNOVATIVE APPROACH IN MODERN PEDAGOGY

Islamova M.,[1] Kadirova A.,[2] Risqitillayeva N.[3]

Associate Professor of the "General Pedagogy" Department of Chirchik State Pedagogical University,[1] Master of the Faculty of Pedagogy of Chirchik State Pedagogical University [2,3]

Abstract. *This article examines the emergence of the distance education system of the XXI century, the world experience of distance education, the advantages and disadvantages of distance education, the use of distance education in higher and secondary education, the prospects of distance education in Uzbekistan in 2019-2020 and general conclusions on distance education.*

Keywords. *Distance learning, distance learning, distance learning, state and non-state educational institutions, the Internet, the moodle system of distance education, interactive and non-interactive technologies of distance education, advantages and disadvantages of distance education.*

1992 yilga kelib unga umimiy *7500,* AQSH tashqi hududlardagi *2500 kichik tarmoqlar*ning ulanishi natijasida vujudga kelgan Butunjahon O‘rgimchak To‘ri (*World Wide Web, www*) Internet tarmog‘ining taraqqiyoti distansion ta’lim turini misli

ko‘rinmagan yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi. Xususan *2020 yil* boshida Internet tarmg‘i foydalananuvchilari soni *4,5 mlrd* kishiga yetdi. Bu ko‘rsantkich yer kurrasi aholisining *50%*iga teng bo‘lib, ularning barchasiga distansion ta’lim turlaridan foydalanish imkoniyatini yaratib berdi. Shu sababdan ham bugungi kunga kelib masofaviy ta’lim XXI-asr ta’limi degan tushuncha keng tarqalmoqda.

Masofaviy o‘qitish - sirtqi ta’limning o‘z rivojlanish yo‘lidagi yangi kommunikatsion va informatsion texnologiyalarga tayangan, hamma shakllari qonunlashtirilgan o‘qitishni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

Distansion - so‘zi masofa saqlaqan holda ma’lum hatti-harakatni bajarish ma’nosini analatadi. Ushbu atama insoniyat hayotining elektronika va avtomatika, xizmat ko‘rsatish, boshqaruv kabi ko‘plab sohalari qatori ta’lim sohasiga ham kirib keldi va ta’lim tizimida ***“distansion ta’lim”*** tushunchasi paydo bo‘ldi.

Distansion (masofaviy) ta’lim – o‘qish va o‘rganish bilan bog’liq faoliyatlar majmuini masofadan turib amalga oshirish jarayonidir.

Masofaviy (distansion) ta’limning rivojlanish tarixi *1728 yillar*dan boshlanadi, zero shu yilda Boston gazetasida stsenograf *Kaleb Fillip*ning haftada bir marta ta’lim olib topshiriqlarni pochta orqali jo‘natishga asoslangan o‘quv kursi yo‘lga qo‘yilganligi to‘g‘risidagi e’loni chop etiladi.[1] Angliyada *1840 yilda Isaak Pitman* stenograflikning pochta orqali ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yadi.[2] *AQSHda 1873 yilda Anna Eliot Tiknor* tomonidan “***Общество поощрения домашнего обучения***” nomli sirtqi maktab tashkil etiladi. *1894 yilda Oksfordning Uolsi-Xoll kolledji Buyuk Britaniyadagi birinchi distansion kolledj* sifatida tashkil topadi. *1920-1930 yillarda* radio va televedeniya taraqqiyoti o‘z navbatida distansion ta’limni ham yangi bosqichga olib chiqdi. *1938 yil*ga kelib qariyb *200 ta* kolledj, universitet va maktab tizimlarida radio va teletraslyatsiyaga asoslangan distansion darslar yo‘lga qo‘yilgan edi. [3]

*Masofaviy o‘qitishning Rossiya tajribasi*dan misol qilib general *A.M.Shanyavskiy* nomidagi *Moskva Xalq Universiteti, Naxodka shahridagi “Morexodnaya” maktablari*ni olish mumkin. Bu yerda *V. P. Chernov 1987 yilda*yoq masofaviy o‘qitishni joriy etgan.

So‘nggi yillarda masofaviy ta’lim usulida o‘qitishning afzalliklarini targ‘ib etish va yuqori natijalarga erishish ustida *AQSHning (NTU) Milliy Texnologiya Universiteti* va *Buyuk Britaniyaning (OU) Ochiq Universitetlari* juda keng qamrovli ishlarni amalga oshirmoqda.

Masofaviy ta’lim tizimi imkoniyatlaridan foydalanish uchun davlat doirasida qator islohotlar amlaga shirilishi talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini axborotlashtirish, AKT ni ta’lim jarayoniya samarali targ‘ib etish, masofaviy

ta'lim tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Xususan yosh avlodni axborot kommunikatsion texnologilaridan erkin foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida *2020-2021 yillar*ga kelib respublikamizdagi *20 181 ta umumtalim muassasalarining 9923 tasi* ya'ni respublikamiz umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan *6 287,9 ming nafar* o'quvchilarning *97,5 % foizi* kompyuter sinflari bilan to'la ta'minlandi [5,6,7,8,].

Respublikamizda *2020 yil* boshida davlat oliy ta'lim tashkilotlari soni *119* tani tashkil etgan. Ularda *441,0 ming* nafar talaba tahsil olmoqda. *2020 yil* boshida respublikamizdagi nodavlat ta'lim tashkilotlari soni esa *24* tani tashkil etib, ularda jami *20,1 ming* nafar talaba tahsil olmoqda. Bu jami talabalarning *4,6% ni* tashkil etsa, nodavlat oily ta'lim tashkilotlari respublikamiz oliy ta'lim tashkilotlarining *20,2 %* ni tashkil etadi (diagramma-1)[7]. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oily ta'lim muassasalarida bugungi kunda masofaviy ta'limga asoslangan sirtqi ta'lim yo'nalishlari yo'lga qo'yilgan.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi - *masofaviy o'qitish* shakli yaratilishiga omil bo'ldi. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'limi tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi. Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchinig bilvosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertual o'quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo'ladi. Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan sog'ligi taqozo etmaydigan, mutaxassisligini o'zgartirish istagida bo'lgan yoki katta yoshdagi malakasini oshirish istagida bo'lgan shaxslar uchun masofaviy o'qitish ta'limning juda qulay shakli hisoblanadi. Unda interaktiv audio va video konferentsiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari a'loqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Masofaviy ta'lim ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda

o‘qish jarayoni ta’lim oluvchining qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas [9, 5-8 s]

Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro internet orqali muloqotda bo‘ladi, talaba o‘z ustida ko‘proq ishlaydi va internetning boshqa imkoniyatlari yordamida o‘qituvchi bilan doimiy muloqotda bo‘ladi. Eng muhimi masofaviy ta’lim joy va vaqtga bog‘liq emas, talabalarning soni cheklanmagan. Masofaviy o‘qitish davomida talaba mustaqil o‘quv darsliklarni o‘zlashtiradi, nazorat savollariga javob berib boradi. Ta’limning bu turi sirtqi, maxsus sirtqi, malaka oshirish kurslari hamda oilali, yoshi kattalar va ishlaydigan talabalar uchun juda qulay ta’lim tizimi hisoblanadi.

Masofaviy ta’lim uchun faqat ma’ruza matni emas, balki mavzuga mos keladigan video darslar, klaster metodlari ham maxsus elektron sahifaga joylab ta’lim oluvchilarga berib borilishi lozim. Masofali o‘qitishning bunday modeli ilk bor *Avstraliyaning yangi Angliya universiteti (University of New England, Australia* – http://www.une.edu.au) da tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda undan dunyoning barcha yetakchi oliygohlarida foydalaniladi. O‘zbekistonda birinchi bo‘lib *Andijon Mashinasozlik institutida* qo‘llanilgan (http://www.andmiedu.uz). Hozirda esa Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika inistitutida (http//www.cspi.uz) ham shu tizimga to‘la o‘tilgan. [11, 35-36 s]

Masofadan turib moodle tizimida o‘qitish tizimi so’nggi yillarda G’arbda ta’lim tizimida keng qo’llanilmoqda. Bunda talaba dunyoning istalgan joyida mustaqil o‘qish imkoniyatiga ega va talabalar soni cheklanmagan, vaqtning ahamyati yo‘q, eng muhimi bu tizimda online darslarning bo‘lishi, o‘qituvchi online savol-javob o‘tkazish imkoniyatlari mavjud. Bunday tamoyilda o‘qitish tizimi *Ochiq Universitetlarda (Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti - United Kingdom Open University*) (http://www.open.ac.uk) da tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda *MOODLE* tizimi jahonning yirik universitetlarida qo‘llab kelinmoqda. *MOODLE tizimida tahminan 2 mln* nafar faoliyat olib boruvchilar qayd etilgan, *200 ta davlatda 70 tildagi 46 ming o‘quv portallari va 300 nafar programmist* ishlab chiqaruvchilar faoliyat olib bormoqda.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ma’lumotlar asosida quyidadi xulosalarni chiqarish o‘rinlidir:

1. Masofaviy ta’lim XXI-asr ta’limi, chunki u vaqt, makon, ta’lim oluvchilarning soni, etnik holati, ijtimoiy mavqeidan qatiy nazar hamma uchun birdek bir vaqtda qo‘llay olish imkonini beruvchi ta’lim tizimidir;
2. Masofaviy ta’lim tizimini gummanitar sohalar, malaka oshirish, qayta tayyorlash, til o‘rganish, tajriba almashish tarmoqlari uchun qo‘llash maqsadga muvofiqdir;

3. Amaliy sohalar (masalan tibbiyot sahosi) uchun masofaviy ta'lim tizimi nazariy ma'lumotlarni mustaqil o'rganish uchun aralash metodda qo'llash tavsiya etiladi, biroq masofaviy ta'lim amaliy darslar va tajriba orttirish lozim bo'lgan mashg'ulotlarning o'rnini bosa olmaydi;
4. Jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ham ta'limda ishtirok etish va muloqot o'rnatish imkoniyatini taqdim etadi;
5. Iqtisodiy jihatdan samarali(bino, jihozlar, auditoriya, o'quv vositalariga ehtiyoj bo'lmaydi).

Yuqorida keltirilgan imkoniyatlariga qaramay Mudofaa tizimining maxfiylik prinsilari oliy harbiy ta'lim muassasalarida distension ta'limning keng imkoniyataridan foydalanishda to'siqlar va cheklanishlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Холмберг, Бёрье (2005). *Эволюция, принципы и практика дистанционного образования* . Studien und Berichte der Arbeitsstelle Fernstudienforschung der Carl von Ossietzky Universität Oldenburg [ASF] (на немецком языке). **11** . Bibliotheks- und Informationssystem der Universitat Oldenburg. п. 13. ISBN 3-8142-0933-8. Проверено 23 января 2011 года .
2. Алан Тейт. «Размышления о поддержке студентов в открытом и дистанционном обучении» . Международный обзор исследований в области открытого и дистанционного обучения. 2003 год апрель.
3. Тайсон, Леверинг (1936). «Десять лет образовательного вещания». *Школа и общество* .
4. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/12375-o-zbekistonda-faoliyat-yuritayotgan-pedagoglar-soni-qancha
5. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/10378-umumta-lim-muassasalarining-kompyuter-sinflari-bilan-ta-minlanganlik-darajasi-to-g-risida-bilasizmi
6. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/6591-6771111-2
7. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/8165-maktablarda-ta-lim-olayotgan-o-quvchilarning-51-4-ini-o-g-il-bolalar-tashkil-etmoqda
8. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/10293-o-zbekiston-respublikasida-xorijiy-oliy-ta-lim-muassasalari-soni-ko-paymoqda
9. N.Do'seinov.,B.AkmedovTVChDPI//Kursishi// file:///C:/Users/user/Downloads/GAIBOV_ZARIFJON.pdf

10. "Анализ мирового рқнка дистанционного образования" –Батаев Алексей Влидимирович, к.т.н., доц., Санкт-Петербургский ролитехнический университет Петра Великого//Young Scienttist international journal// №20(100)октябрь 2015 год
11. "Непревывность образования во время пандемии COVID-19: впечатления от внедрения дистанционного обучения всистеме общего образрвания в Узбекистане" Детский фонд ООН (UNICEF) Узбекистна сентярь 2020 год.

PEDAGOGIK TA'LIMDA O'QITUVCHINING MAS'ULIYATI, MAHORATI VA KOMPETENSIYASI

Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik ta'limda o'qituvchining mas'uliyati, mahorati va kompotensiyasi, dars mashg'ulotlarida mahorat va kompotensiyaning ahamiyati haqida, bugungi kunda o'qituvchining zarur bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi va o'quvchilarga yetkaza bera olish qobiliyatining ahamiyatini bilib olish mumkin.*

Kalit so'zlar*: maktab, o'qituvchi, mas'uliyat, mahorat, kompotensiya, bilim, malaka, ko'nikma, kasbiy kompotensiya, maxsus kompotensiya.*

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ, УМЕНИЕ И КОМПЕТЕНТНОСТЬ УЧИТЕЛЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Алиева Матлуба Жакбаралиевна

Наманганский государственный педагогический институт педагогический факультет студент 2- курса направление Изобразительное искусство и инженерная графика.

Аннотация: *В этой статье можно узнать об ответственности, мастерстве и Компотенции учителя в педагогическом образовании, о важности мастерства и компотенции в классных занятиях, о важности*

способности учителя сегодня приобретать необходимые знания, умения и навыки и доводить их до учащихся.

Ключевые слова: *школа, учитель, ответственность, умение, составление, знание, умение, умение, профессиональная составляющая, специальная составляющая.*

RESPONSIBILITY, SKILL AND COMPETENCE OF THE TEACHER IN PEDAGOGICAL EDUCATION

Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna

2- stage Student of the direction of Fine Arts and engineering graphics of the pedagogical Faculty of Namangan State Pedagogical Institute

Annotation: *in this article, one can learn about the teacher's responsibility, skill and compotence in pedagogical education, about the importance of skill and compotence in classroom activities, about the importance of the teacher's ability to have the necessary knowledge, skills and skills and to be able to convey to students.*

Keywords: *school, teacher, responsibility, skill, competence, knowledge, competence, skills, professional competence, special competence.*

Ta’lim o’z mohiyatiga ko’ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta’lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarni berishga yo’naltiriladi. Umumiy ta’lim asosida o’zlashtirilgan ma’lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga imkon beruvchi maxsus ta’lim olishi uchun asos bo’ladi. Maxsus ta’lim – o’zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko’nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi[1-5].

Mas’uliyat –biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik[2-2].

Mahorat - biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at; mohirlik[3-3].

Kompetensiya (lotincha “competo” so‘zidan olingan bo‘lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma’nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi[4-4].

Maktabda o‘quvchilar bilan 1-4-sinflarda o‘qitiladigan fanlarni odatda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan olib boriladi. O‘qituvchi ushbu fanlar bo‘yicha yetarli bilim va ko‘kmalarga ega bo‘lishi shart. Bundan tashqari o‘qituvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talab etadi. Agar o‘qituvchilarda tajriba yetishmasa bu bilimlar ham samarasiz bo‘lib qoladi. Yuqori 5-11-sinflarda esa har bir fan bo‘yicha mutaxassis o‘qituvchilar dars mashg‘ulotlarini olib boradilar.

O‘qituvchining mas’uliyati, mahorati va kompotensiyasi bugungi kunda davr talabiga aylandi. Har bir fan o‘qituvchisi ushbu ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchining mahorati u dars berayotgan fanning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishiga bog‘liq. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o‘rgatish, ilmiy bilimlar berish, o‘qituvchi kasbi haqida ma’lumot berish va ko‘nikma hosil qilish, umuman kompetentsiya tushunchasini singdirish nazarda tutiladi. Zero, bularning barchasi ta’lim olish jarayonidan boshlanadi.

Ta’lim-tarbiya sohasida asosiy universal kompetensiya unsurlarini anglab olish zamonaviy pedagogikaning eng asosiy muammolaridan biridir. Asosiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an’anaviy o‘zbek pedagogikasi me’yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo‘lib, hali yechilmagan masalalar talaygina. L.T.Xurvalieva: “Kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati”, – deb ta’riflaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, kompotensiya –kasbiy va maxsus kompotensiya turlariga bo‘linadi. **Kasbiy kompetensiya:** pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish; o‘z ustida ishlash; ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish; talabalar ehtiyojini anglay olishi; talabalarda motivatsiyani shakllantirish; ta’lim muhitiga yangilik kiritishi; o‘z fanini mukammal bilishi. **Maxsus kompetensiya:** talabalar ehtiyojini bilishi; turli yosh xususiyatlarini bilishi; ta’limni tabaqalashtirish; ta’limni individuallashtirishdan iboratdir[5-5]..

O‘qituvchida kasbiy kompotensiyani shakllantirish uchun: O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash, o‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash, o‘zini namoyon etish va kamchiliklarini bartaraf etish malakasiga ega bo‘lishi lozim. Shaxsiy kompetensiyasida esa: muloqotchanlik, bag‘rikenglik, yetakchilik, faol, tashabbuskor, moslashuvchan, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, mas’uliyat, ishchanlik, insonparvarlik, umummadaniy, ma’lumotli, madaniyatli, umuminsoniy qadriyatlarga egalik, milliy madaniyatga ega bo‘lish, mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish, boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishdir.

O‘qituvchi o‘zi agar mas’uliyatli, mahoratli va tajribaga ega bo‘lmasa, maktab jamoasi bilan ishlay olmasa, u qanday qilib o‘quvchilar o‘rtasida jamoa bo‘lib ishlash metodidan foydalana oladi. O‘qituvchi har bir dars mashg‘ulotlariga mas’uliyat bilan yondoshishi, pedagogik mahoratini ko‘rsata olishi, mashg‘ulot jarayonida oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishi, kompotensiyasini namoyish etishi maqsadga muvofiqdir.

O‘qituvchi o‘zining kasbiy va shaxsiy kompotensiyasini shakllantirishi va rivojlantirib borishi zarur. Chunki shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot–kommunikativ vositalar, texnikaning rivojlanayotganligi, sun’iy intellekt va boshqalar haqida bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishni talab etadi. Ta’lim-tarbiyada o‘qituvchi o‘zining kompotensiyasini namoyish qila olishi kerak. Ya’ni o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bugungi kun talabiga javob bera olishi darkor.

Har bir fan o‘qituvchisi ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi ekanligi unutmasligi lozim. O‘qituvchining yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o‘zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Zero, tizimdagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. Xalqimizning “Yoshlikda olingan bilim –toshga o‘yilgan naqsh” kabi dono bir naqli bunga misoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kalandarova T. Umumiy pedagogika o‘quv –majmua. Urganch 2020. [1-5]
2. https://yandex.ru/search/?text=mas%27uliyatt+nima&lr=21314&clid=2485192-19&win=629.[2-2].
3. https://uz.wiktionary.org/wiki/mahorat.[3-3].
4. https://uz.goodinternet.org/uz/sections/pedagoglar/talim-va-men/kompetensiya-nima/.[4-4].
5. https://muhaz.org/kompetensiya-tushunchasi-va-turlari.html. [5-5].

TABIIY VA ANIQ FANLARNING RIVOJLANISHIDA FIZIKA FANINING O’RNI

Botirjonova Sevinch

Jizzax davlat pedagogika universiteti Fizika va texnalogik ta’lim fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbari: Ergashev Jamshid, JDPU o’qituvchisi

Annotatsiya. *Fizika boshqa tabiiy fanlar kabi, bizni o'rab olgan moddiy dunyoning obyektiv xossalarini o'rganadi. Fizika materiya harakatining eng umumiy formalarini va ularning bir -birlariga aylanishlarini o'rganadi. Harakatlarning fizikada o'rganadigan formalari harakatning oliy va ancha murakkab bo'lgan hamma formalarida ishtirok etadi va ularni ajiratadigan qismidir.*

Kalit so'zlar: *Astrofizika, fizika-kimyo, kimyoviy fizika, fizik hodisa, fizik kashfiyotlar, fizik tajribalar, fizik jismlar, osmon jismlari, tabiiy fanlar, fizik omillar.*

Абстрактный. Физика, как и другие естественные науки, изучает объективные свойства окружающего нас материального мира. Физика изучает наиболее общие формы движения материи и их превращения друг в друга. Формы движения, изучаемые в физике, участвуют во всех высших и более сложных формах движения и являются частью их разделения.

Ключевые слова: Астрофизика, физико-химия, химическая физика, физические явления, физические открытия, физические эксперименты, физические тела, небесные тела, естественные науки, физические факторы.

Abstract. Physics, like other natural sciences, studies the objective properties of the material world that surrounds us. Physics studies the most general forms of motion of matter and their transformations into each other. Forms of motion studied in physics participate in all higher and more complex forms of motion and are part of their separation.

Key words: Astrophysics, physics-chemistry, chemical physics, physical phenomena, physical discoveries, physical experiments, physical bodies, celestial bodies, natural sciences, physical factors.

Fizika so'zi grekcha "physics" so'zidan kelib chiqqan bo'lib , u tabiat degan ma'noni anglatadi. Bu so'zni fanga birinchi bo'lib qadimgi yunon mutafakkiri Aristotel kiritgan. Fizika bilan ba'zi bir boshqa tabiiy fanlar orasida qat'iy bir chegara qo'yib bo'lmaydi. Fizika bilan kimyo orasida ularning ikkalasiga ham tegishli bo'lgan keng sohalar bor , hatto fizika-kimyo va kimyoviy fizika degan maxsus fanlar ham vujudga kelgan. Birmuncha xususiy xarakterdagi masalalarni o'rganishda fizik metodlardan foydalanuvchi bosim sohalari ham birlashib , maxsus fanlarni tashkil qiladi .Masalan, osmon jismlarida bo'ladigan fizik hodisalarni o'rganuvchi astrofizika va yer atmosferasi hamda yer qobig'ida bo'ladigan fizik hodisalarni o'rganuvchi geofizika fanlari shu tariqa vujudga kelgan.

The current development is most likely to be in favour of Smith's proposal. As Kirkpatrick pointed out, "the majority of English speakers are now multilingual people who have learned English and who use English to communicate with fellow multilinguals" (2007, p. 1). Negotiations between English and local languages are continuously at play. Even though developing countries struggle through economic and political inequalities, the awareness of the need for English remains strong. This might seem to be a form of linguistic imperialism, yet it is definitely not a simple one. The fact shows that people in developing countries "have their say" both through the emergence of new English varieties and the use of different languages for different purposes. This has become the basis for such a counter argument to a simple linguistic imperialism mindset.

Conclusion

The spread of English is no longer a simple result of migration or colonisation, rather it involves multiple reasons, backgrounds, and issues. In Indonesian context, McKay has put Indonesians as "unique in how they make use of English" (McKay, 2002, p. 37). It is appropriateness and negotiation in the use and function of English among other languages, both national and local ones, that is required. Ideally, the goal should be realisation of a "contemporary global linguistic ecology" a la Phillipson and Skutnabb-Kangas (1999, p. 20).

For centuries English has been being used for international communication in many countries. It is most widely used in communicating around the world. Now it has created its appeal all over the world and become a must for multilateral communication. So English is called an International Language.

REFERENCES

1. Achebe, C. (1975). Morning yet in creation day. New York: Doubleday. Appadurai, A. (1996). Modernity at large: Cultural dimensions of globalization. Minneapolis, Minnesota: University of Minnesota Press.
2. Arnett, J. J. (2002). The psychology of globalization. American Psychologist, 57(10), 774-783.
3. Bamgbose, A. (2001). World Englishes and globalization. World Englishes, 20(3), 356-363.

4. Bisong, J. (1995). Language choice and cultural imperialism: A Nigerian perspective. ELTJournal, 49(2), 122-132.
5. Burridge, K. (2004). Blooming English: Observations on the roots, cultivation and hybrids of the English language. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Dewi, A. (Forthcoming). Perception of English in Relation to Communication and Identity: A Study of Indonesian Lecturers, Teachers, and Tertiary Students.Journal of Asian Pacific Communication.Dornyei, Z., Csizer, K., & Nemeth, N. (2006). Motivation, language attitudes and globalisation: AHungarian perspective.Clevedon: Multilingual Matters.
7. Turaeva Shoira Mukhtarovna .Jizzakh State Pedagogical University. Anthropopragmatic Study Of Phraseological Units In Uzbek And English Languages October, 2022, № 6.
8. Turaeva Shoira Mukhtarovna. Jizzakh State Pedagogical University. "Analysis Of Some Pragmatic Aspects Of Phraseological Units". December 2022
9. Turaeva Shoira Mukhtarovna.Jizzakh State Pedagogical University. Importance Of Didactic And Psychological Principles In Teaching Foreign Language Teaching In Textbook. January, 2022, № 1.
10. Shoira M. Turaeva1, Madina B. Djuraeva2, Markhabo N. Ernazarova3, Elmira R. Jabborova4. The Role Of Instructive And Psychological Principles In Foreign Pedagogy . Journal Of Positive School Psychology 2022, Vol.6, No.4, 9478 – 9486.
11. Turaeva Shoira Muxtarovna. Jizzakh State Pedagogical Institute. Language, Learning And Teaching.12.01.2022.
12. Turaeva Shoira Muxtarovna. Jizzakh State Pedagogical Institute. Essential Approaches To Teaching Foreign Languages. May 20, 2022
13. Turaeva Shoira Muxtarovna. Jizzakh State Pedagogical Institute. Modern Pedagogical Methods To Teaching Foreign Languages. May 20, 2022
14. Turaeva Shoira Muxtarovna. Pedagogical Problems of Distance and Traditional Education. November,2022
15. Turaeva Shoira Muxtarovna. The Importance Of Didactics In Teaching A Foreign Language In Textbooks. Warsaw 2021.
16. Mamatkulova Munira Mukhtor Kizi, Turaeva Shoira Mukhtorovna, Hakimova Muhayyo Mukhtor Kizi. Uzbekistan Plans To Promote Social Work For The Welfare Of Vulnerabal. 12 (Dec 2021

INFORMATIKA VA UNI O‘QITISH METODIKASI FANINI O‘TISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIK VOSITALARNI QO‘LLASH

O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Informatika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
oktamovm03@mail.ru
Toshpo‘lotova Jasmina Nuriddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika mutaxassisligi 1-bosqich talabasi
jasminatoshpulotova06@gmail.com

Annotatsiya. *Bu maqola axborot texnologiyalari va uni o‘qitish metodikasida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchi tajribasini yanada oshirish va o‘qish jarayonlarini qiziqarliroq qilish maqsadida innovatsion usullarni qo‘llashga asoslangan.*

Kalit so‘zlar. *O‘qitish metodikasi, zamonaviy pedagogik texnologiya, interaktiv darsliklar, onlayn resurslar, hamkorlik aloqalari, individual o‘rganish.*

ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ ИНФОРМАТИКИ И МЕТОДИКИ ЕЕ ПРЕПОДАВАНИЯ

Ўктамов Мададжон Ўктам ўғли
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры «Информатика и методика ее преподавания»
oktamovm03@mail.ru
Тошпўлотова Жасмина Нуриддин қизи.
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Студент 1 курса факультета математики и информатики
jasminatoshpulotova06@gmail.com

Аннотация. *Данная статья основана на использовании информационных технологий и методики их преподавания с использованием современных педагогических технологий, использовании инновационных методов с целью дальнейшего улучшения опыта учащихся и повышения интереса к процессу обучения.*

Ключевые слова. *Методика преподавания, современные педагогические технологии, интерактивные учебники, онлайн-ресурсы, отношения сотрудничества, индивидуальное обучение.*

APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGICAL TOOLS IN PASSING THE SCIENCE OF INFORMATICS AND ITS TEACHING METHODOLOGY

O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz State Pedagogical Institute
Teacher of the department "Informatics and its teaching methods"
oktamovm03@mail.ru
Toshpo‘lotova Jasmina Nuriddin qizi
Shahrisabz State Pedagogical Institute
1st-year student of mathematics and informatics
jasminatoshpulotova06@gmail.com

Abstract. *This article is based on the use of information technology and the methodology of its teaching using modern pedagogical technologies, the use of innovative methods in order to further improve the student's experience and make the learning process more interesting.*

Key words. *Teaching methodology, modern pedagogical technology, interactive textbooks, online resources, cooperative relations, individual learning.*

Informatika va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘quvchilar bilimlarini yanada rivojlantirish va ularning o‘qish jarayonlarini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilar interaktiv darsliklar, onlayn ta’lim platformalari, videolar, dasturlar va qo‘llanmalar orqali o‘qishlarini oson va qiziqarli qila oladilar.

Informatika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning bir necha afzalliklari mavjud. Birinchidan texnologiyalar o‘quvchilarning g‘oyaviy fikrlash va muhokama qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv darsliklar, o‘quvchi bilimlarini sinash, masalalar yechish va amaliyotlar bilan ishlash imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. O‘quvchilar kompyuter dasturlari yordamida o‘zlarining

qiziqishlariga mos topadigan vazifalarni bajarish orqali o‘zlarining o‘zlashtirishni his qiladilar. Bu ularga o‘quv jarayonida qiziqish va qat'iyat bilan qatnashish imkonini beradi.

Uchinchidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonini individual va jamiyatdagi hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi. O‘quvchilar onlayn platformalar orqali boshqa o‘quvchilar bilan hamkorlik qila oladilar, fikr almashish va o‘zlashtirish imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qituvchilarga ham yordam beradi. Ular o‘quvchilarning natijalarini taqqoslash, baholash va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilishning asosiy vositalarini taklif qiladi. Bundan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning texnologik rivojlanishini ta’minlaydi va ularni global informatsion jamiyatining a’zolariga aylanishda tayyorlaydi. Shuning uchun informatika va uni o‘qitish metodikasini o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Ular o‘quvchilarning o‘qish tajribasini yanada yaxshilaydi, motivatsiyani oshiradi va ularning o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

Informatika va uni o‘qitish metodikasi fani o‘quvchilarga informatika asoslarini, dasturlashni, axborotlar tahlilini va boshqa informatika sohalarini o‘rganishga asoslangan. Quyidagi metodikalar informatika va uni o‘qitishda foydalaniladi:

-o‘quvchilarni informatika sohasidagi nazariy bilimlar bilan ta’minlash uchun nazariy darslar o‘tkazish kerak. Bu darslar o‘quvchilarga informatika asoslarini tushunchalarini, jarayonlarni tushuntirishga va bilimlarini oshirishga yordam beradi.

-informatika o‘qitishning asosiy qismi amaliyotlardir. O‘quvchilar dasturlash asoslarini o‘rganish, dasturlar yaratish, algoritmalarni yechish va muammolarni hal qilish uchun amaliy mashqlar bilan ta’minlanadi. Bu, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotlarga yo‘naltirish va o‘rganilgan bilimlarni amalda qo‘llash imkonini beradi.

-o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o‘rganishning nazariy bilimlarini amaliyotga o‘tkazish uchun loyihalar va proyektlar qo‘llaniladi. Bu o‘quvchilarga biror muammoga yechim topish, dasturlash loyihalarini yaratish, axborotlar tahlilini amalga oshirish va boshqa real hayot misollarini qamrab olish imkonini beradi.

-o‘quvchilarning qiziqtirishini oshirish va o‘rganish motivatsiyasini oshirish uchun interaktiv usullar qo‘llaniladi. Bu usullar darsliklar, interaktiv dasturlar, o‘yinlar, videolar, animatsiyalar va boshqa texnologiyalar orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini oshirishga yordam beradi.

-informatika va uni o‘qitishda ta’lim texnologiyalari intensiv tarzda qo‘llaniladi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning kompyuterlar, interaktiv dasturlar, ta’lim

platformalari, onlayn resurslar, kodlash platformalari va boshqa texnologiyalardan foydalanishlarini ta'minlaydi.

-informatika va uni o'qitish metodikasi o'quvchilarning individual qobiliyatlari va talablari bilan hisoblashni talab qiladi. O'quvchilarga qulaylik va qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, ularga o'zlarini o'rganish va rivojlantirishga imkon berish muhimdir.

-informatika va uni o'qitishda jamoaviy ishlash va guruh bilan ishlashga katta e'tibor beriladi. O'quvchilarni guruh bilan ishlash, jamoaviy dasturlash loyihalari yaratish, maslahatlashish va hamkorlik qilishga o'rgatish imkonini berish muhimdir.

Informatika va uni o'qitish metodikasi o'quvchilarga informatika asoslarini dasturlashni, axborotlar tahlilini va boshqa informatika sohalarini o'rganish maqsadida amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar informatika va uning o'qitish metodikalarini yanada kuchaytirish va o'quvchilarni qiziqtirish uchun muhim vositalardir. Bu texnologiyalar o'quvchilar bilimlarini o'rganish, amaliyotlarini rivojlantirish va o'zlashtirishini oshirishga yordam beradi. Quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan informatika fanini o'qitishda foydalanish mumkin:

-interaktiv darsliklar o'quvchilarga interaktiv animatsiyalar, audio va video materiallar orqali o'rganish imkonini beradi. Bu darsliklar o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va ma'lumotlarni yaxshi tushunishga yordam beradi.

-san'atkorlik platformalari o'quvchilarning kreativliklarini rivojlantirish va o'zlashtirishni oshirish uchun ideal vositalardir. Bu platformalar yordamida o'quvchilar dasturlash, grafika, animatsiya va boshqa san'atkorlik asoslari bilan tanishishlari mumkin. Bu texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning eng yaxshi ishlarini namoyish etish va ularga qo'shimcha motivatsiya berishga imkon beradi.

-internet orqali o'quv resurslaridan foydalanish o'quvchilarni o'zlashtirish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni beradi. Bu platformalar va onlayn resurslar o'quvchilar uchun interaktiv darslar, video darslar, amaliyotlar, testlar va boshqa ta'lim materiallarini taqdim etishda foydalaniladi. O'quvchilar o'zlariga mos keluvchi vaqtida o'rganishlari mumkin va o'qituvchilar ularga maslahatlar berishlari va boshqa imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin.

-virtual haqiqiylik o'quvchilarni ma'lumotlarni amaliyotlar orqali o'rganishga imkon beradigan texnologiyalardir. O'quvchilar virtual belgilangan muhitlar orqali amaliyotlar bajarishlari, tajribalar olishlari va ma'lumotlarni ko'rib chiqishlari mumkin. Bu, o'quvchilarni ma'lumotlarni yashirish, tajribalar olish va o'quv jarayonini qiziqarliroq qilishga imkon beradi.

-zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning qiziqtirishini oshirish uchun interaktiv va dinamik usullar taqdim etadi. Bu usullar orqali o'quvchilar

o‘zlarining o‘zlashtirishini oshirish, o‘rganishni o‘zlashtirish va o‘zlashtirishni ko‘proq amalga oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar informatika va uni o‘qitish metodikasini yanada effektiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Ularning foydalanishidagi asosiy maqsad o‘quvchilarning o‘zlashtirishini oshirish, qiziqtirish va o‘quvchilarning samaradorligini oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madadjon O‘ktamov. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." Science and Education 2.12 (2021): 202-211.

2. Uktamov, M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." Science and innovation 2.B9 (2023):

3. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering. European journal of innovation in nonformal education,2(2), 369-373.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIGA INFORMATIKA O‘QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Hamrayev Javlonbek Hoshim o’g’li
p.f.f.d (PhD) dotsent Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali
Email: hamrayevjavlonbek11@gmail.com

Annotatsiya. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligini samarali shakllantirish imkoniyatini nazarda tutib, biz nazariy asoslash va eksperimental tekshirishni talab qiladigan bir qator farazlari keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: texnologiya, axborot, amaliyotlik, interaktivlik, proyektlar, g'oyalar, mentorlik, masofaviy va boshqalar.

Abstract. Taking into account the possibility of effectively forming the readiness of the future technology teacher to use information technologies in the educational process, we have presented a number of hypotheses that require theoretical justification and experimental verification.

Keywords: technology, information, practicality, interactivity, projects, ideas, mentoring, remote, etc.

Аннотация. Принимая во внимание возможность эффективного формирования готовности будущего учителя технологии к использованию информационных технологий в образовательном процессе, мы представили ряд гипотез, требующих теоретического обоснования и экспериментальной проверки.

Ключевые слова: технологии, информация, практичность, интерактивность, проекты, идеи, наставничество, удаленность и т.д.

Kirish. Biz ushbu qoidalarni o‘qituvchining kasbiy faoliyatining ushbu sohasidagi muvaffaqiyatini ta’minlaydigan omillar deb hisoblaymiz. Didaktika nuqtai nazaridan bunday omillar "shartlar" atamasi bilan belgilanadi. Ma’lumotnoma adabiyotlarida bu atama biror narsa sodir bo‘ladigan muhit yoki ma’lum bir obyektning paydo bo‘lishi, mavjudligi yoki o‘zgarishi uchun zarur bo‘lgan jarayonlar, munosabatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Qoidaga ko‘ra, pedagogik tadqiqotlar "shartlar" tushunchasini talqin qilishning ikkinchi variantidan foydalanadi. Shunday qilib, masalan, O.F.Fedorova pedagogik sharoitda ta’lim mazmunining obyektiv imkoniyatlari, usullari, tashkiliy shakllari va uni amalga oshirishning moddiy imkoniyatlarini, qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishni ta’minlaydigan umumiyligini tushunadi[1-16].

Dissertatsiyaning ushbu paragrafida biz texnologiya o‘qituvchisining kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘rganishga tayyorligini shakllantirish sharoitlarini nazariy asoslash vazifasini qo‘ydik. Ushbu sharoitlar orqali biz tizimning obyektiv mazmuni va uni tayyorlashning jarayoniy imkoniyatlari yig‘indisini tushunamiz.

Ilmiy maqolalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, “sharoit” toifasi an’anaviy tarzda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan “atrof-muhit”, “vaziyat”, “holat” umumiy tushunchalari bilan bog‘liq holda o‘ziga xoslik sifatida qaraladi. Har qanday faoliyatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar ro‘yxatiga ba’zi mualliflar ham aqliy, ham umumiy pedagogik, ham didaktik muhitni, faoliyatga tayyorgarlik ko‘rishni ta’minlaydigan ularning umumiyligini o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchilarni tayyorlashning turli jihatlariga bag‘ishlangan pedagogik tadqiqot muammolarini tahlil qilish jarayonida biz pedagogik faoliyatga va uning alohida turlariga tayyorgarlikni shakllantirish uchun sharoitlarning bir nechta guruhlarini topdik: psixologik sharoitlar, pedagogik sharoitlar, psixologik-pedagogik sharoitlar, didaktik sharoitlar va boshqalar.

Sharoitlarni farqlashning yo‘qligiga qaramay, alohida tadqiqotlarda biz o‘qituvchining kasbiy faoliyatga tayyorgarligining har xil turlarini shakllantirish

shartlari va ma’lum metodologik yondashuvdan foydalanish o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratdik. Biz tomonidan o‘rganilayotgan ishlarda ko‘pincha tizimli-mazmuniy, shaxsiy-faoliyatli va integratsiyalashgan yondashuvlarga tayanish kuzatiladi.

Ta’lim muassasi talabalarini o‘qitishda tarmoq texnologiyalaridan foydalanishga kasbiy tayyorlikni bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining kelgusi kasbiy faoliyatiga yaxlit tayyorgarligining bir jihati sifatida hisobga olib, biz texnologiyani o‘qitishning yaxlit tizimida quyi tizim sifatida tayyorgarlikning ushbu jihatini shakllantirish jarayonini taqdim etamiz.[5-14]

O‘qituvchini o‘qitishda kompyuter telekommunikatsiyalaridan foydalanishga tayyorlash tizimini modellashtirishda biz tayanadigan izchillik va yaxlitlik tamoyiliga asoslanib, kasbiy faoliyatga tayyorlikni shakllantirish jarayonining barcha qismlari funksional bog‘liqlikda bo‘lishi kerak, bunda "har bir tizimning elementi boshqa element holatining natijasi bo‘lib, alohida elementning mustaqil mavjudligi mumkin emas va bir qismning o‘zgarishi boshqa qismlarning o‘zgarishiga olib keladi”.

Differensiallashgan professiogramma dasturida bo‘lajak o‘qituvchini kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga kasbiy tayyorlash maqsadini aniqlashtirish bizni texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni mazmunidagi elementlarni aniqlashni, ikkinchidan, uning maxsus, texnologik va metodik tayyorgarligini shakllantirishni taqozo qiladi. Tahlil jarayonida texnologiya o‘qituvchisi ta’lim mazmunida topilgan maqsad, mazmun va jarayon elementlari ushbu ta’lim muammolarini hal etish uchun yetarli emasligi aniqlandi, bizning maqsadimiz ushbu o‘quv muammolarini hal etish uchun yetishmayotgan elementlarni to‘ldirish edi.[3-52]

Biz tanlagan tayyorgarlik turini shakllantirish sharoitlarini aniqlash uchun biz, birinchi navbatda, ushbu tayyorgarlik tarkibining har bir elementini kasbiy tayyorgarlik maqsadining komponenti sifatida shakllantirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqladik.

Maqsadning har bir komponentini (ham yo‘naltirish, ham o‘rganish) hisobga olgan holda telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash mazmunini tanlaganimiz sababli, biz bunday yo‘nalish elementini shakllantirish o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini aniqlashni zarur deb hisobladik. Biz texnologiya o‘qituvchisining axborot tayyorgarligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan muayyan professional muhim jismoniy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyati muammosini hal qilish orqali ushbu munosabatlarning mavjudligini aniqlashga harakat qildik.[2-12]

Zamonaviy pedagogikada o‘rnatilgan ilmiy faktlar orasida inson faoliyatining samaradorligi bog‘liq bo‘lgan barcha xilma-xil shaxsiy xususiyatlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1) shaxsga xos bo‘lgan individual xususiyatlar unga kasbning muhim talablariga javob berishga imkon beradi;

2) yetishmayotgan sifatlar jarayonda rivojlanishi faoliyati yoki boshqalar tomonidan qoplanishi mumkin;

3) mavjud bo‘lmagan va bir vaqtning o‘zida yetarli darajada rivojlanib bo‘lmaydigan yoki to‘ldirilmaydigan fazilatlar. Bu holda zarur fazilatlarning yo‘qligi insonni ushbu kasbiy faoliyatga yaroqsiz holga keltiradi.

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini o‘qitishda kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish yo‘llarini topish uchun biz bir qator pedagogik ishlarni o‘rganib chiqdik, bu yerda biz ta’lim muassasida kasbiy-pedagogik yo‘nalishni shakllantirishning aniq ilmiy yo‘nalishini topdik. Ushbu davrda motivatsion majmuaning tuzilishi qayta quriladi, kasbiy yo‘nalishning mazmuni va dinamik xususiyatlari takomillashtiriladi. Ushbu qoidadan kelib chiqib, biz bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisida ta’lim muassasi talabalarini o‘qitish uchun kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalariga qiziqishini shakllantirishning aniq metodlarini izlay boshladik.

Shuningdek, tadqiqotchilar pedagogik yo‘nalishni shakllantirishning ikkita metodini ajratib ko‘rsatishini aniqladik:

- o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan qiziqish muayyan mutaxassislikka bo‘lgan qiziqishga aylanadi;

- muayyan fanga bo‘lgan qiziqish o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan ishtiyoqga aylanadi.

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining biz o‘rganayotgan kasbiy faoliyati sohasiga qiziqishini qanday shakllantirish muammosini hal qilishning bir qismi sifatida shuni ta’kidlash kerakki, bizning holatlarimizda o‘qituvchining e’tiborini shakllantirish jarayoni axborotdan, xususan, kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanish uning asosiy ta’lim bosqichlarida amalga oshiriladi.[4-33]

Xulosa. Bunday vaziyatda bizni qiziqtiradigan kasbiy yo‘nalishni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: birinchidan, texnologiya o‘qituvchisi kasbiga bo‘lgan qiziqish axborot va tarmoq asoslariga bo‘lgan qiziqishga aylanishi kerak, so‘ngra ushbu fanga bo‘lgan qiziqishdan ta’lim muassasi talabalarini o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy audiovizual didaktik vositalaridan biri sifatida kompyuter va kompyuter tarmog‘idan foydalangan holda o‘qitishga bo‘lgan qiziqish va xohishga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
2. Abduqodirov A.A. N.D.Mamatov va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T.: O‘qituvchi, 2002. – 133 b.
3. U.Yuldashev, R.R. Boqiyev, F.M.Zokirova “INFORMATIKA” Toshkent. 2002 yil.
4. Усаров Ж.Э. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини амалиётга жорий этиш: муаммо ва ечимлар // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2016. - № 6. – Б. 40-48.
5. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T. Noshir. 2009, 368 b.

AQLI ZAIF O‘QUVCHILAR SHAXSI VA IJTIMOIY MOSLASHUVI MASALALARI

Omonova Ra’no Alisher qizi
Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi
Telefon raqami:+998500082345
E-mail: ranoomonova367@gmail.com
Ravshanov Sobir Abdimalikovich
Guliston davlat universiteti doktoranti
Telefon raqami: +998999144472
E-mail: sobirravshanov3@gmail.com
Guliston davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi, Psixologiya fanlari doktori, professor, Xolnazarova Matluba Xolbo‘tayevnaning taqrizi ostida

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi aqli zaif o’quvchilarning rivojlanishi, shaxsini va shaxslararo munosabatlarini bilish faoliyati xususiyatlarini haqida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *Analizatorlar , idrok, ruhiyat, sezgi, abstraksiya, ko‘ruv , eshituv, taktil , ta’m bilish , hid bilish.*

ПРОБЛЕМЫ ЛИЧНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ С УМСТВЕННЫМИ ОБРАЗАМИ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности развития, личности и межличносных отношений студентов с органиченными интеллектуальными возможностями, участвущих в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *Анализаторы, васприятие, психика , интуиция, абстракция, зрение, сдух, осязание, вкус, обоняние.*

PROBLEMS OF PERSONALITY AND SOCIAL ADJUSTMENT OF MENTALLY DISABLED STUDENTS

Abstract: *This article discusses the characteristics of the development, personality and interpersonal relationships of students with intellectual disabilities participating in the educational process.*

Key words: *Analyzers, perception, psyche, intuition, abstraction, sight, hearning, touch, taste, smell.*

Deyarli har bir ta'lim bosqichida alohida e'tibor talab qiladigan o'quvchilar bor va bu bolalar har doim ham jismoniy nuqsonlari bilan imkoniyati cheklangan emas. Bundan tashqari, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning paydo bo'lishi ham mumkin. Bunday bolalar uchun dasturni umumiy asosda o'rganish ancha murakkab masala va ular ko'pincha o'rganishda orqada qoladilar va ular bilan individual-yakka darslarni talab qiladilar.

Dastavval rivojlanishida nuqsoni mavjud o'quvchining idrok, tafakkur hususiyatlariga to'xtalib o'tish darkor. Idrok — bu inson analizatori hisoblanadi. Shu bilan birga analizatorlar sistemasiga bevosita ta'sir etuvchi, narsa yoki hodisalarning butunligicha va ularning turli xil xususiyatlarini o'zaro aloqasining shakllanish jarayonidir. Idrok bu- turli – tuman sezgilar asosida shakllanadi.

Psixologiyada idrok quyidagi turlaraga bo'linadi;

- Ko'ruv
- Eshituv
- Taktil
- Ta'm bilish
- Hid bilish

Idrokning barcha turlarida harakatlanish sezgirligi muhim o'rin tutadi ammo bularni inson ko'pincha idrok etmaydi. Idrok etishda nutq katta ro'l o'ynaydi. Narsa va hodisalarning so'zlar bilan ta'riflanishi, ular o'rtasidagi mavjud o'zaro aloqalarni ta'minlanishini, abstraksiyasi bilan umumlashtirib idrok etilayotganlarning mazmunining ochilishiga yordam beradi.[1]

Idrokning obyektiv faoliyati bu inson faoliyatining ilgarilanganligidir. Shu bilan birga faoliyat, amaliyot, idrokning rivojlanishiga, harakatlarning to‘g‘ri va to‘la to‘kis aks etishiga yordam beradi. Aqli zaif bolani ruhiyati o‘ziga xos sistemani aks ettiradi va turli nuqsonlari bilan rivojlanishda orqada qolishlarini to‘laligicha faoliyatning ruhiy jarayonlariga ta’sir etadi. Bu holat idrokka ham talluqligi isbotlangan.

Aqli zaif o'quvchilarning ko'ruv idroki hozirgi kunda eng ko‘p o‘rganilgan idroki hisoblanadi.[2] Bu ko‘rish analizatori boshqalariga nisbatan atrof-olam haqidagi turli xil axborotlarni olishga yordam beradi. Ko’rish orqali idrok etish — juda murakkab ish bo‘lib, bu jarayonda ko‘pgina qo‘zg‘atuvchilar ko‘zga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Idrok etishda analiz qanchalik aniq va tiniq bo‘lsa, shuni bilingki sezish shunchalik sifatli, kuchli, to‘la va aniq bo‘ladi. Ular qo‘zg‘atuvchilarga differensial aks ettadi. Inson idrokning asosiy turlaridan yana biri teri-tuyishi hisoblanadi. Sezgi sistemasi teri-tuyishni shakllantirishini ta’minlaydi. U o‘z ichiga teri (taktil, harorat) va kinestetik analizatorlarini qamrab oladi. Teri-tuyish organi bu qo‘l hisoblanadi. Teri-tuyish orqali boshqa analizatorlar orqali olinadigan axborotlarni aniqlashadi, kengaytirib, chuqurlashtiriladi. Bundan tashqari, ba’zi obyektlarning muhim xususiyatlari ko‘rish bilan eshitish va hid bilish idrok etishga bo‘ysunmaydi. Bularga buyumning harakati , uning og’irligi, fakturasining bazi sifatlari kiradi. Ularni sezish va aniqlash uchun teri- tuyush kerak bo’ladi. [3]

Aqliy zaiflik - tug'ilishdanoq darhol aniqlab bo‘lmaydigan kasallik. Uning birinchi namoyon bo‘lishi chaqaloq bolalar bog‘chasiga borganida, ba’zi hollarda esa keyinroq seziladi. Ammo agar miya shikastlanishi haqiqatan ham kuchli bo‘lsa, unda siz chaqaloqning hayotining birinchi yillarida sezilarli rivojlanish kechikishlarini sezishingiz mumkin. Lekin Agar aqliy zaiflik haqida gapiradigan bo‘lsak, u asosan maktab yoshida o‘zini namoyon qiladi. Ho‘sh aqli zaiflik qanday hollarda yuzaga keladi. Jumladan:

- irsiy kasalliklar
- ilk bolalik davridagi tashqi ta’sirlar
- TORCH infeksiyasi ta’siri
- irsiyat
- qirq besh yildan keyin onadan tug‘ilgan bolalarda
- noqulay homiladorlik.
- bola tug‘ish vaqtida jarohat olishi
- miya membranalarida turli xil yallig‘lanishlar
- Intellektning buzilishi
- Xomiladorlik vaqtidagi jarohatlar

Aqli zaif bolalar bilan ishlash faqat uning ahvoli haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lgandan keyingina boshlash mumkin. Shunday qilib, agar sizning oldingizda yengil aqliy zaif bola bo‘lsa, u bilan ishlash juda oddiy bo‘ladi. U kamdan-kam hollarda tengdoshlari bilan muloqot qilishda muammolarga duch keladi, bunday bolalar o‘z-o‘zidan materialni o‘rganishi mumkin, lekin bolalarning asosiy qismi kabi emas. Ammo shunga qaramay, ular umumiy ta’lim maktablarida muntazam mashg‘ulotlarda qatnashadilar. Hayot davomida bu tashxis hech qayerga ketmaydi, lekin odamlar normal hayot kechirishi, korxonada ishlashi, do‘stlari va oilasi bo‘lishi mumkin. Ehtimol, ba’zida ularga tashqi yordam kerak bo‘ladi, lekin yaqin odamlar ularga mutaxassislarni jalb qilmasdan yordam berishlari mumkin. [4]

Aqli zaif bolalar maktabida asosiy faoliyat turi o‘qishdan tashqari, mehnat faoliyatidir. Topshiriqlar ruhiy rivojlanish nuqsonlarini korreksiyalash uchun shart-sharoit yaratadi. Oligofren o‘quvchilar asosan kichik maktab yoshida o‘quvchilar qo‘yilgan maqsad asosida o‘z xatti-harakatlarini boshqara olmaydilar. Ular mehnat faoliyatiga uni tahlil qilmagan holda kirishadilar. O‘quvchilar vazifani maqsadiga tushunmay, harakat rejasini tuzmay bajaradilar. Vazifani bajarishda aqli zaif bolalar murakkab faoliyatdan oson faoliyatga o‘tib ketadilar, ishga qiziqish bilan yondashmaydilar, ishni nomigagina bajaradilar. Aqli zaif bolalar o‘z imkoniyatlarini adekvat baholay olmaydi. Ular odatda har qanday ishni bajarishda faoliyat usuli — operatsion tartibni bilmasdan urinadilar. Aqli zaif o‘quvchilar o‘z faoliyat natijalariga tanqidiy yondashmaydilar. [3]

Aqliy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalash ba’zan qiyin va mashaqqatli bo‘lishi mumkin, lekin eng yaxshi harakat bilan bu juda qiyin vazifa bo‘lishi mumkin. Ushbu tashxisga ega bo‘lgan bolalarga birinchi navbatda qiyinchilik tug‘diradigan narsa - bu gapirish. Ular uchun gapirishni o‘rganish juda qiyin, shuning uchun ular ko‘pincha nimani xohlashlarini yoki xohlamasligini tushuntirish uchun turli imo-ishoralardan foydalanishlari kerak. Bu muammo ularning og‘zaki nutqini juda murakkablashtiradi va tengdoshlar bilan muloqot qilish imkonini bermaydi. [5]

Yuqorida aytib o‘tilganidek, bunday bolalar uchun do‘st topish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki ular boshqa bolalar nima haqida gapirayotganini, ulardan nimani olishga harakat qilishlarini har doim ham tushunmaydilar. Shu sababli, ular yolg‘iz qolishlari, turli xil ochiq o‘yinlarda qatnashmasliklari mumkin, chunki ular intellektual qobiliyatlari tufayli o‘yin qoidalarini tushuna olmaydilar. O‘quv jarayonida katta qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Axir, bolalarda nafaqat ma’lumotni ko‘paytirish qobiliyati, balki uni assimilyatsiya qilish qobiliyati ham buziladi. Ularning tafakkuri unchalik rivojlanmagan, boshqa bolalar kabi maktabda berilgan barcha materialni

o‘zlashtira olmaydi. Shuning uchun ular ko‘pincha individual mashg‘ulotlarga o‘tkaziladi va o‘qituvchilar ular bilan maxsus dastur bo‘yicha ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, aqli zaif o’quvchilarni idroki maktabda va o’quv jarayonida o‘qtuvchilarning bergan bilimlari orqali sezilarli darajada o‘sishi uchun kerak bo‘lgan zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ularga turli xil metodlardan foydalangan holda aqlini, idrokni shuningdek bilish jarayonlarini rivojlantirish ishlarini olib borish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Maxsus psixologiya: o‘quv qo‘llanma / L.R. Mo‘minova, va boshqalar; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. - 272 b [1, 3-67-68 bet]

2. N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya. (Tiflopsixologiya). (Darslik). –.: “Barkamol fayz media”, 2017, 192 bet. [2,4-181-183 bet]

3. Adizova S. “O‘qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari». — T., 2002.

учащихся вспомогательной школы. — T., Ук,итувчи, 1986.

3. Ayupova M. Logopediya. — T., 2011. L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova,

4. M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova ,,Maxsus Psixalogiya” Toshkent -2013.[5-20-22].

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING AXBOROT XAVFSIZLIK KOMPETENSIYALARI KOMPONENTLARI

Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna

Professional ta’limni rivojlantirish instituti professori v.b., P.f.d. (DSc)

Akbaraliyev Shahboz Shavkatjon o‘g‘li

Professional ta’limni rivojlantirish instituti mustaqil izdanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada axborot xavfsizligi bo‘yicha, bo‘lajak harbiy mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyati uning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi, agar jamiyat va uning o‘zi o‘z kasbiy funksiyalarini amalga oshirishda axborotni axborot tahdidlaridan himoya qilish rejimini to‘liq ta’minlashni tan oladi.*

Tayanch so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, mezonlar, potensial, ixtisoslik, integratsiyaviy, professional, axborot-tahliliy, interaktiv, kognitiv, axborot-texnologik, tahliliy faoliyat, Refleksiv.*

Аннотация. *В статье об информационной безопасности профессиональная успешность будущего военного специалиста является характерной особенностью его профессиональной деятельности, если общество и он сам в полной мере обеспечивают режим защиты информации от информационных угроз при выполнении своих профессиональных функций.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, критерии, потенциал, специализация, интегративная, профессиональная, информационно-аналитическая, интерактивная, когнитивная, информационно-технологическая, деятельностно-аналитическая, рефлексивная.*

Abstract. *In the article on information security, the professional success of a future military specialist is a characteristic feature of his professional activity, if society and he himself fully ensure the regime of information protection from information threats in the performance of his professional functions admits.*

Key words: *professional competence, criteria, potential, specialization, integrative, professional, information-analytical, interactive, cognitive, information-technological, activity-analytical, reflexive.*

Zamonaviy ta'lim tizimi davlat ta'lim standartlarida belgilab berilgan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda zamonaviy o'qitish jarayoni kasbiy kompetensiyalarga asoslanib olib borilmoqda. Davlat ta'lim standarti asosida barcha ta'lim yo'nalishlarida mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini tegishli darajada rivojlantirish mezonlari belgilab berilgan. Bugungi kunda mutaxassislar tomonidan hal qilinadigan vazifalar doirasini kengayishi, mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan asosiy talablarning o'zgarishi natijasida bo'lajak harbiy mutaxassislarning shaxsiy potensialini oshirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi va bu ko'p jihatdan ta'limning samarali tashkil etilishiga asos bo'ladi. "Ta'lim natijalarini tavsiflash uchun kompetensiya vositalaridan foydalaniladi". Shu jihatdan muayyan ixtisoslik bo'yicha bo'lajak harbiy mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarbligini oshib borishiga xizmat qiladi.

Bo'lajak harbiy mutaxassislarning axborot xavfsizligi kasbiy kompetensiyasning mohiyati – axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligining turli sohalarida jangovar vazifalarni hal qilishga qaratilgan ishlab chiqarish hamda kasbiy ahamiyatga moyillik vazifalarini bajarish bilan tavsiflanib, bo'lajak harbiy mutaxassisning o'z sohasi, ijtimoiy ahamiyatini angashi, davlat xizmatining maqsad va ma'nosini tushunib yetishi, tafakkur madaniyatining yuqori bo'lishi uning kasbiy va maxsus kompetensiyasi majmuini tashkil etadi.

Bo'lajak harbiy mutaxassislarning axborot xavfsizligi kasbiy kompetentligining shakllanish mohiyatida o'zaro ta'sir jarayoni mavjud bo'lib, bunda mutaxassislarning kelajakdagi kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat mavjuddir. Bunda doimiy o'zgaruvchan sharoit va muhitda shaxsning integratsiyaviy sifati ya'ni o'zini o'zi rivojlantirishga, kasbiy vazifalarni samarali bajarishga shayligini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish

jarayoni tushuniladi.

Axborot xavfsizligi bo‘yicha, bo‘lajak harbiy mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyati uning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi, agar jamiyat va uning o‘zi o‘z kasbiy funksiyalarini amalga oshirishda axborotni axborot tahdidlaridan himoya qilish rejimini to‘liq ta’minlashni tan oladi. Bunday faoliyatning asosi mutaxassisning professional muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga tayyorligidir. Bunday holda, tayyorgarlik mutaxassisning axborot-tahliliy, dizayn, texnologik, interaktiv va aks ettirish funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta’minlashi kerak. Shunday qilib, axborot xavfsizligi bo‘yicha bo‘lajak harbiy mutaxassisning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatiga tayyorligi uning shaxsiyatining integral xususiyati, muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat funksiyalariga mos ravishda ajratilgan tizimni tashkil etuvchi tarkibiy qismlardir.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik - bu bilim, ko‘nikma va ijobiy munosabat hisoblanib, axborot xavfsizligi bo‘yicha bo‘lajak mutaxassisning tayyorgarligi kasbiy kompetensiyalardan tashqari, turli mutaxassisliklarga oid bir qator boshqa narsalarni ham o‘z ichiga olishi kerak. Muammo shundaki, kasbiy tayyorgarlik jarayonida bunday kompetensiyalarga yetarlicha e’tibor berilmaydi, mutaxassislar qo‘shimcha kompetensiyalarni mustaqil ravishda, o‘z tajribasi yoki qo‘shimcha ta’lim olish orqali egallashlari kerak. Kasbiy ta’lim olish jarayonida bo‘lajak harbiy mutaxassis ma’lum shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish orqali muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlanishi mumkin. Bunda analitik faoliyatga tayyorgarlik tarkibi o‘zaro bog‘liq komponentlarni o‘z ichiga oladi: motivatsion, kognitiv, axborot-texnologik, refleksiv funksiyalar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan (qidirish, qayta ishlash axborot), axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligi, xususiyati, yetakchi turi va vositasi.

Motivatsion kognitiv qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi, mustaqil ta’limga bo‘lgan ehtiyojni belgilaydi va kelajakdagi faoliyat uchun motivlarni o‘z ichiga oladi: odamlar bilan ishlash istagi, o‘z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunish, sevimli mavzu bilan shug‘ullanish imkoniyati, qiziqish, aqliy mehnat ifodalaydi.

Kognitiv aqliy operatsiyalarning nazariy asoslarini bilishni nazarda tutadi: tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, analitik qobiliyatlarning mohiyatini bilish; ma’lumotlar bilan ishlashda harakatlar algoritmini aniqlash uchun analitik ko‘nikmalarga asoslangan kasbiy faoliyat funksiyalari haqida bilim; ma’lumot bilan ishlashda harakatlar algoritmini aniqlash uchun o‘qish turlari haqida bilim (maqsadni belgilash). Tayyorgarlik tarkibidagi kognitiv komponent kasbiy faoliyat funksiyalari to‘g‘risidagi bilimlar uchun javobgardir, bu axborot xavfsizligi bo‘yicha bo‘lajak harbiy mutaxassislarning professional funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarishga qaratilgan harakatlarini ifodalaydi.

Faoliyat tahliliy faoliyatning ahamiyatini anglash, tahliliy ko‘nikmalarning mohiyati, shuningdek, axborotni qayta ishlash uchun foydalaniladigan o‘qish turlari. Kognitiv komponent kasbiy tayyorgarlik jarayonida to‘plangan bilimlarni yangilash, kengaytirish va oshirishni belgilaydi. Kognitiv komponent ko‘rsatkichlarini

shakllantirish natijasi analitik ko‘nikmalarning kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini anglash, kasbiy faoliyat funksiyalarini aniq tushunishdir.

Axborot-texnologik bilan ishlash qobiliyati, kasbiy faoliyatda analitik operatsiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi: ma’lumotlarni tahlil qilish, tasniflash, umumlashtirish, faktlarni guruhlash, mavjud ma’lumotlarga asoslanib xulosalar chiqarish, vaziyatni bashorat qilish va olingan faktlar bo‘yicha mulohaza yuritish qobiliyati. Analitik faoliyatga tayyorgarlik tarkibida texnologik komponentning mavjudligi kasbiy faoliyatning funksiyalari bilan tavsiflanadi, chunki u kasbiy faoliyat vositasi - tahliliy ko‘nikmalardan foydalangan holda ma‘lumotlarni qidirish, to‘plash, tahlil qilish, qayta ishlash, kodlash va dekodlashni nazarda tutadi, katta hajmdagi yangi ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va sharhlash. Ushbu komponent bir butun elementlarni parchalash va birlashtirish, ular o‘rtasida munosabatlarni o‘rnatish va keyinchalik amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini aks ettiradi.

Oliy ta’lim davlat ta’lim standartlari va malaka talablari hamda kasbiy faoliyatning funksiyalarini tahlil qilish asosida, tahliliy faoliyat axborot xavfsizligi bo‘yicha bo‘lajak harbiy mutaxassislar uchun yetakchi faoliyat ekanligi aniqlandi. Kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari axborot muhitida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, axborot xavfsizligi bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatida aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tahliliy faoliyatga tayyorgarlik tarkibidagi axborot komponenti ta’kidlanadi.

Refleksiv bo‘lajak harbiy mutaxassis o‘z harakatlarini tahlil qila olishi, o‘z faoliyati natijalarini, to‘plangan tajribani va vaziyat haqida fikr yurita olishini nazarda tutadi. Shunday qilib, refleksiv komponent o‘z harakatlarining natijalarini obyektiv baholashga va o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish orqali o‘zini o‘zi takomillashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, refleksiv komponentning samarali xarakteristikasi axborot xavfsizligi bo‘yicha bo‘lajak harbiy mutaxassislarning harakatlarini tahlil qilish va aks ettirish asosida ularning tahliliy faoliyatiga tayyorligini, o‘z-o‘zini baholashdir.

Axborot xavfsizlik sohasidagi bo‘lajak harbiy mutaxassislarni tayyorlash va o‘qitish vositalari tahlili jarayonida o‘quv bazalarini tizimli ravishda zamonaviy texnologik vositalar asosida rivojlantirish, qo‘shinlarga resurslarni tejovchi o‘qitish texnologiyalari hamda ijtimoiy tejamkor o‘quv texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy trenajorlar ba’zasini yaratish orqali mutaxassislarni kasbiy kompetensiyasi samaradorligining oshirilishiga xizmat qiladi. Axborot xavfsizligi bo‘yicha bo‘lajak harbiy mutaxassislarning asosiy faoliyati mazmuni tahlilida ularda shakllanayotgan har bir kompetensiya turi mutaxassisning faoliyatida birdek ta’sir omiliga ega ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva. Sh., Axatova. D.A Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004-y.

2. Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. –B.: Durdona, 2019

3. Д.Р.Рахматуллаева Содержание, формы и методы подготовки учащихся профессиональных колледжей к предпринимательской деятельности/ «Проблемы современного образования». –М.: 2017, -№ 1. -С. 99-104.

4. D.R.Raxmatullaeva Formation enterprise competence at future businessmen / SCIENCE, RESEARCH, DEVELOPMENT #15// Economy. Management. State and Law. –Rotterdam. Голландия. 2019, -P 24-26.

5. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma T:.Fan va texnologiya 2012-yil

6. Ochilov M.. Muallim qalb me’mori. O‘quv qo‘llanma T :.O‘qituvchi. 2004-yil.

7. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

8. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. T.: OPI, 2003.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

9. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB“ ASARIDA AHOLINING MUAYYAN IJTIMOIY QATLAMINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Adilova Shoxista Tohirovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
adilovashohista80@gmail.com

Annotatasiy: *ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi aholining muayyan bir qatlamini ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy leksik birliklari va uning bugungi kundagi ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilgan. Bu fikrlar "Mahbub ul-qulub" asarining leksikasini tahlil qilish orqali o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *mudarris, mutrib, mug'anniy, atibbo, huffoz, kotib, dabiriston ahli, ahli nujum.*

Abstract: *"Mahbub ul-Qulub" that represents a certain stratum of the population and its importance today. These thoughts were expressed by analyzing the lexicon of the work "Mahbub ul-Qulub". Abstract: this article describes the socio-political lexicon of Alisher Navoi's work*

Key words: *mudarris, mutrib, mughanni, atibbo, huffaz, katib, ahli of Dabiristan, ahli nujum.*

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida aholining muayyan qatlamini ifodalovchi so'zlar ko'p qo'llanilgan bo'lib, ular xalqning ijtimoiy hayot tarzi, kasbi kabi faoliyatining barcha qirralarini qamrab olgan. Shunga mos holda asardagi fasllar nomlangan. Navoiy asarning yettinchi faslini "Buzuq va yomonliq ortidan kun kechiruvchi, bahodirlik lofin urganlar haqida" deb nomlagan.

Bu faslda Navoiy aniq kasb egalarini nazarda tutmagan bo'lsa-da, parchada qo'llanilgan maqtanchoqlik, bezash, mastlik, ichkilik ichish, lof, kosagullik, soqiylik, to'bichoq chekreturlik kabi so'z va so'z birikmalaridan shoir yashagan davr ijtimoiy-siyosiy muhiti to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

Asarda aholining muayyan qatlamini ifodalovchi so'zlarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Mudarris - (arab. – dars beruvchi) – madrasa o'qituvchisi. Mudarrislar o'qitiladigan muayyan fandan dars bergan. Hozir xorijiy Sharq mamlakatlari, shuningdek, O'zbekistondagi madrasa va diniy universitetlarda faqat diniy ilmlardan emas, dunyoviy fanlardan dars beruvchilar ham mudarris deb ataladi.

Mudarrislar haqida asarning "Mudarrislar zikrida" deb nomlanuvchi o'n to'rtinchi faslida ma'lumot berilgan

Atibbo - tabib so'zning ko'pligi, tabiblar ma'nosida. Asarda tabiblarga bag'ishlangan "Atibbo zikrida" deb nomlanuvchi fasl bo'lib, unda "*Tabibg'a o'z fanida hazoqat kerak va bemorlar holig'a shafqat va marhamat kerak. Va nafsi tibg'a tab'i muloyim va hukamo qavlig'a payrav va mulozim. So'zida rifqu diljo'yluq va o'zida ozarmu xushxo'yluq"* deb ta'rif beriladi.

Kotib (arab. – yozuvchi) – 1) turli qo'lyozmalarni ko'chirish ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs; mirza, xattot;

2) muassasa, idora, tashqilot yoki ayrim shaxs (yirik olim, yozuvchi, davlat arbobi) ning yozishmalarini olib boruvchi xizmatchi; 3) xizmatchi, korxona i. ch. ini olib boruvchi shaxs;

4) majlis va kengash qarorini yozib boruvchi shaxs;

5) ilmiy muassasalar (ilmiy Kotib), tahririyatlar (mas'ul kotib) va b. da kundalik ishlarga raqbarlik qiluvchi shaxs. Alisher Navoiy kotib so'zini birinchi ma'nosida, ya'ni turli qo'lyozmalarni ko'chirish ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs; mirza, xattot ma'nosida qo'llagan.

Dabiriston ahli – bolalarga yozishni o'rgatuvchilar. Asarda ularga bag'ishlangan fasl bo'lib, Navoiy ularni quyidagicha ta'riflaydi: *Maktabdor, xususiy maktab egasi, dars beruvchisi gunohsiz bolalarga jafokor. Go'daklar azobiga, go'daklarni azoblashga o'rganib qolgan, xohishi baland va ularga jazo berishga, gunoh ish qilishga otlanuvchi, urunuvchi zoti murosasiz, kelishishni istamovchi, hech narsadan tortinmaydigan, dimog'i po'lod, gapga ko'nmaydigan, qaysar va ko'ngli qattiq – tosh. G'azabdan qoshida chin – tirishish, burishish, ajin. Gunohi yo'qlar bilan muomalasi xashu kin, qo'pollik.*

Huffoz – hofizlar degani. Navoiy ularni "Hofizgakim, yaxshi ta'limot va ado bila tilovat bo'lg'ay, tinglovchi, eshituvchilarning ruhiga osoyish va jonig'a halovat bo'lg'ay. Agarki yoqimli ovoz bularga yordur eshitkuvchi sohibi hol, hol egasi, so'fiylar bo'lsa, ishi qiyindir" deb ta'riflaydi.

Mutrib va mug'anniy – ashulachi va cholg'uchi. Asarda bular uchun ham o'rin ajratilgan bo'lib, Navoiy ularni quyidagicha tavsiflaydi: *shodlikni, quvonchni oshiruvchi cholg'uchi, qayg'uni ketkazuvchi ashulachi – ikkalasiga dardu hol ahli jon qilur fido.*

Ulki ko'rguzgay muloyim taronayu nag'ma, nag'am, agar eshituvchining hayoti naqdi, hayotining eng sara vaqti anga fido bo'lsa ne g'am. Ko'ngil quvvati – yaxshi cholg'uchidan, ruh quti, o'sishi – yoqimli ovoz ashulachidan dard ahlining o'ti tezdir. Agar malohati bo'lsa, chiroyli husni bo'lsa hol ahliga g'avg'o, to'polon, qiyomatdir.

Qissasoz va qissaxon – Navoiy asarda ularga *qissasoz, doston to'quvchi – bekor, ishining tayini yo'q va qissaxon – doston aytuvchi behuda, bema'ni gaplarni gapiruvchidir. Har biri ma'jun, nashavand yo bangi, ko'nglida aning ma'rakasi – janjali shovqini* deb ta'rif beradi.

Nasihat ahli va voizlar – Navoiy ular haqida shunday fikrlarni bildiradi: *Voiz, va'z aytuvchi, bir kishiga, jamoatga pand-nasihat qiluvchi shunday bo'lishi kerakki, "qolalloh – Alloh dedi" so'z aytsa, va "qola rasulullo – Allohning rasuli, ya'ni*

Payg'ambar dedi" muxolafatidan, qarama-qarshiligidan, kelishmovchiligidan, teskarilashishidan qaytsa, Xudo va rasul yo'liga qadam ursa, qadam bossa.

Ahli nujum – yulduzlar yo'lini o'rganuvchilar. Asarda ular to'g'risida shunday fikrlar bildirilgan: *Munajjimki, turg'un, bir joyda turuvchi, qo'zg'almas yulduzlar va kezuvchi sayyoralar kuzatuvidan, nazoratidan hukm surar, nuqta va chiziqlar chizib fol ochuvchidekki, nuqtalari hisobi bilan lof urar. Ziji – yulduznoma, yulduzlar jadvali hech narsa, tushuntirish, anglatishi va taqvimi – g'alat taqsim, jadvali chalg'ituvchi, xato, yanglish hisob va usturlobi yulduzlarni kuzatuvchi asbobi yaqinidan qochish, uzoqlashish lozim bo'lgan narsa va oyning yuksakligi haqidagi gaplari befoyda va mevasiz, hosilsiz.*

Tijorat ahli – oldi-sotdi odamlari. *Bordi-keldili, yurt kezar, oldi-sotiqchi mamlakatlar va shaharlar holidan xabardor, ajoyibliklardan afsona aytuvchi va qiziqliklardan gapirishda tengi yo'q. Tog'lar toshi va dashtu cho'l qumiga tuya surgan, daryolar, dengizlar to'lqinlari taloto'midan foyda va zarar ko'rgan. Halol turmush kasbi ortidan uzoq yo'llarni bosib o'tgan, jamiyatning ochiq ko'rinib turgan va yashirin talablari, istaklari, parishonlig'lari, tarqoqliklariga aqli yetgan.*

Olibsotquchi – olibsotar. Asarda Alisher Navoiyning bu toifadagi kishilarga munosabati quyidagicha aks etgan: *Shahar savdogari, olibsotari xiyonatchi, o'ziga foyda va musulmonlarga qimmatchilik, qahatchilik istovchidir. Elga ziyon yetkazish uning niyati, o'ng'oy olib, og'ir sotmoq, arzon olib, qimmat sotmoq uning maqsadi.*

Kosib – [a. – kasb qiluvchi, o'rganuvchi, hunarmand] Qo'l ishi bilan shug'ullanuvchi hunarmand. 2. Oyoq kiyimi (etik, mahsi va sh. k.) tikish bilan shug'ullanuvchi hunarmand.

Hunarvar va san'atpardoz – daydi otarchi va usta san'atkor.

Shahna va zindoniylar va asaslar – qamoqxona qo'riqchilari, tungi soqchilar va mirshablar.

Yatim va laimlar – bezori va pastkashlar.

G'arib va benazo – musofir va chorasizlar. Navoiy bu atamalarni o'z davrida ko'chmanchilik bilan turmush kechiruvchi lo'lilarga nisbatan qo'llagan: *Jut va lo'lining ko'pragi, ko'pchiligi masxarabozlik, masxara o'yini, kuldiruvchi va harakatlari ularning kundalik turmushi yashash odati. Bir joyda yashasalar oyoq ostida qolib ketadilar, bosh egib yurmoqlarida beg'amlik hammaga, hamma narsaga bee'tiborlig' paydo bo'lgan. Manmanlik, takabburliklari yuziga tezak solib chamanvar va insoniyatliqlari doirasi maymunlari, o'yinlariga chanbar, boshiga gultoj.*

Mubrim gado – shilqim, orsiz gado.

Qo‘shchi va sayyod – qushchi va ovchi. Navoiy bu haqida shunday yozadi*: Qushchi – qush uchirib ov qiluvchilar, ov qushlariga xo‘jayin va hukmron, bu jamoat anga xizmatda va farmoniga bo‘ysunuvchidir.*

Mashoyix – shayx. Hikmatli so‘zlarni aytib o‘tgan ulug ota- bobolar.

Yana ham avliyoi ogoh va mashoyix va ahlulloh borkim, bularga kalomi adosin va haqoyiqi ma’nosin mustahsan bilubdurlar. (Mahbub ul- qulub, 23-24);

Kotib – yozuvchi. Turli qo‘lyozmalarni ko‘chirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs; mirza, xattot.

Kotib shuaro so‘zining varaqnigoridur va so‘z maxzanining xazonadori. Xozin hunari amonat bo‘lur va tasrrufi xiyonat bo‘lur. (Mahbub ul-qulub, 25-26);

Muharrir – ozod etuvchi; tahrir qiluvchi; yozuvchi.

Muharrirki, tahriri tuz – pisandidadur, agar bir bayt bitur, agar yuz. Agar xat surati noxushdur, ma’ni xayli andin mushavvashdur. (Mahbub ul-qulub, 25-26);

Maktabdor – o‘qitish, tarbiyalash bilan shug‘ullanuvchi kishi. Arabcha maktab otiga, fors-tojikcha doshtan fe’lini dor hozirgi zamon asosini qo‘shish asosida hosil qilingan.

Maktabdor begunoh ma’sumlarga jafokor. At’fol azobig‘a rog‘ib va alar tadbig‘ig‘a murtakib. (Mahbub ul-qulub, 26-27);

Shogird – o‘rganuvchi, xalfa; izdosh; o‘quvchi.

Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar andin ustod rozidur – Tangri rozidur. (Mahbub ul-qulub, 26-27);

Hofiz(hafiz, vasiy) – musulmonlar tarafidan Qur’onni butunlay yodlab olgan insonlarga nisbatan qo‘llaniladigan atama.

Hofizgaki, yaxshi mahzaj va ado bila tilovat bo‘lgay, mustame’larning ruhiga andin osoyish va jonig‘a halovat bo‘lg‘ay. (Mahbub ul-qulub, 29-30);

Mutrib – sozanda va ashulachi.

Mutribi tarabafazo, mug‘anniyi g‘amzudo – ikkalasiga dard-u hol ahli jon qilurlar fido. (Mahbub ul-qulub, 29-30);

Mug‘anniy – sozanda; ashulachi.

Mug‘anniy vafosiz, kungir hayosiz. Agar yillar rioyat qilibsen va hamxonadur, bir qatlaki nima bermading – begonadur. (Mahbub ul-qulub, 31-32);

Xudparast – butga sigunuvchi, butga sajda qiluvchi. Xudparast – budparast.

Xudparastliqki, erur moddayi idbor, munda dag‘i *tafovut va marotib bor.* (Mahbub ul-qulub, 78-79);

Voiz – jamoat oldida nutq so‘zlovchi, voizlik bilan shug‘ullanuvchi kishi.

Voiz kerakki, “qolalloh” so‘z aytsa va “qola rasululloh” muxolafatidan qaytsa, Xudo va rasul yo‘lig‘a qadam ursa. (Mahbub ul-qulub, 32-33);

Murshid – yo'l ko'rsatuvchi. Tasavvuf tariqatidan saboq beruvchi pir, shayx va ustoz.

Va'z bir murshid va ogoh ishidur va bir komil ahlulloh varzishudur va aning nasihatin qabul etgan maqbul kishidur. (Mahbub ul-qulub, 32-33).

Alisher Navoiy asarlarida bu kabi ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarni ko'plab keltirish mumkin. "Mahbub ul-qulub" asari o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra Navoiy davri adabiy tili, lug'aviy tarkibi, leksik qatlamlari to'g'risida muhim ma'lumotlar beruvchi manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 2016, 184 б.
2. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984, 160 б.
3. Абдулхайров М. Навоий асарларида сўз ва иборалар. – Тошкент: Tafakkur bo'stoni, 2009, 283 б.
4. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982, 168 б.
5. Абдушукуров Б. Эски туркий адабий тил лексикаси. – Тошкент: Tafakkur bo'stoni, 2015, 190 б.
6. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (Ўқув-услубий қўлланма). – Тошкент: Тошкент давлат педагогика университети, 2002, 47 б.
7. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983, 152 б.
8. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985, 200 б.
9. Гафурова Л.Х. Бытовая лексика современного узбекского языка. –Ташкент: Фан, 1991, 134 б.
10. Дадабоев Ҳ. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Нодирабегим, 2020, 142 б.
11. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи (XIV аср иккинчи ярми – XX аср боши). – Тошкент: Фан, 2007, 155 б.
12. Даниёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972, 200 б.
13. Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000, 424 б.

INGLIZ TILIDA GRAMMATIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIPOLOGIYASI

Nazarova Feruza Sindorqulovna
JDPU ingliz tili fani o‘qituvchisi
nazarov.feruza3@gmail.com
Ziyatullayeva Farida Ne’matulla qizi
JDPU 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada grammatika (yun. grammatike, gramma so‘zidan — harf, yozish) — tilshunoslikning tilning grammatik tuzilishini, ya’ni so‘zlarning shaklga ega bo‘lish qonuniyatlarini, shuningdek, so‘z birikmalari va gaplarni tuzish qonuniyatlarini o‘rganadigan bo‘limi.

Grammatika 2 qismdan — morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so‘zning grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalar, so‘z shakllari, sintaksisda esa so‘z shakllarining gap tarkibida o‘zaro birikish yo‘llari, ran va uning kategoriyalari, gapning tuzilish turlari bayon qilinadi.

Demak, grammatikada so‘z shakli, grammatik ma’no, grammatik shakl, grammatik kategoriya, ran va uning kategoriyalari haqidagi tushunchalar markaziy o‘rinni egallaydi. Tilda o‘zining doimiy ifodalovchisiga ega bo‘lgan, so‘z shakli va gapga xos umumlashgan ma’no grammatik ma’no sanaladi.

Kalit so’zlar: *Grammatika, morfologiya, sintaksis, morfologik kategoriyalar, gapning tuzilish turlari, grammatik ma’no, grammatik shakl.*

ANNOTATION

In the article, grammar (Gr. grammatice, from the word gramma - letter, writing) is a branch of linguistics that studies the grammatical structure of the language, i.e. the laws of the formation of words, as well as the laws of forming phrases and sentences.

Grammar consists of 2 parts - morphology and syntax. In morphology, grammatical groups and morphological categories of words, word forms, and in syntax, ways of combining word forms in a sentence, ran and its categories, sentence structure types are described.

So, in grammar, concepts of word form, grammatical meaning, grammatical form, grammatical category, ran and its categories occupy a central place. Grammatical meaning is a generalized meaning specific to the word form and sentence, which has its permanent representative in the language.

Key words: *Grammar, morphology, syntax, morphological categories, sentence structure types, grammatical meaning, grammatical form.*

АННОТАЦИЯ

В статье грамматика (греч. grammatice, от слова gramma — буква, письмо) — раздел языкознания, изучающий грамматический строй языка, т.е. законы образования слов, а также законы образования словосочетаний. и предложения.

Грамматика состоит из 2 частей – морфологии и синтаксиса. В морфологии описываются грамматические группы и морфологические категории слов, словоформы, а в синтаксисе - способы соединения словоформ в предложении, ран и его категории, типы структуры предложений.

Итак, в грамматике центральное место занимают понятия словоформа, грамматическое значение, грамматическая форма, грамматическая категория, ран и его категории. Грамматическое значение – это обобщенное значение, специфичное для словоформы и предложения, имеющее своего постоянного представителя в языке.

Ключевые слова: *Грамматика, морфология, синтаксис, морфологические категории, типы структуры предложений, грамматическое значение, грамматическая форма.*

KIRISH

Ma'lum grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan moddiy vosita grammatik shakl hisoblanadi. Grammatik shakllarni grammatik kategoriyani tashkil etgan unsurlar deyish mumkin. Aslida grammatik shakl deganda, ma'lum grammatik ma'noning moddiy tomoni tushuniladi. Grammatik shakl grammatik kategoriyani tashkil etgan qismlarning bir tomonini — shakliy tomonini ifodalaydi. Shu bois, grammatik kategoriyalar grammatik shakllarning munosabatidan yuzaga kelgan umumiylik, deyilsa mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Chunki grammatik kategoriya tarkibiga kirgan har bir qism ham, o'z navbatida, shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan yaxlitlikdir. Shu sababli ayrim mualliflar grammatik kategoriya tarkibiy qismlari uchun grammema atamasidan foydalanmoqdalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Grammatik birliklarni grammatik kategoriyalarga birlashtirishda shu kategoriyaga xos umumlashgan ma’no asos bo‘lib xizmat kiladi.

Kategoriyaga xos bu umumlashgan ma’no mazkur kategoriyaga birlashgan har bir grammemada takrorlanadi. Shu bilan birgalikda kategoriya doirasidagi har bir grammemaning boshqasidan farq qiladigan ma’nosi ham bor. Ana shu ma’nolar kategoriya unsurlarining o‘zaro zidlanishida asos bo‘lib xizmat kiladi.

Shunday qilib, kategoriya ma’nosi bilan kategoriya tarkibidagi grammema ma’nosi o‘rtasida turjins munosabati mavjud. Grammatika ma’lum til qurilishini qanday o‘rganishiga ko‘ra, amaliy grammatika va nazariy grammatikaga bo‘linadi. Amaliy Grammatika muayyan bir tilda gapning to‘g‘ri qurilishi uchun zarur bo‘lgan grammatik qoidalarni tavsiflaydi.

U, o‘z navbatida, 2 turga bo‘linadi: tavsifiy va me’yoriy Grammatika Tavsifiy Grammatika til grammatik qurilishini tavsiflash, bayon qilish bilan cheklanadi. Me’yoriy grammatika esa til faktlarining til me’yoriga munosabatini, ma’lum bir lisoniy birlik yoki qurilmaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘llanganini o‘rganadi.

Amaliy grammatikadan farqdi ravishda, nazariy grammatika til qurilishini tavsiflash bilan birga, til qurilishidagi birliklarning o‘zaro munosabatini o‘rganadi. Bu orqali har bir lingvistik birlikning til sistemasidagi o‘rni, qiymati belgilanadi. Nazariy grammatikada til grammatik qurilishining sistemaviy xususiyati ochiladi. Bevosita kuzatishda berilgan hodisalar zamirida yashiringan mohiyat belgilanadi.

Shuning uchun ham nazariy grammatika umumiylik — xususiylik, mohiyat — hodisa, imkoniyat — voqelik dialektikasini o‘zida namoyon etuvchi til — nutq zidlanishiga asoslanadi.

Grammatik birliklar tadqiqotchi tomonidan qaysi tomondan o‘rganilishiga ko‘ra, grammatika faol, nofaol turlarga bo‘linadi. Shakldan ma’noga qarab tadqiq qilish usuli semasiologiya usulidir. Bu usulda ma’lum grammatik shakl qanday ma’no ifodalashi haqida gap boradi. Yuqoridagi usulda grammatik birliklarni o‘rganish nofaol grammatika sanaladi.

Aksincha, mazmundan shaklga tamoyili bilan ish ko‘ruvchi Grammatika faol grammatika hisoblanadi. Faol g.da u yoki bu mazmun qanday yo‘llar bilan moddiylashishi mumkinligi aniqlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xuddi shu yo‘nalish bilan bog‘liq ravishda grammatika mazmuniy (mental), shakliy (formal) va vazifaviy (funksional) grammatikalarga bo‘linadi.

Mazmuniy grammatika mazmundan shaklga tamoyiliga amal qiladi.

Ob’yektiv borliqning ongda aks etishi va ongda aks etgan ob’yektiv olam unsurlari umumlashgan obrazlarning tilda qanday o‘z ifodasini topishini mazmuniy grammatika o‘rganadi.

Shakliy grammatika esa semasiologik tamoyil, shakldan mazmunga tamoyili asosida ish ko‘radi. Grammatik kategoriyalarni tasnif qilishda shakl ustuvorlik kiladi. Bu yunalishda grammatik shakllarni o‘rganish jarayonida nolisoniy (ekstralingvistik) omillarning e’tiborga olinishi shart emasligi ta’kidlanadi. Funksional grammatikada asosiy e’tibor grammatik shakl va grammatik kategoriyalarning vazifasiga qaratiladi. Bunday grammatikalarda lisoniy birlikning 3 tomoni: mazmun, shakl, vazifa (funksiya) dialektik birlikda olinadi. Grammatika muammolari dastlab qad.

Hindistonda (tilshunos Paninining Grammatikaga oid traktatida, miloddan avvalgi V-IV asrlar), keyinroq Yunonistonda (Aristotel, miloddan avvalgi IV asr, yunon tilshunosi Apollon Diskol, miloddan avvalgi II asr va boshqalarning asarlarida) ishlangan. Yunon grammatik an’analari lotin tilini o‘rganish jarayonida rivojlanib borgan. O‘zbekistonda grammatikani o‘rganish tarixi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga borib taqaladi. Bu jarayon o‘rta asrlardagi lug‘atshunoslik taraqqiyotida ham o‘z aksini topgan (Toli Imoniy Hiraviyning Badoye ul-lug‘at" asari, XV asr; "Abushqa" nomli chig‘atoycha-turkcha lug‘at, XVI asr va boshqalar).

Chet tilini o‘qitishda ijtimoiy-madaniy yondashuvni tatbiq etish talabalarning chet tilni o‘zlashtirishlarida faollashuviga olib keladi. Talaba o‘zga xalqning milliy madaniyati va qadriyatlarini o‘zlashtirishi jarayonida shuningdek, tili o‘rganilayotgan mamlakat haqidagi bilimlarni ham mustahkamlaydi.

Demak, tili o‘rganilayotgan mamlakat aholisining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy madaniyati va tabiati bilan tanishtirib borish ikki tomonlama murakkab integrar jarayon bo‘lib, bunda nafaqat tili o‘rganilayotgan mamlakat aholisining, balki ayni paytda o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtning urf-odatlari, o‘z xalqining milliy madaniyati ham qiyoslab o‘rganib boriladi va zarur hollarda chet mamlakat xalqiga taqdim qilinadi. Shuning uchun ham bu, o‘zi bilmagan holda bir-biridan andoza olish tili va madaniyatlari boshqa-boshqa bo‘lgan xalqlar o‘rtasida tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Qiyoslash davomida talabalar ko‘plab umumiy bo‘lgan va o‘ziga xos belgilar, xususiyatlarni ajratadilar. Bu esa o‘sha mamlakat bilan yaqinlashish, uni tushunish va unga, uning odamlari, an’analariga yaxshi munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya ko‘p madaniyatli jamiyatdagi hayot bilan bog‘liq kompetensiya, ya’ni «odam bilan ijtimoiy soha o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlashuvlarga taalluqli» kompetentlik guruhidir.

Demak, ijtimoiy-madaniy kompetensiya umummadaniy va ijtimoiy kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Madaniyatlararo muloqot komponentlikni rivojlantirishdan maqsad:

– chet el madaniyatida kompetentlikka erishish;

– o‘z madaniyatini bilish va bu haqida so‘zlab bera olish;

– o‘zgalarni hurmat qilish va bag‘rikenglikka olib keluvchi madaniyatlararo tushunishga erishish;

– o‘zining va o‘zgalar madaniyatini tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo‘lish. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyani quyidagicha ta’rifladik: madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi – chet tilida muloqot olib boruvchi shaxsning til sohiblarining ijtimoiy va nutqiy xulq-atvorining milliy-madaniy xususiyatlari, ularning urf-odatlari, muomala qoidalari, tarixi va madaniyatidan xabardor bo‘lishi hamda muloqot jarayonida ana shu bilimlardan foydalangan holda o‘zga madaniyatlar vakillari bilan muvaffaqiyatli ravishda muloqotlashish qobiliyatini namoyon qila olish layoqatidir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, komponent jamiyatshunoslik, tilshunoslik, mamlakatshunoslik sohalaridan olingan bilimlarni umumlashtirishga, etnomadaniy umumbashariy madaniyat bilan tanishtirishga asoslanadi. Turli xalqlarning o‘ziga xos madaniyatining qadriyatlari hamda ularning jahon madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi nuqtai-nazaridan o‘rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
2. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
3. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173
4. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
5. Хомский Н. Язык и мышление / Н.Хомский. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972. – 122 с.

6. White R.W. Motivation Reconsidered: the Concept of Competence // Psychol. Rev. - 1959. - Vol. 66, N 5. - P. 297-332.
7. Равен Джон. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – М., 2002.
8. Hymes, D. (1972). "Competence and Performance in Linguistic Theory", in R.Huxley and E.Ingram (eds.) Language Asquisition: Models Bed Methods. New York: Academy Press, pp.3-23.

APLIKATSIYA VA UNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

O'sarova Gavhar
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aplikatsiyaning mazmuni, tarixi, ta'lim tizimida tutgan o'rni hamda texnologiya darslarida aplikatsiya qilishning ahamiyati haqida ma'lumotlar o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, aplikatsiya, ta'lim, kasbga yo'naltirish, pedagogika.*

ПРИМЕНЕНИЕ И ЕГО МЕСТО В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Ўсарова Гавхар
Джизакский государственный педагогический университет
Студентка факультета теории начального образования

Аннотация: *В данной статье содержится информация о содержании, истории, роли приложения в системе образования, а также о значении применения на уроках технологии.*

Ключевые слова: *технология, применение, образование, профориентация, педагогика.*

APPLICATION AND ITS PLACE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

O'sarova Gavhar
Jizzakh State Pedagogical University
Student of the Faculty of Theory of Primary Education

Abstract: *This article contains information about the content, history, role of the application in the educational system, and the importance of the application in technology lessons.*

Key words: *technology, application, education, career orientation, pedagogy.*

Hozirgi kunda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, kasbga o'rgatish, ularning aqliy va ma'naviy kamol toptirishdan iboratdir. "Ta'lim to'g'risida" gi qonun talablaridan kelib chiqqan holda ta'limning mazmuni va vositalarini yangidan ishlab chiqishni hayotning o'zi talab qilmoqda. Bu omil ta'lim jarayoni tarkibiy qismlarini yangicha tartibda namoyon bo'lishini talab etadi. Ana shu tashkiliy pedagogik jarayonda ta'lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta'lim metodlarining paydo bo'lishi, ta'lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta'limni tashkil etishda o'qituvchi mahoratining noan'anaviy shakllari keng ko'lamda joriy etilishi kuzatilmoqda.

Ushbu o'zgarishlarning ma'lum qismi mavjud didaktik yondashuvlarning tarkibi sifatida chiqqan bo'lsa, yana bir qismi dunyodagi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogik tajribalariga suyangan holda paydo bo'ladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi alohida e'tibor qaratadigan yo'nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur.

Texnologiya ta'limi darslarida, ayniqsa quyi sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari juda kam. Shu o'rinda quyi sinf o'quvchilarini applikatsiya bajarish orqali ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning imkoniyatlari juda katta.

Turli xil adabiyotlarda applikatsiya turlari ham ko'pligini, ularni bajarish o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishini ko'ramiz. Lekin bu yangiliklar mamlakatimiz ta'lim tizimidagi darslik va o'quv qo'llanmalarda haligacha o'z aksini topmagan. Tasviriy faoliyatning har bir turi yoshlarga estetik ta'siridan tashqari o'ziga xos ta'sir qilish xususiyatiga ham ega.

Applikatsiya maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. U ko'plagan shaxsiy sifatlarning shakllanishiga, ruhiy va estetik imkoniyatlarining rivojlanishiga ko'maklashadi. Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda bolalarning aqliy, estetik rivojlanishi uchun maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlab shug'ullanish zarurligi isbotlab berilgan. Tasviriy faoliyat bilan, jumladan applikatsiyalar bajarish bilan ham umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'rinli foydalanish imkoniyatlari juda ko'p. Buni boshlang'ich sinflarning darsliklarini tahlil qilish orqali ko'rish mumkin

Applikatsiya tasvir hosil qilish texnikalaridan biri bo'lib, (lot. applicatio- biror narsaga joylamoq, yopishtirmoq) – rang-barang qog'oz yoki mato parchalarini yoki boshqa materiallarni fon (tag) sifatida qabul qilingan biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul, tasvir hosil qilish usuli; shu usulda hosil qilingan naqsh, gul, tasvir. Tasvirlash texnikasining bir ko'rinishi sifatida applikatsiya juda qadim zamonlardan qo'llanilib kelingan. U qadim davrlardan kiyimlar, poyafzal, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or jihozlarini bezashda foydalanilgan.

Applikatsiyalaring mavzulari sifatida dastlabki davrlarda qushlar, hayvonlar, insonlar, chiroyli o'simliklar va gullar tanlangan. Applikatsiya bajarishda keyinchalik iplar, matolar, metall plastinkalar, biser va marjonlardan foydalanib boshlashgan. Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko‘chmanchi xalqlar orasida paydo bo‘lgan. Applikatsiya bilan kiyim-bosh, turar joylar bezatilgan. Bu ishda ular teri mo‘yna, namatdan foydalanishgan. Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida po‘stloqdan foydalanishgan, bo‘yalgan po‘stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o‘tovlarini bezashgan, Xanti-mansi, evenk va boshqa shimol xalqlari applikatsiyada teri, mo‘yna ishlatishgan. Komi, qozoq, qalmiq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro‘zg‘or predmetlarini bezashda foydalanishgan. Gazlamadan applikatsiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o‘tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikatsiya bilan kiyim-bosh, uy-ro‘zg‘or predmetlari bezatilgan.

Faqat XVI asrga kelib rivojlangan qog‘ozdan applikatsiya qilishni applikatsiyaning «yosh» turi deyish mumkin. Qog‘ozdan naqsh qirqish bilan o‘tmishning mashhur san’atkorlari ham shug‘ullanishgan. Masalan, rassom Piter Paul Rubens, daniyalik haykaltarosh Bertel Garvildson ishlari shular jumlasidandir. Mashhur ertakchi Gans Xristian Andersen o‘z ertaklari motivlari asosida qog‘ozdan applikatsiyalar qirqqan. Rassom F. P. Tolstoyni XIX asrning birinchi yarmidagi siluet yaratuvchilarning eng mohir ustasi deyish mumkin. Uning 50 ta siluet ishi Ermitajda saqlanmoqda. Ko‘plagan grafik-rassomlar hozirgi kunda plakat tayyorlashda, kitoblarni bezash ishlarida siluetdan badiiy ifodalashning mustaqil vositasi schifatida foydalanadilar.

Applikatsiya — badiiy asarlarni yaratishning eng, sodda va oson usulidir, bunda tasvirning realistik asosi saqlanadi. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlardagina ko‘rgazmali qurollar, turli o‘yinlar uchun qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar, ko‘rgazmalar va kostyumlarni tayyorlash emas, balki kartina, pano, naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo‘llash imkonini beradi.

Maktabda boshlang‘ich sinf yoshdagi bolalarga ta’lim berishda applikatsiya mashg‘ulotlarining, jumladan applikatsiya tayorlashning noan’anaviy texnikalaridan foydalnishning ijobiy ahamiyati ilmiy isbotlangan.

Pedagoglarning tajribalarini umumlashtirish natijasida applikatsiya bajarishning quyidagi ahamiyatlari aniqlangan:

- Borliqni estetik idrok qilishning rivojlanishi, badiiy didning shakllanishi;
- Badiiy grafik ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi;
- Fantaziya, ijodiy tafakkur va tasavvur, fazoviy idrokning rivojlanishi;
- Qo‘lning aniq harakatlari va barmoqlarning nozik harakatqilishlarining rivojlanishi;
- Badiiy ijodni tashkil qilishning ayrim ko‘nikmalarini egallash;
- Mahalliy va dunyo badiiy madaniyatlari haqidagi ma’lumotlarni egallash;
- Tamosha qilish madaniyatini tarbiyalash;
- Badiiy-tasviriy faoliyat kasbiga moyillikning ochilish imkoniyati.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va maktagacha ta’lim muassasalarida applikatsiyaga o‘rgatish bugungi kunda alohida mashg‘ulot shaklida bo‘lmasa ham uni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ko‘rinishlari shaklida o‘rgatish imkoniyatlari mavjud. Lekin hozirgacha ta’lim muassasalarida bolalar va o‘quvchilarni noan’anaviy texnikada applikatsiya bajarishga o‘rgatish orqali ularning badiiy ijodjkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarni uchratmadik. Hozirgi kunda applikatsiya xalq san’atida juda keng tarqalgandir. «Applikatsiya» tushunchasi xususiyatlari va faktura materiallariga ko‘ra xilma-xil bajarilish texnikasining o‘xshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini o‘z ichiga oladi..

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mavlonova R. Mehnat. 4-sinf O‘quvchilari uchun darslik - T.: Mehnat 1995- 160 b
2. Шилкова Е.А. Аппликация. М.: Рипол Классик. – 2007.
3. Петрова И.М. Объёмная аппликация. С.-Пбг.: “Детство-пресс”. -2007.
4. Митителло К. Аппликация. Техника и искусство. М.: Эксмо, 2005.
5. Ro‘ziyev E.I. Applikatsiya turlari va ulardan mehnat ta’limi hamda to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish metodikasi. “Pedagogik tadqiqotlar”, 2017, №1/ - 6-10 b.

"CASE STUDY" TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Ergashova Zebiniso
JDPU, Maktab menejmenti 3-kurs

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan keys-stadi ta'lim texnologiyasi, uning kelib chiqish tarixi hamda xorijda qanday darajada foydalanilishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, keyslar qanday talablarga javob berishi kerakligi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tilgan.*

Key words: *Keys-stadi, ta'lim, Garvard maktabi, Manchester maktabi, biznes maktab, intensiv, muammoli vaziyat, GBM, ta'lim texnologiyasi, tahlil, true life, metod, huquq, analitik fikrlash, kritik fikrlash, tipik vaziyat, munozara.*

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ «КЕЙС СТАДИ»

Эргашова Зебинисо
ЖДПУ, Управление школой 3 курс

Аннотация: *В данной статье представлена информация о широко используемой в настоящее время образовательной технологии «кейс-стади», истории ее возникновения и масштабах ее применения за рубежом. Также кратко обсуждается, каким требованиям должны соответствовать корпуса.*

Ключевые слова: *Кейс-стади, образование, Гарвардская школа, Манчестерская школа, бизнес-школа, интенсив, проблемная ситуация, GBM, образовательная технология, анализ, реальная жизнь, метод, закон, аналитическое мышление, критическое мышление, типичная ситуация, дебаты.*

"CASE STUDY" EDUCATIONAL TECHNOLOGY

Ergashova Zebiniso
JDPU, School management 3rd year

Abstract: *This article provides information about the currently widely used case-study educational technology, the history of its origin, and the extent to which it is used abroad. It is also briefly discussed what requirements the cases should meet.*

Key words: *Case study, education, Harvard School, Manchester School, business school, intensive, problem situation, GBM, educational technology, analysis, true life, method, law, analytical thinking, critical thinking, typical situation, debate.*

Bugungi kunda keys stadi ta'lim texnologiyasidan oliy ta'limda keng foydalaniladi. Bu talabalarning fikrlashiga, izlanishiga undaydigan ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Eng avvalo bu so'zning ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "keys-stadi" - inglizcha so'z bo'lib, ("case"-aniq vaziyat, hodisa, "study"-o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan ta'lim texnologiyasidir. Ushbu ta'lim texnologiyasi haqida inglizchada **"case - true life",** ya'ni **"keys - haqiqiy hayot"** degan iboraga ko'ra keys real hayotning bir parchasidir. Keys-stadi orqali amaliy holatlar o'rganiladi hamda unda ochiq axborotlardan va aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida foydalanish mumkin. Uning muammoli ta'lim texnologiyasidan farqli tomoni shundaki u real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o'qitish metodi sifatida chet el ta'limida dastlab huquq sohasida qo'llanila boshlagan: u birinchi marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870-yilda qo'llanilgan edi.1920- yilda Garvard biznes-maktabi(GBM) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish usuliga ko'ra, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahli etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli qilib tanlashganidan keyin bu o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshlandi. Shu vaqtdan boshlab GBM keyslarning boy to'plamini yig'di va ushbu ta'lim texnologiyasini ta'limning mustaqil konstepstiyasi darajasigacha olib chiqdi. Shu sababli ham bu ta'lim texnologiyasi Garvard metodi deb ham ataladi. Garvard metodi mohyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarning amaliy vaziyatlarni videomateriallar, kompyuter va dasturiy ta'minotdan foydalanib hal qilish bo'yicha intensiv treningdan iborat hisoblanadi.

Shuningdek, keys-stadi ta'lim texnologiyasining ikki klassik maktabi: Garvard(Amerikada) hamda Manchester(Yevropa) maktablari mavjud. Bu ikki maktabning bir-biridan farqi shundaki, Garvard maktabida keys stadi metodi yagona to'g'ri yechimni izlashga o'rgatadigan metod hisoblansa, ikkinchi maktab keysda o'rganilayotgan muammoli vaziyatning yechimi ko'p variantliligini ilgari suradi. Amerika keyslari o'nlab sahifali matni va ko'plab chizmalari bilan Yevropa keyslari esa hajmi birmuncha kichikligi bilan bir-biridan farq qiladi. Mamlakatimizdagi ta'lim sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llaniladi. So'nggi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va uni darslarda samarali qo'llashiga

qiziqishlari oshayotganligini kuzatishimiz mumkin. Shu o‘rinda xorijda keys-stadi metodini qo‘llash qanday darajada ekanligini ko‘rib chiqsak.

Chet ellardagi biznes-maktablarda odatiy vaziyatlarni o‘rganishga o‘quv vaqtining o‘rtacha 25%dan 90% gacha bo‘lgan qismi ajratiladi. Masalan, Chikago universiteti biznes maktabida o‘quv vaqtining 25%i keyslar ulushiga, Kolumbiya universitetida - 30%, Uortonda -40%iga to‘g‘ri keladi. Mashg‘ulotlarni ushbu metod bo‘yicha o‘tkazishga ajratiladigan soatlar soni bo‘yicha uning **“ilk ixtirochisi”** hisoblanadigan Garvard birinchilikda turadi.Oddiy tinglovchi GBMda o‘qish vaqtida 700tagacha keyslarni ko‘rib chiqadi va buning uchun o‘quv vaqtining 90% qismini sarflaydi. Bunga shunday izoh berish mumkin: moliyaviy fanlarga ixtisoslashgan maktablarda keyslar salmog‘i asosiy fanlar- menejment, marketing, axborot texnologiyalari, xodimlarni boshqarish va shu kabilardan iborat maktablardagiga nisbatan ancha kamdir.

Keyslardan ta’lim jarayonida foydalanish talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi:

-nazariya va amaliyot o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni shakllantiradi

-kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi

-savol berish madaniyatini o‘rgatadi

-vaziyatlarni hal etishda unga ta’sir etuvchi omillarning mavjudligi va ularning ta’sirini e'tiborga olishga imkon beradi

-qabul qilingan qaror uchun ma’sullik hissini tarbiyalaydi

-boshqalar fikrini ham qabul qila olish malakasini shakllantiradi

-haqqoniy(obyektiv) bo‘lishga o‘rgatadi

-muammoli vaziyatni yangicha shakllantirishga yordam beradi

Yaxshi keys quyidagi talablarga javob berishi lozim:

-aniq qo‘yilgan yaratish maqsadiga mos kelishi

-mos ravishda murakkablik darajasiga ega bo‘lishi

-u bilan ishlash vaqtiga dolzarb bo‘lishi

-juda tez eskirishi kerak emas

-analitik fikrlashni rivojlantirish

-tipik vaziyatlarni tasvirlash

-munozarani keltirib chiqarish

-bir necha qarorlarga ega bo‘lish

Bu metod ta’lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo‘shimcha axborotlarni yig‘ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechishda hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo‘yicha amaliy faoliyatlarni modellashtirish imkonini beradi.

Keys-stadi texnologiyasi talabaning kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassisi sifatida shakllanishida ahamiyati juda katta. Negaki u, bu texnologiyadan foydalanish vaqtida kasbiy faoliyat bilan bog‘liq turli amaliyotlarini, lavozim majburiyatlarini bajaruvchi shaxs o‘rniga qo‘yib ko‘radi, voqea hodisalarni o‘rganadi, qanday xulosa yoki qaror qabul qilish mumkinligini va bunda mehnat jamoasi bilan ijodiy hamkorlikni qanday yo‘lga qo‘yish ma’qulligini o‘ylab ko‘radi. Yakuniy natijalarni oldindan ko‘ra bilish, muammolarning oldini olish, ularni hal qilish davomida turli ruhiy zo‘riqish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik kerakligini, kasbiy sohada hamkorlik, hamfikrlilik, faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirish va amalga oshirish lozimligini, na moddiy, na ma’naviy isrofgarchilikka yo‘l qo‘yish mumkin emasligini bilib oladilar. Ushbu texnologiyaning yana bir afzalligi shundaki, talabalarda kasbiy axloq me'yorlari haqida tushunchalar shakllanadi va rivojlanadi.O‘zlarini bo‘lg‘usi kasb egasi sifatida har qanday vaziyatga tayyorlab boradi hamda shunga doir kerakli bilimlarni o‘zlashtirib olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati - T.: Akademiya nashriyoti. 2007.
2. Ходиев Б.Ю., Бекмуродов А.Ш., Голиш Л.В. Кейс-стади технологияси. -Т.: ТДИУ, 2009.
3. Ганиева М.А., Файзуллаева Д-М- Кейс-стади укитишнинг педагогик технологиялари телами. - Т.: ТДИУ, 2013.
4. Хаджаев Б. Кейс-стади таълим технологияси. - Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2015

TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILARNI ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Bozorboyeva Muxabbat Tohirjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada ta’lim muhitida o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning nazariy metodologik asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar o‘rin olgan.*

Kalit so'zlar: *dunyoqarash, o'quvchi, shaxs, intellektual, hayotiy qadriyatlar, estetik nuqtayi nazarlar.*

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Бозорбоевой Мухабата Тахирджона
Джизакский государственный педагогический университет
Магистрант теории и истории педагогики

Аннотация: *данная статья содержит информацию о теоретических и методологических основах формирования научного мировоззрения студентов в образовательной среде.*

Ключевые слова: *мировоззрение, студент, личность, интеллектуал, жизненные ценности, эстетические точки зрения.*

ISSUES OF FORMING STUDENTS' SCIENTIFIC WORLD VIEW IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Bozorboyeva Mukhabat Tahirjonovna
Jizzakh State Pedagogical University
Master's student of theory and history of pedagogy

Abstract: *this article contains information about the theoretical and methodological bases of forming the scientific outlook of students in the educational environment.*

Key words: *outlook, student, personality, intellectual, life values, aesthetic points of view.*

Har qanday faoliyat shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bilan bog'liq holda vujudga keladi va uning harakatlari ushbu maqsad doirasida amalga oshiriladi, mazkur maqsadga erishish natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Moddiy borlikdagi yetishmovchiliklarning anglanishi natijasida shaxs o'z oldiga muayyan maqsad qo'yadi. Shu ma'noda biz o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga asos bo'ladigan nuqtayi nazarlarni nazariy jihatdan tahlil etishga harakat qilamiz. Shunga ko'ra, biz o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalar va shart-sharoitlarni aniqlashga intildik.

Insonning o‘ziga xosligi uning ijtimoiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Chunki faqat insongina fikrlash va ongli faoliyat ko‘rsatish layoqatiga ega. Agar inson fikrlashdan to‘xtasa, unda muayyan maqsad va o‘z faoliyatini nazorat qilish imkoniyati yo‘qoladi. U o‘z faoliyatini ongi va ixtiyoriga ko‘ra amalga oshiradi. Har qanday inson o‘z faoliyatining subyekti hisoblanadi. Chunki u o‘z ongi, erki asosida to‘laqonli faoliyatni bajarishga qodir bo‘ladi. Har bir insonning o‘zligi uning shaxsiy nuqtayi nazarida aks etadi.

Nuqtayi nazar — insonning xatti-harakatlari va xulq- atvorida aks etgan qarashlari, u amal qiladigan tamoyillardir. Chunonchi, “Nuqtayi nazar (pozitsiya) – tegishli insoniy kechinma va xatti-harakatlar tarzida namoyon bo‘luvchi atrof-muhit bilan bog‘liq hodisalar va ularning muayyan jihatlariga nisbatan munosabatlar tizimi” dir.

Dunyoqarash nuqtayi nazarga nisbatan kengroq va umumiyroq. tushunchadir. U insonning barcha yetakchi munosabatlarini o‘zida ifodalaydi. Insonning har qanday nuqtayi nazari dunyoqarashining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa o‘quvchilarning dunyoqarashlari ularning nuqtayi nazarlari yordamida muloqotga kirishish imkonini beradi. Demak, shaxsning dunyoqarashi umumlashganlik xarakteriga ega.

Sovalevning ta’kidlashicha, dunyoqarash inson hayotining dasturlashtirilgan, chuqur o‘ylangan rejasi bo‘lib, u shaxsning hayot tarzini ham ifodalaydi. Dunyoqarashning tarkib, topishi esa inson hayotining mazmuniga bog‘liq Shaxsning muayyan mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan o‘quv hamda amaliy faoliyati natijasida dunyoqarashi tarkib topadi. Demak, o‘quv faoliyati natijasida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi.

O‘quvchilar o‘z ixtiyorlari va imkoniyatlari doirasida mujassamlashgan bilimlarni o‘zlashtiradilar va ular ustida fikrlay boshlaydilar. Hayot ma’nosini anglashga bo‘lgan ehtiyoj tufayli o‘quvchilar o‘z hayotlarini anglashga intiladilar va uni hodisalar jarayoni emas, balki maqsadli jarayon sifatida tashkil etishga harakat qiladilar.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etiladigan shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonining muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarga turli sohadagi bilimlar va milliy-ma’naviy qadriyatlar taqdim etiladi hamda ular yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarni fikrlashga undaydilar. Mazkur bilimlarni o‘quvchilarning o‘zlari izlab topishlari, ularning mazmun-mohiyatini anglashlari, o‘z faoliyatiga singdirishlari, ularni bir-biridan ajrata olishlari lozim. Shundagina nuqtai nazarlar kabi dunyoqarash ham oydinlashadi va har bir o‘quvchining o‘ziga xos bo‘lgan ilmiy dunyoqarashi tarkib topadi. Har qanday ilmiy dunyoqarash bilimlarning mazmun-mohiyatini anglash natijasida vujudga keladi.

O‘quvchilarning dunyoqarashlari quyidagi uchta tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi: *intellektual, hissiy-ixtiyoriy hamda amaliy harakatli faoliyat tajribasi.*

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida ukuvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun ularning intellectual faoliyatlari va o‘zlarigagina xos bo‘lgan shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish zarurligini ko‘rsatmoqda. O‘quvchilarda muayyan ilmiy, estetik nuqtayi nazarlar, ma’naviy tamoyillar tizimi, me’yorlar va qat’iyatlar, hayotiy qadriyatlar, maqsadlar va ularga erishish yo‘llari, hayotiy harakatlarni amalga oshirish yo‘llari o‘rgatilishi lozim. Ilmiy dunyoqarash o‘quvchining moddiy olamga nisbatan obyektiv munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi. Ular kishilarning kichik guruhlari va jamiyat a’zolari orasidagi hamkorlik va apoqadorlik shakllarini o‘zlashtiradilar.

O‘quvchi o‘zining ilmiy dunyoqarashi yordamida butun olam, tabiat va jamiyatni ko‘ra oladi va idrok etadi. O‘quvchilarning inson va jamiyat, undagi ijtimoiy munosabatlar, jamiyat a’zolari amal qiladigan qadriyatlarni tushunishi, mazkur jamiyatda o‘z o‘rnini anglashi ilmiy dunyoqarashining kengligiga bog‘liqdir. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ta’lim jarayoni bilan bir qatorda, ularni o‘rab turgan muhit va oila muhim o‘rin egallaydi. Alohida ilmiy nuqtayi nazarlarning ifodachisi sifatida nafaqat birgina o‘quvchi, balki o‘quvchilar guruhi namoyon bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashning shakllanganlik darajasi quyidagi mezonlar bo‘yicha aniqlandi:

- o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashlari zaminida ularning nuqtai nazarlari, tanlovlari, o‘ziga xosliklari, yetakchi imkoniyatlari, onglilik darajalari, baholovchi munosabatlari, obyektiv qonuniyatlarni tushunish ko‘lamlari, barqaror mayllari, maqsadlari, qiziqishlari hamda hissiy, intellektual quvvatlarining ifodalanganligi;
- ilmiy hodisalarni tahlil qila olishi;
- ilmiy tushunchalarni tasniflay olishi;
- nazariy ma’lumotlarni umumlashtira olishi;
- o‘quv-biluv jarayonida o‘qituvchilarni diqqat bilan tinglay olishi;
- ilmiy hodisalarni kuzatish ko‘nikmasiga egaligi;
- turli manbalardan ilmiy axborotlarni izlab topa olishi;
- kichik tadqiqotlar o‘tkaza olishi;
- savollarga to‘g‘ri va to‘liq javob bera olishi;
- o‘quv mavzusi bilan bog‘liq holda muayyan savollar tuza olishi;
- ilmiy dalillar va hodisalarni baholay olishi;
- muayyan mavzuda yoziladigan referat rejasini tuza olishi;
- o‘z faoliyatlarini loyihalay olishi;

- kichik insholar, referatlar, muloqot matnlari yarata olishi;
- o‘z o‘quv faoliyatlarini yorituvchi kundaliklar tuza olishi;
- atrofdagilar, sinfdoshlari va o‘qituvchilari bilan madaniy muloqot o‘rnatish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi.

O‘quvchilarda shakllangan ilmiy dunyoqarashning har bir muayyan darajasi o‘zining aniq belgilariga ega bo‘lib, ular ta’lim oluvchilar ilmiy dunyoqarashining muntazam tarzda bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tib uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. G’ofurov A.T. O’quvchilarda umumbiologik tushunchalarni shakllantirish. – T.: O’qituvchi, 1976.- 171 b.
2. Андреев А Л Общество и образование социокультурный профиль России // Педагогика. 2002. № С. 20,
3. Андреев В.И. Диалектика воспитания и самовоспитания творческой личности. Казань, 1988.
4. Арутюнян М. Ю., Здравомыслова О. М. и др. Учителя и ученики: два мира? М., 1992. С. 106.
5. Борытко Н. М. Пространство воспитания: образ бытия: Монография. Волгоград. Перемена, 2000.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING KREATIV FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika universiteti magistranti

Email: aoynisaa@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, kreativ fikrlashning mazmuni, uning parametrlari, o’ziga xos xususiyatlari yoritib beriladi. Shuningdek, Oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak o’qituvchilarning kreativ faolligini shakllantirish va bu orqali pedagogik faoliyatni rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi zamonaviy metod va texnalogiyalar na’munalari keltiriladi.*

Kalit so’zlar: *Kreativ fikrlash va uning parametrlari, kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi metod va texnalogiyalar, kreativ fikrlash xususiyatlari.*

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ВУЗОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Рашидова Ойниса Хусниддин кизи
Магистрант Узбекско-Финляндского педагогического университета
Электронная почта: aoynisaa@gmail.com

***Абстрактный**. В данной статье будет объяснено содержание творческого мышления, его параметры и особенности. Также приведены примеры современных методов и технологий, которые служат формированию творческой активности будущих преподавателей высших учебных заведений и тем самым развивают педагогическую деятельность.*

***Ключевые слова**: Креативное мышление и его параметры, методы и технологии, развивающие креативное мышление, характеристики креативного мышления.*

FORMATION OF CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL FACTOR OF DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL ACTIVITY

Rashidova Oynisa Khusniddin kizi
Master student of Uzbekistan-Finland Pedagogical Universitate
Email: aoynisaa@gmail.com

***Abstract**. In this article, the content of creative thinking, its parameters, and its specific features will be explained. Also, examples of modern methods and technologies that serve to form the creative activity of future teachers in higher educational institutions and thereby develop pedagogical activity are given.*

***Key words**: Creative thinking and its parameters, methods and technologies that develop creative thinking, characteristics of creative thinking.*

Kirish

Zamon kundan-kunga o'zgarib, tanib bo'lmas darajada rivojlanib bormoqda va har bir sohada davr talabiga mos holda ish yuritish talab etilmoqda. Shu jumladan, yurtning kelajagi bo'lgan – yosh avlod bilan ishlaydigan o'qituvchilarga ham ko'plab talablar va mas'uliyatli vazifalar yuklatilmoqda. O'qituvchi zamonaviy

o’quvchilarning nima bilan rivojlanayotganini tushunishi uchun ham bugungi kunda ro’y berayotgan kashfiyotlarni, yangiliklarni o’zlashtirishi, o’rganishi darkorligi ko’plab vaziyatlarda o’z isbotini topmoqda.

Jamiyatning maktab oldiga qo’yayotgan talablari kun sayin ortib, mazkur talablarga to’g’ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o’qituvchining zimmasidadir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biri bo’libgina qolmay, balki hozirgi jamiyatimizda o’qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxsdir. U zamonaviy bilimlarni egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo’lishi lozim zero, kechiktirib bo’lmas jarayon bo’lmish shaxsni intellektual, ma’naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladigan shaxs ham o’qituvchidir. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o’qituvchidan nafaqat yuqori malakani balki doimiy kasbiy rivojlanishni, o’z ishiga ijodiy yondashishni ham talab etayotganligini ko’rmoqdamiz. O’qituvchining kreativligi o’z tajribasini qayta ko’rib chiqishi, yaxshilashi hamda barchaga ma’lum narsalarni o’zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga egadir.

Metadologiya

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab mazkur tushunchaning mazmuniga to’xtalib o’tishimiz kerak. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi [1]. Bundan tushunilishi kerakki, kreativ tafakkurning o’zi nostandart va noan’anaviy fikr yuritish shakli hisoblanadi. Kreativ tafakkur atrof-olamdagi narsa va hodisalarga o’zgacha qarash – kreativ idrokdan boshlanadi. Kreativ idrokning sodir bo’lishi esa shaxs psixologik holatiga bevosita bog’liqdir. Keyingi bosqichda idrok etilgan ma’lumotlar inson miyasida sodir bo’ladigan nostandart kombinatsiyalar (umumlashtirishlar, analiz, sintez, abstraktsiyalash, selektiv insayt va shu kabilar) asosida nostandart xulosalar, yechimlar va qarashlar yuzaga keladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlari, zehni o‘tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi[2].

Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen

hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega [3]

Kreativ fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari:

- ✓ ravonlik
- ✓ moslashuvchanlik
- ✓ originallik
- ✓ yaratuvchanlik

Kreativ o'qituvchi muammosi J.Gilford tomonidan kengroq tadqiq etilgan bo'lib, kreativlikni o'qituvchining muhim qobiliyati sifatida quyidagi 6 ta parametrlarini ajratib ko'rsatadi[4].



Bo'lajak talabalarning kreativ tafakkurini, pedagogik faoliyatda kreativ faolligini shakllantirishning zamonaviy metod va texnalogiyalari:

- Sinkveyn yozma strategiyasi;
- Klaster metodi;

- BBB metodi;
- Yozma bahslar metodi;
- Yelpig’ich metodi;
- FSMU metodi
- Insert metodi;
- Assesment metodi
- SWOT-tahlili metodi
- Jigsaw metodi

Xulosa. Ushbu sanalgan barcha metodlardan ma’ruza, amaliy va seminar darslarida foydalanish, mustaqil ta’lim topshiriqlarida qo’llash talabalarning dars va topshiriq jarayonlariga kreativ yondashuvini oshiradi. Bundan tashqari, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiladi. Shu bilan birgalikda, o’quv jarayoniga jo’shqinlik, talabalarga qiziqish, vazifalarni bajarishga ishtiyoq va ijodkorlik orqali to’g’ri yechim topa olish ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonida bu metodlarni qo’llash - talabalarning kreativ faolligini oshirishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbek tilining izohli lug’ati. J. I. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b. 216-b.
2. Rashidova O. (2023) “The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270
3. Qo‘chqarova M. (2023) “ Boshlangich sinf o‘quvchilariga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini singdirib borish - davr talabidir” tezisi, “Boshlangich sinf o‘quvchilarida universal ta’lim faoliyatlarini shakllanitirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, 2023-yil, 31-mart
4. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта / Дж.Гилфорд // психология мышления в 2 т. / под.общ.ред. А.М.Матюшкина. –М.: Просвешение, 1965. –Т1. С. 443-456с

ZARYADLARNING O’ZARO TA’SIRI. KULON QONUNI

Laylo Latipova Ilkxamovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Fizika va texnologik ta'lim fakulteti talabasi

Ilmiy rahbari: JDPU o’qituvchisi Ergashev Jamshid

Annotatsiya: Elektrostatikaning asosiy qonuni - zaryadlangan ikkita qo‘zg‘almas nuqtaviy jismlar orasidagi o‘zaro ta’sir qonunidir. Ushbu maqolada kulon qonuni va uning tarixi haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: **kulon qonuni**, qo‘zg‘almas nuqtaviy jismlar, elektrostatik kuch, nuqtaviy elektr zaryadi, o'zaro ta'sir kuchi, proportsional, statsionar zaryadlar

Abstract: The basic law of electrostatics is the law of interaction between two fixed point charged bodies. This article talks about the Coulomb law and its history.

Key words: Coulomb's law, fixed point bodies, electrostatic force, point electric charge, force of interaction, proportional, stationary charges

Аннотация: Основным законом электростатики является закон взаимодействия двух неподвижных заряженных тел. В этой статье рассказывается о законе Кулона и его истории.

Ключевые слова: закон Кулона, неподвижные точечные тела, электростатическая сила, точечный электрический заряд, сила взаимодействия, пропорциональные, стационарные заряды.

1776 yilda elektr zaryadlari o'rtasida tortishish deb nomlangan o'zaro ta'sir bo'ladi degan taklif bor edi. Bu qonunni tajribida frantsuz fizigi Kulon 1785 yilda burama tarozi yordamida kashf qilgan.

Kulon qonuni bu bizga zaryadlangan zarralar orasidagi elektrostatik kuchni hisoblashga imkon beradigan qonundir.

Nuqtaviy zaryad deb, shunday zaryadlangan jismga aytiladiki, uning o'lchamlari boshqa zaryadlangan jismlargacha bo'lgan masofaga nisbatan sezilarli darajada kichik bo'lishi kerak.

Shunday qilib, elektr zaryadlari o‘zaro kuch bilan ta’sirlashar ekan. U zaryad kattaligiga va boshqa omillarga qanday bog‘liq? Bu muammoni 1780-yillarda fransuz fizigi Sharl Kulon (1736-1896) o‘rgangan. U burama tarozidan foydalangan, bu tarozi Kavendish gravitatsiya doimiysini aniqlashda foydalangan qurilmaga juda o‘xshaydi (1-rasm).



1-rasm.

Kulon burama tarozi orqali nuqtaviy zaryadlar orasidagi o'zaro ta'sir kuchini, ularning zaryadlari miqdori va oralaridagi masofa bog'liqligini o'rgandi va quyidagi xulosaga keldi: ikkita qo'zg'almas nuqtaviy zaryadlar orasidagi o'zaro ta'sir kuchi zaryadlarning har birining miqdorlari ko'paytmasiga to'g'ri proportsional va ular orasidagi masofaning kvadratiga teskari proportsionaldir.

$F = k\frac{q_1 \cdot q_2}{r^2}$ bu erda k – proporsionallik koeffitsienti. Bu munosabat Kulon qonuni nomi bilan yuritiladi; uning haqqoniyligi Kulonning dastlabki eksperimentlariga nisbatan ancha aniq, puxta eksperimentlar bilan tasdiqlandi, daraja ko‘rsatkichi bugungi kunda 10^{16} aniqlikda o‘lchangan, ya’ni $N*m^2/C^2$ ga teng.

Bu ifodaning vektor ko‘rinishda

$$\overrightarrow{F_{1,2}} = k\frac{q_1 \cdot q_2}{r^2} \cdot \frac{\overrightarrow{r_{1,2}}}{r}$$

Agar zaryadlar bir jinsli muhitda joylashgan bo‘lsa, u holda o‘zaro ta’sir kuchi

$$F = k\frac{q_1 \cdot q_2}{\varepsilon r^2}$$

ε- muhitning dielektrik singdiruvchanligi deb ataladi. U o‘lchamsiz kattalik bo‘lib, zaryadlar orasidagi o‘zaro ta’sir kuchi vakuumdagiga qaraganda berilgan muhitda necha marta kamayganligini ifodalaydi,

$$\varepsilon = \frac{F_V}{F_M}$$

SI sistemasida o‘lchov birliklarini muvofiqlashtirish koeffitsienti $k=1/4\pi\varepsilon_0=9\cdot10^9$ Nm^2/C^2 ga teng. ε_0 - elektr doimiysi deyiladi. $\varepsilon_0 = 8{,}85\cdot10^{-12}$ $C^2/N\cdot m^2 = 8{,}85\cdot10^{-12}$ F/m. Kulon qonuni $r<10^{-15}$ m masofalarda yaxshi bajariladi, lekin $r > 10^{-16}$ m da bu qonun to‘g‘ri bajarilmaydi.



2-rasm.

Elektrostatik kuchlanishning kattaligi kuch **F** ikki nuqta zaryadlar orasida, q_1 va q_2 zaryadlar kattaliklarining ko’paytmasiga to'g'ri proporsional va ular orasidagi masofaning kvadratiga teskari proportsionaldir. Xuddi shunday zaryadlar bir-birini itaradi, qarama-qarshi zaryadlar esa bir-birini tortadi (2-rasm).

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, Kulon o'zaro ta'sir kuchlari superpozitsiya printsipiga bo'ysunadi: agar zaryadlangan jism bir vaqtning o'zida bir nechta jismlar bilan o'zaro ta'sir qilsa, u holda hosil bo'ladigan kuch shu jismga boshqalarga ta'sir qiladigan kuchlarning vektor yig'indisiga teng bo'ladi. zaryadlangan jismlar.

Har qanday zaryadlangan jismni nuqtaviy zaryadlar to‘plami sifatida qarash mumkin. Shuning uchun elektrostatik kuchlar bitta zaryadlangan jismning ikkinchi bir jismga ta’sirini ifodalab, bu birinchi jismni tashkil qilgan nuqtaviy zaryadlar tomonidan ikkinchi jismni tashkil qilgan nuqtaviy zaryadlarni har biriga ta’sir etuvchi kuchlarni geometrik yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Douglas C, Giancoli. “PHYSICS”. PRINCIPLES WITH APPLICATIONS. Pearson. 2014, 445-449-betlar.
2. https://mybiblioteka.su/10-47101.html
3. https://uz.svayambhava.org/lei-de-coulomb-5305

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURI ORQALI O‘QISH, MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKLARINI O‘RGANISH TEHNOLOGIYASI

Burxonov Shavqiddin Sherali o‘g‘li
Jiizax davlat pedagogika univerisiteti Makatabgacha va boshlang‘ich yo‘nlaishlarda masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Nishonova Iroda
Jiizax davlat pedagogika univerisiteti Sirtqi bo‘lim boshlang‘ich ta’lim 4- bosqich talabasi

Annotatsiya. *Maqolada so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim-tarbiyaga e’tiborini kuchaytirish ma’no xususiyatlari birlamchi manbalarga tayanilib tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *PIRLS, xalqaro baholash, o'qish savodxonligi sifatlari, xalqaro tadqiqotlar, TIMSS, PISA, IEA, xalqaro rivojlantirish dasturi, ishtirokchilar.*

Абстрактный. *В статье реализовано в нашей стране за последние годы. В результате реформ достигаются огромные показатели экономического роста, увеличивается спрос на квалифицированные кадры и передовых специалистов во всех областях. На основе первоисточников проанализировано значение повышения интереса наших учеников к урокам и повышения внимания учителей к всестороннему образованию.*

Ключевые слова: *PIRLS, международная оценка, качество читательской грамотности, международная оценка.исследования, TIMSS, PISA, IEA, программа международного развития, участники.*

Abstract. *In the article, it is implemented in our country in recent years Abstract. In the article, it is implemented in our country in recent years As a result of the reforms, huge economic growth indicators are being achieved, increasing the demand for qualified personnel and advanced specialists in all fields. The meaning of increasing the interest of our students in lessons and increasing the attention of teachers to all-round education was analyzed based on primary sources.*

Keywords: *PIRLS, international assessment, quality of reading literacy, internationalstudies, TIMSS, PISA, IEA, international development program, participants.*

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyatxorij davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilishorqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakliginianglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish,xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.Respublikamizda qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatinibaholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi

to‘g‘risida hukumat qaroriningqabul qilinishi Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEAInternational Association for the Evaluation of Educational Achiyevement) nufuzli tashkilotbilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

IEA(Talim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi) tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o‘quvchilarning akademik faoliyatinibir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg‘unlik asosida baholashni o‘z ichiga oladi, buesa dunyo bo‘yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta’lim jarayonlarini chuqur tahlilqilishga yordam beradi. O‘quvchilarning erishgan yutuqlarini o‘rganishda barchao‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardanobyektiv testlarni o‘tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar,o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, maktabdagi ta’lim sifatiga ta’sirko‘rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o‘quvchilarning ta’lim olishga oidqarashlari, o‘qitish usullari hamda uy sharoitida o‘quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo‘llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma’lumotlar to‘planadi. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi.

Ushbu dasturning ko‘p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to‘ladi. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang’ich 4-sinf O‘quvchilarining matnni O‘qish va tushunish darajasini. baholash uchun; Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Shuningdek, PIRLS, yosh o‘quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta’lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya’ni badiiy tajriba orttirish, ma’lumot olish va undan foydalanish ko‘nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o‘tkaziladigan tadqiqotda o‘quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o‘rinlidir. Raqamli formatga o‘tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn 142 o‘qishni kompyuterda baholash kabi o‘zgarishlar ham ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi VM ning 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” gi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi. [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. [1].

PIRLSda rossiyalik boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar. Jamiyatda, o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘quvchilar orasida o‘qish savodxonligi bilan shug‘ullanishning qadr-qimmatini tan olinishi, maktabda va oilalarda o‘qishga bo‘lgan yuqori motivatsiya, maktabgacha tayyorgarlikning yaxshi darajasi, otaonalarning

o‘qishni o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rishdagi ishtiroki, umumiy boshlang‘ich ta’limning Federal davlat asosiy standartlarida (ФГОС НОО) belgilab qo‘yilgan ta’lim jarayonidagi prinsipial o‘zgarishlar: “badiiy o‘qish” va metapredmet natijalari bo‘yicha umumiy ta’limni tashkil etish va natijalarga erishish,boshlang‘ich ta’limning sifatli dasturlari, darsliklar, o‘qishni o‘rgatishning chuqur o‘ylangan metodikasi, o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘quvchilar bilan muvaffaqiyatli ishlash kabi omillar PIRLSda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida O‘rganilgan . PIRLSda rossiyalik boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishdagi o‘sish nuqtalari. Har bir sinfda ta’limni differensiyalashga kuchli e’tibor berilishi zarur, bu borada aksariyat birinchi sinf o‘quvchilarining muvafaqqiyatli boshlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan maktablarga alohida e’tibor berilishi lozim. Yana ikkita muammolarni yodda tutish kerak: 1) Eng kuchli o‘quvchilarga kelgusidagi rivojlanishigako‘maklashish. 2) O‘g‘il bolalarga yordam berish, chunki ularning natijalari qizlarningnatijalaridan ko‘ra yomonroq degan fikrlarni kO‘rib chiqib aynan mana shu vazifalarniboshlang‘ich sinf o‘quvchilarining PIRLSda yuksak yutuqlarga erishishdagi o‘sish nuqtalarideb belgilangan . [3]

Boshlang‘ich ta’lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta’limjarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta’minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo‘lmagan, murakkab (ko‘plik), turli xil matnlarni o‘qish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqish,tushunib o‘qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish (qog‘oz vakompyuter shakllari) kabi vazifalar qO‘yilgan. Rossiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarningo‘qish savodxonligi bo‘yicha olib borilayotgan ishlarda PIRLS darslari. O‘qish tezligini nazorat qilishdan ko‘ra tushunib o‘qishga urg‘u berish kuzatildi. O‘qish savodxonligi funksional savodxonlikning integrativ komponenti sifatida anglatmoqda. Rossiyada bu davlat hujjatlari darajasida qayd etilgan (FDAS UBT 2009-y.) Matematik, lingvistik, tarixiy, tabiiyilmiy va ma’lumotnomalarni

o‘qishni o‘rgatishda o‘ziga xoslik ishlab chiqarilmoqda. O‘qish savodxonligini baholashning turli modellari metapredmet natijasi sifatida yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. SH.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangibosqichga ko‘taramiz” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil, 592 bet 10-bet.
2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov “Umumiy pedagogika” – Toshkent, “Fan va texnalogiya” nashriyoti2018-yil, 530 bet.
3.Turakulov X. A., Buktakov S. Civilizational Pedagogical Systems-Intellectualization Of Educational Content As A Didactic Basis //International Scientific and Current Research Conferences. – 2020. – C. 145-147.
4.Bo‘ltakov S. X. SIVILIZATSION PEDAGOGIK TIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – C. 262-265.
5.Bo‘ltakov S. X. Practical aspects of using civilized pedagogical systems in the training of future primary school teachers //Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 71-73.
6. Safarov, B.N. (2022). Pirls-xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganish bo‘yicha taraqqiyot. Ta'lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 1 (5), 134-138

TA’LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Bahromova Anzura Akram qizi
Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali
Fizika fani katta o’qituvchisi
G-mail: bahromovaanzura@gmail.com

Annotasiya: *Bugungi kunda biz yashayotgan jamiyat to’xtovsiz ravishda rivojlanib, o’zgarib bormoqda. Zamonaviy o’qitish ta’limida doimiy ravishda yangi bilimlarning mazmuni, yangi malakalar bilan oshib boriladi. Haqiqatdan jamiyat taraqqiyotining innovatsion yo’li yangicha yondashayotgan fikrlaydigan va mehnat*

qiladigan insonlar avlodini shakllantirishni ta'minlay oladi. Buning natijasida, eng asosiy e'tibor shaxsning rivojlanishiga, madaniy va kommunikativ tayyorgarligiga, bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallash va rivojlantirishga, axborot va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Shularni hisobga olgan holda, maqolaning eng asosiy maqsadi ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy jihatlarini o'rganishdir.

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lim, Bilim, Ko'nikma, Malaka, Innovatsiya, Pedagogik texnologiyalar, Kompyuter, Pedagogika, Interfaol.*

Abstract: The society we live in today is constantly developing and changing. In modern teaching and learning, the content of new knowledge is constantly increasing with new skills. In fact, the innovative way of social development can ensure the formation of a new generation of thinking and working people. As a result, the main attention is paid to the development of the individual, cultural and communicative preparation, independent acquisition and development of knowledge and skills, formation of information and social skills. Taking this into account, the main goal of the article is to study the main aspects of innovative pedagogical technologies in the educational system.

Key words: *Higher education, Knowledge, Skills, Qualification, Innovation, Pedagogical technologies, Computer, Pedagogy, Interactive.*

Аннотация: *Общество, в котором мы живем сегодня, постоянно развивается и меняется. В современном преподавании и обучении содержание новых знаний постоянно увеличивается вместе с новыми навыками. Фактически инновационный путь общественного развития может обеспечить формирование нового поколения мыслящих и трудящихся людей. В результате основное внимание уделяется развитию индивидуальной, культурно-коммуникативной подготовки, самостоятельному приобретению и развитию знаний и умений, формированию информационных и социальных навыков. Учитывая это, основной целью статьи является исследование основных аспектов инновационных педагогических технологий в системе образования.*

Ключевые слова: *Высшее образование, Знания, Навыки, Квалификация, Инновации, Педагогические технологии, Компьютер, Педагогика, Интерактив.*

Innovatsion jamiyat shakllanishi sharoitida ta'limning funksional xususiyatlari o'quvchilarga nafaqat o'tgan yillarda to'plangan bilim va ko'nikmalar hajmini berish, balki yangi ilmiy g'oyalar, vositalar va usullarni idrok etish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

"Pedagogik texnologiyalar" tushunchasi yangi tushunchalarga aylantirildi: ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, o'qitish texnologiyalari. Pedagogik texnologiya tushunchasiga, o'qitish texnologiyasi tushunchasiga yaqin, lekin bir xil emas. U tegishli o'quv predmeti, mavzusi, masala doirasida muayyan o'quv materialini (konseptsiyani) o'zlashtirish yo'lini aks ettiradi. Ta'lim mazmunini maxsus tashkil etish, o'qitishning tegishli shakllari va usullarini talab qiladi [1].

Demak o'quvchilar eshitadilar, masalalar ishlaydilar va ko'zlari bilan ko'rib o'zlari bajarib har bir mavzuni mustahkamlab boradilar. Mana shu mashg'ulotlardan amaliy mashg'ulotlarni turli o'yinlar bilan tashkil qilinsa mavzu yuzasidan ko'proq ma'lumot berish va talabalarni o'zlarini ko'proq faollik bilan darsga qatnashishlarini ta'minlash mumkin. Hamda guruhni o'zini kichik guruhlarga yoki ikki guruhga bo'lib, o'quvchilarni jamoaviy, jamoa bo'lib ishlashga ham o'rgatib borish mumkin. Turli pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa o'quvchilarni ham fanga bo'lgan qiziqishi oshadi, mustaqil fikrlash va kerak vaqtda tezkor va to'gri qaror qabul qilishni o'rganadilar. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda mavzuga mos kelishini ham e'tiborga olishimiz kerak ya'ni texnologiyani to'g'ri tanlashimiz kerak. Mavzuni qismchalarga bo'lib, qaysi qismida qanday metoddan foydalansak samarali bo'lishiga ham e'tibor berishimiz kerak [2].

Masalan, bu fanlarni o'rganish, o'yin texnologiyasi, muammoli o'qitish texnologiyasi (uslub darajasida), axborot texnologiyalari, qo'llab-quvvatlash sxemalaridan foydalanish texnologiyasi, klassik ma'ruza mashg'ulotlari, audiovizual texnik vositalar yoki kitoblardan foydalangan holda trening, individual, masofaviy o'rganish, kompyuterni o'rgatish va boshqalar.

Ta'lim innovatsiyalari ta'limning maqsadi, mazmuni, usullari, shakllari, faoliyat usullari va uslubini o'zgartirishga, o'quv jarayonini zamonning zamonaviy talablariga va ijtimoiy talablarga moslashtirishga olib keladigan qisman o'zgarishlarning maqsadli jarayoni bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, ta'lim amaliyotiga yangi narsalarni kiritish va tasdiqlash ijobiy o'zgarishlar bilan bog'liq, shuning uchun u ma'lum bir ta'lim muassasasining dolzarb muammolarini hal qilish vositasiga aylanishi va innovasiyalarni yakuniy qo'llash uchun eksperimental sinovlarga dosh berishi kerak. Bu, birinchi navbatda, zamonaviy modellashtirish, nostandart ma'ruzalar, amaliy, seminarlar tashkil etishdan iborat bo'lishi kerak; o'quv qurollarini individuallashtirish; ofis, guruh va qo'shimcha ta'lim; ixtiyoriy, talabalarning tanloviga ko'ra, bilimlarni chuqurlashtirish; muammoga yo'naltirilgan ta'lim; yangi materialni o'rganishda ilmiy va eksperimental; bilimlarni baholashning yangi nazorat tizimini ishlab chiqish; kompyuter, multimedia texnologiyalaridan foydalanish; yangi avlodning o'quv va uslubiy mahsulotlari

Hozirgi vaqtda ta'lim amaliyotida quyidagi pedagogik texnologiyalar eng ko'p qo'llaniladi [3]:

- tarkibiy va mantiqiy texnologiyalar: natijalar diagnostikasini hisobga olgan holda mazmun, shakllar, usullar va vositalarni bosqichma-bosqich tanlash asosida didaktik muammolarni shakllantirish va hal qilishning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlovchi o'quv tizimini bosqichma-bosqich tashkil etish;
- integratsiya texnologiyalari: fanlararo bilim va ko'nikmalarning integratsiyalashuvini ta'minlovchi didaktik tizimlar, integratsiyalashgan kurslar (shu jumladan elektron) darajasida turli xil faoliyat turlari;
- professional va biznes o'yin texnologiyalari: turli xil "o'yinlar" dan foydalanishning didaktik tizimlari, ular davomida muammolarni hal qilish ko'nikmalari murosali tanlov asosida shakllanadi (ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, simulyatsiya mashqlari, individual treninglar, kompyuter dasturlari va boshqalar).
- o'quv vositalari: kompyuter yordamida tipik amaliy muammolarni hal qilish uchun ma'lum algoritmlarni ishlab chiqish bo'yicha faoliyat tizimi (intellektual rivojlanish, muloqot qilish, boshqaruv muammolarini hal qilish uchun psixologik treninglar va boshqalar);
- turli xil o'quv dasturlari (o'qitish, nazorat qilish, axborot va boshqalar) yordamida "odam-mashina" dialogiga asoslangan didaktik kompyuter o'qitish tizimlarida amalga oshiriladigan axborot va kompyuter texnologiyalari;
- dialog va kommunikatsiya texnologiyalari: o'zaro ta'sir qiluvchi didaktik tizimlarda o'qitishning dialogli fikrlashga asoslangan shakllari va usullari majmui.

Ta'lim amaliyotida o'qitish texnologiyalarini diversifikatsiya qilish an'anaviy ta'limni modernizatsiya qilish va uni samarali, maqsadli yo'nalishga qayta yo'naltirish orqali ularni faol va samarali birlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv bilan bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy rivojlanishiga, ijodiy va tanqidiy fikrlashning yangi tajribasini o'zlashtirish qobiliyatiga, ta'lim muammolarining echimlarini izlashning rolli va simulyatsiya modellariga e'tibor qaratiladi.

O'qitishning individual usullarini ularning yangiligi, samaradorligi, samaradorligi, oliy ta'limni axborotlashtirishning zamonaviy sharoitida qo'llashning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqaylik. Ta'limning ijodiy tarkibiy qismi sezilarli darajada o'sib borayotganligi sababli, o'quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning roli faollashmoqda, o'quvchilarning ijodiy va izlanish mustaqilligi mustahkamlanmoqda, kompyuter tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq muammoli va interaktiv ta'lim tushunchalari o'zlashtirildi. alohida ahamiyatga ega. Bunday ta'lim jarayonida talaba o'qituvchi bilan onlayn muloqot qilishi, ijodiy, muammoli vazifalarni

hal qilishi, vaziyatlarni, shu jumladan analitik va tanqidiy fikrlash, bilim, qidiruv qobiliyatlari va boshqalarni taqlid qilishi mumkin.

Interfaol dars davomida o'qituvchining ish algoritmi [4]:

1) ushbu darsda interfaol usullardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini aniqlash;
2) o'quv materialini, shu jumladan qo'shimcha (testlar, misollar, vaziyatlar, guruhlar uchun topshiriqlar va boshqalar) sinchkovlik bilan tanlash va tahlil qilish;
3) darsni rejalashtirish - bosqichlar, vaqt, guruhlarga taxminiy bo'linish, ishtirokchilarning rollari, savollar va mumkin bo'lgan javoblar;
4) guruhlar, sinflar ishi samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
5) muammoli vaziyat yaratish, qiziqarli faktlarni keltirish va boshqalar orqali o'quv faoliyatini rag'batlantirish.
6) mavzuni e'lon qilish, taqdim etishda o'quvchilarning o'z faoliyati mazmunini tushunishini va kutilayotgan natijalarni shakllantirishni ta'minlash;
7) amaliy topshiriqlarni eng qisqa vaqt ichida bajarish uchun talabalarni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash;
8) interfaol mashqlar orqali o'quv materialini talabalar tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash (o'qituvchining tanlovi bo'yicha);
9) turli shakllarda aks ettirish (jamlash) - individual ish, juftlik, guruhda ishlash, muhokama qilish, chizmalar, diagrammalar, grafiklar va boshqalar.

Pedagogika va psixologiya fanidagi yondashuvlar, oliy o'quv yurtlari amaliyotidagi modellar ko'pligiga qaramasdan, pedagogik texnologiyalarning to'rtta asosiy varianti mavjud

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovasion pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida o'z o'rnini egallagach, ular asta-sekin an'anaviy ish uslublari va shakllari o'rnini bosishi tabiiydir. Bunda oliy ta'lim muassasalari jahondagi oliy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini va xalqaro madaniy muhitni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishda optimal yondashuvni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Mtawa N., Masanche Nkhoma N. (2020) Fuqarolik, vijdonlashtirish va fuqarolik agentligini rivojlantirish uchun oliy ta'lim pedagogikasi sifatida xizmat ko'rsatish: qobiliyatli nuqtai nazar. Oliy ta'lim pedagogikasi 5:1, 110-131-betlar.
2. S.I Mirhayitova "Pedagogik texnologiya". Modul bo'yicha qo'llanma Toshkent-2020. b. 42-43
3. Gonsales-Zamar, Mariana-Daniyela va Abad-Segura, E. Meneses, E. va Gomez G. (2020) Barqaror ta'lim uchun AKTni boshqarish: Oliy ta'lim kontekstida tadqiqot tahlili. Barqarorlik. 12. 8254. http://doi.org/10.3390/su12198254

3. Kryshtanovych, M., Kryshtanovych, S., Stechkevych, O., Ivanytska, O., va Huzii, I. (2020). Pandemiyadan keyingi jamiyat sharoitida ilmiy va murabbiylik usullaridan foydalangan holda inklyuziv ta'limni rivojlantirish istiqbollari. Postmodern ochilishlar, 11-jild. № 2, 73-bet

O'SMIRLARDA DELIKVENT AXLOQNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Asilova Sanobar Xatamboyevna
Qo'qon universiteti Psixologiya yo'nalishi ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Shokirjonova Diyoraxon
Qo'qon universiteti amaliy psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Ibrohimova Muslimaxon
Qo'qon universiteti amaliy psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Noqonuniy xatti- harakatlar qilish istagi bolalar va o'smirlarning delikvent xatti -harakatlari rivojlanishi bilan ortib bormoqda. Shuning uchun ham profilaktika ishlari barcha ta'lim muassasalarida joriy etilishi kerak. Bundan maqsad esa o'smirlarga har bir harakatlari uchun javobgarlik hissini uyg'otish. Mazkur maqolada o'smirlar o'rtasida delikvent xulq-atvorning rivojlanishi va bunga ta'sir etuvchi omillar haqida fikrlar yuritilgan. Delikvent xlq-atvorning sabab va oqibatlatri, dolzarb mavzuning yechimlariga oid xulosalar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zilar: *o'smirlik davri, delikvent xulq atvor, rivojlanish, munosabatlar, kayfiyat, salbiy illatlar, ta'sirlar, ijtimoiylashuv.*

Абстрактный*: Стремление к совершению противоправных действий возрастает по мере развития делинквентного поведения детей и подростков. Именно поэтому профилактическую работу необходимо внедрить во всех образовательных учреждениях. Цель этого – заставить подростков почувствовать ответственность за свои действия. В данной статье рассматривается развитие делинквентного поведения у подростков и факторы, влияющие на него. Сделаны выводы о причинах и последствиях делинквентного поведения и пути решения сложившейся проблемы.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, делинквентное поведение, развитие, взаимоотношения, настроение, негативные пороки, влияния, социализация.*

Abstract: *The desire to commit illegal acts increases with the development of delinquent behavior of children and adolescents. That is why preventive work should be introduced in all educational institutions. The purpose of this is to make teenagers feel responsible for their actions. This article discusses the development of delinquent behavior among teenagers and the factors affecting it. Conclusions about the causes and consequences of delinquent behavior and solutions to the current issue are given.*
Key words: adolescence, delinquent behavior, development, relationships, mood, negative vices, influences, socialization.

Kirish. O‘smirlik davri bolalikdan kattalik davrga o‘tishdagi inson taraqqiyoti davri hiso blanadi. Bu davr ong, faoliyat va munosabatlar tizimida tub o‘zgarishlarga ega ekani bilan xususiyatlanadi. Agar “o‘smirlik inqirozi” davrida farzand tarbiyasi va ruhiy kechinmalariga alohida e’tibor berilmasa, keyinchalik ularning fe’l atvorida salbiy o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun bu davrda ota-onalar juda e’tiborli bo‘lishlari kerak va farzandi bilan nimalar sodir bo‘layotganini bilishlari kerak. Ko‘pincha biz ota-onalar o‘smirlik davrida bolaning kayfiyati o‘zgaruvchan bo‘lib qolishi haqidagi muammo bilan murojaat qilishlariga duch kelamiz. Ba’zan ota-onalar o‘smir bilan qanday muloqot qilishni bilmay o‘zlarini ojizliklarini his qiladilar. Ular har qanday yo‘llar bilan farzandlariga ta’sir o‘tkazishga harakat qiladilar va bunda hattoki salbiy yo‘llarni ham qo‘llaydilar. Masalan, ko‘pincha ular o‘smirga baqirib yuborishadi yoki uni turli usullar bilan jazolashadi. Natijada o‘zaro munosabatlar yanada yomonlashadi. Dunyoda diniy ekstrremizim, terrorizm, giyohvandilik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi yovuz xavf-xatarlar insoniyat boshiga o'g'ir kulfatlar soiayotgan hozirgi murakkab bir davrda yoshlar tarbiyasi masaiasi yanada muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas.Albatta, bugunungi kunda yurtimizda yoshiarimiz qaibida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini kamol toptirish, uiarni sog'lom turmush tarzi ruhida tarbiyaiashga qaratiigan targ'ibot -tashviqot ishiari olib borilmoqda. Ammo ochiq tan olishimiz kerakki , bu borada amalga oshirayotgan ishlarimiz hali yetarli darajada emas. Shunung uchun biz yoshiarimiz, ayniqsa uyushmagan yoshlar bilan ishlashga jiddiy e’tibor qaratishimiz zarur. Biz ular bilan ko‘proq gaplashishimiz, qalbiga quloq solishimiz, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz, eng asosiysi, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek, “Yoshlarga yo'lni keng ochib berishimiz kerak”.

Deviant xulq-atvor – xulqiy og‘ishlikning bir turi bo‘lib, o‘smirning yoshiga muvofiq bo‘lmagan ijtimoiy xulq-atvor me’yor va qoidalarning buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan mikrosotsium munasabatlar (oilaviy, maktabdagi) va kichik jinsiy yosh

ijtimoiy guruhlari uchun xarakterli bo‘ladi. Ya’ni xulq-atvorning bu tipini intizomsizlik deb atash mumkin. Deviant xulq-atvor ko‘rinishlariga o‘smirning namoyishkorlik, agressivlik, o‘ziga erk berish, o‘qish va mehnat faoliyatidan tizimli, muntazam og‘shlik, uydan ketib qolish, daydilik, ichkilikbozlikka berilish, alkogolizmga berilish, giyohvandlik va u bilan bog‘liq assotsial faoliyatlar; jinsiy xarakterdagi jamiyatga qarshi faoliyatlar. Delikvent xulq-atvor deviantlikdan farqli ravishda bolalr va o‘smirlarning assotsial xulq-atvori bilan xarakterlanadi. Bu xulqiy harakatlarda xuquqiy me’yorlarni bola buzib o‘tsada, huquqiy, jinoiy javovgarlikka tortilmaydi. Sababi cheklangan ijtimoiy xavfli yoki bola jinoiy javobgarlikka tortilish yoshiga yetmagan hisoblanadi. Delikvent xulq-atvorda: asosan inson shaxsiga qarshi, agressiv – zo‘ravonlik xulqi, haqorat, janjalkashlik; o‘t qo‘yish, sadistlik harakatlari ajralib turadi. Delikvent xulqiy og‘ishgan sub’yekt, o‘z harakatlarida jinsiy jazolanadigan faoliyatlarni amalga oshiradi. O‘smirlarda delikvent rivojlanishi ifodasi odamlarning yoshligiga qarab muammolar va muammolarni hal qilishlari uchun xizmat qiladigan tadbirlar va dasturlarga ishora qiladi. Delikventlik, ya’ni jinoyatlar va huquqiy muammolar bor yoshga ega bo‘lgan shaxslarning raqobatdan o‘tkazishlari, ularning o‘zaro munosabatlari, ularning ijtimoiy integratsiyasi va boshqa muhim masalalar bu fikr bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘smirlarda huquqbuzarliklarning rivojlanishiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu omillardan ba’zilari:ni ko‘rib chiqamiz:

1. Oila muhiti: Oiladagi nosog‘lom muhit, jumladan, oiladagi nizolar, tartibsizlik intizomi, nazoratsizligi va ota-onalarning e’tiborsizligi o‘smirlarda huquqbuzarlik xulq-atvorining rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

2. Tengdoshlarning ta’siri: Tengdoshlarning bosimi va jinoiy xatti-harakatlarga qo‘l urgan tengdoshlari bilan aloqasi o‘smirlarning o‘zlarini huquqbuzarlik qilishlariga ta’sir qilishi mumkin.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: past ijtimoiy-iqtisodiy maqom, qashshoqlik, resurslar va imkoniyatlardan foydalana olmaslik.

4. Maktab muhiti: yomon o‘quv natijalari, maktabdan qochish, o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlarning yo‘qligi.

5. Ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar: Depressiya, tashvish yoki xatti-harakatlarning buzilishi kabi ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan o‘smirlar huquqbuzarlik bilan shug'ullanishi mumkin.

6. Giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish: Giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish, jumladan spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste’mol qilish o‘smirlarda huquqbuzarlik ehtimolini oshirishi mumkin.

7. Individual omillar: impulsivlik, o‘zini tuta bilishning pastligi, sensatsiyaga intiluvchanlik, empatiyaning yo‘qligi kabi omillar o‘smirlarda huquqbuzarlik xulq-atvorining rivojlanishiga yordam beradi. Bu omillarni barvaqt bartaraf etish, o‘smirlarda huquqbuzarliklarning oldini olish uchun yordam va aralashuvni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. O‘smirlik yoshida deviatsiya namoyon b‘'lishining tinimisiz oshib borishi ijtimoiy pedagog oldida bu o'smirlar bilan ishlashning yangi usullari, texnologiyalarini izlash va ularga tadbiq etish vazifasini qo‘yadi. Ilmiy nazariy va amaliyotda ikki asosiy texnologiya-profilaktika va reabilitatsiya keng tarqalgan. Profilaktika-o‘smirlar xulq-atvorida ijtimoiy normalardan og‘ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilga ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir. U asosan bolani o'rab turuvchi muhitga bog‘liq bo‘ladi.

Deviant hulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga yetmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tushunchalarni shakillantirishdir. Huquqiy tarbiyani berish orqali esa biz o‘smirlardagi burch va ma’sulyatni rivojlantirgan bo‘lamiz. Huquqiy profilaktika choralari odatda, birmuncha kech amalga oshiriladi. Huquqbuzarlikni oldini olish bilan bog‘liq huquqiy choralar —ishlashi uchun u bolaning ongiga singdirilishi, bolaning e‘tiqodi, tajribasining bir qismiga aylanishi kerak. Buga yuqorida aytib o‘tganimizdek aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish yo‘li bilan erishish mumkin.

Xulosa buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog‘imiz zarur. Shu sababli yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini bilishi, qonun hurmat qilishi, ularga so‘zsiz bo‘ysunishi madaniyatiga ega bo'‘ishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning bosh maqsadidir. Asosiy maqsad-negativ holatlarning sabablari va sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, neytrallashdan iborat. Voyaga yetmaganlar giyohvandlikni - shaxsiy ish deb biladilar, faqat giyohvandliik modalarini tarqatish jinoyat deb hisoblaydilar. O‘smir giyohvandlik va kuchli ta’sir etuvchi psixotron moddalar to‘g‘risidagi yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan bu modalarni iste’mol qiluvchilar ham javobgarlikka tortiladilar. Bizning jamiyatimizda o‘smirlar o‘rtasidagi alkogolizm-ichkilikbozlik profilaktikasi muammosi ham muhim o‘rin tutadi. O‘smirlar ichkilikbozlik va alkogolizmning og‘ir ijtimoiy va psixonevrologik oqibatlari haqida ham bilmaydilar. Agar insonda psixik (ruhiy) rivojlanishi, sog‘lig‘ida turli nuqsonlar bo‘lsa u o‘z ruhiy xususiyatlariga asosan ma’naviy axloqiy me’yorlarni buzishi mumkin. Bu holatda insonga uni o‘zgartirib bo‘lmaydigandek qaraladi. O‘smirlarda psixik nosog‘lomlikni o‘z vaqtida aniqlash juda muhimdir. Chunki ular umuman xayolga kelmaydigan harakatlarni sodir etishlari mumkin. O‘smirlarda delikvent axloqning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar turli

ko‘rinishlarda namoyon bo’ladi. shu sababdan ham aniq tashxislash va tuzatish ishlarini o‘z vaqtida olib borish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(12), 208–211. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507
2. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(12), 208–211. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507
3. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." Analysis of International Sciences 2.2 (2024): 51-57.
4. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 188–193. Retrieved from https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644
5. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505
6. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
7. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
8. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA’NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/

РАЗВИТИЕ НАУКИ НАНОЭЛЕКТРОНИКИ И НАНОТЕХНОЛОГИЙ

ассистент. Абдиев Хасан, студент. Мирзаев Алишер
Джиззакский политехнический институт

Аннотация. *Разработан оптимальный перечень источников отраслевой информации и методика поиска. В результате поиска информации из обозначенных источников созданы предварительные реестры наноматериалов и нанотехнологий в области наноэлектроники.*

Ключевые слова. *наноматериалы, технологии, анализ, наноэлектроника, нанотехнологии, формирование предметной, самоорганизация, метод, атом, структура, транзисторы.*

Abstract. *An optimal list of sources of industry information and a search methodology have been developed. As a result of searching for information from the indicated sources, preliminary registers of nanomaterials and nanotechnologies in the field of nanoelectronics were created.*

Key words. *nanomaterials, technology, analysis, nanoelectronics, nanotechnology, subject formation, self-organization, method, atom, structure, transistors.*

Задачей этапа являлось формирование и первичное структурирование предметной области поиска и извлечения знаний по заданному тематическому направлению деятельности ННС. На основе имеющихся литературных данных и поисковых действий в Интернет проведены описание и анализ современного состояния исследований в области наноматериалов и нанотехнологий в наноэлектронике. Осуществлено структурирование и описание взаимосвязей элементов полученной информации в виде понятий предметной области. Предложена инфологическая модель предметной области, которая включает в себя пять основных типов наноматериалов [1]. Среди них: различные виды низкоразмерных полупроводниковых наноструктур (нуль, - одно и двумерных), магнитные наноструктуры, двумерные многослойные структуры из пленок нанометровой толщины и слоев квантовых точек (сверхрешеточные структуры), молекулярные наноструктуры, фуллереноподобные материалы, а также методы их диагностики. Предложены содержания информационного наполнения баз данных по наноматериалам, нанотехнологиям и наноустройствам, на основании которых на следующем этапе будет сформиро-вана логическая модель

хранилища данных - прототипа будущей базы данных. Разработаны оптимальный перечень источников информации по направлению и методика поисковой работы. В результате проведенного поиска информации по установленным источникам разработаны предварительные реестры наноматериалов и нанотехнологий по направлению наноэлектроника. Развитие современной полупроводниковой электроники включает применение нанотехнологий, которые определяются как наука и техника создания, изготовления, характеризуй и реализации материалов и функциональных структур и устройств на атомном, молекулярном и нанометровом уровнях [2]. Нанотехнологии должны обладать атомной точностью при получении полупроводниковых наносистем с необходимым химическим составом и конфигурацией и включают методы комплексной диагностики наноструктур, в том числе контроль в процессе изготовления и управление на этой основе технологическими процессами. Развитие нанотехнологий было стимулировано разработкой полупроводниковых наноструктур, выращенных методами молекулярно-пучковой и металлоорганической эпитаксии, и созданием на их основе принципиально новых приборов и устройств электроники и оптоэлектроники, широко используемых сейчас в системах хранения, пердачи и обработки информации (лазеры на квантовых ямах и свехрешетках, СВЧ – транзисторы с двумерным электронным газом и др.). Мощным толчком развития нанотехнологий послужило открытие в 80-х годах XX века туннельной микроскопии, идеи которой легли в основу разработки широкого спектра современных зондовых методов диагностики материалов на наноуровне, а также ряда технологических приемов (нанолитография, молекулярная сборка, самоорганизация). Существенно усовершенствованы известные технологии (электронная и рентгеновская литография, техника сфокусированных ионных пучков) и диагностические методы (электронная микроскопия свервысокого разрешения, сканирующая зондовая микроскопия, рентгеновские методы, в том числе с использованием синхротронного излучения, фемтосекундная спектроскопия), что позволяет контролируемым образом создавать наноструктуры, наноматериалы и устройства различного назначения на их основе. Современный опыт разработки приборов и устройств на основе квантовых гетероструктур (лазеры на квантовых точках, сверхбыстродействующие транзисторы, запоминающие устройства с гигантским магнитосопртивлением) показывает, что результаты фундаментальных исследований в этой области находят практическое применение за весьма короткое время.

Современный научно-технический прогресс несомненно определяется развитием электроники, основой которой являются достижения в различных областях фундаментальных наук, главным образом, физики твердого тела, физики полупроводников, а также твердотельной технологии. Последние достижения науки показывают, что, в отличие от традиционной микроэлектроники, потенциальные возможности которой в ближайшее десятилетие, по-видимому, будут исчерпаны, дальнейшее развитие электроники возможно только на базе принципиально новых физических и технологических идей [3]. Так, на протяжении ряда десятилетий повышение функциональной сложности и быстродействия систем достигалось увеличением плотности размещения и уменьшением размеров элементов, принцип действия которых не зависел от их масштаба. При переходе к размерам элементов порядка десятков или единиц нанометров возникает качественно новая ситуация, состоящая в том, что квантовые эффекты (туннелирование, размерное квантование, интерференционные эффекты) оказывают определяющее влияние на физические процессы в наноструктурах и функционирование приборов на их основе.Многообещающим является также создание наноструктур, в которых роль функциональных элементов выполняют отдельные молекулы. В перспективе это позволит использовать принципы приема и переработки информации, реализуемые в биологических объектах (молекулярная наноэлектроника). Новые возможности в повышении мощности, температурной и радиационной стойкости, расширении диапазона частот, улучшении эргономических характеристик приборов открывает направление, в котором синтезируются идеи и технологические достижения вакуумной и твердотельной электроники (вакуумная наноэлектроника).Создание наноструктур базируется на новейших технологических достижениях в области конструирования на атомном уровне твердотельных поверхностных и многослойных структур с заданным электронным спектром и необходимыми электрическими, оптическими, магнитными и другими свойствами [4]. Требуемая зонная структура таких искусственных материалов обеспечивается выбором веществ, из которых изготовляются отдельные слои структуры («зонная инженерия»), поперечных размеров слоев (размерное квантование), изменением степени связи между слоями («инженерия волновых функций»). Наряду с квантово-размерными планарными структурами (двумерный электронный газ в квантовых ямах, сверхрешетки) исследуются одно- и нуль-мерные квантовые объекты (квантовые нити и точки), интерес к которым связан с надеждами на открытие новых физических явлений и, как следствие, на получение новых возможностей

эффективного управления электронными и световыми потоками в таких структурах.Нанотехнологии призваны решить следующие задачи в электронике [2]:- резкое повышение производительности вычислительных систем;

- резкое увеличение пропускной способности каналов связи;

- резкое увеличение информационной емкости и качества систем отображения информации с одновременным снижением энергозатрат;

- резкое повышение чувствительности сенсорных устройств и расширение спектра измеряемых величин, что важно, в частности, для задач экологии;

- создание высокоэкономичных твердотельных осветительных приборов;

- существенное увеличение удельного веса использования электронных и оптоэлектронных компонентов в медицинских, биологических, химических, машиностроительных и других технологиях.

Резкое повышение производительности вычислительных систем необходи-мо в связи с переходом технологии интегральных схем к нанометровому масс-штабу. В табл. 1 приведен прогноз уменьшения характерных размеров ИС па-мяти и процессоров (ITRS Roadmap 2002), в табл. 2 — перспектива уменьшения энергии на одно переключение [5].

Таблица.1

	Year of production, нм	2003	2010	2013	2016
DRAM	1/2 Pitch	100	45	32	22
MPU	1/2 Pitch	107	45	32	22
MPU	Printed Gate Length	65	25	18	13
MPU	Physical Gate Length	45	18	13	9

Таким образом, развитие «традиционной микроэлектроники» подразумевает переход к нанотехнологии.

Литература:

1. Taylanov N. A., Dzhuraeva N. M., Bobonov D. T. Diffusion evolution of electromagnetic perturbations in superconductors //Uzbekiston Fizika Zhurnali. – 2019. – Т. 21. – №. 2. – С. 130-132.

2. Бобонов Д. ФОРМИРОВАНИЕ ПРИМЕСНЫХ КЛАСТЕРОВ В РЕШЕТКЕ КРЕМНИЯ С УЧАСТИЕМ ПРИМЕСНЫХ АТОМОВ СЕЛЕНА //Universum: технические науки. – 2020. – №. 6-1 (75).

3. Bobonov D. T. The electric properties and current instability in silicon doped by selenium; Ehlektricheskie svojstva i neustojchivosti toka v kremnii legirovannogo selenom. – 2010.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘rganish natijasida amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda ITlardan foydalanishning pedagogik tuzilmasi sxemasi va natijasini tashxis qilish modeli ishlab chiqildi.

Bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini axborot texnologiyalari asosida tayyorlash turli darajadagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshirildi. Vazifalarni bajarishda faoliyatning xususiyatiga qarab, axborot texnologiyalari asosida kasbiy,

pedagogik ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning to‘rt (intutiv, reproduktiv, reproduktiv-ijodiy, ijodiy) darajasi belgilandi.

Bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini axborot texnologiyalari asosida tayyorlashning pedagogik tuzilmasi ilmiylik, uzviylik, ketma-ketlik, ko‘rgazmalilik, faollik, fanlararo aloqadorlik tamoyillariga asoslangan, shuningdek, ta’lim natijasini aniqlash uchun baholash mezonlari aniqlanib olindi. Ekspert baholash mezonlarini belgilash va ularning ob’yektivlik, integrativlik, qaytar aloqa o‘rnatish, psixologik moslashuvchanlik kabi tashkiliy-funksional imkoniyatlarini tizimlashtirish orqali bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini pedagogik tashxis qilish metodlari (darsni spesifik tahlil qilish, ijodiy topshiriq, amaliy ishlar) takomillashtirildi.

O‘quvchilarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni axborot texnologiyalari asosida shakllantirish jarayoni vaziyatni yaratishda mazkur pedagogik jarayon ishtirokchilari, ya’ni bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, uning tarkibiy qismlari mazmuni, kompyuterni o‘quvchining faoliyat ob’yekti sifatida jalb etish holatlari kuzatildi. axborot texnologiyalari asosida o‘qitishda o‘rganilayotgan pedagogik hodisa yoki jarayonning axborot modeli o‘quvchi faoliyatining ob’yekti hisoblanadi.

O‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va mlakalarni axborot texnologiyalari asosida shakllantirish pedagogik ta’minotining zaruriy sharti pedagogning mazkur jarayonga tayyorligi hisoblanadi. O‘qituvchi xalq hunarmandchiligi o‘quv fanini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘rganish asosiga metodik tizim bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish dasturiga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganimizda, tadqiqot ishlarimizda umumta’lim maktablari texnologiya ta’limi yo‘nalishlari bitiruvchilari malaka talablari va ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalarini tashxislashning tahliliy, loyihalash va pedagogik prognostik komponentlari funksiyalarini intengrativ muvofiqlashtirish asosida bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini axborot texnologiyalari asosida tayyorlashning konseptual asosi mazmuni takomillashtirildi.

Adabiyotlar:

1. Sotiboldiyev Z.Sh. “Dizayn asoslari”. -T.: “Iqtisod-moliya”. 2008.B. 22
2. Stefanovskaya T.A. Pedagogika: nauka i isskustvo. –M.: Izdatelstvo “Sovershenstvo”. -1998. S.19
3.Tolipov O‘.Q., Sharipov Sh.S., Islamov I.N. O‘quvchilar dizaynerlik ijodkorligi. – Toshkent: “Fan”, 2006. B.34
4. Habibullo Solih. Ramziy bezaklar ma’nosi. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2003. B.21

5. Xodjaboyev A.R. Nauchno-pedagogicheskiye osnovы uchebno-metodicheskogo kompleksa podgotovki uchitelya truda. Avtoref. dissd-ra ped. nauk.T.: 1992. S.55
6. Nishanaliyev U.N. Formirovaniye lichnosti uchitelya trudovogo obucheniya: problemы i perspektivы. –Tashkent: O'qituvchi, 2000. S.198.
7. X.S Soyibjanovich, S.S Masalbekova - Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalariga "Materialshunoslik va konstruksion materiallar" fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Journal of Universal Science Research, 2023.

TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Mustafaqulov Asatulla Asrorovich
Jizzax politexnika instituti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
E-mail: asatullamustafaqulov@gmail.com
Usanov Ulug'bek Abdurauf o'g'li
Jizzax politexnika instituti
Professonal ta'lim nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqola yildan-yilga sifatli ta'lim olishni xohlovchilar sonining keskin oshib borayotganligi, ta'lim oluvchilarning o'qish ehtiyojlari kengayib borishi, yangi mutaxassisliklarning paydo bo'lishidan kelib chiqqan xolda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishning ayrim masalalariga bag'ishlangan.*

Tayanch so'zlar: *Ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish, zamonaviy tendensiyalar;*

Аннотация: *Освещаются вопросы повышения уровня менеджмента в высших учебных заведениях и повышения уровня подготовки конкурентоспособных кадров по мере увеличения образования различных сфер и увеличения потребности в учебе за счет появления новых специалистов.*

Ключевые слова: *качество образования, качество управления образованием, современные тенденции;*

Abstract: *There are enlightened some issues of increasing of management in the sphere of higher educational institutions and improving of preparation of compete able*

personal as educates of different spheres are increasing and widening of study demand by appearing of new specialists.

Key words: *Quality of education, management quality of education, modern tendencies.*

Bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohatlarning asosiy maqsadi – yurtimizda sog‘lom, barkamol, bilimli va yuksak ma’naviy axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan yosh avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Ta’lim tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi talabalarni Vatanimizni sevadigan, o‘z bilimi va iste’dodiga suyanadigan hamda zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanilgan holda mustaqil ravishda puxta bilim oladigan, O‘zbekistonning qudratli davlat bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadigan, har tomonlama barkamol, sog‘lom qilib tarbiyalashdan iborat. Mazkur vazifalar, eng avvalo samarali ta’lim berish orqali amalga oshiriladi.

Samarali dars o‘qituvchining umumiy tayyorgarligi orqali, umumiy tayyorgarlik esa uzluksiz va uzviylik tamoyiliga asoslangan.

Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, ta’lim mazmuni samaradorligini oshirish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida Evropaning rivojlangan mamlakatlari hamda mamlakatimizda chet tillari bo‘yicha uzluksiz ta’lim tizimining davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasiga asoslangan holda, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo‘yicha uzuluksiz ta’limning davlat standartlari va o‘quv dasturlari yangicha yondashgan xolda tayyorlanib, uni amaliyotga tatbiq etib turilibdi. Hozirgi kunda amalda bo‘lgan DTS larining tarikbiy qismlari:

• bilim – o‘rganilgan materiallarni eslab qolish va tushuntirib berish;

• ko‘nikma - o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarida qo‘llay olish;

• malaka – o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tavsiya qilinayotgan ta’lim standartlarida talabalarda kompetensiyalarni shakllantirish ham ko‘zda tutiladi.

Vatanimizda ta’lim sohasi rivojlanishida biz albatta rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan o‘zimizga xos jihatlarda foydalanishga katta e’tibor bermoqdamiz. Jahon tajribalardan eng ilg‘or ta’lim sohasidagi rivojlanish yutuqlarini kuzatganimizda ularda ham mavjud qiyinchiliklar va ularni bartaraf etilish usullari bizga ma’lum ma’noda saboq bo‘lishi zarur. Shunga ko‘ra, quyida biz jahonda rivojlanish darajalari yuqori ko‘rsatkichlarni egallagan davlatlar tajribasini ko‘rib o‘tamiz.

Janubiy Koreya muvaffaqiyati va ta’lim tizimi.

Dunyoda ta'lim yo'nalishida Janubiy Koreya ta'lim sohasi etakchi o'rinni egallab, ilmiy salohiyat ham shiddat bilan yuksalib bormoqda. Bu fikrlar isboti sifatida "Ilmiy yuksalishni baholash halqaro tashkiloti" (IAEP) tomonidan 2015 yilda 19 mamlakat talabalari orasidan 18 yoshli o'smirlar uchun egallangan ta'lim sifatini ifodalovchi monitoring tadqiqotlarida Janubiy Koreya yoshlari birinchi o'rinni egalladilar. Bu halqaro yutuq sifatida mamlakat milliy iftixori deb hisoblanadi. Buning sababi hukumatning ta'lim siyosatining to'g'ri olib borilayotgani deya baholanadi.

Janubiy Koreyada majburiy umumiy o'rta ta'lim 6 yillikdan iborat bo'lib, umumiy o'rta ta'lim 7 yoshdan boshlanadi. Ta'limning keyingi bosiqchi bo'lgan kasbga yo'naltirish Janubiy Koreyada 13 yoshdan boshlanib, O'zbekistonda o'rta maxsus kasb hunar ta'limi 16 yoshdan boshlanadi.

Janubiy Koreyada oliy ta'lim tizimida ham o'z nufuziga ega bo'lgan universitetlar paydo bo'lib bu kadrlar tayyorlashning muhim yo'nalishlarini yuzaga keltirdi. Jamiyatda eng yaxshi ish o'rinlari Seul Universiteti talabalariga nasib qilishi uning boshqa universitetlar nufuzidan balandligidan belgilab, universitetga eng yaxshi maktab o'quvchilari talabalikka qabul qilingan. Bu jihat Evropadagi ta'lim tizimga xos tabaqalanish usuli edi. Bu aholi o'rtasida Evropa madaniyatiga intilishini keltirib chiqardi va so'nggi yilarda Janubiy Koreya ta'limiga

Evropa ta'lim tizimi xususiyatlari importi amalga oshirildi.

Yaponiya davlatining ta'lim tizimi. Milliy jihatdan umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan Osiyo davlatlari jumlasidan bo'lgan Yaponiya davlatining ta'lim tizimi va erishayotgan yutuqlari ham o'rgansa bo'ladigan jihatlarga egadir.

Mutaxassislar yapon ta'lim tizimini natijasi sifatida mamlakatni yuqori malakali kadrlar tayyolanayotganligida va fan texnika yutuqlarining shiddat bilan amaliyotga tatbiq etilayotganligi bilan izohlaydilar. Bugungi kunda Yaponiyadagi erishilayotgan yuqori ko'rsatkichlar sababini mutaxassislar quyidagi xususiyatlarda deb ko'rsatmoqda:

1. Yapon ta'lim tizimida xususiy sektor hajmini ortishi xususiyati, boshqa sohalardagi kabi raqobat muhitini rivojlanganligini;

2. Xalqaro xususiyatlarning mavjudligi, barcha ta'lim muassasalarida imtihon va test sinovlari ingliz tilida yapon tili bilan bir xil darajada amalga oshirilishi va taraqqiy etgan Evropa davlatlari tajribalari til orqali yanada tezroq o'zlashtirilayotganligi;

3. Ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bevosita ta'lim tizimlarida faoliyat olib borib, ta'lim muassasalari faoliyati natijalariga ularning ma'sulligi va to'g'ridan to'g'ri javobgarligi bilan ilmiy yangiliklar amaliyotiga tezkor tatbiq etilayotganligi;

4. Ta'lim tizimi o'quv dasturlari har yilda yangilanishi va takomillashtirilish xususiyati, fan yo'nalishlaridagi zamonaviy yangiliklar o'zgartirishlar o'quv

dasturlarida aks ettirilishi ta’lim mazmuni yildan yilga mazmun mohiyati jihatdan takomillashib borayotganligini;

5. Ta’lim tizimi bosqichlari jarayonlaridagi imtihon nazoratlari talablarini yuqorligi va keskin choralar qo‘yilishi xususiyati, o‘quvchilarda ma’suliyatni oshirishga sabab bo‘ladi. Yagona ta’lim tizimi boshqaruvi orqali kasbga yo‘naltirish jarayoni ham har bir o‘quvchi bilim qobiliyatiga asosan ixtisoslashtirish talablari asosida ma’lum yo‘nalish bo‘yicha ta’limning keyingi tizimlariga o‘tkazilishi muhim jihat hisoblanadi.

Ta’lim to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e’tiborida bo‘lgan. SHuning uchun ham AQSH ning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq.

Fransiya, AQSH, Yaponiya ta’lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug‘ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta’lim markazlari, masalan, AQSHda xalqaro ta’lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda.

Ko‘pchiligining faoliyati o‘quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan. 80 - yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o‘rganilishi majburiy bo‘lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o‘quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo‘ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o‘quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo» ning pedagogik g‘oyalari Fransiya va Germaniya ta’limiga ham sezilarli ta’sir etayotir. Germaniya to‘liqsiz o‘rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o‘quv Dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o‘quv dasturi tobora tuliqsiz o‘rta maktab doirasidan chiqib, o‘rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmokda.

Fransiya boshlang‘ich maktablarida ta’lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta’limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo‘linadi.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O‘quvchilarni tabaqalashtirib o‘qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang‘ich ta’lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, fransuz pedagoglari ta’lim jarayonida sinf o‘quvchilarini uch tabaqaga ajratib o‘qitishni afzal ko‘radilar. Bular quyidagilar:

1. Gomogenlar - matematika va gumanitar yo‘nalishda ish olib borsa bo‘ladigan o‘quvchilar.

2. Yarim gomogen - tabiiy turkumdagi fanlarni o‘zlashtira olishga moyil o‘quvchilar.

3. Gegeron - barcha predmetlarni xar xil saviyada o‘zlashtiradigan o‘quvchilar va hokazo.

Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo‘nalishi to‘ldiruvchi ta’limni rivojlantirish bo‘lib qolmokda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. - Toshkent: Fan, 2006. - 50 b.
2. Dexkanova M.U. Kasb-hunar ta’limi rahbar xodimlarining malakasini oshirish jarayoniga tizimli yondashuv.: Ped. f.n. ... diss. avtoref. - Toshkent, 2005. – 19 b.
3. Inoyatov A. SH., Umarov S. X. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim menejerining innovatsion faolligini oshirish yo‘llari: Buxoro, 2020. – 226 b.
4. Kuzmina N.V. Metodы sistemnogo pedagogicheskogo issledovaniya: Uchebnoe posobie. - L.-. LGU, 1986.-S. 112.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog -o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2009. – 160 b.
6. Bulletin. National Association of secondary schools principals. Flying High with PORTFOLIO ASSESSMENT. October 2005. Chicago, USA.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O’QUVCHILAR TAFAKKURI XUSUSIYATLARI

Asilova Sanobar Xatamboyevna
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ismoiljonova Shahrizoda
Qo‘qon universiteti II bosqich talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada kichik maktab yoshidagi o’quvchilar tafakkuri qanday rivojlanishi, tafakkurning psixologik xususiyatlari, tafakkur taraqqiyoti*

belgilari sifatida o'quvchilarda bilimlar fondining ortishi, aqliy faoliyat usullarining egallanishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Tafakkur, nutqning o'sishi, zamonaviy jamiyat, aktual faoliyat zonasi, mustaqillik, intizomlilik, o'zlashtirish tezligi, rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье описано развитие мышления учащихся младшего школьного возраста, психологические особенности мышления, увеличение базы знаний учащихся, овладение способами умственной деятельности как признаками развития мышления.*

Ключевые слова: *Мышление, развитие речи, современное общество, зона актуальной деятельности, самостоятельность, дисциплинированность, скорость обучения, развитие.*

Abstract: *This article describes the development of the thinking of students of junior school age, the psychological characteristics of thinking, the increase in the knowledge base of students, the acquisition of mental activity methods as signs of the development of thinking.*

Key words: *Thinking, growth of speech, modern society, actual activity zone, independence, discipline, speed of learning, development.*

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurilishi yangi hayotiy muammolarni samarali va g'ayrioddiy hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkor faol shaxsning shakllanishini talab etmoqda. Shu bilan bog'liq ravishda zamonaviy jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu esa o'z navbatida barcha bilish jarayonlarini psixologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim sohasini takomillashtirishni talab etadi. Maktab ta'limining boshlanishi bilan bolalarda tushunchali tafakkur maktabga qadar bo'lganidan tezroq rivojlana boshlaydi. Bu tafakkur jarayonida bola tushunchalar yordamida ish ko'radi. Avvaliga tushunchali tafakkur konkret predmetlar va hodisalar bilan mustahkam bog'langan bo'ladi (konkret tushunchali tafakkur ustun turadi), lekin sekin-asta kichik yoshdagi o'quvchilarda konkret narsadan abstraktlashish (chetga chiqish), umumlashmalar qilish va ma'lum darajada mavhum xulosalar chiqarish (abstrakt tushunchali tafakkur) ko'nikmasi vujudga keladi. O'quvchi maktabga kelgan kunidan e'tiboran ta'lim jarayonida unda ilmiy tushunchalar va tasavvurlar miqdori soat sayin orta boradi, u asta-sekin o'zlashtirayotgan tushuncha va tasavvurlarning asl ma'nosi, mohiyatiga tushuna boshlaydi. Umuman, o'quvchida fikr yuritish doirasi, ko'lami va mazmuni kengaya boradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar tizimini, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallash orqali o'zlarining bilim ko'lamini kengaytiradilar, shuning bilan birga ilmiy tushunchalarning tub ma'nosi ular ongiga

singa boradi. Bu ishlarning hammasini izchillik bilan, ketma-ket, bir tekis amalga oshirish uchun o‘quvchilar ma’lum darajada bilimlar va ko‘nikmalarni egallagan, qolaversa tafakkur shakllari va mantiqiy fikr yuritish qoidalarini o‘zlashtirib olgan bo‘lishlari kerak. Ammo maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan bolaning bu narsalardan talabga javob beraditan darajada xabari bo‘lmaydi. Ular bu narsalarning barchasiga o‘qish jarayonida bevosita o‘qituvchi rahbarligi ostida erisha boshlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishini yirik psixolog L.S.Vigotskiy tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o‘sishi bilan uzviy bog’liq holda o‘rgangan. Shuning uchun u ajnabiy psixologlaming (birinchi navbatda J.Piajening egotsentrik konsepsiyasini qattiq tanqid qilib, tafakkurni genetik metod yordamida o‘rganishni tavsiya qiladi. L.S.Vigotskiy psixologiya faniga inson kamolotining "Eng yaqin taraqqiyot zonasi" va "aktual faoliyat zonasi" deb nomlangan tushunchalarni olib kiradi. Uning birinchisi o’qituvchining bevosita rahbarligida oshirilsa, ikkinchisi o‘quvchining mustaqil faoliyatida namoyon bo‘ladi. P.P.Blonskiy mazkur yoshdagi o‘quvchilar tafakkurining o’sishiga xotiraning taraqqiyotini, tafakkuming ta'sir etishini genetik metod yordamida ochib beradi. Ayniqsa, tafakkuming "intizomlilik" sifatining namoyon bo‘lishini inson tomonidan tafakkurni boshqarish va nazorat qilish faoliyatidan aniqlash mumkinligini P.P.Blonskiy alohida ta’kidlaydi. N.A.Menchinskaya tafakkur muammosini chuqur o'rganib, uning taraqqiyot ko‘rsatgichlarini quyidagi jihatlarini o‘rganishda ko‘radi:

1) bilimlami o‘zlashtirishning tezligi,
2) fikr yuritish jarayonining epchilligi.
3) tafakkuming mavhum hamda yaqqol jihatlarining o‘zaro aloqasi va nihoyat,
4) analitik-sintetik faoliyatning turli darajalari kabilar.

Muallif tafakkur taraqqiyoti belgilari sifatida o‘quvchilarda bilimlar fondining ortishi, aqliy faoliyat usullarining egallanishi hamda ta’lim jarayonida ularda uquvchanlik qobiliyatining paydo bo’lishini sanab o‘tadi. Bu narsalarning barchasi kichik maktab yoshidagi o ‘zlashtirishi past o‘quvchilarida tajribadan o‘tkaziladi hamda ularni muayyan mezonga asoslanib guruhlarga ajratadi. Ukrain psixologi G.S.Kostyuk tafakkuming rivojlanishini o‘quvchilar tomonidan o'zlashtirib olingan materiallarning mazmunidan, sinaluvchilaming o‘quv faoliyatini, topshiriqlarning bajarish shakllari sifat jihatdan o'zgarib borishini e’tiborga olishda ko'radi. A.ALyublinskaya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuri to‘g‘risidagi ma’lumotlarida ularda mazkur jarayonning rivoji ko‘p jihatdan analitik-sintetik faoliyatiga bog’iq ekanligi ko‘rsatib o’tiladi. Bu faoliyat birlamchi sintez va analiz, ikkilamchi sintez hamda yaqqol harakat analiz va sintez kabi tarkiblardan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Bundan u yosh davrda yaqqol-harakat, yaqqol obrazli va so‘z-

mantiq yoki nazariy tafakkur bosqichlarini bosib o’tish to‘g’risida mulohaza yuritiladi. Taniqli psixolog L.V.Zankov kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurini o‘stirish maqsadida o‘zining ta’limiy tizimini ishlab chiqadi. Bu ta’lim tizimi ushbu o’qitish tamoyillariga asoslanadi:

1) ta’lim jarayonini yuqori darajadagi murakkab vaziyat asosida uyushtirish,

2) ta’lim jarayonida o‘quvchilarga berilishi nazarda tutilgan bilimlaming nazariy salmog’ini maksimal darajada ko'paytirish:

3) mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat qilish faoliyatini rejalashtirish singari faoliyaini boshqarish usullarini o‘quvchilarda tarkib toptirish.

Bunday ta’lim tizimida o‘quvchilar chuqur va mazmundor bilim olish bilan cheklanib qolish, balki ularning aqliy faolligi ortib, mavhum (abstrakt) tafakkuri rivojlangan, aqlan o‘sgan, o'qishga nisbatan ijobiy munosabati vujudga kelgan va hokazo. Shunday qilib, bola maktabda o'qiy boshlar ekan, konkret tafakkurga ega bo'la boradi. Ta'lim ta'siri bilan hodisalarni tashqi tomondan bilishdan asta-sekin ularning mohiyatini bilishga, muhim xususiyat va belgilarni tafakkurda aks ettirishga o'tiladi. Bu esa dastlabki umumlashtirish, birinchi xulosa chiqarish, dastlabki solishtirishlarni o'tkazish va sodda xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ana shu asosda bolada sekin-astalik bilan tushunchalar tarkib topa boshlaydi. Bu tushunchalarni biz L.S.Vigotskiydan keyin (bolada maqsadga muvofiq ta'limdan tashqari uning tajribasi asosida yuzaga kelgan hayotiy tushunchalardan farq qilib) ilmiy tushunchalar deb ataymiz. Bolada ilmiy tushunchani tarkib toptirish uchun o'quvchini narsalarning belgilariga differensiyali yondashishga o'rgatish lozim. O'quvchiga narsalarning muhim belgilari borligini, ana shu muhim belgilarimiz narsalarni biron tushunchalar turkumiga kiritib bo'lmasligini ravshan ko'rsatishi kerak. Bu muhim belgilarni hamma vaqt ham osonlik bilan ko'rib va ajratib bo'lmaydi. Shuning bilan birga maktab o'quvchisi shuni ham tushunishi kerakki, mazkur tushuncha uchun muhim bo'lmagan belgilar ham bo'ladi. Bu belgilar narsalarning individual xususiyatlarini xarakterlab beradi, ba'zan juda ko'zga tashlanib turadi va ta'sir etuvchan bo'ladi. Kichik maktab yoshdagi bolalarda mashg'ulotlar jarayonida namoyon bo'ladigan tafakkurga xos bo'lgan uslubni o'rganish maqsadida A.A. Alekseva va L.A. romovalar tomonidan ishlab chiqilgan tafakkur uslubini aniqlash so'rovnomasi o'tkazilganda, bolalarning 8,7 % sintezatorlik, 8,7 % idealistlik, 8,7 % pragmatiklik, 56,5 % analitiklik, 17,4 % da realistlik uslubining ustunligi aniqlandi. Bolalarning axborotlarni qabul qilishlari bilan tafakkur uslublari o'rtasidagi korelyatsion koeffitsenti Pirson formulasi orqali o'rganilganda, anlitiklik uslubi bilan bilish jarayonlarini rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy aloqalar borligi aniqlangan.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, kichik maktab yoshdagi bolalarning mashg'ulotlar jarayonida axborotlarni qabul qilishi bilish jarayonlarini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlar jarayonida beriladigan axborotlar ham boshqa axborotlar singari vaziyatga qarab qabul qilinadi, shuning uchun axborotlarni o'zlashtirishdagi individual farqlar, extiyojlar, topshiriqlar va bolalarning maqsadlari mos bo'lmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin[1]. Bundan ko'rinib turibdiki, kichik maktab yoshdagi bolalarning axborotlarni qabul qilishlari bir xil bo'lmasada, ularning bilish faoliyatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziev E.E. Psixologiya. Toshkent, 2020.
2. https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-maktab-yoshdagi-bolalarda-tafakkur-rivojlanishing-o-ziga-xos-xususiyatlari
3. Rahmonov A. Jumanazarov Yo. “Yosh va pedagogik psixologiya”. Namangan.
4. X. Ibragimov, U. Yo‘ldoshev, X. Bobomirzaev “Pedagogik psixologiya”. Toshkent – 2007.
2. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
2. Asilova, S. X. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO ‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
3. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA’NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/
4. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." Analysis of International Sciences 2.2 (2024): 51-57.
5. Календарова З.К. Методы и методические приемы обучения детей дощкольного возраста математике. Московской области «Государственный гуманитарно-технологический университет»: «Студенческая наука подмосковъю» материалы международной научной конференции молодых ученых. – Орехово-Зуево: Редакционно-издательский отдел ГГТУ, 2018. – С. 221-224.

ONA TILIDA AMAL-MANSABGA OID SO‘Z VA ATAMALARNI O‘QITISH METODIKASI

Ergashev Alimardon Toshboy o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi.
Baxmal4455@gmail.com
Olimjonov Iskandar
Jizzax davlat pedagogika universiteti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilida qo‘llanilgan amal-mansabga oid so‘zlarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari shu mavzu bo‘yicha bir soatlik dars ishlanmasi ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar. *Ona tili, amal, mansab, so‘z va atama, yuqori mansab, quyi mansab.*

Аннотация. *В данной статье даны рекомендации по методике обучения словам, связанным с действиями, используемым в узбекском языке. Кроме того, по этой теме был разработан часовой урок.*

Ключевые слова. *Родной язык, действие, карьера, слова и термины, высшая карьера, низшая карьера.*

Annotation. *This article provides recommendations on the methodology of teaching the words related to actions used in the Uzbek language. In addition, a one-hour lesson was developed on this topic.*

Keywords. *Mother tongue, action, career, words and terms, higher career, lower career.*

Atamalarni sharhlab o‘tishda dars samaradorligini ta’minlaydigan asosiy vositalardan biri nutqning to‘g‘riligi va sharhlash jarayonida ularni tarixiy materiallar bilan birga tushuntirish ekanligidir. Demak, nutq madaniyati umumiy ma’noda so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlata olish, jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, to‘g‘ri talaffuz qilish, ortiqchalikdan qochish, so‘z ma’nosini to‘g‘ri anglash, fikrni to‘liq va ixcham shaklda ifoda etish, tinglovchini so‘z sehrida to‘lqinlantira olish, shu yo‘l bilan tinglovchiga ta’sir o‘tkaza olishdan iborat bo‘lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta’sirchanligini, to‘g‘riligini, mantiqiyligini, sofligini ta’minlaydi. Har qanday fan o‘qituvchisining nutqi mazmunan aniq, usluban ravon bo‘lishi kerak.

"…Adabiy tilning tirik tirgagi adabiy me'yorlardir, chunki ularsiz adabiy til tushunchasi o'z mohiyatini yo'qotadi. Bu me'yorlar kishilar nutqiy axloqining boshqaruvchisi sifatida xizmat qiladi. Ayni me'yorlar bu tildan foydalanuvchilarning barchasi uchun majburiy bo'lganligidan so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi axborot almashuv jarayonida til birliklarining to'g'ri, bir xil anglanishini ta'minlaydi. Shunday ekan, adabiy til me'yorlari masalasi nutq madaniyati haqidagi ta'limotda alohida ahamiyatga egadir…" [1, 48]. Demak, o'qituvchida zaruriy ilmiy bilimlar bilan bir qatorda nutq madaniyati ham bo'lishi kerak ekan. Shuningdek, fan o'qituvchisi tilda ishlatiladigan bir qancha so'zlarning ma'nosini ham bilishi kerak. Bu hol ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun nihoyatda muhimdir.

Taniqli tilshunos olimlarimizdan biri, hozirgi zamon o'zbek tili sintaksisining yetuk bilimdoni Nizomiddin Mahmudov nutq madaniyati va nutqning bilimlarni yetkazib berishdagi ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni berib o'tadi, "…U (o'qituvchi) qaysi fan o'qituvchisidan bo'lishidan qat'i nazar tilimizning leksik me'yorlarini bilishi, tilimizga chetdan o'zlashgan so'zlarni, ularning ma'nosini bilishi kerak. Masalan, iqtisod fanida tovar so'zi ko'p ishlatiladi. Aslida bu so'z sof turkiycha bo'lib, turkiylardan ruslarga o'tgan. Bu so'zning asl ko'rinishi tug'ar shaklidir, lekin bu so'z o'z ma'nosidan ancha yiroqlashib ketgan. Hozir bu so'z sotish uchun mol degan ma'noni bildiradi…"[1, 51].

XIX asrda tilimizda ishlatilgan amal-mansabga oid so'zlarni tushuntirishda biz mavzuga xos bir qancha maxsus usullarni ishlab chiqishimiz kerak. Bunga sabab bu mavzu (mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusi) aynan shu shaklda maktab, kollej yoki litsey darsliklarida berilmagan. Bunday so'zlarni faqatgina "eskirgan so'zlar" mavsusida ancha cheklangan miqdorda ko'rishmiz mumkin (umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). Biz amal-mansabga oid so'z va atamalarni ifodalashda quyidagi uslubni ishlab chiqdik:

1. Dastlab amal-mansabni bildiruvchi so'zning qanday mansabni bildirishi tushuntiriladi. Masalan, dodxoh lavozimi tariximizda fuqarolarning arz-shikoyatlarini ko'rib chiquvchi va ularga zarur yo'l-yo'riqlarni ko'rsatuvchi amaldor ekanligi tushuntiriladi;
2. Amal-mansabni bildiruvchi so'zning qaysi tildan olinganligi va etimologiyasi tushuntiriladi. Bunday deyishimizga sabab tariximizdagi aksar lavozim so'zlari arabcha, forscha yoki aralash holatda ifodalangan bo'lib, hozirgi kunda tushunilishi ancha qiyindir. Shu sababdan bunday atamalarning qaysi tildan olinganini izohlash kerak. Masalan, mirob so'zi asli amir va ob so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, amir arabcha, ob so'zi esa fors-tojikchadir. Bu so'z o'zbekchaga "suv amiri" deb tarjima qilinishi mumkin. Bunday usuldan foydalanish atamaning oson tushunilishini

ta'minlaydi. Ayniqsa, ularning etimologiyasini keltirish mavzuni tushunishda juda yaxshi natijalarga olib keladi olib keladi;

3. Amal-mansabga oid so'zlarning oson tushunilishi uchun ularni hozirgi kundagi amal va mansablarga qiyoslash kerak. Masalan, o'tmishimizda ishlatilgan qozi askar lavozimi hozirgi kundagi harbiy sudyalar va harbiy prokurorlarga to'g'ri keladi. Yana ko'kaldosh lavozimi bugungi kundagi Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa maxfiy xizmat xodimlariga to'g'ri keladi;

Mana shu metoddan foydalanib amal-mansab so'zlarini (atamalari) juda yaxshi tushuntirish mumkin.

Biz yuqorida eslatib o'tganimizdek, maktab, kollej yoki akademik litseylarning ona tili (akademik litseylarda hozirgi o'zbek adabiy tili) darsliklarida aynan shu holatdagi dars mavzusi yo'q. Ishni biz mustaqil ta'lim sifatida o'tishimiz mumkin. Buning uchun bizga bir soatlik dars ishlanmasi kerak bo'ladi. Biz bu mavzu uchun quyidagicha dars ishlanmasi ishlab chiqdik [2, 3].

Bir soatlik dars ishlanmasi

NAZARIY DARS REJASI № __1____

Sinflar	6-g	…						
Dars o'tiladigan sana	…	…						

O'quv fanining nomi: Ona tili

Mavzu nomi: Tilimizdagi amal-mansabni bildiruvchi so'zlar va atamalarning qo'llanilishi

Darsning maqsadlari:

a) ta'limiy: tilimiz tarixida qo'llanilgan amal va mansabni bildiruvchi so'zlar haqida nazariy ma'lumotga ega bo'lish;

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda vatanni sevish, xalqni, jamiyatni to'g'ri anglashga o'rgatish;

c) rivojlantiruvchi: mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, og'zaki va yozma nutq kabi qobiliyatlarni o'quvchilarda shakllanishiga erishish;

Darsdan kutilayotgan natijalar - mavzuni o'zlashtirgandan so'ng o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

1. tarixiy so'zlar (amal-mansabga oid so'zlar) haqida bilimga ega bo'ladilar.
2. tarixiy davr va muhit haqida bilimga ega bo'ladilar.

Baholash metodlari: mashqlar, tezkor savollar, test va rasm asosida gap tuzish

Axborot manbalari va texnik vositalar: N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo'raboyeva Ona tili /umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik

– Toshkent. Ma’naviyat, 2011. 328-bet; mavzu yuzasida o‘qituvchi tomonidan ishlangan tizimli chizmalar; tarixiy lavozimdagi shaxslarning rasmlari;

Dars turi: mustaqil ta’lim

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 45 minut

Mashg‘ulot bosqichlari:

Tashkiliy qism. Tashkiliy qismda salomlashish, sinfning tozaligi, joriy yo‘qlama, o‘quvchilar formasi, yangi mavzuni jurnalga qayd etish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Kirish qismi (motivatsiya). Kirish qismida o‘tgan darsda berilgan uy vazifasi beriladi. O‘tgan darsda ‘‘Eskirgan so‘zlar” mavzusi berilgan. O‘tilgan mavzuni so‘rashda o‘quvchilarga o‘zlari o‘tilgan mavzu ma’lumot beradilar. Shu bilan birga 244-mashq tekshiriladi.

Yangi mavzu bayoni. Yangi mavzu sinfdagi navbatchi tomonidan sinf doskasiga yoziladi. Yangi mavzuni tushuntirishda yangi mavzuning o‘tilgan mavzu bilan bog‘liqligini birinchi navbatda aytib o‘tish kerak. Ya’ni yangi mavzu bilan bog‘liqligi amal-mansabga oid so‘zlarning ham eskirgan so‘zlar ekanligini ta’kidlash kerak, amal-mansab so‘zlari ham (o‘tmishimizdagisi) bugungi kunda qo‘llanilmayotganligini ta’kidlash kerak. Yangi mavzuni yanada keng tushuntirish uchun bir qancha o‘yin topshiriqlardan foydalanish mumkin. Bu o‘yin topshiriqlar mavzuni mustahkamlash bobida ko‘rib o‘tiladi.

Mavzuni mustahkamlash. Mavzuni mustahkamlash olingan bilimlarning esda qolishi uchun juda muhimdir. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun bir qancha o‘yin-topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Bu topshiriqda o‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi. Bu bo‘linish uch yo‘nalishdagi partalar qatoriga qarab olinadi. O‘quvchilar bo‘linib bo‘lingach, asosiy shart e’lon qilinmasdan oldin mansab so‘zlari qanaqa bo‘lishi eslatiladi. Masalan, bugungi kunda hokim, vazir, sudya, deputat kabi. Keyin uchala qatorga ham vazifalar bo‘lib beriladi va ularga mavzuni bajarish uchun ma’lum vaqt beriladi. Bu vaqt davomida eng to‘g‘ri va mansab so‘zlarini eng ko‘p yozgan guruh g‘olib deb topiladi.

1-qator. Diniy ishlar bilan bog‘liq mansab nomlarini.

2-qator. Davlat boshqaruvi sohasidagi mansab so‘zlarini.

3-qator. Tarixdagi mansablarning bugungi kundagi ekvivalentini (muqobilini) yozish topshirig‘i beriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begali o‘g‘li B. A. ISTIQLOL YILLARIDA SAID AHMAD IJODI //NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION". – 2023. – T. 14. – №. 1.

2. Sherali o'g'li B. S. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURI ORQALI O'QISH, MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKLARINI O'RGANISH TEHNOLOGIYALARINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI. – 2023.
3. Ergashev A. МАВЖУДЛИК БИЛДИРУВЧИ (ЭКЗИСТЕНЦИОНАЛ) ГАПЛАР //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
4. Ergashev A. Sintaksis bo'limining o'ziga xos xususiyati //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
5. Ergashev A. Mutolaa san’atining paydo bo ‘lishi //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
6. Methodology of Teaching National Symbolic Stories Art and Stylistic Uniqueness EA Toshboy o'g'li - Journal of Innovation, Creativity and Art, 2023

YOSHLARDA INTELLEKTUALL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH – TALAB DAVRI

Buvrayev Akram Rustam o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti, maktabgacha va boshlang‘ich yo’nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada insonning intellektual madaniyati ko'p jihatdan uning tomonidan belgilanadi mustaqil fikrlash, mehnat faoliyati va turmush tarzi. Shuning uchun inson madaniyati intellektual nafaqat uning jismoniy va ma'naviy fazilatlari bilan bog'liq, balki turmush tarzi, moddiy farovonligi bilan.*

Kalit so'zlar: *Intellektual madaniyat, yoshlar, fan*

Аннотация: *В данной статье интеллектуальная культура человека во многом определяется его самостоятельным мышлением, трудовой деятельностью и образом жизни. Поэтому интеллектуальная культура человека связана не только с его физическими и духовными качествами, но и с его образом жизни и материальным благополучием.*

Ключевые слова: *Интеллектуальная культура, молодежь, наука.*

Abstract: *In this article, the intellectual culture of a person is largely determined by his independent thinking, work activity and lifestyle. Therefore, intellectual culture of a person is related not only to his physical and spiritual qualities, but also to his lifestyle and material well-being.*

Key words: *Intellectual culture, youth, science*

O'zining intellektual madaniyati orqali inson o'zini tobora ko'proq o'rganmoqda chuqurroq, aniqroq, voqelikni qanday aks ettirishi va o'zinikini chuqurlashtirishi asosida bu haqdagi fikrlar. Ya'ni, insonning "intellektual salohiyati" birinchi navbatda bo'ladi o'zini tushunishga qaratilgan.

Biz yashayotgan XXI asrda ilm-fan, intellektual salohiyat bor rivojlanish mezoniga aylanib, tobora yuqori darajaga aylanib bormoqda. In kelajak, individual madaniyatni rivojlantirish vositalari sifatida, biz yangi olishimiz mumkin ixtirolar, yutuqlar va kompyuter sohasidagi barcha bilim bazalari texnologiyalar, ta’limning mavjud moddiy-texnik bazasi, zamonaviy innovatsion va pedagogik texnologiyalar, san’at, badiiy va ilmiy-ma’rifiy adabiyot, fan.Bugungi kunda O‘zbekistonda jamoatchilik darajasi ko‘tarilgan bo‘lsa ajab emas yoshlar madaniyatini yuksaltirishga e’tibor qaratish siyosati. Shunday qilib, o'zaro doira jamiyatning intellektual madaniyatini intellektual madaniyat darajasi bilan qo'llash xalqimizning, asosan, individual muammolaridan biri hisoblanadi hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini modernizatsiya qilish, ijtimoiy-falsafiy va bir-biri bilan o'zaro ta'sir xususiyatlarini o'rganish.

Madaniy atamalar xato va kamchiliklarning oldini olishga yordam beradi
O‘zbek xalqi farovon hayot kechirib, dadil qadam tashlayotgan paytda
yuksak darajada rivojlangan fuqarolik jamiyati sari, shaxsiy imkoniyatlardan oqilona foydalanish madaniyat bu boradagi eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo‘lib qolmoqda. Davrida istiqlol, ko‘plab ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, loyihalar amalga oshirildi bu masalani ijobiy hal etish maqsadida ijtimoiy hayotga tatbiq etilmoqda. Bunga qo'chimcha, xalq ta’limi va oliy o‘quv yurtlarida ijobiy o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirildi ta'lim.
O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, ayniqsa “Ulug‘bek”, “Iste’dod” kabi jamg‘armalar faoliyati, saralash ishlari yetakchilar barcha yoshlarni albatta quvontiradi. Ammo bu sohada ham dolzarb muammolar mavjud uchraydi.“Ta’lim tarbiyasi haqida gapirganda, uning mazmuni bo’lishi mumkin
lakonik sifatida ifodalangan: bizga maktab ta'limini ko'rgan shaxslar kerak va
"Ekonomi va sotsium" №5(72) 2020 www.iupr.ru 141 bitiruvchilar emas, tarbiya”. Gap shundaki, sotib olish kerak bilim, lekin noan'anaviy tarzda mustaqil fikrlash va tafakkur uslub keyingi taraqqiyot va ijtimoiy taraqqiyotga olib keladi.

O'quv oromgohida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda shaxs madaniyatini rivojlantirish. Bu islohotlar natijasida o'rni yurtimiz ravnaqi uchun zarur bo‘lgan intellektual qatlam ortib boradi kelajagi, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: “Bizda bor har doim zamonaviy qurish uchun qadamlar faqat odamlar, deb yaxshi fikr keladi rivojlangan bozor iqtisodiga asoslangan va kuchli davlatdan

izchil o'tish davlat kuchli fuqarolik jamiyati uchun strategik rivojlanish maqsadlariga erisha oladi oldimizda faqat milliy va hamjihatlik zarurligini chuqur anglaganlargina turibdi umuminsoniy qadriyatlar, ustoz.

Umuman olganda, bugungi kunda faqat mustaqillikni mustahkamlash va uni olib kelish kerak buyuk kelajakni yanada yaqinlashtirish, hozirgi o‘sib kelayotgan yoshlarni yuksak darajaga yetkazish bilimli intellektual madaniyatli shaxs. Rivojlanish uchun bunday ehtiyoj shaxsning intellektual madaniyati uchun muhim shart-sharoitlar yaratilishini ifodalaydi barcha ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar malakasini oshirish zamon talablari asosida qayta tayyorlash, ularga imkoniyat yaratish jahon fanining yutuqlaridan o‘z vaqtida xabardor bo‘lish va undan foydalanish zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish. O'quv va ta'limning moddiy-texnik bazasini moslashtirish
muassasalarni jahon andozalari darajasiga yetkazish, ilmiy resurs markazlarini yanada boyitish o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va ilmiy-badiiy adabiyotlar, shuningdek tashkil etish turli ilmiy-ma’rifiy konferensiyalar, munozaralar va ilmiy va ta’lim-tarbiya sohasida o‘zining haqiqiy madaniyatini to‘la namoyon etish maqsadida adabiy uchrashuvlar o‘tkazdi jarayonlar, bugungi kun yoshlari uchun imkoniyatlar eshiklarini ochadi bunday ishlarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishning o'zi katta miqdordagi pul, zamonaviy material bilan ta'minlash uchun katta xarajatlar texnik jihozlar. Shunga qaramay, “ta’lim va islohotga sarflangan mablag‘ isrof bo'lmaydi, balki uchun kuchli va ta'sirli omil bo'ladi jamiyatimizni muvaffaqiyatli va izchil isloh qilish. Oxir-oqibat, kengroq dastur hayotga portlash ta'sirini "beradigan" g'oyasi kutilgan samarani beradi Kelajak. Buning uchun quyidagilarga ko'proq e'tibor qaratish lozim jihatlari:

• intellektual qatlamning ilmiy-texnikaviy imkoniyatlardan bahramand bo'lishiga imkon berish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar salohiyati, jahonning yangi cho'qqilarini zabt etish davom etayotgan ilmiy-texnik inqilob:

• yoshlarga jahon andozalari darajasida bilim berish maqsadida xalq ta’limi, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari
yetuk shaxs bo‘lib yetishish, tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratish
diplomatlar, tadbirkorlar, iqtisodchilar, moliyachilar, oliy o‘quv yurtlarida
va o'z navbatida talabalar, magistrantlar va murabbiylarni chet elga va o'qishga yuborish ularning malakasini oshirish. Rahbariyatimizni ta'minlash muhim ijtimoiy zaruratdir mamlakatning 21-asrning ta'lim sohasidagi siyosatiga munosabati
"Ekonomi va sotsium" №5(72) 2020 www.iupr.ru 142 yoshlar ular orasidan eng ilg‘orlarini tanlab, komillikka erishadilar ilmiy va ma’naviy-madaniy atamalarni chuqur o‘zlashtirib oladi zamonaviy fan va texnologiya. Ma'naviy madaniyatdagi

ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni va uning ta'siri shaxs salohiyatini rivojlantirish, asosan, ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega jamiyatdagi barqaror ijobiy vaziyatlar. Shu ma'noda, e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir salohiyatini rivojlantirishning o'ziga xos usullari sifatida quyidagi omillarni hisobga olish shaxs va jamiyat, shuningdek, bizning qarorimizni tez va to'g'ri topish hayot eng avvalo, mamlakatimizda ezgu vazifani amalga oshirish zarur farovon oilani shakllantirish, eng avvalo ma’naviyatni yaratish zarur madaniy muhit; ikkinchidan, turg'unlikning sababini muntazam ravishda aniqlash kerak biri bo'lgan “uzluksiz ta'lim tizimi”ni amalga oshirish ta’lim tizimini tubdan isloh qilish omillarini zudlik bilan bartaraf etish o'z yechimini kutayotgan muammo; uchinchidan, ta'lim samaraliroq sog'lom ijtimoiy muhitdir ta'lim jarayonining borishi. va o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash rahbar va tarbiyachi, tarbiyachi va tarbiyachi, tarbiyachi va jamoatchilik tashkilotlar, o'qituvchi va oila; to'rttadan murabbiylar uchun qulay sharoit yaratish kerak jahon darajasidagi malakali bilimlarni egallash uchun yosh pedagoglar standart, shuningdek, bu yo'l bilan duch kelgan to'siqlarni bartaraf etish uchun, esa "pedagogning o'zi tayyorlanishi kerak" degan diktantga amal qilgan holda.

Foydalanilgan manbalar:

1. Shaydullaev N. OBESPECHENIE FORMATSIONNO-PSIXOLOGICHESKOY BEZOPASNOSTI V OTKRYTYX INFORMATSIONNY SISTEMAX //Teoriya i amaliyot sovremennoy Nauki. – 2017. – №. 4. – S. 909-912.
2. Farhodjonovna F. N. Kontekstda yoshlarni ma’naviy tarbiyalash Globallashuv //Mir nauki i obrazovaniya. – 2017. – №. 1 (9)
3.Meliqulov J. Importlashayotgan ong yoxud globallashayotgan dunyo muammolari. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2006 yil, 1 dekabr. 48-son.

TALABLARNING INTELLEKTUAL MUSTAQILLIGI BILIM OLISH JARAYONI

Buvrayev Akram Rustam o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti, maktabgacha va boshlang‘ich yo’nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi stajyor -o‘qituvchisi,
e-mail: akrambuvrayev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ma’qolada o'qitishning asosiy vazifasi bilan xarakterlanadigan ijtimoiy rivojlanish bosqichi fan va texnikaning jadal rivojlanishi kerak talabalarning jarayonda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bilimlarni mustaqil ravishda egallash. O'rganish hayot va mehnatning zamonaviy sharoitlariga ko'proq e'tibor qaratildi, yangi ma'lumotlarni topish va ular olgan ko'nikmalarni egallash sharhlaydi, hukm qiladi, tanqidiy tahlil qiladi va ularning amaliy qo‘llanilishini topadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘qitish, O‘quvchi, O‘qituvchi, Bilim, Intellektual mustaqillik.*

Аннотация: *Этапом общественного развития, характеризуемым основной задачей преподавания в данной статье, является бурное развитие науки и техники, которое направлено на то, чтобы учащиеся находились в процессе самостоятельного приобретения знаний. Обучение в большей степени ориентировано на современные условия жизни и работы, находит новую информацию и овладевает приобретенными навыками, интерпретирует, судит, критически анализирует и находит свое практическое применение.*

Ключевые слова: *Обучение, Студент, Учитель, Знания, Интеллектуальная самостоятельность.*

Abstract: *The stage of social development characterized by the main task of teaching in this article is the rapid development of science and technology, which is aimed at ensuring that students are in the process of independent acquisition of knowledge. Learning is more focused on the modern conditions of life and work, finding new information and mastering the acquired skills interprets, judges, critically analyzes and finds their practical application.*

Key words: *Teaching, Student, Teacher, Knowledge, Intellectual independence.*

Rivojlanishi ehtoratni tushunish va muhimligi intellektual talablarning mustaqilligi olish jarayonida bilim talabalarning intellektual mustaqilligi ning eng muhim shartlaridan biridir jarayonida ularning faollashtiruvchi fikrlashlari unga yetib borishi kerak ish asta-sekin keraksiz va ortiqcha bo'ladi" (Vuchenov, 1971, 42), "kerak" atmosferani yaratishda davom etish talaba o‘rniga, men o‘rganaman, deyishi mumkin bo‘ladi. Men o'rganaman (Mandić, 1972, 7), "faqat shu sifat o'sha sinflar talaba mavzu atrofida aylanadigan shaxsiy intellektual beradi o'rganish" (Shimlesha, 1978, 89), "bu qanday turdagi har bir o'quv narxlarining qiymati makon o'z shakllarini ta'minlaydi" (Krneta,1979, 136). Ba'zi titik muammolar Intellektual Talablarning mustaqilligi Olish jarayonida Bilim ject, nafaqat o'quv muassasasida, kerak bu jarayon uchun shart-sharoit yarating voqelikni bilish o'zimizning intellektual faoliyatimizga kiradi. Ta'lim jarayonida talabalarning intellektual mustaqilligi zarurligini ta'kidlash sinf xonasi ham muhim, chunki u kabi uchun ularni tayyorlashning muhim shartidir o'z-o'zini

tarbiyalash. Zamonaviy hayot va mehnat sharoitida ta'limni tugatib bo'lmaydi ma'lum bir daraja yoki ta'lim darajasi qat'iy nazar u qanday bo'lgan va qancha davom etgan yoki bo'lishi mumkin faqat maktablarda yoki boshqa ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi muassasalar. Talabalar o'zlarini ko'proq bilishga o'rgatiladi.

Ta'lim va o'z-o'zini ta'lim kombinatsiyasiga asoslangan sinfda muvaffaqiyat qozonish yoki o'qitish tashqi yordam bilan tavsiflanadigan tarzda tashkil etilgan bo'lib, asta-sekin o'z-o'zini ta'limga aylantiradi. yordamisiz o'rganish. Shuning uchun, kerak. Mustaqil ta'lim elementlarini joriy etish uchun sharoit yaratish ustida ishlash maktabda o'qish boshlanganidan beri va nima sinf darajalari tobora torayib bormoqda to'g'ridan-to'g'ri o'qitish doirasi. Hisobga olgan holda bu so'rov M. Bakovjev (1983, 65), deydi “Ta’lim berishdan oldin bo‘lishi shart emas O'z-o'zini tarbiyalash, lekin u butun hayoti davomida rivojlandi - shuning uchun u rivojlanmaydi ortiqcha bo'lib qoladi." Faoliyatini ushbu yo'nalishda rivojlantiruvchi o'qitishda o'qitish va pedagogik-didaktik tashkil etilgan mustaqil ta'lim o'rtasida keskin chegaralarni belgilash mumkin emas. O'qitishning mustaqilligi ostida talabalarning haqiqiy faoliyati va individual ishining rahbarlik rollari ostidagina mumkin o'qituvchilar. Albatta, bunday rahbarlik bo'lishi mumkin emas majburlashga qisqartirildi, bu o'tmishda a edi keng tarqalgan hodisa. Bundan tashqari, o'qituvchi boshqaruvi talabaning ishiga aralashmasligi kerak egallashda intellektual mustaqillik bilim nimada, afsuski, juda tez-tez. Ushbu muammo bilan bog'liq holda L. P. Artrisova (1968, 40), deydi "yordam bering o'quvchi bilim olish va o'rganishda hech qanday oddiy masala emas" va "ko'p bu jarayonga aralashish osonroq bo'ladi. O'qituvchilar ko'pincha haddan tashqari faollikni namoyon qiladi va shuning uchun to'sqinlik qiladi intellektual mustaqillikni rivojlantirish o'quv jarayonida talabalarda. Bu shuni anglatadiki sifatida o'qituvchi zamonaviy didaktika talablarini yetarlicha hisobga olmaydi hukmronlik holatidan chetga chiqish mumkin va uning yetakchilik roli amalga oshirish talabalarning intellektual mustaqilligini ta'minlashni talab qiladi. Bu omillar orasida talabalarning mustaqilligiga xalaqit berish; so'rov uchrashishni xohlasa ham, eng ko'p Muhimi, barcha hisob-kitoblarga ko'ra, odatlanish (ko'pchilik) O'qituvchilar har qanday holatda ham o'qitishda ustunlik qiladilar va har qanday vaqtda birinchi o'rinda bo'lishadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Antonijević, R. (2010). Saznavaā i razvojpojmova u nasstavi biologie, kao sredstvo intellektual vaspitaxa, Pedagogija, br.

2. Beograd. Arsić, Z. (2014). Stitsaā va vrednosti primene belgisi, Kosovska Mitrovitsa: Filozofski fakulteti.

3.Artrisova, L. P. (1968). Aktivnost ucheniya shkolnika, Moskva: Prosveshchenie.

4.Meliqulov J. Importlashayotgan ong yoxud globallashayotgan dunyo muammolari. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2006 yil, 1 dekabr. 48-son.

TILIMIZDA ISHLATILGAN AMAL-MANSAB SO‘ZLARINING TARIXIGA BIR NAZAR

Ergashev Alimardon

Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘zbek tilida ishlatilgan amal-mansabga oid so‘zlar tavsifi, ularning badiiy va publitsistik matnlarda qo‘llanilishi, mumtoz o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek tili almashinuvi jarayonida turli xillik kabi xususiyatlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar. *XIX asr, XX asr, mansab darajalari, yangicha va eski shakldagi mansab nomlari.*

Аннотация. *В статье описаны слова, относящиеся к действиям, употреблявшиеся в узбекском языке конца XIX - начала XX века, их употребление в художественных и публицистических текстах, высказывается мнение о таких особенностях, как многообразие в процессе обмена между классический узбекский язык и современный узбекский язык.*

Ключевые слова. *XIX век, XX век, названия должностей, новые и старые формы названий должностей.*

Annotation. *The article describes the words related to actions used in the Uzbek language at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, their use in artistic and journalistic texts, an opinion about such features as diversity in the process of exchange between the classical Uzbek language and the modern Uzbek language. held.*

Keywords. *19th century, 20th century, job titles, new and old forms of job titles.*

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi manbalarda so‘zlar va atamalar aralash holda berilgan. Bunga asosiy sabab bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchi ijtimoiy tuzumga o‘tayotganligi edi. Ya’ni Markaziy Osiyo xalqlari shu davrgacha

o‘rta asr madaniyati, iqtisodiyoti, umuman, o‘rta asrlar ongi bilan yashadi. Oddiy xalqni qo‘ya turaylik, xon amaldorlaridan tortib, xonlarning o‘zi ham zamonni anglamagan, mutaassib, yangilikka qiziqmaydigan konservator hamda qo‘rqoq edilar. Xonlar xalq uchun hech qanday istiqbolli rejalarni, dasturlarni amalga oshirmaganlar. Ular hatto o‘z yurti mudofaasiga ham yaramaydigan noqobil, nobop hukmdorlar edi. Davlat rahbarlari shunday holatda bo‘lgan bo‘lsa, oddiy savodsiz qora xalqdan nimani kutish mumkin, ulardan qanday kelajak, o‘tmish avlodga qanday meros qolishi mumkin. Yurtimiz hududiga “...dastlabki temir yo‘l kirib kelganda mahalliy aholi temir mahluqqa o‘n bog‘ xashak va katta idishlarda suv olib chiqqan...” emish. Bu kabi fikrlar tarixiy va arxiv manbalarida juda ko‘p, lekin haqiqatdan yiroqlari ham ancha.

Xullas, o‘zbek xalqi so‘z ketayotgan davrda o‘rta asrlar feodalizmidan yangi davr kapitalizmiga o‘tayotgan davr edi. Biz bu ishimizning II bob birinchi faslida Muqumiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O‘tar, Komil Xorazmiy ijodidan hamda o‘sha davrdagi vaqtli matbuot manbalaridan foydalandik.

XIX asr manbalarida yangi davrda vujudga kelgan so‘zlarga misol keltiradigan bo‘lsak, otash arava (poyezd), “...otash arava kelayotgan emish...” firqa (partiya ma’nosida), tabibxona (ambulatoriya ma’nosida) ishlatilgan. Badiiy asarlarda ham bir qancha yangi so‘zlar ishlatilgan. Ularning ishlatilishidan biz bizning jamiyatimizga ham yangi davr, yangicha qarashlar kirib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘zgarishlar keyinchalik zamon va tuzumga qarab juda tezlik bilan o‘zgardi. Masalan,

Unda bo‘lis g‘ozi dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi.
Yurt barcha norozi dedi,
Qilg‘on ishi ozor ekan.

Bu parchadagi bo‘lis so‘zi ruscha “волост” so‘zining o‘zgargan shaklidir. Yana “…moshinachiga berib, tiktirmaganda barvaqt, sovuq havo Muqimiy otiz yomon afandim…”. Bu namunada mashina so‘zi orqali tikuv mashinasi nazarda tutilyapti. “Maskovchi boy ta’rifida” (Muqimiyning hajviy asari) kabi misollarni Muqimiy ijododan keltirishimiz mumkin.

Muhammad Sharif So‘fizoda ijodida ham yangi paydo bo‘lgan so‘zlar bir qancha o‘rinlarda uchraydi. Xususan, “Chust boyonlarining bir gapxonada bir-birlariga maqtanishganlari” deb nomlangan she’rida:

Muallimni quvib, maktabni yopgan chustilar, bizlar,
Berib pora, pristavlarni topgan chustilar, bizlar

Shaharga qo‘ymadik poyezdni, kelsun, xalq, kun ko‘rsin,
Ajab mo‘minsifat, eski musulmon chustilar, bizlar.

Omon bo‘lsin vakili shahr bo‘lgan deputat boylar,
Alarni saylagan jonliq tegirmon chustilar bizlar.

Zakaz qilgan kishi bilsinki So‘fizoda adresi,
Oluvchilarga ko‘p qilguvchi ehson chustilar, bizlar.

So‘fizodaning bu g‘azalida pristav (пристав), poyezd (поезд), vakili shahr, deputat (депутат) kabi yangi so‘zlar ishlatilgan. Poyezd so‘zi asl holicha ishlatilgan (ammo boshqa bir qancha manbalarda poyezd so‘zi otash arava shaklida ishlatilgan). She’rning boshlanish qismida “zakaz qilmoq” qo‘shma fe’li qo‘llangan. Aslida zakaz so‘zi ruscha (заказ) so‘z bo‘lib, o‘zbek tiliga “buyurtma” deb tarjima qilinadi. Bunda so‘z noto‘g‘ri qo‘llangan. Lekin o‘sha davrda tilimizda tarjima tizimi umuman tartibga solinmagan edi, chunki chet tillardan kirib kelayotgan so‘zlar atama yoki bizning tilimizda muqobili bo‘lmasagina o‘sha shaklda kiritiladi. Agar chet tilidan kiruvchi so‘zning tilimizda muqobili bo‘lsa, yoki shu so‘z atama bo‘lmasa o‘zbek tiliga tarjima qilinishi kerak. Bu yerda “заказ” so‘zi o‘zbek tiliga tarjima qilinishi kerak edi. “адрес” so‘zi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin.

XIX asrning bir qancha manbalarida amal-mansabga oid so‘zlar bir qancha manbalarda quyidagicha ishlatilgan.

Avvalo, e’tibor beradigan bo‘lsak, amal va mansabga oid so‘zlar tilimizga turli davrlarda, turli xil sharoitlar natijasida kirib kelgan. Dastlab arablar bostirib kelmaslaridan avval mahalliy tillarda umuman arabcha so‘zlar ishlatilmagan. VI asr o‘rtalarida Oltoy va Janubiy Sibirni birlashtirgan yagona turk davlati shakllana boshladi. Bu davlatning nomi Turk xoqonligi deb atalgan. Bu davlatda davlat boshlig‘i “xoqon”, uning birinchi sarkardasi esa “jabg‘u (yabg‘u) xoqon” deb atalgan. “Jabg‘u” atamasi esa mahalliy hokimlarga nisbatan ishlatilgan. Yana o‘sha davrda “shod yoki shad” degan mansab ham katta nufuzga ega bo‘lgan. Manbalarda “shad” lavozimi 700 ta qo‘shinga boshliq kishi ma’nosini anglatishi qayd etilgan, lekin bugungi kun tarix darsliklarida bunday lavozimdagi shaxs o‘n ming qo‘shinga boshliq bo‘lganli qayd etiladi. Arablar davrida tilimizga ko‘plab amal-mansabni bildiruvchi so‘zlar kirib keldi. Bu amal-mansablarning kelib chiqishi islom diniga bog‘liqdir. Islom dinida mavjud bo‘lgan mansab nomlari (diniy mansablar) boshqaruv tizimiga ham joriy qilinadi (islom dini ta’sirida juda ko‘p so‘zlar tilimizga kirib keladi. Ular nafaqat din sohasida, balki boshqaruv, sud-huquq tizimida ham ko‘pchilikni tashkil qiladi). Arablar bosqinidan keyin forslarning madaniyati bizning hududimizga katta ta’sir o‘tkaza boshladi. Natijada fors tilida mavjud bo‘lgan forscha va arabcha-forscha (keyingisini ham aynan forscha deyish mumkin) so‘zlar kirib kelgan.

XIX asr manbalarida amal-mansabga oid so‘zlar turlicha qo‘llanilgan. Bunga sabab mualliflar qarashlarining turlicha bo‘lganligidir.

Ma’lumki, o‘zbek atamashunosligi bilan shug‘ullanish XX asrning 20-yillaridan boshlangan edi. Atamalarni to‘plash, ularni izohlash ancha qadimiy bo‘lsa ham, atamalarni tasniflab o‘rganish, ilmiy jihatdan asoslash juda kech amalga oshirilmoqda. Bu boradagi birinchi keng qamrovli harakat 1986-yilning 17-aprelida “O‘zbek tili terminologoyasi va uning taraqqiyot perspektivalari” nomli Respublika terminologiya konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Bu konferensiyada O‘zbekiston SSR FA qoshida maxsus komissiya tuzildi. Bu komissiyaning vazifasi atamalarni tartibga solish, ularni amaliyotga joriy etish, bu ishlarni koordinatsiya qilish va atamashunoslik lug‘atlarini tuzishdan iborat edi. Bu ishlarning yakuni sifatida A. Xojiyev, R. Doniyorov, Sh. Rahmatullayev, S. Akobirovlar tomonidan qilingan ilmiy ishlar va lug‘atlar vujudga keldi.

Jamiyat hayotida ro‘y berayotgan bir qator o‘zgarishlar kun sayin yangi-yangi atamalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Mustaqillikdan keyingi davrni e’tiborga oladigan bo‘lsak, kibernetika, elektronika, biokimyo, mashinasozlik, telemexanika, tibbiyot, siyosatshunoslik kabi sohalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. SSSR tizimi parchalangach, tilimizga amal-mansabni bildiruvchi so‘zlar ham kirib keldi.

Har bir til atamashunosligining shakllanishi va rivojlanishi mazkur tilning so‘z yasalish qonunlariga tayanadi va shu til bilan bir qatorda uning leksikasi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. ‘‘каждый предмет начинается от народной речи и медитации” (har qanday fan xalq tafakkuri va nutqi erishgan natijalardan boshlanadi)”. Har doim atamashunoslik leksikasi xalq tili leksikasi tarkibining boyishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘rtasidagi aloqa ikki yo‘l bilan amalga oshishi ko‘rsatiladi:

umumiste’moldagi so‘zlarning bir qismi terminologiyaga o‘z ma’nosida o‘tadi;

umumiste’moldagi so‘zlarning bir qismi tarjima qilish orqali o‘tadi;

Ko‘rinadiki birinchi guruhga mansub atamalar so‘z-nom sifatida ham, termin-nom sifatida ham bir bitta ma’noni bildiradi. Ammo so‘z-nomning tushunchaviy mazmuni birmuncha umumiy va mavhumligi bilan, termin-nomning tushunchaviy mazmuni keng va aniqligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Ikkinchi guruhga mansub so‘z-nom bilan atama-nomlar boshqa-boshqa denotatni bildirishi bilan farq qiladi. Masalan, barmoq- qo‘lda joylashgan beshta barmoqdan birini bildirsa, texnikada detalning qismini bildiradi.

Demak, umumiste’moldagi leksika bilan atamashunoslik leksikasi orasida leksik birliklarni semantik jihatdan o‘zgartirish hisobiga bo‘ladigan aloqa obyektiv voqelikni

bilishda, noma'lum, xususiylik va umumiylik kabi falsafiy kategoriyalarning dialektik birlikda amal qilinishini aks ettiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev N. "Uydirma va tarixiy haqiqat" "O'qituvchi" Toshkent.: 1999. 125-126-betlar
2. O'sha kitob 124-bet
3. Ahmedov S. Qosimov B. Adabiyot;O'quv-uslubiy majmua. II qism Toshkent.: "Sharq", 2011. 119-bet
4. Nurmonov A. "O'zbek tilshunoslik tarixi" Toshkent.: "O'zbekiston".2002. 230-bet
5. . Begali o'g'li B. A. ISTIQLOL YILLARIDA SAID AHMAD IJODI //NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 14. – №. 1.
6. Sherali o'g'li B. S. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURI ORQALI O'QISH, MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKLARINI O'RGANISH TEHNOLOGIYALARINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI. – 2023.
7. Ergashev A. МАВЖУДЛИК БИЛДИРУВЧИ (ЭКЗИСТЕНЦИОНАЛ) ГАПЛАР //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
8. Ergashev A. Sintaksis bo'limining o'ziga xos xususiyati //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
9. Ergashev A. Mutolaa san'atining paydo bo 'lishi //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
10. Methodology of Teaching National Symbolic Stories Art and Stylistic Uniqueness EA Toshboy o'g'li - Journal of Innovation, Creativity and Art, 2023

|YOSHLAR O'RTASIDA DOLZARB BO'LGAN PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Asilova Sanobar Xatamboyevna
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Shamsutdinova Ismigul
Qo'qon universiteti Amaliy psixologiya
II kurs talabasi
E-mail: gulishamsutdinova3@gmail.coM

Annotatsiya: *Maqolada asosan 19-20 yoshdagi yoshlar o'rtasidagi psixologik muammolar, ularning vujudga keladigan sabablari hamda ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek maqolada yoshlar o'rtasidagi dolzar bo'lgan muammolarning sabablariga yechimlar ham keltirib o'tilgan.*

Kalit so'z: *yoshlar ma'naviyati, jinoyatchilik, teroristlik, globallashuv, manfur, mafkura, yoshlar masalasi, ishsizlik, yoshlarga e'tibor, muammolar, muammo yechimlari.*

Аннотация: *В статье преимущественно рассматриваются психологические проблемы молодежи 19-20 лет, их причины и пути их устранения. В статье также представлены пути решения причин проблем среди молодежи.*

Ключевые слова: *духовность молодежи, преступность, терроризм, глобализация, ненависть, идеология, молодежный вопрос, безработица, внимание к молодежи, проблемы, решения проблем.*

Abstract: *The article mainly discusses psychological problems among young people aged 19-20, their causes and ways to eliminate them. The article also provides solutions to the causes of problems among young people.*

Key words: *youth spirituality, crime, terrorism, globalization, hatred, ideology, youth issue, unemployment, attention to youth, problems, problem solutions.*

Kirish: Yosh avlodni jismonan baquvvat,ma'naviy ruhiy jihatidan sog'lom qilib tarbiyalash, hozirgi kunning dolzarb muommolaridan biridir. Farzandlarimizni jismonan baquvvat,ma'naviy, ruhiy jihatidan sog'lom qilib tarbiya lash, hozirgi kunning dolzarb muommolaridan biridir.XXI-asr axborot texnologiyalari asri bo'lganligi bois, shaxslararo munosabatlar keskin jadallashib bormoqda. Internet, ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan informatsiyalar insoniyatning psixologiyasiga juda kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida ma'naviy bo'shlig'i mavjud insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Insoniyat paydo bo'libdiki, eng dolzarb, eng mashaqqatli va eng qiyin vazifa – yoshlar masalasi bo'lib kelgan. Mutafakkir va allomalar, ziyolilar jamiyatning rivoji, tinchligi va xotirjamligini yoshlar tarbiyasi bilan bog'lagani bejiz emas. Tarbiya masalasi qadriyat, an'ana bilan bog'liqlikda hal etishga harakat qilingan bo'lsa, o'sha joyda rivojlanish bo'lgan. Yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik bo'lgan joyda inqiroz va o'pirilishlar sodir bo'lgan. Yer yuzidagi aholining 20 foizini yoshlar tashkil qiladi. Afsuski, millionlab yoshlar maktab nima ekanini umuman bilmaydi. Ya'ni, ular, mutlaqo savodsiz. Yana shuni ham aytish kerakki, kichik muammolar o'z-o'zidan yiriklarini keltirib chiqaradi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida yoshlar orasida erta turmush qurish oddiy holga aylandi. Erta qurilgan yosh oilalarda arzimas, kichik muammolar paydo bo'ladi. Bu muammolar

asta-sekin kattalashib boraveradi. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, hali oila atalmish muqaddas dargohning nima ekanligini to‘liq anglab yetmagan, ro‘zg‘or qurishga mutlaqo tayyor bo‘lmagan bu yoshlarning turmush qurishiga nima sabab bo‘lgan?! Bunga ota-onalarining xohishi sababmi yoki allaqanday o‘tkinchi bir havasmi?! Masalan, ayrim Sharq mamlakatlarini olaylik, yoshlar ota-onalarining xohishi va qandaydir o‘ylab topilgan udumlarga ko‘ra, erta turmush quradi. G‘arbda aytib o‘tganimdek, o‘tkinchi bir havas orqali oilalar bunyod bo‘lyapti. Xo‘sh, keyin nima bo‘ladi?! Bunday oilalarda aksariyat hollarda nosog‘lom farzandlar dunyoga kelishi, ro‘zg‘orda uchraydigan turli xil noo‘rin gap-so‘zlar, xatti-harakatlar oilalarning barham topishiga, ya'ni oilaviy ajrim holati bilan nihoyasiga yetadi. E'tibor bergan bo‘lsangiz, jahon yoshlari orasida ishsizlik muammosi ham bugunga kelib eng dolzarb mavzuga aylandi. Hozir, hatto, eng rivojlangan mamlakatlarda yoshlar bandligini ta'minlash katta muammoga aylangan. Ularning ko‘pchiligi xorijda ish topaman deb odam savdosi atalmish jirkanch jinoyatning qurboniga ham aylanmoqda. Esingizdami, bundan 4-5 yil oldin Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida ommaviy tartibsizliklar, “rangli inqiloblar” yuz bergan edi. Aynan shu to‘polonlarning boshida kim turgandi deb o’ylaysiz?! Albatta, o‘zining fikriga ega bo‘lmagan, kim nima desa shunga ergashib ketadigan, boshqacha qilib aytganda, mafkuraviy immuniteti sust bo‘lgan yoshlar turgandi. Umuman keyingi yillarda, dunyoda bu kabi tartibsizliklarni amalga oshirishda vayronkor kuchlar, mafkuraviy kurashlarda, ommaviy tadbirlardan texnologik asosga o‘tdi. Ya'ni ular professionallashdi. Hozir axborotni qabul qiluvchidan ko‘ra, uni boshqalarga yetkazadigan “fikr liderlari”ning sonini ko‘paytirish yo‘lga qo‘yilgan. Buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib etuvchilar odamlarda shakllangan mafkuraviy e'tiqodni o‘zgartirishga intilmoqda. Bu yo‘lda, ular asosan yoshlardan foydalanmoqda. Ayanchlisi, bu manfur kimsalar, o‘smirlar bilan turli ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa o‘rnatib, ularning qalbi va ongiga kirishga harakat qilmoqda va buning uddasidan chiqmoqda ham desam mubolag’a bo’lmaydi. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongini yot g‘oyalardan asrash, internet orqali kirib kelayotgan zararli g‘oya va ta’sirlardan samarali va ishonchli himoyalash dolzarbligicha qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Ostona shahrida “Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari” bo‘yicha kengashning oltinchi sammitida nutq so‘zlab, mamlakatlar radikal g‘oyalarning keng xurujiga yanada ko‘proq to‘qnash kelayotganiga e’tibor qaratdi. Bugungi kunda buzg‘unchi kuchlar targ‘ibot va mafkuraviy ta’sirning yangi uslublaridan foydalangan holda ekstremistik tashkilotlarga yoshlarni faol jalb etayotganligini alohida ta’kidladi. O’z navbatida bu kabi muammolarni oldini olish va yosh avlodni radikalizmdan asrash, ularning kuch-g‘ayrat va shijoatini bunyodkorlik sari yo‘naltirish uchun tizimli hamkorlik zarurligi, o‘g‘il-qizlarimiz o‘z kuchiga

ishonishi, adolatli kelajakni qaror toptirishda o‘z ishtirokini his etishi, o‘z salohiyat va umidlarini amalda ro‘yobga chiqarish imkoniyatlariga ega bo‘lishi uchun barcha choralar ko‘rilishi kerakligini qayd etdi. Hech kimga sir emaski yoshlar muammosi alohida e’tibor talab mavzu. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda 15 dan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hamon ishsizlik va qashshoqlik qarshisida sarsondirlar. Ayni damda yoshlar yer yuzi aholisining taxminan 20 foizini tashkil qiladi. Bu 1 milliard 200 million kishi, yoki mehnatga yaroqli aholining 24 foizi demakdir. Zamonaviy yoshlar bilimi va salohiyati jihatidan milliy taraqqiyotning muhim resursi ekani tan olingani holda, ayrim mamlakatlarda yoshlar orasida ishsizlik yuqori darajada. Ularda, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ularni ish bilan band qilish, sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish o‘z holiga tashlab qo‘yilgani achinarli. Ko‘pgina muammolar zamirida aniq bir kasb-hunarga ega bo‘lmaslik va natijada, ishsizlik, bekorchilik yotibdi, bo‘sh vaqtlari, asosan, kuno‘tar maishiy mashg‘ulotlar girdobida qolmoqda. Dunyo miqyosida keng tarqalgan internet va kompyuter o‘yinlariga mubtalo bo‘lganlarining esa dunyo bilan ishi ham yo‘q. Ayrim mamlakatlarda “kompyuter giyohvandligi”dan davolash maqsadida maxsus shifoxonalar ham ochilmoqda. Jonli muloqotdan ko‘ra ijtimoiy tarmoqlar orqali virtual muloqotga o‘rganib borayotgan yoshlarni bu illatdan xalos qilish ancha mushkul ish menimcha. Bir qator mamlakatlarda esa yoshlar o‘rtasidagi ichkilikbozlik katta muammoga aylanib boryapti. Bugun alkogolizm jinsdan qat’iy nazar, yoshlarning dolzarb ijtimoiy muammosi sanaladi. Ichkilikbozlikni erta boshlagan o‘smirning hayotga qiziqishi erta so‘nadi deyish mumkin. O‘smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning katta qismi mastlikda yuz bergani isbotlangan. Alkogolizm va giyohvand moddalar iste’moli yoshlarning umriga zavol bo‘layotgan asosiy vositalardir. Shunisi taassufliki, ular iste’mol qilayotgan giyohvand moddalar kattalar tomonidan sotilmoqda. Kimlardir o‘zgalar fojiasidan boylik orttirmoqda. Surishtirib kelinsa, giyohvandlarning hammasi ham kambag‘allarning farzandlari emas, taqiqlangan bu kabi moddalarni tatib ko‘rganlarning katta qismi boy-badavlat xonadon farzandlaridir. Ho’sh buni nima deb atash mumkin, “to’qlikka sho’xlikmi” yoki boshqa narsami? Xalqimizda “Birni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukr qil” degan maqol bor. Hozirgi tahlikali dunyoning bir qator mamlakatlarida kuzatilayotgan turli to‘s-to‘polonlar, tartibsizliklar negiziga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularda davlatning o‘sib-unib kelayotgan yoshlarga, ularning hayotdagi qiziqishlari, huquq va manfaatlariga e’tiborsizligi, ulardagi yoshlarga oid siyosat hozirgi zamonning yangi tahdidlariga javob bermasligi oqibatini ko‘rish mumkin. Olimlarning fikricha, bugungi g‘arblik yoshlarning oyoqqa turib olishlari, hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari qiyin kechadi. Bunga birinchi o‘rinda axborot vasvasasi aybdor ekani aytiladi. Shubxasiz axborot shu qadar tezlikda harakatlanmoqdaki, uning oqimini to‘xtatib qolishning

imkoni bo‘lmayapti. Bu oqim yo‘lida uchragan hamma narsani, hatto axloq, odob, ma’naviyat, ezgulik kabi qadriyatlarni, yoshu qarini “oqizib ketmoqda”. Axborot yangi avlod uchun ommaviy qirg‘in quroliday gap ekani tan olinsa-da, ammo unga qarshi kurashishga hech kim jazm qila olmayapti. Xorij telekanallarining deyarli har bir ko‘rsatuvida ur-yiqitlar namoyish etiladi. Dunyo ommasiga zo‘ravonlik, otishma, qotillik kabi illatlar aks etgan ko‘rsatuv, film va tok-shoularni kun bo‘yi tomosha qilgan bolalar ertaga qanday inson bo‘lib voyaga yetadi, degan savolni kim beradi. Bir o’ylab ko’ring! Hayot so‘qmoqlarida qiynalgan yosh yigit-qizlarning yashab qolish maqsadida jinoyat olamiga kirib qolayotgani, ishsizlar armiyasida ularning safi kengayib borayotgani, ma’naviyatsizlik,tubanlik ustuvorlik qilayotgani, bu esa o‘sha mamlakatlarda jamiyatning inqirozi kuchayib borishiga sabab bo‘lmoqda. Oilalarda bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro tushunmovchilik oqibatida o‘smirlarning uydan bosh olib ketishi, ayrim hollarda esa bolalar o‘zining joniga qasd qilishi odatiy holga aylanib bormoqda. Arzimagan kelishmovchilik tufayli bir inson suitsid holatini sodir qilishi va bu holatlar kamayish o’rniga kundan-kun ortib borayotgani achinarli holat emasmi?!

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarini tashvishga solayotgan asosiy muammolar: ta’lim (respondentlarning 77%i) va bandlikdir (respondentlarning 61,8%i). Milliy tadqiqotdagi yangi ma’lumotlar O‘zbekistonda yoshlar farovonligini ta’minlash uchun yoshlar siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Aksariyat ruhshunoslarning aytishlaricha, hayotimiz, turmush tarzimiz, ishimizdagi aksariyat muammolarning sababi bolalik vaqtlariga borib taqaladi. Bolalikda qalbingizga yetkazilgan jarohat, ruhiy o‘zgarishlar, komplekslar, havotir, o‘ziga ishonmaslik kabi tushunchalar butun umringiz davomida sizni ta’qib qilishi mumkin. Yoshlarni tolerantlik(bag‘rikenglik) ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyo yoshlari orasida o‘qishni, ishlashni xohlamaydiganlar soni ham ko‘payishda davom etmoqda. Buning sababi nimada?! Misr ehromlaridan birining devoriga juda qadim zamonlardayoq bugungi yoshlar o‘zgarib ketgan mazmunidagi gap yozib qoldirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki har bir davr yoshlarining ta’lim-tarbiyasi o‘sha davrning muhim muammosi sifatida qaralgan. Menimcha asosiy sabab sifatida, ularning ota-onalari o‘z farzandiga umuman vaqt ajratmasligida deb bilish mumkin. So‘nggi yillarda, xonadonlarimizda shaxsiy kompyuterlar ham ko‘payib bormoqda. Bu juda yaxshi, chunki ish yuzasidan bajarishga ulgurmagan yumushingizni uyda tugallab qo‘yasiz. Lekin, kompyuter oldida farzandlarimizning soatlab o‘tirishi, kompyuterdagi zo‘ravonlik sahnalari aks etgan o‘yinlarga berilib ketishi bolalarda shafqatsizlik hissining tomir otishiga zamin yaratmayaptimikin!? Ularning ruhiyatida

jiddiy buzilish yuzaga kelayotgani hech kimga sir emas. Natijada, bolalar kundan-kunga virtual o‘yinlarga berilib, kundalik hayotdan chetga chiqib qoladi. Bu ularning o‘qishiga ham o‘z ta'sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ayrim o‘smir yoshdagilar maktabni bitirishi bilan, go‘yo, katta hayot shu ekan deb, turli pana-pastqam joylarda tamaki chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilishga ruju qo‘yadi. Bilishimiz kerakki, har bir bola, har bir yoshning o‘zi bir dunyo. Shunday, ekan ular bilan munosabatda bo‘lishda, suhbatdoshingizning fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda gaplashish muhim. O‘smirlarga biror-bir maslahat berayotganingizda ham, albatta, yoshini hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Jahon hamjamiyatining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lgan O‘zbekistonda bu kabi muammolar o‘z vaqtida e’tiborga olingani quvonarlidir. Mamlakatimizda yoshlarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilayotgani, samarasida yoshlarimiz barcha sohalarda ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Navqiron avlodning dunyo standartlari darajasida ta’lim-tarbiya olishiga, o‘z iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Konstitutsiyamizda va qator qonunlarimizda yoshlarimizning huquqlari va manfaatlari himoyalangan. Bular esa yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi eng muhim va dolzarb yo‘nalishlarda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Kishilik jamiyati taraqqiyoti shunday bosqichga kelganki, hozirgi kunda harbiy kuch emas, intellektual salohiyat, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yoshlar — ertangi kun davomchilaridir. Yoshlar bilan bog‘liq muammolar mavjud har qanday millat yoki davlatning kelajagi yo‘q deb aytish o‘rinlidir. Ularga yetarli sharoitlarni yaratib berish, eng asosiysi, e’tibor qaratish lozim. Nima bo‘lganda ham, yoshlar ta’lim tarbiyasiga kerak bo‘lsa har qadamiga e’tiborli bo‘lishni ota-onalarimiz, o‘qituvchi- murabbiylarimiz oldida turgan ulkan vazaifalardan biri hisoblanadi. Zero yoshlar kelajagimiz poydevori. Yoshlarimizni psixologik jihatdan sog‘lom va barkamol qilib voyaga yetishishlari uchun bu juda muhimdir. Bir narsani faxr bilan aytishimiz mumkinki mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishga, sog‘lom va barkamol voyaga yetishishiga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Quvonarlisi jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va kelgusidagi konsepsiyalarning ishlab chiqilishi nafaqat davlat, balki jamiyat manfaatdorligini

ko‘rsatadi. Statistik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra jinoyatchilik darajasining kamaygani ham amalga oshirilgan ishlar samaradorligini tasdiqlaydi. Bu albatta yurtimizda kelajakda jismoniy va psixologik sog‘lom avlodni voyaga yetkazishga qaratilingan ishlarning natijasi xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. JS Ikromjonovna. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O‘YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 586-588
2. .Abdullaxo‘jayev, A. J. (2024). IS’HOQXON TO'RA IBRAT FAOLIYATIGA IJTIMOIY-FALSAFIY NAZAR. *Interpretation and researches*
3. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(12), 208–211. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507
4. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(12), 208–211. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507
5. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." Analysis of International Sciences 2.2 (2024): 51-57.
6. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 188–193. Retrieved from https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644
7. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505
8. Календарова З.К. Методы и методические приемы обучения детей дощкольного возраста математике. Московской области «Государственный гуманитарно-технологический университет»: «Студенческая наука подмосковъю» материалы международной научной конференции молодых ученых. – Орехово-Зуево: Редакционно-издательский отдел ГГТУ, 2018. – С. 221-224.

9. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.
10. Asilova, S. X. (2023). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI.
11. Xursanov, O. (2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV - MA'NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/
12. https://review.uz/uz/post/yoshlar-ortasida-otkazilgan-sorov-talim-va-bandlik-yoshlarni-tashvishlantirayotgan-asosiy-muammolardan-biri
13. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2015/08/150806_latin_uzbek_youth

O'QUVCHILARNI MILLIY QADRYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Bolqiyev Axmad Begali o'g'li
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada respublikasmizda sog'lom avlodni tarbiyalash maqsadida bola tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'tarish va unga vatanparvar, mehr-muhabbatli, insonparvar qilib tarbiyalashni maktabgacha yoshidayoq, boshlash va uni to'xtovsiz davom ettirish maktab, oila, mahalla jamoat tashkilotlari e'tiboridan chetga qolmasligi ta'kidlanmoqda*

Аннотация*. В данной статье за пределами внимания школы находится воспитание здорового поколения в нашей республике, воспитание детей до уровня государственной политики и воспитание их патриотичными, любящими и гуманными, начиная с дошкольного возраста и продолжая без остановки, семейные, районные общественные организации. Подчеркивается, что она не останется*

Annotation*. In this article, in order to raise a healthy generation in our republic, raising children to the level of state policy and raising them to be patriotic, loving, and humane, starting from preschool age and continuing without stopping, is beyond the*

attention of school, family, neighborhood public organizations. it is emphasized that it will not remain

Kalit so'zlar. *Xalq og'zaki ijodi, boshlang'ich sinf darsligidagi vositalar, milliy qadiriyat, tarbiya, usullar.*

Ключевые слова. *Народное искусство, инструменты в учебниках начальной школы, национальный талант, образование, методы.*

Keywords. *Folk art, tools in elementary school textbooks, national talent, education, methods.*

Ta'lim–tarbiya jarayoni har bir o'qituvchi va pedagogdan katta aql – zakovat, sabr – matonat, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr – muhabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib boruvchan bo'lishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda so'z, ish yoxud amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

O'qituvchi shaxsi – bu uni inson sifatida xarakterlovchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir. O'qituvchi shaxsi o'z kasbiga ixlos qo'yishi va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishi, bolalarga ta'sir o'tkazishi va ular bilan hamdardligida namoyon bo'luvchi shunday fazilatlar majmuasidirki, ular o'qituvchi faoliyati va muloqoti bilan uyg'unlashganda o'qituvchi mehnatining bir butunligiga erishiladi.

Ana shunday mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari o'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid tarixiy tajribasini hayotga tatbiq etishga mas'uldirlar.

Demak, biz ajdodlarimiz ma'naviy moddiy merosiga vorislik nuqtai nazaridan yondoshib, yosh avlodni maktabgacha ta'lim muassasalaridanoq to'g'ri tarbiyalashga erishmog'imiz lozim.

Chunki, xalqimizning aqidasiga ko'ra «Insonning kuchi tarbiyadadir». Shu jihatdan qaraganda O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham o'zining boy tarixiy, ma'naviy-madaniy merosi, ming yillar davomida tarkib topgan tarbiya amallari, an'analari, axloq-odob qoidalari xazinasiga egadir. Ana shu xalqning buyuk mutafakkirlari komil inson xususida, uning axloqi to'g'risida dunyoga mashhur buyuk mutafakkirlari komil inson xususida, uning axloqi to'g'risida dunyoga mashhur bo'lgan durdona asarlar yozib qoldirdilar, maktabgacha ta'lim muassaslaridanoq bobolarimiz qoldirgan buyuk merosdan foydalanish, tarbiya metodlarini qo'llash, ularni bolalar ongiga singdirish muhim ahamiyatga egadir. Bunday meroslardan Yusuf

Xos Hojibning «Qutadg‘u bilik», Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning«Bahoritsion», A.Navoiyning «Mahbub –ul-qulub», Devoniyning «Axloqi Jaloliy», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy» kabi betakror, nodir asarlaridan foydalanish joizdir, deb hisoblaymiz.

Bobokalonlarimiz bolani har tomonlama uyg‘un rivojlantirishga katta e’tibor qaratishgan. Shu bois respublikasmizda sog‘lom avlodni tarbiyalash maqsadida bola tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko‘tarish va unga vatanparvar, mehr-muhabbatli, insonparvar qilib tarbiyalashni maktabgacha yoshidayoq, boshlash va uni to‘xtovsiz davom ettirish maktab, oila, mahalla jamoat tashkilotlari e’tiboridan chetga qolmasligi ta’kidlanmoqda. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ilk yoshidanoq bobolar merosiga tayangan holda har tomonlama rivojlantirishni asosiy vazifalardan deb hisoblaymiz.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni: yaxlit odobli shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Axloqiy tarbiyalangan shaxsda barqaror ma’naviy motivlar shakllangan bo‘ladi. Axloqiy tushunchalarni turli yosh guruhlarida shakllantirish darajasi turlichadir. Bolalar o‘zlashtiryotgan axloqiy his-tuyg‘ular, kechinmalar ma’naviy e’tiqodni shakllantirishning muhim sharoitlaridan biridir. Axloqiy his-tuyg‘u insonning jamiyatga, odamlarga, o‘ziga nisbatan emotsional munosabatini bildiradi. Bu odamlar o‘rtasidagi muomala jarayonida vujidga keladi va rivojlanadi. His- tuyg‘ilar axloqiy bilimlar va etiqodlari bilan chambarchas bog‘lanib ketadi. Axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash alohida ajralib qolgan jamiyat emas, bu tushunchalarinson ehtiyojlari unung bilim va kechinmalarini uning sezgisi asosida vujidga keladi va rivojlanadi. Bola shaxsini tarbiyalashda pedogogik ta’sir ko‘rsatish usul, uslublarning turli yo‘llarini ishlab chiqish zarurdir pedagoglar axloqiy his - tuyg‘ularning tarbiyalashga katta e’tibor qartishda ularning fikricha, yaxshi his-tuyg‘ularning ildizi bolalikdan boshlanishi kerak.

Odamiylk, mehribonlik, hamkorlik ittifoq hayrixohlik, mehnatda tashvishlarda atrofdagi dunyo go‘zalligi haqida g‘amxo‘rlik qilish hayajonlanish jarayonida vujidga keladi. Axloqiy odatlar axloqiy e’tiqodlar his –tuyg‘ular bilan bir qatorda hulq - atvorning ichki reguliyatorlari tizimiga kiradi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi “ darsliklarida maqolni quruq o‘zigina keltirilmasdan, balki unga mos rivoyat va ertaklar beriladi.

Masalan 4-sinf “O‘qish kitobi” dagi “Chaqimchiga mukofat” hikoyasini olaylik. O‘quvchi bu asarni to‘la o‘qib chiqqandan so‘ng chaqimchilik yomon illat ekanini, u odamlar orasini buzishini , hikoyadagi hokimga bevafolik qilganini va ohir oqibatda jazosini olganini ya’ni dorga ostirilganini biladi. Shu hikoya orqali o‘quvchi “Vadaga

vafo – mardning ishi”, Chaqimchi tuxum po‘chog‘ uning joyi tandiz – o‘choq” ,kabi maqollarni ma’nosini osongina tushunib oladilar.

“Tuz haqi” hikoyasida (4sinf) ham shunday. Hikoya o‘qib bo‘lingach, sakvol va topshiriqlar bilan ishlanadi. 3-savolda bunday deyilgan: “Tuzning tabarrukligi to‘g‘risida qanday maqollarni bilasiz” Bir kun tuz totgan joyinga qirq kun salom ber”, “Tuzini yeb tuzlig‘iga tupirma” va boshqalar.

3-sinf “O‘qish kitobida”da Farhod Musajonovning “Yaxshilik”, hikoyasi berilgan. Bola uni o‘qib ,”Yaxshilik yerda qolmas “, “Yaxshi niyat –yarim davlat “, ”Yaxshidan bog‘ qoladi-yomondan dog‘ “, “Yaxshiga yondoshsang, yetarsan murodga, yomonga yondoshsang qolarsan uyatga “, “ Yaxshi oshini yer , yomon boshini”,

“Yaxshi suydirar yomon so‘ndirar”, “Yaxshi sharofatli , yomon kasofatli” , “Yaxshidan gina bo‘lmas, yomondan gina ketmas”, “Yomon bola ko‘zidan, bilinadi so‘zidan”, “Yaxshi bo‘lsa bola, yomon bo‘lsa balo”, “Yaxshi bilan yursang omon bo‘lasan, yomon bilan yursang yomon bo‘lasan”.

“Yahshilik qil daryoga ot , baliq biladi, baliq bilmasa Holiq biladi.” (Holiq - olloh ismlaridan biri) kabi maqollar tanishadilar va ma’nosini tushinib yetadilar. Maqollar xalq donoligidir. Unda kishilarning hayotini obdon kuzatib, tajriba to‘plab aytgan hikmatli so‘zlari o‘z ifodasini topgan Ihcham ko‘pincha she’riy tarzda izhor etilgan maqollarning mavzusi rang barangdir. U rad qilinmas pishiq darajadagi nasihatdan iborat bo‘ladi.

Yozma adabiyot namoyondalari ham o‘z mulohazalarini aniq va ixcham ifodalab maqollardek serma’no hikmatlar Boshlang‘ich ta’limda 2-sinf o‘quvchilari “Navoiy hikmatlari” ni o‘rganadilar. Masalan:

“ Olamdan g‘amsiz o‘tay desang, ilmu hunar o‘rgan “, “Sabr bila ko‘p bog‘liq ish ochilur, ishda oshiqqan ko‘p toyilur”,

Maqollar va hikmatli so‘zlar ikkinchi , uchinchi, to‘rtinchi sinf “O‘qish kitobi” da mavzularni yakunlovchi, uning g‘yaviy mazmunini o‘qivchi hotirasida uzoq saqlovchi janr sifatida berilgan. Undan tashqari 3-sinf o‘quvchilari, “Xalq og‘zaki ijodi “ ruknida berilgan do‘stlik, ahillik, ilm –fan vahuar haqidagi xalq maqollarini o‘rganadilar . Xalq maqollarini va hikmatli so‘zlarini yodlash o‘quvchilar tafakkurini o‘stiradi , nutqini boyitadi, hayotidagi inkor etib bo‘lmas turmush tajribalarini o‘zlashtirishga yordam beradi.

Darsliklarda tez aytish va topishmoqllarga ham katta e’tibor berilgan. Bular ham xalq-og‘zaki ijodi janrlari bo‘lib, o‘quvchilar zehnini o‘tkir qilishga, tilini burro etishga mo‘ljallangan. Tez aytishda biror bir tovush takrorlanadi, o‘quvchi tez aytishli gapni yodlab undagi ma’lum bir tovushni to‘g‘ri tallafuz etish ko‘nikmasiga erishadi.

Bolalar “Svetafor” o‘yini o‘ynashib tana azolariga dam berishadi ruhlari tetiklanadi, o‘yin sharti quyidagicha:O‘quvchilar o‘tirgan joylarida o‘qituvchining so‘zlariga diqqat bilan quloq soladilar “qizil chiroq” deyilganda qoidaga muvofiq to‘g‘ri o‘tirib olish ,”sariq chiroq” deyilganda chapak chalish, yashil chiroq” da esa oyoqlar qimirlatiladi.

O‘quvchilar chalg‘imaslikka xatoga yo‘l qo‘ymaslikka intiladilar. Shundan so‘ng, klaster usuli bilan yangi mavzu bayon qilinadi

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begali o‘g‘li B. A. ISTIQLOL YILLARIDA SAID AHMAD IJODI //NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 14. – №. 1.
2. Sherali o'g'li B. S. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURI ORQALI O'QISH, MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKLARINI O'RGANISH TEHNOLOGIYALARINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI. – 2023.
3. Ergashev A. МАВЖУДЛИК БИЛДИРУВЧИ (ЭКЗИСТЕНЦИОНАЛ) ГАПЛАР //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
4. Ergashev A. Sintaksis bo'limining o'ziga xos xususiyati //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
5. Ergashev A. Mutolaa san’atining paydo bo ‘lishi //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
6. Methodology of Teaching National Symbolic Stories Art and Stylistic Uniqueness EA Toshboy o'g'li - Journal of Innovation, Creativity and Art, 2023

HOZIRGI O’ZBEK TILIDA YORDAMCHI SO’ZLARNING O’RGANILISHI

Burxonov Shavqiddin
Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilida yordamchi so‘zlar tarixining o‘rganilishi haqida fikr yuritilgan. Bunda Ayub G‘ulomov, Ulug‘Tursunov va boshqa tilshunos olimlarimizning ilmiy ishlaridan namunalar keltirilgan. Maqolada yordamchi so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari ham izohlangan.*

Kalit so'zlar. *Yordamchi so'zlar, tilshunoslik, ma'no ottenkalari, yuklamalar, bog'lovchilar, ko'makchilar.*

Абстрактный. *В данной статье рассматривается история вспомогательных слов в узбекском языке. Приведем примеры научных работ Аюба Гуламова, Улуг Турсунова и других лингвистов. В статье также поясняются особенности вспомогательных слов.*

Ключевые слова. *Вспомогательные средства, лингвистика, значения, предлоги, союзы, вспомогательные средства.*

Abstract. *This article discusses the history of auxiliary words in the Uzbek language. Here are examples of the scientific works of Ayub Ghulamov, Ulug'Tursunov and other linguists. The article also explains the special features of auxiliary words.*

Keywords. *Auxiliaries, linguistics, meanings, prepositions, conjunctions, auxiliaries.*

O'zbek tilshunosligi tarixida morfologiya bo'yicha chuqur tadqiqotlar o'tgan asrning 40-yillaridan boshlandi. Professor A. G'ulomovning "Ozbek tilida kelishiklar" (1940), "O'zbek tilida ko'plik kategoriyalar" (1944) singari asarlarning dunyoga kelishi, shuningdek, U. Tursunovning "Ko'makchilar", X. Komilovaning "Kelishiklar", Z. Ma'ripovaning "Ot va sifat" yuzasidan olib brogan tadqiqotlarning o'zbek ilmiy morfologiyasining yaratilishidagi dastlabgi harakatlardan bo'ladi. Morfologiya bo'limi bo'yicha jiddiy ilmiy tadqiqotlar 50-yilardan, ayniqsa, kuchaydi. Bu yillarda yetakchi ilmiy kuchlar o'zbek tilining birinchi ilmiy grammatikasi safarbar qilindi va "Hozirgi o'zbek tilidan materiallar" rukni ostida A. G'ulomovning "O'zbek tilining morfologiyasiga kirish" (1953) "Fe'l" (1954), S.Usmonovning "O'zbek tilida undovlar" (1953), X.Komilovaning "O'zbek tilida son va olmosh" (1953), M. Asqarovning "O'zbek tillida rvishlar" (1953), SH. SHoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev, I.Rasulov, X. Doniyorovlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (1980), M. Asqarova, X. Abdurahmonov va A. Rafiyev, D. SHodmonqulovalarning "O'zbek tilining amaliy grammatikasi" (1992), B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (2006) singari asarlari nashir etildi. Ana shu risolalar asosida o'zbek tilshunosligi tarixida birinchi marta o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, gfafikasi, orfografiyasi va orfoepiyasini o'z ichiga olgan yirik asarlar "Hozirgi zamon o'zbek tili" asari nashirdan chiqdi.

Maskur asar bosilib chiqqandan so'ng o'zbek tili morfologiyasi yanada jiddiy e'tibor berila boshlandi. "So'zlarning morfologik tuzilishiga

bag'ishlangan S. Usmonovning doktorlik, O. Qosimxo'jayevning nomzodlik dessertatsiyalari yozildi. O'zbek tilshunoshlari erishgan barcha yutuqlarini o'zida jamuljam etib yozilgan A.N. Kononovning "Hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatikasi" (1960), 2 jildli "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (1966), 1 jildli "O'zbek n tilining grammatikasi" (1970) asarlarning maydanga kelishi o'zbek tili gramatikasining rivojlanishida katta xzmat qiladi".

Mustaqillik yillarida o'zbek tili grammatikasini jahon tilshunosligi yutuqlari asosida tadqiq etishga e'tibor qaratildi. O. Bozorov, Z. Eltozorov, Sh. Shahobiddinovlarning ilmiy izlanishlari, mualliflar guruhining "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" "Morfologiyasi" (2001) asari shu yo'nalishdagi ishlardandir.

O'zbek tilshunosligining morfologiya bo'limi yuzasidan ma'lum kuzatishlar mavjud bo'lgan bo'lsa ham tilshunoslikning alihida bo'limi, grammatikaning tarkibiy qismi ekanligi e'tirof etila boshladi.

Adabiy til morfologiyasida mavjud bo'lgan grammatik kotigoriyalar va shakilar so'zlashuv nutqi morfologiyasida ham mavjud. Lekin so'zlashuv nutqini diqqat bilan kuzatsak, uning o'ziga xos xusuiyatlarini ko'rishimiz mumkin.

So'zlashuv nutqi uslubida mahsuldor qo'llanuvchi vokotiv formadagi otlarning turli xil usullar bilan ifodalanishi haqida fikirlar bildirildi. O'zbek so'zlashuv nutqi morfologiyasi yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar) maxsus o'rganilgan.

Unda so'zlashuv uslubi qo'llangan ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarni boshqa funksional uslublarda ishlatilganlari qiyoslangan holda ularning ma'nosidagi farqni va o'xshash tomonlarini lingvostilistik nuqtai-nazardan tadqiq qilingan.

1.2. Yordamchi so'zlarning uslubiy qo'llanilishi.

Leksik ma'no ifodalamay, mustaqil so'zlar orasidagi grammatik munosabatni ifodalaydigan, ba'zan so'zga qo'shimch ma'no qo'shadigan so'zlar "yordamchi so'zlar" deyiladi.

So'z turkumlari umumiy Grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, taqliddan iborat lug'aviy ma'noga ega, muayyan so'roqlarga javob bo'ladigan, morfologik jihatdan o'zgaradigan, gapda ma'lum sintaktik vazifani bajaradigan mustaqil so'zlardir.
2. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar mustaqil so'z, so'z birikmalari, soda va qo'shma gaplar orasidagi munosabatlarni tiklaydigan, so'z va uning

mazmuniga qo'shimcha ma'no berishdek grammatik ma'no ifodalaydigan, ba'zan o'ziga kelishik qo'shimchalarini oladigan (ot ko'makchi), ammo yakka holda ma'no anglatmaydigan, so'roqlarga javob bo'la olmaydigan yordamchi so'zlardir.

3. Modal, undov, taqlid singari lug'viy ma'no bildiradigan, ammo ba'zan gap bo'lagi vazifasida kelaoladigan alohida guruh so'zlar.

Yordamchi so'zlar turkumlarini o'rganishda quyidagi bilim ko'nikma va malakalar o'quvchi ongiga singdirilishi lozim:

- har bir yordamchi so'zning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- Yordamchi so'zlarning bir-biridan va mustaqil so'zlardan farqini ajrata bilish;
- Ularning og'zaki va yozma nutqda to'g'ri uslubiy jihatdan o'rinli qo'llay bilish:

Yordamchi so'zlar gapda, odatda gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

Yordamchi so'zlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) Ko'makchilar;
2) Bog'lovchilar;
3) Yuklamalar;
4) Modal so'zlar;
5) Undov va taqlidiy so'zlar.

Yordamchi so'zlar mavzusini o'rganishda, egallangan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, ularni amaliyotga tadbiq qilish borasidagi bilimlarni nazorat qilish va baholash uchun izohli yoki saylanma diktantlar o'tkazish, shu jarayonda biriktiruv, ayiruv, zidlov bog'lovchilarining vazifasini va ma'nosini izohlash, yuklamalar, ularning ma'no turlari imlosini amalyotda qo'llashga yo'naltirilgan, o'quv topshiriqlari ustida ishlash nihoyatda foydali bo'lib, bunda yordamchi so'zlardan og'zaki nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalari jadal shakillantiriladi va rivojlantiriladi.

"Mustaqil so'zlar mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan, nominativ funksiya bajaradigan, ya'ni predmet, hodisa, belgi, harakat kabilarini nomlaydigan yoki unga ishora qiladigan va gapning mustaqil bo'lagi vazifasida kela oladigan so'zlardir"

Yordamchi so'zlar mustaqil holda gap bo'lagi vazifasida kela oladigan turlicha yordamchi ma'no vazifalarda qo'llaniladigan so'zlardir. Shu sababli ham ular yordamchi so'zlar deb yuritiladi.

So'zlashuv nutqi tarkibida ham ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar mavjud. So'zlashuv nutqida ko'makchi va bog'lovchilar ham qo'llanadi. Chunki nutqda qisqalikka intilish kuchlidir. Bog'lovchilarning ham ishlatilishining asosiy sabai shundaki, so'zlashuv nutqida qo'shma gaplarga kam murojaat qilinadi. Murojaat qilinganda ham ko'proq bog'lovchisiz qo'shma gap ishlatiladi.

Yuklamalar so'zlashuv nutqida ko'proq qo'llanadi. Yuklamalarning keng qo'llanilishi so'zlashuv nutqining xarakterli belgilaridan biri sanaladi. Chunki yuklamaning maxsuldor qo'llanilishida so'zlashuv nutqining quyidagi asosiy belgilari sabab bo'ladi.

1. So'zlashuv nutqi dialogik xarakterga ega bo'lib, dialog tarkibidagi replikalar, ko'pincha, yuklamalar ishtirokida shakillanadi.
2. So'zlashuv nutqining ekspressiv- emotsional, jo'shqin nutqliligini ta'minlashda ham yuklamalar asosiy ro'l o'ynaydi. Emotsional-ekspressiv holat, so'zlashuvning savol-javoblari hayajonlari, ta'kidlari, inkor va nafratlari, manmanlik va quvonch hayrihohlik yuklamalari vositasida beriladi.
3. So'zlashuv nutqining erkin-betakalluflik nutqidir. Bu betaraflik, erkin suhbatdoshlarning o'zaro rasmiy munosabatda bo'lmasliklari mjburiy holatning yo'qligi natijasida ham ular ko'proq yuklamalarga murojaat qilib bir-birini to'g'ri tushunishga harakat qiladilar.
4. So'zlashuv nutqi maxsus tayyorgarliksiz, ma'lum sharoitda to'g'ridan to'g'ri yuzaga keluvchi nutq bo'lganligi uchun ham nutqdagi ma'lum poeziyalarni turli xil yuklamalar bilan to'ldirishga harakat qiladilar.

Yordamchi so'zlarning so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan yuqoridagi belgilarga tayangan holda yuklamalar nutq emotsionallarini oshiradi va suhbatdoshlarining muhum funksiyalarini o'tash uchun xizmat qiladi.

1) **Biror so'zni ajratib ko'rsatadi**:
Kutilmaganda meni esankiratib qo'ygan his ham shirin, ham og'ir edi. (T.Malik)
2) **So'roq ma'noni beradi:**
Nimadan qo'rqding; yomon tush ko'rdingmi? (T.Malik)
3) **His hayajonni ifodalaydi**:
Tabiat naqadar go'zal-a? ("Shaqq yulduzi").
4) **Taajjubni ifodalaydi**:
Qiliqlari yosh bolaga o'xshaydi-ya? (Sharq yulduzi)
5) **Suhbatdoshlar replikasini ta'kidlash, kuchaytirish uchun.**

-ki, -ham, -u, -yu, -da, -oq, -yoq, -ku, -kim, -hamda, -tim, -lig, -lim -qirt, -qir, -g’arq, -jiqqa, yuklamalari ishlatiladi. Masalan: *Faqat yolg’on gapirasiz-da*. (K. Yashin). *Ko’chada mashinalar qatnovi tingan, tim qorong’i…* (T. Malik)

So’zlashuv nutqida yordamchi so’zlardan biri aniqlov yuklamasi *naq* va inkor yuklamsi *na* ko’p qo’llaniladi. Masalan*; Bir yigitcha bilan keldi, o’g’li bo’lsa kerak. O’g’li otasining naq o’zi*. (“Sharq yulduzi”).

U na seni, na meni eslay oladi. (Oybek).

Demak, yordamchi so’zlardan biri yuklamalar so’zlashuv nutqida ekstralingvistik faktorlari bilan bog’liq, so’zlashuvchi o’z tasarrufida bo’lgan nutq predmetiga munosabatini bildiradi. Uning holati haqida baho beradi va shu bilan o’z fikrini ta’sirchanligini oshirishga harakat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begali o‘g‘li B. A. ISTIQLOL YILLARIDA SAID AHMAD IJODI //NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 14. – №. 1.
2. Sherali o'g'li B. S. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURI ORQALI O'QISH, MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKLARINI O'RGANISH TEHNOLOGIYALARINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI. – 2023.
3. Ergashev A. МАВЖУДЛИК БИЛДИРУВЧИ (ЭКЗИСТЕНЦИОНАЛ) ГАПЛАР //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
4. Ergashev A. Sintaksis bo'limining o'ziga xos xususiyati //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
5. Ergashev A. Mutolaa san’atining paydo bo ‘lishi //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
6. Methodology of Teaching National Symbolic Stories Art and Stylistic Uniqueness EA Toshboy o'g'li - Journal of Innovation, Creativity and Art, 2023.

O‘QUVCHILARNIG VATANGA MUHABBATINI SHAKILLANTIRISHDA MILLIY QADRYATLARNING TA’SIRI

Bolqiyev Axmad Begali o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Bolqiyeva Sarvinoz
Jiizax davlat pedagogika univerisiteti Sirtqi bo‘lim boshlang‘ich ta’lim 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda falklor asarlar va ularni folklor asarlar vositasida milliy qadiryatlar ruhida tarbiyalash usullari, metodlari haqida ma’lumot berib o‘tilgan.*

Аннотатсия. *В данной статье представлена информация о фольклорных произведениях в начальной школе и методах их воспитания в духе национальных ценностей через фольклорные произведения.*

Annotation. *This article provides information about folklore works in elementary school and methods of their education in the spirit of national values through folklore works.*

Kalit so‘zlar. *Falklor, boshlang’ich sinf darsligidagi vositalar, milliy qadiriyat, tarbiya, usullar.*

Ключевые слова. *Фольклор, средства в учебниках начальных классов, национальные ценности, воспитание, методы.*

Keywords. *Folklore, means in primary school textbooks, national values, education, methods.*

Yoshlarimizni ilm fanning so‘ngi yutuqlaridan to‘liq bahramant qilgan holda, ularga tariximizni milliy qadryatimizni, ma’naviy merosimizni to‘liq o‘rgata borishimiz kerak. Bu bilan yoshlarda ularning kasbiy madaniyatini ham shakllantirgan bo‘lamiz.

Bugungi kundagi yoshlarimizning har tamonlama kuchli, salohiyatli, bilimli tafakkur doirasi keng o‘z ishining mohir ijotkori, o‘z Vatanining jonkuyari bo‘lishi, mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyoti uchun muhum ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning asrlar osha yashab kelayotgan an’analari, urf-odatlari, tili va ruhi negizida qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadryatlar bilan maxkam uyg‘unlashgan hoda kelajakka ishonch tuyg‘usi odamlar qalbi va ongiga yetkazishi ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollikni mardlik va sabr-bardoshlikni, adolat tuyg‘usini, bilim va ma’rifatga intilishni tarbiyalash, yo‘lida

xizmat qilmog‘i lozim. Shu bois istiqlol tufayli barcha ma’naviy merosimiz, urf-odatlarimiz, qadryatlarimiz tiklandi.

O‘rta asr sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida madaniyati va ta’lim tarbiyasiga katta ahamyat berganlar. Ular ta’lim va tarbiyaning zarur tarbiyaviy qismi sifatida yondoshganlar va uni aqliy, jismoniy va ma’naviv tarbiya bilan birga olib boorish zarur, deb hisoblaganlar. Shunday ekaan milliy va umuminsoniy qadryatlarga sadoqatli bo‘lish masalasi “Talim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da to‘la to‘kis o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi konistitutsiyasida, “O‘zbekiston Respublikasi istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilishni ta’minlaydi, ularni rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” deb belgilab qo‘yilgan [2.144-b]. Shuni aytish joizki, SH.M.Mirziyoyev o‘zining “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” asarida “Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiyqiy tarihi va o‘ziga xosligini qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo‘lida muofaqiyatli ravishda olg‘a intilishda hal qiluvchi, tabir joiz bo‘lsa, belgilovchi ahamyatga egadir” deb takidlaydi. [1.182– b.]

O‘quvchilarnig Vatanga muhabbatini shakillantirishda milliy qadryatlarning ta’sir kuchi nihoyatta katta.

Folklor asarlar va milliy qadryatlar mazmunan millatning g‘oyalari, qarashlari, e’tiqodlari, manaviy turmush tarzini, orzu istaklarini, kelajak maqsadlarini ifoda etadi.

Folklor asarlar va milliy qadryatlar ijtimoiy ongning muhum shakillari sifatida o‘quvchilarning ongi, hatti-harakatlarida faoliyatlariga tasir etadi va o‘quv jarayonida o‘zining qiymatini oshirishni ham taminlaydi.

Sharq ma’naviy madaniyatining turli jihatlari uyg‘onish davrida juda rivojlangan bo‘lib bu davirda Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Umar Hayyom, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ko‘plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida insonning ma’naviy – ahloqiy kamolotida, umumbashariy ma’naviy qadryatlar yuksaltirishda muhum bosqich bo‘ladi.

Ular sharqona odob – axloq talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma’naviy asosini yaratishga muofiq bo‘ldilar.

Abu Nosir Farobiyning ma’rifiy qarashlari o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan ma’naviy – falsafiy muammolar tana va ruh, borliq, xarakat, fazo va vaqt, sabab to‘g‘risidagi tasavvur bilan birga maydonga keladi. Uning fikricha barcha muammolarni yechish kaliti oliy maqsadli jamoa, barcha ma’naviy fazilatlarni o‘ziga mujassamlashtirgan inson adolatli jamiyat farovon turmushning garovidir.

Abu Rayhon Beruniy va Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al – Buxoriyning ta'lim – tarbiyaviy qarashlarida umum insoniy va milliy qadryatlarga bo'lgan e'tiqod, muxabbat asosida shaxsni ma'naviy kamolga yetkazish g'oyasi nihoyatta muhum o'rin tutadi. Shu nuqtaiy nazardan biz ham hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim olayotgan o'quvchilarning milliy qadryatlar tushunchasini shakllantirish maqsadida xalq pedagogikasi va o'tmishda mutafakkirlarimiz ta'lim – tarbiyaga oid qarashlari tizimini metadologik asos sifatida qabul qilshni lozim topdik va shu asosida o'quvchilarning bilimlarini dhakillantirisda ulardan foydalandik.

Millatimizning asrlar davomida shakllanib kelgan an'anlari va urf – odatlariga, ijtimoiy – falsafiy, axloqiy – estetik ifodalariga, o'zligini namoyon etish xususiyatlariga, bunyodkorlik salohiyatlariga asoslangan holda yoshlarni zamonaviy bilimlar, ma'naviy boyligimiz va kelajakdagi rejalarimiz bilan yaqindan tushuntirish, ma'rifiy tashviqot va targ'ibotni izchil yo'lga qo'ymoq kerak.

Keyingi yillarda ta'lim va tarbiya tizimiga, o'quvchilarni xalqimizning milliy qadryatlari, urf – odatlari, an'analari, xalq ijodi namunasi asosida tarbiyalash va ta'lim berish psixologik muammo sifatida kirib keldi.

Respublikamizda amalgam oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohatlar, mamlakatimizning iqtisodiy qudrati oshib borishi natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo'g'ini hisoblanadigan xalq ta'limidaham tub islohatlar ro'y bermoqda. U yangilanmoqda yoshlar ta'lim - tarbiyasini takomillashtirish, ularning mazmuni, uzluksizligini ta'minlab beradigan yangi hujjatlar pedagogika texnalogiyalar, amliyot uslublari bilan boyib bormoqda. O'tmish davriga xos iqtisodiy murakkablikga qaramay, ta'limning moddiy negizi mustahkamlanib birmoqda.

Respublikamiz Prezidenti va xukumatning ta'limni rivojlantirish, yosh avlodga jahon andazalariga mos bilim, iqtidor va ko'nikmalar berish, ularni ona vatanga, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida ko'rsatolgan doimiy g'amxo'rligi tufayli ta'lim – tarbiya ishlarining bugungi qiyofasi tubdan o'zgardi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning 2010 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimiz" hamda Vazirlar mahkamasining 2010 yil 23 fevraldagi 101 – F – sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan tashkiliy tadbirlarni amaliyotga joriy etish jamiyatimiz kun tartibidagi asosiy masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov o'z maruzasida "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyatini parpo etish ustivor maqsadimiz" degan fakir mulohazalaridan jamiyatimizdagi barkamol avlodni

tarbiyalash boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalandi. Ayniqsa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ta’lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqorolik jamiyatini barpo etilishiga xizmat qilishi asosiy maqsadimiz ekanligi Milliy qadryatlar mazmunida xis etilishi zaruriyati mavjuddir.

Davlatimiz rahbari joylarga tashrifi chog‘ida yosh avlod tarbiyasining birlamchi va muhim bo‘g‘ini sifatida maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimini yuksaltirish, maktab va bog‘chalarning moddiy – texnik bazasini mustaxkamlash, bolalarni kelajakga sifatli tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda.

Joriy yil 30 sentiyabrdagi “Maktab ta’lim tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi Prezident qarori bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘taradi.

Texnika – texnalogiya jadal taraqqiy etayotgan, axborot almashuvlari tobora kuchayayotgan bugungi zamonda sanatning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydigan asarlar paydo bo‘layotganibizga ma’lum. Bu yosh avlodning estetik didi va saviyasini o‘tmaslashtirmoqda, ongi, qalbi, ma’naviyatiga putur yetmoqda. Mazkur jarayonda ulkan ma’naviy merosimizni asrab – avaylash va o‘rganish, uni yoshlarga bezavol yetkazish, milliy va umumbashariy yutuqlarni, jahon folklorining eng yaxshi namunalarini o‘rganish muhum.

Ma’naviyatni o‘sibkelayotgan yosh avlod ongida shakillantirish, ularni milliy qadryatlarimiz vositasida har tamonlama tarbiyalab borish Yurtimizning har bir fuqorosining mas’uliyatli burchi va vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Begali o‘g‘li B. A. ISTIQLOL YILLARIDA SAID AHMAD IJODI //NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 14. – №. 1.
2. Sherali o'g'li B. S. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURI ORQALI O'QISH, MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKLARINI O'RGANISH TEHNOLOGIYALARINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI. – 2023.
3. Ergashev A. МАВЖУДЛИК БИЛДИРУВЧИ (ЭКЗИСТЕНЦИОНАЛ) ГАПЛАР //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
4. Ergashev A. Sintaksis bo'limining o'ziga xos xususiyati //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
5. Ergashev A. Mutolaa san’atining paydo bo ‘lishi //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
6. Methodology of Teaching National Symbolic Stories Art and Stylistic Uniqueness EA Toshboy o'g'li - Journal of Innovation, Creativity and Art, 2023

PISA NATIJALARINI YAXSHILASH UCHUN QANDAY YONDASHUV LOZIM

Jaxongirova Muslima
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshqa mamlakatlar tajribasi va unday qaysi biri O'zbekistonda qo'llash mumkinligi tahlil qilinadi, shuningdek reytingdagi o'rinni yaxshilashga urunishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *PISA tadqiqoti, kognativ qobilyat, reyting, summativ va formativ baholash, standartlar, o'quv dasturi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется опыт других стран и какой из них может быть применен в Узбекистане, а также дается мнение о том, на что следует обратить внимание при попытке улучшить рейтинг.*

Ключевые слова: *исследование PISA, познавательные способности, рейтинг, суммативное и формативное оценивание, стандарты, учебная программа.*

Abstract: *This article analyzes the experience of other countries and which of them can be applied in Uzbekistan, and also gives an opinion on what to pay attention to when trying to improve the ranking.*

Keywords: *PISA study, cognitive ability, rating, summative and formative assessment, standards, curriculum.*

O'zbekiston ta'lim tizimi uchun PISA (maktab o'quvchilarining matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligi tekshirish) xalqaro tadqiqoti natijasi va undan kelib chiqqan xulosalarni tahlil qilishni davom ettirmoqda. Bu natija yurtimizdagi ta'lim sifati haqida qanday xulosa berishini va ta'lim sifati bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda yuqori natijaga erishishni o'ylash o'zimiz uchun kerakli xulosani qilish hamda tizimli muammolarni hal qilish zarurligini taqazo qilmoqda.

Xo'sh, PISA tadqiqoti haqida o'rgangan tahlillarimiz, yondashuvlarimiz va uning qisqa muddatdagi natijasidan qanday xulosalar chiqarishimiz mumkin?

PISA tadqiqotida yuqori natijani qayd qilib kelyapkan boshqa mamlakatlar tajribasini o'rganish va tahlil qilish orqali muvaffaqiyatli ta'lim tizimlari aniq standartlarni belgilash va ushbu standartlarga erishishni nazorat qilishini bilish mumkin. PISA tadqiqoti asoschisi Andreas Shleyxer o'zining uzoq muddatli tajribasi asosida yozgan "Jahon miqiyosidagi ta'lim" kitobida shunday yozadi: " Standartlarni belgilash qat'iy, yo'naltirilgan va izchil tarkibni yaratish, sinflar bo'yicha o'quv dasturlarni takrorlashni

kamaytirish va eng muhimi o'quv darslikni o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish orqali yuqori samarali ta'lim tizimini yaratishga yordam beradi".[1] Uning qayd etishicha, PISA bo'yicha yetakchilik qiladigan aksariyat ta'lim tizimlarida standartlar o'quvchilarning yuqori darajadagi kognativ ko'nikmalarini egallashiga va bu ko'nikmalar real muammolarni hal qilishda qo'llashga qaratilgan.

Xaqiqatda, ta'lim tizimidagi bo'shliqlarni aniqlash va o'quvchilarga o'ta o'zgaruvchan, noaniq va murakkab dunyoda yashash va hayotlarini shakillantirishga yordam berish uchun yangi yechimlarni izlash uchun salohiyatli, tajribali o'qituvchilarni yetishtirish lozim. Negaki talabalar tez o'zgaruvchan mehnat bozoriga kirganlarida, bugungi kunda dolzarb bo'lgan bilim va ko'nikmalar eskirib qolishi mumkin. Shuning uchun rasmiy ta'limni tugatgandan so'ng o'rganish tugamasligi va inson butun hayoti davomida yangi voqealiklarga moslashib, o'rganish juda muhimdir. PISA tadqiqoti ham aynan mana shu kognativ qobilyatlarni baholaydi.

Muvaffaqiyatli ta'lim birinchi navbatda o'quv dasturidan boshlanadi. Aniq ta'lim maqsadlarsiz hech qanday ta'lim tizimi oldinga siljiy olmaydi. Qolgan hamma narsa o'quv dasturida belgilangan maqsadlar atrofida qurilishi kerak. Shuningdek, ushbu maqsadlarga erishishni tekshiradigan mustaqil, ishonchli, adolatli baholash, formativ va summativ baholash tizimiga ega bo'lishi muhimdir. [2] Lekin ta'limda dastur bo'yicha aniq harakatlanish sustligini, ayrim ta'lim ishtirokchilari ma'suliyat bilan ishga yondashmasligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Shuningdek biz maktab oxirida o'quvchilardan nima kutushimizni bilmaymiz, ta'lim jarayoni urg'uni sifatdan ko'ra songa qaratyapkandek go'yo. Misol sifatida sinf rahbarini olsak, u o'quvchilarini o'zlashtiruvi, darsda nechog'lik faolligidan ko'ra ularning davomati, formasi yoki qaysidir qilgan ahloqsizligi tufayli rahbardan gap eshtishdan xavotirlanadi. Albatta, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi lekin asosiy urg'u ta'lim jarayoniga qaratilgan holda tarbiya ham amalga oshirilishi kerak. Bolani analitik fikrlashga o'rgatmasak, faqat darslikda nima yozilgan bo'lsa, shuni to'tiga o'xshab takrorlab yodlab oladigan bo'lsa mehnat bozoriga mustaqil tarzda bilimi, qobilyati, erkin fikrlari bilan raqobatlasha oladigan kadrlar o'rniga birovning topshirig'ini yaxshi bajarishga yaraydigan o'rtamiyona kadrlar yetishtiramiz.

Shuni yodda tutish kerak: baholash tizimi ta'lim jarayoni ishtirokchilariga nima muhim va nimani o'rgatish kerak va nima kerak emasligiga ishora beradi. Agar baholash tizimi o'quvchilarning eslab qolish qobilyatini tekshirsa, u holda o'quvchilar ham o'qituvchilar ham asosan xotirani mashq qiladi. Baholash tizimi aynan qaysi qobilyatlarga qaratilgan bo'lsa, aynan o'sha jihatlarni rivojlantiradi. Endi mavjud baholash tizimimizga nazar solaylik: maktab bitiruvchisi yakuniy imtihonlarda bilet tortish orqali uchta savolga javob beryapti yoki oliy ta'limga kirish imtihonida aniq

ma'lumotlar va formulalaga asoslangan savollarni yechadi. Albatta bu kabi baholash tizimi kuchli xotiralarni tekshiradi.

Yuqoridagi savollarga xulosa javobi sifatida shuni aytish mumkin: O'quv dasturi to'liq amalga oshirish va takomillashtirish, ta'lim bitiruvchilaridan nimani kutishimiz aniq belgilash, ta'lim imtihonlari yuqori kognativ qobilyatlarga e'tibor qaratish, sumativ baholash har bir bo'lim va har chorak natijalariga ko'ra emas, balki kamroq tez-tez o'tkazilishi orqali fikrlash, tahlil qilish, baholash, haqiqiy muammolarni hal qilish yo'llarini taklif qilish qobilyatini sinab ko'rishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "PIRLS baholash qamrov doirasi" Inna V. S Mullis va Michael O. Martin. Toshkent. 2021.
2. Unsur al-Maoliy, Qobusnoma, T., 1973 (to‘ldirilgan 3-nashri], T., 1994.
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev (2009) Ona Tili o'qitish metodikasi.
4.. https://inLIBRARY. uz Xalqaro baholash dasturlari
5. https://lex.uz Ta'lim sifatini baholashda Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA FAOL ISH HARAKATINI ANGLATUVCHI FE’LLAR

Turdiboyeva Dildora Bekmirza qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tili o’qitish metodikasi kafedrasi stajor o’qituvchiisi
E-mail address: dildora_baratova@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqola ingliz tilidagi faol ish harakatni anglatuvchi fe’llarning funksional – semantik xarakteristikasini o’rganishga bag’ishlanganligi uchun bu muammoning boshqa tillarda qanday yechim topganligini ko’rish mumkin.*

Abstract: *Since this article is devoted to the study of the functional-semantic characteristics of active verbs in English, it is possible to see how this problem has been solved in other languages.*

Аннотация: *Поскольку данная статья посвящена изучению функционально-семантических характеристик активных глаголов английского языка, можно увидеть, как эта проблема решена в других языках.*

Kalit so’zlar: *fe’l semantikasi, leksik birlik, fe’l klassifikatsiyasi, fe’l leksemasi.*

Key words: *verb semantics, lexical unit, verb classification, verb lexeme.*

Ключевые слова: *семантика глаголов, лексическая единица, классификация глаголов, глагольная лексема.*

Turli tillardagi bir xil ma'noni ifodalovchi leksemalarning qiyosiy tahlili o'sha tillar lug'at tarkibidagi o'xshashliklar, farqlar, umumiy va farqlovchi jihatlarini ko'rsatib berishi mumkin. Bu o'rinda esa ingliz tili lug'at tarkibida bu ma'nolarni ifodalovchi leksemalar miqdor jihatidan ustun ekani ko'rinib qoldi.

Ingliz tilidagi faol ish harakatni anglatuvchi fe'llarning funksional – semantik xarakteristikasini o'rganish uchun bu muammoning boshqa tillarda qanday qiyoslanib tahlil qilinishi fe'lning muhim xususiyatlaridan biridir. Shu bois ishni o'zbek tilidagi fe'llarni qay yo'sinda klassifikatsiya qilinishiga bir nazar tashlashdan boshlaymiz. Fe'l semantikasini tasvirlash qanchalik qiyin vazifa ekanini yaxshi anglash lozim bo'ladi. Buning boisi fe'l mazmuni uning distributsiyasi (boshqa so'zlar bilan birikish va o'z o'rniga ega bo'lish qobilyati)ga ko'p jihatdan bog'liqligidir. Shuni e'tirofga olgan holda biz bu o'rinda fe'llarning o'zaro bildirgan ma'no yo'nalishi hamda ular aloqaga kirishgan sub'ekt ob'ektlar bor yo'qligi va agar bor bo'lsa ularning miqdoriga qarab klassifikatsiya qilib ko'rishga urinib ko'ramiz.

1. Tor ma'noli bir yo'nalishli ish-xarakatni bildiruvchi fe'llar:
a) bir sub'ektli
b) bir necha sub'ektli
c) bir ob'ektli
d) bir necha ob'ektli

2. Ikki yo'nalishli keng, kam farqlanadigan semantikali fe'llar:
a) sub'ekt –ob'ekt nomi
b) ob'ekt –sub'ekt nomi
c)ikki yo'nalishli yuqori, semantik o'timlilikga ega bo'lgan fe'llar.

3. Nomlash (nominatsiya) vazifasidan tashqari ko'rsatish (deyksis) vazifani ham bajaruvchi fe'llar.

4. Yo'naltirilgan ish harakatni bildiruvchi fe'llar:
a) uzoqlashishni bildiruvchi fe'llar.(verbs of going)
b) yaqinlashishni bildiruchi fe'llar. (verbs of coming)
c) ko'tarilishni bildiruvchi fe'llar. (verbs of rising)
d) pasayishni bildiruvchi fe'llar. (verbs of descending)

Fe'llarning bundan tashqari anglatgan ma'nosiga ko'ra quyidagi klassifikatsiyasi mavjud.

1) Ish –harakat fe'llari (actional verbs)

2) Jarayon fe'llari (process verbs)
3) Holat fe'llari (statal verbs)
4) Aralash ma'noli fe'llar (verbs of mixed semantics)

Bu klassifikatsiyalarning o'ziyoq bu masalani qay darajada qiziq, dolzarb va tilshunoslik taraqqyotining ertangi kunini belgilashda juda muhim ekanligini ko'rsatib turadi.

Tilshunoslik bu masalalarni hal etishda leksemalarning qurshab (contrast distribution) qo'shimchalik (syntagmatic) munosabatlari, me'yoriy va g'ayri me'yoriy bog'lanishi, leksemalarning birikuvchanligi (valency) va bog'lik qurshov tushunchalaridan keng foydalaniladi. Bular bir qatorda mazmun (yoki ma'no) shunoslik (semasiology) sohasida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlardan – ma'nolar o'rtasidagi tarixiy bog'lanish aloqadorlik usulidan xam foydalaniladi. Buning uchun dastavval bog'liq qurshov va leksemalarning birikuvchanligi (valency) tushunchalari bilan chuqurroq tanishib olishimiz kerak. Rus tilshunosligida Apresyan Yu.D., Solntsev V.M., Pinxasov L.D., Rasulov R., Sherba L.B., Yakobson R., Mednikova E.M., Ufimtseva A., Arnol'd I.V., Ginzburg R.S., Arutonova N.D., Kubryakova Ye.S., Trubachev Ye.V., Karaulov A.N., Gak V.N., kabi olimlarning o'zbek tilshunosligida esa D.U.Ashurova., I.Qo'chqortoev. G., G.Musaev, A.Xojiev, I.Rasulov, X.Nigmatov, A.Gulyamov, R.Ko'ngurov va boshqalarning tadqiqotlari ana shu dolzarb mavzuga oid ishlardir. Ushbu masalada Kantsel'son S.D., Tener A., Blox M.Ya., Komlev L.V., Rojdestvenskiy Yu.V., Burlakova V.V., Nurmonov A., Maxmudov N., Kolshanskiy G.V., Barxudarov L.S., Admoni V.D., Moskal'skaya V.A., Layonz D., Cheyf U., Fillmor U. va boshqalarning tadqiqotlari diqqatga sazovor.

I.Qo'chkortoev o'zbek tilidagi nutq fe'llarini 8 ta mazmun guruhiga ajratadi:

1) (demoq) fe'li
2) gapiruvchi fe'llar (gapirmoq, atamoq, aljimoq, maqtamoq, tushuntirmoq, isbotlamoq, yakunlamoq, ta'kidlamoq…..)
3) ifodalov fe'llari (aytmoq, bildirmoq, ta'kidlamoq)
4) talaffuz fe'llari (baqirmoq, o'shqirmoq, qichqirmoq, big'illamoq)
5) sub'ektiv hukum fe'llari (kesatmoq, maqtamoq, ta'riflamoq, yomonlamoq, chalg'imoq, haqoratlamoq, jerkimoq, qarg'amoq, salomlashmoq, tabriklamoq)
6) nutqiy da'vat fe'llari (buyurmoq, undamoq, targ'ib qilmoq, taklif etmoq, chaqirmoq, qistamoq)
7) simmetrik nutq fe'llari (suhbatlashmoq, gaplashmoq, otamlashmoq, hangomalashmoq, chaqchaqlashmoq, o'rtoqlashmoq, sirlashmoq, dardlashmoq, fikrlashmoq, maslahatlashmoq)

8) sukut fe'llari (gapirmadi, aytmadi, indamadi, churq etmadi, tilini tiymoq, jim bo'lmoq, g'ing demadi, sukut saqlamoq, og'ziga talqon solmoq).

Mavzuga yanada yaqinroq kelib R.Rasulovning o'zbek tilidagi holat fe'llarining klassifikatsiyasini tahlil qilamiz.

1) Davomli holat fe'llari (turmoq, yotmoq, o'tirmoq, qolmoq)
2) Harakat natijasi bo'lgan holat fe'llari (to'xtamoq, tinmoq, tin olmoq, (qosh)qoraymoq, yorishmoq…)
3) Ijro holati (saqlamoq, asramoq, qo'riqlamoq, poylamoq)
4) Harakatning holati fe'llari (kuchaymoq, qizimoq, ko'paymoq)
5) Malaka holati fe'llari (odatlanmoq, o'rganmoq, kuyinmoq….)
6) Obrazli holat fe'llari (kekkaymoq, olovlanmoq, charaqlamoq, oltinlanmoq)
7) Biologik holat fe'llari (keksaymoq, chanqamoq, gullamoq, qovjiramoq)
8) Fiziologik holat fe'llari (uxlamoq, charchamoq, kasallanmoq, semirmoq)
9) Ruhiy holat fe'llari (qo'rqmoq, zavqlanmoq, g'azablanmoq, uyalmoq…)

Fe'l leksemasining mazmun guruhi markazi va qurshovi masalasi ko'ndalang turadi. Mazmun guruhlari ikki qismdan – asos va qurshovdan iborat bo'ladi. Mazmun guruhi asosi, odatda bir nechta (2-5) fe'l leksemalaridan tashkil topadi. Bu holda har bir fe'l leksemasi muayyan ma'nodoshlik va darajalanish qatorining bosh so'zi vazifasini o'taydi.

Fe'l leksemasining mazmun guruhi, qurshovi esa bosh fe'l leksemalarining ma'nodoshlik va darajalanish qatorlari birliklarini, bu qatorlarga kiradigan va kiritiladigan frazeologik iboralarni, yasama va qo'shma fe'llarning leksemalarining semantik turlari zamini shu qator mazmuniga yaqinlashadigan leksemalarni va nihoyatda sof nutqiy ma'nodoshlarini o'z ichiga oladi. Ular miqdori maydon guruhi asosidan 20 -30 baravar ortiq bo'ladi va hamisha ochiq tabiatga ega bo'ladi. Ya'ni yangi birliklar ma'no nozikliklari bilan to'ldirilib boriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillaridagi fe'llarning har tomonlama klassifikatsiyalash, ularning turli xil turlarini misollar bilan ifodalash, leksemalarning fe'l so'z turkumi asnosida ifodlanishi ikki til o'rtasida hali ham yetarlicha izlanishlar olib borilishi kerak. Ushbu maqolada esa ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l so'z turkumining ma'lum bir jabhalarini ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev Yu.N, Bushuy A.Yazik i obshestva T, Fan. 2002 -460s.
2. Qo'chqortoev I. So'z valentligi haqida. O'zbek tili va adabiyoti.1973.3/32b.
3. Rasulov R. O'zbek tili fe'llarining semantik strukturasi. T.1991.

4. S.Raximov. Problemi deyksisa kak kategorii tipologicheskiy lingvistiki. ADD.M.MIVP. 1990. str 45.
5. Slyusareva N.A. Problemi lingvisticheskoy semantiki. M.VSh 1973.

INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALAR ADABIYOTI PEDAGOGIK INSTRUMENT SIFATIDA

Rahimjanova Mashhura Rustamjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail:@rahimjanovamashhuraxon@gmail.com

Annotatsiya: *Mamlakatimizda ta'lim islohotlari doirasida inklyuziv ta'limni ham inobatga olib kelmoqda.Inklyuziv ta'lim bugungi kunda dolzarb masalalar qatorida ko'rilmoqda. Inklyuzivlik zamonaviy pedagoglar dunyosining asosiy tarkibiy qismidir. Inklyuziv ta'limda bolalar adabiyoti bolalarni pedagogik, psixologik, ruhiy, jismoniy, aqliy jihatidan rivojlantirishda muhim instrument hisoblanadi. Ushbu maqolada qanday qilib pedagog samarali inklyuziv ta'lim uchun kitob va o'quv materialini tanlashi va kerak bo'lsa, yaratishi haqida so'z yuritilgan.*

Аннотация: *Инклюзивное образование в рамках образовательной реформы в нашей стране. Инклюзивное образование сегодня считается одной из актуальных проблем. Инклюзия является ключевым компонентом мира современных педагогов. В инклюзивном образовании детская литература является важным инструментом педагогического, психологического, духовного, физического и психического развития детей. В данной статье рассказывается о том, как педагог может выбрать и при необходимости создать книги и учебные материалы для эффективного инклюзивного образования.*

Abstract: *Inclusive education within the framework of educational reforms in our country. Inclusive education is considered among the current issues today. Inclusion is a key component of the world of modern pedagogues. In inclusive education, children's literature is an important instrument for the pedagogical, psychological, spiritual, physical and mental development of children. This article talks about how a pedagogue can choose and, if necessary, create books and teaching materials for effective inclusive education.*

Kalit so`zlar: *inklyuziv ta'lim, inklyuziv ta'limda bolalar adabiyoti, inklyuziv matnlar, hikoya, ertak, rivoyatlarni inklyuziv ta'limda qo'llash.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, детская литература в инклюзивном образовании, инклюзивные тексты, рассказы, сказки, использование нарратива в инклюзивном образовании.*

Key words: *inclusive education, children's literature in inclusive education, inclusive texts, stories, fairy tales, use of narratives in inclusive education.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim taraqqiyoti strategiyasi uchun katta e’tibor berilmoqda. Ta’lim tizimida berilayotgan islohotlarning barchasi o‘z samarasini ko‘rsatib, xalqimizning ertangi kelajagi uchun yangi zamin yaratmoqda. Jumladan, inklyuziv ta’lim ham bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib qoldi.

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o‘quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim oladi. Hozirda O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda. [1] Yangi qonun, farmoyishlarning kuchi esa hali hanuz ahamiyatini yo`qotgan emas. 2020-yil 13 -ktyabrda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilinadi, shuningdek, 2021-yilda O‘zbekistonda alohida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar tasdiqlandi. [2] Bu hujjatlar umumta’lim maktablarida korreksion sinflarni ochishni ham ko’zda tutgan. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qaroriga muvofiq: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida 2020−2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi: [3]

- alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘qiydigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- ushbu ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o‘quv qurollari, turli kasblar bo‘yicha o‘qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirish;

- inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ta’lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko‘tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar), shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta’minlash (maxsus o‘qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo‘yicha mutaxassislar);
- alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta’minlash va boshqalar.

UNESCO(Birlashgan Millatlar Ta’lim, Bilim va Madaniyat Tashkiloti) xalqaro tashkilotining ta’rifiga binoan, “ta'limga inklyuziv yondashuv deganda ta’lim jarayonida har bir shaxsning ehtiyojlarini hisobga olish va barcha o‘quvchilar ishtirok etgan holda birgalikda maqsadga erishilish tushuniladi. Bu degani har bir bola ta’lim olish imkoniyatiga ega va har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va o‘rganish ehtiyojlari borligi tan olinishi kerak. [4]

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir bola kitob o‘qish, uni idrok etish qobilyatiga ega. Kitob bola ongining, tafakkurining mahsuli sifatida qaraladi. Xo‘sh, imkoniyati cheklangan bolalar qanday qilib badiiy asarlarni, kitoblarni mutolaa qilishlari mumkin? Ularning ham o‘qishi, bilim olishi uchun imkoniyatlar yaratilganmi? Ha, albatta. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun yaratilayotgan bir qator shart-sharoitlar mavjud. Jumladan:
-Ko‘zi ojizlar uchun yangi kutubxonalarning yaratilishi;
-Audiomateriallarning yanada ko‘paytirilishi;
Eshitishida, gapirishida nuqsoni bo`lgan bolalar uchun ham bir qator o‘yinlar orqali pedagogik jihatidan tushuntirish mumkin. To‘g‘ri ular eshitmasligi, ko‘rmasligi, idrok eta olmasligi mumkin, lekin barchasini his qila oladi.Ular uchun qancha ko‘p imkoniyat yaratib bersak, jamoaga shuncha tez qo‘shila oladi. O‘z menini shakllantira oladi.

Inklyuzivlik zamonaviy pedagoglar dunyosining asosiy tarkibiy qismidir. Inklyuziv sinf qanday ko‘rinishini tushunish o‘qituvchilar va ota-onalar uchun ham juda muhim, chunki ular o‘z farzandlari uchun eng yaxshi ta’limni topishga intiladilar. Inklyuziv sinfni yaratish barcha o‘quvchilarni muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Inklyuzivlik - bu turli qiyinchiliklarga va ba’zi iqtidorlarga ega o‘quvchilarga nisbatan dunyoqarash va munosabatlarni o‘zgartirishdir. Inklyuziya deganda har bir bola uning jismoniy holati va qobiliyatlaridan qat’iy nazar yaxshi ta’lim, munosabat va e’tibor olishini tushunish kerak. Inklyuziv ta‘lim nafaqat amaliyotlar to‘plami, balki kerakli munosabatdir ham. Bu shuni anglatadiki, maktablar, bog‘chalar, sinfxonalar va maktabdan tashqari barcha mashg‘ulotlar uchun eshiklar har bir bola uchun

chinakam “ochiq” bo’lishidir. Bolalar bunday maskanda ma’lum ehtiyojga ega va ega bo’lmagan qat’iy nazar tengdoshlari bilan birga bo‘lish va ta’lim olish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘lishidir.

Inklyuziv bolalar adabiyoti bolalarda inklyuziya tamoyillarini rivojlantirishda muhim instrument hisoblanadi. Inklyuziv bolalar adabiyotiga badiiy adabiyot, hikoyalar, rasmli kitoblar, grafik romanlar, she’riy romanlar, she’rlar, sarguzashtlar va boshqa janridagi boshqa ko‘plab matnlar kiradi. Unda turli madaniyatlar, turli tuzilmalarga ega oilalar, turli darajadagi ijtimoiyemotsional qobiliyatlarga ega odamlar, iqtisoiy darjasi har xil odamlar namoyon etilishi kerak.

Inklyuziv adabiyotlar “ko‘zgilar” kabi o‘quvchilarga o‘zlarini tasvirlash imkonini beruvchi vositalardir. [5] Inklyuziv bolalar adabiyotining muhim bir samarali tomoni shundaki, uni alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar o‘zlarini yolg‘iz his qilmaydilar. Inklyuziv bolalar adabiyoti ta’lim jarayonining muhim qismidir, unda turli ehtiyoj va chiqishdagi bolalar ishtirok etadilar. Olimlarning ta’kidlashicha, bolalar kitoblari insonni uning shaxsiy xususiyatlari, boshqalardan farq qiladigan jihatlari uchun qabul qilishni va hurmat qilishni o‘rgatadi. [6] Kitoblar orqali bolalar boshqa bolalar bilan o‘xshashlik tomonlarini va turlicha ekanliklarini ko‘ra oladilar va bunga ijobiy munosabat shakllantria oladilar. Wopperrerning ta’kidlashicha bolalar inklyuziv darslik va adabiyotlarda asosiy qahramon yoki boshqa qahrmonlarning maxsus ehtiyojlarga ega ekanliklarini qayta-qayta ko‘rganliklari tufayli ularning ehtiyojlarini chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. [7] Inklyuziv kitoblarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, unda turli diniy qarashlarga ega bolalarni ko‘rish mumkin. Bu holat bolalarda qahramonga qaratilgan empatiya orqali tolerantlik hissini shakllantirish imkonini beradi. Inklyuziv kitoblar hilma-xillikni qadrlaydigan va hurmat qiladigan tolerant jamiyatni rivojlantirish uchun zarurdir. Bunda barcha shaxslar, ularning kelib chiqishi yoki kimligidan qat’iy nazar, o‘zlarini adabiyotda ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Inklyuziv bolalar adabiyoti quyidagi turlarga ajratilib o‘rganiladi: [8]

- Har xil madaniyat haqidagi kitoblar (masalan, g‘arb, sharq madaniyati, ularning orasidagi farq va o‘xshashliklar).
- Har xil millatlar haqidagi kitoblar (masalan, koreyaliklar haqidagi kitoblar, millatning o‘zbeklarga o’xshash tomonlari).
- Har xil oilaviy tizimni namoyon qiladigan kitoblar (masalan ota-onasi ajrashgan oilalarning o‘ziga xosliklari).
- Turli jismoniy ehtiyojga ega insonlar haqidagi kitoblar (masalan, ko‘zi ojiz boshqa jismoniy ehtiyojligi mavjud bolalar)

- Turli emotsional ehtiyojlarga ega inosnlar haqidagi kitoblar (masalan, autist bolalar, ularning qobiliyatlari)
- Turli ijtimoiy-iqtisodiy qatlamdagi insonlar haqidagi kitoblar (masalan boy, kambag‘al, asbaiy va muloyim qahramonlar).

Bugun inklyuziv ta’lim nafaqat til, din, madaniyat va jismoniy ehtiyojlarni nazarda tutadi, balki jins, mental salomatlik, yosh, ideologiya kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Bugungi globallashuv jamiyatda biz birga yashashni, bir-birimizni hurmat qilishga va tushunishga o‘rganishimiz kerak.

Inklyuziv ta’lim adabiyotida turli nuqtai nazarlar, madaniyatlar, jinslar, qobiliyatlar va tajribalar ifodalandi. Inklyuziv kitob o‘qish empatiyani rivojlantiradi. Inklyuziv adabiyotlar o‘quvchilarga turli madaniyatlar, an’analar va insonlarni o‘rganish va qadrlashga yordam beradi, shu bilan ko‘plab bo‘shliqlarni bartaraf qiladi va inklyuziv jamiyatni rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida turli xil kelib chiqishi, maxsus ehtiyoji va tajribasi bo‘lgan odamlar bilan yaxshiroq munosabatda bo‘lish va ularni tushunish imkonini beradi. Inklyuziv jamiyat davr talabidir, buni ta’lim jarayoni rivojlanayotgan paytda inkor etib bo‘lmaydi. Inklyuziv adabiyotlarni o‘qish stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlarga qarshi kurashishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Pedagogik jarayonda qanday qilib inklyuziv o‘qishni tashkil qilish mumkin:

1) Kitoblarning turlari darajalari turli hil bo‘lishini ta’minlash;
2) Matn turli xil texnologiyalar orqali barcha ehtiyojli bolalar uchun yetkazilishini ta’minlash;
3) O‘quvchilarda o‘qiganlarini tushunganliklarini qanday namoyon qilishlarini o‘zlari tanlay olish imkonini belgilash;

Inklyuviz kitob tanlaganda pedagogning vazifasi nimadan iborat:

1. Kitobni baholash va qo‘yilgan maqsadga muvofiqligini ko‘rish;
2. Kitob mazmunidan kelib chiqqan holda bolalar bilan bo‘ladigan suhbat mavzularini topish;
3. Kitob orqali qilsa bo‘ladigan faoliyatlarni belgilash va amalda qo‘llash;
4. Inklyuziv o‘qish jaryaonini ish rejasi bilan integrasiya qilish.

Bugun O’zbekistonda inklyuziv bolalar adabiyotlari deyarli mavjud emas. Shuning uchun pedagog bu borada kreativ bo‘lib, matnlar va inklyuziv rasmlarni birlashtirgan holda, yuqoridagi tamoyillarga asoslangan holda bolalarga qizqarli inklyuziv slaydlar ko‘rinishida taqdim etishlari mumkin.

Inklyuziv ta’lim jaryaonida kitob tanlashda yoki inklyuziv matnlarni shakllantirishda pedagog quyidagi omillarga ahamiyat berishi lozim:

1. Pedagog muntazam ravishda turli madaniyatlar, o‘ziga xosliklar va tajribalar bilan o‘zi tanish bo‘lilshi kerak.
2. Inklyuziv adabiyotlar haqidagi sharhlar, tavsiyalar va maqolalarni o‘qib turishi kerak.
3. Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega muallif va illustratorlar adabiyotini izlashi kerak.
4. Kutubxona, kitob do‘konlari va kitob blogerlar sharhlarida inklyuviv kitoblar haqidagi ma’lumotlar muntazam ravishda izlab turishi kerak.
5. Respublikada inklyuziv ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan tanish bo‘lishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inklyuziv ta’lim tizimi bo‘lmaganda edi, imkoniyati cheklangan bolalar hozir ta’lim olmayotgan bo‘lar edi. Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishi uchun ularni qo‘llab-quvvatlash zarur. Chunki birgina oddiy salbiy munosabat bolaning ruhiyatiga ta’sir etishi mumkin. Salbiy munosabat maxsus ehtiyojli bolalarning Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim -tarbiya olishlari uchun eng katta to‘siq bo‘lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a’zolari, o‘qituvchilar, tashkilot hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o‘zlaridagi tashkilotlarda ta’lim-tarbiya olishlariga nisbatan qarshiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto‘g‘ri fikr, ular to‘g‘risida ma‘lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o‘sganligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko‘pincha ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalar ota- onalar tomonidan qattiq berkitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko‘rsatmaydilar, ro‘yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to‘g‘risida hech bir ma’lumot berilmaydi. Natijada ko‘plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo‘ladilar. Ular to‘g‘risida hech bir ma’lumotni bo'lmasligi ta’lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi. Zero, imkoniyati cheklangan bolalar, ta’lim olishdan cheklangan emas. Bo‘lajak yetuk kadrlar yetishib chiqayotgan ekan, imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim va tarbiya olish natijasida sog‘lom bo`lib boraveradi. Taklifim shundan iboratki, aqli zaif, ruhiy jihatdan ortda qolgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o‘rgangan holda, oila bilan hamkorlik ishlari tashkil etilsa, kun kelib inklyuziv ta’lim o‘z samarasini beradi. Faqatgina bolani har qanday holda qo‘llab- quvvatlash, uni rag‘batlantirish, o‘zida mavjud bo‘lgan iqtidorini, iste’dodini namoyon eta olish uchun barcha sharoitlarni yaratib berish darkor. UNESCO tashkilotining mazmunli fikrlarini shu o‘rinda kiritib ketsam mubolag‘a bo‘lmaydi. “Birga o‘qishni o‘rgangan o‘quvchi, ertaga birga yashashni biladi”.

Inklyuziv ta'lim ilg'or va adolatli jamiyatning asosi bo'lib, har bir shaxs, o'z qobiliyati yoki farqlaridan qat'iy nazar, sifatli ta'lim olish huquqiga ega, degan asosiy tamoyilni o'zida mujassam etadi. Bugungi jadal rivojlanayotgan global landshaftda inklyuzivlik imperativi hech qachon bunchalik muhim hisoblanmagan. Bu nafaqat turli xil o'quvchilarda tolerantlik va ma'suliyatlilik hissini uyg'otadi, balki innovatsiyalar va muammolarni hal qilish davri uchun juda muhim bo'lgan istiqbollar, ko'nikmalar va hissiyotlarni rivojlantiradi. Inklyuziv ta'lim ko'proq rahmdil, hamdard va tushunadigan dunyo uchun poydevor yasaydi, bunda odamlar o'zlarining noyob ehtiyojlari uchun qadrlanadi va hech kim ortda qoldirmaydi. Bugun inklyuziv ta'lim bu shunchaki axloqiy ehtiyoj emas, bugungi kunda u har bir jamiyatning strategik zaruratidir. [9]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida".
4. "Sub-Education policy Review Report Inclusive Education", UNESCO xalqaro tashkiloti, 2021. Web sahifa: https://en.unesco.org/sites/default/files/inclusive_education_final_-_january_2021.pdf.
5. Bishop, R. S. Mirrors, windows, and sliding glass doors - scenic regional. Reading is Fundamental. Retrieved April 16, 2022. Web sahifa: https://scenicregional.org/wpcontent/uploads/2017/08/Mirrors-Windows-and-Sli ding-Glass-Doors.pdf.
6. Monoyiou E., & Symeonidou S., The wonderful world of children's books? Negotiating diversity through children's literature. International Journal of Inclusive Education, 20:6, 2016. 588-603, DOI: 10.1080/13603116.2015.1102338)
7. Wopperer, E. Inclusive Literature in the Library and the Classroom. ProQuest. 2011. Web Sahifa https://www.proquest.com/openview/ed3ba48e0015fcfab37ede97df987c96/1.
8. Lynch E., The Benefits of Using Inclusiv The Benefits of Using Inclusive Liter e Literature in Kinder e in Kindergarten thr ten through Fifth Grade Classrooms,

Guidelines for Selecting Inclusive Texts, and Resources to Help Teachers, Librarians, and Community Members use Inclusive Children's Books, Bowling Green State University, Honors Projects, 2022
9. http://scientists.uz//uploads/conferences/0014/2.6

XORAZM MUTAFAKKIRI - MAHMUD PURYOVALIY

Umida Zaripboyeva
Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi
E-mail:umidazaripboyeva629@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm diyorida yetishib chiqqan, hayoti yo'li ko'plab rivoyatlarga aylangan, ajoyib shoir va "Polvonpir" nomi bilan mashur bo'lgan Pahlavon Mahmud haqida ma'lumot beriladi.

KALIT SO'Z VA IBORALAR

Xorazm, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, "Puryoyvaliy", "Qitoli", "Xorazm Umar Xayyomi", Xiva, Ko'hna Urganch, Hindiston podshosi, Alisher Navoiy, Xiva, Icnan qal'a, maqbara.

MUTAFAKKIRI OF KHORAZM - MAHMUD PURYOVALI

ANNOTATION

This article provides information about Pahlavon Mahmud, who grew up in the Khorezm region, whose life path became the subject of many narratives, a great poet and known as "Polvanpir".

KEY WORDS AND PHRASES

Khorezm, Najmuddin Kubro, Pahlavon Mahmud, "Puryovali", "Qitoli", "Khorazm Umar Khayyomi", Khiva, Ko'hna Urganch, King of India, Alisher Navoi, Khiva, Icnan castle, mausoleum.

МУТАФАККИРИ ХОРАЗМСКОГО - МАХМУД ПУРЬОВАЛИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о Пахлавоне Махмуде, выросшем в Хорезмской области, жизненный путь которого стал предметом многих повествований, великом поэте, известном как «Полванпир».

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА И ФРАЗЫ

Хорезм, Наджмуддин Кубро, Пахлавон Махмуд, «Пурёвали», «Китоли», «Хорезм Умар Хайёми», Хива, Кохна Ургенч, король Индии, Алишер Навои, Хива, замок Икнан, мавзолей.

Xorazm adabiy muhiti o‘zbek adabiyotining ajralmas bir qismini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta`kidlaganidek, “Jo‘shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog‘ida unib-o‘sgan, xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan”[1 . – B. 241].

“Puryoyvaliy”, “Qitoli”, “Xorazm Umar Xayyomi” kabi ulug’ nomlar bilan ulug’langan Pahlovon Mahmud 1247- yilda Xiva shahrida po’stindo’z hunarmand oilasida tug’ilgan. Pahlavon Mahmudning hayoti ko’plab afsona va rivoyatlarga aylangan. Uning hayoti va faoliyati to’g’risida ko’plab ma’lumotlar bizga noma’lum. Lekin shunday bo’lsa ham izlanishlar natijasida, uning hayotiga va shaxsiga oid ko’plab ma’lumotlar taxlil qilinmoqda. Shulardan biri Olloyor Ibn Xudoyberdining “Riyoz uz-zokiriyn” asarida keltirilishicha, Najmiddin Kubro Xivadan Ko’hna Urganchga borganlaridan so’ng, Xiva ahli bizlarni besar qilib ketdingiz deb ko’p betoqat bo’lganlaridan keyin sizlarga bir ulug’ pir yuboraman degan ekan. Shundan keyin Najmiddin Kubro Xivaga Puryoy baqqol degan bir xalifani yuborgan. Ulug’ zot Puryoy baqqolga sening xotiningning qornida bir o’g’il bordur. U kelajakda iqtidorli va Xorazm diyorining baquvvat pahlavonlaridan bo’lur deb Pahlavon Mahmudning kelajagini bashorat qilgan. Pahlavon Mahmudning onasi homilador holida Xiva atrofiga yetib kelib, hozirgi Qiyot qishlog’ida o’g’il tuqqan. Bu bola 15 yoshga yetgach mard kurashchi, mashhur pahlavon bo’lib nom chiqargan.

Yoshlik yillarda ota kasbi po’stindo’zlik bilan shug’ullangan, so’ngra xat-savod chiqarib, buyuk shoir faylasuf darajasiga erishgan. U juda ham zabardast pahlavon bo’lib 79 yillik hayotida biron marta kuragi yerga tegmagan.

Naql qilishlaricha, u zamonda Xorazmda eng zo’r dongdor polvon faqat Mahmud bo’lib, ayni kuchga to’lgan vaqtlari edi. To’satdan uni Xiva xoni yo’qlatadi. Hind podshosi sayl o’tkazayotganligi to’g’risida aytadi. Pahlavon Mahmud xon bilan Hindistonga jo’naydi. Mahmud Hind elining qadamjo yerlarini ziyorat qilish maqsadida xondan ruhsat oladi. Ziyoratchilar orasida baland ovoz bilan nola qilayotgan bir kampirga ko’zi tushadi. Sababini so’raydi. Shunda kampir o’g’lim

ertaga xorzmlik pahlavon bilan jang qiladi. Agar o'g'lim yiqilsa bizni saroydan haydaydi. Yashash imkoniyatidan mahrum bo'lamiz deydi. Shunda Pahlavon Mahmud inshaolloh xorazmlik pahlavon o'g'lingizni yiqitolmaydi deb javob bergan ekan. Jang boshlanganda Pahlavon Mahmud maydonda o'zini yiqitib bergan. Bu ahvolni ko'rgan Xorazm shohi mening oldimga kelmasin, Xorazmga ham bormasin deb amir etgan. Mahmud shu kuyi uzoq vaqt vatanidan olisda qolib ketdi[2. B. 106-107].

Rivoyatlarga ko'ra, Hind podshosi yeriga tog'liklar bostirib kelganda Pahlavon Mahmud Hindiston podshosi Ray Ropoy Cho'ntani o'limdan qutqarib qolgan. U uzoq mamlakatdagi bir podshoni zo'r pahlavonlarini yenggan. Podsho xivalik pahlavonning kuchiga qoyil qolib, unga "Senga nima kerak bo'lsa so'ragin" – debdi. Pahlavon Mahmud podshoga: – "Menga bir ho'kizni xomi (terisi)ga siqqan vatandoshlarimni ozod qilib bering", deb javob qilibdi. Podsho rozi bo'libdi va ho'kiz terisini keltirishni buyuribdi. Pahlavon Mahmud teridan ingichka tasmalar qirqib olgan va ularni bir-biriga ulab uzun kamar (qo'ra) qilib shunga siqquncha odamlarni olib Xivaga jo'nagan, u bilan kelgan odamlarni shahar tashqarisidagi Shixlar qishlog'iga joylashtirgan ekan. Hozirgi vaqtgacha qishloq aholisini ko'pchiligi bu rivoyat haqiqat deyishadi. 1920-yilgacha bo'lgan davrda qishloq aholisi Pahlavon Mahmud maqbarasida xizmatda bo'lishgan deb aytishadi. Mazkur afsona Pahlavon Mahmudning naqadar donishmand, buyuk xalqparvar inson bo'lganini namoyish etadi[3.].

Pahlavon Mahmudni ko'plab manbalarda jumladan tazkiralarda Xorazmda kurash bilan shug'ullangani aytib o'tilgan. Mana shu ma'lumotni o'zigina shundan dalolat beradiki, Puryoyvaliy ham tengsiz kurashchi polvon, ham kurashuvchi murabbiy ustoz, ham piru murshid sifatida kurashxonada sportga qiziquvchi yoshlarni yetuk sportchi va kurashchi qilib tarbiyalash bilan shug'ullangan. Shuning bilan bir paytda oddiygina hayot kechirib, oddiy xalqni insoniy fazilatlar va oliyjanoblik hislatlarini egallashga undagan. Shundan kelib chiqqan holda Pahlavon Mahmudni oily insoniy fazilatlarga ega bo'lgan hamda xalq xizmatiga hamisha tayyor turgan tajribali bir muallim sifatida eslash, uni murabbiy, ustoz va muallim deb atash mumkin[4. B. 100 - 101].

Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul- futuvvat" tazkirasida shunday deyiladi. U xivadandir va laqabi mashhur Puryorg'adur, bazan Pakayor deydilar. Xivaliklar ko'proq Pakayor deydilar ya'ni Pakayor qassobning o'g'lidir.

Kamoliddin Xusayn G'ozurgohiy – Fanoiyning "Majolis ul – ushshoq" asarida keltrilishcha, Pahlavon Mahmud oily maqom avliyolar zumrasida har qanday maqom bo'lsa, barchasini topdilar va "Rijol-ul g'ayb" bilan aloqa bog'ladilar. Shu sababdan ulamolar unga "Puryor" nomini berishgan va ba'zilar "Bukyor" ham deyishadiki, bu

ul joyning tilida "peshqadam polvon" ma'nosini beradi. Tasavvuf tariqatida ko'ngilga moyil she'rlari, risolalari va ajoyib ruboiylari mavjud. Shular jumlasidan "Kanzul - haqoyiq" kitobi ham borki, ul kitobda quyidagi hikoyani, ya'ni Islomda zohiriy mujarradlik yo'lini tutganlar haqida, Xaq taoloning ma'rifati borasida qisqacha fikr yuritadi.

Shuningdek, Pahlavon Mahmud haqida Abulmuhsin Muhammad Boqirning "Tazkirai Muhammad Boqir" asarida, Oftobroy Lakhnaviyning "Riyoz ul-ofirin" tazkirasida uni "Fanoiy" tahallusi va vafoti haqida ma'lumot uchraydi. Shuningdek, yodnomalarda Mirzo Rizoqulixon Hidoyat – Loloboshining "Safarnomayi Xorazm" asarida, "Qazviniy yodnomalari"dan, Sayid Ali Xasanxonning "Subhi Gulshan" asarida, Jaloliddin ibn G'iyosiddin Rompuriyning "G'iyos ul – lug'at " asarida, Shamsiddin Somibekning "Qomus ul – alom" asarida, Mirzo Ali Akbar Dehhudoning "Lug'atnoma Dehhudo" asarida, Muhammad Muiniyning "Farhangi Muin" lug'atida, Muhammad Ali Tabriziyning "Rayhonat ul adab" asarlarida ham Pahlavon Mahmud haqida ko'plab ma'lumotlar olishimiz mumkin.

Keyingi tadqiqotlarda Sadriddin Ayniyning "Namunayi adabiyoti tojik", doktor Said Nasifiyning "Sarchashman tasavvufdar Eron" asarida, Abdurrafi Haqiqatning "Tarixi irfonu orifni Eroni" asarida, Abdulhusayn Zarrinko'bning "Justiqu dar tasavvufi Eron" asarida, Doktor Qosim Ansoriyning "Maboniye irfon va tasavvuf" kitobida, Doktor Sayyid Ziyovuddin Sajjodiyning "Muqaddima bar maboniye irfon va tasavvuf " asarlarida ham juda ko'plab ma'lumotlar uchraydi.

Faxriddin Ali Safiyning "Latoyif ut-tavoyif" asarida keltirilishicha, Mavlono umrining oxirida Nishopurning Isfarish nomli bir qishlog'ida yashab, o'zini xalq orasidan chetga oldi. Bir necha kunlar o'tib, Mavlononi do'st- u yorlari uni ko'rib kelish maqsadida shahardan mazkur qishloq tomonga yuzlanadilar va u yashaydigan bog'ga yetib bordilar. Eshik berk edi. Qancha qoqsalar ham hech kim javob bermadi. Tom zinasi yo'li bilan xonaga kirishadi. Qarasa, Mavlono o'zining joynamozida sajda qilgan holda yotibdi, biroz kutdi, lekin mavlono boshini ko'tarmadi. Bildilarki mavlono sajda holatda jonini xudoga topshirgan ekan. Bu voqea hijriy 816-yilda sodir bo'lgan. Ushbu ma'lumotlar Ahmad Gulchin Maoniyning Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy haqida so'z ochib uning ham xuddi shunday holatda vafot topganini va yuqoridagi ruboiy ul zotning ijodidan ekanligini yozib o'tadi. Puryoyvaliy o'z o'limini oldindan bilgan, deyishadi. Chunki uning o'limidan so'ng joynomozning ostidan ruboiy yozilgan qog'oz topilgan.

Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy ezgu insoniy hislatlarini yoquvchi muallim, ustoz, murabbiy, pir, so'fiy bo'lib undan meros qolgan asarlar xuddi ana shundan dalolat beradi. Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy hijriy - qamariy 722- yilda Xiva sharida

foniy dunyo bilan vidolashdi va ushbu shahardagi Ichanqal'a deb nomlanuvchi tarixiy majmua hududida tuproqqa topshirildi. Ichanqal'aning xusniga xusn qo'shib turgan Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy maqbarasi madaniy-tarixiy majmua bo'lib, hijriy-qamariy XIII – XIV asrlar oralig'ida kurashchi polvonlikdan tashqari oliyjanob xalqparvar va iste'dodli shoir bo'lgan bir po'stindo'z xotirasiga qurilgandir.

Xivaliklar Pahlavon Mahmud maqbarasini Nuh payg'ambar tomonidan shaharning o'rtasiga tashlangan langar deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham maqbara katta peshtoqining o'ng qanotidagi koshin naqshlarga kema tasviri tushirilgan[5. B. 121.].

Pahlavon Mahmud majmuasi 1960-yilda usta Ro'zmat Masharipov "Ro'zmat arbob" ishtirokida katta gumbazning usti, qorixona va ayvon ta'mirlanib maqbaraga qayta jon bag'ishlangan. Hozirgi vaqtda binoda O'zbekiston Musulmonlarining diniy idorasi, "Pahlavon Mahmud jamg'armasi" faoliyat ko'rsatmoqda. Inshootning ayrim joylari ta'mirtalab bo'lganligi uchun 2007-yilda, ayvon ustunlari, yo'laklar, quduq atrofi va uning tepasidagi chiroyli oshyonli yog'och gumbaz, peshtoqning ba'zi tushib ketgan sirli koshinlari qayta ta'mirlandi.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – B. 241.
2. Rasulova F., Do'stjanov T., Hasanov S. Xorazm Ma'mun akademiyasining olis yaqin yulduzlari. – Toshkent: "IQTISOD - MOLIYA", 2005. – B. 106-107.
3. http://xorazmiy.uz
4. Хамид. "Пурёйвалийнинг ҳаёти, фаолияти. – Техрон: Соҳил, 1974. – Б. 100 – 101.
5. Худойберганов Комилжон. Хива. – Т., 2012. – Б. 121

BO'LAJAK MAKTAB MENEJERLARINING IQTISODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRUVCHI INTERFAOL METODLAR

Qo'shmurodov Asqar
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika psixologiya va musiqa ta'lim yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada bo'lajak maktab menejerlarining iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi interfaol metodlar va ularning o'ziga xos avfzalliklari haqida ma'lumotlar o'rin olgan. Bunda asosan SWOT tahlil usuli iqtisodiy faoliyatni o'rganishda va uni tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rgatishda muhimdir.*

Kalit so'zlar*:kompitensiya, menejer, iqtisodiy fanlar, ta'lim jarayoni, interfaol metod, SWOT tahlil, amaliyot, nazariya.*

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ШКОЛ.

Кошмуродов Аскара
Джизакский государственный педагогический университет
Педагогика в области психологии и музыкального образования
преподаватель кафедры дистанционного образования

Аннотация: *В статье содержится информация об интерактивных методах, развивающих экономические компетенции будущих руководителей школ, и их конкретных преимуществах. В этом случае метод SWOT-анализа важен при изучении экономической деятельности и обучении ее анализировать и делать выводы.*

Ключевые слова: *компетентность, менеджер, экономические науки, образовательный процесс, интерактивный метод, SWOT-анализ, практика, теория.*

INTERACTIVE METHODS DEVELOPING ECONOMIC COMPETENCES OF FUTURE SCHOOL MANAGERS.

Koshmurodov Askar
Jizzakh State Pedagogical UniversityPedagogy
in the areas of psychology and music
education teacher of the distance education department

Abstract: *The article contains information about interactive methods that develop the economic competencies of future school managers and their specific advantages. In this case, the SWOT analysis method is important in studying economic activity and teaching it to analyze and draw conclusions.*

Key words: *competence, manager, economic sciences, educational process, interactive method, SWOT analysis, practice, theory*

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichida jamiyatimiz oldida turgan hozirgi kundagi asosiy vazifalardan biri - uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim sifatini yaxshilash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur".

Bu, o'z navbatida, uzluksiz ta'lim tizimida yangi islohotlarni talab qiladi. Hozirda oliy ta'lim yurtlarida nazariy bilimlarga ega, ulkan insoniy fazilatlarga ega, insonlar bilan qanday aloqa qilishni biladigan, o'z ishlarini yaxshi biladigan tajribali mutaxassislarni tayyorlashga e'tibor qaratish lozim.

Bugungi zamonaviy mutaxassis, o'z kasbining mohir ustasi sifatida, o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajaradigan kompetensiyali shaxs bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan bo'lajak maktab menejerlari o'zlari ustida tinimsiz ishlashlari, yuqori darajadagi jismoniy, aqliy, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari va iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak.

Iqtisodiy fanlarni boshqa fanlardan ajratib turadigan narsa shundaki, ular faktlar, ma'lumotlar, raqamlar bilan ishlaydi. Iqtisodchi ushbu faktlar, raqamlar, ma'lumotlar bilan ishlay olishi, hisob-kitoblarni, matematik operatsiyalarni, ular asosida kuzatuvlarni maqsadga muvofiq amalga oshirishi, dinamikasidagi o'zgarishlar asosida xulosalar chiqarishi va qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganish, voqelikka imkon qadar yaqin tajribalar o'tkazish, nazariy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni tekshirish zarur. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy fanlarni o'rganishda materiya va jismoniy mashqlardan foydalanishga teng keladigan narsa yo'q. Shuning uchun, iqtisodiy fanlarning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ularni o'rganishda asosiy o'rin jismoniy mashqlar muammosini hal qilishdir. Sababi: birinchidan, muammo shundaki, mashqlarni hal qilish olingan bilimlarni amalda qo'llashga imkon beradi – tabiiy fanlarni o'rganishning asosiy maqsadi. Ikkinchidan, muammo shundaki, mashqlarni hal qilishda o'quvchilarning bilim olish faolligi oshadi. Uchinchidan, muammoni hal qilish sizni o'ylashga o'rgatadi. Shuning uchun, ish haqidagi so'z shunchaki hisoblash asosida vazifani bajarish, uning javobini aniqlash emas, balki aks ettirish ob'ekti sifatida qaralishi bejiz emas.

Bo‘lajak maktab menejerlari malaka, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda alohida o‘rin tutadigan usullardan biri bu mashqdir. Ushbu usulning samaradorligi, birinchi navbatda, mashqlar amaliyot bilan bog‘liq. Trening orqali biz bu o‘z-o‘zidan o‘rganish, malaka oshirish, tayyorgarlik ko‘rish va buni qayta-qayta bajarish uchun bajariladigan ish ekanligini tushunamiz. Jismoniy mashqlar, shuningdek, ijobiy natijaga erishish uchun inson tomonidan qo‘yilgan maqsadga erishish uchun qilingan mashaqqatli ishdir.

Mashq «takrorlash - bilim onasi» namunasidir. Ta’limsiz ta’lim va amaliy ko‘nikmalar va malakalarga ega bo‘lish mumkin emas.

Gap shundaki, siz mashqni o‘zingiz hal qilasiz, intellektual energiya va unga sarflagan vaqtingiz sizga achinmaydi. Chunki ular iqtisodiyotni chuqur o‘rganishda katta yordam beradi. Gap shundaki, mashqlar, bir tomondan, darslarni o‘tkazishning isbotlangan qadimiy usuli, boshqa tomondan, ular har doim zamonaviy, uchinchi tomondan, universal usul bo‘lib, u barcha iqtisodiy fanlarni o‘rganishda ishlatilishi mumkin, bu juda katta miqdordagi imkoniyatlar tufayli eskirmaydi.

Savollarni muntazam ravishda hal qilish, mashqlarni bajarish va ularni muhokama qilish, talabalar olgan bilimlarini doimiy nazorat qilish, ular tushunmaydigan toifalarni tushunish.

Mashqni tuzayotganda o‘qituvchi, birinchidan, aniq maqsad qo‘yishi, ikkinchidan, undan qanday ma’lumot olinishi haqida yaxshilab o‘ylab ko‘rishi va uchinchidan, yaqinlashib kelayotgan ishni, vazifalarni maqsadga muvofiq tushunarli shaklda bayon qilishi kerak.

O‘rganilayotgan mavzu mashqlarning rasmiy ma'lumotlari asosida tuzilgan jadval yordamida qanday nazariy huquqiy normalar bajarilishi haqidagi savoldan foydalangan holda ko‘plab haqiqiy faktlarni, faktlarni talab qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda masala va mashqlardan foydalanish usullariga uch xil yondashuv mavjud.

Nisbatan ideal variant bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlarda nazariy masalalarni muhokama qilgandan so‘ng, vazifa mashqni hal qilish va nazariy bilimlarni mustahkamlashdir.

Masala mashqlaridan foydalanishning ikkinchi usuli-ular nazariy muammoni, qonunlarni o‘rganish jarayonida qo‘llaniladi. Talaba nazariy savolni mustaqil ravishda o‘zlashtirishi qiyin bo‘lsa, bu savolni hal qilish orqali osonlikcha amalga oshiriladi.

Uchinchi usul-bu muammoni nazariy amaliy mashg‘ulotda muhokama qilmasdan, jismoniy mashqlar bilan bog‘liq muammoni hal qilish. Muammoni hal qilish natijasida nazariy savol o‘rganiladi, deb tashvishlanish o‘rinli emas, chunki

masalani muhokama qilish jarayonida dialog amaliyot bo'lib, aksincha, nazariy qonun qoidalarni chuqurlashtirishga, ularning mazmunini tushunishga yordam beradi.

SWOT tahlil usuli iqtisodiy faoliyatni o‘rganishda va uni tahlil qilish va xulosa chiqarishga o‘rgatishda muhimdir. Ushbu usul, birinchidan, oddiy ko‘rinishi, ikkinchidan, tahlil natijalarining samaradorligini ta’minlashi bilan tavsiflanadi.

Bosh harflar ingliz tilidan olingan :

- ✓ **S** trengths – kuchli tarflari;
- ✓ **W** eakness – ojizlik tomonlari;
- ✓ **O** pportunities – imkoniyatlari;
- ✓ **T** hreats – xavf xatar , tahdid ma’nolarini anglatuvchi.

Natijada paydo bo‘lgan SWOT tahlil usuli-bu talabalarga o‘zlari xohlagan korxona yoki firma faoliyatini tahlil qilishda mustaqil fikrlashga, taqqoslashga, qaror qabul qilishga o‘rgatadigan usul. Ushbu usul yordamida korxonani tahlil qilish natijalari keyinchalik strategik va marketing rejalarini tuzishda qo‘llaniladi, shuningdek, biznes-rejani tuzishda keng qo‘llaniladi. Kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilganda, bu asosan korxona yoki firmaning ichki holatiga qarab belgilanadi. Korxonadagi vaziyatni to‘liq o‘rganish uchun uning tarkibiy qismlarining faoliyatini o‘rganish kerak. Buning sababi shundaki, har bir komponent korxona faoliyatida asosiy rol o‘ynashi mumkin. Korxona tarkibiga marketing, moliyaviy, ishlab chiqarish va xodimlarni boshqarish faoliyati kiradi. Korxonaning strategik yo‘nalishini aniqlashda uning imkoniyatlari va xatarlarini aniq tavsiflash kerak bo‘ladi. Zaif tomonlarni iloji boricha to‘g‘ri, ob’ektiv ravishda ko‘rsatish kerak, chunki ularni kamaytirish uchun haqiqiy holatni bilish kerak bo‘ladi. Korxonaning imkoniyatlarini aniqlashda uning rahbarlarining siyosati va jamoaning munosabatini hisobga olish juda muhimdir.

Ushbu usuldan foydalanganda jadval tuziladi, ko‘rsatkichlar ustunga joylashtiriladi va ushbu ko‘rsatkichlarga mos keladigan tomonlar yoziladi. Masalan, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Roison firmasi asosida SWOT tahlilini o‘tkazamiz.

Korxonaning kuchli ya’ni ustun taraflari	**Korxonaning kuchsiz taraflari**
Taniqli savdo markasi; Rossiya korxonalari bilan shartnomalari mavjudligi; O‘z ishlab chiqarish maydoni, do‘konlari va xizmat ko‘rsatish markazlari mavjudligi;	Sifat darajasining pastligi; Malakali mutaxassislarning yetishmasligi; Firmada pul aylanish jarayoning sustligi; Kadrlar qo‘nimsizligi

Xaridorlar bilan ishlash tajribasi borligi; Mahsulot ishlab chiqarish tizimining shakllanganligi; Savdo bo'limining bozor sharoitlariga moslashganligi; Firmaning tajribali menejerga egaligi, xaridorlar bilan ishlash tajribasi mavjudligi	
Korxonaning imkoniyatlari	**Tashqi xavf xatar, tahdidlar**
Xizmat ko'rsatishni yaxshilash; Ishonchli mijozlarni ko'paytirish; Boshqa korxonalar bilan aloqani mustah-kamlab, imtiyozlar olishni kuchaytirish; Rentabellikni oshirish, xarajatlarni tejash mumkinligi; Texnikani ijaraga hamda lizingga olishni rivojlantirish; Yangi loyihalar ustida ishlash	Dollar kursining beqarorligi (Rossiya korxonalari bilan hisob-kitoblar dollarda bo'ladi) Eksportmahsulotiga talab kamayib borayotganligi; Mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy holat

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, SWOT tahlili korxonaning hozirgi rivojlanish darajasini aniq ko'rish va kelajakdagi faoliyat to'g'risida zarur xulosalar chiqarish imkonini beradi. Iqtisodiyot yo'nalishini tanlagan har bir talaba SWOT tahlilini mukammal o'rganishi va keyinchalik uni o'z faoliyatida qo'llashi zarur. SWOT tahlili talabalarga mustaqil fikrlashga va bugungi kunda har bir korxonaning holatini ko'rishga yordam beradi.

Ushbu usuldan foydalanganda talabalarning mustaqil ishlarini amalga oshirish ham mumkin. Shuningdek, talabalar o'zlari xohlagan tashkilotni tahlil qilishlari va tahlil natijalari asosida o'z xulosalarini berishlari kerak. Keyin ushbu turdagi faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxs uni boshqa korxona bilan taqqoslashi mumkin. Agar guruhda talabalar ko'p bo'lsa, ular kichik guruhlarga bo'linishi asosida bir xil turdagi tashkilotlarni tahlil qilishlari mumkin.

SWOTni tahlil qilish usulidan foydalanishning afzalligi shundaki, unda talabalar individual va guruhda ishlashni o'rganadilar.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda kontseptual jadval, semantik jadval, T shaklidagi diagramma, mashq-vazifa, SWOT tahlili, test, amaliy tadqiqotlar kabi interfaol usullar talabalarning iqtisodiy kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. «Case-study» uslubi: Nazariya, amaliyot va tajriba.- E.: Tafakkur qanoti, 2012.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T.:TDPU,2003.
3. Архипов А.И. Экономический словарь.- М.: Проспект, 2001.
4. Ataeva N., Salaeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika (pedagogika nazariyasi va amaliyoti). / O'quv qo'llanma, I kitob.–T.:» Fan va texnologiya» , 2015.
5. Воинова М.Г. Педагогические технологии и педагогическое мастерство.-Т.: «Иқтисод ва молия» . 2006.Cropley A., Cropley D/ Using Assessment to Foster Creativity.- Singapore: Word Scientific. 2007.
6. Гришанова Н.А. Развитие компетентности как важнейшее направление реформирования профессионального образования. Десятый симпозиум. Квалиметрия в образовании: методология и практика/ Под науч. ред.Н.А. Селезневой и А.И. Субетто. Кн. б. М., 2002.

AQLI ZAIF O'QUVCHILARNING SHAXSI VA XOTIRA JARAYONLARI

Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li
GulDU doktoranti
sobirravshanov3@gmail.com
Omonova Ra'no Alisher qizi
GulDU talabasi
ranoomonova367@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi aqli zaif o'quvchilarning shaxsi va xotira jarayonlarini, ularning ruhiy holati va jamiyatdagi o'rni shu bilan birga emotsional rivojlanishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Shaxs, ruhiyat, xotira, xotira jarayonlari, emotsonal rivojlanish, aqliy to'liqsizlik, intellektual, intonatsiya.*

ЛИЧНОСТЬ И ПРОЦЕССЫ ПАМЯТИ СТУДЕНТОВ С ПСИХИЧЕСКОЙ ОТВЛИКОСТЬЮ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются пройессы личности и памяти студентов с задержкой психическое развития, участвующих в*

образовательном процессе, их психическое состояние и место в обществе, а также их емоциональное развитие

Ключевые слова: *Личность, психика, память, працессы памяти емоциональное развитие ,психическая незавершенность интеллектуальная, интонация.*

PERSONALITY AND MEMORY PROCESSES OF STUDENTS WITH MENTAL DISABILITY

Abstract: *This article deals with the personality and memory processes of students with mental retardation participating in the educational process, their mental state and place in society, as well as their emotsional development.*

Key words: *Personality, psyche, memory, memory processes, emotional development, mental incompleteness, intellectual, intonation.*

Shaxs — bu ongga ega bo'lgan, ma'lum ijtimoiy munosabatlar majmui, iqtisodiy formatsiyada yashaydigan , ma'lum bir faoliyat turi bilan shug'ullanadigan individdir.

Rus psixologi S.Y Rubinshteyning fikrlariga ko'ra, odam o'zida takrorlanmas xususiyatiga ko'ra individual hisoblanadi. Odam o'zi va atrofidagilarga, borliqqa bo'lgan ongli munosabati orqali uning biror-bir faoliyat bilan shug'ullanishi uning shaxs ekanligini anglatadi. Shaxsning xususiyati ruhiy jarayonlarining kechishiga ta'sir etadi. Ayrim odamlar atrof-muhitni oson , tezlik bilan idrok etsalar, boshqa insonlar esa atrof-muhitni eshituv, harakat, teri sezgilari va boshqa analizatorlar yordamida idrok etadilar. [1]

Oligofrenopedagogikaning asoschilaridan biri E.Segen ta'kidlashicha, aqli zaif bolalarda "xohishning yo'qligi" shaxs shakllanishida ko'plab qiyinchilikni keltirib chiqarishi mumkin. L.V. Zankov ham aqli zaif bolalarning shaxsidagi bir qator kamchiliklar haqida kengroq ma'lumot beradi yani aqli zaif bolalar shaxsidgi

- Disgarmoniya
- Nomutanosiblik

ular shaxs rivojlanishining yetakchi kamchiliklarida biri hisoblanadi.

Aqli zaif o'quvchilarning asosiy qismini quyidagilar tashkil qiladi:

- ota-onasi vafot etgan
- to'liq oilaga ega bo'lmagan
- Ota – onalari farzandidan vos kechgan
- Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan va boshqalar.

Yuqorida keltrib o‘tilganlar aqli zaif o‘quvchilarning asosiy qismini tashkil qiladi. Bunday bola o‘z oilasi bilan to‘liq muloqot qilish huquqidan mahrum bo’lib, bu uning shaxsi bo’lib shakllanishiga salbiy ta’sir ko'rsatadi. Aqli zaif bolalarda emotsiyalarini rivojlantirish uchun, ular hayotiga maxsus pedagogik ta’sir qilish orqali amalga oshiriladi. Aqli zaif bolalarning emotsional doirasini rivojlantirishda tashqi shart-sharoitlarga bog'liqdir .Bu maxsus ta’lim bo’lishi bilan birga bolalar hayotini to'g'ri rejalashtirish hamdir. Bunday o'quvchilar va bolalarga g'am, alam, xafagarchilik va xursandchilikning impulsiv ko'rinishlari xosdir. Bu holatlar ta’lim-tarbiya jarayonida silliqlashadi, bolalarda ijtimoiy adaptatsiya jarayoni uchun zarur xulq-atvor shakllantiriladi. Aqli zaif bolalarning hissiy-irodaviy doirasi rivojlanishning boshlang'ich bosqichlarida bo'ladi. Uning shakllanishida nutq paydo bo'ladi. Lekin xulqni nazorat qilish malakasini shakllantirish aqli zaif bolalarda ma’lum bir qancha murakkablikka egadir. Oligofren bog’cha yoshidagi bolalari o'z xulqini, xohishini nazorat qila olmaydilar. Aqli zaif bolalar uchun xulq-atvorning buzilish holati ham xosdir. Ularda o'quv va o'yin shu bilan birga mehnat faoliyatida motivatsiya berilishining past bo’lganligi sababli , ichki his-tuyg'ularni zaifligi, o'z xatti-harakatlarini boshqara olmaslik hissining yo’qligini kuzatishimiz mumkin. [2]

Xotira — bu individ o’z hayotiy tajribasini eslab qolishi, saqlab keyinchalik kelgusida qayta tiklanishidir. Xotiraga shu bilan birga, unutish ham kiradi. Bu jarayonlarda faoliyat shakllanadi.

Materialni eslab qolish bu hayot faoliyati jarayonida individual tajribaning to‘planishiga bog‘liqdir. Eslab qolinganni kelajakda qo‘llash uchun qayta tiklashi zarurdir. Faoliyatda ma’lum bir materialni tushib qolishi uni unutishga olib keladi mumkin. Aqli zaif bolalar xotirasi sog’lom bolalarning xotirasidan birmuncha farq qilinadi. Aqli zaif bolalar xotirasi rivojlanadimi? degan savol o’ylantiradi hamma odamlarni. Albatta, rivojlanadi , aqli zaif bolalar xotirasi qachonki korreksion ishlarni erta boshlansa , to‘g‘ri yo’lga qo‘yilsagina aqli zaif bolalarning xotirasi rivojlanayotganini ko’rish mumkin. Ma’lumki, xotiramizning rivojlanishi uchun bir qator analizatorlar o‘z ta’sirini o‘tkazadi (ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, sezish). Manashu analizatorlarning ishi to’g’ri tashkil etilishi aqli zaif bolalar xotirasini rivojlantiradi. Aqli zaif bolalarning xotirasini bir nechta olimlar G.Y.Troshin, L.V.Zankov, B.l.Pinskiy, G.M.Dulnev va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Tadqiqotlar shu ko’rsatadiki, aqli zaif bolalarni darajalariga qarab, xotira xususiyatini rivojlantirish mumkin. Ma’lumki, inson xotirasini rivojlantirish uchun eng birinchi uning barcha bilish jarayonlari ustida ish olib boriladi. Maktab yoshdagi aqli zaif bolalar xotirasining bir qancha rivojlantirish uchun mayda qo‘l motorikalaridan foydalanishimiz zarur va bu samarali natija beradi. Mayda qo‘l

motorikalari ularning nutqiy nuqsonlari bilan biga bilish jarayonlarini ham rivojlantiradi. Bilish jarayonlarini rivojlantirishning yana bir usuli bu frontal va individual mashg'ulotlardir. Bolalarda ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotiralar bor. Ixtiyoriy xotiradan ixtiyorsiz xotiraga o'tish bir muncha vazifalarni amalga oshiradi. [3] Bular:

- plastilindan biror predmetni yasash,
- yasash vaqtida plastilindan to'g'ri foydalanish,
-gigiyenaga rioya etish,
- plastilin rangini to'g'ri tanlash,
- ranglar uyg'unligiga e'tibor berish

kabi malakalarini shakllantirish ham xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar xotirasini ustida ish olib borilgan vaqtida tasavvurga katta e'tibor berish kerak. CHunki, tasavvurning rivojlanishi ham xotiraga bog'liqligi aniqlangan.[4]

Xulosa qilib shuni atyishimiz kerakki , aqli zaif bolalar xotirasi ham rivojlanadi, faqatgina shuni hisobga olish kerakki, aqli zaif bolalarning o'ziga xos xususiyatlari borligini unutmasligimiz kerak. Ularning jamiatga moslashishi va o'z o'rnini topishi , shaxslararo munosabatga kirishishida har bir inson o'z hissasini qo'shmog'i lozim. Ularga yordam berish jarayonida shuni yodda tutishimiz lozimki , aqli zaif bolalarga achinish ko'zi bilan qaramasligimiz kerak, chunki ularga achinish ko'zi bilan qarayotgan insonlarni ko'rishganlarida ularning o'zlariga bo'lgan ishonchlari tushib ketishi mumkin. Aqli zaif bolalar xotirasini tekshirishda "10 ta so'zni yod olish" metodikasi, "Voqealar ketma-ketligini aniqlash" metodikalari tavsiya etiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, inson xotirasi qanchalik yaxshi rivojlantirilsa, bu ularning barcha bilish jarayonlariga (tafakkur, tasavvur, idrok, xayol kabilar) ijobiy natija beradi isbotlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyev G. Boshlang'ich sinflarda shaxslararo munosabatdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish. — Toshkent, 1995.
2. Эмоционально-волевие процессы и познавательная деятельность умственно отсталых детей. Сб.науч.тр. — М., 1993.
3. Гуревич. Психологическая диагностика // Проблемы исследования. — М., Педагог, 1981.
4. Mamedov K.Q., Shoumarov G '.B. Aqli zaif bolalar psi-xologiyasi. — T., « O'qituvchi», 1994.
5. Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni

o'qitish metodikasi, 2005.
6. L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova,

AQLI ZAIF BOLALARDA NUTQ BUZILISHINING O'ZIGA XOSLIGI

Sobirov Jamshid Anvarjon o'g'li
GulDU talabasi
sobirovjamshid36@gmail.com
Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li
GulDU doktoranti
sobirravshanov3@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi aqli zaif o'quvchilarning nutq jarayonlari, nutqidagi buzilishlar va ularning ruhiy holati hamda jamiyatdagi o'rni, shu bilan birga, til va nutqida uchraydigan kamchiliklar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Til va nutq, talaffuz me'yorlari, nutqiy tafakkur, aqli zaif bolalar, nutq buzilishlari, nutqiy jarayonlar, nutq nuqsonlari.*

СПЕЦИФИКА РЕЧЕВЫХ НАРУШЕНИЙ У УМСТВЕННО ОТСТАЛЫХ ДЕТЕЙ

Аннотация: *В данной статье говорится о речевых процессах, речевых нарушениях и их психическом состоянии и месте в обществе, а также о дефектах языка и речи учащихся с задержкой психического развития, участвующих в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *Язык и речь, нормы произношения, речевое мышление, умственно отсталые дети, речевые нарушения, речевые процессы, дефекты речи.*

PECULIARITIES OF SPEECH DISORDERS IN MENTALLY RETARDED CHILDREN

Abstract: *This article talks about speech processes, speech disorders and their mental state and place in society, as well as language and speech defects of students with mental retardation participating in the educational process.*

Key words: *Language and speech, pronunciation standards, speech thinking, mentally retarded children, speech disorders, speech processes, speech defects.*

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning nutq vositasida o‘zaro aloqa bog‘lay olishi, fikrlay olishi hamda so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lishidir. Har xil tovushlarning ma’lum tartibda birgalashib qo‘shilishidan yuzaga kelgan ma’noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo‘ladi.

Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til birliklarini o‘rinli qo‘llash yotadi. Tilning murakkab sistemasi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo‘lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o‘zlashtirib olinadi. Nutq rivojlanishi jarayonida tafakkur qobiliyatlari, bilish faoliyatining oliy jarayonlari shakllanadi. So‘zning ahamiyati o‘z – o‘zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi hamda shu munosabat bilan o‘zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o‘xshash emas, shuning bilan birga ma’lum darajada bir – biriga bog‘liq bo‘lmagan holda paydo bo‘ladi. Ammo bolaning ruhiy rivojlanish jarayonida murakkab, sifati jihatidan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo‘ladi. [3]

Nutq bilan tilni ayni bir narsa deb hisoblab bo‘lmaydi. Nutq inson boshqa kishilar bilan munosabatda bo‘lish maqsadida tildan foydalanadigan faoliyatdir. Har bir odam muomalani o‘zicha amalga oshiradi. Biroq bu muomala muayyan millat foydalanadigan o‘sha bir xil vositalari yordamida yuz beradi. Til esa ana shu vositalar yordamida vujudga keladi. Til tovush hamda so‘z boyligi, shuningdek, grammatik shakldir. Til ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyoti davomida kishilar o‘rtasidagi nutq vositasidagi muomala jarayonida paydo bo‘ladi va uni inson tayyor holda o‘zlashtirib oladi.

Tafakkur bilan nutq bir – biri bilan uzviy ravishda bog‘liqdir. Shaxs o‘ylayotganda, odatda, fikrlar so‘zlar, jumlalar tarzida, ichki nutq deb ataladigan nutq tarzida ifoda etiladi. Biroq shunday hollar ham bo‘ladiki, shaxs fikrini so‘zlar bilan ifoda eta olmay qoladi. Bu holda inson ichki nutqdan tashqi ifodaga o‘tishda o‘z fikrini boshqa kishilarga tushunadigan qilib bayon etishda qiynaladi.

Bola nutqining normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o‘zlashtirib olishga, tevarak – atrof haqidagi bilim hamda tasavvurlarni kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Bolaning atrofidagi katta odamlar qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o‘rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqa oladi. Bola rivojlanishida psixik jarayonlar bilan birga eshitish qobiliyati juda katta ahamiyatga ega. Bolaning normal rivojlanishida hamda umuman olganda, barkamol bo‘lib o‘sishida barcha psixik jarayonlar bilan

eshitish qobiliyati chambarchas bog‘liq ravishda, hech qanday nuqsonsiz rivojlangandagina uning nutq boyligi normal darajada rivojlanadi.

Aqli zaif bolaning xususiyati shundaki, uning psixikasi qoidaga bo‘ysunmaydigan sharoitlarda, anomal taraqqiy topish jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bola sog‘lom tengdoshlaridan shu bilan farqlanadiki, uning avvalgi tajribasi va rivojlanishida bundan keyingi psixik kamol topish uchun zarur shart – sharoitlarni tashkil etuvchi mexanizmlar va psixik jarayonlar shakllanmagan bo‘ladi. Shunday qilib, aqli zaif bolaning umumiy psixik taraqqiyot darajasi odatdagi sharoitlarda uning maktab bilimlari, ko'nikma va malakalarni ongli sur’atda egallashini ta’minlay olmaydi. Bolaning psixik kamol topishiga uni ommaviy maktabda o‘qitib ko‘rish zarar yetkazadi. U maktab yoshiga yetarkan, o‘qish uchun yetarli tayyorlanmagan holda bo‘ladi, o‘quv topshiriqlarining maqsadiga diqqatini to‘play olmaydi va qiyinchiliklarni yengib o‘ta olmaydi. Maktabdagi tartib qoidalarga bo‘ysuna olmaydi. Bularning hammasi o‘zlashtirmaslikka olib keladi. Shuning uchun ham yordamchi maktabning muhim vazifalaridan biri o‘quvchini umumiy taraqqiy topishida ilgari siljitish uchun pedagogik jarayonga korreksion vaziyatlarni singdirishdan ibotatdir. Yetakchi faoliyat uning psixik jarayonlari bilan shaxsiy xususiyatlarida eng bosh o‘zgarishlarni taqozo etibgina qolmay, balki uning o‘sib borishida yaxshi ko‘rsatkich hamdir.

B.N. Pinskiy ta’kidlashicha, aqli zaif bolalar o‘zlarining sog‘lom tengdoshlari mustaqil holda yoki o‘qituvchining ozgina ko‘magi bilan bajara oladigan vazifalarni uddalashlari uchun propedevtik va korreksion tarbiyaviy tadbirlarga muhtojdir. Nutqini o‘z vaqtida to‘g‘ri egallash bolaga atrofini o‘rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o‘z nutqini boshqarishiga ko‘maklashadi va nihoyat maktabda ta’lim – tarbiya berish jarayonini ancha yengillashtiradi. [2]

Aqli zaif bolalar o‘zlarining sog‘lom tengdoshlaridan farqli o‘laroq ancha kech tilga kiradilar. Birinchi so‘zni aytish muddati bolaning uch, ba’zan besh yoshigacha kechikadi. Avvalambor, bu yerda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. G.A. Kainning tadqiqotlariga ko‘ra, yordamchi maktab o‘quvchilarining 66 foizi tutilib gapirishning u yoki bu shakliga duchor bo‘lishadi. Aqli zaif bolalarda nutqiy nuqsonlarning shunchalik katta miqdorda uchrashi tasodifiy hol emas. Zero, bosh miya po‘stlog‘ining shikastlanishi, fonematik eshituvning buzilishiga, artikulatsion apparat harakatining izdan chiqishiga olib keladi. Aqli zaif bolalar tilning lug‘aviy boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Aqli zaif o‘quvchilar qo‘llaydigan so‘zlar zaxirasi odatdagi me’yorga tenglashtirib bo‘lmaydigan darajada tor hisoblanadi.

Yetakchi pedagog-defektologlarning tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ta’limning maxsus tashkil etilgan sistemasi yordamida aqli zaif bolalarning nutqiy faoliyatidagi nuqsonlarni korreksiyalab borish, tafakkurning kechikishidagi nuqsonlarni oshirish mumkin. Aqli zaif bolalar juda ko‘p tovushlarni, ya’ni sirg‘aluvchi, til orqa, sonor tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Bunday holat bola nutq apparatining yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Bu guruhga kiruvchi bolalar orasida tovushlarni buzib talaffuz etish, boshqa tovushlarga almashtirish ko‘proq foizni tashkil etadi. Shuning uchun ham logopedlarning, o‘qituvchilarning asosiy vazifasi aqli zaif bolalar nutqini har tomonlama o‘stirishdir. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish bola artikulatsion apparatining yaxshi uyg‘unlashib, moslashib ishlashiga bog‘liqdir. Hamma vaqt tovushlar ustida ish olib borilar ekan, albatta artikulatsion gimnastikalar o‘tkaziladi. Ayrim unli va undosh tovushlar asta-sekin egallab boriladi. Bolalarning ko‘pchiligi ayrim tovushlarni, ya’ni R, S, K, G, M, SH, CH tovushlarini talaffuz etishda qiynaladilar, so‘zlarni buzib talaffuz etadilar. Ayrim bolalar so‘zdagi bo‘g‘inlar o‘rnini o‘zgartirib, so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladilar.

Rus psixologi A.R. Luriya fikricha «Nutq tovushlarini idrok etishda nutqiy oqimdan signalli, fonematik belgilar ajraladi va nutq tovushlarini differensiatsiya qilish ushbu maxsus belgilarni kuchaytirishni hamda muhim bo‘lmagan, tasodifiy, fonematik ahamiyatga ega bo‘lmaganlardan ajratish asosida amalga oshadi. Shuni aytib o‘tish zarurki, aqli zaif bolalarda faqatgina faol nutqning rivojlanishi kechikib qolmaydi. Bolalar ularga qaratib so‘zlagan nutqni yaxshi tushunmaydilar. Kattalarning savollari, talablari, tushuntirishlari va ko‘rsatmalari ularning hayotida birmuncha boshqa, ahamiyatsiz rol o‘ynaydi». [4]

Aqli zaif bolalarning maktabgacha tarbiya davridagi nutqiy aloqa qilish faoliyati bilan bog‘liq tajriba kamroq vaqtni 3-4 yilni o‘z ichiga oladi. Shunda ham uning rivojlanish sur’ati keskin orqada qolgan, nutq faolligining zaifligi kuzatiladi. Bolaning maishiy so‘zlashuv nutqi yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Bu esa oligofren bolaga kattalar bilan nutqiy aloqa qilishni qiyinlashtiradi. Bola suhbatlarda ishtirok eta olmaydi, savollarga bir xil tarzda, doim ham to‘g‘ri javob beravermaydi. Topshiriq va vazifalarni bajarish unga qiyinchilik keltirib chiqaradi. Aqli zaif bolalar uchun xarakterli bo‘lgan fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi hamda nutq harakatidagi kamchiliklar bir-biriga ta’sir etadi va nutqning rivojlanishini tormozlaydi. Biroq shuni nazarda tutish lozimki, nutq a’zolari harakatidagi kamchiliklarni haddan tashqari ko‘pirtirib ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi, negaki bu buzilishlar keyinchalik oson bartaraf etilishi mumkin. Asosiy, yetakchi rol fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligiga tegishli bo‘lib, u aqli zaif bolalarning umumiy rivojlanish nuqsonlarining oqibati hisoblanadi. Aqli zaif bolalar talaffuzidagi nuqsonlar —

nutqning to‘liq rivojlanmaganligining ko‘rinishlaridan biridir. Me’yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatiladigan talaffuz nuqsonlaridan farqli ravishda aqli zaif bolalarda uchraydigan talaffuz kamchiliklari boshqa, anchayin murakkab, shuning uchun ham bartaraf etish birmuncha qiyin bo‘lgan sabablarga ega bo‘ladi. Ularning asosida bola tomonidan ona tilining tovush tomonini o‘zlashtirish sekinlashganligi yotadi. Aqli zaif bolaga eshitilishi bo‘yicha o‘xshash fonemalarni ajratish hamda so‘zning tovush tahlilidagi qiyinchiliklardan namoyon bo‘ladigan fonematik buzilishlar xosdir. Bular talaffuz nuqsonlarini keltirib chiqaradi. Darhaqiqat, o‘xshash tovushlarni yetarlicha aniq ajrata olmasdan bola ularni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgana olmaydi, negaki mustaqil ravishda o‘zining talaffuzini nazorat qilib, takomillashtira olmaydi. So‘zning tovush tahlili va sintezning nuqsonlari o‘z navbatida ularning tuzilishini egallab olishga to‘sqinlik qiladi. So‘zlarda tovushlarni tashlab ketish, o‘rnini almashtirish, shu bilan birga, so‘zni oxirigacha aytmaslikka olib keladi.

Aqli zaif bolalarda so‘zlar boyligi odatda juda sekinlashgan bo‘lishi kuzatiladi. Ular ko‘pincha doimo uchraydigan, yaxshi tanish bo‘lgan predmetlarning nomlarini ham bilmaydilar. G.L.Vigotskiyning ma’lumoticha, aqli zaif 1—2-sinf o‘quvchilari lug‘atida asosan ot va fe’llar ustunlik qiladi. G.M.Dulnev aqli zaif bolalar o‘z nutqida sifatlardan kam foydalanadilar, deb ko‘rsatadi. [7]

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, yordamchi maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 40—60% da turli nutq kamchiliklari uchraydi. Bu nuqsonlar orasida asosiy qismni tili chuchuklik, manqalanish, duduqlanish tashkil etadi. Aqli zaif bolalar nutqining aloqa vositasi sifatidagi roli barcha tomonlardan zararlangan bo‘ladi. Bunda nutqning axborot, hissiy-iroda, boshqaruvchanlik vazifalari buzilgan bo‘ladi. Bunday bolalarda nutq bilan faoliyat orasida muvofiqlik ko‘zga tashlanmaydi. Nomuvofiqlik aqli zaif bola nutqi bilan uning xulqi orasida ko‘zga tashlanadi. Aqli zaif bolalar o‘zlarini nazorat qilish uchun o‘z nutqlaridan foydalana olmaydilar. A.R.Luriyaning ta’kidlashicha, sog‘lom bolalar bog‘cha yoshidanoq nutqdan nazorat quroli sifatida foydalana olar ekanlar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, aqli zaif bolalarning nutqidagi buzilishlarni va kamchiliklarni chuqur o‘rganish, tahlil qilish, kelib chiqadigan muammolarni aniqlash va shu muammolarni bartaraf etish yo‘llarini topgan holda ularga yordam berish juda ham zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

7. Berdiyev G. Boshlang‘ich sinflarda shaxslararo munosabatdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish. — Toshkent, 1995. [5-70 b]
8. E. G‘oziyev - Yosh psixologiyasi. — T., 1994. [6-193 b]

9. L.R. Mo‘minova. Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. — T., 2012. [1,2-34-36 b]
10. L. R. Mo'minova, S. R. Mamarajabova Maxsus Psixologiya - O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2013. [3,4-104-107 b]
11. Mamedov K.Q., Shoumarov G ‘.B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. — T., «O‘qituvchi», 1994. [7-126 b]
12. Mamedov K.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari (psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida). Doktorlik dissertatsiya, 1994.
13. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika, Oligofrenopedagogika «G‘afur G ‘ulom». — T., 2005.
14. Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi, 2005.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗРАБОТКУ ИННОВАЦИОННЫХ МЕХАНИЗМОВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОСТИ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ МЕЖДУ ШКОЛОЙ, СЕМЬЕЙ И МАХАЛЛЕЙ

Алибаев Дониёржон Шухратжонович
докторант Узбекского научного-исследовательского института педагогических наук имени Т.Н. Кары-Ниязи

Аннотация. *Данная статья рассматривает факторы, оказывающие влияние на разработку инновационных механизмов с целью развития духовности учеников начальных классов.*

Ключевые слова: *духовное развитие, начальная школа, инновационные механизмы, школа, семья, махалля, сотрудничество, культурные особенности.*

MAKTAB-OILA-MAHALLA HAMKORLIGIDA O‘QUVCHILAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI ISHLAB CHIQISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Alibayev Doniyorjon Shuxratjonovich
Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab-oila-mahalla hamkorligida boshlang'ich sinf o'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqishga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyatni rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilari, innovatsion mexanizmlar, maktab, oila, mahalla, hamkorlik, madaniy xususiyatlar.*

FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE MECHANISMS FOR ENHANCING STUDENTS' SPIRITUALITY IN COLLABORATION BETWEEN SCHOOL, FAMILY, AND COMMUNITY

Alibaev Doniyorjon Shukhratjonovich
a doctoral student at the Uzbek Research Institute of Pedagogical Sciences named after T.N. Kari-Niyazi

Abstract. *This article examines the factors influencing the development of innovative mechanisms aimed at fostering the spirituality of elementary school students.*

Keywords: *spiritual development, elementary school, innovative mechanisms, school, family, community, collaboration, cultural characteristics.*

Введение. В последние годы все больше признается важность развития духовности учеников, особенно на начальном этапе их обучения. Этот процесс требует совместных усилий различных заинтересованных сторон, включая школы, семьи и махалли, для создания благоприятной среды, способствующей духовному росту и развитию. Понимание факторов, влияющих на разработку таких инновационных механизмов в сотрудничестве между школой, семьей и махаллей, имеет решающее значение для обеспечения всестороннего развития учеников.

Основная часть. В современном образовании становится все более важным не только обучение учеников умениям и знаниям, но и формирование их духовности. Особенно в начальных классах, когда ученики только начинают свой путь в мире знаний и ценностей, создание инновационных механизмов для развития их духовности является ключевым аспектом образовательного процесса. В этой статье мы рассмотрим факторы, которые оказывают влияние на разработку таких механизмов в контексте сотрудничества между школой, семьей и махаллей.

Во-первых, следует отметить, что семья играет значительную роль в формировании духовности учеников начальных классов. Родители являются первыми учителями ребенка, и их воспитательный вклад определяет базовые ценности и убеждения, которые будут влиять на дальнейшее развитие ребенка. Поэтому важно, чтобы семья активно участвовала в образовательном процессе, поддерживая школу в ее усилиях по развитию духовности детей.

Вторым фактором является роль школы как института, формирующего ценности и навыки учеников. Школьная программа должна включать в себя не только учебные предметы, но и специально разработанные программы по развитию духовности, воспитанию этических ценностей и моральных принципов. Это может быть достигнуто через проведение специальных мероприятий, включение соответствующих тем в учебный план, а также путем создания специальных кружков и клубов, где ученики могут обсуждать и расширять свои представления о духовных ценностях.

Третьим фактором является сотрудничество с махаллей. Махалла представляет собой важный социокультурный элемент, который может дополнить образовательный процесс, внося в него элементы культуры, традиций и религиозных ценностей. Взаимодействие с махаллей может происходить через организацию различных мероприятий, приглашение представителей махалли для проведения бесед и лекций, а также активное вовлечение родителей и других членов махалли в жизнь школы.

Четвертым важным фактором является использование инновационных методов обучения и технологий. В современном мире технологии играют ключевую роль в образовании, и это относится и к развитию духовности учеников начальных классов. Использование интерактивных учебных материалов, мультимедийных ресурсов и онлайн-платформ может сделать образовательный процесс более увлекательным и привлекательным для учеников, а также помочь им лучше понять и усвоить духовные ценности и принципы.

Пятый фактор, который оказывает влияние на разработку инновационных механизмов для развития духовности учеников начальных классов, — это взаимодействие с педагогическим сообществом и специалистами в области духовного развития. Опытные педагоги и специалисты могут принести ценные знания и методы работы, которые помогут эффективно внедрить инновационные подходы в образовательный процесс. Кроме того, обмен опытом и сотрудничество с коллегами из других школ и образовательных учреждений

позволяют обогатить свой подход и улучшить результаты в области развития духовности учеников.

Шестым фактором является понимание культурных особенностей и потребностей учеников. Каждая культура имеет свои уникальные традиции, ценности и верования, и важно, чтобы образовательные программы и механизмы развития духовности были адаптированы под конкретное культурное окружение. Понимание культурных особенностей учеников позволяет создать более эффективные и релевантные подходы к развитию их духовности, учитывая их интересы и потребности.

Кроме того, важным аспектом является индивидуальный подход к каждому ученику. Каждый ребенок уникален и имеет свои потребности, интересы и особенности. Поэтому важно, чтобы образовательные программы и механизмы развития духовности были гибкими и адаптированными под индивидуальные потребности каждого ученика. Это может включать в себя проведение индивидуальных консультаций, разработку персонализированных учебных планов и создание условий для самореализации каждого ребенка в контексте духовного развития.

Наконец, последним, но не менее важным фактором является поддержка и вовлечение родителей в процесс развития духовности учеников начальных классов. Родители играют ключевую роль в формировании ценностей и моральных убеждений своих детей, поэтому важно, чтобы они были активно включены в образовательный процесс. Проведение родительских собраний, консультаций и мероприятий, направленных на совместное обсуждение вопросов духовного развития детей, способствует созданию партнерских отношений между школой и семьей, что в конечном итоге благоприятно сказывается на развитии духовности учеников.

Таким образом, факторы, влияющие на разработку инновационных механизмов для развития духовности учеников начальных классов в сотрудничестве между школой, семьей и махаллей, включают в себя широкий спектр аспектов, начиная от использования современных технологий и методов обучения, заканчивая поддержкой родителей и пониманием культурных особенностей учеников. Однако, только путем совместных усилий всех заинтересованных сторон можно создать условия для успешного развития духовности учеников начальных классов и их гармоничного взаимодействия в обществе.

Вывод. В заключении можно сделать вывод о том, что разработка инновационных механизмов для развития духовности учеников начальных

классов требует сотрудничества между школой, семьей и махаллей. Понимание важности этих факторов и их учет в образовательном процессе поможет создать условия для гармоничного развития личности каждого ребенка, обеспечивая ему не только знания, но и ценности, необходимые для успешной жизни в современном обществе. Только таким образом можно создать эффективную образовательную среду, способствующую гармоничному развитию личности каждого ребенка и формированию его духовных ценностей и убеждений.

Литературы:

1. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. История педагогики и образования. Учебник для магистрантов. – Т.: Fan va texnologiya, 2008.
2. Сайдалиева Н.З. Ешларни оилавий ҳаетга тайерлашнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари : фалсафа фан. номз. дисс. Тошкент, 2005.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: Молия, 2002.
4. Бикметов Е. Ю. Взаимодействие семьи и школы в социализации индивида: Социологические исследования. – 2007.
5. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти Тошкент — 2009.

INGLIZ TILINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Alibayeva Umida Amirjanovna
Bosh ilmiy-metodik markaz tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada ingliz tilini takomillashtirish mexanizmlari, shuningdek, an'anaviy usullar va innovatsion texnologiyalarni ta'kidlab, til o'rganishga kompleks yondashuvni ochib beradi, motivatsiya, muntazamlik va doimiy takomillashtirish muhimligini ta'kidlangan. O'qish, yozish, tinglash va nutq qobiliyatlarini yaxshilashning turli mexanizmlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Ingliz tili, mexanizmlar, motivatsiya, takomillashtirish, an'anaviy usullar, onlayn resurslar, mobil ilovalar, til hamkori.*

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Алибаева Умида Амиржановна

докторант Главного научно-методического центра

Annotatsiya: *Статья об усовершенствовании английского языка подчеркивает важность комплексного подхода к обучению языку, включая традиционные методы и инновационные технологии, акцентируя внимание на мотивации, регулярности и постоянном совершенствовании. В статье рассматриваются различные механизмы для улучшения навыков чтения, письма, аудирования и устной речи.*

Kalit so‘zlar: *Английский язык, методы, мотивация, совершенствование, традиционные подходы, онлайн ресурсы, мобильные приложения, языковой партнер.*

MECHANISMS FOR IMPROVING ENGLISH LANGUAGE

Alibaeva Umida Amirjanovna
PhD student of the Main Scientific and Methodological Center

Annotatsiya: *The article on improving the English language underscores the importance of a comprehensive approach to language learning, incorporating both traditional methods and innovative technologies, while emphasizing the importance of motivation, consistency, and continuous improvement. Various mechanisms for enhancing reading, writing, listening, and speaking skills are discussed in the article.*

Kalit so‘zlar: *English language, methods, motivation, improvement, traditional approaches, online resources, mobile applications, language partner.*

Ingliz tilini yaxshilashning ko‘plab usullari mavjud. Mana bir nechta asosiy mexanizmlar. So‘z boyligingizni kengaytiring, kartalar, ilovalar yoki lug‘atlar yordamida har kuni yangi so‘zlarni o‘rganing.Notanish so‘zlarga e’tibor berib, ingliz tilidagi kitob va maqolalarni o‘qing. Nutqingizda va yozishingizda yangi so‘zlardan foydalaning. Shuningdek, asosiy mexanizm grammatikani takomillashtirishdir. Ingliz tili grammatikasining asosiy qoidalarini o‘rganing. Grammatik mashqlarni mashq qiling. Nutqingizda va yozishingizda grammatik tuzilmalardan to‘g‘ri foydalaning. Keyingi mexanizm - tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ingliz tilini imkon qadar tez-tez tinglang, masalan, podkastlar, audiokitoblar, filmlar va teleseriallar. Yaxshiroq tushunish uchun inglizcha subtitrlardan foydalaning. Maxsus mashqlar bilan tinglashni mashq qiling. Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish juda muhim mexanizmdir. Ingliz tilini iloji boricha tez-tez gapiring, hatto xato qilsangiz ham. Mashq qilish uchun til sherigini

organlari hamda boshqa tashkilotlar mas'uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog'lom barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar juda ko'pligini ko'rib bormoqdaman. Shu jumladan bu kabi imkoniyatlardan unumli foydalanib, sport, fan, IT, IQ hamda madaniyat va san'at sohalarida, ko'plab yutuqlarga erishib, yurtini rivojlantirayotgan yoshlar juda ko'p. Shulardan 3 yilda 4001 nafar yoshlar sportdagi yutuqlari uchun imtiyoz asosida OTMlarga o'qishga kirishgan. "Yosh kitobxon" tanlovida yutgan o'quvchilarga esa avtomobil sovg'a qilinishi kishini quvontiradi. Undan tashqari o'zim tahsil olayotgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" 1-kursda tahsil olayotgan samarqandlik 18 yoshli Zohidjon Jumanazarov IQ bo'yicha 200 ball to'plab, dunyo rekordini o'rnatdi. Shunga o'xshash tengdoshlarimizning ko'pligi barchani quvontiradi. Yoshlarning bilimli va zamon talablariga to'la mos insonlar bo'lib yetishishda axborot texnologiyalari va til bilishning ahamiyati naqadar muhim ekanini alohida ta'kidlash lozim.

Shuni inobatga olgan holda, davlatimiz tomonidan mana shu sohalar rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda.Bu borada turli qonun ,qarorlar qabul qilingan. Jumladan, "Xalqaro IT sertifikatlarga ega yosh mutaxassislarni qo'llab –quvvatlash" chora tadbirlari to'g'risidagi, qaror qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qarordan ko'zlangan maqsad, yoshlarni o'qitish va ular Xalqaro IT sertifikatlarni olishlari uchun 50 foizgacha bo'lgan xarajatni qoplash tizimini joriy etishdir. Bugungi kunda biz kabi yoshlar xalqaro sertifikatlar B1 C1 C2 kabilarni qo'lga kiritishmoqda. Bu ularning yuksak salohiyatidan hamda harakatchanligidan dalolat beradi. Undan tashqari xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan o'zimizdagi oliy o'quv yurtlariga o'qishini ko'chirish, test jarayonlari bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda bilimini sinab ko'rishi masalalari bizlarga berilayotgan imkoniyatlarning isbotidir.

Albatta bu kunlarni asrlar davomida yoshlarimiz orzu qilgan. Jumladan jadidlarimizdan Mahmudxo'ja Behbudiy millat taraqqiyoti va istiqboli, Turkistonning kelajagi haqida o'ylar ekan, xalqni jaholat va nodonlik erksizlik va qashshoqlik botqog'idan qutqarib olishning birdan bir yo'li – ilm ma'rifatli bo'lishdir degan xulosaga kelgan edi. Behbudiy esa xalqdan mablag' yig'ib o'qishga, ilmga rag'batli bo'lgan, ammo ota-onasining qurbi yetmaydigan Turkiston yoshlarini chet el dorilfununlariga yuborib o'qitib, millatning rivoji va istiqloli uchun zarur bo'lgan muhandis va muallimlarga Yevropa bozorlarida savdo-sotiq qiladigan, xorijliklar tilini biladigan zamonaviy ilmiy xodimlarga ega bo'lish orqali yurt taraqqiyotini yulsaltirish g'oyasini ilgari surgan. Bunga o'xshash jadidlarimiz ko'p bo'lgan. Masalan Fitrat, Cho'lpon, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va

boshqa komil insonlarimizni keltirishimiz mumkin. Ular ham qachonlardir yosh avlod bo‘lishgan. Lekin ularning paytida bizga yaratilayotgan sharoitlar bo‘lmagan. Shunga qaramasdan biz avlodlar ularning nomlarini hali hanuz eslab yuramiz.

Albatta, ularning qilgan sa’y harakatlari-yu mashaqqatli mehnatlari tufayli Biz yoshlar ham xuddi ularga o‘xshashga harakat qilaylik. Zero bizga barcha shart sharoitlar yetarlicha imkoniyatlar berilgan. Har bir jamiyatning unda yashayotgan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Muhataram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Bizni hamisha o‘ylatirib keladigan bir muhim masala – bu yoshlarning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgarayapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz degan da’vat bilan ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya, hisobidan deb” – ta’kidlab o‘tgan. Shuning uchun har bir ota-ona, har bir xonadon, har bir mahalla bugungi kunda farzandlarimiz talim tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bo‘lib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo‘lgan salbiy ta’sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz ham farzdir. Zero inson hayoti odob axloq ta’lim tarbiya bilan bevosita bog‘liq.

Bugungi kunda bizning nafaqat ta’lim tarbiyamiz balki olayotgan bilimimiz ham katta ahamiyatga ega Shunday ekan men yurtimning har doim yuksalishini, gullab yashnashini, 10 ta eng rivojlangan davlatlar qatorida ko‘rishni xohlayman va qo‘limdan kelganicha o‘z hissamni qo‘shaman. Muhtaram Prezidemtimiz tomonidan biz yoshlar uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, Vatanimiz uchun xalqimiz uchun doimo so‘nggi nafasimizgacha harakatdan to‘xtamaymiz. Biz yoshlar axir Amir Temur , Alisher Navoiy, Cho‘lpon avlodlarimiz. Ularga munosib farzand bo‘lish biz yoshlarning burchimizdir. O‘ylab qarasak, ularning davrida bizga yaratilgan sharoitlarning birortasi ham bo‘lmagan. Shunga qaramasdan el-u yurt, butun dunyo taniydigan inson bo‘lishgan. Hozirda ham ularning ezgu nomlari dillarda, tillarda yangrab kelmoqda. Shunday ekan biz yoshlar ham ota bobolarimiz yo‘lini davom ettiraylik. Zero, Vatanimizni rivoj topishi ham zavolga yuz tutishi ham bizning qo‘limizda. Aziz yoshlar! Hech qachon bilim olishdan to‘xtamaylik. Doimo orzularimiz sari olg‘a yuraylik, ulardan voz kechmaylik. Charchaganimizda maqsadlarimizni o‘ylaylik. Doimo ezgu ishlar qilishga harakat qilaylik. Sabrli,

shijoatli, dovyurak bo‘laylik. Vatanimizga munosib o‘g‘il-qiz farzand bo‘laylik. Zero Yangi O‘zbekiston kelajagi – bizni qo‘limizdadir !!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — T.: “O‘zbekiston”, 2022.
2. 2018-yil 28-noyabr O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B 298
3. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. A.Mavrulov. “Ma’naviy va ma’daniy makon” nomli maqola. 2023-yil. 46-son.
4. Haydarov A. O‘zbekiston jamiyati siyosiy madaniyatida milliy-ma'naviy qadriyatlarning o‘rni. Avtoreferat - Toshkent: “Moziydan sado” jurnali kichik bosmaxonasi. 2005. - B. 30

DIDAKTIKA – PEDAGOGIK NAZARIYA SIFATIDA

Jaloliddinova Zeboxon Shuxrat qizi
Namangan Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika fakulteti, Pedagogika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
jaloldinovazeboxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada didaktika atamasi, uning predmeti, tamoyillari, kategoriyalari va formulalari, didaktikaning pedagogika fani sohasidagi o‘rni va ahamiyati, didaktikaga doir atamalar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Didaktika, didaktikaning predmeti, didaktik tamoyil, didaktikaning vazifasi, didaktika kategoriyalari, didaktik formula, Y.A.Komenskiy, V.Ratke*

Аннотация: *В данной статье рассматривается термин дидактика, ее предмет, принципы, категории и формулы, роль и значение дидактики в педагогический науке, мысли о дидактике*

Ключевые слова: *Дидактика, предмет дидактики, дидактический принцип, задача дидактики, дидактические категории, дидактическая формула, Я.А.Коменский, В.Ратке*

Abstract: *This article discusses the term didactics, its subject, principles, categories and formulas, the role and importance of didactics in the science of pedagogy, and thoughts about didactics*

Key words: *Didactics, subject of didactics, didactic principle, task of didactics, didactic categories, didactic formula, Ya.A.Komensky, V.Ratke*

Insonning hayotida o‘qitish har doim juda muhim ahamiyat kasb etgan. Uzoq vaqt davomida ta’limni nazariy tashkil etish va o‘rganish ishlari olib borilmadi. Shuning uchun o‘z nazariyasiga ega bo‘lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohaga o‘zgarishlar olib keldi va ta’lim alohida nom oldi. Tarixda ilk marotaba didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimga asos solindi.

Didaktika pedagogikaning mustaqil tarmog‘i. Unda ta’lim-tarbiya nazariyasi, ya’ni, ta’limning maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug‘ullaniladi. Didaktika pedagogikada ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismidir.

Didaktika yunoncha so‘z bo‘lib, “didasko” – o‘qitish, “didaskal” – o‘rgatuvchi degan so‘zlardan kelib chiqqan[1]

Didaktika ta’lim jarayoni mazmuni, qonuniyat ava tamoyillari shakli, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta’lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

“Didaktika” atamasini birinchi marta nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan. Didaktikaning fundomental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657-yilda chex tilida “Buyuk didaktika” asarini yozadi. Komenskiy didaktikaga “Hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati” deb ta’rif beradi. Ushbu atama ilk bora nemis pedagogi Volfgang Ratke 1613-yilda “Didaktika yoki ta’lim san’ati” deb nomlangan ma’ruzasida qo‘llagan. Didaktika “nimaga o‘qitish”, “nimani o‘qitish”, “qanday o‘qitish”, “qayerda o‘qitish” kabi savollarga javob izlaydi.[2]

Didaktikaning predmeti ta’lim-tarbiya sharoitida muallimning rahbarligi ostida amalga oshiriladigan o‘quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta’lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta’lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o‘qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo‘llari hamda ta’limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Yaqin va O‘rta Sharqda al-Xorazmiy, al-Qindiy, al-Forobiy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktikaga asos solgan bo‘lsalar, Ya.A.Komenskiy, shveysariyalik pedagog I.G.Pestalossi, nemis pedagogi A.Distreglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shishdi.[3]

Didaktikaning predmeti ta'lim jarayoni va uning qonuniyatlaridir. Didaktika o'ziga xos tadqiqot sohasiga va tadqiqot predmetiga ega bo'lganidek, uning o'ziga xos tushunchalar turi ham mavjud. Har bir tushuncha ma'lum didaktik hodisaga taalluqli bo'lib, ular vositasida didaktik hodisalarning asosiy belgilari umumlashtiriladi. Demak, didaktik tushunchalar pedagogik fikrlash shakli, shuningdek, didaktik hodisalarni bilish, tadqiq qilish, bayon qilish hamda amaliyotda foydalanish vositalaridir.[4]

Ta'limning didaktik tamoyili bu – ta'limning umumiy maqsad va qonuniyatlar asosiy mazmunidan kelib chiqqan holda ushbu jarayon tashkil etish va olib borishdir.

Ta'lim qoidalari bu – pedagogik faoliyatning didaktik tamoyillaridan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadga erishish jarayonidir. Ta'lim qoidalari u yoki bu tamoyildan kelib chiqadi.

K.P.Ushinskiy aytganidek, qoidani bir varaq qog'ozga ham yozish mumkin, bir necha yuzlab tom kitoblarga ham. Ammo biz uning nazariy, ilmiy, metodik tomonini o'rganishimiz lozimki, shunda har qanday pedagogik vaziyatga to'g'ri baho berishimiz mumkin.

Didaktik tamoyillar tizimining uzoq izlanishlari natijasida quyidagilar asosiy deb qabul qilingan:

1. Faollik va onglilik;
2. Ko'rgazmalilik;
3. Tizimlilik va ketma-ketlik;
4. Ilmiylik;
5. Nazariyani amliyot bilan bog'lash;
6. Tushunarlilik;
7. Mustahkamlash.[5]

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;
- Ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- Ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash omillarini tashkil qilish va ta'riflash.[6]

O'qitish (didaktik) jarayonining mohiyatini quyidagi formula yordamida to'liq aniqlash mumkin:

$$DJ=M+A_{O'F}+A_{O'Fb}$$

DJ – didaktik jarayon;

M – motivatsiya;

$A_{O'F}$ – o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyati algoritmi;

$A_{O'Fb}$ – o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish algoritmi.[7]

O'qitish jarayoni 3 ta vazifani bajaradi:

1. Ta'limiy;
2. Tarbiyaviy;
3. Rivojlantiruvchi.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xos bo'lib, ta'lim faqatgina o'rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti ham sanaladi. Demak, didaktikaning predmeti o'qitish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining bilish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi jihatlarini o'rganishdan iborat.

Ta'lim nazariyasi e'tibor qaratilayotgan jarayonning mohiyatini ochib berish nuqtai nazaridan:

1) ilmiy-nazariy;
2) amaliy-me'yoriy;
3) tashkiliy-texnologik vazifalarni bajaradi.

Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'lim jarayonlariga o'rganish, uning turli jihatlari o'rtasidagi bog'liqliklar mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iborat bo'lsa, amaliy-me'yoriy va tashkiliy-texnologik vazifalar sifatida ta'lim mazmunini anglash, ta'lim tamoyillari, metod va vositalarini qo'llash yo'llari tadqiq etiladi. Ilmiy-nazariy, amaliy-me'yoriy, tashkiliy-texnologik vazifalarni bajarish orqali didaktika tomonidan quydagi masalalar hal qilinadi:

Asosiy masalalar:

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;
- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash omillarini tashkil etish va ta'riflash.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, uning bilish qobiloyatlarini oshirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga qaratilgan jarayon.
2. Dars – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.
3. Ta'lim maqsadi – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.
4. Ta'lim shakli – ta'lim jarayonining tashkiliy qismi.
5. Ta'lim tamoyillari – ta'lim nazariyasining muhim, asosiy, yetakchi, ustuvor g'oyalari.

6. Ta'lim metodlari – o'quv jarayonida qo'llanib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.
7. Ta'lim turlari – ta'limni tashkil etish o'rni, bosqichi, qo'llaniladigan vositalari, ta'lim oluvchilarning yoshiga ko'ra farqlanuvchi ta'lim ko'rinishlari.
8. Didaktik tizim (yunoncha "systema" – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlar asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.[8]

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, pedagogikaning tarmoqlaridan biri hisoblangan didaktika ta'lim sifatini yaxshilash va bo'lajak pedagoglarga yetarli bilim, malaka va ko'nikmalarni beradi. Didaktika – ta'lim nazariyasi, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining mazmunini, ta'lim maqsadi, shakl, metod vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish muammolarini o'rganadi. Didaktikaga ta'limning mazmuni va jarayonini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti sifatida qaraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh.Asqarev, N.O'.Usmanov, "Pedagogika", "Noshir", Toshkent – 2018, 267-bet.
2. B.X.Xodjayev, "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", "Sano-standart" nashriyoti, Toshkent – 2017, 61-bet.
3. B.Mavlonova, N.Vohidova, N.Raxmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi", Toshkent – 2010, 55-bet.
4. O'.M.Asqarova. M.Xayitboyev, M.S.Nishonov, "Pedagogika" Toshkent – 2018, 52-bet.
5. X.I.Ibragimov, U.A.Yo'ldashev, X.Bobomirzayev, "Pedagogika tarixi va nazariyasi", "O'zbekiston Faylasuflar Milliy jamiyati" nashriyoti, Toshkent – 2009, 38-bet.
6. "Pedagogika", "O'zbekiston Faylasuflar Milliy jamiyati" nashriyoti, Toshkent – 2010, 68-bet.
7. B.X.Xodjayev, "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", "Sano-standart" nashriyoti, Toshkent – 2017, 63-bet.
8. U.I.Unoyatov, N.A.Muslimov, D.I.Ro'ziyeva, M.X.Usmonboyeva, "Pedagogika", Toshkent – 2013, 45-bet

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogika hamda ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaring o‘rni hamda ularning qo‘llash orqali yuzaga keladigan imkoniyatlar haqida so‘z yuritilgan. Muallif tomonidan bir necha misollar orqali texnologiyalar sababli yuz berayotgan o‘zgarish hamda o‘rganuvchilar uchun yuzaga kelgan imkoniyatlarni tavsiflab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim jarayoni, o‘rganuvchilar, axborot texnologiyalar, elektron doska, o‘quv adabiyotlari.*

Аннотация: *В данной статье говорится о роли современных информационных технологий в педагогическом и образовательном процессе и возможностях, создаваемых их использованием. На нескольких примерах автор описывает изменения, происходящие благодаря технологиям, и возможности, которые появились у студентов.*

Ключевые слова: *учебный процесс, студенты, информационные технологии, электронная доска, учебная литература.*

Abstract: *This article talks about the role of modern information technologies in the pedagogy and educational process and the opportunities created by their use. Through several examples, the author describes the changes that are taking place due to technology and the opportunities that have arisen for students.*

Keywords: *educational process, students, information technology, electronic board, educational literature.*

KIRISH

Ma’lumki, 21-asr texnika taraqqiyoti asri hisoblanib, ular hayotning barcha jabhalarida o‘z aksini topgan. Insoniyat yashar ekan, zamonaviy texnologiyalar u bilan hamohang tarzda yangilanib boradi. Ular insonlar uchun beminnat xizmat ko‘rsatib, katta kuch hamda energiya talab etadigan yumushlarni qisqa fursatda hamda yuqori natijalar bilan qila oladi. Texnologiyalar hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lib, ta’lim jarayonlarida ham bevosita ishtirok etib kelmoqda.

METODLAR

Ma'lumotlarga ko'ra, pedagogikada zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ta'limda samaradorlikning ortishi hamda o'rganuvchilarning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishining o'sishiga olib keladi. Ayni shu sababdan ham pedagoglar ko'zlangan ta'lim sifatiga erishish maqsadida yangi texnologiyalardan unumli foydalanmoqdalar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'kidlab o'tilganidek, barcha sohalardagi kabi ta'lim jarayonida ham zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyos bo'lib, ular o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanishga imkoniyat yaratadi. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida keng foydalanilayotgan elektron uskunalar: doskalar, proyektor va kompyuterlar ushbu zamonaviy texnologiyalarning eng ommalashgan turiga misol bo'la oladi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonining samarali bo'lishi hamda o'rganuvchilarning o'qitish jarayoniga bo'lgan qiziqishini yanada ortishiga sabab bo'lmoqda.

Sir emaski, o'rganuvchilar hayotida smartfon, noutbuk kabi gadjetlarning o'rni hamda ularning kundalik yumushlardagi ishtiroki sezirali darajada bo'lib, ularsiz ma'lum natijalarga erishish qiyinchilik tug'diradi. Ammo haddan ziyod ushbu texnologiyalardan foydalanish qaramlikka olib kelish ehtimoli mavjud. Shu sababdan ham ta'lim jarayoniga texnologiyalarning integrallashuvini yo'lga qo'yish eng yaxshi alternativlardan biri sifatida baholanadi.[1]

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi natijasida o'qitishning yangi metodlari yaratildi. Dars jarayonida elektron adabiyotlardan foydalanish, Power Point dasturini qo'llagan holda mavzularni o'rganuvchilarga tushuntirish hamda o'quvchilarda texnologiyalardan qay tartibda unumli foydalana olish mahoratlarini shakllantirish ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning integrallashuvining ijobiy tomonlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, butun dunyo bo'ylab ommalashayotgan onlayn dars hamda baholash tizimi ham texnologiyalarning ta'limda o'z aksini topishidir.[2] Ushbu imkoniyatlar tufayli o'quvchilar mustaqil ravishda o'rganish hamda ballarini doimiy ravishda kuzatib borish imkoniga ega bo'ladilar.

O'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash o'rganuvchilarning mavzu haqidagi tasavvuri hamda bilimini kengaytirishga yo'l ochadi. Misol sifatida 3D texnologiyalarining imkoniyatlarini olishimiz mumkin. O'quvchilar barcha materiallar, jumladan, mexanikada turli uskunlar hamda tibbiyotda inson organizmidagi a'zolarni ko'ra olish imkoniga ega bo'lmasliklari mumkin. Ammo 3D texnologiyalari yordamida o'quvchilar nomlari keltirilgan narsalarning asl holatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rishga muvaffaq bo'ladilar.[3]

O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'limda keng qo'llaniluvchi adabiyotlar salmog'ini kengaytirishga imkon beradi. Ma'lumki, ba'zi

o‘quv adabiyotlarining yangi nashrlaridan foydalanishning imkoni har doim ham bo‘lavermaydi. Ushbu holatni inobatga olgan holda, ularning elektron variantlarini qo‘llash hamda ommalashtirish yaxshi natijalarga olib keladi. Qo‘shimcha ravishda ularni nafaqat bir yoki ikki, balki undan-da ko‘proq auditoriya hamda o‘rganuvchilar davrasida foydalanish imkonini yaratadi.[4. B 364]

Dunyo bo‘ylab olimlar texnologiyalarning ta’lim jarayonida integrallashuviga bag‘ishlab turli tajribalarni o‘tkzaib kelmoqdalar. Jumladan, Nyu-Meksiko shtat universiteti muhandislik kollejida ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga doir tajriba o‘tkazilgan bo‘lib, u quyidagicha amalga oshirildi. Professor-o‘qituvchilar sinfda o‘quvchilarning faolligi, shu bilan birgalikda ularning jamoa sifatida ishlay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida mini elektron doskadan foydalandilar. Ushbu tajriba orqali o‘quvchilar onlayn ravishda topshiriqlarni olish va bajarish, guruh bilan ishlash hamda bir-birlari bilan samarali muloqot olib borish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ldilar. Ushbu tajriba ta’limda axborot texnologiyalarning qay darajada muhim ekanligi oddiygina doska yordamida tushuntira olgan amaliyotdir. [5]

XULOSA

Zamon rivojlangani sayin axborot texnologiyalaridan hayotning barcha jabhalarida foydalanilmoqda. Ta’lim hamda pedagogika sohalari ham mustasno bo‘lmagan holda yangi texnologiyalarni ommaviy qo‘llab kelmoqda. Bu esa o‘quv jarayonini qiziqarli qilish, o‘rganuvchilar e’tiborini darslarga qaratish hamda yuqori natijalarga erishish uchun yo‘l ochmoqda. Shu boisdan ham texnologiyalarni ushbu sohalarda qo‘llash yil sayin oshmoqda. Maqolada keltirib o‘tilgan hayotiy tajriba ham yuqoidagi fikrlarning yaqqol isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.sydle.com/blog/new-technologies-in-education-63ef92977f03ed13ae2d1909
2. https://drexel.edu/soe/resources/student-teaching/advice/how-to-use-technology-in-the-classroom/
3. https://resources.cadimensions.com/cadimensions-resources/how-technology-supports-pedagogy-in-education
4. Tojiyev, N. Adilov, A. “Dars sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. B 364.
5. Libermen, M. “Looking Back on This Year’s Classroom Experiments”. Inside Higher Education. May 21, 2019.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНИВАНИЯ ЗНАНИЙ: ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМЫ И АНАЛИТИКУ ДАННЫХ

Петров Рустэм Иванович
Студент группы 440-21
Джизакского политехнического института
Муртазин Эмиль Рустамович
Ассистент Джизакского политехнического института
E-mail: *kirenakirka.fr@inbox.ru*

Аннотация: *Статья рассматривает инновационные методы оценивания знаний в современной педагогике с использованием онлайн-платформ и аналитики данных. Обсуждаются преимущества таких методов, включая персонализацию обучения, объективность оценки, и непрерывное улучшение образовательного процесса. Проиллюстрированы возможности, которые открываются благодаря интеграции технологий в оценивание знаний, и их важная роль в подготовке учащихся к современным вызовам.*

Ключевые слова: *Инновационные методы, оценивание знаний, современная педагогика, онлайн-платформы, аналитика данных, персонализация обучения, объективность оценки, трансформация образования.*

BILIMLARNI BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARI: TA'LIMNI ONLAYN PLATFORMALAR VA MA'LUMOTLAR TAHLILI ORQALI TRANSFORMASIYASI

Petrov Rustem Ivanovich
440-21 guruhi talabasi
Jizzax politexnika instituti
Murtazin Emil Rustamovich
Jizzax politexnika instituti assistenti
E-mail: *kirenakirka.fr@inbox.ru,*

Annotatsiya: *Maqolada onlayn platformalar va ma'lumotlar tahlilidan foydalangan holda zamonaviy pedagogikada bilimlarni baholashning innovatsion usullari ko'rib chiqiladi. Bunday usullarning afzalliklari, jumladan, ta'limni*

shaxsiylashtirish, baholashning ob'ektivligi va ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish muhokama qilinadi. Texnologiyani baholashga integratsiyalash orqali taqdim etilayotgan imkoniyatlar va uning talabalarni bugungi kun muammolariga tayyorlashdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Innovatsion usullar, bilimlarni baholash, zamonaviy pedagogika, onlayn platformalar, ma'lumotlar tahlili, o'rganishni shaxsiylashtirish, baholashning ob'ektivligi, ta'limni o'zgartirish.*

INNOVATIVE METHODS OF KNOWLEDGE ASSESSMENT: TRANSFORMATION OF EDUCATION THROUGH ONLINE PLATFORMS AND DATA ANALYTICS

Petrov Rustem Ivanovich
Student of group 440-21 RUiO
Jizzakh Polytechnic Institute
Murtazin Emil Rustamovich
Assistant at Jizzakh Polytechnic Institute
E-mail: *kirenakirka.fr@inbox.ru,*

Abstract: *The article examines innovative methods of assessing knowledge in modern pedagogy using online platforms and data analytics. The benefits of such methods are discussed, including personalization of learning, objectivity of assessment, and continuous improvement of the educational process. Illustrates the opportunities offered by integrating technology into assessment and its important role in preparing students for today's challenges.*

Keywords: *Innovative methods, knowledge assessment, modern pedagogy, online platforms, data analytics, personalization of learning, objectivity of assessment, transformation of education.*

Введение:

С развитием информационных технологий и доступом к широкополосному интернету образовательные процессы стали подвержены значительным изменениям. Онлайн-платформы и аналитика данных перестали быть просто дополнительными инструментами в образовании и стали ключевыми элементами его трансформации. В частности, в современной педагогике появляются инновационные методы оценивания знаний, которые основаны на использовании онлайн-платформ и аналитических инструментов.

Эти инновации не только обеспечивают более широкий доступ к знаниям, но и революционизируют сам процесс обучения и оценивания [1]. В данной статье мы рассмотрим, каким образом онлайн-платформы и аналитика данных влияют на методы оценивания знаний в образовании, и какие перспективы они открывают для современной педагогики.

1. Расширенные возможности онлайн-платформ:

Расширенные возможности онлайн-платформ играют ключевую роль в современном образовании, обеспечивая учителям и учащимся доступ к разнообразным инструментам и ресурсам. Они позволяют создавать интерактивные учебные материалы, адаптированные под индивидуальные потребности студентов, и эффективно использовать различные формы оценивания знаний. Преимущества онлайн-платформ включают в себя возможность создания разнообразных учебных материалов, таких как тексты, видео, аудио и интерактивные задания, которые учитывают различные стили обучения студентов [2]. Это позволяет учителям персонализировать обучение и адаптировать его под индивидуальные потребности каждого ученика.

Кроме того, онлайн-платформы предоставляют учащимся возможность получать обратную связь непосредственно от системы, что способствует быстрой и эффективной коррекции ошибок и повышает уровень понимания учебного материала. Также стоит отметить, что онлайн-платформы обеспечивают учителям доступ к различным инструментам аналитики данных, которые помогают отслеживать прогресс каждого студента и выявлять области, требующие дополнительного внимания или поддержки.

Таким образом, расширенные возможности онлайн-платформ играют важную роль в современном образовании, обеспечивая более эффективное и персонализированное обучение, а также более объективное оценивание знаний студентов [3].

2. Персонализированное обучение:

Персонализированное обучение является ключевым аспектом современной педагогики, который становится все более востребованным благодаря использованию онлайн-платформ и инновационных подходов в образовании. Этот метод обучения предоставляет возможность индивидуализировать процесс обучения для каждого ученика, учитывая его уровень знаний, интересы, темп усвоения материала и индивидуальные особенности. Онлайн-платформы позволяют создавать персонализированные учебные материалы и курсы, адаптированные под потребности и способности каждого учащегося [4]. Это может включать в себя подбор заданий разной сложности, дополнительные

материалы для углубленного изучения темы, а также различные формы обратной связи, соответствующие индивидуальным предпочтениям и стилю обучения каждого студента.

Персонализированное обучение также поддерживается аналитикой данных, которая позволяет отслеживать прогресс каждого ученика, выявлять его сильные и слабые стороны, а также адаптировать учебные материалы и методики обучения в соответствии с его потребностями. Этот подход к обучению способствует более глубокому и качественному усвоению материала, так как студенты могут учиться в своем собственном темпе, выбирать те методы обучения, которые наиболее эффективны для них, и получать персонализированную поддержку и обратную связь от учителей [5].

Таким образом, персонализированное обучение, поддерживаемое онлайн-платформами и аналитикой данных, играет важную роль в современной педагогике, обеспечивая более эффективное и индивидуализированное обучение, соответствующее потребностям и запросам каждого ученика.

3. Объективная оценка:

Объективная оценка играет важную роль в образовании, поскольку она обеспечивает справедливость и надежность в процессе оценивания знаний студентов. Использование онлайн-платформ и аналитики данных в современной педагогике позволяет значительно улучшить этот процесс, делая его более объективным и надежным. Онлайн-платформы предоставляют различные инструменты оценки, такие как тесты, задания, проекты и кейсы, которые могут быть стандартизированы и оценены с использованием объективных критериев. Это позволяет учителям проводить оценку знаний студентов на основе объективных данных, исключая субъективные предвзятости или личные предпочтения [6].

Кроме того, аналитика данных позволяет учителям проводить более глубокий анализ результатов оценки, выявляя не только правильные и неправильные ответы, но и тенденции, характерные для определенных групп студентов. Это помогает учителям выявлять слабые места в обучении и принимать меры по их устранению, что способствует повышению качества образования. Кроме того, использование аналитики данных позволяет учителям и администрации школы проводить мониторинг прогресса каждого студента на протяжении всего учебного года, что делает процесс оценки более непрерывным и систематическим.

Таким образом, объективная оценка, поддерживаемая онлайн-платформами и аналитикой данных, играет важную роль в современной

педагогике, обеспечивая справедливость и надежность в процессе оценивания знаний студентов и способствуя повышению качества образования.

4. Непрерывное улучшение процесса обучения:

Непрерывное улучшение процесса обучения становится неотъемлемой частью современной педагогики, особенно с учетом использования онлайн-платформ и аналитики данных [7]. Эти инструменты не только позволяют учителям и администрации школы отслеживать прогресс учащихся, но и предоставляют данные для анализа и оптимизации образовательного процесса. Одним из ключевых моментов непрерывного улучшения является возможность проведения детального анализа данных обучения. Аналитика данных позволяет выявлять успешные методики обучения и материалы, а также определять области, где ученики испытывают затруднения. Это позволяет учителям адаптировать свои методики обучения и предоставлять дополнительные ресурсы и поддержку там, где это необходимо.

Кроме того, онлайн-платформы предоставляют возможность для непрерывной обратной связи со студентами. Учителя могут собирать данные о том, как студенты воспринимают учебный материал, и какие методы обучения им наиболее эффективны. Это позволяет быстро реагировать на потребности студентов и корректировать обучающие материалы и методики обучения в реальном времени. Непрерывное улучшение процесса обучения также включает в себя проведение регулярного обучения и профессионального развития учителей. Онлайн-платформы могут предоставлять доступ к обучающим материалам и курсам, а также поддерживать обмен опытом и лучшими практиками между учителями.

Таким образом, использование онлайн-платформ и аналитики данных позволяет создать цикл непрерывного улучшения в образовательном процессе. Это способствует повышению качества образования и эффективности обучения, что в конечном итоге приводит к лучшим результатам для студентов.

Заключение:

В заключение, следует подчеркнуть, что инновационные методы оценивания знаний с использованием онлайн-платформ и аналитики данных играют ключевую роль в современной педагогике [8]. Эти методы не только повышают доступность образования, но и улучшают его качество, делая процесс обучения более эффективным, персонализированным и объективным.

Использование онлайн-платформ позволяет учителям создавать интерактивные уроки, адаптированные под индивидуальные потребности

учащихся, а аналитика данных помогает следить за прогрессом каждого студента и непрерывно улучшать образовательный процесс.

Внедрение этих инновационных методов требует не только технической подготовки и совершенствования инфраструктуры, но и изменения подходов к обучению и оцениванию. Однако они открывают новые перспективы для развития образования и подготовки учащихся к вызовам современного мира, делая процесс обучения более адаптивным, эффективным и целенаправленным.

Литература:

1. *Муртазина, Д. Р. (2023). МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 139-145.*

2. *Шакирова, Л. Ф., & Муртазина, Д. Р. ПРИМЕНЕНИЕ АУДИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ. УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА, 77.*

3. *Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 26-28.*

4. *Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2021). Изменения в цифровой коммуникации во время глобальной пандемии COVID-19. Молодой ученый, (21), 90-92.*

5. *Кузиев, Б. (2023). ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБРАЗОВАНИИ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 14-17.*

6. *Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ. Экономика и социум, (5-2 (108)), 786-789.*

7. *Кузиев, Б. Н., Холмуминова, Д. А., & Муртазин, Э. Р. Электронное обучение как часть образовательного процесса. Ученый XXI века, 1, 43.*

8. *Эмиль, М. (2023). ОБЛАСТИ ЗНАНИЙ ДЛЯ РОБОТОТЕХНИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 18-20.*

ИНТЕГРАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Муртазина Диана Рахибовна
Магистр группы 521-23 направления «История и теория педагогики»
Джизакский государственный педагогический университет
E-mail: kirenakirka.fr@inbox.ru

Аннотация: *Данная статья рассматривает важность интеграции компетентности и ответственности в учебный процесс педагогического образования. Авторы обсуждают практические аспекты этой проблемы и предлагают рекомендации для образовательных учреждений, направленные на формирование компетентных и ответственных педагогов. Основные аспекты обсуждения включают разработку программ, практическую ориентацию учебного процесса, развитие межличностных навыков, внедрение этического компонента и систему оценки и обратной связи.*

Ключевые слова: *Педагогическое образование, компетентность, ответственность, учебный процесс, образовательные программы, практическая ориентация, межличностные навыки, этические принципы, оценка, обратная связь.*

КОМПЕТЕНТЛИК ВА ЖАВОБГАРЛИКНИ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ЎҚУВ ЖАРАЁНИГА ИНТЕГРАЦИЯ ҚИЛИШ: АМАЛИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ТАКЛИФЛАР.

Murtazina Diana Rahibovna
"Pedagogika tarixi va nazariyasi" 521-23-guruh magistri
Jizzax davlat pedagogika universiteti
E-mail: kirenakirka.fr@inbox.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kompetentsiya va mas'uliyatni o'qituvchilar ta'limining ta'lim jarayoniga kiritish muhimligi ko'rib chiqiladi. Mualliflar ushbu muammoning amaliy jihatlarini muhokama qiladilar va malakali va mas'uliyatli o'qituvchilarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar berishadi. Munozaraning asosiy jihatlari dasturni ishlab chiqish, o'quv jarayonini*

amaliy yo'naltirish, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, axloqiy komponentni va baholash va qayta aloqa tizimlarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *O'qituvchi ta'limi, kompetentsiya, mas'uliyat, o'quv jarayoni, o'quv dasturlari, amaliy yo'naltirish, shaxslararo munosabatlar, axloqiy tamoyillar, baholash, fikr-mulohaza.*

INTEGRATION OF COMPETENCE AND RESPONSIBILITY INTO THE LEARNING PROCESS OF TEACHER EDUCATION: PRACTICAL ASPECTS AND RECOMMENDATIONS

Murtazina Diana Rakhibovna
Master of group 521-23 direction "History and Theory of Pedagogy"
Jizzakh State Pedagogical University
E-mail: kirenakirka.fr@inbox.ru

Abstract: *This article examines the importance of integrating competence and responsibility into the educational process of teacher education. The authors discuss the practical aspects of this problem and offer recommendations for educational institutions aimed at developing competent and responsible teachers. Key aspects of discussion include program development, practical orientation of the educational process, development of interpersonal skills, implementation of an ethical component and assessment and feedback systems.*

Key words: *Teacher education, competence, responsibility, educational process, educational programs, practical orientation, interpersonal skills, ethical principles, assessment, feedback.*

Введение

Педагогическое образование играет ключевую роль в формировании качественной системы образования, определяя будущее общества через подготовку высококвалифицированных педагогов. Сегодняшний образовательный ландшафт стал сложнее и разнообразнее, требуя от педагогов не только профессиональных компетенций, но и высокой степени ответственности перед обучающимися и обществом в целом [1]. В этом контексте важно осуществлять интеграцию компетентности и ответственности в учебный процесс педагогического образования.

Эта статья сосредоточена на рассмотрении практических аспектов данной темы и предложении конкретных рекомендаций для образовательных

учреждений. Мы остановимся на различных аспектах интеграции компетентности и ответственности, начиная от разработки образовательных программ и заканчивая системой оценки и обратной связи.

Путем рассмотрения этих вопросов мы стремимся обеспечить подготовку педагогов, способных эффективно справляться с вызовами современного образования и вносить значимый вклад в развитие образовательной среды [2].

1. Разработка компетентностно-ориентированных программ

Первым шагом к интеграции компетентности и ответственности в учебный процесс является разработка соответствующих программ. Программы должны опираться на современные педагогические подходы, учитывать требования рынка труда и основываться на стандартах качества. Важно, чтобы в них были четко определены цели, задачи и результаты обучения, связанные как с профессиональной компетентностью будущих педагогов, так и с их этической ответственностью [3].

2. Практическая ориентация учебного процесса

Интеграция компетентности и ответственности также требует акцента на практической ориентации учебного процесса. Студенты должны иметь возможность применять полученные знания и навыки на практике, в реальных образовательных ситуациях [4]. Это может быть достигнуто через стажировки, педагогическую практику, проектные работы и другие формы активного обучения.

3. Развитие межличностных навыков

Кроме технических и методических аспектов, педагогическое образование должно уделять внимание развитию межличностных навыков у будущих педагогов. Это включает в себя умение эффективно взаимодействовать с учащимися, родителями, коллегами и другими участниками образовательного процесса. Работа над коммуникативными навыками, умение решать конфликты и строить доверительные отношения играют важную роль в формировании ответственной педагогической личности [5].

4. Этический аспект обучения

Не менее важным является внедрение этического компонента в учебный процесс. Студентам необходимо осознавать свою ответственность перед обучающимися, соблюдать профессиональные и этические стандарты, а также принимать этически обоснованные решения в сложных ситуациях [6]. Обсуждение этических дилемм и проведение тренингов по развитию морального

сознания способствует формированию ответственной педагогической личности.

5. Оценка и обратная связь

Наконец, важно иметь систему оценки и обратной связи, которая позволяет студентам осознавать свой уровень компетентности и ответственности, а также получать рекомендации по их улучшению. Это помогает стимулировать саморефлексию и постоянное развитие как профессионала.

Заключение

Интеграция компетентности и ответственности в учебный процесс педагогического образования представляет собой ключевой аспект формирования качественной системы образования [7]. В ходе данной статьи мы рассмотрели различные практические аспекты этой проблемы и предложили конкретные рекомендации для образовательных учреждений. Важно отметить, что разработка компетентно-ориентированных программ, практическая ориентация учебного процесса, развитие межличностных навыков, внедрение этического компонента и система оценки и обратной связи – все это необходимо для формирования ответственных и компетентных педагогов.

Будущее образования зависит от того, как эффективно мы сможем интегрировать эти принципы в педагогическое образование. Необходимо продолжать исследования в этой области, развивать лучшие практики и совершенствовать методы подготовки педагогов [8]. Итак, реализация рекомендаций, высказанных в этой статье, позволит обеспечить подготовку квалифицированных и ответственных педагогов, способных успешно справляться с вызовами современного образования и вносить положительные изменения в образовательную среду.

Литература:

9. *Муртазина, Д. Р. (2023). МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 139-145.*

10. *Шакирова, Л. Ф., & Муртазина, Д. Р. ПРИМЕНЕНИЕ АУДИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ. УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА, 77.*

11. *Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 26-28.*

12. *Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2021). Изменения в цифровой коммуникации во время глобальной пандемии COVID-19. Молодой ученый, (21), 90-92.*

13. *Кузиев, Б. (2023). ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБРАЗОВАНИИ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 14-17.*

14. *Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ. Экономика и социум, (5-2 (108)), 786-789.*

15. *Кузиев, Б. Н., Холмуминова, Д. А., & Муртазин, Э. Р. Электронное обучение как часть образовательного процесса. Ученый XXI века, 1, 43.*

16. *Эмиль, М. (2023). ОБЛАСТИ ЗНАНИЙ ДЛЯ РОБОТОТЕХНИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 18-20.*

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogika hamda ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaring o‘rni hamda ularning qo‘llash orqali yuzaga keladigan imkoniyatlar haqida so‘z yuritilgan. Muallif tomonidan bir necha misollar orqali texnologiyalar sababli yuz berayotgan o‘zgarish hamda o‘rganuvchilar uchun yuzaga kelgan imkoniyatlarni tavsiflab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim jarayoni, o‘rganuvchilar, axborot texnologiyalar, elektron doska, o‘quv adabiyotlari.*

Аннотация: *В данной статье говорится о роли современных информационных технологий в педагогическом и образовательном процессе и возможностях, создаваемых их использованием. На нескольких примерах автор описывает изменения, происходящие благодаря технологиям, и возможности, которые появились у студентов.*

Ключевые слова: *учебный процесс, студенты, информационные технологии, электронная доска, учебная литература.*

Abstract: *This article talks about the role of modern information technologies in the pedagogy and educational process and the opportunities created by their use. Through several examples, the author describes the changes that are taking place due to technology and the opportunities that have arisen for students.*

Keywords: *educational process, students, information technology, electronic board, educational literature.*

KIRISH

Ma'lumki, 21-asr texnika taraqqiyoti asri hisoblanib, ular hayotning barcha jabhalarida o'z aksini topgan. Insoniyat yashar ekan, zamonaviy texnologiyalar u bilan hamohang tarzda yangilanib boradi. Ular insonlar uchun beminnat xizmat ko'rsatib, katta kuch hamda energiya talab etadigan yumushlarni qisqa fursatda hamda yuqori natijalar bilan qila oladi. Texnologiyalar hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, ta'lim jarayonlarida ham bevosita ishtirok etib kelmoqda.

METODLAR

Ma'lumotlarga ko'ra, pedagogikada zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ta'limda samaradorlikning ortishi hamda o'rganuvchilarning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishining o'sishiga olib keladi. Ayni shu sababdan ham pedagoglar ko'zlangan ta'lim sifatiga erishish maqsadida yangi texnologiyalardan unumli foydalanmoqdalar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'kidlab o'tilganidek, barcha sohalardagi kabi ta'lim jarayonida ham zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyos bo'lib, ular o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanishga imkoniyat yaratadi. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida keng foydalanilayotgan elektron uskunalar: doskalar, proyektor va kompyuterlar ushbu zamonaviy texnologiyalarning eng ommalashgan turiga misol bo'la oladi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonining samarali bo'lishi hamda o'rganuvchilarning o'qitish jarayoniga bo'lgan qiziqishini yanada ortishiga sabab bo'lmoqda.

Sir emaski, o'rganuvchilar hayotida smartfon, noutbuk kabi gadjetlarning o'rni hamda ularning kundalik yumushlardagi ishtiroki sezirali darajada bo'lib, ularsiz ma'lum natijalarga erishish qiyinchilik tug'diradi. Ammo haddan ziyod ushbu texnologiyalardan foydalanish qaramlikka olib kelish ehtimoli mavjud. Shu sababdan ham ta'lim jarayoniga texnologiyalarning integrallashuvini yo'lga qo'yish eng yaxshi alternativlardan biri sifatida baholanadi.[1]

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi natijasida o'qitishning yangi metodlari yaratildi. Dars jarayonida elektron adabiyotlardan foydalanish, Power Point dasturini qo'llagan holda mavzularni o'rganuvchilarga tushuntirish hamda o'quvchilarda texnologiyalardan qay tartibda unumli foydalana

olish mahoratlarini shakllantirish ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning integrallashuvining ijobiy tomonlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, butun dunyo bo'ylab ommalashayotgan onlayn dars hamda baholash tizimi ham texnologiyalarning ta'limda o'z aksini topishidir.[2] Ushbu imkoniyatlar tufayli o'quvchilar mustaqil ravishda o'rganish hamda ballarini doimiy ravishda kuzatib borish imkoniga ega bo'ladilar.

O'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash o'rganuvchilarning mavzu haqidagi tasavvuri hamda bilimini kengaytirishga yo'l ochadi. Misol sifatida 3D texnologiyalarining imkoniyatlarini olishimiz mumkin. O'quvchilar barcha materiallar, jumladan, mexanikada turli uskunlar hamda tibbiyotda inson organizmidagi a'zolarni ko'ra olish imkoniga ega bo'lmasliklari mumkin. Ammo 3D texnologiyalari yordamida o'quvchilar nomlari keltirilgan narsalarning asl holatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rishga muvaffaq bo'ladilar.[3]

O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'limda keng qo'llaniluvchi adabiyotlar salmog'ini kengaytirishga imkon beradi. Ma'lumki, ba'zi o'quv adabiyotlarining yangi nashrlaridan foydalanishning imkoni har doim ham bo'lavermaydi. Ushbu holatni inobatga olgan holda, ularning elektron variantlarini qo'llash hamda ommalashtirish yaxshi natijalarga olib keladi. Qo'shimcha ravishda ularni nafaqat bir yoki ikki, balki undan-da ko'proq auditoriya hamda o'rganuvchilar davrasida foydalanish imkonini yaratadi.[4. B 364]

Dunyo bo'ylab olimlar texnologiyalarning ta'lim jarayonida integrallashuviga bag'ishlab turli tajribalarni o'tkzaib kelmoqdalar. Jumladan, Nyu-Meksiko shtat universiteti muhandislik kollejida ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga doir tajriba o'tkazilgan bo'lib, u quyidagicha amalga oshirildi. Professor-o'qituvchilar sinfda o'quvchilarning faolligi, shu bilan birgalikda ularning jamoa sifatida ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida mini elektron doskadan foydalandilar. Ushbu tajriba orqali o'quvchilar onlayn ravishda topshiriqlarni olish va bajarish, guruh bilan ishlash hamda bir-birlari bilan samarali muloqot olib borish kabi ko'nikmalarga ega bo'ldilar. Ushbu tajriba ta'limda axborot texnologiyalarning qay darajada muhim ekanligi oddiygina doska yordamida tushuntira olgan amaliyotdir. [5]

XULOSA

Zamon rivojlangani sayin axborot texnologiyalaridan hayotning barcha jabhalarida foydalanilmoqda. Ta'lim hamda pedagogika sohalari ham mustasno bo'lmagan holda yangi texnologiyalarni ommaviy qo'llab kelmoqda. Bu esa o'quv jarayonini qiziqarli qilish, o'rganuvchilar e'tiborini darslarga qaratish hamda yuqori natijalarga erishish uchun yo'l ochmoqda. Shu boisdan ham texnologiyalarni ushbu

sohalarda qo‘llash yil sayin oshmoqda. Maqolada keltirib o‘tilgan hayotiy tajriba ham yuqoidagi fikrlarning yaqqol isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. https://www.sydle.com/blog/new-technologies-in-education-63ef92977f03ed13ae2d1909
7. https://drexel.edu/soe/resources/student-teaching/advice/how-to-use-technology-in-the-classroom/
8. https://resources.cadimensions.com/cadimensions-resources/how-technology-supports-pedagogy-in-education
9. Tojiyev, N. Adilov, A. “Dars sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. B 364.
10. Libermen, M. “Looking Back on This Year’s Classroom Experiments”. Inside Higher Education. May 21, 2019.

MUSIQA SAN’ATINING YOSHLAR MA’NAVIY KAMOLOTIDAGI O‘RNI

Samiyev Baxtiyor Norbobo o‘g‘li,
O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada biz, hozirgi globallashuv jarayonlarida voyaga yetayotgan yoshlarimizning milliy va ma’rifiy hayotida musiqa san’atining o‘rni haqida fikr bildiramiz va musiqa san’atining yosh avlod tarbiyasi bilan qanday bog‘liqligini ko‘rib chiqamiz.*

Tayanch so‘zlar: *Musiqa, ta’lim-tarbiya, madaniyat va san’at, strategiya, festival, tanlov, milliy meros, ma’naviy muhit, to‘graklar, iste’dod, cholg‘u.*

Аннотация: *В этой статье мы прокомментируем роль музыки в национальной и образовательной жизни нашей молодежи, взрослеющей в условиях современного процесса глобализации, и рассмотрим, как музыка связана с воспитанием подрастающего поколения.*

Ключевые слова: *Музыка, образование, культура и искусство, стратегия, фестиваль, конкурс, национальное наследие, духовная среда, кружки, талант, музыкальный инструмент.*

Abstract: *In this article, we will comment on the role of music in the national and educational life of our youth growing up in the current globalization process, and consider how music is related to the education of the younger generation.*

Key words: *Music, education, culture and art, strategy, festival, contest, national heritage, spiritual environment, circles, talent, musical instrument.*

Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat va e'tibor, mustaqil vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasning strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Qator aytilgan bu fikrlar zamirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta'lim-tarbiyasi nafaqat o'zlari uchun, balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga: "Agar mendan sizni nima qiynaydi", deb so'rasangiz farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman", – degan pur ma'no so'lari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bu o'rinda milliy musiqa san'ati yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda katta tarbiyaviy va badiiy estetik imkoniyatlarga ega. Yoshlarning badiiy ijodiyot sohasidagi iqtidorini ro'yobga chiqarishda, ularning estetik ehtiyojlarini qondirishda musiqa ta'limi alohida o'rin egallaydi. Bunda yoshlar ijodiyot uylari, saroylari, o'lkashunoslik va sayyohlik markazlari, bolalar qo'g'irchoq va yosh tomoshabinlar teatrlari, sport va musiqa maktablari, yozgi oromgohlar va boshqa muassasalar tomonidan olib boriladigan tadbirlarni tilga olish mumkin.

O'zbekistonda yosh avlodning ma'naviy hayotini yuksaltirish, ularning axloqiy-estetik qadriyatlar mazmun-mohiyatini anglash, musiqa san'atini madaniy hayotiga chuqurroq kirib borishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, respublikamizda milliy musiqa san'atimiz va madaniyatimizni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan tanlovlar, xalqaro musiqa festivali kabi qator nufuzli tadbirlarni alohida qayd etish mumkin. Masalan:

- "Yosh vokal ijrochilari" tanlovi;
- "Ta'tildagi yulduzlar" onlayn tanlovi;
- "Qalb" nomli Respublika iqtidorli yosh ijrochilari onlayn tanlovi;

- “San’atim senga, obod yurtim!” ijodiy ko‘rik-tanlovi;
- “Yoshlik bahori” yosh opera ijrochilari tanlovi;
- “Yilning eng faol talabalar teatr studiyasi – 2022”;
- “Xush kayfiyat” respublika tanlovi;
- “Jaloliddin Manguberdi” kelajak milliy qahramoni obrazi tanlovi;
- “Eng yaxshi spektaklllar” tanlovi;
- “Yangi O‘zbekistonning yangi taronalari”;
- “Debyut–2022” – yosh rejissyorlar ko‘rik-tanlovi;
- “Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari” respublika tanlovi;
- “Iste’dodlar kamalagi” ko‘rik-tanlovi (imkoniyati cheklanmagan yoshlar o‘rtasida);
- “Xorazm maqomlari” V respublika televizion ko‘rik-tanlovi;
- “Ona diyor kuychisi” respublika ko‘rik-tanlovi
- Botir Zokirov nomidagi zamonaviy estrada qo‘shiqchilari ko‘rik-tanlovi;
- Nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida "Eng yaxshi kitobxon" respublika ko‘rik-tanlovi;
- “Maqom yo‘llarida yaratilgan eng yaxshi asar” ko‘rik-tanlovi va boshqalar.

Qadimiy va boy tajribaga ega o‘zbek milliy musiqa madaniyati yosh avlodni tarbiyalash va tarbiyalashning asosiy vositasidir. Shu o‘rinda “ustoz-shogird” an’anasini misol qilib olish o‘rinlidir. Qadimda musiqa o‘rganish istagida bo‘lgan yoshlar ustoz sozandaga shogird (shogird) qilib, unga xizmat qilib, uning xonadonida uzoq yillar yashab, nafaqat ustozning san’atdagi mahoratini, balki uning barcha ijobiy fazilatlarini ham o‘ziga singdirishgan. insoniy fazilatlar. Vaqt o‘tishi bilan “ustoz-shogird” an’anasi hunarmandchilik maktablarining paydo bo‘lishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Respublikamizda musiqa pedagogikasi yo‘nalishida izlanishlar olib borgan yetuk olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham zamonaviy musiqa o‘qituvchisining professional tayyorgarlik darajasiga qo‘yilayotgan talablar ham musiqaning yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilishda, uni yuksaltirishda muhim o‘rin egallaydi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, agar o‘quvchi yoshlarda musiqa san’atining biron-bir turiga qiziqish paydo bo‘lsa, u darslarga qiziqish bilan tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi, musiqa darslari bo‘lishini kutadi, o‘zini namoyon qilish, bilganlarini amalda ko‘rsatish bilan ko‘pchilik oldida g‘ururlanish istagi bilan bog‘liq kechinmalar paydo bo‘ladi. Umuman olganda har bir fan ma’lum darajada boshqa fanlar bilan o‘ziga xos tarzda va ko‘rinishda bog‘langan bo‘ladiki, bu bog‘lanish musiqaning nazariy va amaliy ijrochilik bilan bog‘liq o‘qitish jarayonida ko‘proq va yorqinroq namoyon bo‘ladi. Shunday ekan,

fanlar a'loqadorligi va bog'liqligidan oqilona va o'rinli foydalanish musiqa o'qituvchisidan barcha fanlar bo'yicha keng bilimlarga hamda musiqa san'atining bir qancha yo'nalishlaridan yetarli darajada boxabar, nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab qiladi. Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikdan tashkil etish, ilg'or innovatsion texnologiyalaridan, ilg'or ish tajribalardan foydalanish, yangi va samarali ish usul va shakllarini ijod etish va qo'llash davr talabidir. Bolada musiqa tuyg'usini yoshligidan tarbiyalash kerak, bu uning ruhiy holatini mustahkamlashga yordam beradi. Darhaqiqat, musiqa nafaqat inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi samarali vosita, balki tarbiya vositasi hamdir. Yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishida musiqaning o'rni katta. Musiqa shaxsning ma'naviy rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Musiqaning g'oyaviy mazmuni nafaqat yosh avlod, balki butun insoniyat tarbiyasi bilan bog'liqdir. Bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi, avvalo, milliy musiqamizni idrok etishdan boshlanishi lozim. Milliy istiqlol sharofati bilan milliy musiqiy merosimizga milliy-ma'naviy qadryatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Endilikda biz xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir-biridan go'zal mahalliy musiqiy an'analarini tinglab idrok etish va ulardan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik. Milliy musiqa xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi go'zal badiiy ifodasi bo'lish bilan bir qatorda yangi, buyuk davlat bunyodkorligi yo'lida tinmay mehnat qilayotgan xalqimizga, jamiyatimiz ma'naviy ruhiy quvvat bag'ishlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarga musiqa va musiqa cholg'ulari darslari asosida dars berishda nafosat, musiqa fiziologiyasi, musiqa psixologiyasi kabi qator fanlar tajribasiga tayanish zarur. Musiqa inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq va ayni paytda unga ta'sir qiluvchi eng oson kuchdir. Misol tariqasida, Germaniyalik olimlar izlanishlaridan ma'lum bo'ldiki, turli musiqa asboblaridan taraladigan kuylar inson organizmiga turlicha ta'sir etarkan. Masalan:

- Arfa – yurak faoliyatini yaxshilaydi;
- Baraban – qon aylanishini yaxshilaydi;
- Saksofon – ishtiyoqni kuchaytiradi;
- Skripka – kayfiyatni ko'taradi;
- Organ – osteoxondrozdagi og'riq hissini kamaytiradi;
- Fortepiano – moddalar almashinuvini yaxshilaydi.

Musiqa asarini ongli idrok etish, asar mazmunini tushuntirishda yoshlarning musiqa tinglash darslarini to'g'ri tashkil etish juda muhimdir. Bu ularga tajriba to'plash va undan to'g'ri foydalanishga yordam beradi, shu orqali ma'naviy dunyosini boyitadi. Shaxsning musiqiy madaniyati nafaqat maktab ta'sirida, balki, u uyda, jamoat

joylarida, to‘y va bayramlarda shakllanadi. Bu erda ommaviy axborot vositalari ham katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki, sog‘lom oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi turli voqeahodisalar, urf-odat, madaniyat va san’atga oid taassurotlari ko‘pincha ijobiy kechadi. Oiladagi birdamlikda oynai jahon orqali badiiy ko‘rsatuv, konsert, sepektakl tomosha qilish va mana shu tomoshadagi taassurotlarni farzandlar bilan o‘rtoqlashish bola dunyoqarashini kengaytiradi va boyitadi. Xususan, musiqaga oilaviy muhiti yiroq bo‘lgan bolalarni qiziqtish uchun ham va qiziqqan bolalarni yanada dunyoqarashini boyitish uchun ham o‘rta ta’lim maktablarida, maktabgacha ta’lim muassasalarida san’at ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar, ko‘ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish, ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, o’quvchi yoshlarning qiziqishini oshirib, bo‘sh vaqtlarini behuda sarflamasliklarini oldini oladi. Bejizga Prezidentimiz bugungi kunda yurtimizda amalgaoshirilayotgan “Besh muhim tashabbus”ni joriy qilmadi. Aynan shu besh tashabbusning birinchi yo‘nalishi musiqa va san’atga bag‘ishlangan. Ayniqsa, Prezidentimiz qarori bilan 2022-2023-o‘quv yilidan umumiy o‘rta talim olishda o‘quvchilarga milliy musiqa cholgularidan kamida bittasini chala olishi o‘rgatiladi va bu bitiruvchilarning shahodatnoma sahifasida qaid qilnadi. 10130 ta maktab, 323 ta bolalar musiqa maktabi, 837 ta madaniyat markazi 7 ta milliy cholg‘ular bilan 3 to‘plamdan taminlanadi. Buning uchun 205 mlrd. so‘m ajratiladi. Bundan anglashiladi-ki, musiqa va milliy cholg‘ularimizning yosh avlod tarbiyasida roli katta.

Ko‘rib turganingizdek, inson hayotida musiqaning o‘rni nihoyatda kuchli. Xulosa o‘rinda yana bir fikrni aytib o‘tish joizdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida: “Eng muhimi bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko’rsatmoqda”, – deb musiqa san’atining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tgan. Shunday ekan, musiqa san’ati hamda tarbiyasi shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarning qalbida milliy ruhni kamol toptirish, ma’naviy va axloqiy madaniyatni, musiqiy didni shakllantirish, musiqiy tasavvurlarni yanada boyitish hamda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini, tashabbuskorlik qobilyatlarini kamol toptirish, demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2018-yil 28-noyabr O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori.

2. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 298-bet.
3. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. 2008-il.
4. Yu Rajabiy. Shashmaqom tarixi I-VI. Badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent: 1970-yil.
5. Ibragimov O. va boshqalar. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. Toshkent. 2007-yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yildagi respublika tanlovlari dayjesti. (Telegram kanali materiallari).
7. Ilhomov M. Yoshlar tarbiyasida she’r va qo‘shiq. Toshkent. 2010-yil.
8. Ijodiy parvoz gazetasining. 2022-yil 10-soni. 2023-yildagi 1-soni.

INTEGRATING ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN INCLUSIVE EDUCATION

Mamadaliyeva Sarvinoz Azamat qizi
Namangan State Pedagogical Institute
Faculty of social and humanitarian sciences, Foreign language and literature: English major, student of XTA-AR-22 group
e-mail: mamadaliyeva0509@gmail.com

Annotation
This article delves into the significance of integrating English Language Teaching (ELT) into inclusive education frameworks. It explores the challenges, benefits, and strategies associated with teaching English to students with diverse learning needs within inclusive classrooms. Drawing upon empirical research and educational best practices, this article provides insights into effective pedagogical approaches, teacher training requirements, and policy implications to support the successful implementation of ELT in inclusive settings.
Keywords: *Inclusive education, English Language Teaching (ELT), diversity, pedagogical approaches, teacher training, policy implications*
Annotatsiya
Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishni (ELT) inklyuziv ta'lim tizimiga integratsiyalashning ahamiyatini o'rganadi. U inklyuziv sinflarda turli xil ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan talabalarga ingliz tilini o‘rgatish bilan bog‘liq qiyinchiliklar, imtiyozlar va strategiyalarni o‘rganadi. Empirik tadqiqotlar va ilg‘or ta’lim amaliyotlariga tayangan holda, ushbu maqola samarali pedagogik yondashuvlar,

o'qituvchilarni tayyorlash talablari va inklyuziv sharoitlarda ELTni muvaffaqiyatli amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash siyosatining oqibatlari haqida tushuncha beradi.
Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, ingliz tilini o'qitish (ELT), xilma-xillik, pedagogik yondashuvlar, o'qituvchilar malakasini oshirish, siyosatning ta'siri*

Аннотация

В этой статье рассматривается значение интеграции преподавания английского языка (ELT) в рамки инклюзивного образования. В нем исследуются проблемы, преимущества и стратегии, связанные с преподаванием английского языка учащимся с различными потребностями в обучении в инклюзивных классах. Опираясь на эмпирические исследования и передовой образовательный опыт, эта статья дает представление об эффективных педагогических подходах, требованиях к подготовке учителей и политических последствиях для поддержки успешного внедрения ELT в инклюзивных условиях.
Ключевые слова: *инклюзивное образование, преподавание английского языка (ELT), разнообразие, педагогические подходы, подготовка учителей, политические последствия.*

Introduction

Inclusive education aims to provide quality education for all students, regardless of their differences in abilities, backgrounds, or needs. Within this context, the integration of English Language Teaching (ELT) presents both opportunities and challenges. This section provides an overview of the rationale for integrating ELT in inclusive education, highlighting the importance of linguistic proficiency and communication skills in fostering academic success and social inclusion.

Challenges in Teaching English in Inclusive Education

Educators face several difficulties while teaching English in inclusive settings due to different needs, abilities, and backgrounds of students. These challenges require careful consideration and implementation of effective strategies to ensure equitable access for all learners to quality language education. This part highlights some of the main problems experienced by teachers working in inclusive English Language Teaching (ELT) settings, supported by examples from and references to appropriate academic literature.

1. Language Proficiency Disparities

Another challenge is significant variation in students' language proficiency when teaching English in inclusive settings. In one diverse classroom, there are ELLs with limited proficiency alongside native speakers or individuals who are fluent in the

language [1]. Designing instruction that meets the needs of all learners under these circumstances can be problematic.

For instance, there could be a mainstream classroom which comprises pupils rooted from various linguistic backgrounds such as monolinguals who speak only English; bilinguals; and new immigrants with minimal grasp of the English language.Balancing the needs of these diverse learners while delivering English language instruction presents a considerable challenge.

2. Limited Access to Resources

Inclusive classrooms frequently encounter resource restrictions, such as limited access to English language instructional materials, technology, and qualified workers. Without enough resources, teachers may struggle to offer individualised education and assistance to kids with varying needs [2].

For example, a low-income school may not have the money to buy current English language textbooks, language instruction software, or multimedia tools. As a result, teachers must rely on obsolete materials or personal resources, which limits their capacity to provide effective English language education.

Pedagogical Approaches to Inclusive English Language Teaching (ELT)

Inclusive ELT encourages educators to use pedagogical techniques that accommodate various learners and promote equal access to English language training. Teachers can use inclusive pedagogies to establish supportive learning settings in which all students, regardless of background or ability, can actively participate in language learning. This section investigates essential instructional techniques for inclusive ELT, presenting examples and citing relevant research material to support each approach.

1. Differentiated Instruction

Adapting teaching strategies, resources, and evaluation procedures to the various learning requirements of the students in the classroom is known as differentiated instruction [3]. To accommodate students with varying levels of language competency, teachers can diversify instruction in the context of ELT by giving numerous entrance points, a variety of learning tasks, and adjustments to the pace and complexity of activities.For instance, a teacher may diversify teaching in a mixed-ability English language class by giving advanced pupils extended assignments, scaffolding for struggling readers, and levelled reading materials. Teachers can guarantee that all students have access to meaningful language learning experiences by customising instruction to each student's requirements.

2. Cooperative Learning

Students engage in cooperative learning activities in small groups to accomplish shared learning objectives [4]. Cooperative learning activities encourage peer contact,

language practice, and support among students with different language proficiency levels in an inclusive ELT classroom.For instance, in a class on language acquisition, students could participate in cooperative writing projects, role-plays, or language games in pairs or groups. Students may practise their English language skills in a supportive setting, gain peer feedback, and improve their social and communication skills in addition to their language ability by cooperating.

Conclusion

In summary, it is imperative that English Language Teaching (ELT) be incorporated into inclusive education environments to guarantee that all students, irrespective of their varied learning requirements, have fair access to high-quality instruction. Even if there are obstacles like differences in language competency and resource accessibility, successful pedagogical strategies like tailored teaching and cooperative learning may solve these problems and establish encouraging learning environments. Language competency, communication skills, and social inclusion among all learners may be promoted by educators by putting into practice inclusive ELT techniques that are backed by empirical research and educational best practices. In order to promote the effective implementation of ELT in inclusive classrooms and eventually contribute to the academic achievement and holistic development of every student, policymakers must also give priority to teacher training and resource allocation.

References:

1. Cummins, J. (2008). BICS and CALP: Empirical and theoretical status of the distinction.
2. Florian, L. (2008). Special educational needs and inclusive education: Principles and practice.
3. Tomlinson, C. A., et al. (2003). The differentiated classroom: Responding to the needs of all learners.
4. Johnson, D. W., et al. (2014). Cooperative learning in the classroom.

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSION YONDASHUV

Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti 2-kurs magistranti
E-mail: *FayzullayevaMadina007@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy pedagogika va hozirgi kunda pedagogikada qanday axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali o'quvchilarni darslarni yanada samaraliroq o'zlashtirishlariga erishish haqida so'z boradi. Shuningdek, zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari kengroq qo'llash uchun foydalanish mumkin bo'lgan usullar orqali o'quvchilarga samarali ta'lim berish, ularning motivatsiyasini oshirish va ma'lumotlarini yanada mustahkamlash imkoniyatini qo'lga kiritish mumkinligi o'z isbotini topgan.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy pedagogika, axborot texnologiyalari, innovatsiya, motivatsiya, interaktiv darsliklar, ta`lim platformalari, virtual labaratoriya.*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о современной педагогике и о том, какие информационные технологии и инновационные подходы сегодня используются в педагогике, чтобы помочь учащимся более эффективно усваивать уроки. Также доказано, что в современной педагогике можно эффективно обучать студентов, повышать их мотивацию и получать возможность дальнейшего закрепления своих знаний с помощью методов, которые можно использовать для более широкого применения информационных технологий.*

Ключевые слова: *современная педагогика, информационные технологии, инновации, мотивация, интерактивные учебники, образовательные платформы, виртуальная лаборатория.*

Annotation. *This article illustrates about modern pedagogy and what kind of information technologies and innovative approaches are used in pedagogy today to help students learn lessons more effectively. It has also been proven that in modern pedagogy, it is possible to effectively teach students, increase their motivation, and gain the opportunity to further strengthen their knowledge through methods that can be used for wider application of information technologies.*

Keywords: *modern pedagogy, information technologies, innovation, motivation, interactive textbooks, educational platforms, virtual laboratory.*

Kirish. Zamonaviy pedagogika jamiyatning o'zgaruvchanliklariga va yangi texnologiyalarga asoslangan, o'quvchilarning ma'lumotlarni o'rganish va rivojlantirishda innovatsion metodlarni qo'llab-quvvatlaydigan pedagogik jarayonlarni ifodalovchi bir pedagogik yo'nalishdir. Bu yo'nalishda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishlariga e'tibor beriladi va ularning o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash uchun yangi va samarali ta'lim usullari qo'llaniladi. Zamonaviy pedagogika, traditsion

pedagogik metodlardan farqli ravishda, o‘quvchilarning faoliyatlariga va interaktivlikka e'tibor beradi. Bu jarayonlarda o‘quvchilar masalalarga o‘z fikrlarini qo‘yish, muhokama qilish va amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday yakuniy pedagogik jarayonlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ma’lumotlarni yaxshi o‘rganishlarini ta’minlaydi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar o‘quv jarayonlarini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun muhimdir. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning ma’lumotlarni o‘rganish va tushunish darajasini oshirishga, jumladan, axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarga ma’lumotlarni o‘rganishda samaraliligini ta’minlaydi. Bu yondashuvlar multimedia materiallar, animatsiyalar va interaktiv vazifalar orqali o‘quvchilarning tushunish darajasini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda interaktiv darsliklar, onlayn ta’lim platformalari va virtual laboratoriyalar o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqarli va motivatsiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning ilg‘or ta’limni sevimliroq va samarali qilishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarning kolloborativ (hamkorlikda) ishlash imkoniyatini yaratishga, ya`ni, kolloborativ ta’lim modeli axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilarning bir-birlari bilan fikr almashish, masalalarni muhokama qilish va jamoatchilikni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi [1]. Bu yondashuvlar o‘quvchilarni ishonchli, hamkorlikda ishlashga oshiradi.

O‘quvchilarning o‘zlashtirilgan ta’lim yo‘llarida rivojlanishiga yordam beradi, jumladan, o‘quvchi-mustaqil ta’lim muhitlari yaratish va axborot texnologiyalari yordamida o‘quvchilarga o‘zining o‘rganish yo‘li va tempini tanlash imkoniyatini berish muhimdir. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan ta’lim yo‘llarida rivojlanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar o‘quv jarayonlarini samarali, qiziqarli va maqsadga muofiq shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning ma’lumotlarni o‘rganish, tushunish darajasini oshirish, motivatsiyasini oshirish va kolloborativ ishlash imkoniyatlarini yaratishda katta rola ega.

Materiallar va tadqiqot usullari. Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari kengroq qo‘llash uchun quyidagi usullar foydalanish mumkin:

- Interaktiv darsliklar: Axborot texnologiyalari yordamida interaktiv darsliklar tayyorlash va o‘quvchilarga taqdim etish mumkin. Bu darsliklar o‘quvchilarning ma’lumotlarni o‘rganishini oshiradi va ularni motivatsiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

- Onlayn ta'lim platformalari: Onlayn ta'lim platformalari o'quvchilarga iste'dodli va samarali ta'lim berish imkonini beradi. Bu platformalar orqali o'quvchilar o'z vaqtlarida darslarga qatnashish, vazifalarni bajarganliklarini tekshirish va o'qituvchilar bilan muloqotda bo'lishlari mumkin.
- Virtual laboratoriyalar: Axborot texnologiyalari yordamida virtual laboratoriyalar tuzish va o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar uchun imkoniyat yaratish mumkin. Bu laboratoriyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga aylantirish va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.
- Onlayn diskussiyalar va forumlar: O'quvchilar o'rtasida onlayn diskussiyalar va forumlar orqali fikr almashish, masalalarni muhokama qilish va bir-birlariga savollar berish imkoniyati yaratiladi [2]. Bu shaklda o'quvchilarning fikrlarini ifoda etish va ko'rsatishlari oshiriladi.
- Multimedia materiallar: Axborot texnologiyalari yordamida multimedia materiallar tayyorlash va ularga qo'shimcha ma'lumotlar qo'shish mumkin. Bu materiallar o'quvchilarning ma'lumotlarni o'rganishni oshiradi va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Bu usullar zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalarini kengroq va samarali qo'llashga imkon beradi va o'quvchilarning ma'lumotlarni o'rganish va rivojlantirish jarayonlarini yanada sifatli va samarali qiladi.

Natija va tahlil. Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar o'quv jarayonlarini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun keng qo'llaniladi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning ma'lumotlarni o'rganish va rivojlantirish jarayonlarini yanada tortib beringanligini ta'minlaydi.

Interaktiv darsliklar o'quvchilarga ma'lumotlarni o'rganishda interaktiv yondashuv beradi va ularni motivatsiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bu darsliklar multimedia materiallar, animatsiyalar va interaktiv vazifalar orqali o'quvchilarning tushunish darajasini oshirishga yordam beradi [3]. Onlayn ta'lim platformalari o'quvchilarga iste'dodli va samarali ta'lim berish imkonini beradi. Bu platformalar orqali o'quvchilar o'z vaqtlarida darslarga qatnashish, vazifalarni bajarganliklarini tekshirish va o'qituvchilar bilan muloqotda bo'lishlari mumkin. Axborot texnologiyalari yordamida virtual laboratoriyalar tuzish va o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar uchun imkoniyat yaratish mumkin. Bu laboratoriyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga aylantirish va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchi-mustaqil ta'lim muhitlari yaratish va o'quvchilarga o'zining o'rganish yo'li va tempini tanlash imkoniyatini beradi. Bu yondashuv o'quvchilarning o'zlashtirilgan ta'lim yo'llarida rivojlanishiga yordam beradi. Kolloborativ ta'lim

modeli o‘quvchilarning bir-birlari bilan fikr almashish, masalalarni muhokama qilish va jamoatchilikni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni ishonchli, hamkorlikda ishlashga oshiradi. Bu axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar zamonaviy pedagogikada o‘quv jarayonlarini yanada sifatli, samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi va o‘quvchilarning ma’lumotlarni o‘rganish va rivojlantirishni yanada tortib beringanligini ta’minlaydi.

Xulosa. Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlardan foydalanish umumiy xulosasi, o‘quv jarayonini o‘zgartirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ta’lim samaradorligini yuqori darajada oshirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar va yondashuvlar o‘quvchilarga interaktiv ta’lim imkoniyatlarini yaratish, o‘quv materiallarini eng muhim vaqt va joyda foydalanish imkoniyatini berish, o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan ta’lim usullariga mos kelishini ta’minlash va ularning kreativlik va muhokama qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda, o‘qituvchilar ham o‘quv jarayonini nazorat qilish va boshqarishda yordamchi bo‘ladi va ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babaeva, H. U. Q., & Toychieva, G. M. (2023). Texnologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari. *Academic research in educational sciences*, *4*(TMA Conference), 124-130.

2. Eshmuhamedov, L. M. (2023). 21-asr pedagogikasi: o ‘qitishning innovatsion usullari. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(14), 372-376.

3. Yigitalievich, X. Z. (2023). Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashdagi yondashuvlar. *So ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, *6*(2), 89-92.

ISAJON SULTON ASARLARIDAGI TASAVVIFIY OBRAZLAR TALQINI

Jo'rayeva Barno Alisher qizi
Namangan davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti
BU-23 yo'nalishi talabasi
barnojurayeva2005@gmail.com

Annotatsiya: *21-asr o'zbek adabiyotida buyuk siymo aks etayotgan,xalqning eng zamonaviy turmushida bo'layotgan voqea va hodisalarni o'zgacha uslubda namoyon etuvchi Isajon Sultonning asarlaridagi tasavvufiy obrazlarni o'rni o'zgachadir. Hamda*

yozuvchining asarlarida g'ayrioddiy mohiyatdagi voqealik tasviri muhim sanaladi. Ushbu maqolada tasavvufiy obraz va qarashlarni tahlil etishga harakat qildim.

***Kalit so'zlar**: tasavvuf, obraz, roman, hikoya, qissa,*

***Annotation:** The place of mystical images in the works of Isajon Sultan, who is a great figure in the 21st century Uzbek literature, who shows the events and happenings in the most modern life of the people in a unique style, has a special place. In this article, I tried to analyze mystical images and views.*

Key words: mysticism, image, novel, story, short story,

***Пояснение:** В творчестве Исаджона Султана, великого деятеля узбекской литературы XXI века, отражающего в своем стиле события и происшествия самой современной жизни народа, мистические образы занимают особое место. . В этой статье я попытался проанализировать мистические образы и видения.*

***Ключевые слова:** мистика, образ, роман, повесть, новелла.*

KIRISH.

Har bir mamlakat hayotida ma'lum davrlarda xalqning muammosi, bo'lib o'tayotgan voqealarga hamohang ravishda asarlar yozuvchi adiblari bo'ladi. Yurtimiz tarixida 20-asrlarda buyuk ijod etgan Abdulla Qadiriy, Cho'lpon, O'tkir Hoshimov, Pirimqul Qodirovkabi ko'plabadiblar ham o'tgan.21-asrga kelib, tabiiyki jamiyat ham o'zgargan. Shunga yarasha yangi davr romannavis va yozuvchilari voqeani davrga, undagi insonlarning dunyoqarash, fikrlash doirasidagi o'ylariga mos tarzda talqin etadilar. Jamiyat o'zgargani sababli yoziladigan asarlar ham o'zgarib boradi. Bu haqda yozuvchining o'zi bilan bo'lgan suhbatdan shular yozib olingan"Bugun ahvol anchayin boshqacha. Yo ommaga manzur bo‘ladigan, uning yeyish-ichish, kiyinish kabi ehtiyojlariga o‘xshagan, dam olish, hordiq chiqarish ehtiyojiga xizmat qilish kerak, yo yuksak san‘at uchun. Rumiy aytadiki, inson uchun yemoq, uxlamoq va o‘yin-kulgi qilmoqdan boshqa yana bir ozuqa bor. Ko‘pchilik dunyoda shu ozuqani unutadi-da, o‘zgasi bilan mashg‘ul bo‘ladi. U ot, u ulov - vujuddir, Tangri taolo insonni vujud degan bir ot bilan siylagan. Kimdir u vujudni kecha-kunduz moddiy oziq bilan boqadi, biroq, otning ozuqasi uning egasining ozuqasi bo‘lolmaydi. Egasining, ya‘ni ruhning o‘z ozuqasi, o‘z ne‘matlari bor. Shu sababdan ham san‘at ahli har doim himoyada bo‘lib kelgan. Aynan yuksak san‘atning bozor qonunlari oyoq ostida qolib ketmasligi uchun ham uni davlat o‘z himoyasiga olishi kerak. Bu himoya global shaklda bo‘ladi, san‘at shu himoya ostida o‘z durdonasini yaratadi. Demakki, bozor - san‘atni o‘ldiradi va tovarga aylantirib sotib yuboradi, shu boisdan ham fabrikadan chiqqan mol kabi kuniga o‘n minglab, yuz minglab mahsulot talab qila boshlaydi. Yuksak san‘atning joyi

bozor emas, uning ishi - aynan Ruh ozuqasini yaratish." Biz gapirmoqchi bo'lgan Isajon Sulton ham xuddi shunday zamonaviy yozuvchilardan biridir. Uning yozgan roman, hikoya, qissalarida yangi davrga xos bo'lgan tasavvufiy qarashlar go'zal tarzda tarannum etiladi. Bilamizki, tasavvuf bu- Allohni tanish, uning yo'li esa Allohni tanishga, borligini his etishga eltuvchi yo'ldir.

Adabiyotlar tahlili

Isajon Sulton Farg'ona viloyatida tug'ilgan bo'lib, Toshkent davlat Universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan birinchi "Munojot" nomli qissasi nashr etilgan.Adibning ,,do'st" hikoyasini oladigan bo'lsak, unda insonning ruhini "do'st" deya ta'riflangan "har doim men bilan birga ekaningdan , seni qachon taniganimni eslolmayman. Otam yoki onam ismimizni aytib chaqirsa, baravariga borar edik" men xayollarga, o'y-fikrlarga beriluvchanroq edim, sening esa tevarakka qiziqishing zo'r edi", deya tasvirlanadi. "Avval xudo keyin sen, keyin uning payg'ambarlari" der eding. Ey gumroh, Alloh bir rosuli barhaq,deb seni go'yo ibodatga yo'llar edim." Bunda ruhning jasaddan buyukroq ekanligi, ya'ni ruh inson jasadini allohga yo'naltiruvchi kuch, tasavvufiy qarashlardan namoyon bo'ladi.

Yozuvchining "Qismat" "O'rtancha o'g'il" hikoyalarida ham kichik bolakayning tabiatni anglash jarayoni bilan jonzotlarini Allohning yaratuvchiligi, har bir yaratganida ulkan hikmat borligini anglab yetishi ham tasavvufiy obrazlarga boyligini ko'rsatadi. Asar qahramoni shunday deydi: "U baliqni xudo yuborganini mendan boshqa hech kim bilmadi! Kichkina onamdan odamlar o'lganidan so'ng nima bo'ladi deb kòp so'raganimda "odamlarning ruhi kichkina jonzotlarga, kapalakka, ba'zan esa kattalariga ham kira oladi. Kapalak uchib kelib jim o'tiradi, uning ichidagi marhumning ruhi esa olamni tomosha qiladi" Deyilgan."Qismat" hikoyasiga kelsak "U tilla baliq edi. Boshida toji ham boriydi.

Agar kichik akam sirni ochib qo‘ymaganida, katta akam uni enamga pishirib bermaganida... o‘sib-o‘sib bir kuni rosmana tilla baliq bo‘lardi. O‘shanda hammamiz borib, tutib olardik, baliq “Tila tilagingni” derdi, bizlar ham tilagimizni aytardik.

Endi men nima qilay? Tilaklarim, istaklarim mo‘l edi, kimga aytay?

Faqat Xudogami?.. Yolg‘iz Xudogami?" Ona va o'g'illari hayoti aks ettirilgan bundagi onaning donoligi bolasini dunyoqarishi, olamni anglashiga katta yordam beradi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarida ham shu kabi kishini o'ylantirib qo'yuvchi hikmat mavjud. "Tangrim bir qulini merojga, ya'ni fazo bo'shliqlariga emas, undan ham yuksakka o'zining arshiga ko'taradi". bu asar haqidagi fikrlarida Ahmadjon Meliboyev ham shunday deydi: -"Azaliyat qonunlarini yaratuvchisidan boshqa hech kim, va hech qanday sabab tahlil qilib, o'zgarib

ololmasligini vaqtida tushunib yetsin" bu asarda "Tangrining irodasiga isyon o'laroq ya'ni u belgilab bergan hayot mamot va taqdir chegaralaridan jasurona sakrab o'tib, halokatli ta'sirlarga chidamli sun'iy insonni yaratish xususida bo'ladi. Bundan biz anglab yetishimiz mumkinki, barcha olimlar bir bo'lib harakat qilsada, Allohning yaratganiga sira ham o'xshata olmaydi. Zero YARATUVCHANLIK FAQAT ALLOHGAGINA XOSDIR. Yetuk olimlarning harakatlari bilan Isajon Sulton buni kitobxonlarga uqtirib qo'yadi. Isajon Sultonning "Genetik" romanida esa xalqimiz genofondining mustahkam ildiz otgani, allohning mo'jizasi bilan ayrim qobilyatlar ota onadan farzandga o'tishi aks ettirilgan. "Asar xotimasida olam evrilishlari, undagi har bir tasvir yoki makon va zamon xususiyatlari xuddi qarshimizda turgandek bo'ladi"Asar qahramonlarining har birida bir hikoyasi mavjud: Sofiya xola,Ubay akalarning nozik tasvirlarga boy, tabiiy, eng muhimi nurli istoqbolga qoniqish ila yetaklovchi ajib bir ruh bilan sug'orilgan. "Ozod" romanida ham tasavvufiy qarashlar ustunlik qiladi. Asar qahramoni Ozod xuddi Paulo Koeloning "Alkimyogar" asaridagi Santyago kabi o'z maqsadiga yetishish maqsadida yo'lga chiqadi.Asarda ketilayotgan manzildan ko'ra yo'ldagi voqealarga ko'proq e'tibor qaratiladi.Lolaga ya'ni muhabbatiga yetishish uchun yo'lga chiqib qiyinchiliklarga ro'baro' kelgan Ozod aks ettirilgan. Bundagi Lola bu majoziy manoda kelgan va aslida Allohga yetish uchun tasavvuf yo'lidagi yigit qiyinchiliklari bilan yozilgan asardir. Yozuvchi kitobxon qalbiga tasavvufiy qarashlarni shu kabi javoxirlar ila boyitib jo etadiki, bundagi yuksak qobilyatlani sezmay iloji yo'q.

XULOSA.

Biz hozirgi zamon modern adabiyotida sevib o'qiydigan asar muallifi Isajon Sultonning asarlaridagi tasavvufiy obrazlarni aks ettirib, o'quvchida soddaroq yòl bilan anglatishga harakat qildik. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bu kabi yozuvchilarning asarlari, hikoya-yu qissalar biz yaxshi anglamayotgan tasavvufiy qarashlar negizini ichki olamimizda osonlashtirib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ahmadjon Meliboyevning "RIZQ DARAXTI " kitobi 45-50- betlar;
2.Oyina gazetasi;
3.Isajon Sultonning ("Boqiy darbadar," "Ozod," "Genetik") kitoblaridan;
4.Isajon Sultonning (hikoya va qissalari).
5.Ziyouz.com sayti.

PRAGMATIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA FANIGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISHNING DOLZARBLIGI XUSUSIDA

Nasimova Shahnoza Ixtiyor qizi
O'zPFITI doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda muhim e'tibor va talabga ega bo'lgan mantiqiy tafakkurni pragmatik topshiriqlar asosida o'quvchilarg tushunarli qilib tushuntirish xususida. Unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni, uning mazmun mohiyati hamda uning matematika darslarida ahamiyati. O'rganish jarayonida amalda qo'llangan metod, vosita, shakl hamda usullari o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'z: *pragmatik topshiriqlar, mantiq, tafakkur, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, mazmun, metod, shakl, vosita, usul, malaka, ko'nikma, bilim, salohiyat, mantiqiy fikrlash, rivojlantirish.*

О ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЕ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К МАТЕМАТИКЕ НА ОСНОВЕ ПРАГМАТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ

Насимова Шахноза Ихтиёр кизи
докторант УзНИИПН

Аннотация: *В данной статье логическое мышление, которое в настоящее время пользуется большим спросом и вниманием, объясняется в доступной для понимания студентам форме на основе прагматических задач. В ней рассмотрен процесс развития логического мышления учащихся младших классов, его содержание и значение на уроках математики. Выражены методы, средства, формы и методы, используемые в процессе обучения.*

Ключевые слова: *прагматические задачи, логика, мышление, начальный класс, учащиеся, содержание, метод, форма, инструмент, метод, квалификация, умение, знания, потенциал, логическое мышление, развитие.*

ON THE THEORETICAL BASIS OF INCREASING PRIMARY CLASS STUDENTS' INTEREST IN MATHEMATICS BASED ON PRAGMATIC TASKS

Nasimova Shahnoza Ikhtiyor qizi
doctoral student at the UzRIPS

Annotation: *In this article, logical thinking, which is currently in great demand and attention, is explained in a way that is understandable to students based on pragmatic tasks. In it, the process of developing the logical thinking of elementary school students, its content, and its importance in mathematics lessons. The methods, tools, forms and methods used in the learning process are expressed*

Key words: *logic, thinking, primary class, students, content, method, form, object, method, competence, skill, knowledge, potential, logical thinking, development.*

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida bir necha yillardan keyin hozirgi zamon o‘rnini bosa oluvchi yosh avlod tarbiyasiga katta e’tibor qaratish lozim. Boshlang‘ich sinf davri (1-4-sinflar) shaxs shakllanishining dastlabki bosqichini, barcha o‘zini anglash jarayonlarining rivojlanishini ta’minlaydi, o‘rganish qobiliyati va istagini shakllantiradi. Yurtimizda esa bu sohaga yanada kuchli e’tibor qaratilib, ushbu soha rivoji uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda esa Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O‘zbekiston - maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi"[1]. Ushbu fikrlar ham so‘zimiz isboti bo‘la oladi. Bugungi kun uchun eng dolzarb nuqta esa aynan mantiqit fiklash va o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilarga pragmatik topshiriqlar orqali yana qiziqarli va tushunarli faoliyatga aylantirish bugungi kun dolzarb mavzusidir. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va bosqichlarning muntazam o‘zgarishi bilan belgilanadi, bunda har bir oldingisi keyingisini tayyorlaydi. Tafakkurning yangi shakllari paydo bo‘lishi bilan eski shakllar yo‘qolmaydi, ular saqlanib qoladi va rivojlanadi. Maktab ta’limi shunday tuzilganki, og‘zaki-mantiqiy fikrlash asosan rivojlanadi. Agar birinchi marta ko‘rgazmali namunalar bilan ishlashga katta e'tibor berilsa, uchinchi sinfdan boshlab bunday mashg‘ulotlar hajmi keskin kamayadi. Majoziy boshlanish o`quv faoliyatida zaruriyatini yo`qotadi. Bolalar aqliy faoliyat usullarini o‘zlashtiradilar, ongda harakat qilish va o‘zlarining fikrlash jarayonini tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, dalillarga asoslangan fikrlash asoslari boshlang‘ich maktabda qo‘yiladi. Bu yerda mantiqiy, mavhum fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha ishning asosiy maqsadi bolalar mantiqiy fikrlash texnikasini o‘zlashtirib olishlari, ularga boshlang‘ich sifatida taklif qilingan hukmlardan xulosa chiqarishni o‘rganishlari, shuning uchun ular boshqa bilimlarni jalb qilmasdan, bu hukmlarning mazmuni bilan cheklanishlari mumkin. Endi esa savol tug‘iladi pragmatik topshirlar o‘zi nima?

Pragmatik topshiriqlar - bu amaliy manfaatlar va ular yuzaga keladigan o‘ziga xos sharoitlarni hisobga olgan holda hal qilinadigan topshiriqlar. Bunday muammolar mavhum kontekstda ko‘rib chiqiladigan va real dunyo cheklovlari va maqsadlarini hisobga olmaydigan nazariy masalalardan farq qiladi.Pragmatik topshiriqlarning asosiy maqsadi muayyan vaziyatda eng samarali bo‘ladigan yechimni topishdir. Bunga erishish uchun bunday muammolarni hal qilishda turli omillar, jumladan, resurslar, vaqt, cheklovlar va imtiyozlarni hisobga olish kerak. Bunday yondashuv aniq amaliy natijalarga erishish va real muammolarni hal qilish imkonini beradi. Pragmatik topshiriqlarga misollar biznes jarayonlarini optimallashtirish, dasturiy ta’minot samaradorligini oshirish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish yoki loyihalarni boshqarishni o‘z ichiga oladi. Bu vazifalarning barchasi aniq shartlar va maqsadlarni hisobga olishni, shuningdek, natijalarga erishish uchun amaliy ko‘nikmalar va usullarni qo‘llashni talab qiladi. Pragmatik topshiriqlarni tushunish va ularni samarali hal qilish qobiliyati biznes va muhandislikdan fan va san'atgacha bo‘lgan ko‘plab faoliyat sohalarida muhim kompetentsiya hisoblanadi. Amaliy afzalliklarni bilish va kontekstni hisobga olish qobiliyati, vazifa sohasidan qat'i nazar, ongli qarorlar qabul qilish va aniq maqsadlarga erishish imkonini beradi. Pragmatik vazifalar faoliyatning turli sohalarida katta ahamiyatga ega. Ular amaliy muammolarni hal qilishga va aniq maqsadlarga erishishga yordam beradi. Biznesda pragmatik maqsadlar jarayonlarni optimallashtirish, xodimlarning ish faoliyatini yaxshilash va kompaniya foydasini oshirishga yordam beradi. Masalan, logistikani optimallashtirish vazifasi tovarlarni etkazib berish xarajatlarini kamaytirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash imkonini beradi.

Ta’limda pragmatik vazifalar talabalarga olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yordam beradi va kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Hozirgi kunda mental arifmetika, mnemonika kabi dunyoning rivojlangan davlatlari yosh avlodining maktabgacha va maktabning boshlang‘ich sinflari ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan bu tushunchalar mamlakatimizda endigina kurtak yozdi. Mental arifmetika bolaning 4 yoshidan 14 yoshigacha miya yarim sharlarining uyg‘unlikda rivojlanishiga katta yordam beradi. Mental arifmetika nafaqat tezkor hisob-kitob qilish, balki voqea-hodisalarning rivojini ko‘ra olish hamda boshqa fanlarni qiynalmasdan o‘zlashtirishiga katta yordam beradi. Bugungi kunda o‘quv tarbiya jarayoni zamonaviy o‘qitish usullaridan, pedagogika fanining ilg‘or yutuqlaridan foydalanish, shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang‘ich ta’lim nazariyasini yaratish kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri – ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy

Independent researcher of "Informatics" department
E-mail: *tillayev0693@gmail.com*

Abstract: *This article analyzes the significance of integrating e-learning experience into the concept and implementation of smart education. It highlights how critical it is for smart education to create conditions that help increase the efficiency*

of the educational process, bringing benefits to both students and teachers. It examines how new efficiency can be achieved at all levels of the educational process, including interaction between students, teachers and the university as a whole.

Key words: *Smart education, e-learning, effectiveness of the educational process, strategic planning in education, integration of technology in education, integrated approach in education.*

В современном мире, где технологии развиваются с каждым днем, образовательный процесс также подвергается значительным изменениям. Одним из направлений, в котором эти изменения особенно заметны, является взаимодействие между студентами и преподавателями. SMART-технологии — это инновационные инструменты и подходы, которые могут существенно улучшить это взаимодействие, сделав его более эффективным, интерактивным и персонализированным [2].

Смарт-технологии становятся приоритетным направлением, которое будет определять следующую стадию развития общества после информационной эры [1].

В основе реализации концепции смарт-образования лежит накопленный опыт электронного обучения, без которого невозможен его дальнейший развитий. Ключевая цель смарт-образования заключается в создании условий для достижения нового уровня эффективности учебного процесса, от которого выигрывают как студенты, так и преподаватели. Данная эффективность достигается благодаря совместным усилиям студентов, изучающих университетскую программу, преподавателей и университета в целом. Реализация смарт-образования предполагает комплексный подход и начинается с стратегического решения руководства о создании и поддержании необходимых условий для его развития, что подкрепляется принятием соответствующей стратегии университета или разработкой дорожной карты [3].

1. Интерактивные SMART-доски и обучение

Интерактивные SMART-доски уже давно вошли в практику образовательного процесса многих учебных заведений. Они позволяют преподавателям демонстрировать учебный материал в интерактивном формате, вовлекая студентов в образовательный процесс с помощью мультимедиа, визуализаций и интерактивных заданий. Такие доски способствуют лучшему усвоению материала и повышению интереса к изучаемому предмету.

2. Мобильные приложения и образовательные платформы

Мобильные приложения и образовательные платформы, такие как Google Classroom, Edmodo или Moodle, позволяют преподавателям и студентам постоянно находиться в контакте, обмениваться учебными материалами, заданиями и обратной связью в реальном времени. Это создает дополнительные возможности для обучения и участия студентов в образовательном процессе вне аудитории.

3. Системы дистанционного обучения и вебинары

Применение систем дистанционного обучения и проведение вебинаров с использованием SMART-технологий позволяют преодолевать географические и временные барьеры между студентами и преподавателями. Вебинары могут включать прямые трансляции лекций, интерактивные семинары и рабочие сессии в режиме реального времени, что делает обучение более доступным и гибким.

4. Адаптивное обучение

С помощью аналитики больших данных и искусственного интеллекта, встроенных в SMART-платформы, возможно реализовать адаптивное обучение, которое автоматически настраивается под индивидуальные потребности каждого студента. Это позволяет преподавателям эффективнее управлять образовательным процессом, а студентам — получать персонализированный учебный опыт.

5. Обратная связь в реальном времени

Использование SMART-технологий позволяет обеспечить мгновенную обратную связь для студентов, что является ключевым фактором для эффективного обучения. Преподаватели могут использовать различные инструменты и платформы для оценки ответов студентов, комментирования работ и предоставления конструктивной критики, что способствует более быстрому и глубокому усвоению материала.

Применение SMART-технологий в образовательном процессе открывает новые горизонты для взаимодействия между студентами и преподавателями. Эти технологии способствуют созданию более интерактивного, эффективного и персонализированного обучения. Важно, чтобы учебные заведения продолжали интегрировать и развивать эти технологии, чтобы обеспечить студентам лучшие возможности для обучения и развития.

Использованные литературы:

1. European Investment Bank (2012) JESSICA for Smart and Sustainable Cities//Horizonal Study Smart Technology based Education and Training// SMART DIGITAL FUTURES. Netherland: Amsterdam: IOS Press BV 2014.

2. Nasirova Sh.N., Tillayev M.M. The importance of creating multimedial electronic learning resources. Academicia Globe: Inderscience Research is a scholarly peer reviewed international multidisciplinary Journal, 557-559 p.

3. ЖУРНАЛ "Современные информационные технологии и ИТ-образование". Смарт-образование как основная парадигма развития информационного общества. Тихомиров В.П., Днепровская Н.В.. 2015.

INTERNET SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI PEDAGOGIK SHAROITLAR

Dedaxonova Moxira Oltmishboyevna
Nam DU doktoranti Tel: 936785002
Inamov Dilmirza Dadamirzayevich
Nam DU Pedagogika tarixi va nazariyasi kafedrasi mudiri

Anotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy pedagogikada internet savodxonligini rivojlantirish uchun o'quvchilarning mas'uliyatli va samarali foydalanish madaniyatini tarbiyalashda zarur bo'lgan pedagogik shartlarni o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *Internet, kompetentsiya, onlayn xavfsizlik, maxfiylik, kiberbulling, intellectual, multimedia, strategiya, fantastika, dekonstruksiya*

Abstract: *This article examines the pedagogical conditions necessary for the development of Internet literacy in modern pedagogy, which are necessary for educating students in the culture of responsible and effective use.*

Keywords: *Internet, competence, online security, privacy, cyberbullying, intellectual, multimedia, strategy, fiction, deconstruction*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются педагогические условия, необходимые для развития интернет-грамотности в современной педагогике, которые необходимы для воспитания у студентов культуры ответственного и эффективного использования.*

Ключевые слова: *Интернет, компетентность, онлайн-безопасность, конфиденциальность, киберзапугивание, интеллектуал, мультимедиа, стратегия, фантастика, деконструкция.*

KIRISH

Bugungi raqamli asrda internet sohasida savodli bo'lish an'anaviy savodxonlik ko'nikmalari kabi zarurdir. Onlayn axborot va kommunikatsiya platformalarining ko'payishi bilan o'qituvchilar oldida o’quvchilarni keng onlayn landshaftda harakatlanish va tanqidiy munosabatda bo'lishga tayyorlash kabi muhim vazifa turibdi. Internet savodxonligiga erishish raqamli fuqarolik, onlayn xavfsizlik, axborotni baholash va raqamli resurslardan mas'uliyatli foydalanishni har tomonlama tushunishni talab qiladi.

ASOSIY QISM

Internet savodxonligini samarali rivojlantirish uchun o'qituvchilar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axloqiy xulq-atvor va raqamli kompetentsiyani rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratishlari kerak.

1. O‘quv dasturlari integratsiyasi: Internet savodxonligi bo‘yicha ta’limni fanlar bo‘yicha o‘quv rejasiga kiritish o‘quvchilarning muhim tushunchalar bilan doimiy ravishda tanishishini ta’minlaydi. Til san'ati, ijtimoiy fanlar va fan kabi turli fanlarga internet savodxonligi ko'nikmalarini kiritish orqali o'qituvchilar real hayotda qo'llanilishi va dolzarbligini ko'rsatishi mumkin, bu esa o'rganishni yanada qiziqarli va mazmunli bo’lishini ta’minlaydi.

2. Raqamli fuqarolik ta’limi: Internet savodxonligi bo‘yicha ta’limda raqamli fuqarolik tamoyillariga urg‘u berish muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga raqamli dunyoda o‘z huquq va majburiyatlari, jumladan, onlayn odob-axloq qoidalari, maxfiylikni himoya qilish, kiberbullingning oldini olish va intellektual mulk huquqlari kabi mavzularni o‘rgatishlari kerak. Internet orqali o’zgalar bilan aloqa bog’lashda “yaxshilik va ezgulik yo’lida hamkor bo'lib, yomonlik va dushmanlikdan voz kechish” shiori bo’lishi zarur.[1] Hurmat, hamdardlik va halollik qadriyatlari, milliy urf-odatlarimizni singdirish orqali o’quvchilar onlayn hamjamiyatlarga ijobiy hissa qo'shadigan mas'uliyatli raqamli fuqarolarga aylanishlari mumkin.

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Internet savodxonligi bo'yicha ta'lim o'quvchilarga onlayn ma'lumotlar haqida tanqidiy fikr yuritish imkoniyatini berishi kerak. O'qituvchilar raqamli kontentning ishonchliligi, aniqligi va noto'g'riligini baholash strategiyalarini o'rgatishlari kerak. Ishonchsizlikni rag'batlantirish va ma'lumotni tekshirish uchun vositalarni taqdim etish orqali o’quvchilar noto'g'ri ma'lumotlar va soxta yangiliklar davrida haqiqatni fantastikadan ajratib olishlari va asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin.

4. Mediasavodxonlik integratsiyasi: Media savodxonligini internet savodxonligi bo‘yicha ta’limga integratsiyalash o‘quvchilarni raqamli medianing turli shakllarini tahlil qilish va yaratish ko‘nikmalari bilan qurollantiradi. O'qituvchilar o’quvchilarga

ommaviy axborot vositalarining xabarlarini qanday dekonstruksiya qilishni, ishontirish usullarini tan olishni va kontentni axloqiy va mas'uliyat bilan ishlab chiqarishni o'rgatishlari kerak. Buning uchun shariatimizning ummumiy ta’limotlari asosida internetdan foydalanish odoblarini yo’lga qo’yishimiz kerak bo’ladi.[2] Multimedia matnlari bilan shug'ullanish orqali o’quvchilar raqamli landshaftdagi media ta'siri va manipulyatsiyani chuqurroq tushunishadi.

5. Amaliy qo'llash va amaliy o'rganish: Amaliyotda qo'llash va amaliy o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish internet savodxonligi ko'nikmalarini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o’quvchilardan onlayn platformalarda harakat qilish, tadqiqot o'tkazish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va topilmalarni taqdim etishni talab qiladigan haqiqiy vazifalar va loyihalarni ishlab chiqishlari kerak. Har qanday fuqaro axborot bazasidan “maxsulot” tanlash jarayonida uning qalbida, ruhiyatida, kayfiyatida, fe’l-atvorida, bulrning barchasining oqibati sifatidagi xatti-harakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini tamirlash zarur.[3] Raqamli vositalar va platformalar bilan faol shug'ullanish orqali o’quvchilar o'zlarining raqamli imkoniyatlariga ravonlik va ishonchni rivojlantiradilar.

6. Doimiy baholash va fikr-mulohazalar: Doimiy baholash va fikr-mulohazalar o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatish va internet savodxonligi ko'nikmalarini oshirish bo'yicha masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'quvchilarning tushunish va malakasini aniqlash uchun turli baholash usullaridan, jumladan viktorinalar, loyihalar, muhokamalar va tengdoshlarni baholashdan foydalanishlari kerak bo’ladi.

Konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish o'quvchilarga o'z bilimlari haqida fikr yuritishga va vaqt o'tishi bilan internet savodxonlik ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

7. O'qituvchilar uchun kasbiy rivojlanish: o'qituvchilarni doimiy ravishda kasbiy rivojlanish imkoniyatlari bilan qo'llab-quvvatlash ularning internet savodxonligini samarali o'rgatish qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktablar va ta'lim muassasalari o'qituvchilarga yangi texnologiyalar, pedagogik strategiyalar va internet savodxonligini oshirish bo'yicha ilg'or tajribalardan xabardor bo'lishlariga yordam berish uchun treninglar, seminarlar va resurslarni taqdim etishlari kerak bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'limda internet savodxonligini oshirish o’quvchilarda tanqidiy fikrlash, axloqiy xulq-atvor va raqamli kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish uchun birgalikda harakat qilishni talab qiladi. Internet savodxonligini o‘quv dasturi bo‘ylab integratsiyalash, raqamli fuqarolikka urg‘u berish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini

rivojlantirish, media savodxonligini integratsiyalash, amaliy o‘rganish tajribasini taqdim etish, doimiy baholash va fikr-mulohazalarni taklif qilish hamda o‘qituvchilarni kasbiy rivojlanishda qo‘llab-quvvatlash orqali o‘qituvchilar o’quvchilarga raqamli texnologiyalarda muvaffaqiyat qozonishlari mumkin. Ushbu sa'y-harakatlar orqali o’quvchilar nafaqat texnologiyaning mohir foydalanuvchilari, balki jamiyatga ijobiy hissa qo'shadigan mas'uliyatli raqamli fuqarolarga aylanadilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Akamov M. Intenetdan foydalanishning zaruriy odoblari. https:// samuslim.uz 05.11.2015
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Internet odoblari https:// islom. uz 04.03.2017
3. Abdurashidov S. Internet va undan foydalanish madaniyati https:// religions.uz 2020
All rights

ONA TILI FANINI O‘QITISHDA IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHGA DOIR MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Yo‘ldosheva Shohista Baxtiyor qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim o‘qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida Ona tili fanlarini o‘qitishda talabalarning iqtidorlarini yuzaga chiqarishda milliy va xorijiy tajribalardan foydalanish haqida yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье освещается использование национального и зарубежного опыта в раскрытии талантов учащихся при преподавании предметов родного языка в системе высшего образования.*

Annotation: *this article covers the use of national and foreign experience in bringing students ' talents to the surface when teaching native language subjects in the higher education system.*

Kalit so‘zlar: *talaba, iqtidor, ona tili, nutq, tajriba, xirijiy tajriba, milliy tajriba, innovatsiya, innovatsion loyiha, mutaxassis.*

Ключевые слова: *студент, одаренность, родной язык, речь, опыт, хриплый опыт, национальный опыт, инновация, инновационный проект, специалист.*

Keywords: *student, talent, native language, speech, experience, foreign experience, National Experience, Innovation, innovative project, specialist.*

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida yuksak natijalarga erishish uchun uning turli yo‘nalishlari bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lish zarur. Zamonaviy komputerlarning imkoniyatlari va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanmay ilm-fan sohasida yuksak marralarga erishib bo‘lmay qoldi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni ilm-fan sohalariga keng qo‘llash malakasiga ega bo‘lish uchun esa xorijiy tillarni mukammal bilish talab qilinmoqda.

Ilm-fanning erishgan yutuqlarini chuqur o‘rganib, ularni yanada rivojlantirishga hissa qo‘sha olishi uchun, bu sohaga kirib keluvchi yoshlar yuksak qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo‘lishi, yuqori malakali ustozlar bilan hamkorlikda ilmiy yo‘nalishni maqsadli tanlashi, faoliyatini zamonaviy metodologiya, tizim, texnologiya va dasturlar asosida yuritishi zarur.

Respublikamiz ta’lim tizimining yoshlarni ilm-fan sohasiga tanlov asosida jalb etish, ularni istak, imkoniyat va qobiliyatlarini maqsadli yo‘naltirish, ilmiy faoliyatni kompleks dasturlar asosida tashkil etish tajribasi va erishilayotgan natijalarning salmog‘i ortib bormoqda. OTMlarda iqtidorli yoshlar bilan ish olib borish dastur va nizomlari ishlab chiqilgan, tashkil etilgan iqtidorli yoshlar akademiyalari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasdiqlagan umumiy nizom va dasturlar asosida faoliyat yuritishmoqda. Natijada ilm-fan, madaniyat, sport, zamonaviy texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqa sohalarda yuqori natijalarga erishayotgan yoshlarning soni kundan-kunga ortib bormoqda.

Bu boradagi ishlarning sifat va samarasini yanada oshirish metod, tizim va texnologiyalarini yaratish ustida OTMlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadqiqotlarning asosiy maqsadlari jumlasiga iqtidorli talabalarni bakalavriyat yo‘nalishida o‘qishi davomida ilmiy faoliyat bilan uzluksiz va samarali shug‘ullanib tasdiqlangan ilmiy ish mavzusi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishish bilan bir qatorda kelajakda mustaqil ilmiy faoliyat yuritish malakasini egallashini taminlaydigan tadbirlar tizimi va texnologiyasini yaratish kiritildi. Tahlillar tadqiqotning maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish tashkiliy choralari va metodlarini takomillashtirish ustida izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatdi.

1. Yoshlarda ilm-fan sohasida yuksak natijalarga erishish orzu, istak, havas va maqsadlarni shakllantirish, bu sohaga ularning qobiliyat va imkoniyatlarini baholab jalb etish hamda maqsadli yo‘naltirish dastur va metodlarini qo‘llashning samarali tizimini belgilash.

Ilm-fan sohasida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan iqtidorli talaba bu sohaning istalgan yo‘nalishiga birinchi qadamni qo‘yishdan oldin uning qay darajada rivojlanib borayotgani, yechimini kutayotgan dolzarb muammolari, kelajakda yuksak marralarga

erishishi uchun bu sohaning ko‘p qirralarini mukammal egallashi zarurligi haqida bir oz bo‘lsada tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lishini ta’minlash katta ahamiyat kasb etadi.

2. Yoshlarni ilm-fanning insoniyat uchun katta ahamiyat kasb etuvchi ustivor yo‘nalishlarida mehnat qilib yuksak natijalarga erishishini ta’minlovchi ilmiy faoliyat metod va texnologiyalarini joriy etish.

3. Olim va mutaxassislarni yoshlarni ilm-fanning yuksak cho‘qqilari sari yetaklashning zamonaviy metod va texnologiyalarini mukammal egalashi va amaliyotga joriy etishini ta’minlovchi chora-tadbirlarni takomillashtirish.

4. Yoshlarni tarbiyalash va ilm-fan soxasida yuksak marralarga olib kelishi tarixdan ma’lum bo‘lgan ustoz-shogird metodini samarali qo‘llash va bunday vazifani amalga oshirish malakasini mukammal egallagan iqtidorli yosh olimlarni tayyorlashning zamonaviy tizim va metodlarini joriy etish.

5. Yoshlarning ilm-fan sohasida erishgan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, Xalqaro grantlar va innovatsion loyihalarni bajarishda faol ishtirok etish hamda bozor iqtisodiyoti sharoiti talablari asosida samarali faoliyat yuritish malakasini shakllantirish metod va texnologiyalarini takomillashtirib joriy etish va boshqalar.

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ularni iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha shart-shvroitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ulg‘ayib kelayoyotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohatlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan rag‘batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida vatanimiz dovrug‘ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodlarni tarbiyalashimiz zarur. Buning uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash, ular faoliyatini ilmiy va uslubiy jihatdan ta’minlab borish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ular asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiya va qo‘llanmalar ishlab chiqish. Yoshlar o‘rtasida mahalliy va xalqaro shu jumladan, nodavlat fan olimpiadalarni tashkil etish ularning xalqaro olimpiadalarda ishtirokini ta’minlash. Yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda olimpiadalar uchun doimiy yangi nazorat materiallarini ishlab chiqish, xalqaro olimpiadalari ishtirokchilarini yuqori

malakali mutaxassislar. Shu jumladan, olimlar, professor-o'qituvchilar, xorijlik mutaxassislarni jalb qilgan holda tayyorlash.

Respublika Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion korparativ hamkorlik integratsiyasini amalga oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda ta'lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko'rishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Ko'pgina mamlakatlarda oliy maktabning oshib borayotgan rolini hisobga olgan holda uni rivojlantirish strategiyasi milliy strategiya ustuvorliklari bilan belgilanadi va mazkur strategiya OTM sifatini oshirish hamda uni imkoniyatini kengaytirishga yo'naltirilmoqda.

O'zbekistonda bozor islohatlarini boshlanishi yangi sharoitlar oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash tuzilmasi, ularning bilim va ko'nikmalariga bo'lgan talabni o'zgartirdi. Endilikda yangi bilimlarni amalda qo'llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko'lamini tushuna oladigan kadrlarga talab ortib bormoqda. Bular to'g'ri qaror qabul qila oladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda OTM va ish beruvchilar orasidagi hamkorlikda turli muammolar mavjud. OTM o'z bitiruvchilarini bilimdon deb hisoblasalarda, ular ish beruvchi talablariga aksariyat holatlarida yetarli darajada javob bermayaptilar. Ko'pgina bitiruvchilar boshqa mutaxassislik bo'yicha ishlashga yoki qayta tayyorlov kurslarida o'qishlariga to'g'ri kelyapti. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, OTM va potentsial ish beruvchi o'rtasidagi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

OTM, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi – OTM, fan va ishlab chiqarishdagi yutuqlar va salohiyatlardan birgalikda foydalanish. Avvalo tayyorlash muhiti, malakani oshirish va qayta tayyorlash hamda birgalikdagi ilmiy izlanishlar olib borishda o'z ifodasini topadi. Amaliyotda integratsiya deganda, bir maqsadda birlashgan bir necha subektlarni birgalikda ish olib borishi tushiniladi. Integratsiya turli soha va darajalarni o'z ichiga olgan holda o'zida kompazitsion va kommunikatsion funksiyalarni namoyon etadi.

Kompazitsion funksiya – integratsiyani tarkibi va strukturasi, birlashgan subektlarni norasmiy va normativ chegaralarni hamda ularni mutaxassisliklarini birlashtiradi.

Kommunikativ funksiya - subektlararo koperatsiyalar shakli va tarkibini, aloqa va o'zaro birlashmalarini, ularning prinsip va mexanizmlarini yangi sharoitlarga moslashuvni ifodalaydi.

Bugungi rivojlanish davrida jahonda "uchlik speral" ilmiy ishlab chiqarish interatsiyasi modeli keng tarqalgan bo'lib (OTM ishlab chiqarish korxonasi

muassasalari – fanlar akademiyasi institutlari) fanlar akademiyasi – oliy ta’lim – ishlab chiqarish korxonalari.

OTM va korxona hamkorligi:

1. Korxonani qiziqishi (malakali kadrlarni doimiy ishga olish, amaliy tayyorlash maqsadida talabalarni vaqtinchalik ishga olish, tadqiqot va ishlab chiqarishga talabalarni jalb qilish, ilmiy ishlab chiqarish va maslahatlarga professor-o‘qituvchilarni jalb qilish, malakali mutaxassislar tayyorlashda ish beruvchi o‘rnini kuchaytirish):

2. OTM (kafedra) qiziqishi (bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qatnashish, aniq kurs va diplom ishlarini korxona muammolari bilan bog‘lash, mutaxassislarni tayyorlashda ish beruvchi monitoringini olib borish, talabalarni amaliyot bazasi bilan ta’minlash, tadqiqot va ishlab chiqarishda buyurtmalar olish, korxona ishchilarini qayta tayyorlashga qabul qilish)

3. Talabaning qiziqishi (chuqur bilimga ega bo‘lish, aniq mutaxassisilik bo‘yicha malakaga ega bo‘lish, aniq yo‘nalishda ilmiy ish olib borish, ma’lum ko‘rinishdagi rag‘batlanish, ish bilan ta’minlanish).

Yuqorida keltirilgan tizimdan quyidagilar talabaning malakasiga ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi:

1. Umumiy OTMlararo strukturalar ta’siri
2. Mutaxassislik kafedraning ta’siri, jumladan:
   - Past kurs talabalarini mutaxassislikka jalb qilish tizimi;
   - Yetakchi kurs talabalarini tayyorlash tizimi;
   - O‘qituvchilar ta’siri;
   - Maxsus ta’lim texnologiyalari asosida talabalarni ijtimoiy qo‘llash tizimi
3. Biznes va menejment vakillarining ta’siri
4. Ota-onalarning ta’siri
5. O‘qituvchilarning ta’siri
6. OTMning ichki reytinggi

Hozirgi rivojlanish vaqtida malakali talaba o‘z ustida ishlashi shaxsini o‘stirishi lozim bo‘ladi. Chunki hozirgi kunda ishga joylashishdagi talablar juda yuqori. Malakali talaba o‘qishni bitirgandan so‘ng mutaxassisligi bo‘yicha kafolatlangan ish joyiga ega bo‘lishi kerak va kelajakda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetuk mutaxassis, har tomonlama raqobatbardosh bo‘lishi, ham bilim jihatdan, ham shaxs sifatida kompetentli bo‘lib yetishishi kerak. OTMda korxona muammolarini o‘rganish, ushbu muammolar asosida malakaviy bitiruv ishlariga ilmiy mavzular berish kerak bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi yaratilgan va 2019-yil 8-oktabr PF -58/47 sonli Prezident farmoni bilan tasdiqlangan.

Xullas, mamlakatimizdagi iqtidorli talabalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlagan davlatlar tajribalariga tayangan holda tashkil etish mamlakat taraqqiyotini ta’minlashga mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtidorlilik – faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlovchi qobiliyatlarning sifatli o‘ziga xos yig‘indisi; aqliy salohiyat yoki intellekt, bilish imkoniyatlari va o‘rganishga bo‘lgan qobiliyatlarning individual tavsifi. Iqtidorli talaba o‘zining intellekt darajasi, bilish imkoniyatlari, qobiliyati bilan boshqa talabalardan ajralib turuvchi individual salohiyat egasidir. Intellektual qobiliyat – to‘g‘rilik nuqtai nazaridan aniq vaziyatlarda intellektual faoliyatning muvaffaqiyatini tavsiflovchi intellekt xususida hamda vazifalarni hal etish jarayonida axborotlarni qayta ishlash tezligi, g‘oyalarning originalligi va xilma-xilligi, ta’lim olganlining yuqori sur’at va chuqurligi, bilish usullarida individuallikning aks etishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-Yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni
2. Mamaraximova, N. (2022). Ijodiy tafakkurda til, so ‘z va nutq birligi. Boshlang‘ich ta'limda innovatsiyalar.
3. Mamaraximova, N. (2022). Nutq inson tafakkurining asosiy mexanizmi. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar.
4. Safarova R., Nurjanova R., Yusupova F., Ibragimov S. Fanlar chuqurlashtirib o’qitiladigan sinflarda ta’limni tashkil etish texnologiyasi T.: Sano standart. 2012. 118 b.

O‘QUVCHILAR VA TALABALARDA MASU‘LIYAT HISSINI TARBIYALASH OMILLARI

Karimov Islomjon Isroiljon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitsh metodikasi mutaxassisligi
1-bosqich magistranti
E-mail: karimovislomjon073@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagoglarda o'quvchilarda darsga qiziqishni rag'batlantirish va o'quvchilar mas'uliyatsizliklariga yondashuvlar tahlil qilinadi. Dars sifatini orttirishga xizmat qiluvchi omillar ko'rib chiqilib, muayyan muloxazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, davlat ta'lim standarti, kasbiy etika, Pedagogik texnologiyalar, intizomiy choralar, rag'batlantirish.

ФАКТОРЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ОСОЗНАНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У ШКОЛЬНИКОВ И СТУДЕНТОВ

Karimov Islomjon Isroiljon o'g'li
Наманганский государственный педагогический институт
Магистрант 1 ступени по специальности «Методика преподавания социальных и гуманитарных наук»
Электронная почта: *karimovislomjon073@gmail.com*

Аннотация: *в данной статье анализируются подходы педагогов к стимулированию интереса учащихся к урокам и безответственности учащихся. Рассмотрены факторы, служащие повышению качества урока, и сделаны определенные комментарии.*

Ключевые слова: *педагогическое мастерство, государственный образовательный стандарт, коммуникативные технологии, профессиональная этика, Педагогические технологии, дисциплинарные меры, мотивация.*

FACTORS OF EDUCATIONAL SENSE OF RESPONSIBILITY IN PUPILS AND STUDENTS

Karimov Islomjon Isroiljon o'g'li
Namangan State Pedagogical Institute
1st-level master's student, majoring in teaching methods of social and humanitarian sciences ***E-mail:*** *karimovislomjon073@gmail.com*

Abstract: *this article analyzes the approaches of pedagogues to stimulate students' interest in lessons and students' irresponsibility. The factors that serve to increase the quality of the lesson are considered and certain comments are made.*

Key words: *pedagogical skills, state education standard, communication technologies, professional ethics, Pedagogical technologies, disciplinary measures, motivation.*

Zamonaviy pedagogik qarashlar va ta’limga nisbatan munosabatlar takomillashib borar ekan, ta’lim samaradorligiga erishishda o‘quvchi va talabalarda mas’uliyat hissini tarbiyalash muxim vazifa bo‘lib qolmoqda. Bunda pedagogning dars mashg‘ulotlari olib borish mahorati va kasbiy etikasi muxim ahamiyatga ega. Pedagogik maxorat - o‘qituvchining shaxsiy (Bolajonligi, xayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi va x.k) va kasbiy (Bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, qobiliyati va x. k.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchining ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishshishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir. [1-13] Pedagogika sohasida faoliyat olib boruvchi har bir hodim uchun kasbiy mahoratning muhim ko‘rsatkichlaridan bo‘lgan o‘quvchilarda darsga qiziqish va mas’uliyat hissini tarbiyalash zaruriyatini ado etish pedagogning muxim yutug‘idir. Bunda o‘qituvchining o‘quvchilarni darsga qiziqtirishi va mas‘uliyatni tarbiyalashi bir-birini taqozo qiladi. Agarda o‘quvchi darsga qiziqsa, u darsga intizom bilan tayyorlanish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Biroq ba’zida bu omil yechim vazifasini bajara olmaydi. Buning bir necha sabablari bo‘lib, ularni anglash va choralar ko‘rish bilan ta’lim samaradorligi yanada oshadi. Qanday omillar o‘quvchilarda dars mas’uliyatiga ta’sir qilishini ko‘rib chiqamiz.

Avvalambor, o‘quvchilarda dars jarayonlariga qiziqish bo‘lgani bilan xarakter xususiyatlari xisobga olinishi kerak. Temperamentga ko‘ra yoshlar e’tiborsiz, talabchan, qat’iyatli, qiziqishlari muntazam o‘zgarib turuvchi, xotirasida zaiflik va tabiatan tortinchoq xarakterga mansub turlariga bo‘linadi. Ushbu xususiyatlar insonda muntazam o‘zgarishlarga uchrab turadi, ba‘zida kuchayib, ba’zan “Bosilib turadi”. O‘qituvchi kuchli psihologik ko‘nikmalarga ega bo‘lgani holda o‘quvchilar bilan ishlay olishi lozim bo‘ladi. Bolaning individual - o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish metodikasini bilish muxim.[2-21] juda murakkab Ayrim o‘quvchilar va talabalarga dars o‘tish uchun nisbatan xolerik temperamentida munosabatdabo‘lish kerak bo‘ladi. Nisbatan passivlik va yon berish temperamenti (Melanxolik) samaradorlikni pasaytirib, dars jarayonida davomat, kiyinish madaniyati, o‘zlashtirish darajasiga e‘tiborsizlik kuchayishi bilan namoyon bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar etikasining me’yoridan ortiq buzilishlari qattiqqo‘l choralar ko‘rishni va jazolashni ham talab etadi. Bunda ta’lim muassasida faoliyat olib boruvchi mutasaddilar ham pedagog bilan birdamlikda

hamkorlik qilishi kerak bo‘ladi. Bunda jazolash kaltaklash, ruxiy bosim o‘tkazish bilan emas, balki ota-onalar bilan bog‘lanish, dars jarayoniga halal beruvchi vositalarni (Telefon, boshqa ashyolar) olib qo‘yish, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan psixolog orqali bog‘lanib, ruxiyatidagi buzilishlarga yechim izlash kerak bo‘ladi.

Ikkinchidan, dars mashg‘ulotlari olib borish davomida o‘qituvchi tomonidan barcha ta’lim oluvchilarga bir xilda intizomiy talabning mavjud emasligi natijasida o‘quvchilarda dars mashg‘ulotlariga nisbatan munosabat salbiy tarafga o‘zgaradi. Ayrim xolatlarda bunday ko‘rinishda faoliyat amalga oshirilishi bilan ayrim o‘quvchilar nisbatan “O‘zlashtirishi yuqori”, ba‘zilari “Passiv” bo‘lib boradilar. Yoki ayrim o‘quvchilar ma‘lum fanlardan yaxshi bilimga ega, ba‘zilaridan esa, umuman qoniqarsiz tarzda fanlarni o‘zlashtiradilar. Pedagoglar bunda ba’zan sinflarni ajratish orqali o‘quvchilar masu‘liyatiga ta’sir korsatadilar. Muayyan fan tanlovi hamda musobaqalar uchun o‘quvchilar tanlab olinib, ularning maqsadli ta‘lim olishlarini ta‘minlanishi nazarda tutiladi. Faqatgina o‘zi uchun qiziq bo‘lgan darslarni o‘zlashtirgan o‘quvchilar qolgan fanlardan o‘ta qoniqarsiz tarzda o‘zlashtirilganliklari natijasida umumta‘lim davlat standartlariga javob bera olmaydilar.

O‘quvchilar tasavvurida qaysidir fanlar kerakli va qaysidir keraksiz degan tushuncha shakllanib qolganda ular amaliy harakatlarida ham buni ko‘rsatadilar. Buning yechimi sifatida o‘quvchilar va talabalar belgilangan dars talablariga kamida qoniqarli darajada tayyorgarlik ko‘rib borib, aynan kelajakda egallashni ko‘zlagan mutaxassislik fanlaridan fan to‘garaklari va o‘quv kurslariga qatnashlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya’ni nomutaxassislik fanlarini ham umumiy zaruriy bilimlarini asoslab bera oladigan darajaga yetkazish nazarda tutiladi bunda. Albatta, barcha fanlarni ham bir-xilda kuchli o‘zlashtirish murakkab kechishi mumkinligi xisobga olinishi kerak. Tarbiyachi-o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini chuqur etgan holda, vaziyatni hisobga olib tarbiya metodlarini tanlashi, uni qo‘llashda tarbiya metodlari xususiyatlarini va o‘quvchilarning yosh jihatlarini hisobga olishi lozim.[3-31]

Uchinchidan, o‘quvchi va talabalarda dars mas‘uliyatiga ta’sir qiluvchi omillardan yana biri oilaviy muhit, ijtimoiy muammolar, depressiya va boshqa muammolar bo‘lib, bu ularda davomatning yomonlashuvi, dars sifatiga ta’sir qilish bilan birga, umumiy muhitga ham ta’sir qilib boradi. Oilaviy nizolar tez-tez sodir bo‘lib turadigan oilalarda yashovchi bolalar bolalar mehnati, kamsitilish, ruxiy bosimlarga duch keladilar. Bunda ularda qat’iyatsizlik, jamiyat hayotiga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishning so‘nishi kuzatiladi. Tarbiya va ta’limni yo‘lga qo‘yishda murakkablik yuzaga kelishining sababi bunda ota-ona ham bo‘lib ularda uchraydigan

salbiy o‘rnak va odatlar farzandlarga ham o‘tib, beparvolik hissi barcha narsalar qatori ta‘limga ham o‘tadi.

Erta mehnat qilishga va sog‘lom ijtimoiy muhitdan uzilib qolishga mahkum etilgan bolalar buni turli yo‘sinda qabul qiladilar. Ba‘zilari kurashuvchan tarzda qiyinchiliklarni yengib o‘tadilar va ta‘limolishda o‘z ijobiy ko‘rsatkichlarini boy bermaydilar. Ba’zi o‘quvchilarda esa, o‘zlarining kelajaklari qat’iy belgilab qo‘yilgandek bo‘lganiuchun o‘zgarishlar uchun ko‘p ham harakat qilmaydilar. Mamlakatimizda bu kabi holatlar ayniqsa ayollar orasida uchrab turadi. Ular ota-onalarining oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olishlari uchun imkoniyat yaratib bermasliginihis qilganlari holda o‘zlarini shunga ruxan tayyorlab boradilar va natijada oliy ta’lim muassalarida o‘qishlarin davom ettira olmaydilar. Umuman olganda, dars mas’uliyatining passiv holatga kelishida ko‘plab omillar xissa qo‘shsada, asosiy sabablari bo‘lgan ushbu omillarni hal qilish vaziyatni ijobiy tarafga o‘zgartira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Т.: «IQTISODMOLIYA» нашриёти, 2010, [1-13] 312 бет.
2. Ш. С. Жуманов. “Умумий педагогика” фани буйича ўқув-услубий мажмуа. – Самарканд: СамДЧТИ, 2018, [2-21] 307 бет.
3. A. N. Ziyayev. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Qo‘qon: Muqimiy nomidagi Qo‘qon Davlat Pedagogika instituti. 2020, [3-31] 134 bet.

OLIY TA’LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Turabov Anvar Mavllankulovich
Jizzax politexnika intituti katta o‘qituvchisi,
Aqboev Anvar Akbar o‘g‘li
Jitzzax politexnika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolaning mazmunida zamonaviy jaxon ta’lim muhiti sharoitida ta’lim sohasidagi ilg‘or tajribalar asosida O‘zbekistonda oliy ta’lim faoliyatini hamda zamonaviy o‘qituvchining pedagogik faoliyatini tashkil etishda pedagogik madaniyatni rivojlantirish masalalari yuzasidan ilmiy, uslubiy ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion rivojlanish, ishbilarmonlik muloqoti, sifat, axborot muhiti, pedagogik madaniyat, zamonaviy mutaxassis, texnologiya.*

Аннотация: *Данная статья содержит научно-методическую информацию по вопросам развития педагогической культуры при организации деятельности высшего образования и педагогической деятельности современных преподавателей в Узбекистане на основе передового опыта в сфере образования в современной мировой образовательной среде.*

Ключевые слова: *инновационное развитие, деловые коммуникации, качество, информационная среда, педагогическая культура, современный специалист, технологии.*

Abstract: *This article contains scientific and methodological information on the development of pedagogical culture in the organization of higher education activities and the pedagogical activities of modern teachers in Uzbekistan based on best practices in the field of education in the modern global educational environment.*

Key words: *innovative development, business communications, quality, information environment, pedagogical culture, modern specialist, technology.*

Jahonda turli jabhalarda kechayotgan tezkor integratsiya jarayonlari, global iqtisodiyotning o‘sib borayotgan hukmronligi va keng tarqalayotgan tizimli raqamlashuv, ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish hamda mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog‘liq yangi vazifalar zamon talabiga javob beradigan oliy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan samarali modellarni izlashni taqozo etadi. Shu bilan birga, oliy ta’limning zamonaviy professor-o‘qituvchisi pedagogik faoliyatining istiqboldagi talablari - axborot va kompyuter texnologiyalari, tillarni bilish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish hamda moxirlik bilan qo‘llay olish, o‘zida o‘qituvchiga xos shaxsiy sifatlarni shakllantirish kompetensiyalaridir, chunki, oliy ta’lim sharoitida ta’lim faoliyati nazariyasi va amaliyotiga tuzatishlar kiritish professor-o‘qituvchilarga yangi talablarni qo‘yib boradi. Pedagogik faoliyatda ishbilarmonlik muloqoti pedagogikasi va psixologiyasini o‘zlashtirish o‘qituvchi muvaffaqiyatining zamonaviy shartlaridan biridir. Shuni alohida ta’kidlash joyizki, innovatsion pedagogik madaniyatning rivojlanishi – ta’lim sifatining yangi bosqichini tavsiflaydi.

Zamonaviy taraqqiyot sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalari murakkab o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy jamiyatning global axborotlashuvi o‘quv jarayoniga, oliy ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi va qo‘llaniladigan o‘qitish usullarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy omili sifatida konstruktiv va tezkor yondashuvga asoslangan o‘qitish usullariga o‘tish, zamonaviy ta’lim muxiti

talablarnga javob bera oladigan pedagoglar jamoalarini shakllantirish zaruratini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda butun jahon ta'lim tizimlari faoliyati mazmuni va bu boradagi ijtimoiy qarashlarning o'zaro mos kelishi oliy ta'lim muassasalarining o'zlari uchun strategik maqsadlarni belgilab olishi uchun ijobiy muhit yaratdi. Buning natijasida O'zbekistonning ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim tizimi jahon ta'lim makoniga munosib strategik hamkor sifatida kirib borishi, o'z imkoniyatlari, innovatsion tadqiqotlari va pedagogik texnologiyalarini e'lon qilish, eng nufuzli va yirik loyihalarda ishtirok etish uchun tarixiy imkoniyatga ega bo'ldi.

Oliy o'quv yurtlarida yangi ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning paydo bo'lishi o'qitishning ijodiy-metodik asoslarini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bunday sharoitda oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida professor-o'qituvchilarning o'z pedagogik darajasiga nisbatan mas'uliyati ortadi. Ta'lim va innovatsiyalarning o'zaro ta'sirlashuvi samarali ta'lim faoliyatining ob'ektiv omiliga aylanadi.

Ta'lim ilmdan farqli o'laroq, yangi bilimlarni shakllantirishga, tizimlashtirilgan bilimlar asosida esa - ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular sub'ektlar - o'qituvchilar, ma'ruzachilar; ob'ektlar - o'quvchilar va talabalar; ta'lim muassasalari; o'quv rejalari va dasturlari; bilimlarni berishni osonlashtiradigan o'qitish usullari; tinglovchilarni nazorat qilish va bilimlarni baholash shakllari bilan tavsiflanadi. Axborot sivilizatsiyasining rivojlanishi ta'limni siyosiy, ijtimoiy, ishlab chiqarish va ma'naviy taraqqiyotning, intellektual resurslar va inson kapitalini shakllantirishning asosiy manbaiga aylantirdi.

Fanning yangi uslubiy asoslarini ishlab chiqish, yangi ilmiy nazariyalar va innovatsiyalarni tezda tushunish va o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirish, hayotiy muhim va maqsadli yo'nalishlarida o'zini-o'zi belgilash va takomillashtirish - bu yosh o'qituvchi uchun ham, tajribali o'qituvchi uchun ham dolzarb bo'lgan pedagogik faoliyatni o'zlashtirish hamda bu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarining muammoli sohasi sifatida qaralib kelinadi.

Oliy ta'lim innovatsion faoliyatining o'ziga xos xususiyati ilmiy-tadqiqot va ta'lim faoliyatining uzluksiz rivojlanishi va sifatiga asosiy e'tiborni qaratish zarurligini taqozo etmoqda. Innovatsion oliy ta'lim birinchi navbatda yuqori sifatli ta'limni ta'minlashi kerak, uning shartlari o'quv fanlaridan talabalarning nazariy tasavvurini, kasbiy intuitsiyasini va amaliy-faoliyatli ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasida rivojlanayotgan ta'lim xizmatlari bozori sharoitida Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining mazmunida – ta'lim sifati, raqobatbardoshligi va kelajakdagi rivojlanish bosqichlariga tayyorligi uning asosiy ko'rsatkichlari majmuiga

aylanishi zarur. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini kompleks baholash, davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyadan o'tkazishdan maqsad, birinchi navbatda, mutaxassislar tayyorlash sifatini va amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlarini baholashga qaratilgan. Mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmalarining hajmi, budjet mablag'larining oliy ta'lim muassasalari bo'yicha taqsimlanishi, ularning respublika va xalqaro reytinglarda qanday o'rin egallashi ko'p jihatdan ularning erishgan natijalariga bog'liq bo'ladi.

Ushbu yo'nalishda qat'iy qarorlar qabul qilish sifat muammosini nazariy muhokama qilishdan amaliy darajaga o'tishga, xususan, ta'lim faoliyatini takomillashtirishning barqaror tizimini yaratishni ta'minlaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishni boshlashga imkon beradi. Bu nafaqat mavjud kamchiliklarni tezkor aniqlash va bartaraf etish, balki barcha jarayonlar sifatini maqsadli rejalashtirish va samarali boshqarish imkonini beradi. Bunday texnologiyalarga oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish konsepsiyasi va strategik rejasini ishlab chiqish, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha harakatlar dasturlari, professor-o'qituvchilar reytingi, o'z-o'zini baholash, ichki audit va boshqa bir qator masalalarni kiritish mumkin. Shu munosabat bilan hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalari oldida jarayonlarning mazmuni va shakllari (ta'lim xizmatlari bozoridagi marketingdan tortib, bitiruvchilar va ish beruvchilar bilan ishlashgacha) tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani yanada rivojlantirish, yaratish va joriy etish, shuningdek, ularning sifatini oshirish vazifasi turibdi. Bu borada takomillashgan ta'lim siyosatini yuritish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish zarurati yaqqol ko'rinib turibdi, xorijiy universitetlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish ularning ta'lim sohasidagi zamonaviy tajribasini o'rganish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, talabalar, tadqiqotchilar va o'qituvchilarning akademik mobilligini rivojlantirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va innovatsion faoliyatida maqsadli axborot ta'minotini yaratish, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida erishilgan muvaffaqiyatlari uchun mukofotlar ta'sis etish bilan birga olib borilishi kerak. Ta'limdagi innovatsiyalar: ta'lim mazmunini yangilash, yangi texnologiyalar va o'quv jarayonini tashkil etish shakllaridan foydalanish demakdir. Ta'limda "Pedagogik innovatsiyalar maktab" lari faoliyatini rivojlantirishga talab ortib bormoqda, bunda o'qituvchilar "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalarini farqlaydilar, innovatsiyaning falsafiy, aksiologik, uslubiy asoslarini belgilaydilar, asosiy yo'nalishlarini tahlil qiladilar. Shu bilan birga, har bir mutaxassis pedagogik faoliyatning innovatsion modelini ishlab chiquvchi yoki tarqatuvchi sifatida o'zi uchun eng mos yo'nalishni tanlash imkoniyati paydo bo'ladi. Ushbu o'quv kurslarining aks ettiruvchi komponentlari, birinchidan,

o‘qituvchining o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqishi uchun sharoit yaratishga, ikkinchidan, kurslarda o‘qishga ongli munosabatda bo‘lishga qaratilgan bo‘lib, bu uning kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishda imkoniyat darajasini belgilab olishning kalitidir. O‘quv kurslarini tashkil etishda o‘quv jarayoni tashkilotchilarining ham, kurs ishtirokchilarining ham o‘quv-uslubiy jixatdan hamkorligi muhim rol o‘ynaydi.

Oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari malakasini oshirishni tashkil etish bo‘yicha bunday yondashuvlar bizga innovatsiyalarni joriy etish strategiyasidan ilmiy tadqiqot, ilmiy loyihalar va innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish strategiyasiga o‘tish imkonini beradi.

Ta’limda axborotni uzatish jarayoni o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri tamoyiliga asoslanadi. Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi oldida talabaning ijodiy salohiyati va bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini faollashtirishga qaratilgan o‘qitishning shunday texnologiya va usullarini ishlab chiqish va joriy etish vazifasi turibdi. Shu bilan birga, talaba shaxsini va uning muhim yo‘nalishlarini shakllantirishning pedagogik muammosini hal qilish kerak, chunki oliy ta’limda o‘qish jarayoni har bir inson hayotidagi ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Yana bir muhim jixat, ta’limning mazmuni va sifati - talabaning bilim darajasi va aql-zakovati, uning o‘quv jarayonida qanchalik faol ishtirok etishiga bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi global o‘zgarishlar davri pedagog-o‘qituvchilarga alohida talablar qo‘yadi. Bunda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, pedagogik maxorati va texnikasi, umuman olganda bu pedagogik madaniyat tushunchasi mazmunini aniqlashtirishni nazarda tutadi. Ilmiy kategoriya sifatida pedagogik madaniyat – o‘qituvchi tomonidan pedagogik faoliyat jarayonida eng muhim kompetensiyalarni rivojlantirib, takomillashtirib borishni talab etmoqda, bu uning yangi jihatlari va tarkibiy qismlarining asoslanishi kerakligidan dalolat beradi.

Eng avvalo, oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchisi pedagogik madaniyatni - o‘qituvchi shaxsi rivojlanishining erishilgan yuqori darajasi, oliy ta’lim muassasasining pedagogik tajribasi va o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni ma’lum darajada egallashi sifatida tushunishi va ifodalashi maqsadga muvofiqdir. Pedagogik madaniyat pedagogik faoliyatning boshqa tarkibiy qismlari bilan birgalikda, o‘qituvchining pedagogik rivojlanishining eng yuqori bosqichi sifatida qaralishi zarur. Darhaqiqat, ma’lum ma’noda pedagogik madaniyat ularning dialektik birligida mukammallikka erishadi. Bu darajaning boshlang‘ich bosqichida pedagogik bilimlarni egallash, keyin esa pedagogik mahorat boshlanadi. Bunday yondashuvlar ta’lim sohasidagi rivojlanish davrida zamonaviy o‘qituvchi faoliyatining ilmiy asoslari ustida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kengroq mazmunda ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

O‘qituvchilarda ta’lim muammolarini hal qilish istagi va qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Bu o‘qituvchining insonparvarligidan, o‘quvchilarga do‘stona munosabatidan dalolat beradi. O‘qituvchi ta’lim faoliyatining asosi sifatida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy qobiliyatlari, qiziqishlari va moyilliklari, umuman uning har tomonlama shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash vazifasi ustuvor bo‘lishi kerak. Demak, o‘qituvchining pedagogik madaniyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, uni shakllantirish va takomillashtirish bosqichlarini amalga oshirish oliy ta’lim muassasalarida pedagogik madaniyat muhiti namoyon bo‘lishining muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim sohasidagi davlat siyosati xalqaro tajribalar bilan integratsiyalashgan ilmiy asoslarga ega bo‘lishi kerak - faqat shundagina ta’lim shaxs, oila, jamiyat va davlat ehtiyojlarini to‘liq qondiradi, budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni hamda ta’lim xizmatlarining jahon bozorlarida raqobatbardosh bo‘lishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гончарук Н.П. Развитие интеллектуальной компетентности и профессиональной мобильности научно педагогических кадров в условиях информационного общества. – Казань: Изд-во МОиН РТ, 2011. – 224с.

2. Кан-Калик В.А. Педагогическое общение преподавателя и студентов в условиях вуза// Основы педагогики и психологии высшей школы. М., 1986. С. 255–272.

3. Зеер Э.Ф., Модернизация профессионального образования: компетентностный подход // Образование и наука. - 2004. - №3. – С. 42-53.

4. Turabov A., Kasbiy mobillik bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisi psixologo-pedagogik sifati. Professional ta’lim, Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal // 4-son, 2023-y.

5. Turabov A., Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatining ahamiyati. Scientifik journal ERUS (Educational Research in Universal Sciences), Volume 2 // Special Issue 18 //| 2023-y. 312-316 b.

LOGOPEDNING RINOLALIYADA OLIB BORADIGAN KORREKSION ISHLARI

Dilshoda Ikromova
Namangan davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika yo`nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: D.D.Oribboeva

Shunday qilib, ta’lim amaliyotchilari va nazariyotchilari uchun muhimroq savol tug‘iladi: noqonuniy talablarni rad etish uchun javobgarlikning axloqiy tushunchasi va uning texnokratik hamkasbi o‘rtasidagi farqni qanday aniqlash mumkin? Bu savolga ikkita mumkin bo‘lgan javob mavjud: Birinchidan, biz farqlash aniq mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin, chunki mas’uliyatning ikkita tushunchasi o‘z ta’sirida tubdan farq qiladi. Shunday qilib, biz atamaning axloqiy va demokratik qo‘llanilishini nazariy jihatdan tavsiflashimiz va shu orqali nodemokratik va texnokratik foydalanishni aniqlashimiz va tanqid qilishimiz mumkin. Tahlilimizning ikkinchi natijasi shundaki, bu farq unchalik oddiy emas, chunki mas’uliyat va javobgarlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tasodifiy emas, balki aslida konsepsiyaning o‘zida joylashgan. Bu shuni anglatadiki, ikkala tushuncha ham ular o‘rtasida dixotomik qarama-qarshilikni keltirib chiqaradigan har qanday harakatni sezilarli darajada murakkablashtiradigan tarkibiy o‘xshashliklarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Susanna Trnka va Ketrin Trundl, muharrirlar, Raqobatchi mas’uliyat: Zamonaviy hayotning siyosati va axloqi (Durham, NC: Duke University Press, 2017).

2. RS Peters, Vakolat, mas’uliyat va ta’lim , 3-nashr. [Etika va Pedagogikadagi javobgarlik] 2015

3. Susanna Trnka va Ketrin Trundle, "Raqobatbardosh mas’uliyat: Zamonaviy hayotda shaxsiy mas’uliyat, boshqasiga g‘amxo‘rlik va ijtimoiy shartnomani hisoblash", " Raqobat mas’uliyati ". Trnka va Trundle, 5.

4. Eberhard Grisebach, Diye Grenzen des Erziyehers und seine Verantwortung [O‘qituvchining chegaralari va mas’uliyati] 2020.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI O’QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Shoira Habibullayeva Farhod qizi

Guliston davlat universiteti 3 kurs talabasi

xabibullayevashoira@gmail.com

Annotatsiya*: Ushbu maqola hozirgi kunning asosiy ta'lim vositalariga aylanayotgan multimediya va texnologiyalardan boshlang'ich sinf o'quvchilariga sifatli ta'lim berishda va o'qitishda foydalanish va uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni haqida foydali bilimlarni qamrab oladi. Ta'limda multimediya vositalaridan foydalanish metodikasini eng yaxshi usulda takomillashtirish o'quvchilarda darslarga bo'lgan qiziqishni oshiribgina qolmay, ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishda va albatta, kelgusida jahon andozalariga javob beraoladigan raqobatbardosh kadr bo'lishlariga yordam berishini bilib olamiz.*

Kalit so'zlar: *samaradorlik, multimediya, kommunikativlik, o'quv meteriali, zamonviy pedagog va texnologiyalar*

Abstract: *This article covers useful knowledge about the use of multimedia and technologies, which are becoming the main educational tools of today, in quality education and training of primary school students and its role in improving educational efficiency. We will learn that improving the method of using multimedia tools in education in the best way will not only increase students' interest in lessons, but also help them to expand their worldview and, of course, to become competitive personnel who can meet world standards in the future.*

Key words: *efficiency, multimedia, communicative, educational material, modern pedagogue and technologies*

Аннотация: *В данной статье представлены полезные знания об использовании мультимедиа и технологий, которые сегодня становятся основными образовательными инструментами, в качественном образовании и обучении учащихся начальных классов и их роли в повышении эффективности образования. Мы узнаем, что совершенствование метода использования мультимедийных средств в образовании наилучшим образом не только повысит интерес учащихся к урокам, но и поможет им расширить свое мировоззрение и, конечно же, стать конкурентоспособными кадрами, способными соответствовать мировым стандартам в сфере образования. будущее.*

Ключевые слова: *эффективность, мультимедиа, коммуникативность, учебный материал, современный педагог и технологии.*

Bugungi kunda dunyoning shiddat bilan globallashuvi ko'pchilik kasb egalari singari o'qituvchilarni ham rivojlanishga, o'z ustida ishlashga undaydi. Shunday ekan boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish, bolalarga fanni sevishga va qiziqib o'rganishga yordam beradigan turli metodlarni yaratishda turli multimediya

vositalaridan va texnologiyalardan foydalanish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda Prezidentimiz jahon standartlariga javob bera oladigan kadrlar yetishtirish maqsadida boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor bermoqdalar. Buni Prezidentimizning 2022-yil 28- yanvardagi "2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 Farmonidan ham anglashimiz mumkin. [4]

Hozirgi kunda o'quvchilarni metodlarimizda qo'llaniladigan tarqatma meteriallari emas, balki turli g'ariyibotlarga boy, rang-barang multimediali videodarslar va electron bajariladigan quiz testlar qiziqtiradi. Texnologiyalarning rivojlanishi va dars metodlarini multimediyali qilib takomillashtirish orqali o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirishimiz, fikrlash tezligini ortib borishimizda katta ahamiyatga ega. Mana shunday zamonaviy texnologiyalarga asoslangan metodikani takomillashtirish uchun asosan darslarda ko'proq multimediyalardan foydalanish, qiziqarli videolar orqali tayyorlangan metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bunday metodlarni takomillashtirish uchun avvalo, tilimizga allaqachon tanilib ulgurgan so'zlarning ma'nosini chuqqurroq bilib olsak: multimediya atamasining bir qancha ma;nolari mavjud. Jumladan: multimedia-(inglizcha-yunoncha "multi"-ko'p, "media"-muhit) bu axborot informatsiya uzatishning xilma-xil vositalarini qamrab olgan texnologiya bo'lib, unda muayyan dasturlar va vositalar mavjud.

Multimedia- kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Darslarda multimedia vositalaridan foydalanish jarayonida o'quvchi

-o'quv materialini ko'rgazmali tarzda taqdim etadi;

-yangi materiallarni tezlik bilan yetkazadi;

-axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar yordamida boshqara oladi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatining buzilishi juda tez bo'lganligi sababli dars jarayonini qiziqarli metodalardan foydalanib darsni foydali bilimlarrga boy va e'tiborni tortadigan qilib o'tishda multimediya vositalarining o'rni juda katta. Quyida ularning bir nechtasini darsda qanday foydalanishi bilan birga ko'rib o'tamiz:

1.Raqamli hikoya qiluvchilar: O'qituvchilar multimediya vositalaridan raqamli (electron) , rasmli, videoli va audioli electron hikoyalarni yaratishda foydalana olishadi va bu yosh o'quvchilarning til ko'nik,alarini rivojlantirishda muhim ahamaiyat kasb etadi.[2]

2.Interaktiv doskalar: bunday doskalardan ta'limiy videolar ko'rsatishda, interaktiv (ikki tomonlama faoliyat, yoki bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi") o'yinlar va boshqa

kontentlarni bolalarning o'qish jarayonida ko'rish uchun foydalanish mumkin. Shu o'rinda interaktiv o'yinlarning bolalarga yaxshi ta'siri haqida qo'shimcha qilsak: bu turdagi o'yinlar foydalanuvchilarga biror narsani bajarish, mantiqiy muammolarni hal qilish yoki faollikni bajarish imkonini beradi.

3.Ta'limiy ilovalar: Hozirgi kunda yosh o'rganuvchilar uchun turli xil ta'limiy ilovalar juda ham ko'p. Bunday animatsiyali, audioli ilovalar bolalarning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

4.Virtual sayohatlar: bu yangi bilmagan joylarni kashf qilishning zamonaviy va osson usuli. Virtual sayohat orqali biz o'quvchilar bilan birgalikda xonani tark etmay turib tarixiy hodisalar, o'rmonlar va tabiat haqida juda ko'p bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda samaradorlikni oshirishning eng yaxshi usuli bu texnologiyalardan va multimediyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirishdir. Biz ona tili darslarimizda ham ingliz tilida qo'llaniladigan tinglab tushunish metodikalarini qo'llab, o'quvchilarimizda tushunish ko'nikmasini yana ham rivojlantirishimiz mumkin.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BULUTLI TEXNOLOGIYANING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

DEDAXANOV AKRAMJON OLTMISHBOYEVICH
Namangan muhandis-texnologiya instituti, Katta o'qituvchisi
akkadd00@yandex.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Bulutli texnologiyalar"ni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish to'grisida ma'lumotlar keltirilgan. Bulutli texnologiyalar zamonaviy axborot texnologiyalari pedagogik jarayonni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zi: *nazorat, monitoring, bulutli, eslab qolish, passiv o'zlashtirish, nazorat paketlari.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: *В этой статье представлена информация о применении"облачных технологий " в образовательном процессе. Облачные технологии современные информационные технологии занимают важное место в развитии педагогического процесса.*

Ключевые слова: *контроль, мониторинг, облако, запоминание, пассивное освоение, контрольные пакеты.*

PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF CLOUD TECHNOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: *This article provides information on the implementation of "cloud technologies"in the educational process. Cloud technologies modern information technologies occupy an important place in the development of the pedagogical process.*

Key words: *Control, monitoring, Cloud, remember, passive mastering, control packages.*

Bulutli texnologiyalarni oliy ta'lim muassasalarida faoliyatiga tatbiq qilish ko'p jihatdan maqsadga muvofiqdir. Ushbu texnologiyalar ta'lim tizimini rivojlantirishning yangi vositasi bo'lib, u pedagogik jarayonini rejalashtirish, nazorat va monitoring qilish vazifalarini bajarishga, ko'plab ishtirokchilarni jalb qilishga imkon beradi.

Bulutli texnologiyalar talabalarning, umuman, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining xamkorlikdagi ta'limiy faoliyatini tashkil qilish imkoniyat yaratadi. Ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanishning asosiy afzalliklari quyidagilardir: ta'lim sifatini oshirish, ta'limning dasturiy ta'minotniga ketadigan xarajatlarini kamaytirish, talabalarning mustaqil bilim olishlarini tashkil qilish, pedagogik jarayon jozibadorligini oshirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari pedagogik jarayonni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llash muammosi shu texnologiyalarni maqsadga muvofiq tanlash masalasi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu muammoning echimi axborot texnologiyalari va o'qitish jarayoni o'rtasidagi aloqalarni tartibga solish, ya'ni ta'lim tizimining texnologik va pedagogik bo'linmalari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish zaruratini tug'diradi. Texnologiyalarni to'g'ri tanlash muammosi ularning haddan tashqari ko'pligi va rang-barangligi bilan ham e'tiborlidir. Hozirgi kunda bulutli texnologiyalar zamonaviy ta'limda keng qo'llanilmoqda.

Bulutli texnologiyalar talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini kompyuter vositasida tezkor aniqlashda va o'qitish tizimini mustahkamlashda katta imkoniyatlarga ega. bulutli texnologiyalar asosida test sinovlarini to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun bir qator shart-sharoitlar yaratish lozim. Jumladan:

- o'quv xonalarini talabalar son jihatidan kelib chiqqan holda kompyuter vositalari bilan jihozlash;
- talabalarni bulutli texnologiyalar asosida ishlashga tayyorlash;

- pedagog xodimlarning kompyuter savodxonligini takomillashtirish va bulutli texnologiyalar bo‘yicha nazorat paketlarini yaratish ko‘nikma va malakalarini oshirishga erishish kabilar talab qilinadi.

Bulutli texnologiyalar asosida yaratilgan nazorat paketlaridan foydalanish natijasida alohida mavzular yoki muayyan o‘quv kursi bo‘yicha talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajalarini tezkor aniqlash imkoniyati yaratiladi. Eng muhimi talabalarda ta’lim olishga, kasbiy yuksalishga nisbatan motivatsiya yuzaga keladi. Ular o‘quv axborotlarini shunchaki eslab qolish, passiv o‘zlashtirish etarli emas ekanligini tushunib etadilar, ta’limiy faoliyat davomida bilim darajalarini, o‘z imkoniyatlarini belgilashda ongli va faol qatnashadilar.

O‘z navbatida bulutli texnologiyalar asosida ishni tashkil qilish orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatiga tanqidiy yondoshadi, natijalarni o‘rnida tahlil qiladi, kamchiliklarni aniqlaydi va kelgusi faoliyatga zarur o‘zgarishlar, yangiliklar kiritadi. Ushbu tizimning qulay jihatlari shundan iboratki, bunda talabalar o‘z bilim darajalarini aniqlash va baholashda shaxsan ishtirok qiladilar. Endi baholash jarayonida hech qanday sub’ektivlikka yo‘l qo‘yilmaydi, ya’ni barchasi dasturlashtirilgan holda olib boriladi. Talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari an’anaviy sharoitlarda savol-javob, frontal so‘rov yoki yozma nazoratlar natijalari orqali aniqlanadi. Muvaffaqiyat ko‘p hollarda talabada ta’limga, kasbiy yuksalishga nisbatan ehtiyojning, shaxsiy majburiyat tushunchalarining qay darajada shakllanganligiga ham bog‘liq. bulutli texnologiyalarning afzalliklari bir qadar keng. Ya’ni ushbu tizimni maxsus jihozlangan o‘quv xonalarida ma’ruza mashg‘ulotlarida ham qo‘llash mumkin. Bulutli texnologiyalar asosida nazorat paketlari Davlat ta’lim standartlari asosida har bir o‘quv fanining xususiyatlari, mavzuning maqsad va vazifalari, talabalar bilim va ko‘nikmalarining qanday darajalari tekshirilishini inobatga olib yaratiladi. O‘qituvchi talabalarning ma’ruza davomida keltirilgan o‘quv axborotlarini o‘zlashtirish darajalarini o‘z o‘rnida aniqlab oladi va kelgusida muvaffaqiyatni ta’minlashga hizmat qiluvchi ish uslublarini tanlashga harakat qiladi.

Bulutli texnologiyalar asosida ish mashg‘ulot oxirida 8-10 minut davom qilishi, unda keltirilgan savollar aniq shaklantirilishi, turli mujmalliklardan holi bo‘lishiga erishish darkor. Savollarga to‘g‘ri javoblarni belgilash orqali talaba ball to‘playdi. Har bir javob alohida baholanadi. Agar talaba tomonidan noto‘g‘ri javob keltirilsa, 0 ball ko‘rsatiladi. Javoblar noto‘g‘ri belgilangan taqdirda, to‘g‘ri javob varianti ham ko‘rsatib boriladi.

O‘qituvchida talabalarning o‘zlashtirish natijalari bo‘yicha aniq statistik ma’lumotlar to‘planadi. Natijalar elektron jurnalga kiritiladi, har bir talabaning va guruhning umumiy natijalari displey ekranida detallashtirilgan ko‘rinishlarda namoyon

bo'ladi. Bu jarayonning ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, bir tomondan o'qituvchi va ikkinchi tomondan esa talaba shaxsiy takomillashish maqsadlarini qo'yadilar. Talabalarning bilimlarni o'zlashtirishdagi muammolari o'rnida aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-sonli farmoni "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5349-sonli Farmoni.
3. A.O. Dedaханов. "TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI"// SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021. 1393-1397 betlar.
4. A.O. Dedaханов. "BULUTLI TEXNOLOGIYALAR VA ULAR BILAN ISHLASH"// ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ. Выпуск №15 (том 2 июнь, 2021) Ст. 1340-1346
6. Google Apps Education Edition [Электронный ресурс]. - URL:http://www.google.com/a/help/intl/en/edu/index.html.
7. Google Apps для учебных заведений [Электронный ресурс]. - URL:http://www.google.com/enterprise/apps/education/products.html.

MUZEY PEDAGOGIKASI VOSITASIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISH

Dadaboyev Suhrob Mansurjonovich
Namangan davlat pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o`qituvchisi
E-mail:*dadaboyevsuhrob89@gmail.com*

Annotatsiya*: Ushbu maqolada, ta'lim tizimining samaradorligi jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omilligi asnosida ta'lim tizimidagi pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda muzey pedagogikasining ijobiy ahamiyati, uning kelib chiqish tarixi hamda bo'lajak o'qituvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida fikr yurutilgan.*

Kalit so'zlar: *Muzey, muzeyshunoslik, eksponat, integratsiya, muzey pedagogikasi, virtual muzey, virtual ekskursiya, renessans.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается положительное значение музейной педагогики, история ее зарождения, а также значение воспитания будущих учителей в духе патриотизма, наряду с педагогическими технологиями в системе образования, как фактора, определяющего развитие музейной педагогики. общества, эффективность системы образования рассматривается.*

Ключевые слова: *музей, музеология, экспонат, интеграция, музейная педагогика, виртуальный музей, виртуальный тур, ренессанс.*

Abstract: *In this article, the positive value of museum pedagogy, the history of its origin, and the importance of educating future teachers in the spirit of patriotism, along with pedagogical technologies in the educational system, as a factor that determines the development of the society, the effectiveness of the educational system considered.*

Keywords: *museum, museology, exhibit, integration, museum pedagogy, virtual museum, virtual tour, renaissance.*

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy va siyosiy hayotining jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganligi bilan bir qatorda madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmish merosimizni o'rganish, saqlab qolish hamda uni xalqimizga keng ko'lamda tadbiq etish borasida ham juda ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizning barcha sohalardagi yangilanishlari qatorida O'zbekiston hududidagi muzeylar rivoji uchun ham katta imkoniyat eshiklari ochildi. Har bir davlat taraqqiyoti uchun o'z qadriyatlari, an'analari hamda madaniy merosini saqlab qolish muhim masala hisoblamadi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilinib, ushbu islohotlar, muzey va muzey hodimlari faoliyati uchun tub burulish yasadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, O'zbekiston respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi qonuni, Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni [2], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab quvvatlash masalalari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizdagi muzeylarning faoliyati hamda rivojlanishi uchun ulkan o'zgarishlar tuhfa etdi. Ayni o'sha vaqtdanoq muzey masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi. Ushbu islohotlar, ayni paytda muzeyshunoslikda erishilgan barcha yutuqlar uchun poydevor bo'ldi deb ayta olamiz.

So'ngi yillarda ham bu borada keng ko'lamda chora-tadbirlar olib borilishi davom etib kelmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2017-2027 yillar mobayinida muzey ashyolarini ishonchli saqlash, tashrif buyuruvchilar,

xususan, imkoniyati cheklangan kishilar uchun ham qulay shart sharoitlar yaratish, turizm sohasini rivojlantirish, arxitektura rejalashtirish, interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e'tibor qaratgan holda har bir muzey binosining loyihasini, muzeyning yo'nalishi va mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda tasdiqlashni nazarda tutuvchi 10 yillik davlat dasturi qabul qilindi. Shu bilan birga muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2021-yilning 26-noyabr kuni prezidentimiz tomonidan "Muzeylar to'g'risida"gi qonuniga [3] qo'shimchalar kiritish haqidagi qonun imzolandi. Bundan tashqari Prezidentimizning 2021-yil 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm va Sport Vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi [1] yangi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror yuzasidan Madaniy Meros agentligida, yurtimizda faoliyat olib borayotgan muzey rahbarlari hamda ushbu soha mutaxasislari bilan yalpi majlis bo'lib o'tdi.Davlatimiz raxbari tomonidan 2022-yil 1-avgustgacha birinchi va ikkinchi renessans, jumladan buyuk ajdodlarimiz va davlatchilik tarixi bo'yicha muzeylar turkumini yaratish xususida tegishli qarorlar loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish bo'yicha qator topshiriqlar berildi. Bunga ko'ra yangi Muzeylar faoliyati buyuk allomalar – Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Bobur Mirzo, Lutfiy, Ali Qushchi, Mahmud Zamaxshariy, Buhoriy, Termiziy, Abdurahmon Jomiy, Yusuf Xos Hojib, Kamoliddin Behzod kabi buyuk mutafakkirlar hayoti va ijodiga bag'ishlanadi. Ushbu Muzeylarda davlatchilik tarixi – Katta Xorazm va Baqtriya, Qadimgi Farg'ona va Kushon, Temuriylar, Xorazmshohlar kabi jahon sivilizatsiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan davlatlar to'g'risida ekspozitsiyalar yaratish ko'zda tutilgan.

Yosh avlod – mamlakatning kelajagi hisoblanadi. Ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat, insonparvarlik hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muzey pedagogikasining o'rni beqiyosdir.

"**Muzey pedagogikasi**" atamasini birinchi bo'lib G.Froydentalning "Muzey - xalq ta'limi - maktab" (1931) kitobida qo'llagan bo'lib, unda muallif dastlab muzey va maktab o'rtasidagi farqning mohiyatini va ularning imkoniyatlari chegaralarini aniqlab olish kerakligini va shundan keyingina birgalikdagi ishlarni rejalashtirish zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek maktab o'quvchilari bilan ishlash uslubi, shu jumladan, talabalarni muzeyga tashrif buyurishga tayyorlash, keyin olingan bilim va taassurotlarni mustaxkamlash tasvirlangan.[4] **Muzey pedagogikasi** – muzeylarning tarixi, madaniy-ma'rifiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini, muzeylarning turli toifadagi tashrif buyuruvchilarga ta'sir qilish usullarini, muzeylarning ta'lim muassasalari bilan o'zaro aloqalarini o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi.

Muzey pedagogikasining maqsadi muzey va pedagogik jarayonni ijodiy rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan o‘qituvchisi va talaba o‘rtasidagi tizimli tashkil etilgan va aniq yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyati sifatida o‘rganishdir.

O‘zbekiston Davlat tarixi muzeyi direktori J.Ismoilovaning fikrlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, muzey pedagogikasi — bu muzey muhiti sharoitlarida o‘tmish tajribalari, tarixiy, ma’rifiy, madaniy qadriyatlarni pedagogik jarayon orqali kelajak avlodga yetkazishdan iborat. Muzey yosh avlod tarbiyasi jarayoniga munosib hissa qo‘shuvchi ko‘makchi maskandir. Muzey pedagogikasi yo‘nalishida asosan muzeyning ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligi ko‘zda tutiladi.

Mazkur yo‘nalishning keng ommalashuvining sababi muzeylarga tashrif buyuruvchilarni yanada jalb etish, turli noan’anaviy ta’lim-tarbiya metodlaridan foydalanib, yosh avlodda mamlakatimiz tarixini o‘rganishlarida va ularning ta’lim-tarbiya olish jarayonlarida o‘z hissasini qo‘shishdan iborat.

Hozirgi vaqtda muzey pedagogikasi madaniy tajribalarni o‘tkazishga yo‘naltirilgan muzeylarning maqsad va vazifalari, tamoyillari, mazmuni, usullari, amalga oshirish shakllarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan ilmiy bilimlarning fanlararo yo‘nalishi sifatida belgilangan. Muzeyga xos ta’lim-tarbiya jarayoni muzey faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida muzey pedagogikasining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Muzey-pedagogik tadqiqotlar muzeyda o‘quv jarayonining nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, shuningdek ekspozisiyalarni tayyorlashda va ekspozisiyada va sinf xonalarida tashrif buyuruvchilar bilan ishlashda ushbu tadqiqot natijalarini qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Bugungi kunda oliy ta`lim muassasalarida taxsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar "muzey pedagogikasi" faoliyatiga oid quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni ega bo‘lishi lozim:

- muzey va uning ijtimoiy-madaniy muassasalar tizimidagi o‘rni, muzey pedagogikasi tarixi haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish;

- zamonaviy muzeydagi ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, muzey pedagogikasi umumiy pedagogik jarayonning bir qismi ekanligi xaqida tushunchaga ega bo‘lishi;

- muzey va pedagogik faoliyatning zamonaviy muzey biznesi rivojidagi o‘rnini, uning ta’limni insonparvarlashtirish, shaxs madaniyati va ijtimoiy munosabatlar madaniyatini shakllantirish muammolarini hal etishdagi ahamiyatini tushunish;

- ta’lim va madaniy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning umumiy va o‘ziga xos ehtiyojlarini aniqlay olish;

- muzey-pedagogik jarayoni davomida ushbu o‘zaro aloqalarni tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- muzey pedagogikasining metodlari, shakl va texnologiyalarini bilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olish;

- muzey pedagogikasi nazariyasi va tarixiga oid bilimlar tizimini egallash;

- o'qituvchining barcha muzeylarda va ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyati uchun badiiy qobiliyati va estetik g'oyalarini rivojlantirish zaruriyatidan xabardor bo'lish;

- muzey qadriyatlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish jarayonini samarali tashkil eta olish va muzeyga bo'lgan qiziqishlarini muzey kommunikasiyasiga tizimli kiritish zarurati darajasiga ko'tara olish;

- muzey pedagogikasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari, metodikasi va tajriba ishlariga oid ko'nikma va malakalarini egallashlari lozim.

O'zbekistonda muzeylar XIX-asrning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlangan bo'lsa, XX-asrning boshlarida O'zbekistonda faqat 3 ta muzey: Toshkent o'lkashunoslik muzeyi (1876, hozirgi O'zbekiston tarixi muzeyi), Farg'ona xalq muzeyi (1899, hozirgi Farg'ona Viloyat o'lkashunoslik muzeyi) hamda Samarqand xalq muzeyi (1896, hozirgi A.Ikromov nomidagi Ozbekiston xalqlari madaniyati va san'ati tarixi muzeyi) bor edi holos. Bu muzeylarning to'plamlari kam bo'lib ekspozitsiyalarining ko'p qismi tasodifiy materiallardan tashkil topgan edi. XX-asrning 20-yillaridan boshlab yurtimizda turli sohalardagi muzeylar tashkil etila boshlandi. Madaniyat yodgorliklari hamda muzeylar davlat muhofazasiga o'tdi. Muzeylar uchun kolleksiyalar to'plash maqsadida ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi va ko'plab muzeylar tashkil qilindi.

Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda 350 dan ortiq muzey va muzey faoliyati bilan bog'liq ko'rgazma muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda. Xususan, Madaniyat Vazirligi tizimida 79 ta muzeylar faoliyat olib bormoqda va ulardan 32 tasi filiallar hisoblanadi.

Muzeylar – boy o'tmishimizdan tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarimizni to'plash, saqlab qolish, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi eng samarali ilmiy-ma'rifiy muassasa hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, muzeylar o'zining ekspozitsiyalari, kolleksiyalari va nodir asarlari yordamida aholining barcha qatlamlari o'rtasida ko'rgazmali, ilmiy-ma'rifiy tadbirlar olib bora oladigan maskandir. Xususan, pedagogika sohasida ham, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularda milliy qadriyatlarimizga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda ham muzeylarning o'rni beqiyosdir.

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, muzey muhitida bolalar tarbiyalanadi, ya'ni estetik idrok etish, muzey madaniyati, badiiy did shakllanishi asosida tarbiya beriladi. Ijodkor shaxs kamolotga erishib rivojlanadi, shuningdek, muzey

yodgorliklarini ko‘rish, eshitish, ma’lumot olish orqali bilish (ta’lim olish) faoliyati shakllanadi. Demak, muzey va maktablar sharoitida pedagogik faoliyat – ta’lim-tarbiya va rivojlanishning yaxlit majmui bo‘lib, shaxsni estetik tarbiyalash, bilim berish va rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bularning barchasi muzey va ta’lim jarayonini o‘zaro aloqadorlikda olib borishda, o‘quvchilarni muzeylar vositasida ma’naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘z metodikasiga ega pedagog kadrlarni hamda ta’lim muassasalari rahbar kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi muhim sohalarni takomillashtirishda innovatsion yondashuvni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.Mirziyoyevning “O’zbekiston Respublikasi Turizm va Sport Vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarori 2021-yil 19-iyun.
2. A.Karimov “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to’g’risida”gi farmoni 1998-yil 12-yanvar.
3. “Muzeylar to’g’risida”gi qonun.
4. K.Marayimova “Muzey pedagogikasi” o`quv-uslubiy majmuasi FarDU.2022
5. Mirzaaliyev E. Namangan viloyat o`lkani o`rganish muzeyi: kecha va bugun. Farg’ona 2010.-100 B.
6. Internet manbalari.

MUSIQA CHOLG‘ULARINI MAKTABDA QO‘LLASH METODIKASI

Mamatxonova Gulnoza Baxtiyor qizi
Namangan davlat pedagogika institute Musiqa ta‘lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy raxbar: Shokirxanov Baxtiyor Botirxonovich
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ijrochilik san‘ati doimiy rivojlanib boruvchi jarayondir. Boshqa sohalar singari cholg‘u ijrochiligi ham yildan - yilga rivojlanib bormoqda. Cholg‘u ijrochiligini o‘qitishda musiqiy ta‘lim tizimining uzviy ravishda olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Musiqa ta‘limini tizimli tashkil etilishi ijrochining mohir sozanda sifatida rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Cholg‘u ijrochiligi, musiqiy ta‘lim, bolalar musiqa va san‘at maktablari, o‘rta maxsus bilim yurtlari, oliy ta‘lim muassasalari, dutor, sozanda, o‘quvchi, kompozitor, ansambl, orkestr.*

Abstract: *Performing arts is an ever-evolving process. Like any other field, instrumental performance is developing from year to year. An integral part of the music education system is important in teaching instrumental performance. The systematic organization of music education is a key factor in the development of the performer as a skilled musician.*

Keywords: *Instrumental performance, music education, children's music and art schools, secondary special schools, higher education institutions, dutar, musician, student, composer, ensemble, orchestra.*

Аннотация: *Исполнительское искусство – это постоянно развивающийся процесс. Музыкальное исполнительство, как и другие направления, развивается из года в год. Важно органично осуществлять систему музыкального образования в обучении музыкальному исполнительству. Систематическая организация музыкального образования является основным фактором развития исполнителя как квалифицированного музыканта.*

Ключевые слова: *Исполнительство на музыкальных инструментах, музыкальное образование, детские школы музыки и искусства, средние специальные учебные заведения, высшие учебные заведения, студент, музыкант, студент, композитор, ансамбль, оркестр.*

Ma‘lumki, professional musiqiy cholg‘uda ijro etishni o‘rganish maktab yoshidan boshlanadi. Yosh avlodning kelajakda yetuk sozanda sifatida kamol topishi uchun uning musiqa maktabida oladigan bilim va ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega.

Musiqiy ta‘lim tizimidagi uzviylik sozandaning mukkammal bilim olib, yetuk mutaxasis bo‘lib shakllanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayon bolalar musiqa va san‘at maktablari, o‘rta maxsus musiqa bilim yurtlari hamda oliy ta‘lim muassasalarini o‘z ichiga oladi.

Ma‘lumki, professional musiqiy cholg‘uda ijro etishni o‘rganish maktab yoshidan boshlanadi. Yosh avlodning kelajakda yetuk sozanda sifatida kamol topishi uchun uning musiqa maktabida oladigan bilim va ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, bino mustahkam bo’lishi va uzoq yil xizmat qilishi uchun uning poydevori mustahkam bo‘lishi lozim. Musiqa maktabi ham sozanda uchun poydevor vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston kompozitorlarining xalq cholg‘ulari uchun maxsus asarlar yaratishi o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san‘atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo‘ldi. Shu bilan birga yuqori malakali ilmiy - pedagogik va ijrochi kadrlarni tayyorlash masalasi ham kun tartibiga qo‘yildi. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent (hozirgi O‘zbekiston) davlat

konservatoriyasi faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. 1948–yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy o‘quv yurtlarida, shu jumladan M. Ashrafiy nomidagi Toshkent (hozirgi O‘zbekiston) davlat konservatoriyasida ham xalq cholg‘ ulari ijrochiligi bo‘yicha ta‘lim berish boshlandi. O‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limiga rahbarlik qilish, o‘quvchilarni saralab yig‘ish, o‘quv rejalarini tuzish A.Petrosyans tomonidan amalga oshirilgan. Bilim yurtida o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligi bo‘yicha professional ta‘limni yo‘lga qo‘yishda V.Uspenskiy, M.Ashrafiy, A.Petrosyans, I.Blagoveshenskiy, B.Gienko, G.Sobitovlarning xizmatlari beqiyosdir.

Musiqa maktabining asosiy vazifasi yosh avlodni musiqa va san‘atning boshqa turlariga yo‘naltirish va qobilyatlarini to‘g‘ri shakllantirishdan iborat. Bu yerda bolalarning milliy qadriyatlarimiz va an‘analarimizga nisbatan hurmati, e‘tibori yanada rivojlanadi. Ma‘naviy saviyasi, estetik didi shakllanishni boshlaydi. Bir qarashda u san‘at bilan birgalikda atrofdagilar bilan muloqot, jamoa bilan munosabat, sahna madaniyatini o‘rgana boshlaydi. O‘z cholg‘usiga nisbatan muhabbati paydo bo‘adi.

Tabiiyki, ijrochilik san‘atining rivojlanishi bolalar musiqa va san‘at maktablarida o‘qitish uslubiga, ijrochilik amaliyotiga ham ta‘sir o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bugungi kunda bolalar musiqa va san‘at maktablarida o‘qitish uchun yangi-yangi asarlarga ya‘ni repertuarga bo‘lgan ehtiyoj ortmoqda. Ijrochilik san‘ati doimiy rivojlanib boruvchi jarayondir. Musiqiy ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida sozandaning ijrochilik mahorati rivojlanishi uchun nazariy hamda amaliy bilimlarni talab darajasida o‘zlashtirishi, olgan bilim va ko‘nikmlarini to’g’ri shakllantira olishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu ma‘ruza orqali musiqiy ta‘lim tizimining turli bosqichlarida dutor ijrochiligini o‘qitish masalalarini ko‘rib chiqamiz. Bolalar musiqa va san‘at maktablarida o‘qitish uslubiyoti o‘quvchiga cholg‘u haqida ilk ma‘lumotlarni berish, cholg‘uda ijro holati (postanovka)ni to‘g‘ri qo‘yish hamda nazariy bilimlarni asta–sekinlik bilan o‘rganishdan boshlanadi.

Bolalar musiqa va san‘at maktabini bitirgan o‘quvchi keyingi ta‘lim bosqichiga yo‘iladi. Bu bosqich o‘rta maxsus bilim yurtlaridir. O‘rta maxsus bilim yurtlarida ta‘lim berish jarayonlarida o‘quvchini kasbga yo‘naltirishning ilk bosqichlari boshlanadi. O‘rta maxsus bilim yurtlarida o‘quvchini ham mohir sozanda sifatida, ham pedagog sifatida rivojlantirish masalasi yotadi. Bolalar musiqa va san‘at maktabidan farqli ravishda o‘quvchi o‘rta maxsus bilim yurtida professional ijro etish ko‘nikmalarini hamda o‘z ustida mustaqil ishlashni o‘rganadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek har bir o‘quvchining o‘zlashtirish imkoniyatlari birdek emas. Ta‘lim jarayonida ana shu jihatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Demak o‘qituvchi ijrochining bolalar musiqa va san‘at maktabidagi bilim va ko‘nikmalarni qay darajada o‘zlashtira olganligini hisobga olgan holda ish olib borishi

maqsadga muvofiq. Albatta ijrochining bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi hamda mohir sozanda bo‘lib yetishishida ustozning ahamiyati katta. Shunday holatlar ham kuzatiladiki, musiqa maktabida bilimlarni o‘rtacha o‘zlashtirgan, ijro imkoniyatlari ham talab darajasida bo‘lmagan o‘quvchilar o‘rta maxsus ta‘limda bilimlarni a‘lo darajada o‘zlashtirib, ijrochi sifatida ham ijro imkoniyatlari rivojlanib, yuqori natijalarga erishishi mumkin. Bu albatta o‘rta maxsus bilim yurtidagi ta‘lim berish sifatiga hamda mutaxasislik o‘qituvchisining pedagogik mahoratiga borib taqaladi. Ijrochiga cholg‘uda ijro etish ko‘nikmalari bosqichma – bosqich o‘rgatib boriladi.

Bolalar musiqa va sanat maktablarida o‘qitish uslubiyoti o‘quvchiga cholg‘u haqida ilk ma‘lumotlarni berish, cholg‘uda ijro holati (postanovka)ni to‘g‘ri qo‘yish hamda nazariy bilimlarni asta–sekinlik bilan o‘rganishdan boshlanadi.

O‘quvchini musiqa maktabiga qabul qilish imtihonlarida uning iste‘dodi, eshitish qobilyati, eslab qolish qobilyati, ritm xissi sinovdan o‘tkaziladi. Tabiiyki, ba‘zi bir o‘quvchilarda ritm his qilish qobilyati pastroq bo‘lishi mumkin, ba‘zilarida esa eshitish qobilyatida kamchiliklar bo‘ladi. Ana shu kamchiliklarni to‘g‘irlash, musiqiy qobiliyatni rivojlantira olish kerak. Ya‘ni ritm his qilish qobilyati pastroq o‘quvchi bilan o‘qitish jarayonida ko‘proq ritm ustida ishlash maqsadga muvofiqdir. Dars mashg‘ulotlarida o‘qituvchi qarsak chalish orqali turli xil ritmlarni chalib berishi va o‘quvchidan ushbu ritmni takrorlashni talab qilishi uning ritm his qilish qobilyatini asta - sekinlik bilan rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Albatta ushbu jarayonda oddiy, sodda ritmdan asta-sekin murakkabga o‘tish kerak.

Dastlabki dars mashg‘ulotlarida o‘quvchiga o‘z cholg‘usining kelib chiqish tarixi, cholg‘uning tuzilishi, ushbu cholg‘uda ijro etgan mashhur ustoz - sozandalar, cholg‘uning o‘quv jarayonidagi ahamiyati, uning orkestrda tutgan o‘rni haqida umumiy tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir. Cholg‘uda ijro holati (pastanovka)ni to‘g‘ri shakllantirish muhimdir. Ilk mashg‘ulotlardan o‘quvchining to‘g‘ri o‘tirishiga alohida e‘tibor berish kerak. O‘tirish holatida yuzaga keladigan kichik bir xato ham o‘quvchining ijro mahoratining past bo‘lishiga hamda gavdaning rivojlanishiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunda ahamiyat beradigan asosiy vazifa o‘quvchiga to‘g‘ri o‘tirishni o‘rgatayotganda uning bo‘yi, qo‘l – oyoqlarining uzunligini hisobga olgan holda postanovka qo‘yishdir. Ya‘ni har bir o‘quvchining induvidual holatidan kelib chiqqan holda uni sozanda sifatida to‘g‘ri rivojlantirish bu ustozning muhim vazifasi hisoblanadi. Musiqa maktablarida cholg‘uni ijro etish bilan birgalikda musiqa nazariyasi hamda solfedjio fanlari o‘qitiladi. Ushbu fanlarni mukammal egallash ijrochi uchun muhim. Musiqadagi nazariy fanlarni puxta egallamaslik ijrochining kelajakdagi bilim olishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bolalar musiqa va san‘at maktablarida har bir cholg‘uda o‘qitish uchun o‘quv dasturi mavjud. Masalan dutor cholg‘usi uchun ishlab chiqilgan dasturni ko‘rib chiqaylik. Ushbu dastur U.K.Rahmatullayeva (Toshkent shahar Uspenskiy nomidagi RIMAL dutor sinfi o‘qituvchisi), N.Atayeva (23-son BMSM dutor sinfi o‘qituvchisi), F.Rasulova (22-son BMSM dutor sinfi o,,qituvchisi)lar tomonidan tuzilgan bo‘lib, mazkur dastur 2015-2016–yillarda bolalar musiqa va san‘at maktablarining xalq cholg‘ulari bo‘limi o‘quvchilari tomonidan sinovdan (aprobatsiyadan) o‘tgan.

Demak o‘rta maxsus bilim yurtidagi ta‘lim tizimini ham dutor cholg‘usi misolida ko‘rib chiqamiz. Aksariyat hollarda musiqa maktabini tamomlab, o‘rta maxsus bilim yurtlariga ta‘lim olishni davom ettirishga kelgan oquvchilar ijrosida ba‘zi bir kamchiliklar kuzatilmoqda. Masalan ijro holati (postanovka)da kuzatiladigan kamchiliklar, nota o‘qish tezligining rivojlanmaganligi, jo‘rnavoz bilan ishlash ko‘nikmalarining shakllanmaganligi hamda musiqiy-nazariy fanlarni yetarli o‘zlashtirilmaganligi. Dastlabki darslarda o‘quvchining musiqa maktabida olgan bilimlari, ijro imkoniyatlari, ijro qilgan asarlari repertuari, o‘z cholg‘usi haqidagi bilimlarini tekshirib olish maqsadga muvofiq.

O‘quvchining ijro imkoniyatlari, o‘rganib chiqqandan so‘ng dars mashg‘ulotlari ana shu imkoniyatlarni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Avvaliga o‘quvchidan murakkab bo‘lmagan kichikroq asarlarni ijro qilishi tavsiya qilinadi. Asta – sekinlik bilan asarlar murakkablashib boradi. Musiqiy asarni yod olishda o‘quvchiga frazaga bo‘lib ishlashni o‘rgatish kerak. Bu asarni oson yod olishga katta yordam beradi.

Dutor cholg‘usi shtrixlarga juda boy cholg‘udir. Masalan, bilak zarb, chertma zarb, terma zarb, teskari zarb, tremolo, rez, pitsikato, flajeletto kabilar. Bitta asar ijrosida xilma – xil shtrixlarni qo‘llashimiz mumkin. Bu asarni mazmun jihatidan boyishiga yordam beradi. Shuning uchun o‘quvchiga dutor alt cholg‘usida turli xil shrtixlarni o‘rgatib, ana shu shrtixlar asosida gamma chalish vazifasi qo‘yilsa, bu o‘quvchining o‘ng qo‘l imkoniyatlarining rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Mohir sozanda bo‘lishni istgan ijrochi ko‘p o‘z ustida mustaqil ishlashi kerak. Har kuni cholg‘usida ijro etishi, nafaqat musiqiy asar ustida ishlashi, avvalo mashqlar, gammalar ko‘p chalish kerak. Hozirgi kundagi talablar shuni ko‘rsatadiki yurtimizda oliy ma‘lumotli mutaxasislarga bo‘lgan talab yildan - yilga oshib bormoqda. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, ayni paytda yoshlar oliy ta‘lim muassasalarida bilim olishga intilmoqda. Resbuplikamizda madaniyat va san‘at sohasida ta‘lim beradigan qator oliy ta‘lim muassasalari mavjud.

Xususan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy Estrada

san‘ati instituti va boshqalar. Oliy ta‘limda ijrochi boshlang‘ich va o‘rta maxsus ta‘limda egallagan bilim va ko‘nikmalarini, ijro mahoratini mustahkam bir yo‘lga soladi. Oliy ta‘limda cholg‘u ijrochiligida ko‘proq ahamiyat beriladigan jihatlar asarni ijro etishda ko‘proq badiiylikka, mazmun mohiyatiga e‘tibor qaratiladi. Dutor cholg‘usi ijrochiligida oliy ta‘lim bosqichida ba‘zi muammolar mavjud.

Xususan repertuar masalasida yetishmovchiliklar kuzatilmoqda. Ayniqsa dutor alt cholg‘usida ijro qilish uchun asarlar yetishmaydi. Ushbu kamchilikni hisobga olgan holda, o‘zbek kompozitorlarimiz asarlar yaratishmoqda. Mohir ustoz sozandalar do‘mbrada ijro etiladigan qozoq xalq kuylarini dutor alt cholg‘usi uchun moslashtirishmoqda. Dutor va do‘mbra cholg‘ulari tuzilishi va ijro uslubi jihatidan juda yaqin. Biroq repertuar hali ham yetarli deb bo‘lmaydi. Kompozitorlardan dutor cholg‘usi uchun yangi asarlar yozish taklifi berilmoqda. Oliy ta‘limda talaba professional ijrochi bo‘lib yetishishi ta‘limning maqsadidir. Asarni mohirona ijro qilish uchun bir qancha talablar mavjud. Murakkab asarlarni mohirona ijro etish bu faqat asarni tez tempda ijro etish degani emas. Asarni ijro etishda uning badiiy jihatlari ham katta ahamiyatga ega.

Oliy ta‘limga kelgantalabalarda asarni ijro etishda badiiylik tamoyillarining yetishmasligi ko’p kuzatilmoqda. Musiqiy asarni ijro qilishni o‘rganishni boshlashdan avval asarning mazmunini tushunib yetish kerak. Buning uchun asarning kompozitori, yozilgan davri, janri, shakli bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki musiqiy ta‘lim yo‘nalishidagi uzviylikda kuzatilayotgan umumiy kamchiliklar quyidagi jihatlarda kuzatilmoqda: asarni talab darajasida ijro qila olmaslik, ijro holatidagi kamchiliklar, asarda badiiylik yetishmasligi, musiqiy nazariy fanlarning puxta egallanmaganligi, nota o‘qishdagi kamchiliklar. Bu nimaga borib taqaladi?.Albatta o‘quv jarayonida tizimli standart dastur mavjud emasligiga taqalmoqda. Ta‘lim muassasalarida o‘quv qo‘llanma va adabiyotlarning viloyatlar kesimida teng taqsimlanmaganligi, chekka joylarda o‘quv qo‘llanmalarning yetishmasligi ta‘lim tizimining hozirgi zamon talablariga mos ravishda rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Musiqa ta‘lim tizimida o‘qitish jarayonida o‘quvchini bir bosqichdan keyingi ta‘lim bosqichiga o‘tib, ta‘limni uzviy davom ettirishida uni to‘g‘ri yo‘naltirish, qobilyatlarini inobatga olgan holda dars jarayonlarini tashkil etish, sozanda sifatida rivojlantirish unga ta‘lim berayotgan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratiga, va albatta ta‘lim muassasasining ta‘lim berish sifatiga borib taqaladi. O‘quv jarayonini tizimli tashkil etishda ta‘lim muassasalarining o‘zaro muloqotda bo‘lib turishi ta‘lim sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Misol uchun o‘rta maxsus bilim yurtlari o‘quvchilari tomonidan bolalar musiqa va san‘at maktablarida turli xil ijodiy konsertlar, mahorat darslarining tashkil etilishi o‘sha yerda

ta'lim olayotgan o'quvchilarga juda katta ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bola ijrochilarning ijro mahoratini kuzatar ekan o'zi ham kelajakda ana shunday ijro mahoratiga ega bo'lishi kerakligini tushunadi. Ijrochilarning ijro mahoratiga havas qilgan holda o'zi ham ana shunday ijrochi bo'lishga intiladi.

Shunday qilib ijrochi musiqiy ta'limning har bir bosqichida o'rgatiladigan bilimlarni talab darajasida o'zlashtirishi, o'z ustida muntazam ishlashi, ijrosi sifatida to'g'ri yo'naltirilishi uning kalajakda mohir sozanda bo'lib yetishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.A.Tashmatova – "Ijrochilik san'ati tarixi"
2. U.Yunusov – "Xalq cholg'ularida ijrochilik" (Dutor)
3. O.Nazarov – "Qashqar rubobi" (bolalar musiqa va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma)
4. U.Rahmatullayeva, N.Atayeva, F.Rasulova – Dutor (bolalar musiqa va san'at maktablari uchun o'quv dasturi)

MA'LUMOTLARNI TOZALASH BOSQICHLARI TAHLILI

Nomozov Nurbek Baxtiyor o'g'li
Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti Shahrisabz filiali
"Muhandislik texnologiyalari" kafedrasi assistent o'qituvchisi
E-mail: xolik2642@gmail.com

Annotatsiya: *Ob'ektlar harakati dinamikasi ko'pincha statika bilan bir qatorda tavsiflanadi. Data Mining dasturini yanada rivojlantirishning muvaffaqiyati to'g'ri modellashtirilishiga bog'liq.Masalaning qo'yilishi o'rganilayotgan ob'ektlarning statik va dinamik xatti-harakatini ham o'z ichiga oladi.Statikaning tavsifi ob'ektlar va ularning xususiyatlarini tavsiflashni anglatadi. Dinamikani tavsiflashda ob'ektlarning harakati va ularning harakatlariga ta'sir etadigan sabablar tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar: *Data Mining, Data quality, Missing Values, Duplicate Data.*

АНАЛИЗ ЭТАПОВ ОЧИСТКИ ДАННЫХ

Номозов Нурбек Бахтиёр угли ассистент

кафедры «Инженерные технологии» Шахрисабзского филиала Ташкентского химико-технологического института
Электронная почта: xolik2642@gmail.com

***Аннотация**: Динамика движения предметов часто описывается наряду со статикой. От правильного моделирования зависит успех дальнейшего развития программы Data Mining. В постановку задачи входит статическое и динамическое поведение изучаемых объектов. Под описанием статики подразумевается описание объектов и их свойств. При описании динамики описывается движение объектов и причины, влияющие на их движение.*

***Ключевые слова**: Сбор данных,Качество данных, Отсутствующие значения, Дублирующиеся данные.*

ANALYSIS OF DATA CLEANING STAGES

Nomozov Nurbek Bakhtiyar son,

assistant teacher of the "Engineering technologies" department of the Shahrisabz branch of the Tashkent Institute of Chemical Technology

E-mail: xolik2642@gmail.com

Abstract: The dynamics of the movement of objects is often described along with statics. The success of the further development of the Data Mining program depends on the correct modeling. The formulation of the problem includes the static and dynamic behavior of the studied objects. The description of the statics means the description of the objects and their properties. In the description of dynamics, the movement of objects and the reasons affecting their movement are described.

Key words: Data Mining, Data quality, Missing Values, Duplicate Data.

Data Mining uchun ma'lumotlar bazasini yaratish. Ma'lumotni tayyorlash eng muhim bosqich bo'lib, uning sifati Data Mining butun jarayonining yuqori sifatli natijalarini olish imkoniyatini belgilaydi. Bosqich quyidagi qadamlarni o'z ichiga oladi.

1. Ma'lumotlarga qo'yilgan talablarni aniqlash va tahlil qilish.

Ushbu bosqichda ma'lumotlarni modellashtirish deb ataladigan, ya'ni Data Miningni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar talablarini aniqlash va tahlil qilish amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, ma'lumotlarni taqsimlash (geografik, tashkiliy, funksional); tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga kirish, tashqi va / yoki ichki manbalarga bo'lgan ehtiyoj; shuningdek tizimning analitik tavsiflari (ma'lumotlarni o'lchash, chiqish hujjatlarining asosiy turlari, ma'lumotni o'zgartirish ketma-ketligi va boshqalar) o'rganiladi.

2. Ma'lumotlarni to'plash.

Tashkilotda ma'lumotlar omborining mavjudligi tahlilni osonroq va samaraliroq qiladi, undan foydalanish investitsiyalar nuqtai nazaridan alohida ma'lumotlar bazalari yoki ma'lumotlar marshrutlaridan foydalanishga qaraganda ancha arzonga tushadi. Biroq ma'lumotlar omborlari har doim ham mavjud bo'lavermaydi. Bunday holda dastlabki ma'lumotlarning manbai operatsion, ma'lumotnoma va arxiv ma'lumotlar bazalari, ya'ni mavjud axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlar hisoblanadi.

Bundan tashqari Data Mining uchun ma'lumotlar tashqi manbalar, qog'ozli axborot vositalarining axborot tizimlaridan, shuningdek ekspertlarning bilimlari yoki so'rov natijalaridan kerak bo'lishi mumkin.

Ushbu qadamda ba'zi ma'lumotlar kodlanadi.

Kerakli ma'lumot miqdorini aniqlashda ma'lumotlarning tartiblangan yoki yo'qligini hisobga olishingiz kerak.

Agar ma'lumotlar tartiblangan bo'lsa va vaqt ketma-ketligi bilan shug'ullanadigan bo'lsa, bunday ma'lumotlar to'plami mavsumiy /siklik tarkibiy qismlar kiritilganligini bilish tavsiya etiladi. Agar ma'lumotlar to'plamida mavsumiy / davriy tashkil etuvchi mavjud bo'lsa, kamida bitta fasl /sikl uchun ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Agar ma'lumotlar tartiblanmagan bo'lsa, ya'ni ma'lumotlar to'plamidagi voqealar vaqtga bog'liq bo'lmasa, ma'lumotlarni yig'ishda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak.

- Ma'lumotlar to'plamidagi yozuvlarning yetarli emasligi noto'g'ri modelning qurilishiga olib kelishi mumkin. Statistik nuqtai nazardan, model aniqligi o'rganilayotgan ma'lumotlarning ko'payishi bilan ortadi.
- Ba'zi ma'lumotlar eskirgan bo'lishi mumkin yoki noaniq vaziyatni tavsiflaydi va ularni ma'lumotlar bazasidan chiqarib tashlanishi kerak.
- Juda katta ma'lumotlar bazalarida modellarni yaratish uchun ishlatiladigan algoritmlar kengaytirilishi kerak.

- Ko‘p algoritmlardan foydalanganda kirish o‘zgaruvchilarining ma’lum bir (istalgan) nisbati va kuzatishlar soni kerak. Ma’lumotlar to‘plamidagi yozuvlar (misollar) soni omillar (o‘zgaruvchilar) sonidan ancha ko‘p bo‘lishi kerak.
- Ma’lumotlar to‘plami iloji boricha ko‘p taqdimotli va iloji boricha ko‘proq vaziyatni namoyish etishi kerak. Ma’lumotlar to‘plamida turli xil misollar taqdim etish nisbati haqiqiy vaziyatga mos kelishi kerak.

3. Ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash.

Iloji boricha yuqori sifatli, ham past sifatli ma’lumotlarni tahlil qilish.

Ikkala holatda ham natijaga erishiladi. Sifatli tahlilni ta’minlash uchun ma’lumotlarni datslabki qayta ishlashni amalga oshirish kerak, bu **Data Mining** jarayonining zaruriy bosqichidir.

To‘plash natijasida olingan ma’lumotlar ma’lum sifat mezonlariga javob berishi kerak. Shunday qilib, biz **Data Mining** jarayonining muhim qism bosqichi - ma’lumotlar sifatini baholashni ajrata olamiz.

Ma’lumotlar sifati (Data quality) - bu ma’lumotlar to‘liqligi, aniqligi, o‘z vaqtida va ma’lumotlarni talqin qilish qobiliyatini belgilaydigan mezon. Ma’lumotlar yuqori sifatli va pats sifatli bo‘lishi mumkin, ikkinchisi - iflos yoki "yomon" deb yuritiluvchi ma’lumotlar.

Yuqori sifatli ma’lumotlar talqin qilinishi mumkin bo‘lgan to‘liq, aniq va o‘z vaqtida berilgan ma’lumotlar. Bunday ma’lumotlar sifatli natijani beradi: qaror qabul qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan bilimlarni ta’minlaydi[1].

Amaliy nuqtai nazardan past sifatli yoki iflos ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan, noto‘g‘ri yoki foydasiz ma’lumotlar (masalan, standartga mos kelmaydigan va noto‘g‘ri formatda keltirilgan).

Iflos ma’lumotlarning eng keng tarqalgan turlari:

• yetishmayotgan qiymatlar;

• ma’lumotlarning nusxasi;

• shovqin va chiqindilar.

Tushirib qoldirilgan qiymatlar (Missing Values).

Ma’lumotlarning ayrim qiymatlari quyidagilarga bog‘liq holda tushirib qoldirilishi mumkin:

- ma’lumotlar umuman to‘planmagan bo‘lsa (masalan, yoshni so‘roq qilishda);
- ayrim atributlar ayrim ob’ektlar uchun qo‘llanilmasligi mumkin bo‘lsa (masalan, "yillik daromad" atributini bolaga qo‘llamaymiz).

Tushirib qoldirilgan ma’lumotlarni qayta ishlash.

1. Tahlilda tushirib qoldirilgan qiymatlarga ega ob’ektlarni chiqarish.

2. Tushirib qoldirilgan ma’lumotlar uchun yangi qiymatlarni hisoblash.
3. Tahlillash jarayonida yo‘qotilgan qiymatlarni e’tiborsiz qoldirish.
4. Tushirib qoldirilgan qiymatlarni mumkin bo‘lgan qiymatlar bilan almashtirish.

Ma’lumotlarni nusxasi (Duplicate Data).

Ma’lumotlar to‘plamida takroriy ma’lumotlar bo‘lishi mumkin, ya’ni dublikatlar. **Dublikatlar** bu barcha atributlar uchun bir xil qiymatlarga ega yozuvlardir. Ma’lumotlar to‘plamida dublikatlarni mavjud bo‘lishi ba’zi yozuvlarni ahamiyatini oshirish usuli bo‘lib hisoblanadi. Bunday zaruriyat ba’zan ma’lumotlar to‘plamini alohida yozuvlarini ajratib ko‘rsatish uchun tug‘iladi.

Biroq ko‘p hollarda, takroriy ma’lumotlar ma’lumotlarni tayyorlashda xatolar natijasi bo‘lib hisoblanadi.

Dublikatlarni qayta ishlashni ikkita varianti mavjud. Birinchi variantda dublikatlardan iborat barcha yozuvlar guruhi yo‘qotiladi.Ushbu variant shunday holda qo‘llaniladiki, agar dublikatlarni mavjudligi axborot ishonchsizligiga imkon bersa, uni butunlay qadrsiz qilib qo‘yadi. Ikkinchi variant dublikatlar guruhini birgina kam uchraydigan yozuvga almashishidan iborat.

Shovqin va chiqindilar.

Chiqindilar – ma’lumotlarni to‘plashda qat’iy farq qiluvchi ob’ektlar yoki kuzatuvlardir. Shovqin va chiqindilar ma’lumotlarni tahlil qilishda yetarlicha umumiy ma’lumot bo‘lib hisoblanadi. Chiqindilar alohida kuzatuvlar bo‘lishi mumkin, yoki ma’lum guruhlarga birlashtirilishi mumkin. Tahlil qiluvchining vazifasi – nafaqat ularni aniqlash, balki ularning keyingi tahlil natijalariga ta’sir darajasini baholashdir. Agar chiqindilar tahlil qilinuvchi ma’lumotlar to‘plamini informativ qismi bo‘lib hisoblansa, ishonchli usullar va protseduralar qo‘llaniladi.

Ikki bosqichli tahlilni o‘tkazish amaliyoti etarlicha keng tarqalgan –chiqindilar va ularning yo‘qligi bilan – va olingan natijalarni taqqoslash.

Data Miningning turlicha usullari chiqindilarga turlicha sezgirliklarga ega, ma’lumotlarni tahlil qilish usulini tanlashda ushbu faktni hisobga olish zarur. Shuningdek Data Miningning ba’zi instrumentlari shovqin va chiqindilarni tozalash uchun o‘rnatilgan protseduralarga ega.

Ma’lumotlarni vizuallashtirish grafik ko‘rinishidagi chiqindilarni ham ma’lumotlarini taqdim etishga imkon beradi.

Ayonki, iflos ma’lumotlarga asoslangan Data Miningning natijalari ishonchli va foydali hisoblanmaydi, chunki ma’lumotlarni tozalash juda zarur.

Ma’lumotlarni tozalash (data cleaning, data cleaning yoki scrubbing) ma’lumotlarni sifatini yaxshilash maqsadida ma’lumotlardagi xatolar va nomuvofiqliklarni aniqlash va olib tashlash uchun ishlatiladi.

Tozalash uchun maxsus vositalar odatda muayyan sohalarga - asosan ismlari va manzillariga ega, yoki ularning nusxalari bundan mustasno. O‘zgarishlar qoidalar kutubxonasi shaklida yoki foydalanuvchi tomonidan interaktiv rejimda taqdim etiladi. Ma’lumotlarning o‘zgarishi sxemaning moslash vositalaridan foydalangan holda avtomatik ravishda olinishi mumkin.

Ma’lumotlarni tozalash usuli bir qator mezonlarni qoniqtirishi mumkin.

1. Usul barcha xatolarni va nomuvofiqliklarni alohida ma’lumot manbalari sifatida ham va bir nechta manbalarni birlashtirish sifatida ham aniqlashi va olib tashlashi kerak.
2. Usul qo‘lda tekshirish va dasturlash hajmini kamaytirish uchun belgilangan instrumentlar bilan qo‘llab-quvvatlashi zarur va qo‘shimcha manbalar bilan ishlashda moslashuvchan bo‘lishi lozim.
3. Ma’lumotlarni tozalash murakkab metama’lumotlar asosida bajariluvchi ma’lumotlarni o‘zgartirish sxemasi bilan bog‘liq ma’lumotlardan ajratilgan holda amalga oshirilmasligi zarur.
4. Tozalash va boshqa ma’lumotlarni o‘zgartirish uchun xaritalash funksiyasi deklarativ ravishda belgilanishi va boshqa ma’lumot manbalarida va so‘rovlarni qayta ishlashda foydalanish uchun mos bo‘lishi kerak
5. Texnologik jarayon infratuzilmasi ma’lumotlar ombori uchun ayniqsa faol ravishda qo‘llab-quvvatlanishi kerak, bu esa manbalar to‘plami va katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plami uchun barcha o‘zgartirish bosqichlarini samarali va ishonchli amalga oshirishni ta’minlaydi[2].

Ma’lumotlarni tozalash bosqichlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

1- bosqich. Ma’lumotlarni tahlil qilish.

O`chirilishi kerak bo‘lgan xatolar va nomuvofiqliklar turlarini aniqlash uchun ma’lumotlarni batafsil tahlil qilish zarur. Bu yerda ma’lumotlar xossalari va sifat muammolarini aniqlash to‘g‘risidagi metama’lumotlarni olish uchun ma’lumotlarni va ularning shablonlarini qo‘lda tekshirishdan ham, maxsus dasturlardan ham foydalanish mumkin.

2-bosqich. Ma’lumotlar tartibini aniqlash va o‘zgartirish qoidalari.

Ma’lumotlar manbalari soniga, birjinsli emasligi va ifloslik darajasiga qarab, ma’lumotlar etarlicha katta o‘zgartirishni va tozalashni talab qiladi. Ba’zida ma’lumotlarni umumiy modelini manbalarini ko‘rsatish uchun o`girish sxemasidan foydalaniladi; odatda ma’lumotlar ombori uchun relyasion ko‘rinishdan

foydalanadilar. Tozalashning birinchi bosqichlari ma’lumotlarning alohida manbalari muammolari tavsiflarini aniqlashi yoki o‘zgartirishi mumkin. Keyingi qadamlar sxemani ma’lumotlar integratsiyasiga va ko‘p elementlar, masalan dublikatlar muammolarini bartaraf etishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Saqlash uchun aniqlanishi bo'yicha amalga oshirish ETL (*Extract,Transform, Load*) ni aniqlash jarayonida o‘zgartirish va tozalashga tegishli nazorat qilish usullarini ma’lumotlar oqimini aniqlash zarur bo‘ladi.

O‘chirish bilan bog‘liq ma’lumotlarning o‘zgarishi, shuningdek tozalash bosqichlari imkon qadar deklarativ so‘rov va xaritalash tili yordamida aniqlanishi kerak va shu bilan o‘zgartirishning avtomatik generatsiya kodini ta’minlaydi. Bundan tashqari o‘zgartirish jarayonida foydalanuvchi tomonidan yozilgan tozalash kodi va maxsus vositalarni ishga tushirish kerak.

O‘zgartirish bosqichlari foydalanuvchi bilan tozalash mantig‘iga ega bo‘lmagan ma’lumotlar elementlari bo‘yicha teskari bog‘lanishni talab qilishi mumkin.

3-bosqich. Tasdiq.

Ushbu bosqichda jarayonning to‘g‘riligi va samaradorligi hamda o‘zgartirishning ta’riflari aniqlanadi. Buni testlashtirish va baholash yo‘li bilan amalga oshiriladi, masalan, berilgan manba misolida yoki nusxasida, - ushbu ta’riflarni qandaydir yaxshilash zarur yoki yo‘qligini oydinlashtirish maqsadida. Loyihalashtirish va tasdiqlashni tahlil qilishda faqat ma’lum o‘zgarishlar amalga oshirilgandan keyingina ayrim xatolar sezilarli bo‘lib qolishiga bog‘liq iteratsiyalar to‘plami talab qilinishi mumkin.

4-bosqich. O‘zgarishlar.

Ushbu bosqichda yuklash va ma’lumotlar omborini yangilash uchun tizimni loyihalash jarayonida yoki manbalar to‘plamlari bo‘yicha so‘rovlarga javoblarda o‘zgarishlarni bajarish amalga oshiriladi[3].

5-bosqich. Tozalangan ma’lumotlarning qarshi oqimi.

Alohida manbadagi xatolar bartaraf etilgandan so‘ng, yaxshilangan ma’lumotlar eski ilovalarga tushishi va keyinchalik olish jarayonida qo‘shimcha tozalashni talab qilmasligi uchun dastlabki manbalardagi ifloslangan ma’lumotlar tozalanganiga almashtiriladi. Tozalangan ma’lumotlar omborlar uchun ma’lumotlarni saqlash sohasida joylashgan.

O‘zgarishning bunday jarayoni metama’lumotlarning katta hajmini talab qiladi (sxemalar, sxema darajasidagi ma’lumotlarning xususiyatlari va boshqalar). Boshqa holatlarda moslashuvchanlik, egiluvchanlik va foydalanish qulayligi uchun ushbu meta ma’lumotlar MBBT asosida omborda saqlanishi kerak. Ma’lumotlar sifatini saqlab turish uchun o‘zgarish jarayoni to‘g‘risidagi batafsil axborot ham omborda, ham

o‘zgartirilgan ma’lumot elementlarida, xususan dastlabki ma’lumotlarning to‘liqligi va yangiligi to‘g‘risidagi axborotni hamda o‘zgartirilgan manbalarning asl manbai va ularga kiritilgan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yozilishi kerak.

Foydalanilgasn adabiyotlar ro’yxati:

1. Dilnoza Muhammedova //”Маълумотларни интеллектуал таҳлил қилиш усул ва алгоритмлари асосида муқобиллаштириш ва башорат қилиш”//2017-Toshkent.
2. T. Primov. Axborot modellashtirishni o'rgatishda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish. Наука и инновация 1 (11), 153-157
3. The simplest mathematical models of economic processes. Primov T.I., Central asian journal of mathematical theory and computer sciences 4 (1), 80-82

BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARIDA REFLEKSIV POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Mirzayeva Shahzoda Doniyorbek qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
70110501- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning refleksiv pozitsiyasining shakllantirishni loyihalash haqida ma’lum berilgan*

Kalit so’zlar: *model, modellashtirish, definitiv, ob’ekt, pozitsiya, refleksiv, pedagogika, jarayon*

Abstrakt: *This article provides information on the design of students' reflexive position formation.*

Key words: *Model, modeling, definitive, object, position, reflection, pedagogy, process*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о дизайне формирования рефлексивной позиции студентов.*

Ключевые слова*: Модель, моделирование, дефинитив, объект, позиция, рефлексия, педагогика, процесс*

“Model atamasi pedagogik adabiyotlarda ma’lum darajada yaqqol, definitiv, ko’rib chiqish va amaliy harakatlar uchun oson bo’lgan aniq tuzilma; xayolan tasavvur qilingan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim, ya’ni u tadqiqot ob’ekti o’rnini

shunrday o'zgartirishga qodirki, uni o'rganish orqali obyekt haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi; betakror tizimning muhim xususiyatlarini ifoda etadigan hamda ilmiy o'rganish jarayonida aslini o'rnini bosadigan ob'ektlar va belgilar tizimi sifatida ta'riflanadi. Model asl mavjudning tuzilmasini takrorlaydi, uni soddalashtiradi, eng asosiy jihatlarini o'zida aks ettiradi; u hodisaning umumlashgan aksi bo'lib xizmat qiladi; [8; 512-b] sun'iy ravishda yaratilgan chizma, ramziy ifodalar va formulalar ko'rinishidagi namuna hamda o'rganilayotgan ob'ekt yoki hodisaga yaqin bo'lgan holda, ushbu ob'ekt elementlarining tuzilishi, xususiyatlari, o'zaro aloqa va munosabatlarini soddalashtirilgan shaklda aks ettiradi; bilimning ma'lum bir sohasidagi dalillar, narsa-hodisalar va munosabatlarni eng ko'rgazmali moddiy tuzilma shaklida aks etadi.[2; 21-26-b]

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, model o'rganilayotgan hodisani amaliyotda ideal tarzda amalga oshirish maqsadida tadqiq qilinayotgan voqelik ob'ektlari to'plamini (ya'ni uni tizimda ko'rsatish) ko'rgazmali va oshkora namoyish etishga imkon beradi.

Modellashtirish bu modellarni yaratish jarayoni bo'lib, o'rganilayotgan hodisalarni aniqlash uchun yaqqollikning eng yuqori va o'ziga xos shakli"; "jarayon va holatlarni ularning haqiqiy yoki ideal modellaridan foydalangan holda o'rganishning nazariy usuli" deb tushuniladi. [1;512-b]

Binobarin, modellashtirish jarayon va hodisalarni bilvosita o'rganish usuli sifatida qaraladi, bunda belgili, abstrakt modellar nazariy, narsa-buyumli modellar empirik daraja tarzida qo'llaniladi.

Modellashtirish tizimli tahlilning to'rt, ya'ni morfologik, tuzilmali, funksional, genetik turlarini amalga oshirishga imkon beradi va ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tizimning rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Tadqiqotda S.I.Arxangelskiy tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv pozitsiyani rivojlantirish modelini ishlab chiqish maqsad etib belgilandi. Asosiy tamoyil sifatida yaxlitlik belgilab olindi, u tashkiliy-tasviriy va belgili-ramziy ifodaviylikni aks ettirishga xizmat qiladi.

Didaktik model ta'lim nazariyasining asosiy qonuni mazmunli, jarayonli va faoliyatli jihatlarning birligi va o'zaro aloqadorligi hamda umumdidaktik qonuniyatlar bilan uyg'un bo'lib, ular uning tarkibiy asoslari orasidagi ob'ektiv qonuniyatlarga asoslangan bog'liqlik munosabatlarni belgilaydi.[24; 368-b]

Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqish uchun tizimli yondashuvdan foydalanildi. Mazkur jarayonda o zida metodologik vositalar majmuasini aks ettiruvchi tizimli yondashuv vositasi sifatida

xizmat qilib, murakkab tizimlarni o□rganish va ularni modellar ko□rinishida taqdim etish uchun foydalaniladi. Tizimli yondashuv har qanday tizimni uch bosqichda loyihalashni nazarda tutadi

Birinchi bosqichda tizimning o'zi tahlil qilinadi. Tadqiqot ob'ektini o'rganish amalga oshiriladi, uning natijasi ko'rib chiqilayotgan jarayonning kognitiv modeli hisoblanadi. Ushbu bosqichga doir faoliyatning mazmuni tizimni alohida ajratib olish; maqsad va vazifalarni aniqlashtirish; tizimni tarkibiy asoslar majmui sifatida taqdim etish, shuningdek, tarkibiy asoslarning har birini va ular o□ rtasidagi aloqadorlikni tekshirishdan iborat.

Ikkinchi bosqichda modelning birlashtirish amalga oshiriladi. Mazkur jarayonning mohiyati metodologik qoidalarni belgilashdan iborat bo□lib, natijada modelni loyihalashtirish jarayoni umumlashadi va yaxlit ko□rinish kasb etadi. Shuningdek, mazkur bosqichning yana bir jihati alohida komponentlarning xususiy modellar, ularning o□zaro aloqalarini hosil qilish va ketma-ket tarzda loyihalashtirilayotgan jarayonning yaxlit modeliga o□tishdan iboratdir. Ushbu bosqich yakunida jarayon modeli aniqlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ataxanov R. Metodologiya i metodы psixologo-pedagogicheskogo issledovaniya: uchebnoe posobie. – M.: Izd. sentr «Akademiya», 2001. – 208 s.

2. Bagday Ye.V. Formirovanie refleksivnoy pozitsii studenta v protsesse izucheniya gumanitarnых dissiplin: diss. … kand. ped. nauk. – Kirov, 2007. – 163.

3. Bajenova N.G. Formirovanie refleksivnoy gotovnosti budущix pedagogov-psixologov k professionalnoy deyatelnosti: dis. … kand. ped. nauk. – Magnitogorsk, 2006. – 200 s.

4. Bederxanova V.P. Stanovlenie lichnostno-orientirovannoy pozitsii pedagoga: dis. □ dok.ped.nauk. □ Krasnodar, 2002. □ 200 s.

5. Belozerseva T.V. Pedagogicheskaya texnologiya formirovaniya refleksii shkolnikov v protsesse obucheniya: avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. □ Chelyabinsk, 2000. □ 23 s.

6. Belonogova V.N. Gumanizatsiya vzaimodeystviya shkolы i semi kak faktor stanovleniya lichnosti shkolnika: Avtoref. … dis.kand.ped.nauk. – Magnitogorsk, 1999. – 25 s.

7. Beluxin D.A. Pedagogicheskaya etika: jelaemoe i deystvitelnoe. / Analiz suщnosti i soderjaniya obщeprinyatых ponyatiy pedagogicheskoy etiki. – M.:Moskovskiy psixologo-sotsialnыy institut, 2007. – 128 s.

8. Belkin A.S. Teoriya i praktika vitagennogo obucheniya s gologaficheskim metodom proeksiy: materialы leksiy. – N. Tagil: NTF IRRO, 1997. – 121 s.

9. Bondarenko T.A. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya refleksivnoy kulturы studentov: Avtoref. …dis.kand.ped.nauk. – Magnitogorsk,1999. – 23 s.

10. Borытko N.M. V prostranstve vospitatelnoy deyatelnosti: Monografiya / Nauch. red. N. K. Sergeev. – Volgograd: Peremena, 2001. – 181 s.

ZAMONAVIY TALABLARGA MUNOSIB O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Feruza Mustafoyeva Xurshid qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
mustafayevaferuza07@gmail.com

Annotatsiya: *mazkur maqolada bugungi zamon talablariga munosib javob bera oladigan kelajak o‘qituvchilarini tayyorlashga oid fikr-mulohazalar, xulosa va takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagog, axborot texnologiyalari, kadr, mutaxassis, individ, muomala madaniyati, notiqlik.*

Аннотация: *в данной статье собраны мнения, выводы и предложения по подготовке будущих учителей, способных адекватно отвечать требованиям сегодняшнего времени.*

Ключевые слова: *педагог, информационные технологии, персонал, специалист, личность, культура общения, публичное выступление.*

Abstract: *this article contains opinions, conclusions, and proposals for training future teachers who can adequately meet the requirements of today.*

Key words: *pedagogue, information technology, personnel, specialist, individual, culture of communication, public speaking.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasini yanada isloh qilish, rivojlangan mamlakatlar ta’lim darajasiga erishish, eng zamonaviy va kuchli bilimga ega yoshlarni tarbiyalash maqsadida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim sohasining yuqori natijalarga erishishida, hech shubhasiz, o‘qituvchilarning o‘rni beqiyos. Chunki kelajak avlod hisoblanmish yoshlarning bilim darajasi o‘qituvchilarning berayotgan ilmiga

bog‘liq. Shunday ekan ta’lim sohasining yaxshilanishida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Bilamizki, yurtimizda azaldan ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratilgan. Ota-onalar o‘z farzandlarini ilmli, ziyoli qilishga harakat qilganlar. Uzoq tarixli xalqimizda ustozlarga ehtirom kuchli bo‘lgan. Ota-onalar farzandlarini hech ikkilanmay ustozlarga topshirganlar. Bu esa ularning hurmat va obro‘si yuqori, ilmi kuchli bo‘lganidan dalolat beradi.

Azaldan ustozlarga katta hurmat ko‘rsatilgan bizning diyorimizda bugun ham ularga bo‘lgan e’tibor oshib bormoqda. 2024-yilning 1-fevralida qabul qilingan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun ushbu fikrimizning yaqqol isboti bo‘la oladi. O‘qituvchilar haqida muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan edilar: “Kimki ustoz duosini olsa, uning ishi albatta yurishadi, u kamolga erishadi. Shuning uchun ham siz, aziz o‘qituvchilar dunyodagi ezgu va olijanob kasb egalarisiz, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Nafaqat kelajak avlodning taqdiri, balki butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarimizga bog‘liq”.[1] Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, chindan ham butun millatimiz taqdiri ustozlarga, o‘qituvchilarga bog‘liq.

So‘nggi yillarda ijtimoiy hayotimiz tobora jadallashib, tezlashib bormoqda. Ilm-fanda ko‘plab yangi kashfiyotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy bilimlar vujudga kelmoqda. Ijtimoiy hayot bilan teng ravishda bugungi zamon yoshlari ham tobora ilg‘or va dunyodagi yangiliklar bilan hamnafas bo‘lib bormoqda. Ular yangi-yangi bilimlarni egallashga, jahon yoshlaridan ortda qolmaslikka intilmoqda. Yoshlarning ana shunday intilishlari, o‘z navbatida, o‘qituvchi va ustozlardan ham katta tayyorgarlik, zamonaviy ilm va fan, axborot texnologiyalari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishlarini talab qilmoqda.

Bugun davrning yuqori talablariga javob beradigan o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? O‘qituvchining asosiy vazifasi ilm-ma’rifat berish ekanligidan kelib chiqib, birinchi navbatda, o‘z mutaxassisligining chuqur bilimdoni hamda so‘nggi yutuqlardan xabardor kadr bo‘lishi lozim. Chunki sifatli ta’lim – taraqqiyot garovi hisoblanadi. Shu o‘rinda, mashhur faylasuf Konfutsiyning quyidagi fikriga e’tibor beraylik: “Eskini o‘zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo‘la oladi”.[2] Bu yerda tarbiyachi sifatida barcha o‘qituvchilar nazarda tutilyapti. Sababi, har bir pedagog, har bir o‘qituvchi ta’lim bilan birga tarbiya ham berish bilan shug‘ullanadi. Bu fikrdan anglashiladiki, o‘qituvchi yoki pedagog eskini o‘zlashtira olsa va yangini tushunishga qodir bo‘lsagina haqiqiy pedagog, tarbiyachi bo‘la oladi. Ayni bir vaqtning o‘zida undan ikkita muhim jihat talab qilinmoqda. Pedagog o‘z sohasini mukammal bilsa, o‘rgansa, ammo yangiliklardan xabardor bo‘lmasa, axborot

texnologiyalari bilan ishlay olmasa, so‘nggi yutuqlardan foydalana olmasa, uni mukammal pedagog, tarbiyachi deya olmaymiz.

Hozirgi zamon o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan, ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdir.[3]

Umumiy olganda, zamon talablariga mos bo‘lgan pedagog quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak:

– o‘z mutaxassisligi bo‘yicha kuchli bilim egasi. Bu o‘quvchilarga beriladigan bilimning sifatli bo‘lishiga xizmat qiladi. Kuchli bilimga ega ustoz kuchli bilimga ega shogirdlarni tayyorlaydi.

– g‘oyaviy sodiqligi. Agar pedagog g‘oyaviy sodiqlikka ega bo‘lmasa, o‘quvchilarni turli noto‘g‘ri g‘oyalar ta’siri ostiga tushirib qo‘yishi mumkin. Bu esa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham g‘oyaviy sodiqlik muhim sifatlardan biri.

– bolalarni hurmat qilishi va uni alohida individ sifatida ko‘ra olishi. Hozirgi zamon o‘qituvchisi har bir o‘quvchini u alohida, takrorlanmas va boshqalarga o‘xshamas individ ekanligini his qila olishi kerak. Bu esa bolaga bo‘lgan munosabatni belgilab beradi.

– psixologik bilimlardan xabardor bo‘lishi. Zamonaviy pedagog psixolog bo‘la olishi kerak. Har bir o‘quvchida qanday ruhiy kechinma bo‘layotganini his qilishi va shunga qarab muomala qilishi kerak.

– zamonaviy komputer va axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi. Bu o‘z navbatida ta’limning sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan dars mashg‘ulotlarining ta’siri yuqori bo‘ladi.

– so‘nggi yangiliklar bilan muntazam tanishib borishi va bu haqda o‘quvchilarni ham tanishtirib borishi. Bu o‘qituvchi va o‘quvchining jamiyatdagi holatlardan xabardor bo‘lishini ta’minlaydi.

– o‘z kamchiliklarini ko‘ra bilishi va ular ustida ishlay olishi. O‘qituvchi ham ma’lum kamchiliklarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Eng muhim pedagog ana shu kamchiliklarini ko‘ra bilishi va uni tuzatishga urinishi lozim.

– o‘quvchilar bilan ma’lum chegaraga asoslangan aloqani yo‘lga qo‘ya olishi. O‘quvchilar bilan o‘ta yaqin ham o‘ta uzoq ham aloqa munosabatini yo‘lga qo‘yish kerak emas. Me’yorda bo‘lishi lozim. Bu o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi hurmatni saqlab turadi.

– muomala madaniyatiga qat'iy rioya qilishi. Hozirgi zamon o'qituvchisi, birinchi navbatda, chiroyli muomalasi bilan o'quvchilar qalbidan joy olishi kerak. Bu jarayon o'qituvchilar haqida o'quvchilarning dastlabki xulosasini shakllantiradi.

– notiqlik va jalb qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi. Notiqlik qobiliyatiga ega pedagog o'quvchilarning diqqatini torta oladi. Bundan tashqari, notiqlik sifatiga ega pedagog ma'lumotlarni yetkazishda muammolarga duch kelmaydi.

– chet tillarini bilishi. Chet tillarini bilish bugungi kunimizning asosiy shart va talablaridan biri. Shunday ekan o'qituvchilar ham eng kamida bitta chet tilini mukammal bilishi lozim.

– yuqori estetik didga ega bo'lishi. Bu sifat ayni damda pedagogning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanmoqda. Chunki bugungi zamon yoshlari xohlaymizmi, yo'qmi, tashqi ko'rinishga katta ahamiyat beradi. Qolaversa, pedagogning tashqi ko'rinishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turishi kerak. Bu va boshqa sifatlar bugungi zamonaviy talablarga ega o'qituvchilarni tayyorlashda muhim xususiyatlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, millat fidoyilari, kelajak avlod tarbiyachilari, taraqqiyotimizning muhim shaxslari hisoblangan o'qituvchilarni tayyorlash yurtimiz rivojida benihoya katta ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimizni ishonib topshiradigan kasb egalarini eng zamonaviy bilimlar asosida tayyorlash davlatimizning ham asosiy vazifalaridan biridir. Zero, o'qituvchilar – jamiyat quruvchilaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur”. Xalq ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutq. 2019-yil 23-avgust. 148-149-betlar.

2. Zamonaviy o'qituvchi va uning obrazi. Dilrabo Ibrohim qizi Rahmonova, Nazar Rahmatullaevich Ashurov. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-528-533. 529-bet.

3. https://ma'rifat.uz.

THE SIGNIFICANCE OF GUIDED LEARNING IN LANGUAGE CLASSROOMS

Uktamjon Ortikov Xudoyberdi o‘g‘li
Teacher of English for specific purposes (ESP)
Kokand branch of Tashkent state technical university
u.ortikov@tdtukokand.uz

Abstract: *This review article examines the importance of guided learning in language classrooms. Guided learning, characterized by structured support and learner engagement, has emerged as a valuable approach in language education. The paper explores its historical evolution, theoretical foundations, empirical evidence, practical implementation strategies, challenges, and future directions. By synthesizing research findings and best practices, the article highlights the significance of guided learning in fostering language acquisition, promoting learner autonomy, and preparing students for success in diverse linguistic and cultural contexts.*

Keywords: *guided learning, language education, language acquisition, learner autonomy, pedagogy.*

Annotatsiya: *Maqola xorijiy til darslarida o'rganishning muhimligini ko'rib chiqadi. Strukturaviy yondashuv va o‘quvchilarning ishtiroki bilan tavsiflangan yo‘l-yo‘riqli o‘rganish til ta’limida qimmatli yondashuv sifatida paydo bo‘ldi. Maqolada uning tarixiy evolyutsiyasi, nazariy asoslari, empirik dalillari, amaliy amalga oshirish strategiyalari, muammolari va kelajakdagi yo'nalishlari o'rganiladi. Maqolada tadqiqot natijalari va ilg‘or tajribalarni umumlashtirish orqali tilni o‘zlashtirishni rivojlantirish, o‘quvchilarning mustaqilligini ta’minlash va talabalarni turli til va madaniy kontekstlarda muvaffaqiyatga tayyorlashda yo‘naltirilgan ta’limning ahamiyati ta’kidlangan.*

Tayanch tushunchalar: *yo'naltirilgan o'rganish, til ta'limi, tilni o'zlashtirish, o'quvchilarning avtonomiyasi, pedagogika.*

Аннотация: *В этой обзорной статье рассматривается важность управляемого обучения в языковых классах. Управляемое обучение, характеризующееся структурированной поддержкой и вовлечением учащихся, стало ценным подходом в языковом образовании. В статье исследуется его историческая эволюция, теоретические основы, эмпирические данные, стратегии практической реализации, проблемы и будущие направления. Обобщая результаты исследований и передовой опыт, в статье*

подчеркивается значение управляемого обучения для содействия овладению языком, развития самостоятельности учащихся и подготовки учащихся к успеху в различных языковых и культурных контекстах.

Ключевые слова: *управляемое обучение, языковое образование, овладение языком, самостоятельность учащихся, педагогика.*

INTRODUCTION

In the realm of language education, the methodology employed within classrooms plays a pivotal role in shaping learners' linguistic proficiency and overall language acquisition experience. Over time, various teaching methods have emerged, each with its own strengths and weaknesses. Among these approaches, guided learning has garnered significant attention for its effectiveness in facilitating language acquisition. This review article aims to explore the importance of guided learning in language classrooms by examining its historical evolution, theoretical foundations, empirical evidence supporting its efficacy, practical implementation strategies, challenges, and future directions. By delving into these aspects, this review seeks to provide educators and stakeholders with a comprehensive understanding of the role and significance of guided learning in fostering language proficiency and learner engagement.

LITERATURE REVIEW

Language teaching methods have evolved significantly over time, reflecting changes in educational philosophy, linguistic theories, and societal needs. Examining the historical landscape of language teaching methods provides valuable insights into the progression of language pedagogy and the influences that have shaped contemporary approaches. Through an exploration of past methodologies, including their principles, practices, and outcomes, educators gain a deeper understanding of the foundations upon which modern language teaching methodologies are built. This section will delve into the historical perspectives of language teaching methods, highlighting key developments and transitions that have occurred over the years.

Guided learning represents a pedagogical approach that emphasizes the active involvement of learners in the language acquisition process, with the instructor providing structured support and guidance. At its core, guided learning recognizes the importance of scaffolding—gradually reducing support as learners gain proficiency—and promotes learner autonomy within a supportive environment. Central to the concept of guided learning is the notion of interactive and collaborative learning experiences. Rather than passively receiving information, learners are actively engaged in meaningful tasks and activities designed to foster language acquisition. These

activities may range from guided discussions and problem-solving tasks to collaborative projects and role-playing scenarios. In guided learning environments, instructors serve as facilitators, guiding learners through tasks and activities while providing timely feedback and support. This role requires a keen understanding of learners' needs, abilities, and learning styles, allowing instructors to tailor instruction to meet individual and group needs effectively.

Moreover, guided learning activities are designed to promote the development of both linguistic and communicative competence. While linguistic competence encompasses grammatical accuracy, vocabulary knowledge, and pronunciation skills, communicative competence focuses on the ability to use language effectively in real-life communication situations. Guided learning activities often integrate these two components, providing learners with opportunities to practice language in meaningful contexts while also receiving feedback on language form and structure.

Overall, understanding guided learning in language education entails recognizing its emphasis on learner-centeredness, interactivity, collaboration, and the promotion of both linguistic and communicative competence. By fostering a supportive learning environment and providing structured guidance, guided learning facilitates language acquisition and empowers learners to become proficient and confident communicators.

EMPIRICAL EVIDENCE SUPPORTING GUIDED LEARNING

Empirical research has consistently demonstrated the effectiveness of guided learning approaches in language education. Numerous studies have highlighted the positive impact of guided learning on language acquisition, learner engagement, and overall proficiency levels. For instance, a study conducted by Smith et al. investigated the efficacy of guided learning activities in improving the speaking skills of English as a second language (ESL) learners [10-456-478]. The researchers found that guided speaking tasks, which provided learners with structured support and feedback, resulted in significant improvements in speaking proficiency compared to traditional instruction methods. Similarly, a meta-analysis by Johnson and Johnson examined the effects of cooperative learning, a key component of guided learning, on language learning outcomes [5-169-183]. The analysis revealed that cooperative learning strategies, such as collaborative group work and peer tutoring, were associated with higher levels of language proficiency, increased motivation, and enhanced interpersonal skills among learners. Moreover, research by Garcia and Pardo-Ballester explored the impact of guided writing activities on the writing skills of second language learners [3-60-75]. Their findings indicated that guided writing tasks, which included pre-writing planning activities, peer feedback sessions, and instructor-guided revisions, led to significant improvements in writing quality and accuracy over time. These studies, among others,

provide robust empirical evidence supporting the effectiveness of guided learning approaches in language education. By integrating structured support, collaborative activities, and targeted feedback, guided learning facilitates language acquisition and promotes learner engagement and autonomy.

CHALLENGES AND CONSIDERATIONS

Implementing guided learning in language classrooms presents educators with various challenges and considerations that need to be addressed to ensure its effectiveness and success. One significant challenge is balancing the degree of guidance provided to learners. While guided learning aims to offer structured support, excessive guidance can hinder learners' autonomy and impede their ability to develop independent language skills [7-364-370]. Striking the right balance between support and autonomy requires careful consideration of learners' individual needs, preferences, and learning styles. Furthermore, addressing the diverse needs of learners poses another challenge in guided learning environments. Learners come from varied linguistic, cultural, and educational backgrounds, each with unique strengths, weaknesses, and preferences [8-304-309]. Therefore, educators must employ flexible instructional strategies, differentiate instruction, and provide personalized support to accommodate learners' individual differences effectively.

Moreover, integrating technology into guided learning environments presents both opportunities and challenges. While technology offers innovative tools and resources for interactive learning and collaboration, it also requires educators to navigate technical issues, digital literacy challenges, and concerns about screen time [6-622-626]. Educators must carefully select and integrate technology tools that align with learning objectives, enhance engagement, and support language learning outcomes. Additionally, assessing learner progress and performance in guided learning environments can be complex. Traditional assessment methods may not fully capture learners' communicative competence, problem-solving skills, and collaborative abilities[1, 2]. Therefore, educators need to employ a variety of formative and summative assessment strategies, including performance-based assessments, self-assessments, and peer evaluations, to provide comprehensive feedback and measure learner growth effectively. Addressing these challenges and considerations requires ongoing professional development, collaboration among educators, and a commitment to reflective practice. By proactively addressing these challenges, educators can optimize guided learning experiences and promote meaningful language learning outcomes for all learners.

FUTURE DIRECTIONS AND RECOMMENDATIONS

As guided learning continues to evolve in language education, several future directions and recommendations emerge to enhance its effectiveness and relevance in meeting the diverse needs of learners. Firstly, there is a growing need for research that explores the long-term effects of guided learning approaches on language acquisition and proficiency. Longitudinal studies tracking learners' progress over extended periods can provide valuable insights into the sustainability and transferability of skills acquired through guided learning activities. Secondly, with the increasing globalization and digitalization of education, there is a need to explore innovative ways of integrating technology into guided learning environments. Virtual reality simulations, artificial intelligence-driven tutoring systems, and immersive language learning platforms offer promising avenues for enhancing guided learning experiences and promoting engagement among learners.

Additionally, there is a call for greater emphasis on promoting intercultural competence and global citizenship through guided learning activities. By incorporating cross-cultural communication tasks, authentic materials from diverse linguistic and cultural contexts, and opportunities for virtual exchange and collaboration, educators can prepare learners to navigate multicultural and multilingual environments effectively. Furthermore, there is a need to address equity and access issues in guided learning environments. As technology becomes increasingly integrated into language instruction, efforts must be made to ensure equitable access to digital resources and tools for all learners, regardless of their socioeconomic background or geographic location.

Moreover, ongoing professional development and training for educators are essential to support the effective implementation of guided learning approaches. Providing educators with opportunities to enhance their pedagogical knowledge, technological skills, and cultural competency can empower them to create inclusive, engaging, and effective guided learning environments. In conclusion, future directions in guided learning in language education should focus on advancing research, leveraging technology, promoting intercultural competence, addressing equity issues, and supporting educator professional development. By embracing these recommendations, educators can maximize the potential of guided learning to foster language acquisition, promote learner engagement, and prepare learners for success in an increasingly interconnected world.

CONCLUSION

Guided learning represents a dynamic and effective approach to language education, offering structured support, meaningful engagement, and opportunities for autonomy and growth. Through a review of its historical evolution, theoretical

foundations, empirical evidence, practical implementation strategies, challenges, and future directions, it becomes evident that guided learning holds immense promise for facilitating language acquisition and fostering learner success. By drawing on research findings, best practices, and innovative pedagogical approaches, educators can harness the power of guided learning to create inclusive, engaging, and effective language learning environments. Guided learning not only enhances linguistic proficiency but also promotes critical thinking skills, collaborative abilities, and intercultural competence among learners. As we navigate the complexities of language education in the 21st century, guided learning emerges as a beacon of innovation and inclusivity, empowering learners to achieve their full potential and thrive in a diverse and interconnected world. With continued dedication, collaboration, and commitment to excellence, guided learning will undoubtedly remain at the forefront of language education, shaping the future of language learning and teaching for generations to come.

References:

1. Brown, S., & Lee, J. (2019). Creating a supportive learning environment in language classrooms. TESOL Journal, 36(4), 567-582.
2. Chapelle, C. A., & Sauro, S. (2017). Assessing language through technology. Cambridge University Press.
3. Garcia, E., & Pardo-Ballester, C. (2019). Enhancing second language writing through guided writing tasks. Journal of Second Language Writing, 45, 60-75.
4. Gonzalez, L. (2017). Integrating technology into guided learning: Best practices and considerations. Journal of Educational Technology, 45(2), 198-214.
5. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2016). Cooperative learning in language education: A meta-analysis. Modern Language Journal, 100(1), 169-183.
6. Komilov, J. K., Dehkonov, B. A., & Ortikov, U. K. (2023). The function of metalanguage in the graphic communication. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 622-626.
7. Ortikov, U. (2023). Time allocation for vocabulary training in ESP classrooms. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 364-370.
8. Ortikov, U. (2023). Practical uses of corpus analysis in designing language teaching materials. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(7), 304-309.
9. Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. (2018). Professional development for guided learning in language education. Cambridge University Press.

10. Smith, J. K., Jones, L. M., & Brown, R. D. (2018). The effectiveness of guided speaking tasks in ESL classrooms. TESOL Quarterly, 52(3), 456-478.

YOSHLAR VA ZAMONAVIY TALIM TEXNOLOGIYALARI

Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya fakulteti
Pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif tomonidan ta'limni zamon talabi darajasida isloh qilish, uning sifatini yuksak talab darajasiga ko'tarish muammolari atroflicha ko'rib chiqilgan bo'lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajriba keng yoritilgan. Shuningdek maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlar ko'rsatib berilgan hamda oliy o'quv yurtidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, sotsial menejment, globallashuv, boshqaruv, kordinatsiya, mutaxassis, kadrlar, oliy ta'lim, jarayon, madaniyat, koserpsiya, mehnat taqsimoti.*

Аннотация: *В данной статье автором подробно рассмотрены проблемы реформирования образования на уровне современных требований, поднятия его качества до уровня высокой востребованности, а также широко освещен отечественный и зарубежный опыт подготовки высококвалифицированных кадров. Также в статье рассматривается образование в сфере подготовки высококвалифицированных кадров. показаны основные особенности, определяющие качество процесса и высокая представлены правила, составляющие основу понятия системы качества в образовательном учреждении.*

Ключевые слова: *Образование, социальный менеджмент, глобализация, менеджмент, координация, специалист, персонал, высшее образование, процесс, культура, сотрудничество, разделение труда.*

Annotation: *In this article, the problems of reforming education at the level of modern requirements, raising its quality to the level of high demand are thoroughly considered by the author, and the national and foreign experience in training highly qualified personnel is widely covered. Also in the article is education in the training of highly qualified personnel the main features that determine the quality of the process*

are shown and high the rules representing the basis of the concept of the quality system in the educational institution are presented.

Key words: *Education, social management, globalization, management, coordination, specialist, personnel, higher education, process, culture, cooperation, division of labor.*

Tinib-tinchimas olimlarning izlanishlari tufayli bugungi kunga kelib har qanday g'ayrioddiy texnologiya odamlar uchun fantastika bo'lmay qoldi. Asosan rivojlangan davlatlarda ishlab chiqariladigan bunday zamonaviy texnikalar o'zimizda ham yaratilayotgani, bunda, ayniqsa, yoshlarning hissasi ortib borayotgani quvonarli hol. Innovatsiya, axborot texnologiyalarini rivojlantirish, barcha jabhalarda joriy etish mamlakatimizda taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Oxirgi yillarda yigit va qizlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, ilg'or g'oyalar, loyiha va texnologiyalarni hayotga keng joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olim va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilyapti. Natijada respublikamizning eng chekka hududlarida yashaydigan yoshlarda ham IT sohaga qiziqish ortib, zamonaviy yo'nalishga oid bilimlarni egallash, o'z g'oyalarini ilm-fan bilan bog'lagan holda hayotga tatbiq etish istagidagi o'g'il-qizlar safi kengayib bormoqda.

Hozirgi kunda ta'lim sohasidagi sifatni oshirish maqsadida qilinayotgan tashabbuslar soni sezilarli darajada oshmoqda. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun asosiy vositalardan biri bu zamonaviy texnologiyalardir. Bugungi kunda deyarli barcha insonlar internet tarmog'idan: smartfon, kompyuter, planshet shu va shu kabi qurulmalardan foydalanishni bilishadi. Bundan bolalar ham mustasno emas. Maktab yoshiga yetgan bolalar bu qurulma va tarmoqlardan deyarli muammosiz foydalana olmoqdalar. Albatta bu quvonarli holat, lekin, shu bilan birga o'qituvchilardan ham yaxshigina mahorat va bilim talab qiladi. Pedagogning AKT sohasidagi bilim salohiyati ularning malakasini oshirish orqali amalga oshiriladi. Dars sifatini oshirish uchun o'qituvchilar AKT bo'yicha malakalarini muttasil oshirib borishlari kerak, shu kabi talablarini bajarish maqsadida indivudial ta'lim olish orqali o'z bilimlarini oshirish zamonaviy ta'lim tizimi hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarini axborotlashtirish, umumta'lim maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga oid loyihalarga muvofiq maktablarni zamonaviy kompyuter jihozlari va texnikasi bilan ta'minlash, o'quv jarayonida multimedia va elektron darsliklardan, raqamli ta'lim texnologiyalaridan keng

foydalanish, ularda axborot-resurs markazlarini tashkil etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, kollej va litseylar, oliy ta’lim dargohlari, ma’naviyat maskanlari, muzeylarni “ZiyoNET” jamoat ta’lim axborot tarmog’iga ulashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa ota-onalar, o‘qituvchilar, o‘quvchi-yoshlar, pedagogika sohasida tadqiqot olib borayotgan olimlar uchun ta’lim, ilm-fandagi so‘nggi yangiliklardan boxabar bo‘lish, maktablararo o‘zaro tajriba almashish, ilg’or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda yurtimizdagi qariyb sakkiz yarim ming maktab ushbu tarmoqqa ulangan. Tuman va shaharlar, chekka hududlardagi maktablarni “ZiyoNET” jamoat ta’lim axborot tarmog’iga ulash ishlari “Ist Telecom”, “Perfectum mobile”, “Uzmobile” provayder kompaniyalari orqali amalga oshirilmoqda. Seminar-treningda “ZiyoNET” ta’lim portalini resurslar bilan boyitish, jamoat ta’lim axborot tarmog’idan samarali foydalanish, ta’lim maskanlarida lokal tarmoqlarni tashkil etish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompyuter texnikasiga servis xizmatini ko‘rsatishga oid ma’ruzalar tinglandi va muhokama etildi.

Talabalarga dars jarayonidagi nazariy va amaliy bilimlarini hayotga tadbiq qilishda virtual laboratoriyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadqiqotlarning rivojlanishiga bevosita hissa qo‘shadilar. Bundan tashqari o‘sha simulyatorlarning ham yanada rivojlanishiga, yanada haqiqiy hayotiy tadqiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda o‘z xissalarini qo‘shishlari mumkin. Bu o‘z o‘rnida talabalarni faqatgina “tinglovchi” vazifasida qolmasdan, bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashuvchilarga aylantiradi. Bu esa o‘z navbatida talabalarda o‘qish va tadqiqotlarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortishiga olib keladi. Hozirgi kunda o‘quvchilarga dars berishning zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashga asoslangan yangi turlari shakllanmoqda. Ular orasida kompyuterda maxsus dasturlar yordamida o‘quvchilar tomonidan kuzatilishi qiyin bo‘lgan yuridik sohaga oid turli jarayonlarni animatsiyalar, videoroliklar vositasida ko‘rgazmali tushuntirish salmoqli ahamiyatga ega. Shuning uchun yuridik fanlarni o‘zlashtirish mobaynida turli vaziyatlarni o‘rganish, hamda darslarda qo‘llaniladigan qurilmalarni virtual analogini hosil qilish, talabalar ishlashini nazarda tutadigan turli virtual tajriba ishlari yordamida mashg‘ulotlarni o‘tkazishni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Darsni ijodiy tashkil etish, vaqtdan unumli foydalanish, mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida o‘tkazish talabalarda jamoa bo‘lib ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘zaro yordam va talabalar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish yo‘llari bilan mashg‘ulotlar jamoa mehnati jarayoniga aylantiriladi. Dars ta’limning boshqa shakllaridan o‘zining ichki va tashqi xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Muayyan yoshdagi va ma’lum tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalar guruhi, rejim, dars tartibi, mashg‘ulotlarni ma’lum xonada o‘tkazish kabilar darsning tashqi xususiyatlari, darsning maqsadi, ta’lim mazmunini his qilish, qiziqish, anglash, tushunish uning ichki xususiyatlari sanaladi. Dars ana shu ikki xil tashqi va ichki xususiyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.07.2021 yildagi O‘RQ-703-son O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI SUDLAR TO‘G‘RISIDA Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 15-iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2021-yil 26-iyunda ma’qullangan.
3. Shoira Bekchonova, Yangi asr universiteti Umumta’lim fanlar kafedrasi mudiri, dotsent “KIBER PEDAGOGIKA – XXI ASRDA RAQAMLI TA’LIM MUHITI PEDAGOGIKASI” “Ta‘lim, fan va innovatsiya” jurnali 2023-yil 2-son ISSN 2181-8274
4.Farrux Aqchayev Tarix fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar o‘quv-uslubiy qo‘llanma
5. FANNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH mavzusida M.A.Muydinovaning maqolasi
6. www.lex.uz
7. www.uz.wikipedia.org
8. https://advice.uz/oz

PEDAGOGIK TA’LIMDA MA’SULYAT VA KOMPETENSIYA MASALALARI

Axmedova Dilnoza Xalimjon qizi
dhaxnozaxatamova@gmail.com
Karimova Laylo Azamat qizi
karimovalaylo.0426@gmail.com
Namangan davlat universiteti Biotexnalogiya fakulteti talabalari

Annotatsiya: *Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish ta’lim tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish bundan tashqari pedagogikning o‘zi kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini hamda qobilyatini ko‘rsata bilish. Kasbiy pedagogik kompententlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi.*

Kalit so‘zlar: *Pedagogik ta’lim, tarbiya va o‘qitish usullari, ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagogik kadrlar tayyorlash.*

Аннотация: *Дальнейшее развитие области педагогического образования, поднятие системы образования на новый уровень, кроме того, сам педагог сможет правильно оценить свой профессиональный уровень и проявить свое развитие и способности как специалиста. Профессиональная педагогическая*

компетентность включает в себя способность последовательно воспринимать педагогическую действительность и последовательно действовать в ней.

Ключевые слова: *Педагогическое образование, методы воспитания и преподавания, внедрение цифровых технологий в образование, подготовка педагогических кадров.*

Annotation: *Further development of the field of pedagogical education, raising the education system to a new level, in addition, the pedagogue himself can properly assess his professional level and show his development and ability as a specialist. Professional pedagogical competence includes the ability to consistently perceive the pedagogical reality and act consistently in it.*

Keywords: *Pedagogical education, education and teaching methods, introduction of digital technologies in education, training of pedagogical personnel.*

Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida: pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin: tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish; pedagogik ta'lim sohasining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o'quv-me'yoriy va ta'lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish; sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish; pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o'rganib borish, ular bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish; oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish; pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim

muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish; pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Pedagogik Ta'lim Sohasini Yanada Rivojlantirish Chora-Tadbirlari To'g'risi"da Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Kasbiy pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi Kompetentlik va kompetensiya o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limga kompetentlik bilan yondashish tarbiyalanuvchilarni turli ko'nikmalarni egallash kelajakda ijtimoiy kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Kompetentlik tarbiyachining mavzuni mazmun jihatidan to'la o'zlashtirish, o'rganish mustahkamlash, qaytarish hamda mustaqil ish uchun materialni tanlashida, o'zining dunyoqarashini kengaytirish uchun o'zlashtiradigan bilimlar negizida ham namoyon bo'ladi. Kompetentlik tarbiyachi uchun o'ta muhbo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqazo etadi:

-odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy muloqatda bo'lish;

-fan sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;

-o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.

Kasbiy- pedagogik kompetentlik asosan to'rtta komponenti bilan asoslanadi:

-shaxsga, insonga yo'nalganlik;

-pedagogik voqealikni izchil idrok etish;

-fan sohasiga yo'nalganlik;

-pedagogik texnologiyalarni egallash.

Pedagogning kasbiy kompetentligi kreativlik bilan xarakterlanadi. Kreativlik- bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik yangilikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik tarbiyachini innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi. Zamonaviy tarbiyachida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati haqida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz. Bilish- murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Obyektiv

borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. Sezish- ongning tashqi olam bilan bo‘ladigan aloqasidir. Sezish tevarak atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning sezgi organlariga ta’sir etuvchi ayrim sifat belgilarning ongda aks etishidir. Idrok-sezish a’zolari orqali ongga ta’sir etib turgan narsa va hodisalarning unda yaxlit aks etishidir. Sezish va idrok asosida bilish jarayonida tasavvur ro‘y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida bilish muammosini to‘la hal etish uchun tafakkur yuzaga keladi. Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lavermaydi, sabab, ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lish. Bundan tashqari, pedagogning o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog‘liq.

- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko‘nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan.

- Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo‘lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o‘sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Kompetensiyaning har bir turi ko‘nikmalar, bilimlar, ko‘nikmalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko‘rsatkichlariga e’tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: “Universitet”, 2020.
2. Qodirova F.R., Qodirova R.M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish metodikasi”, O‘quv-metodik qo‘llanma, -T.: 2004.
3. Тажибоева, Г. Р. (2020). Социальные проблемы и переспективы

интеграционого обучения. Журнал научных и прикладных исследований,
4. Mamadaliev, K. R., Jabborova, O. M., Umarova, Z. A., & Abdullayeva, B. P. (2020). Creation of a New Generation of Teaching Literature-A Requirement of Modernity. International Journal of Psychosocial Rehabilitation,
5. Sergeyeva, E. (2020). Artistic Identity of L. Solovyov's Novel "The Tale of Khodzha Nasreddin". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol,
6. Saydakhmetova, D. (2020). Teaching Russian as a Foreign Language Through Stories. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences,
7. Сайдахметова, Д. Х. (2020). Международные оценочные программы (PISA, TIMSS, PIRLS) и подготовка учеников к ним. Science and Education,

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSION YONDASHUV

Karimjonova Rayhona Ikromjon qizi
Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudentsiya yo'nalishi talabasi
bahtierbojkoziev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola, zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuv mavzusini ichiga oladi. Maqola, pedagogikada axborot texnologiyalarining muhimligi va ularning o'quv jarayonlarini qanday o'zgartirishi haqida ma'lumot beradi. Innovatsion yondashuvning o'quv jarayonlariga qo'shilishi, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi va o'quvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga yordam berishi ko'rsatiladi. Maqola, zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvning o'quv jarayonlarini yanada effektiv qilishdagi roli va ahamiyati haqida o'quvchilarga foydali ma'lumotlar taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *Svilizatsiya, qonun, normativ hujjatlar, hamisha dasturi, uslublar va metodlar, innovatsion yondashuv, shaxsiy rivojlanish.*

Аннотация*: В данной статье рассматривается тема информационных технологий и инновационного подхода в современной педагогике. В статье представлена информация о значении информационных технологий в педагогике и о том, как они меняют образовательные процессы. Показано, что инновационный подход включается в образовательный процесс, повышает мотивацию обучающихся, поддерживает духовное и физическое развитие обучающихся. В статье представлена полезная для студентов информация о роли и значении информационных технологий и инновационного подхода в*

повышении эффективности образовательного процесса в современной педагогике.

***Ключевые слова**: Цивилизация, право, нормативные документы, всегда программа, методы и методы, инновационный подход, развитие личности.*

***Abstract**: This article covers the topic of information technology and innovative approach in modern pedagogy. The article provides information about the importance of information technologies in pedagogy and how they change educational processes. It is shown that the innovative approach is included in the educational processes, increases the motivation of the students, and supports the spiritual and physical development of the students. The article provides useful information to students about the role and importance of information technology and innovative approach in making educational processes more effective in modern pedagogy.*

***Key words**: Civilization, law, normative documents, always program, methods and methods, innovative approach, personal development.*

“Hemis universitet sektoridagi talabalarga rektorlikdan asosiy qiymatni o‘tkazish bilan bog‘liq tizim bo'lib, ularning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishiga imkon beradi”.

Hamid Sodiq

Biz bilamizki, inson hali o‘zini anglab yetmagan ibtidoiy davrlardanoq inson o‘zini yangiliklar o‘rganish rivojlanish sari harakatlar boshlangan va hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. O‘rganish va o‘rgatish usullar zamonaviylashib yanada takomillashmoqda. XXI-asr texnika taraqqiyoti asri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Texnika nafaqat hayotimizning ajralmas qismi balki ta’limda ham o‘z o‘rnini alohida egallagan. Pedagogikaning rivojlantirishda ham hissasi bo‘lakchadir. Masalan ko‘p yillar davomida hatto ta’lim sohasida ham ko‘plab inson omili bilan bog‘liq noxolis baholash tizimi kabi ko‘plab muammolarga duch kelindi. Ayni davrga kelib bunday muammolarni hal etish uchun yangi texnologiya loyihalar ishlab chiqarilar ekan shulardan biri biz qo‘llaydigan hamisha dasturi bunga yorqin misoldir. Birgina bu dasturni yaratilishi tufayli bir necha ovvoragarchiliklar bartaraf etildi. Inson omili keskin kamaydi. Bu funksiya shunchalik qulay va oson bo‘lib, bir ilova o‘zida fanga oid manbalar, baholash mezonlari, davomat, shaxsga oid hujjatlarning saqlab to‘plash orqali pedagog va talaba o‘rtasidagi munosabatlarni ancha shaffoflashtirdi.

Hemis - bu o‘quv jarayonini onlayn tarzda boshqarish imkonini beruvchi axborot tizimi. Hemis tizimi “Ma’muriy boshqaruv”, “O‘quv jarayoni”, “Ilmiy faoliyat” va “Moliyaviy menejment” kabi modullarni o‘z ichiga olgan. Hozirda Hemisdan 217 dan

ortiq oliy ta’lim muassasalari va 1 milliondan ortiq foydalanuvchi (talabalar va o‘qituvchilar) foydalanmoqda. Hemis axborot tizimi barcha fanlarning, shu jumladan o‘quvchilar va ularning ota-onalarining axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira oladi. Tizim boshqaruvchilar tomonidan axborotni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish samaradorligini oshiradi. Hemis mobil ilovasini yuklab olish orqali ta’lim haqidagi ma’lumotlaringizdan xabardor bo‘lishingiz mumkin. Shuningdek, ilova orqali ma’lumotlarni elektron shaklda olish va qarorlar qabul qilishda subyektiv omillar ta’sirini bartaraf etish mumkin. Talaba bilan bog‘liq barcha ma’lumotlar zaxiralanadi va o‘quv jarayonida axborot oqimlari maqsadli tashkil etiladi. Hemis universitet tuzilmasi, fakultet va kafedralar, xodimlar va o‘qituvchilar tarkibi, talabalar kontingenti va ularning harakati haqidagi ma’lumotlarni boshqaradi. Hemisning asosiy funktsiyalaridan biri o‘quv dasturlari, fanlar va talabalarning o‘quv faoliyatini boshqarish, universitet bitiruvchilarini ro‘yxatga olish va monitoring qilishdir. Arizada talaba uchun barcha kerakli ma’lumotlar mavjud. Muhimi, talaba istalgan vaqtda ushbu ma‘lumotlarga kirishi mumkin. Bu talabaga o‘z o‘quv jarayonini nazorat qilishda katta yordam beradi. Student Hemisda:dars jadvali, ilmiy manbalar, ma’lumotlar, nazorat jadvali shartnoma va topshiriqlar bilan tanishishi mumkin. Bu ta’lim sohasida inson omilining qisqarishini taminlaydi. Undan tashqari talabalarning o‘ziga qulay vaqtda, qulay joyda kerakli hujjatlarni fayl ko‘rinishida yuklab olishlari osonlashadi. “Hemis” axborot tizimi oliy ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma’muriy xodimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalarga elektron ta’lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta’lim muassasalari bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘rtasida axborot ko‘prigi vazifasini o‘taydi va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi. Qulay va samarali qilish uchun innovatsion yondashuvlarni qanday qo‘llash mumkinligi haqida ma’lumotlar beradi. Maqola, hemis dasturining o‘quvchilar uchun qanday foydali bo‘lishi, ularning o‘zlashtirish va tushunarli o‘rganish jarayonlarini qanday ta’sir etishi, zamonaviy texnologiyalar (masalan, internet, kompyuterlar, interaktiv darsliklar, onlayn o‘qitish platformalari va boshqa texnologiyalar)ning ta’lim jarayonlarini qanday o‘zlashtirishga yordam berishi, o‘quvchilarning tushunish darajalarini oshirishga qanday qo‘llanilishi, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ta’lim natijalarini yuqori darajada oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatini belgilaydi. Bu maqola, ta’lim tizimida yangiliklarni qo‘llash va o‘quvchilar uchun qulayliklarni yaratishning muhimligi haqida fikrlar va ko‘rsatmalar taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion

pedagogik texnologiyalar.- T.: "Universitet", 2020.
2.M.Hamdamova "Milliy g'oya asosida uzluksiz ta'lim-tarbiyani rivojlantirish mexanizmlari" (Metodik qo'llanma) Toshkent 2009-yil
3. https://azkurs.org/oquv-jarayonida-axborot-texnologiyalaridan-foydalanish.html
4. www.ziyonet.uz
5. https://bugun.uz/hemis-asosij-adriyat-rektorat-emas-balki-talabadir
6. https://www.spot.uz/oz/2022/07/21/hujjatlar/

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA TARBIYA FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Tillayev Bobomurod Abduvoxobvich
Namangan Davlat universiteti Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi
(tillayevbobomurod@gmail.com)

Annotatsiya: *Ushbu maqola milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va tarbiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bugungi ta'lim muhitida muhim va dolzarb mavzudir. Axborot texnologiyalari ta'lim berish uslubini tubdan o'zgartirib yubordi va milliy qadriyatlar, ma'naviy tamoyillar va ta'lim bilimlarini uzatishga katta ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Ta'limda milliy g'oya, ma'naviyat va axborot texnologiyalarining yaqinlashuvini har tomonlama ko'rib chiqishga qaratilgan. Bu madaniy xilma-xillikni qamrab olgan holda kuchli milliy o'ziga xoslikni targ'ib qilishning ahamiyatini o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Milliy g'oya, tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, axborot, resurslar, ma'lumotlar, madaniyat, an'analar, integratsiya, qadriyatlar.*

Аннотация: *Данная статья является важной и актуальной темой в современной образовательной среде. Информационные технологии коренным образом изменили способ образования и могут существенно повлиять на передачу национальных ценностей, моральных принципов и образовательных знаний. Его целью является комплексное рассмотрение сближения национальных идеалов, духовности и информационных технологий в образовании. В нем исследуется важность продвижения сильной национальной идентичности при одновременном соблюдении культурного разнообразия.*

Ключевые слова: *Национальная идея, образование, современные технологии, информация, ресурсы, информация, культура, традиции, интеграция, ценности.*

Abstract: *This article is an important and relevant topic in today's educational environment. Information technology has fundamentally changed the way of education and has the potential to greatly influence the transfer of national values, moral principles and educational knowledge. It aims to comprehensively consider the convergence of national ideals, spirituality and information technologies in education. It explores the importance of promoting a strong national identity while embracing cultural diversity.*

Key words: *National idea, education, modern technologies, information, resources, information, culture, traditions, integration, values.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda ta'limda milliy o'zlik, ma'naviy tamoyillar va texnologiyaning kesishishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy g'oya tushunchasi mamlakat va uning xalqini belgilab beruvchi asosiy qadriyatlar, an'analar va intilishlarni o'z ichiga oladi. Bu g'oya jamiyatni jipslashtirish, madaniy taraqqiyot va umumiy maqsadlarga erishishda yetakchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ma'naviyat insonga maqsad tuyg'usini, axloqiy yo'l-yo'riq va axloqiy asoslarni beradi. Milliy g'oyani o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning usullaridan biri milliy tarix, madaniyat va an'analarga oid keng ko'lamli manbalardan foydalanish imkonini beruvchi elektron ta'lim platformalaridan foydalanishdir. Ushbu platformalar interfaol darslar, tarixiy joylarga virtual sayohatlar va talabalarga o'z mamlakati merosini tushunishga yordam beradigan asosiy manba hujjatlariga kirishni taklif qilishi mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-dekabr kuni "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda ma'naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san'at namoyandalari, shuningdek, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi vakillari, vazirlar va hokimlar ishtirok etdi. Ma'lumki, respublikamizda ushbu Kengash raisi Prezident, hududlarda esa birinchi rahbarlar hisoblanadi. Chunki ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat ustuvor masaladir"[1] deya ta'kidladilar.

Ta'lim va tarbiya kontekstida ushbu asosiy elementlarni ko'rib chiqayotganda, ushbu qadriyatlar va tamoyillarni etkazish uchun axborot texnologiyalaridan qanday samarali foydalanish mumkinligini o'rganish muhim bo'ladi. O'qitishda texnologiya integratsiyasi o'quvchilarni jalb qilish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va turli nuqtai nazarlardan foydalanishni osonlashtirishning innovatsion usullarini taklif etadi. Ma'naviy tamoyillarni o'rgatishda axborot texnologiyalarini kiritish diniy ta'lim

yoki ong amaliyoti uchun onlayn resurslardan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin. Virtual meditatsiya ilovalari yoki onlayn diniy matnlar ta’lim kontekstida ma’naviyat bo‘yicha munozaralarni osonlashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Axborot texnologiyalaridan tadqiqot ma’lumotlar bazalariga, darsni rejalashtirish uchun o‘quv dasturlariga va o‘qituvchilar uchun baholash vositalariga kirishni ta’minlash orqali ta’lim fanini o‘rgatish uchun ham foydalanish mumkin. Bu o‘qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlar va o‘qitish usullaridan xabardor bo‘lishga yordam beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, axborot texnologiyalari ta’limning ushbu muhim jihatlarini o‘rgatishda juda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lsa-da, undan o‘ylangan va axloqiy ravishda foydalanish kerak. O‘qituvchilar o‘quvchilarning raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini yodda tutishlari kerak, shuningdek, ushbu texnologiyalarni joriy qilishda foydalanish imkoniyatlarini hisobga olishlari kerak. qadriyatlarga asoslangan ta’limni o‘rgatish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq potentsial foyda va muammolarni o‘rganadi. Unda yosh o‘quvchilarda milliy g‘urur, axloqiy xulq-atvor va ma’naviy ongni singdirish uchun raqamli vositalardan foydalanishning muvaffaqiyatli misollari yoritiladi. Ushbu ko‘p qirrali jihatlarga to‘xtalib, ushbu maqola milliy g‘oya, ma’naviyat va axborot texnologiyalarini samarali o‘zida mujassamlashtirgan ta’limga mutanosib yondashuvni yaratish bo‘yicha tushunchalar berishga harakat qiladi. U o‘qituvchilarni, siyosatchilarni va manfaatdor tomonlarni ta’lim o‘quv dasturlarini shakllantirishda va o‘quvchilar o‘rtasida yaxlit rivojlanishni rag‘batlantirishda ushbu o‘zaro bog‘liq jihatlarni hisobga olishga ilhomlantirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy g‘oya, ma’naviyat tamoyillari va ta’lim fanini o‘rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning ushbu muhim tushunchalarni tushunishi va faolligini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Ta’lim muassasalarida raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali biz o‘quvchilarning milliy o‘zliklari, ma’naviy e’tiqodlari haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lishlari hamda ilg‘or ta’lim nazariyalari bilan tanishishlarini ta’minlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident: Shavkat Mirziyoyev raisligida Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak https://president.uz/oz/lists/view/6941 2023-yil 22-dekabr

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi nutqi 2020-yil 30-oktyabr (https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi

muhokama-qilindi)
3. Ishmuhamedov R., Yoldoshev M. “Ta‘‘lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar” T.: 2017 yil,
4. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: “Universitet”, 2020.
5. Tarbiyaning umumiy metodlari (tarbiyaviy.uz)
6. M.Hamdamova “Milliy g‘oya asosida uzluksiz ta’lim-tarbiyani rivojlantirish mexanizmlari” (Metodik qo‘llanma) Toshkent 2009-yil
7. www.ziyonet.uz

HUQUQ DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Bayjanova Barshinoy Baxtiyor qizi
Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet Yurisprudensiya yo‘nalishi talabasi
bayjanovabarshinoy@gmail.com
Ilmiy rahbar: Oltinboyev Doniyor
NamDU Yuridik fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Huquq sohasi doimo takomillashib boradi, shu bilan birga huquqiy ta’limda o‘qitish va o‘qitish metodlari ham doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Texnologiyaning rivojlanishi bilan o‘qituvchilar huquqshunoslik fakulteti talabalari uchun o‘quv tajribasini oshirishi mumkin bo‘lgan keng ko‘lamli pedagogik vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Huquqshunoslik darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va muammolarini o‘rganib chiqamiz va bu vositalarni huquqiy ta’limga qanday qilib samarali integratsiyalash mumkinligini muhokama qilamiz.*

Kalit so‘zlar: *Pedagogik texnologiyalar, fikrlash, ko‘nikma, virtual simulyatsiya, huquqiy resurslardan, kutubxonalar.*

Аннотация: *Область права постоянно развивается, а методы преподавания и обучения в юридическом образовании также постоянно развиваются. С развитием технологий преподаватели получают доступ к широкому спектру педагогических инструментов, которые могут улучшить качество обучения студентов-юристов. Мы изучим преимущества и проблемы использования педагогических технологий в юридических исследованиях и*

обсудим, как эти инструменты могут быть эффективно интегрированы в юридическое образование.

Ключевые слова: *Педагогические технологии, мышление, умения, виртуальная симуляция, правовые ресурсы, библиотеки.*

Abstract: *The field of law is constantly evolving, while teaching and learning methods in legal education are also constantly evolving. With the advancement of technology, educators have access to a wide range of pedagogical tools that can enhance the learning experience for law students. We will explore the benefits and challenges of using pedagogical technologies in legal studies and discuss how these tools can be effectively integrated into legal education.*

Key words: *Pedagogical technologies, thinking, skills, virtual simulation, legal resources, libraries.*

Pedagogik texnologiyalar huquq sohasida ham talabalar, ham o‘qituvchilar uchun ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi. Ushbu vositalar interfaol ta’lim tajribasini taqdim etishi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi va talabalar o‘rtasida hamkorlikni osonlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, virtual simulyatsiya va amaliy tadqiqotlar nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi, bu esa talabalarga huquqiy tushunchalarni yanada to‘liqroq tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, onlayn tadqiqot ma’lumotlar bazalari va raqamli kutubxonalar talabalarga keng ko‘lamli huquqiy resurslardan foydalanishni osonlashtiradi va shu bilan ularning tadqiqot ko‘nikmalarini oshiradi.

Pedagogik texnologiyalar juda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lsa-da, bu vositalarni huquqshunoslik darslariga integratsiyalashganda e’tiborga olish kerak bo‘lgan muammolar ham mavjud. Asosiy tashvishlardan biri texnologiya asosiy bilimlar yoki tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini almashtirmasligini ta’minlashdir. O‘qituvchilar, shuningdek, mavjudlik masalalarini ko‘rib chiqishlari va barcha talabalarning ushbu texnologiyalar bilan shug‘ullanishlari uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lishlarini ta’minlashlari kerak. Bundan tashqari, yangi o‘qitish usullarini qo‘llashga ikkilangan an’anachilar tomonidan qarshilik bo‘lishi mumkin. Huquqiy ta’lim an’anaviy tarzda o‘qitishning ma’ruza, amaliy tadqiqotlar va o‘qish kabi an’anaviy usullariga tayangan. Biroq, texnologiyaning rivojlanishi bilan pedagogik texnologiyalarni huquqshunoslik darslariga kiritish imkoniyati ortib bormoqda. Ushbu maqola yuridik ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va muammolarini va ular huquqshunos talabalar uchun o‘quv tajribasini qanday oshirishi mumkinligini o‘rganishga qaratilgan. Pedagogik texnologiyalarni huquqshunoslik darslariga samarali integratsiya qilish uchun o‘qituvchilar o‘z o‘quv maqsadlari va kurs

mazmuniga mos keladigan vositalarni diqqat bilan tanlashlari kerak. O‘qituvchilar va talabalar ushbu texnologiyalardan qulay foydalanishlarini ta’minlash uchun ularni o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, onlayn munozara forumlari, virtual haqiqat simulyatsiyalari va multimedia taqdimotlari kabi turli xil vositalarni o‘z ichiga olgan holda, turli xil o‘quv uslublariga mos kelishi va turli xil talabalar populyatsiyasini jalb qilishi mumkin. Huquq darslariga pedagogik texnologiyalarning kiritilishi talabalar uchun yanada dinamik va inklyuziv ta’lim muhitini taklif qilish orqali huquqiy ta’limda inqilob qilish imkoniyatiga ega. Ushbu texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa-da, ularning afzalliklari to‘siqlardan ancha ustundir. Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, yuridik o‘qituvchilar o‘zlarining ta’lim yondashuvlarini mos ravishda moslashtirishlari, bo‘lajak huquqshunoslarni tobora raqamli dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki pedagogik texnologiyalar talabalarni jalb qilish va ularning ta’lim tajribasini oshirishning innovatsion usullarini taqdim etish orqali huquqiy ta’limni tubdan o‘zgartirish imkoniyatiga ega. Ushbu vositalardan samarali foydalanish orqali o‘qituvchilar bo‘lajak advokatlarni tobora raqamli dunyoda duch keladigan qiyinchiliklarga tayyorlaydigan dinamik o‘quv muhitini yaratishi mumkin. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashuviga o‘ylangan holda yondashish, huquqiy ta’limning o‘ziga xos talab va vazifalarini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 5A340605 — «Xalqaro moliya» mutaxassisligining magistrantlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2009
2. Ishmuhamedov R., Yoldoshev M. “Ta‟lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar” T.: 2017 yil,
3. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: “Universitet”, 2020.
4. Tarbiyaning umumiy metodlari (tarbiyaviy.uz)
5. M.Hamdamova “Milliy g‘oya asosida uzluksiz ta’lim-tarbiyani rivojlantirish mexanizmlari” (Metodik qo‘llanma) Toshkent 2009-yil
6. https://azkurs.org/oquv-jarayonida-axborot-texnologiyalaridan-foydalanish.html
7. www.ziyonet.uz

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA’LIMI VA TARBIYASINING RIVOJLANISHI

Abdurasulov Abduraxim Abdurashid o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti
Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
abdurasulovabduraxim3@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasining rivojlanishi, umumta’lim maktab o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish haqida umumiy tushunchalar, ma’naviy-axloqiy xulq-atvor mazmun-mohiyati to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Axloq va axloqiy ong tushunchalari ma’nosi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim-tarbiya, estetik ong, ma’naviyat, meros, milliy musiqa, odob-axloq, ta’lim-tarbiya.*

Аннотация: *в данной статье говорится о развитии музыкального образования и воспитания в общеобразовательных школах, общих понятиях о формировании духовно-нравственного воспитания учащихся общеобразовательных школ, содержании и сущности духовно-нравственного поведения. Раскрывается смысл понятий нравственности и нравственного сознания.*

Ключевые слова: *образование, эстетическое сознание, духовность, наследие, национальная музыка, нравы, воспитание.*

Abstract: *in this article, the development of music education and upbringing in general secondary schools, general concepts about the formation of spiritual and moral education in general secondary school students, the content and essence of spiritual and moral behavior to is spoken about. The meaning of the concepts of morality and moral consciousness is revealed.*

Key words: *education, aesthetic consciousness, spirituality, heritage, national music, manners, education.*

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, O‘zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko‘taradi, uning taraqqiyotini ta’minlaydi, kelajagini belgilab beradi. Xalqimiz kelajagi ko‘p jihatdan o‘qituvchiga, uning dunyoqarashi, salohiyati, fidoyiligi, kasbiy tayyorgarligi, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan

munosabatiga bog‘liq. Bunday murakkab ijtimoiy vazifani amalga oshirishda barcha ilm-fan va amaliy faoliyatlar ichida “Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari” fani yetakchi o‘rin egallaydi. Musiqa o‘qituvchisi yangicha ta’lim tizimini o‘rganib, ilm-fanning shu kungacha erishilgan yutuqlari bilan birga, kasbiy komponentligi darajasidan kelib chiqib, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan “musiqa madaniyati” darslarida foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil Respublikamizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy va madaniy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olmoqda.

O‘zbekistonning «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra 9 yillik umumiy o‘rta ta’lim joriy etildi. Ta’limni mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda musiqa predmeti bo‘yicha konsepsiya ishlab chiqildi. 1992-yil 25-noyabrda «Ma’rifat» gazetasida musiqa ta’lim-tarbiyasining konsepsiya loyihasida musiqa ta’limining milliy va ilmiy asoslari, mazmuni, tuzilishi, tabaqalanishi, musiqa o‘qituvchisiga bo‘lgan zamonaviy talablar hamda ta’limning ilmiy-uslubiy ta’minoti bayon etiladi. Bugungi o‘zligimizni anglash o‘z taqdirimiz va farzandlarimiz istiqbolini yaratish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Mustaqil O‘zbekistonda milliy madaniyatimizni o‘ziga xos xususiyatini tiklash umumta’lim maktablarida yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish hamda hozirgi kunimizni to‘laroq idrok etish uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmoqlik hisoblanadi. Chunki, har bir yangilik tarixiy bog‘lanish orqali amalga oshiriladi. Bular ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o‘z aksini topadi. Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo‘lib yetishishlarida o‘ziga xos, takrorlanmas manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa ta’limidan davlat standartlari asosida yangi ta’lim mazmuni o‘quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi. Demak, yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda «Musiqa madaniyati» darslarini ahamiyati katta. Musiqiy madaniyat darslari o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ulardagi go‘zallikka bo‘lgan histuyg‘ularini o‘stiradi, musiqa san’atiga mehr-muhabbat, qiziqish uyg‘otadi, onaVatanni sevishga, bir-birini, kattalarni hurmat qilish, mehnatni, tabiatni sevishga, qadrlashga o‘rgatadi va hayotda o‘z o‘rnini topa olishga madad beradi. Bunda o‘quvchilar musiqa san’atini butun nafosati bilan o‘rganishlari, musiqani idrok etish, yakka va jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash va raqsga tushish, ijodkorlik malakalarini shakllantirish, musiqa tarbiyasining

asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilar iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoit yaratib berish va ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta’lim-tarbiyasining vazifasini tashkil etadi.

Hozirgi musiqiy ta’lim-tarbiyasi shuni ko‘rsatadiki, milliy musiqa merosimizni o‘rganishda musiqa darslarini va sinfdan tashqari musiqa tarbiya tizimini ahamiyati katta. Musiqa darslarini hayotga joriy etish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun musiqadan 1999-yili davlat ta’lim standartlari asosida yangi dastur ishlab chiqildi. Yangi dasturning asosiy mohiyati avvalo darsning mavzulari, har bir chorak belgilangan mavzulardan kelib chiqadi. Darsni qiziqarli bo‘lishi uchun musiqa ijodkorligi qo‘llanildi, barcha musiqa faoliyatlari (xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash) dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bog‘lanib o‘tiladi.

«Dars» – ta’lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay va samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabhalarida bo‘layotgan siyosiyiqtisodiy, ijtimoiy, ma’rifiy o‘zgarishlar barcha fanlar qatori musiqa darslarining mazmuni va metodikasiga ham qo‘yildi:

Darsda ta’limiy-didaktik, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlarni bilish va ularni amalga oshirish.

1. Darsda ta’ limning faol usul va uslublaridan foydalanish.

2. Dars jarayonida xalq pedagogikasi an’analarini, jahon pedagogika va psixologiyasi, san’atimiz, buyuk ajdodlarimiz o‘gitlari, rivoyatlarimiz, hadislarimizdan unumli foydalanib borish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, keyingi yillarda tajribali metodistlar, olimlar va amaliyotchi o‘qituvchilarning o‘quv jarayonini tahlil qilish sohasida o‘tkazilgan va didaktik shart-sharoitlarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda.

Eng muhim shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

1. Darsliklar, qo‘llanmalar, dasturlar, tavsiyanomalar, didaktik va metodik ko‘rgazmali qurollar hamda texnik vositalardan foydalanish.

2. Sinfda ijobiy psixologik muhit bo‘lishi.

3. O‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lish. Ushbu pedagogik shart-sharoitlarga amal qilib, darsning maqsadi va mavzusi to‘g‘ri tashkil qilinsa, dars sifatli, samarali bo‘lishi mumkin.

Oliy Majlisning 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» muhim tarixiy, amaliy hujjat bo‘lib ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni dunyoning ilg‘or demokratik davlat darajasiga yetkazish va yosh kadrlarni yuksak ma’naviy-axloqiy, yuqori bilimlarga ega qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi. Talabalarimizni olgan nazariy bilimlari bilan birga amaliy mashg‘ulot

o‘tkazgan darslari va o‘quv-tarbiya mashg‘ulotlarida guruhning barcha talabalari o‘qituvchi ishtirokida tahlil va muhokama qilishlari lozim. Tahlil jarayonida eng muhimi talaba o‘zining dars o‘tkazuvchi o‘qituvchi sifatida tasavvur qilib, o‘z ishini uddasidan qanchalik chiqa olishini to‘g‘ri baholay olganidadir. Talaba tomonidan o‘tqazilgan darslarning va tarbiyaviy ishlarning tahlili odatda o‘z-o‘zini baholashda, o‘zini hisobotini reja va konspektalarni tahlil qilishdan, o‘z ishini baholay olishdan boshlanadi. Metodist – o‘qituvchi, amaliyotchi – talabaga metodik yordam ko‘rsatish va maslahatlar berib, kamchilik va yutuqlarini aniqlab, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi lozim. Bunda eng asosiy maqsad talaba-yoshlarimizni qobiliyat va imkoniyatlarini aniqlab, to‘g‘ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Bu borada birinchi prezidentimiz I.A. Karimovning – «Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an’analarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji bilan uzviy bog‘liqdir» , degan so‘zlari ma’naviyat cho‘qqisiga intilishga chorlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.Karimov. «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», – T.: «Sharq» nashriyoti. 1997.

2. A. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. –T: Fan, 1993 y.

3. V. Vaxrameyev. Musiqa nazariyasi. –T: O‘qituvchi, 1965 y.

4. H. Nurmatov, N. Norxo‘jayev. 1-sinf uchun. «Musiqa alifbosi » darsligi. – T. G‘ofur G‘ulom, 2007 y.

OILA TARBIYASI MASALALARIGA TURKISTON JADIDCHILARINING QARASHLARI

p.f.d (DSc).prof.Ernazarova Gulnora Oblaqulovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti umumiy pedagogika kafedrasi mudiri

E-mail: g.ernazarova@cspi.uz

Xamidov Saidolim Saidraxmon o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

E-mail: s.xamidov23@cspi.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada oila tarbiyasi masalalariga Turkiston jadidchilarining qarashlari, jumladan jadidchilik xarakati namoyondalarining

qarashlari, A.Avloniyning fikrlari, Abdurauf Fitratning ,,Oila“ asarining ahamiyati, oilada bola tarbiyasining mohiyati, bolalalrni tarbiyalashning o`ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan

Kalit so`zlar: oila tarbiyasi, Turkiston jadidchilari jadidchilik xarakati namoyondalari, fikrlar, tarbiyaning ahamiyati, bola tarbiyasi mohiyati, oila munosabatlari

ВЗГЛЯДЫ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ НА ВОПРОСЫ СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ

p.f.d (DSc).проф.Aazarova Gulnora Oblakulovna
Заведующий кафедрой общей педагогики Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: g.ernazarova@cspi.uz
Хамидов Сайдолим Сайдрахман оглы
Студент Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: s.xamidov23@cspi.uz

***Аннотация*:** В данной статье рассматриваются взгляды туркестанских джадидов на вопросы семейного воспитания, в том числе взгляды представителей джадидистского движения, А.Размышления авлани, Абдурауфа Фитрата о значении произведения “Семья", о сущности воспитания детей в семье, об особенностях воспитания детей

Ключевые слова: семейное воспитание, Туркестанские джадиды проявления джадидистского движения, мнения, значение воспитания, сущность воспитания ребенка, семейные отношения

THE VIEWS OF THE TURKESTAN JADIDS ON THE ISSUES OF FAMILY EDUCATION

p.f.d (DSc).Prof.Aazarova Gulnora Oblakulovna
Head of the Department of General Pedagogy of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: g.ernazarova@cspi.uz
Hamidov Saydolim Sayd rahman oglu
Student of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: s.xamidov23@cspi.uz

Abstract: This article examines the views of the Turkestan Jadids on issues of family education, including the views of representatives of the Jadidist movement, A. Reflections of Avlani, Abdurauf Fitrat, on the meaning of the work “family", on the essence of parenting in the family, on the peculiarities of parenting

Keywords: family education, Turkestan Jadids, manifestations of the Jadidist movement, opinions, the meaning of education, the essence of child rearing, family relations

Oila sharoitida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Ayni oilaviy tarbiyada tartib intizomga e’tibor bo‘lsa, uning a’zolari shu hislatlarida uni qo‘llaydilar. Bu ularning xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo‘ladi.

Oila bu odobu ahloq, xushmuomlalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo‘lishi, insonlar o‘rtasidagi munosabat va muloqotlarda o‘ta muhim va shaxsning fe’l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oilada ota ona o‘z farzandini Vataniga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa bu his tuyg‘u unga butun umri davomida hamroh bo‘ladi.

Bunday o‘ta ma’suliyatli vazifa ota va ona zimmasiga tushadi. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari: insonni yaratish, bolani tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma’naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma’naviy birlikda xo‘jalik yuritishni ta’minlash, o‘zaro yordam ko‘rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining ta’minlash demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalarini bajaradi. Oila mustahkamligi - bu jamiyat mustahkamligi, oila baxti jamiyat baxtiyorligidir.

Oila tarbiyasi, oilaning vazifalari, oila a’zolarining burchlari, oila qurish zaruriyatlari, farzandlar tarbiyasi va shunga o‘xshash oila bilan bog‘liq mavzular azal-azaldan ko‘pchilikni qiziqtirib kelgan. Xususan oilaviy munosabatlarda ham ba’zi noqis holatlar ko‘rina boshladi. Masalan millat taraqqiyoti, yurtning ertasi uchun qayg‘urgan, o‘z xalqini dunyoning taraqqiy etgan xalqlari qatorida ko‘rishni orzu qilgan jadidchilik xarakati namoyondalari tarbiya va ta’limni bir butun jarayon deb qarash bilan birga tarbiyada oilada oilaviy muhitning, ota-onaning ma’suliyati haqidagi o‘z fikrlarini bayon qilganlar [1,2].

“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo saodat, yo mamot, yo falokat” deb ta’kidlagan A.Avloniyning fikrlari o‘ziga xos shiorga aylandi. Jadidlarning fikri bo‘yicha oila asosini to‘g‘ri qurmasdan turib va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish

mumkin emas. Bu axir oqibatda millat taqdiri, uning oilalar holatiga undagi tarbiyaga bog‘liq jihatlari borligini ko‘rsatadi.

Bunday g‘oyalar millatparvar jadidchi Abdurauf Fitratning ,, Oila “ asarida o‘z ifodasini topgan. ,,Har bir millat izzati, albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi.

Qayrda oila munosabatlari kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi.“` deb yozadi u. Fitrat ,,Oila “asarida chuqur va keng bilimga asoslanganligi bois, o‘tkir mutaxassis sifatida fikr yuritadi.U insonlarga ahloq odobdan saboq berishga, oiladagi tartib, ma’naviy muhit, ahloqiy tarbiyadan saboq berishga, oila tutimi qonun qoidalarini odamlarga o‘rgatishga haqqi bor, zeroki, bu masalada bilim darajasi bo‘yicha u bilan hech zamondoshi tenglasha olmas edi.

Islomshunoslik fani dunyoviy ilmlardan boxabar bo‘lgan Fitrat asarda huquqshunoslik, sosiolog, pedagog va tabib siqatida namoyon bo‘ladi. A.Fitratning fikricha, farzandni to‘laqonli kamol toptirib o‘stirish uchun unga jismoniy aqliy va an’anaviy tarbiyadan iborat ko‘p tarkibli tarbiya berish muhimdir.

Fitrat bolaning ruhiyati ota ona va bolaning ruhiyatining nisbati va o‘zaro bog‘lanish masalasiga katta ahamiyat berib, bizning bugungi tushunchamizdagi iste’dodli ruhshunos-pedagog sifatida ham ko‘rinadi. Bolalarni o‘ziga ishongan, kuchli topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o‘z qadr qimmati, sha’nini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o‘rgatmoq kerak.

Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo‘lgan intilishlari hech qachon xazon bo‘lmasin. “Fitratning fikricha, farzandni jisman, aqlan va ahloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi ahloq bilan chiqarish mumkin. Shuni e’tiborga olib Fitrat farzand tarbiyasini uch qismdan iborat deb biladi: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya.

Uning fikricha tarbiyaning bu jihatlari bir biri bilan bog‘liq tushunchalardir.Fitratning ta’kidicha yana kimki o‘z avlodining tarbiyasi ustida o‘ylayotgan bo‘lsa, farzandlarini jismi, aqli va ahloqini yana bir darajada tarbiyalaydi, intizom va tarbiyaga amal qiladi [2].

Tarbiyaning har bir qismi ota va onadan katta ma’suliyat va sa’y-harakat talab qiladi. Shunday ekan, bugungi ota va onalar oila qurish ostonasidagi balog‘ot yoshga yetganlar, keksa nuroniylar barchamiz oiladagi tarbiya va ta’lim masalalariga katta e’tibor va ma’suliyat bilan va eng muhimi, nihoyatda noziklik bilan munosabatda bo‘lishimiz darkor ekan. Zeroki, oila jamiyatning kamolotidagi ilk maskan yoki aksi bo‘lishi bo‘lishi mumkinligini hayot haqiqati ko‘rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Ishmuhamedov R.J. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya (o 'zbek va rus tillarida). - T.,2004 u.

2.Мунавваров А.Қ. умумий таҳрири остида. / Педагогика. -Т.:"Ўқитувчи", 1996. – 200 б.

3.Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obщ red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.

O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Raxmatullayeva Lobar Xurshid qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
E-mail: l.raxmatullayeva@gmail.com
Ismailov Fazliddin Xusniddin o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
E-mail: fazliddin.09@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim jarayonida interfaol usullarni qo'llash, interfaol usullar nafaqat ta'limda balki, tarbiyada ham ayniqsa yaxshi natija keltirishi, evrestik suhbat: bahs usuli; aqliy hujum; davra stoli; ishbilarmon o'yinlar usuli; amaliy ish bo'yicha tanlov muhokamasi va boshqa alohida o'qituvchi bilan qo'llanuvchi – zavqli interfaol o'qitish usullari haqida fikr yuritilgan

Kalit so`zlar: ta'lim jarayoni, interfaol usullar, Interfaol usullar nafaqat ta'lim, tarbiya, evrestik suhbat, bahs usuli, aqliy hujum, davra stoli, ishbilarmon o'yinlar usuli, o'qitish usullari

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ

Рахматуллаева Лобар Хуршидовна
Студент Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: l.raxmatullayeva@gmail.com
Исмаилов Фазлиддин Хусниддинович
Студент Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: fazliddin.09@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается применение интерактивных методов в образовательном процессе, что интерактивные методы приносят особенно хороший результат не только в обучении, но и в воспитании, эврестическая беседа: метод дебатов; мозговой штурм; круглый стол; метод деловых игр; конкурсное обсуждение практической работы и другие прикладно – развлекательные интерактивные методы обучения с отдельным преподавателем

Ключевые слова: образовательный процесс, интерактивные методы, интерактивные методы не только обучение, воспитание, эвристическая беседа, метод дебатов, мозговой штурм, круглый стол, метод деловых игр, методы обучения

EFFECTIVE USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING

Rakhmatullayeva Lobar khurshidovna
Student of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: l.raxmatullayeva@gmail.com
Ismailov Fazliddin Husniddinovich
Student of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: fazliddin.09@gmail.com

Abstract: This article examines the use of interactive methods in the educational process, that interactive methods bring particularly good results not only in teaching, but also in education, heuristic conversation: the method of debate; brainstorming; round table; the method of business games; competitive discussion of practical work and other applied and entertaining interactive teaching methods with a separate a teacher

Keywords: educational process, interactive methods, interactive methods not only teaching, education, heuristic conversation, debate method, brainstorming, round table, business games method, teaching methods.

Ta’lim jarayonida interfaol usullar qo‘llanilganida o‘quvchilarda bellashuv, raqobat, beg‘araz tortishuvlar evaziga psixikani intellektual faolligiga kuchli ta’sir etadi. Bunda o‘quvchilar uyushgan holda muammoni yechishni izlaganlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu xolat o‘quvchilarda quyidagi psixik xolatlar kuzatilishiga olib

keladi: atrofdagilar tomonidan bildirilgan har qanday fikrga o‘zining shunga o‘xshash, yaqin yoki aksincha mutlaqo qarama-qarshi fikr bildirishlariga undaydi.

Bunday mashg‘ulotlar vaqtida o‘qituvchidan katta xajmdagi ijodkorlik va faollik talab etiladi. Aksincha, oldindan ma’lum yoki kitobdan o‘qiganlarini hikoya qilish shaklidagi dars passiv darajada o‘tadi.

Interfaol usullar nafaqat ta’limda balki, tarbiyada ham ayniqsa yaxshi natija keltiradi, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda o‘qituvchi muhokamaga ta’sir qilganda nafaqat fikr bildiradi, balki muammoga o‘zining shaxsiy munosabatini, axloqiy qarashlari va dunyoqarashini bildiradi. Bunda talabalar bahsida o‘qituvchini ishtiroki turlicha bo‘lishi mumkin, biroq har qanday holatda ham o‘zini fikrini o‘tkazmasligi talab etiladi. Har qanday bahsni boshqarishda, obdon o‘ylab, hisoblab chiqilgan usul, sermahsul fikrlashni, yechimini topishda ijodiy izlanuvchanlikni talab etuvchi yo‘lni muammoli savol qo‘yish orqali boshqarish lozim bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘z nuqtai nazaridan chiqarishda fikr bildiradi, faqat talabalar fikridan xulosa chiqarish bilan isbotlash va xato fikrlarni rad etish kerak. Bu usul bilan bahsni nafaqat mazmuni intellektual - bilish, nazariy savollarni yo‘llash mumkin, shuningdek hamkorlikda sermahsul faoliyatlarini tuzish, talabalar shaxsiga o‘z ta’siri bilan o‘quv faoliyatini o‘quv tarbiya jarayoniga aylantirishi mumkin [2].

Shu tartibda, o‘qitishda interfaol usuldan foydalanish, talabalarning hamkorlikdagi faoliyati o‘qituvchining bahslardagi ishtiroki tufayli dars jarayonini nafaqat hamkorlikdagi faoliyati bo‘ladi, balki shaxsning ijtimoiy munosabatlarining real ijodiy sermahsul faoliyatiga aylanadi. O‘qishdagi hamkorlik o‘z-o‘zidan talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning ichki dunyosiga ta’sir etadi va dars jarayonini asosiy tarbiyaviy funksiyasi hisoblanadi.

O‘qituvchi, auditoriyadagi mavzuga oid bahslarda savollarni o‘z holicha qo‘ymasdan, balki faol bilishning yo‘nalishi “Talaba-talaba” hamkorligi bilan chegaralanib qolmasdan, doimo “O‘qituvchi-talaba” tizimi qo‘shilishi muhimligini nazarda tutish kerak.

Interfaol o‘qitish usuliga quyidagilar kiradi: evrestik suhbat: bahs usuli; aqliy hujum; davra stoli; ishbilarmon o‘yinlar usuli; amaliy ish bo‘yicha tanlov muhokamasi va boshqa alohida o‘qituvchi bilan qo‘llanuvchi – zavqli interfaol o‘qitish usullari kiradi [1].

everstik suhbat, lotincha – “to‘playman, izlayman” ma’nolarini anglatadi. Bu suhbat usuli bo‘lib qadimgi grekcha ko‘rinishi Suqrot suhbati deb nomlangan o‘qitish tizimiga asoslangan. Shu yo‘l bilan mohirona savollar tuzish va o‘quvchini qo‘yilgan savolga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob topishga yo‘naltirishga qaratilgan. Bu o‘qitish

usulini Suqrot suhbati o‘qitish tizimidan farqi uning keng doirada jonliligidir. Biroq o‘xshashlik tomoni, uning o‘z tavsifiga ko‘ra olinayotgan funksiyasi bevosita ularni faol o‘ylash orqali o‘quvchilarni mohirona savol berishga qaratilganligidir. O‘z yo‘nalishining psixologik tabiatiga ko‘ra – evrestik suhbat bu jamoaviy fikrlash yoki suhbat, muammoni yechimini izlovchi sifatidagi suhbatdir.

Shuning uchun bu usul muammoli o‘qitish usullaridan hisoblanadi, shu qatorda muammoli izlanuvchi deb nomlanuvchi suhbatdan everestik suhbat psixologik tomondan hech ham farq qilmaydi. Agar evrestik suhbat faqat qaysidir mavzuni bitta elementiga tegishli bo‘lsa, muammoli izlanishda esa – muammoli vaziyatlar ko‘p. Biroq bunday farqlanish tanqidni ko‘tarmaydi, amaliyotda suhbatni haqiqiysiga aylantirishsa mashg‘ulotlarda “faqat bitta” va “ko‘p” muammolar orasidagi bu ko‘rinmas farqni sezish mumkin emas: o‘qituvchi va auditoriya orasidagi suhbat ko‘p savolli suhbatga aylanadi va mavzuga tegishli suhbat bilinmasdan bahsga o‘tadi.

Bahs usuli yoki o‘quv bahslari evrestik suhbat kabi namoyon bo‘ladi, to‘g‘rirog‘i maxsus dasturlashtirilgan erkin nazariy savollarni muhokama qiladi, odatda savol qo‘yish bilan evrestik suhbatni boshlanishi kabi boshlanadi. Uni doimo baxsga aylanishi - darsdagi me’yoriy holatdir.

Bahs – bu faoliyatning dialogik shakli bulib, turli fikrlar orasida boradigan shiddatli kurashni, suhbatni yuzaga keltirishdir. Fikrlar almashinuvi oddiy suhbatdagi kabi izchil va salmoqli ketmaydi, bahsda esa, bir fikrni boshqasi bilan to‘qnashuvi bir muncha asabiy ko‘rinishga ega. Bahsni alohidaligi shundaki, bahslashuvlarning fikri bu bahslashayotganlarni faol fikrlashlarini yuzaga keltiruvchi yoki fikrni dalil bilan isbotlashdir.

Psixologik jihatdan qaraganda, ayni fikrlar to‘qnashuvi baxsni yuzaga keltiradi, u esa baxsga olib keluvchi turli xil fikrlarni tug‘ilishidir. Odatda fikrlash orqali bahsda e’tirozchini gapiga javob tug‘iladi, shuning uchun turli fikrlar bahsni yuzaga keltiradi, deb taxmin qilinadi. Natijada esa vaziat mutlaqo aksincha: bahs munozara fikrni tug‘diradi fikrlashni faollashtiradi, o‘quv bahslari esa o‘quv materialini fikrlash mahsuli sifatida anglab o‘zlashtirishni ta’minlaydi [3].

Baxs usuli darslarning guruhiy shaklida amaliy mashg‘ulotlarda yoki laboratoriya mashg‘ulotlarida, talabalar gapirish imkoniyati bo‘lgan darslarda foydalaniladi. Ba’zan ma’ruzada ham foydalaniladi, unda ma’ruzachi mavzuga oid savollar bilan auditoriyaga murojaat qilishi orqali yuzaga keladi. Bahsni ma’ruza darslarida to‘la qo‘llab bo‘lmaydi, lekin auditoriyadan savollarga javoblarni tezlik bilan javob oladigan natijasida, ulardan mazkur muammoga fikr bildirish orqali qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Aqliy hujum usuli mutaxassislarning fikricha, muammoning javobini qidirishda bevosita miyaga kelgan fikrlar, taxminlar tasodifiy o‘xshatishlar, shuningdek birdan kelib chiqadigan, mavjud kerak va nokerak bog‘lanishlarni asoslab berishlarini o‘z ichiga oladi. Keyin diktofonga yozib olingan tasodifiy jumla, fikrlarni diqqat bilan taxlil qilish yo‘li ayniqsa qiziqarli ya’ni aqliy hujum usuliga yaqin bo‘lganlari ajratib olinadi va keyinchalik chuqurroq savol quyilib, muhokama qilish uchun foydalaniladi. Aqliy hujumning o‘ziga xos oltin qoidasi mavjud bulib – ishtirokchilar suhbati davomida aytishganlaridan hech biriga shubha qilmaslik, aksincha har qanday fikrni bildirishda to‘la erkinlik yaratib berish lozim. Bunday psixologik erkinlik o‘zini xotirjam tutishga “guruh fikridan” uyalmaslikka, o‘zini o‘ng‘aysiz holatga qo‘yishdan qo‘rqmaslikka imkon beradi.

Davra stoli usuli siyosiy va ilmiy yo‘nalish namoyondalari tomonidan tashkil qilinadi. Fikrlar almashinuvi qandaydir tegadigan nuqtalarini topishga imkon beradi, chunki ularning keyingi faoliyatida umumiy xulosani yo‘naltirishga – ilmiy haqiqat yoki siyosiy turg‘unlikka erishishga xizmat qiladi. Dumaloq stol usuli o‘qitishning nazariy muammolarni turli ilmiy aspektlar, turli kasb mutaxassisliklari yordamida muammoni ko‘rib chiqishning samaradorligini oshirishda qo‘llaniladi.

Ishbilarmon o‘yinlar usuli: dastlab o‘qitish tizimlarida emas, balki boshqaruv amaliyotida paydo bo‘lgan. Hozirda ishbilarmon o‘yin usuli turli jabhalarda qo‘llanilmoqda, ijodiy faoliyatda loyiha tuzishda, real vaziyatlarda jamoaviy ishlab chiqishda, shuningdek xarbiy ishlarda qo‘llanilyapti. “Ishbilarmon o‘yin” usuli o‘qitish usuli sifatida aynan harbiy o‘yin hisoblanadi, amaliyotchilar qadimdan qo‘shinni o‘qitish uchun real jangu jadallarda emas, balki jang shartlariga taqlid qilib o‘yin shaklida harbiy harakat olib borganlar.

Ishbilarmon o‘yin usulining mohiyati shundaki, o‘quvchilarni o‘qitish faoliyatini modellashtirish sifatida o‘rganishdan iborat, chunki bo‘lajak mutaxassislar kasbiy vazifalariga javob berishga o‘rgatadi.

Ishbilarmon o‘yin usuli talabalarni real vaziyatlarga qo‘yib aniq shaxslarning rolini o‘qituvchi, metodist, ilmiy mudir, direktor rollarini o‘ynab aniq fikrlashga majbur qiladi va bu vaziyat o‘quvchilar diqqatini, tafakkurini yo‘naltiradi, yaxshi o‘zlashtirishiga imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelish mukin bo‘ladi. Mazkur usullardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malakalarni ongli ravishda va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Azizxodjayeva N .N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (darslik). - T.. 2006 y.

2.Ishmuxammedov P., Abdukodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. (o`quv qo`llanma). T., 2010.

3.Kaldibekova A.S., Xodjaev V.X. O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish yo`llari - T., 2006 u.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Raxmatullayeva Lobar Xurshid qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
E-mail: l.raxmatullayeva@gmail.com
To‘xtamuradova Laylo Rashid qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
E-mail: Laylo03@gmail.com

Annotatsiya*:* ushbu maqolada ta’lim jarayonida ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan talabalarning mustaqil ilmiy izlanishlarini tashkil etishda ilmiy konferensiyalar, muammo qo‘yish, muammoli vaziyatlar yaratish, muammoli o‘qitish, seminar-konferensiya kabilardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan

Kalit so`zlar*:* ta’lim jarayoni, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, mustaqil ilmiy izlanish, ilmiy konferensiyalar, muammoli vaziyat, muammoli o‘qitish, seminar-konferensiya, kabilardan foydalanish haqida fikr yuritilgan, fikrlash, aqliy o‘sish

ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Рахматуллаева Лобар Хуршидовна
Студент Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: l.raxmatullayeva@gmail.com
Туктамурадова Лейла Рашидовна
Студент Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: Laylo03@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается значение использования современных педагогических технологий в эффективной организации образовательного процесса, в том числе научных конференций, постановки проблем, создания проблемных ситуаций, проблемного обучения, семинаров-конференций в организации самостоятельных научных исследований учащихся

Ключевые слова: образовательный процесс, современные педагогические технологии, самостоятельное научное исследование, научные конференции, проблемная ситуация, проблемное обучение, семинар-конференция, Использование таких слов, как мышление, умственный рост

THE IMPORTANCE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Rakhmatullayeva Lobar Khurshidovn
Student of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: l.raxmatullayeva@gmail.com
Tukhtamuradova Leila Rashidovna
Student of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: Laylo03@gmail.com

Abstract: This article examines the importance of using modern pedagogical technologies in the effective organization of the educational process, including scientific conferences, problem-setting, creating problematic situations, problem-based learning, seminars and conferences in the organization of independent scientific research of students

Keywords: educational process, modern pedagogical technologies, independent scientific research, scientific conferences, problem situation, problem-based learning, seminar-conference, The use of words such as thinking, mental growth

Hozirgi kunda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur hisoblanadi.

Bunda talabalar diqqati faqat bitta masalaga qaratilmasdan, ularni qiziqtiradigan mavzular bo'yicha kechalar, sevimli mashg'ulotlari bo'yicha estafetalar uyushtirish, musiqiy-badiiy kechalar tashkil etishga, kasbiy faoliyatni aks ettiruvchi vaziyatni tahlil qiluvchi so'zsiz o'yinlar (immitatsiya), rebus, krossvordlar tuzish va yechish, millatlar do'stligi masalasiga bag'ishlangan yig'inlar, tashkilotchilik ishlaridan: fakultetda gazeta, jurnallar tashkil etish. Ularni har tomonlama rivojlantiruvchi mashg'ulotlardan foydalanish ijobiy natijalarga erishni ta'minlaydi.

Mashg‘ulotlarni bunday tashkil etish talabalarning bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirshi bilan birga, ularni har tomonlama rivojlantiradi. Chunki bitta masala ustida ishlash talabalar diqqatini susaytirib, zeriktiradi. Talabalarga tayyor bilimlarni bermasdan, ma’lum bir muammo qo‘yilib, yechimini talabalarning o‘zlariga toptirish lozim.

Talabalarning mustaqil ilmiy izlanishlarini tashkil etishda ilmiy konferensiyalar, ma’ruzalar bilan chiqish, seminar-konferensiya kabilardan foydalanish yaxshi natijalar beradi [3].

Konferensiya darsiga talabalarning o‘zlarini qiziqtirgan, o‘qish, bilishga bo‘lgan faolligini oshirishga qaratilgan “Mustaqil ilmiy izlanish yo‘llari”, “Imtihonga tayyorlanish tajribasidan”, “Bo‘sh vaqtdan qanday foydalanaman?” singari mavzularning kiritilishi ijobiy natijalarni beradi. Konferensiyada 4-5 talaba qisqa ma’ruza qiladi. Talabalarning savol-javoblari tugagandan so‘ng aqliy hujum metodi yordami bilan ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha umumiy xulosa chiqariladi.

Talabalarning mustaqil fikrlash, o‘z fikrini himoya qilish, erkin bahs yurita olish qobiliyatlarini rivojlantirishda muammo qo‘yish, muammoli vaziyatlar yaratish, inversiya, ijodiy topshiriqlar, evristik suhbat tarzidagi savol-javoblar, aqliy hujum, guruhli bahslar, kichik guruhlarda ishlash, sinektika (jamoaviy fikrlashni tashkil etish) kabi maxsus metodlardan foydalanish ijobiy natijalarga erishishni ta’minlaydi [2].

Bulardan eng ko‘p qo‘llaniladigani – **muammoli o‘qitish,** talabalarda izlanish faoliyatini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur metod asosida bitta muammoni olga surish va asoslash yotadi. Ammo muammo talabalarni qiziqtirsa, unda o‘z-o‘zidan muammoli vaziyat yuzaga keladi. Muammoli vaziyat tarkibiga: savol tarzida vazifalar qo‘yish, farazlarni olg‘a surish, nazariy asoslovchi vazifalar, konsepsiya, o‘rganilayotgan muammo sxemasi, modeli, ularni yechish yo‘llari kiritiladi.

Muammo o‘qituvchi tomonidan shakllantirilib, muammo tarzida bayon etiladi, talabalar esa o‘ylab fikr yuritish asosida muammoni o‘zlari yechadilar yoki muammo talabalar tomonidan qo‘yilib, ularning o‘zlari mustaqil yechadilar [1].

Bunday yo‘l bilan tushuntirilgan masalalar talabalar xotirasida uzoq saqlanadi. **«Muammoli vaziyat»** Bu pedagogik usul, ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

"Muammoli vaziyat" usuli uchun o‘quv dasturidan tanlangan mavzu va uni ichidagi muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos ravishda tanlanishi lozim Talabalar qo‘yilgan muammo yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks xolda yechimini topa olmay, ta’lim oluvchilarning muammoga

bo‘lgan qiziqishlari so‘nishiga va o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Bu usul qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga va uning yechimini topishga o‘rganadilar.

"Muammoli vaziyat" usulining tuzilmasi:

1. Talabalarni guruhlarga ajratish.
2. Muammoli vaziyat tavsifini keltirish.
3. Guruhlarning muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlashi.
4. Guruhlarning muammoli vaziyat oqibatlari to‘g‘risida fikr yuritishi.
5. Guruhlarning muammoli vaziyatini yechimini ishlab chiqishi.
6. Pedagog va talabalarni muammoning to‘g‘ri yechimini tanlashlari.
7. Pedagogning noto‘g‘ri berilgan yechimlarini sharhlashi.

"Muammoli vaziyat" usulining bosqichlari:

1.O‘quv jarayoniga tayyorgarlik qilish davrida pedagog o‘quv dasturidagi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarini aniqlaydi.

2.Pedagog ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

3.Pedagog ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

4.Guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar, bu muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh o‘zi aniqlagan sabablarni taqdimot qiladilar.

5.Barcha taqdimotlarning ichidan bir xil fikrlilari guruhlashtiriladi.

6.Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qilib, ularni tahlil kiladilar va muammoni yechishning eng maqbul yo‘lini aniqlaydilar.

Bunday metodlar talabalarda mustaqil fikrlash va aqliy o‘sishni rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.D.Ro’zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi / Metodik qo’llanma.– Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.

2.Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O’quv-uslubiy qo’llanma. Innovatsion ta’lim texnologiya seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashr., 2011.

3.O’.Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005

PROFESSIONAL TA'LIM MAZMUNINING TEXNOLOGIK JIHATLARI

Shoxdorov Mansur Nuriddin o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
E-mail: mansur34@gmail.com
Nishonov Dilshod Rustam o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
E-mail: nishonov07@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada professional ta'lim ta'lim jarayonida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, professional ta'limda pedagogik innovatsiya va pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishning o`ziga xosligi haqida fikr yuritilgan

Kalit so`zlar: ta'lim jarayoni, professional ta'lim, tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogik innovatsiya, darslarni tashkil etish, mikroguruh, kasb

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Шохдоров Мансур Нуриддин оглы
Студент Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: mansur34@gmail.com
Нишанов Дилшод Рустам оглы
Студент Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: nishonov07@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается значение современных педагогических технологий в эффективной организации образовательного процесса в профессиональном образовании, педагогические инновации в профессиональном образовании и специфика организации уроков на основе педагогических технологий

Ключевые слова: образовательный процесс, профессиональное образование, организация, современные педагогические технологии, педагогические инновации, организация занятий, микрогруппа, профессия

TECHNOLOGICAL ASPECTS OF THE CONTENT OF VOCATIONAL EDUCATION

Shakhdorov Mansur Nureddin oglu
Student of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: mansur34@gmail.com
Nishanov Dilshod Rustam ogly
Student of Chirchik State Pedagogical University
E-mail: nishonov07@gmail.com

Abstract: This article examines the importance of modern pedagogical technologies in the effective organization of the educational process in vocational education, pedagogical innovations in vocational education and the specifics of organizing lessons based on pedagogical technologies

Keywords: educational process, professional education, organization, modern pedagogical technologies, pedagogical innovations, organization of classes, microgroup, profession

Professional ta'lim o'quvchilarini har tomonlama tarbiyalashda ularning kamolot hususiyatlarini bilish va hisobga olish katta ahamiyatga ega. Insonning shaxs sifatida shakllanishida bir qancha omillar ta'sir etib, uni komillik sari yetaklaydi. Komillikning eng asosiy shartlari sifatida aqliy, axloqiy, ruhiy va jismoniy ulg'ayish inobatga olinadi. Ularning таьsiri ostida ma'naviy barkamollik hosil bo'ladi.

Professional ta'limlarda o'qitiladigan barcha fanlar, ularning bo'limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e'tibor bilan tanlanadi. Professional ta'lim mazmuni o'quvchilar bilimlarining asosiy poydevori hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni har bir davr uchun o'ziga xos holda ilmiy asoslanadi. Bir davr uchun to'la mos bo'lgan bilimlar majmuasi keyingi davrda ilm-fan taraqqiyotidan orqada qolishi va o'quvchilar uchun ma'naviy eskirishi mumkin. Ta'lim mazmuni o'quvchilarga qaysi sinfda nimani o'qitish, qaysi yoshda bola qanday o'quv materialini o'zlashtira oladi, fan asoslarini, o'quv predmetlarini qanday tartibda va izchillikda o'qitish kerak degan masalalarga bog'liqdir.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni ta'lim jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, pedagogning o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitlarda

ko‘rsatgan tizimli ta’siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni shakllantiruvchi jarayon deb ta’riflash mumkin. Hozirgi davrga kelib yetuk olim bilan bir qatorda oddiy maktab o‘qituvchisi, hatto bolalar bog‘chasi tarbiyachisi mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiya elementlarini qo‘llamoqdalar [1].

Professional ta’lim tizimida ham pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Birinchi sinfdan boshlab maqsadli rejalashtirilgan, interfaol metodlardan qo‘llanilgan holda tashkil etiladigan darslar o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Ayniqsa, professional ta’lim o‘quvchilari kichik guruhlarda ishlaganida, o‘zaro bir-birlariga tushuntirganda, mikroguruhlar orasidagi munozaralarda yaxshi ishtirok etadilar.

Oddiy darslarda sust o‘tiradigan o‘quvchilar ham didaktik va rolli o‘yinlar tarzida tashkil etilgan darslarda o‘zlarini ko‘rsatishga harakat qiladilar. Chunki bunday darslarda o‘quvchilarning har bir fikri inobatga olindi, rag‘batlantiriladi. Eng asosiysi tanqid qilinmaydi, uyaltirilmaydi.

Mikroguruh a’zolari har bir savolga maslahatlashgan holda javob topadilar. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda insonparvarlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, hamjihatlik, bilim olishshga intilishni shakllantirish mumkin.

Dars jarayonida professional ta’lim o‘qituvchilari tomonidan «Aqliy hujum», “Shaxsiy fikr”, “Klaster”, “Roven doirachalari”, “BxBxB”, “Rolli o‘yinlar” kabi interfaol ta’lim metodlari, munozara va slaydli taqdimotlardan unumli foydalanish dars samaradorligi oshiradi va kafolatlangan natijaga erishishga imkon yaratiladi [2,3].

Professional ta’limda pedagogik innovatsiya va pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish muammosi muhimdir. Pedagogik texnologiya asosida tashkil etiladigan darslar o‘quvchilarning o‘z aqliga, imkoniyatlariga ishonchni ortishiga sabab bo‘ladi.

Professional ta’limda pedagogik innovatsiya va pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish orqali o‘quvchi, bilim oluvchilarning hayotda o‘z o‘rinlarini munosib topishlariga, ularda mustaqil fikrni shakllantirishga, o‘zidagi mavjud qobiliyatini yuzaga chiqarishiga imkon yaratiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy pedagogik faoliyatida u tomondan egallayotgan pedagogik-psixologik bilimlar, pedagogik amaliyot va ishlab chiqarish amaliyotlari alohida o‘rin tutadi. Chunki, talabani bo‘lajak o‘qituvchi sifatida pedagogik va psixologik omillar mohiyatini bilib va amalga tadbiq etib borishi ijtimoiy pedagogik faoliyatining mazmun va mohiyatini yanada boyishiga olib keladi.

Pedagogik amaliyot jarayonidagi ijtimoiy pedagogik faoliyat motivatsiyasi ayni paytda pedagogik omil vazifasini o‘tashi mumkin ekan. Chunki, amaliyot jarayonida talabada o‘qituvchilik kasbiga nisbatan qiziqish ortib borishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bolalar olamiga kirish, bola qalbiga yo‘l topish, unda yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, talabani egallayotgan kasbiga nisbatan mas’uliyat hissini ortib borishini tobora tushunib yetadi [4].

Kasbning o‘ziga xos nozik qirralarini amaliyot jarayonida o‘rganadi. Shu bilan birga o‘quvchi, ya’ni shaxs olamiga xos muhitning tobora ichiga kirib borishga intilgani sari o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy rivojlanishidagi o‘rnini anglay boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2003, 62-бет.
2.Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., Sharipov Sh.S. Kasb ta`limi metodikasi” fanidan o’quv-metodik majmua Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 20 b.
3.Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Mirsolieva M. “Pedagogik mahorat” fanidan o’quv-metodik majmua. Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 322 b.
4.MuslimovN.A., Qo’ysinov O.A.Sharipov SH.S. “Kasb ta`limi pedagogikasi” fanidan o’quv metodik majmua. Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 20 b.

ZAMONAVIY MUSIQIY TA’LIMDA BOLALAR UCHUN FOYDALI BO‘LGAN XORIJIY USLUBLARNING QISQACHA TAVSIFI

Ergashev Ibrohimjon Qodirjon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti
Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 2-kurs magistri
ibrohimjone@mail.ru

Annotatsiya*: Yangi O‘zbekistonning uchinchi renessans davrida bolalarning musiqiy salohiyatini oshirish biz mutaxassislar uchun juda ham muhimdir. Ilmiy izlanishlar natijasida ushbu sohada aniqlangan muammolarga yechim sifatida bir nechta xorijiy uslublarni, hozirda olib borilayotgan ta‘lim islohotlariga ko‘ra moslashtirib, uni ommalashtirish taklifini ko‘rib chiqishimiz kerak. Yillar mobaynida tajribadan o‘tgan, bolalar uchun foydali xorijiy uslublar bilan yaqindan tanishib, ularning eng kerakli jihatlarni ongli ravishda tanlab olib, uni ta‘lim tizimida qo‘llash foydadan holi bo‘lmaydi.*

Kalit so‘zlar. *Uslublar, bolalar xor ijrochiligi, musiqiy ta‘lim, san'at, pedagog, kompazitor, arbob.*

Аннотация: *В период третьего возрождения Нового Узбекистана для нас, специалистов, очень важно повышать музыкальный потенциал детей. В качестве решения проблем, выявленных в данной области в результате научных исследований, следует рассмотреть предложение о популяризации ряда зарубежных методик путем их адаптации в соответствии с проводимыми образовательными реформами. Нелишним будет ознакомиться с проверенными годами и полезными для детей зарубежными методиками, сознательно отобрать из них самые необходимые стороны и применить в системе образования.*

Ключевые слова. *Стили, детское хоровое исполнительство, музыкальное образование, искусство, педагог, композитор, деятель.*

Abstract: *In the period of the third renaissance of New Uzbekistan, it is very important for us specialists to increase the musical potential of children. As a solution to the problems identified in this field as a result of scientific research, we should consider the proposal to popularize several foreign methods by adapting them according to the current educational reforms. It will not be without benefit to familiarize yourself with foreign methods that have been experienced over the years and are useful for children, to consciously select the most necessary aspects of them, and to apply them in the educational system.*

Keywords. *Styles, children's choir performance, musical education, art, pedagogue, composer, figure.*

Bolaning ongi uch yarim yoshdan keyin musiqiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘naltirilishiga ehtiyoj seza boshlaydi. Bu vaziyatda bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan uslublardan oqilona foydalanish yordam beradi. Bu uslublar musiqashunos olimlar, pedagoglar, san‘at arboblari va kompozitorlar tomonidan yillar davomida shakllangan ko‘nikmalar asosida paydo bo‘lgan. Masalan, Karl Orf, Zoltan Koday, Dmitriy Kabalevskiy, Shinichi Suzuki, Helen Hayner, Georgiy Struve, Per Hauver va boshqa ko‘plab nomlarni keltirishimiz mumkin. To‘g‘ri bu insonlar tomonidan ishlab chiqilgan uslublarsiz ham farzandlarimiz musiqaga e‘tibor bilan ulg‘ayishi mumkin, lekin bu jarayon bolaning qanchalik musiqiy salohiyati bilan ulg‘ayishi va vaqt tezligini belgilashini unutmasligimiz kerak.

Ana endi yuqorida nomi keltirilgan ayrim ijodkorlarning uslublaridan umumlashtirilgan fikrlarni bayon qilamiz. Dmitriy Kabalevskiyning izlanishlari natijasi shuni ko‘rsatdiki, bolalarning musiqiy ta‘limi asosiy uch jihatga quriladi.
Bular raqs, qo‘shiq va marsh. Ushbu jihatlarni bolaga go‘dakligidan boshlab tanishtirish va ularni tabiiy jarayon sifatida singdirish kerak deb ta‘kidlaydi. Marshning aniq ritmik ko‘rinishi raqsdagi harakatlarda o‘z aksini topadi va bu jarayon qo‘shiq kuylashga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Dmitriy Kabaleyskiy uslubining asosiy jihati bu – bolalar bilan doimiy muloqot yuritishidadir. Boshqa mutaxassislarning fikriga ko‘ra ushbu jihat bolalar, musiqani mustaqil ravishda qabul qilishi, tushunishi, baholashi va his qilish xususiyatlarni shakllantiradi. Ushbu uslub bilan maktagacha ta‘lim

tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan musiqa rahbarlari yaqindan tanishishini va uni amalda qo‘llashini tavsiya qilardik. Bu jarayon bolalarda kamida madaniyatli musiqa tinglovchisini shakllantiradi.

Galdagi uslub Karl Orfning ―Shulverk‖ nomi bilan mashhur. Bu uslub o‘zida badihago‘ylikni asosiy unsur deb xisoblab, turli qobiliyatdagi bolalarda ijodiy jarayonning cholg‘ular orqali shakllantirishini o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu uslubda bolalar uchun maxsus urma-zarbli cholg‘ular bo‘lmish: musiqiy uchburchak, qo‘ng‘iroqchalar, ksilafon, baraban kabilar yordamida aniq bir musiqiy asarni emas, balki, bolalarning o‘zlari tomonidan chalinayotgan badihago‘ylikni tartibga solish asosiy maqsad qilib olingan. Bunda bolalarga aniq bo‘lgan syujet yoki bir lavhani musiqa orqali yoritib berilishi so‘raladi va nazorat qilib boriladi. Ma‘lum bir matnga oson harakatlar tanlab olinib, uni ma‘lum cholg‘ular yordamida ifoda etiladi. Bu jarayon bolalarda o‘z fikrlarni nafaqat so‘z orqali bayon eta olishini, balki, musiqiy tovushlar orqali ham o‘z tushunchasini yetqaza olish ko‘nikmasini shakllantiradi. Karl Orfning uslubida tuyg‘u bilan, ifoda vositalarini topish xayolotni rivojlantiradi. Bu esa musiqaga bo‘lgan muhabbatni shakllantiradi. Ushbu uslub barcha uchta asosiy musiqa yo‘nalishini birlashtiradi va bolaga oddiy va qulay o‘yin shaklida musiqani tushunishiga imkon beradi. O‘z mamlakatlarining etnik va folklor qo‘shiqlarini o‘rganish orqali bolalar keyinchalik yurtining madaniyatiga qiziqadi va uni o‘rganishga harakat qilishadi. [1]

Navbatdagi uslub Yaponiyalik san‘at arbobi, musiqiy mutaxassis Shinichi Suzukiga tegishli. Bu uslubning asosiy g‘oyasi musiqiy ta‘limni bolaning juda ham yoshligidan tarbiyalashga qaratilgan. Suzuki o‘z tajribasida bolalarni 2-3 yoshligida skripkada ijro etishni o‘rgatishga kirishdi va o‘sha bolalardan 4-5 yoshida kichik ansambllarni yaratdi. Uning g‘oyasi bo‘yicha barcha bolalar musiqiy qobiliyatga ega holda dunyoga keladi, eng muhimi, o‘sha iste‘dodni o‘z vaqtida ko‘ra olish va uni rivojlantirishdir. Bu jarayonda bolalarni butun qalbi bilan sevadigan kishi muvaffaqiyatga erishadi. Har bir o‘qituvchi bolalarga juda ham mehribon va o‘z navbatida qat‘iy va talabchan bo‘lib, bolaga nisbatan katta tuyg‘uga ega bo‘lishi kerak, aks holda hech qanday uslub unga yordam bermaydi. Eng yaxshi o‘qituvchi bu – bolaning ota-onasidir. Bolaga to‘g‘ri munosabatda bo‘lgan holda, faqat ona yoki ota unga kerakli ma‘lumotlarni yetkazib berishi va kerakli ko‘nikmalarga bolaligidan boshlab o‘rgatishi mumkin. Suzuki uslubi bo‘yicha ta‘lim kundalik mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi, ammo ular musiqani o‘rganishga emas, balki munosib va bilimdon insonni shakllantirishga qaratilgan. [2]

Vengriyalik mutaxassis Zoltan Koday o‘z uslubida to‘rtta asosiy unsur: musiqiy eshitish qobiliyati, uni his qilishi, aqli va qo‘li orqali musiqiy iqtidori bor insonni ajratib olish mumkin deya xisoblaydi. Shu bilan birga, u musiqa qobiliyatiga ega bo‘lmagan bolalar yo‘qligiga ishonadi va musiqiy qobiliyati bo‘lmagan kattalar –bolaligidan ushbu ta‘limdan mahrum bo‘lganlardir deb o‘z fikrini bayon etadi. Musiqiy eshitishni rivojlantirish – tinglash va qo‘shiq kuylash orqali amalga oshiriladi. Zoltan Kodayning uslubida ovoz musiqiy qobiliyatni rivojlantirishda asosiy asbob sifatida ko‘rsatilib,

bola biror bir cholg'uni chala olmasligi mumkin, lekin albatta kuylay olishi shart degan g'oyani ilgari suradi. [3]

Shuningdek, uning musiqiy ta'limida kuylash, kaftlari orqali qarsak chalish va ritmni his qilishi asosiy maqsad qilib olingan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bolada musiqiy qobiliyatni shakllanishida nafaqat uning ota-onasi, balki butun jamiyat baravariga harakat qilishi kerak deb ta'kidlaydi. Buning natijasida musiqiy rivojlangan bola keyinchalik jamiyatning rivojiga o'z xissasini qo'sha olishiga ishonadi. Musiqa asoslarini o'qitish uchun muayyan uslubni tanlash faqat ota-onaning ihtiyoriga bog'liq. Musiqiy asarlarning afzalliklari va estetik hissi o'z rivojlanishida yoki mashhur o'qituvchilarning tajribasiga asoslangan bo'lishi mumkin. O'rganishdagi asosiy narsa - bolaga bo'lgan sevgi va uning o'ziga xosligiga ishonishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxriddinova N.A. «Bolalarning musikiy tarbiyasida ba'zibir tendensiyalar». «Гармонично развитое поколение-условие стабильного развития Р.УЗ.» «Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т.Н. Кариниязова» Т.2015

2. Mansurova G.Sh. ―Qo'shiq – do'stdir barchaga (yoxud maktablarda xor jamoalari tuzish muammomi?)‖. Xalq ta'limi jurnali 2013/6

3. Baxriddinova A.―O'zbekistonda bolalar xor madaniyati‖ Toshkent 2002 y.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MUSIQIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI

O'rmonjonov Azizbek Muhammadjon o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti
70111301-Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
E-mail: azizbekormonjonov2@gmail.com

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanishiga nisbatan "inklyuziv ta'lim" - bu jismoniy, aqliy, intellektual xususiyatlaridan qatiy nazar, barcha bolalar musiqiy rivojlanishning umumiy tizimiga kiritilgan va tengdoshlari bilan birga o'qiydigan ta'lim va tarbiya jarayoni. nogironligi yoki og'ishi bo'lmagan o'sha maktabgacha umumiy ta'lim muassasalarida, ularning maxsus ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda va zarur maxsus yordam ko'rsatiladi.

Musiqa nogiron bolalarni ijtimoiy moslashtirishga yordam beradi, ularning hissiy-emotsional sohasini boyitadi, o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi anglashga

yordam beradi. Musiqiy darslar nogiron bolalarga musiqaning rang-barangligini ko‘rish, eshitish, his qilish, ularning ijodiy qobiliyatlarini ochish, tengdoshlari dunyosiga kirish, to‘liq mavjud bo‘lish va unda o‘zaro munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Musiqiy faoliyatning asosiy vazifalaridan biri bu bolalar salomatligini nafaqat fiziologiya nuqtai nazaridan, balki musiqiy-estetik yo‘nalish nuqtai nazaridan ham yaxshilashdir. Bolalarning sog‘lig‘i ularning xotirjamligi va hissiy holatiga bevosita bog‘liq.

Nogiron bolalar uchun musiqa ta'limi muammolarini hal qilish musiqa faoliyatini tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yordam beradi. Asosiy shakl - bu musiqa darslari, ammo o‘qituvchining nogiron bolalar bilan individual ishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning davomida ko‘plab muammolar hal qilinadi, masalan:

• beixtiyor harakatlar;
• yangi joydan qo‘rqish, begonalar bilan muloqot qilish;
• nutqning buzilishi yoki nutqning etishmasligi;
• bolalarning izolyatsiyasi, harakatsizligi;
• maktabgacha yoshdagi bolalarda beqaror diqqat va xotira.

Ta'lim mazmuni va nogiron o‘quvchilarni o‘qitish va o‘qitishni tashkil etish shartlari moslashtirilgan ta'lim dasturi bilan belgilanadi, uning tamoyillari umumiy rivojlanish guruhlarida inklyuziv ta'lim uchun quyidagilardir:

• umumta’lim dasturi mazmuniga muvofiqligi;
• bolalarning ta'lim imkoniyatlarining turli darajalarida dasturni o‘zlashtirishi;
• maxsus tashkil etilgan musiqiy faoliyatda buzilgan funksiyalarni tuzatish va kompensatsiya qilish.

Nogiron bolalarning xususiyatlari hissiy-irodali yetuklik, psixomotor, kognitiv va ijodiy rivojlanishdagi turli darajadagi kechikishlar, ijtimoiy moslashuvning namoyon bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Inklyuziv ta’limda musiqa ta’limini yaratishda nafaqat umumiy rivojlanish, balki tuzatish vazifalarini ham hal qilish kerak:

· bolalarning so‘z boyligini boyitish va o‘z his-tuyg‘ularini, kayfiyatlarini va tajribalarini og‘zaki tarzda etkazishga o‘rgatish;

· qo‘shiq aytishning asosiy faoliyati orqali bolalarga prozodik nutq ko‘nikmalarini, intonatsiya va ovozni boshqarishni o‘rgatish; ritm tuyg‘usini rivojlantirish;

· harakatlarning ifodaliligiga o‘rgatish va o‘yinlar va dramatizatsiyalarda musiqiy vosita obrazlarini yaratish orqali bolalarni o‘zini namoyon qilishga undash;

· raqslar, musiqiy va ritmik mashqlar (bayroqlar, barglar, ro‘molchalar, shang‘iroqlar, sharlar, sharlar va boshqalar bilan) paytida narsalar bilan turli xil harakatlarni o‘zlashtirish tajribasini kengaytirish;

Musiqa ta'limi yo‘nalishi bo‘yicha moslashtirilgan ta'lim dasturining mazmuni turli xil musiqiy faoliyat turlarida amalga oshiriladi: qo‘shiq aytish, musiqani idrok etish, ritm, musiqa yaratish. Nogiron bolalar uchun “Musiqa” ta’lim sohasini o‘zlashtirishning o‘ziga xos mazmuni dasturning barcha bo‘limlarida o‘qituvchining ish dasturlarida aks ettirilgan.

“Idrok” bo‘limining vazifalari:

• musiqiy asarlar bilan tanishtirish, ularni musiqiy taassurotlar bilan boyitish;

• musiqiy qobiliyatlarni va madaniy tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

• qo‘shiqlar, cholg‘u asarlar tabiatini va ularning ifoda vositalarini farqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

• musiqani emotsional idrok etish qobiliyatini rivojlantirish.

“Qo‘shiq aytish” bo‘limining vazifalari:

• bolalarning qo‘shiq aytish qobiliyatini rivojlantirish;

• musiqa qulog‘ini rivojlantirish: intonatsion jihatdan to‘g‘ri va noto‘g‘ri kuylashni, tovushlarni balandligi, davomiyligi bo‘yicha farqlash;

• kuylash ovozingizni rivojlantiring, uning diapazonini mustahkamlang va kengaytiring.

“Musiqiy-ritmik harakat” bo‘limining vazifalari:

• musiqiy va ritmik tuyg‘uni va shu bilan bog‘liq holda, harakatlar ritmini rivojlantirish;

• bolalarni musiqa asarining xarakteri bilan harakatlarini muvofiqlashtirishga o‘rgatish;

• o‘yinlar, raqslar va mashqlar orqali bolalarga musiqiy va ritmik ko‘nikmalarni o‘rgatish;

• badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

“Musiqa ijro etish” bo‘limining vazifalari:

• kuchli irodali fazilatlarni rivojlantirish: qat'iyatlilik, qat'iyatlilik, qat'iyatlilik;

• diqqatni jamlashni, xotirani, ijodkorlikni rivojlantirish;

• bolalar musiqa asboblari va ularni chalish usullari bilan tanishtirish.

“Ijodkorlik” bo‘limining vazifalari: qo‘shiq, musiqa va o‘yinlar, raqs, bolalar cholg‘u asboblarida improvizatsiya:

• bolaning tasavvurini faollashtirishga hissa qo‘shish, mustaqil ravishda qo‘yilgan vazifaga erishish istagi, uning rejasini amalga oshirish shakllarini izlash;

• qo‘shiq aytish, musiqa chalish, raqsga tushish va cholg‘u asboblarida improvizatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Nogiron bolalar ko‘pincha nutqida nuqsonlari borligini va harakat sohasida og‘ishlarga ega ekanligini hisobga olib, o‘qituvchining vazifasi maxsus musiqiy va ritmik mashqlar va texnikalar orqali vosita ko‘nikmalarini va nutqini tuzatish, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdir. Bunga erishish uchun quyidagi shartlar bajariladi: bolalarga tabaqalashtirilgan yondashuv, materialni o‘zlashtirish va ko‘nikmalarni shakllantirishda davomiylik, bolalarning musiqiy faoliyati va ijodida mustaqil namoyon bo‘lishini faollashtirish. Ritmik mashqlar duruşni to‘g‘rilashga, harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantirishga, harakatning bir turidan boshqasiga o‘tishga, ritm tuyg‘usini, musiqa va ta'mga quloqni rivojlantirishga yordam beradi. Nogiron bolalarning jamoaviy raqslarda ishtirok etishi jarayonida bolalarning asosiy guruhiga qo‘shilish imkoniyati amalga oshiriladi. O‘yinlarda sheriklik tuyg‘usi shakllanadi va tengdoshlar bilan alohida munosabatlar shakllanadi. Musiqiy va ritmik harakatlar va raqslar bolalarning hissiy va psixofizik rivojlanishiga yordam beradi.

Mushaklar ohangini tartibga solish uchun mashqlar (mushaklarni kuchlanish yoki bo‘shashtirish qobiliyati) yurish va yurishdan so‘ng darhol darslar davomida qo‘llaniladi. Kattaroq yoki zaifroq mushaklar kuchlanishi balandroq yoki yumshoqroq musiqa bilan bog‘liq.

Bolalar tik turgan holatda, sokin musiqa ostida bayroqlar bilan engil harakatlarni amalga oshiradilar, qo‘llarini oldida pastga tushiradilar; Baland musiqa jo‘rligida bolalar bayroqlarni boshlari ustida silkitadilar.

Nozik vosita ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mashqlar. Barmoqlarning harakatlarini, ularning o‘zaro ta'sirini, muvofiqlashtirishni rivojlantiradigan ushbu mashqlar artikulyar vosita ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Temp tuyg‘usini rivojlantirish uchun mashqlar. Birinchidan, temp oddiy harakatlar orqali o‘rganiladi: qarsak chalish, tamburni urish, qo‘llarni silkitish. Keyin oyoq harakatlari, yurish va yugurish kiradi. Avvalo, harakatlarning ikkita tempi mashq qilinadi - sekin va tez, keyin tempning "tezlanishi" va "sekinlashishi" tushunchalari kiritiladi. Nutqda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun shakllanish va shakllanish mashqlarida temp qo‘llaniladi: ilonda, zanjirda, ikkita ustunda, ikkita aylanada harakatlar. Bunday holda, har bir bolaning individual tezligini bilish kerak.

Harakatlar va nutqni muvofiqlashtirishni rivojlantirish mashqlari (logoritmik) Nutq materiali darsning tuzatish maqsadiga qarab tanlanishi kerak (nutq tempi va ritmini normallashtirish; nutqning lug‘at va grammatik tuzilishini rivojlantirish; ovozli talaffuzni avtomatlashtirish). Bu o‘yinlarning o‘ziga xosligi shundaki, ularning barchasi musiqa bilan hamroh bo‘lishi mumkin. Musiqiy ritm yordamida siz bolaning

asab tizimining faoliyatida muvozanatni o‘rnatishingiz, o‘rtacha haddan tashqari hayajonlangan va inhibe qilingan bolalarni o‘rnatishingiz, noto‘g‘ri va keraksiz harakatlarni tartibga solishingiz mumkin.

Bolalarning cholg‘u asboblarini chalish, musiqiy faoliyatning ushbu turining ahamiyatini tushunishga katta e'tibor beriladi. Ammo bu o‘z-o‘zidan maqsad emas, balki tuzatuvchi muammolarni hal qilish vositasi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

● Orkestrda o‘ynayotgan har bir bola o‘z vaqtida kirishi va o‘z rolini to‘g‘ri ijro etishi uchun zarur bo‘ladigan diqqat va xotirani rivojlantirish.

● Daf, nog‘ora, zil, metallofon va boshqalar kabi musiqa asboblarini chalayotganda harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantirish.

● Quvurlar, qo‘ng‘iroqlar va hokazolarni o‘ynashda barmoqlarning nozik motorli ko‘nikmalarini rivojlantirish.

● Shamol asboblarini chalayotganda nafas olishni rivojlantiring.

● Musiqiy va ritmik tuyg‘uni rivojlantiring. Ko‘pincha nogiron bolalar nafaqat nutq, balki harakatlarning tezligi va ritmida ham buzilishlarni boshdan kechiradilar.

Nafas olishni rivojlantirish uchun mashqlar. Ushbu mashqlar diafragma nafasini, etarlicha uzoq, kuchli va asta-sekin ekshalatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Ovozni rivojlantirish mashqlari. Ushbu mashqlar ovozning kuchini, diapazonini va ifodaliligini rivojlantirishga yordam beradi. Ovoz ustida ishlash nafas chiqarayotganda unli va undosh tovushlarni talaffuz qilishdan boshlanadi. Ovoz kuchi musiqa jo‘rligi tovushining kuchayishi yoki zaiflashishiga muvofiq unlilarni balandroq yoki yumshoqroq talaffuz qilish orqali rivojlantiriladi. Musiqa ohangini o‘zgartirish ovoz balandligi xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ovozning ifodaliligiga qisqa musiqiy nutq so‘z birikmalarining intonatsion tomonini rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Jismoniy mashqlar misollari. Bolalar stullarda o‘tirishadi. Unli tovushlarni kuylash a-e-i-o-u va ma-me-mi-mo-mu bo‘g‘inlarini masshtabga ko‘ra, ovozning kuchi va ohangini o‘zgartiradi.

I. p - stullarda o‘tirish. Ma (musiqiy hamrohlik re-mi-re-do-mi-re) bo‘g‘inida rejimning har bir qadamini kalitni o‘zgartirish bilan kuylash.

Artikulyatsiya va diksiyani rivojlantirish uchun mashqlar. Ushbu mashqlar tovushlarni aniq talaffuz qilishni va artikulyar vosita ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular unli tovushlarni ovozsiz talaffuz qilishdan boshlanadi, keyin ovoz qo‘shadi. Unli tovushlardan keyin undosh va bo‘g‘inlar ovozsiz va ovozli talaffuz qilinadi. Keyin qo‘l harakatlari kiritiladi.

Birlashtirilgan guruhlardagi nogiron bolalarning tarkibi odatda heterojen bo‘lib, bu o‘z navbatida ta'lim jarayonini tashkil etishni qiyinlashtiradi. Muayyan rivojlanish

muammolari bo‘lgan bolalarning umumiy rivojlanishi va moslashishi uchun zarur bo‘lgan asosiy aqliy funktsiyalarni rivojlantirish muammosini yanada muvaffaqiyatli hal qilish uchun men o‘z ishimda bolalar uchun eng qulay faoliyat turiga asoslangan musiqiy va didaktik o‘yinlar tizimidan foydalanaman - o‘ynash. Tuzatish muammolarini o‘yin usulida hal qilish bolalar va kattalar o‘rtasida do‘stona, hissiy jihatdan boy qo‘shma ijodiy muhitni yaratishga imkon beradi, har bir bolani o‘quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, kognitiv qiziqish va e'tiborni saqlab qoladi. Ko‘p sonli vizual materiallardan foydalanish bolalarning musiqiy faoliyatning u yoki bu tomonlarini tushunishlarini osonlashtiradi. Bularga turli multimedia vositalari va o‘yinlar, video tomosha qilish kiradi.

Musiqiy faoliyat markazlarida bolalarning mustaqil faoliyatiga katta e'tibor berilishi kerak: musiqali o‘yinchoqlar va asboblar bilan o‘ynashni o‘rganish, musiqa o‘qitish vositalari. Ish dasturi rejasiga ko‘ra, musiqa direktori har oyda har bir guruhdagi musiqiy mavzuni rivojlantirish muhitini yangilaydi: tinglash va chizish uchun audio material qo‘shish, yangi didaktik o‘yinlar, musiqiy ijod uchun vazifalar.

Tinglash uchun tavsiya etilgan musiqadan rasm chizish paytida o‘quv faoliyatida, og‘zaki, jismoniy va teatrlashtirilgan o‘yinlarda foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nogiron bolalarni tarbiyalash tizimida ertangi kunlar va o‘yin-kulgilar alohida o‘rin tutadi. Yuqori hissiy ko‘tarilish va maxsus voqeani kutish bolalarning his-tuyg‘ularini kuchaytiradi, ular qo‘shiqlarning mazmunini yaxshiroq idrok etadilar va o‘zlashtiradilar, bu esa tuzatish va tarbiyaviy ishlarni yanada samarali qiladi. Bayramlar bolani ma'naviy boyitadi, uning atrofidagi dunyo haqidagi tushunchasini kengaytiradi, turli sinflarda olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi, bolani ijodiy va muloqot qilishga undaydi.

XIZMAT KO`RSATISH SOHALARIDA SOLIQ TIZIMINI XORIJIY TAJRIBALARGA ASOSLANGAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISHNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O`RNI

Abdullabekova Noilaxon G`ofurjon qizi
Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: abdullabekova202n@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtisodiy barqarorlikka erishish ko`rsatkichlarida xizmatlar sohasining o`rni, ushbu yo`nalishni rivojlantirishda soliq*

imtiyozlarini xorijiy tajribalar asosida hal etish yo`llari, hozirgi vaqtdagi turizmning O`zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni va ulushi kabi ma`lumotlarni tahlili ko`rib chiqilgan va amaliy, nazariy o`rganishlar natijasida kelib chiqqan takliflar berib o`tilgan. Yashil iqtisodiy faoliyat olib boruvchi tadbirkorlarga beriluvchi imtiyoz haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: *iqtisodiy barqarorlik, xizmatlar sohasi, turizm biznesi, xorij tajribasi, soliq imtiyozlari, yashil texnologiyalar.*

Abstract: *This article examined the role of the service sector in the indicators of achieving economic stability, ways to solve tax benefits on the basis of foreign experiences in the development of this direction, analysis of information such as the role and share of tourism in the economy of Uzbekistan at the moment and made suggestions resulting from practical, theoretical studies. There has also been a reflection on the privilege granted to entrepreneurs engaged in green economic activities.*

Key words: *economic stability, services sector, tourism business, Foreign experience, tax benefits, green technologies.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрена роль сферы услуг в показателях достижения экономической стабильности, пути решения налоговых льгот в развитии данного направления на основе зарубежного опыта, роль и доля туризма в экономике Узбекистана в настоящее время и даны предложения, полученные в результате практических, теоретических исследований. Также рассматривалась льгота, предоставляемая предпринимателям, ведущим зеленую экономическую деятельность.*

Ключевые слова: *экономическая стабильность, Сфера услуг, туристический бизнес, зарубежный опыт, налоговые льготы, зеленые технологии.*

Jahonda iqtisodiy inqirozlar va turli siyosiy vaziyatlar keskinlashuvi sharoitida aholining yaxshi sharoitlarda yashashi va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish muhim masala bo`lib qolmoqda. Iqtisodiy imkoniyatlari yuqori bo`lgan davlatlarning uzoq iqtisodiy rivojlanish tarixini ya`ni rivojlanish bosqichlarini ko`rish natijasida inqirozli vaziyatlarda strategik rejalar ishlab chiqilgani, bozorda erkin faoliyatni yo`lga qo`yilganligi ko'zga tashlanadi. Xorijiy tajribalardan foydalangan holda O`zbekistonda ham iqtisodiy barqarorlikka erishish muhim vazifa bo`lib qoladi. Iqtisodiyotda har qanda vaziyatlarga moslashuvchan va shuningdek inqirozli vaziyatlarda ham tezda o`zini tiklash xususiyatiga ega bo`lgan xizmat ko`rsatish sohasi dunyoning yetakchi mamlakatlarida asosiy iqtisodiy daromad olib keluvchi yo`nalishga aylanib ulgurgan.

Turizmni rivojlanishida turistik dam olish joylari tashkillagan tadbirkorlarga belgilangan davlat to`lovlari va soliqlarini miqdorini kamaytirish hamda bu borada tadbirkorlarga imtiyoz berish orqali xizmat ko`rsatish sohasidan foyda olishimiz mumkin bo`ladi.

Soliq va yig‘imlarning asosiy, ya’ni fiskal funksiyasini bajarish bilan bir qatorda soliq to‘lovchilar bilan soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddalashtirish muhimdir, shuningdek soliq solish bazasini aniqlash tartiblarini yanada takomillashtirish va adolatlilik tamoyillariga taynib ish ko‘rish, qolaversa, mamlakatimizdagi soliq tizimini yanada rivojlantirish va soliq yukini kamaytirib, mos ravishda soliq bazasini kengaytirish masalalarida rivojlangan xorijiy davlatlar soliq tizimini tahlil qilish orqali muqobil soliq uslubiyatini ishlab chiqish va kelgusda soliq yig‘iluvchanligini oshirish yuqorida keltirib o‘tilgan davlatlar soliq tizimida soliq bazasini aniqlash tartiblari va xususiyatlarini tahlil qilish orqali erishish mumkin.

Yuqoridagi fikrlar asnosida bilish mumkinki soliqlarning adolatli ravishda qo`llanilishi tufayli turizm sektorining rivojlanishiga erishamiz. Turizm aholini ish bilan ta`minlash va turizmga o`zaro yondosh bo`lgan mehmonxona biznesi, savdo kabi ko`plab yana boshqa sohalarning rivojlanishida poydevor bo`lib xizmat qiladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida turistlar soning yuqoriligi va bu orqali mamlakat iqtisodiyotida katta o`sish ko`rsatkichlariga erishyapganligi bizda ham barqaror iqtsodiy rivojlanishga erishishimizda yo`nalish bo`lib xizmat qiladi.

Singapurda sayyoh sifatida, agar siz ishtirok etadigan do‘konlarda $100 (shu jumladan GST) dan ortiq xarid qilsangiz, siz to‘langan 9% tovarlar va xizmatlar solig'i (GST) bo‘yicha to‘lovni talab qilishingiz mumkin. Bu turistik pulni qaytarish sxemasi sifatida tanilgan.

Mana shunday tajribalarning qo`llanilishi O`zbekistonga tashrif buyurgan turistlarda ijobiy fikrlar uyg`onishiga olib keladi va o`z-o`zidan yurtimiz turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Har bir kelyapgan turist bizning xizmatlarimizdan foydalanadi ulardan kelib tushgan tushumlar davlatimiz YaIM miqdori oshishiga o`z hissasini qo`shadi. Turizmning rivojlanish bosqichlarida o`z navbatida mehmonxonalarning qurilishi va bu binolarning faoliyat olib borishi uchun yetarlicha yer maydonining mavjud ekanligi muhim ahamiyatga ega. Ma`lum bir hududni tanlab olgan holda mehmonxona loyhasini shakllantirish o`z navbatida qo`shimcha sarf-xarajatlarni talab etadi. Yer bilan bog`liq bo`lgan keyingi mehmonxonadan va turistik maskanlardan olinadigan soliq miqdoriga ham yengillikni tabaqalashgan shaklda tashkil etish o`z samarasini ko`rsatadi.

Soliq siyosati yer resurslaridan unumli foydalanishni rag’batlantirish,jamg’arish yoki kam foydalanishga yo’l qo’ymaslik, barqaror rivojlanishni rag’batlantirish, atrof-

muhit muammolarini hal etish va hukumatga daromad keltirish orqali soliqqa tortishda muhim rol o’ynaydi. Va shu nuqtayi nazardan biz yer solig’ini undirish mexanizmini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surmoqchimiz:

• mamlakatimizda jahon (Germaniya, Chexiya, Rossiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlar) tajribasini inobatga olib yer uchastkasi hamda unda joylashgan bino va inshootlarning qiymatiga nisbatan soliqqa tortish tizimini “ko’chmas mulk” solig’ini joriy etish, ko’chmas mulk solig’ining progressiv stavkalarini hamda soliqqa tortilmaydigan qiymat chegarasini belgilash;

Soliq tizmini takomillashtirish bo`yicha qilinyapgan ishlarning bari iqtisodiyotimizning barqaror o`sishida o`z samarasini ko`rsata oladi.Yashirin iqtisodiyotga barham berish bu orqali bozor sharoitini va davlatning iqtisodiy holatini yaxshilash ustuvor vazifa sifatida mamlakat miqiyosida ham tahlil etib borilmoqda. Xizmatlar sohasini rivojlanishi iqtisodiy tushumlarning oshishiga katta hissa qo`shadi. Shu boisdan soliqlar orqali rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqilishi darkordir. 2023-yilda mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish 6 foizni tashkil qildi. Jumladan, sanoat 6, xizmat ko‘rsatish 6,8, qurilish 6,4, qishloq xo‘jaligi 4,1 foiz o‘sgan.

Soliq tizimini takomilashtirish orqali kichik biznesga yo`l ochish imkoniyati mavjud ekanligi, yangi faoliyat boshlagan tadbirkorlarning bozordagi risklarini kamaytirish tahlil qilingan holda amalga oshirilishi muhim vazifadir. Statistik ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki iqtisodiy o`sish ko`rsatkichlarida xizmatlar sohasining ulushi yuqori. Shu boisdan ushbu sohaga katta e`tibor berish zarurati bundan keyingi yillarda ham o`z dolzarbligini saqlab qoladi.

Xulosa qilib aytganda Ushbu ma`lumotlar natijasidan ko`rish mumkinki xorijiy tajribalarni mukammal o`rganish va ularda mavduk imoniyatlarni o`z faoliyatimizga qo`llash hamda xorijiy yetakchi turistik dam olish maskanlari va boshqa shu kabi tadbirkorlik faoliyati doirasidagi muammolarni aniqlashimiz iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim yo`nalish bo`ladi. Hozirda mamalakatimiz doirasida turizmni rivojlantirish bilan bo`g`liq bo`lgan faoliyat yurutuvchilarga imtiyozlar qo`llanilib kelinmoqda. Bunga qo`shimcha ravishda soliqning boshqa turlaridan ham imtiyozlarning qo`llanilishi kerak. Turizm bozorini chuqur tahlil qilish orqali xizmatlar sohasidagi muammo va kamchiliklarga yechim topiladi. Shuningdek turizm sohasini atrof-muhit bilan o`zaro aloqadorligini hisobga olgan holda, turistik xizmat tashkilotchilari o`z tadbirkorlik faoliyatlarida yashil texnologiyalardan foydalansa daromad solig`i va boshqa yig`imlarga oid imtiyozlarning qo`llanilishi rivojlanishning asosi bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Xudoyqulov, S., & Xalikchayeva, S. (2023). JAHON SOLIQQA TORTISH TIZIMIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH XUSUSIYATLARI. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, *24*(2), 210–221. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a33
2. www.visitsingapore.com/travel-guide-tips/tourist-information/gst-tax-refund
3. Tursunov Akmaljon Abdurashidovich/BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA YERLANI SOLIQQA TORTISHNING AHAMIYATI VA O'RNI/www.researchgate.net/publication/375740903
4. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidan.

ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ – ОЛИЙ ҚАДРИЯТ

Зокиржонов Нематжон
Ижтимоий гуманитар фанларни ўқитиш методикаси (маънавият асослари) ёналиши магистри

Инсон ҳуқуқлари – бу инсоннинг туғилишидан то вафот этгунига қадар бутун умри давомида унга ҳамроҳлик қиладиган ҳуқуқ ва эркинликлардир. Ушбу универсал ҳуқуқлар миллати, жинси, ирқи ёки этник келиб чиқиши, ранги, дини, тили ёки бошқа ҳуқуқий мақомидан қатъи назар, ҳеч қандай камситишларсиз барча учун хосдир. Инсон ҳуқуқлари яшаш ҳуқуқи каби энг асосий ҳуқуқлардан тортиб, муносиб турмуш тарзини таъминлашга хизмат қиладиган таълим олиш, меҳнат қилиш ёки ижтимоий таъминот олиш каби ҳуқуқларига қадар барча ҳуқуқларни қамраб олади.

Инсон ҳуқуқлари муносиб ҳаёт кечириш ва инсоний салоҳиятимизни ривожлантиришга имкон бериш учун зарур бўлган барча инсоний фазилатлар учун муҳимдир. Инсон ҳуқуқларини таъминлаш қўрқув, таъқиб ёки камситишсиз жамиятда яшаш учун катта аҳамиятга эга.

Инсон ҳуқуқлари қуйидаги асосий хусусиятларга эга:

- Универсаллик – барча бир хил даражада инсон ҳуқуқларига эга;
- Ажралмаслик – уларни ҳеч қачон тортиб олиш мумкин эмас, лекин баъзида уларни чеклаш мумкин — масалан, агар шахс қонунни бузса ёки давлат хавфсизлиги масалалари учун;

- Ўзаро боғлиқлик – маълум бир ҳуқуқни бериш ёки уни бузиш бошқа ҳуқуқларга таъсир қилиши мумкин;
- Тенглик – барча инсонлар ўзларининг қадр-қиммати ва ҳуқуқларида тенгдир;
- Камситмаслик – ҳар бир инсон ирқи, танасининг ранги, жинси, тили ва бошқа хусусиятларидан қатъи назар инсон ҳуқуқларига эга.

Иккинчи жаҳон урушининг фожиали оқибатлари инсон ва фуқаро ҳуқуқлари институтини ривожлантиришни ҳаётий зарурат сифатида кун тартибига қўйди. Натижада халқаро миқёсда инсон ҳуқуқлари кафолатланиши соҳасида сифат жиҳатдан янги босқич бошланди. 1948 йил 10 декабрда Бирлашган миллатлар Ташкилотининг Бош Ассамблеяси ўзининг 217 А (ИИИ) – резолюцияси билан Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясини қабул қилди.

Декларациянинг Муқаддимасида «Бош Ассамблея мазкур Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясини барча халқлар ва барча давлатлар бажаришга интилиши лозим бўлган вазифа сифатида эълон қилар экан, бундан муддао шуки, ҳар бир инсон ва жамиятнинг ҳар бир ташкилоти доимо ушбу Декларацияни назарда тутган ҳолда маърифат ва таълим йўли билан бу ҳуқуқ ва эркинликларнинг ҳурмат қилинишига кўмаклашиши, миллий ва халқаро тараққийпарвар тадбирлар орқали ҳам унинг бажарилиши таъминланишига, Ташкилотга аъзо бўлган давлатлар халқлари ўртасида ва ушбу давлатларнинг юрисдикциясидаги ҳудудларда яшаётган халқлар ўртасида ялписига ва самарали тан олинишига интилишлари зарур» деб эълон қилинган.

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида:

- -яшаш, эркинлик ва шахсий дахлсизлик;
- -қийноқ ҳамда бошқа шафқатсиз муомала ва жазо турларидан озод бўлиш;
- -суд орқали ҳимояланиш;
- -эркин ҳаракатланиш ва яшаш жойини танлаш эркинлиги;
- -турар жой дахлсизлиги;
- -сўз эркинлиги;
- -виждон ва дин эркинлиги;
- -тинч йиғилишлар ўтказиш эркинлиги;
- -мулкка эгалик қилиш ҳуқуқи;
- -билим олиш, меҳнат қилиш, дам олиш ҳуқуқи;
- -ижтимоий таъминот ва бошқа шу каби ҳуқуқлар кафолатланиши кўрсатилган.

Умуман, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларининг шаклланиши ўз тарихига эга. Ҳозирги давр тушунчасидаги инсон ҳуқуқлари контсепцияси Европада Уйғониш ва Реформация даврларида бошланган деб ҳисобланади. 1215 йили Англияда Буюк эркинликлар хартияси қабул қилинган. Германияда ўз ҳуқуқлари

учун курашган деҳқонларнинг талаблари баён этилган «Ўн икки модда» Реформациянинг ўзига хос манифести бўлган. 1992 йилда жаҳонда биринчи маротаба Халқаро инсон ҳуқуқлари федерацияси ташкил этилди. У инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш халқаро ташкилоти сифатида "Барча инсон ҳуқуқлари – барчага", «Ҳаракат қилиш учун - билиш» шиори остида иш кўради. Германия ва Франция лигалари томонидан ташкил этилган Халқаро инсон ҳуқуқлари федерациясига ҳозирги пайтда 100 тадан кўпроқ мамлакатнинг 184 та ҳуқуқни ҳимоя қилиш ташкилоти киради.

Федерация ўзининг асосий устувор вазифалари сифатида қуйидагиларни белгилаган:

-ҳуқуқ ҳимоячиларини ҳимоя қилиш;

-хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш;

-муҳожирлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш;

-жабрдийдаларнинг одил судлов учун ҳуқуқи;

-глобаллашув ва инсон ҳуқуқлари;

-халқаро ва минтақавий ҳимоя қилишни мустаҳкамлаш;

-можаролар, фавқулодда ҳолатлар ва ўтиш даврларида инсон ҳуқуқлари ва қонунчиликка амал этилиши учун курашиш.

1950 йилдан бошлаб ҳар йили Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси қабул қилинган 10 декабрда Халқаро инсон ҳуқуқлари куни нишонланади. Фуқаролар ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва бузилган ҳуқуқларини тиклаш воситаларига эга. Ушбу воситалар қаторида қуйидагиларни келтириш мумкин:

Тегишли давлат органларига шикоят билан мурожаат қилиш. Давлат органлари, ташкилотлар ва уларнинг мансабдор шахслари мурожаатлар тўлиқ, холисона ва ўз вақтида кўриб чиқилиши учун чоралар кўриши, фуқароларнинг бузилган ҳуқуқлари, эркинликлари тикланишини ҳамда қонуний манфаатлари ҳимоя қилинишини таъминлаш бўйича ўз ваколатлари доирасида чоралар кўриши шартдир.

ИЖОДКОР ТАЛАБАЛАРНИ ЭРТА КАШФ ҚИЛИШ – САМАРАЛИ ИЖОД ВА МУВАФФАҚИЯТЛАР ЗАМИНИ

Абдурахманов Азамат Абдираззакович

Наманган давлат педагогика институти Кенгаши котиби

E-mail: azamat8177@umail.uz

Аннотация: *Ушбу мақолада ижодкорлик истеъдодига эга талаба-ёшларни қўллаб-қувватлаш ва иқтидорларини юзага чиқаришда амалга оширилаётган ишлар ва уларнинг самаралари тўғрисида баён этилади.*

Калит сўзлар: *стартап лойиҳалари, ижодий муҳит, адабий муҳит, қўллаб-қувватлаш, устоз-шогирд, ижодий салоҳият, интеллект, ижодий кечалар, Зомин семинари, Дуел танлови.*

Бугунги кунда юртимиз аҳолисининг 19 миллиондан ортиғини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил қилмоқда. Мамлакатимизда янги Ўзбекистонни барпо этишдек улуғ мақсадга эришиш йўлида асосий таянчимиз бўлган шижоатли ёшларга эътибор ва ғамхўрлик кўрсатиш, уларга барча соҳаларда ўз иқтидори ва салоҳиятини тўлиқ намоён этиши учун зарур шароит ва имкониятлар яратиб бериш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Бугунги кунда ёшларни илмий, ижодий ва ителлектуал ривожлантиришга алоҳида эътибор ва ғамхўрлик кўрсатиб келинмоқда.

Истиқлол йилларида юртимизда ижодкор ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг шеърларини адабиёт мухлислари орасида кенг ёйиш бўйича етарли шарт-шароит яратиб берилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги "Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора тадбирлар тўғрисида"ги қарори айниқса, бу борадаги ишларнинг самарадорлигини оширишда дастурамал бўлиб хизмат қилди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Илмий ва инновацион фаолият билан шуғулланиб келаётган иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорини ҳам мисол тариқасида келтириб ўтиш мумкин.

Мазкур Ҳукумат қарори Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили"да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида" 2021 йил 3 февралдаги Фармонига мувофиқ қабул қилинган.

Қарорга кўра, ҳудудларда илмий ва инновацион фаолият билан шуғулланиб келаётган иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлаш, нуфузли илмий мактабларни шакллантириш, улар илмий салоҳиятини ошириш, соддалаштирилган тартибда ёшларнинг илмий ва стартап лойиҳаларини молиялаштириш мақсадида илмий дастурни амалга ошириш учун илмий фаолиятга оид давлат дастурлари маблағлари ҳисобидан 50 млрд сўм маблағ

йўналтирилиши; ёшлар учун эълон қилинадиган стартап лойиҳалари танлови талабларининг соддалаштирилган тизими ишлаб чиқилиши; 2021 йилдан бошлаб иқтидорли ёшлар ўртасида "Академик ҳаракатчанлик" дастури ва "Бўлажак олим" танлови ташкил қилиниши; иқтидорли ёшлар илмий ғояларини рағбатлантириш, уларнинг хорижий университетлар ва илмий марказларга қисқа муддатли стажировкалари ташкил этилиши ва бошқалар назарда тутилгани маълумот учун қабул қилинди. [1]

Бундан ташқари, Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 18 январдаги "Истеъдодли ёшларни қўллаб-қувватлаш "Улуғбек" жамғармаси фаолиятини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 30-сон қарори қабул қилинди ва бу эса ёшларни илмий, ижодий, ителлектуал қобилиятларини ривожланишида катта ўрин эгалламоқда.

Жамғарма фаолиятининг асосий йўналишлари:

- Иқтидорли ёшларни излаб топиш, истеъдодини рўёбга чиқариш ва уларни қўллаб-қувватлашга кўмаклашиш;
- Давлат ва нодавлат ташкилотлари билан ҳамкорликда иқтидорли ёшларни аниқлаш ҳамда уларни илмий-техник фаолиятга кенг жалб этиш тизимини йўлга қўйишда иштирок этиш;
- Иқтидорли ёшларнинг, жумладан, жамғарма томонидан ўтказилган танловлар ғолиблари, Президент гранти ва номли стипендиялар, "Ўзбекистон учун 100 ғоя" лойиҳаси совриндорларининг илмий-техник ишланмалари, ғоя ва ташаббусларининг амалиётга жорий этилишини қўллаб-қувватлаш;
- Давлат ва нодавлат ташкилотлар билан ҳамкорликда "Мирзо Улуғбек ворислари" республика танловини ташкил этиш, шунингдек, соҳа мутахассисларини жалб этган ҳолда ушбу танловлар ғолиби бўлган иқтидорли ёшларни мақсадли ўқитиш;
- Иқтисодиёт тармоқларининг эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда замонавий талабларга жавоб берадиган юқори малакали мутахассислар захирасини шакллантиришда қатнашиш каби.

Жумладан, 2022 йилдан бошлаб ҳар йили "Мирзо Улуғбек ворислари" республика танлови ўтказилиб келинмоқда ва бу ёшларни фан, техника, иқтисодиёт, экалогия, медицина тармоқларига янгидан-янги гўяларни олиб киришларига замин бўлмоқда.

Шунингдек, қарор билан "Истеъдодли ёшлар ахборотномаси" илмий-амалий электрон журнали ҳамда "Мирзо Улуғбек ворислари" электрон портали ташкил этилган. Порталда истеъдодли ёшларнинг электрон базаси

шакллантирилган ва ўқув курслари битирувчиларининг рейтинги жорий этилиб, инновацион ғоялари ва илмий-техник ишланмалари баҳолаб борилади. [2]

Ёшлардаги ижодкорлик, истеъдод ҳақида сўз борар экан, бадиий адабиётда ижодий янгиликлар яратаётган ёшларимизни кўриш мумкин. Адабий жараёнда ҳам бугунги кун ёшлари ўз салоҳиятини кўрсатмоқдалар. Бу йўлда эса ёшларга, албатта, турли ўқув жараёнлари, танловлар катта ёрдам бериб келмоқда. Жумладан, мамлакатимизда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан ҳар йили ташкил этиладиган Республика ёш ижодкорларнинг Зомин семинари ва Ўзбекистонда ёш ижодкорларни кашф этиш ва рағбатлантириш мақсадида Ёшлар ишлари агентлиги ва Ёш ижодкорлар кенгаши томонидан ўтказиладиган Дуел танловларни келтириш мумкин.

Олий таълим муассасаларида таълим олаётган ижодкор ёшларнинг иқтидорларини эрта аниқлаш, уларни қўллаб-қувватлаш борасида эл ардоғидаги шоир ва ёзувчилар иштирокида ижодий учрашувлар, мушоира кечалари, адабий-бадиий тадбирлар ўтказиш яхши самара беради.

Машҳур ижодкорлар билан бевосита ҳамсуҳбат бўлиш, адабиётга кириб келишдаги илк ижодий асарлари, орттирилган улкан ижодий ва ҳаётий тажрибалари тўғрисидаги мулоқот ва самимий суҳбатлар ёш ижодкор талабаларда ўз салоҳиятига бўлган ишончни орттиришга улкан ҳисса қўшади.

Таниқли ёзувчи ва шоирлар билан мулоқотлар, талабаларниднг ўз ижод маҳсулларини таниқли адиб ва шоирларга кўрсатиш орқали уларнинг илк тўпламларини чоп этиш ва истеъдодларини тарғиб қилиш, қўллаб-қувватлаш ва қимматли тавсиялар бериш орқали талабаларни улкан муваффақиятларга ва юксак чўққилар сари янада илҳомлантиради.

“Наманган адабий муҳити”, ҳар ҳафтада вилоят ижодкорлари, адиб, ёзувчи шоирлар, ёш ижодкорлар ва адабиёт ихлосмандларини таклиф қилган ҳолда ўтказилаётган “Ижодкор ёшлар билан учрашув” тадбирлари кўплаб ижодкор талабаларнинг истеъдодларини кашф қилиниши ва тўплам, илк китоблари чоп этилишига, келгусидаги ижод йўлларини топиб олишлари, узоқ муддатга мўлжалланган юксак чўққиларни забт этиш бўйича маънавий қўллаб-қувватланишларига олиб келди.

Бу каби ишларни йўлга қўйилиши албатта талаба-ёшларни илмий-техник соҳада янгиликлар яратишини, бадиий адабиёт соҳасига янгича нафас олиб кирилишини кўрсатади. Нафақат илмий ва бадиий соҳада, балки яна кўплаб соҳалар ривожи давлат тараққиётида муносиб ўрин эгалламоқда. Бу каби имкониятлардан тўлақонли ва ўз ўрнида фойдаланиш масаласи эса бугунги кун ёшларини ҳаракатга ундайди ва юрт олдидаги масъулиятини оширади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент – 2021.
2. Hukumat iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida qaror qabul qildi\\ 26.04.2021 \\ https://kun.uz/news/2021/04/26/hukumat-iqtidorli-yoshlarni-qollab-quvvatlash-togrisida-qaror-qabul-qabul-qildi
3. «Ulug'bek» jamg'armasi iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni kengaytiradi \\ 19-yan, 2022 \\ https://abt.uz/blog/ulugbek-jamgarmasi-istedodli-yoshlarni-qollab-quvvatlashni-kengaytiradi
4. Р.Тиллаева. Адабий таълимда ўқувчиларнинг тадқиқотчилик компетенцияларини шакллантириш технологияси. – Toshkent – 2023.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Профессионал таълимни ривожлантириш
педагогика фанлари доктори, профессор
Рахматуллаева Д.Р
Профессионал таълимни ривожлантириш
институти таянч докторанти
Агалиева Х.Н

Калит сўзлар: *коммуникатив компетентлик, таълим жараёни, методлар, ташкилий, методик, педагогик, психологик, маънавий, ахлоқий, ноанъанавий, педагогик жараёнлар технологияси, услубиёти, анъанавий усуллар, замонавий педагогик, ахборот-коммуникация*

Аннотация: *Таълим жараёни муваффақияти нафақат таълим мазмуни, балки таълим жараёнида ўқитишнинг усул, восита ва шаклларини тўғри танлаш ҳамда коммуникатив воситалари билан ҳам белгиланади. Таълим методлари ўрганилаётган ўқув материалининг ўзига хослигига ва уни ўзлаштиришнинг кутилган даражасига қараб, таълим жараёнининг самарадорлигига эришишга ёрдам берадиган турли хил замонавий усуллардан фойдаланишни талаб этади.*

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, образовательный процесс, методы, организационно-методические, педагогические, психологические, духовно-нравственные, нетрадиционные, технология*

педагогического процесса, методология, традиционные методы, современные педагогические, информационно-коммуникационные

Аннотация: *успешность образовательного процесса определяется не только содержанием образования, но и правильным выбором методов, средств и форм обучения в образовательном процессе, а также коммуникативных средств. Методы обучения требуют использования различных современных методов, способствующих достижению эффективности учебного процесса в зависимости от специфики изучаемого учебного материала и ожидаемого уровня его усвоения.*

Keywords: *communicative competence, educational process, methods, organizational and methodological, pedagogical, psychological, spiritual and moral, non-traditional, technology of the pedagogical process, methodology, traditional methods, modern pedagogical, information and communication*

Abstract: *The success of the educational process is determined not only by the content of education, but also by the correct choice of methods, tools and forms of teaching in the educational process, as well as communicative means. Educational methods require the use of various modern methods that help to achieve the effectiveness of the educational process, depending on the specificity of the educational material under study and the expected level of its assimilation.*

Касб-ҳунар мактаби таълим жараёнида ноанъанавий дарс шаклидан фойдаланиб машғулотларни ташкил этиш орқали кўзланган мақсадга эришиш ва уларни таълим жараёнига тўлақонли қамраб олиш мумкин. Ҳар қандай дарс билим беришнинг асосий шакли ҳисобланади. Унда ташкилий, методик, педагогик, психологик, маънавий, ахлоқий ва фанга хос бўлган бошқа хусусиятлар жамланади. Дарсга таёргарлик дарснинг йўналиши ва турига боғлиқ бўлади. Ҳозирги давр методикаси ва амалиёти фаннинг хилма-хил турлари ва йўналишларини белгилайди. Махсус билимлар мазмуни, ўрганиш босқичлари, ўрганиш методикасига кўра бўлиниб, унда маълум қолипга солинмаган, қатъий композицияга эга бўлмаган, ўқитувчининг дунёқараши ва фантазияси билан боғлиқ бўлиб, бунда ўқувчининг билим олиши ва билимларни бериш методикасидаги аниқлик ўқитиш мақсади билан узвий боғлиқ бўлади. Тадқиқот таҳлилларига кўра, ўқув жараёнининг замон талабларига ҳамоҳанглигини янада такомиллаштириш учун анъанавий усуллар, замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишга ўтиш самарали натижалар беради, шунингдек, замонавий педагогикани жорий қилиш асосан инновацион ёндашув орқали амалга оширилади. Ўз навбатида инновацион ёндашув ўзида

янгиликни мужассамлаштирган ҳолда турли асосларга кўра гуруҳланади. Улардан энг асосийлари педагогик жараёнлар технологияси, услубиёти, воситалари ҳамда маъмурият, педагоглар ва ўқувчилар фаолиятидаги янгиликлардан иборат.

Биз томондан тадқиқот давомида касб-ҳунар мактаби ўқувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашда коммуникатив компетентлигини шакллантиришнинг ноанъанавий шаклларидан бири сифатида Experiental learning (тажрибали таълим) технологияси орқали амалга оширилди. Experiental learning технологиясини ўрганиш тажрибани самарали ўрганишга айлантиришни ўз ичига олади. Колбнинг Experiental learning технологиясини ўрганиш назарияси бизнинг тажрибаларимиз, шу жумладан фикрларимиз, ҳиссиётларимиз ва атроф-муҳитимиз ўқув жараёнига қандай таъсир қилишини таъкидлайди. Касб-ҳунар мактаби ўқувчилари касбий фаолиятга тайёрлашда, тажрибали ўқув фаолияти орқали билимларни осонроқ ўзлаштирадилар ва сақлайдилар. Ушбу технология ўқувчиларни касбий фаолиятга жалб қилишда ёрдам бериши ва уларни касбий фаолиятида янада қизиқишларини ортиришга хизмат қилади. Касб-ҳунар мактаби ўқувчиларини амалий тажриба ва мулоҳазаларга жалб қилиш орқали улар дарсда ўрганилган назарий билимларини реал вазиятларга боғлай олиш кўникмалари шаклланади.

Касб-ҳунар мактаби ўқувчиларида коммуникатив компетентликни шакллантиришнинг технологик таъминоти ўқувчиларнинг коммуникатив компетентлигини шакллантиришнинг принципиал муҳим шарти бўлиб, уни таълим мазмунининг мазмунини бойитиш деб ҳисоблаш мумкин, бу эса уни ижодий қобилиятга айлантириш имконини беради, когнитив ривожланиш вазифаларини ҳал қилиш орқали ўқувчиларнинг билим фаоллигини рағбатлантирадиган шахсий-муҳим жараён деб қараш мумкин.

Касб-ҳунар мактаби ўқувчиларида коммуникатив компетентликни шакллантиришга хизмат қилувчи технологиялардан бири Experiental learning - бу "тажрибага асосланган таълим" технологияси бўлиб, бу билимларни ҳаракатга айлантириш учун ўқувчи билимларига таянишни назарда тутади. Бу шуни англатадики, ўрганиш қисман ўқувчиларда қандай тажриба ва имкониятлар пайдо бўлишидан келиб чиққан ҳолда таълим жараёнлари ташкил этилади. Демак, эмпирик ўрганиш — бу амалий тажрибага асосланган ўрганиш жараёнидир.

Experiental learning (тажрибали таълим) таълим технологиясига асосланган таълимни дарс жараёнида қўллаш билан ўқувчилар реал ва содда вазиятларни бажариш орқали фаол тажрибага эга бўладилар. Experiental learning(тажрибали

таълим) таълим технологияси ҳусусиятида биринчи навбатда, коммуникатив ижодий машқлар - гуруҳ муҳокамалари, ўқувчилараро мулоқотлар, ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш ва коммуникатив компетентликни шакллантириш усуллари киради. Коммуникатив машқлар диалогик нутқ кўникмаларини ривожлантиради (суҳбатдошнинг хатти-ҳаракатларини рағбатлантиради, йўналтиради ва тартибга солади, уни оғзаки ва оғзаки бўлмаган ҳаракатларга ундайди, ўз фикрини ҳимоя қилади, суҳбатдошни унинг ҳақлигига ишонтиради). Бу машқларнинг барчаси бўлажак мутахассисни касбий фаолиятга тайёрлашнинг асосий вазифаларидан бири бўлган коммуникатив компетентликнинг асосини ташкил қилади. Ю.П.Азарова, С.Л. Братченко, А.В. Мудрик тадқиқотларига кўра, Experiental Learning таълим технологияси коммуникатив компетентликни шакллантириш хусусиятларини ўрганишда олимларнинг ҳиссаси жуда катта: ролли ўйинга қўшилган ўқувчи табиий тажрибаларни бошдан кечиради; ролли ўйин иштирокчиларга ўзларини коммуникатив компетентлигини оширишга ёрдам бериши мумкин; ролли ўйин ўқувчиларда катта рағбатлантирувчи кучга эга, уларнинг мулоқотини ва ўзаро таъсирини рағбатлантиради.

Профессионал жамоа ўйини деганда "ахборот ва зиддиятли вазият мавжуд бўлганда шартли шароитда корхоналар, хўжалик ташкилотлари раҳбарлари ва мутахассислари фаолиятини гуруҳли идрок этиш; маълум бир вазият учун бошқарув қарорларини қабул қилиш амалиёти", касбий вазиятни моделлаштириш ва ролли ўйин давомида олинган маълумотларни таҳлил қилиш омилларини босқичма-босқич аниқлаштириш; реал вазиятга тақлид қилиш, қарор қабул қилиш ва таҳлил қилиш учун бошқарув фаолиятини ўйин моделлаштириш" тушунилади.

Коммуникатив компетентликни шакллантиришда профессионал жамоа асосида ролли ўйинларнинг иккита функциясини аниқлаш мумкин:

а) ижтимоий (ўйин ўзаро таъсирида янги ижтимоий шахслараро ролни моделлаштириш;

б) дидактик (анъанавий ўқитиш усули билан солиштирганда ҳиссий рангдаги мулоқот шароитида материални ўзлаштириш самарадорлигини ошириш).

Ўқув жараёнида профессионал жамоа ролли ўйини ўқувчиларнинг коммуникатив компетентлигини ривожлантириш воситаси ва ўқувчининг коммуникатив компетентлигини шакллантириш усули сифатида қаралади. Ўқувчилар нуқтаи назаридан, профессионал жамоа ролли ўйиннинг мақсади маълум бир ўйин ва таълим натижасига эришиш, ўқитувчи нуқтаи назаридан

тайёрланмаган мулоқотнинг коммуникатив ва ахлоқий меъёрларини ўргатишдир.

Юқоридаги маълумотлардан хулоса қилиб айтганда, касб-ҳунар мактаби ўқувчиларида коммуникатив компетентликни шакллантиришни ташкил этишда Experiental learning технологиясидан унумли фойдаланиш асосида уларни касбий фаолиятда дуч келадиган реал вазиятлар билан юзлашишларида катта натижаларни кўрсатди. Бу ўз ўрнида таълимни юқори савияда ташкил этишни, таълим жараёнини бошқариш, амалиётга жорий этишда ва касбий фаолиятини бошқара олишда ўқувчиларнинг касб бўлган қизиқишларини уйғотишда самарали хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ҳамдамова Венера Анваровна "Таълимнинг узлуксизлиги ва муаммолар ечимига айрим ёндашувлар замонавий таълим"/современное образование. –Т.: 2018 г.
2. Арзамасцева Галина Юрьевна "Педагогические потенциалы ролевой игры в исследованиях отечественных авторов". Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. –М.: 2010, Том 16
3. Рубцова Инна Николаевна. Подготовка будущих учителей к проектированию гуманистически ориентированной образовательной среды школы: Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 Армавир, 2006 185 с.
4. Мудрик А.В. Социальная педагогика: учеб. для студентов высш. пед. учеб. заведений. - М. : Academia, 2005. - 196 с.
5. Милорадова Н.Г. Психология и педагогика: Учебник. – М.: Гардарики, 2006. – 335 с.
6. Raxmatullayeva D.R. Modern competencies of future entrepreneurs // Frontline Social Sciences and History Journal, Volume 03 Issue 05 (2023), -p.67–70. https://www.frontlinejournals.org/journals/index.php/fsshj/article/view/357
7. Д.Р.Рахматуллаева Использовать Активные Методы В Среднем Профессиональном Образовании / XXXII International scientific and practical conference «International scientific review of the problems and prospects of modern science and education». – USE. 2017. –p. 100.

ПРИМЕНЕНИЕ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МЕЖДУ СТУДЕНТАМИ И ПРЕПОДАВАТЕЛЯМИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Тиллаев Маъруф Махмуджонович
Навоийский государственный педагогический институт
Независимый исследователь кафедры «Информатика»
E-mail: *tillayev0693@gmail.com*

Аннотация: *В данной статье анализируется значимость интеграции опыта электронного обучения в концепцию и реализацию смарт-образования. Освещается, как критически важно для смарт-образования создавать условия, способствующие увеличению эффективности учебного процесса, принося выгоды как студентам, так и преподавателям. Рассматривается, как новая эффективность может быть достигнута на всех уровнях образовательного процесса, включая взаимодействие между студентами, преподавателями и университетом в целом.*

Ключевые слова: *Смарт-образование, электронное обучение, эффективность учебного процесса, стратегическое планирование в образовании, интеграция технологий в образование, комплексный подход в образовании.*

O‘QUV JARAYONIDA O‘QUVCHILAR VA O‘QITUVCHILARNING O‘ZARO HAMKORLIGINI YAXSHILASH UCHUN SMART TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

Tillayev Ma’ruf Maxmudjonovich
Navoiy davlat pedagogika instituti
“Informatika” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: *tillayev0693@gmail.com*

Annotatsiya*: Ushbu maqolada elektron ta'lim tajribasini aqlli ta'lim konsepsiyasi va amalga oshirishga integratsiyalashning ahamiyati tahlil qilinadi. Bu aqlli ta'lim uchun o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradigan, talabalar va o'qituvchilar uchun foyda keltiradigan shart-sharoitlarni yaratish qanchalik muhimligini ta'kidlaydi. Unda ta’lim jarayonining barcha darajalarida, jumladan, talabalar, o‘qituvchilar va umuman universitet o‘rtasidagi o‘zaro*

munosabatlarda qanday qilib yangi samaradorlikka erishish mumkinligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Smart ta'lim, elektron ta'lim, ta'lim jarayonining samaradorligi, ta'limda strategik rejalashtirish, ta'limda texnologik integratsiya, ta'limda kompleks yondashuv.*

APPLICATION OF SMART TECHNOLOGIES TO IMPROVE INTERACTION BETWEEN STUDENTS AND TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Tillayev Ma`ruf Maxmudjonovich
Navoi State Pedagogical Institute
Independent researcher of "Informatics" department
E-mail: *tillayev0693@gmail.com*

Abstract: *This article analyzes the significance of integrating e-learning experience into the concept and implementation of smart education. It highlights how critical it is for smart education to create conditions that help increase the efficiency of the educational process, bringing benefits to both students and teachers. It examines how new efficiency can be achieved at all levels of the educational process, including interaction between students, teachers and the university as a whole.*

Key words: *Smart education, e-learning, effectiveness of the educational process, strategic planning in education, integration of technology in education, integrated approach in education.*

В современном мире, где технологии развиваются с каждым днем, образовательный процесс также подвергается значительным изменениям. Одним из направлений, в котором эти изменения особенно заметны, является взаимодействие между студентами и преподавателями. SMART-технологии — это инновационные инструменты и подходы, которые могут существенно улучшить это взаимодействие, сделав его более эффективным, интерактивным и персонализированным [2].

Смарт-технологии становятся приоритетным направлением, которое будет определять следующую стадию развития общества после информационной эры [1].

В основе реализации концепции смарт-образования лежит накопленный опыт электронного обучения, без которого невозможен его дальнейший

развитий. Ключевая цель смарт-образования заключается в создании условий для достижения нового уровня эффективности учебного процесса, от которого выигрывают как студенты, так и преподаватели. Данная эффективность достигается благодаря совместным усилиям студентов, изучающих университетскую программу, преподавателей и университета в целом. Реализация смарт-образования предполагает комплексный подход и начинается с стратегического решения руководства о создании и поддержании необходимых условий для его развития, что подкрепляется принятием соответствующей стратегии университета или разработкой дорожной карты [3].

1. Интерактивные SMART-доски и обучение

Интерактивные SMART-доски уже давно вошли в практику образовательного процесса многих учебных заведений. Они позволяют преподавателям демонстрировать учебный материал в интерактивном формате, вовлекая студентов в образовательный процесс с помощью мультимедиа, визуализаций и интерактивных заданий. Такие доски способствуют лучшему усвоению материала и повышению интереса к изучаемому предмету.

2. Мобильные приложения и образовательные платформы

Мобильные приложения и образовательные платформы, такие как Google Classroom, Edmodo или Moodle, позволяют преподавателям и студентам постоянно находиться в контакте, обмениваться учебными материалами, заданиями и обратной связью в реальном времени. Это создает дополнительные возможности для обучения и участия студентов в образовательном процессе вне аудитории.

3. Системы дистанционного обучения и вебинары

Применение систем дистанционного обучения и проведение вебинаров с использованием SMART-технологий позволяют преодолевать географические и временные барьеры между студентами и преподавателями. Вебинары могут включать прямые трансляции лекций, интерактивные семинары и рабочие сессии в режиме реального времени, что делает обучение более доступным и гибким.

4. Адаптивное обучение

С помощью аналитики больших данных и искусственного интеллекта, встроенных в SMART-платформы, возможно реализовать адаптивное обучение, которое автоматически настраивается под индивидуальные потребности каждого студента. Это позволяет преподавателям эффективнее управлять образовательным процессом, а студентам — получать персонализированный учебный опыт.

5. Обратная связь в реальном времени

Использование SMART-технологий позволяет обеспечить мгновенную обратную связь для студентов, что является ключевым фактором для эффективного обучения. Преподаватели могут использовать различные инструменты и платформы для оценки ответов студентов, комментирования работ и предоставления конструктивной критики, что способствует более быстрому и глубокому усвоению материала.

Применение SMART-технологий в образовательном процессе открывает новые горизонты для взаимодействия между студентами и преподавателями. Эти технологии способствуют созданию более интерактивного, эффективного и персонализированного обучения. Важно, чтобы учебные заведения продолжали интегрировать и развивать эти технологии, чтобы обеспечить студентам лучшие возможности для обучения и развития.

Использованные литературы:

4. European Investment Bank (2012) JESSICA for Smart and Sustainable Cities//Horizonal Study Smart Technology based Education and Training// SMART DIGITAL FUTURES. Netherland: Amsterdam: IOS Press BV 2014.

5. Nasirova Sh.N., Tillayev M.M. The importance of creating multimedial electronic learning resources. Academicia Globe: Inderscience Research is a scholarly peer reviewed international multidisciplinary Journal, 557-559 p.

6. ЖУРНАЛ "Современные информационные технологии и ИТ-образование". Смарт-образование как основная парадигма развития информационного общества. Тихомиров В.П., Днепровская Н.В.. 2015.

ROLE OF NOBLE WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL SCIENCE IN UZBEKISTAN

РОЛЬ ЖЕНЩИН-УЧЕНЫХ В РАЗВИТИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA FANI RIVOJLANISHIDA OLIMA AYOLLARNING O'RNI

Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

sobirravshanov3@gmail.com

Annotation: *this article provides information about the role of women in the development of Psychological Science in Uzbekistan, their contribution, as well as scientific work carried out by women scientists.*

Keywords: *development of psychology, psychology of the 20th century, history of pedagogy, psychology of people, upbringing, school science, Psychological Science.*

Аннотация: *В этой статье представлена информация о роли женщин-ученых в развитии психологической науки в Узбекистане, их вкладе, а также о научной работе, выполненной женщинами-учеными.*

Ключевые слова: *развитие психологии, психология XX века, История педагогики, психология человека, воспитание, школьное образование, психологическая наука.*

Annotatsiya: *ushbu maqola O'zbekistonda psixologiya fani rivojlanishida olima ayollarning o'rni, qo'shgan hissasi shuningdek olima ayollar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar haqida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *psixologiya rivoji, XX asr psixologiyasi, pedagogi*ka tarixi, *insonlar psixologiyasi, tarbiya, maktabshunoslik, psixologik ilm.*

XX asrda O`zbekistonda boshqa fanlar qatori psixologiya fani ham jadal tarzda rivojlanish bosqichiga kirdi. Chunonchi, pedagogik va psixologik fikr markazlari 1918-yili Toshkent va keyinchalik Chimkent shahrida tashkil qilinib, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan hamma vazifalarni qamrab oldi. Ushbu markazlarda yordamchi ta'lim metodlari ishlab chiqilib, shu yerning o'zida sinaldi va respublikaning boshqa o'quv muassasalariga tarqatildi. Shuningdek, pedagogik va psixologik fikr markazida eksperimental psixologik laboratoriya ham tashkil qilinib, turli xil psixologik tajribalar amalga oshirildi.[1]

Turkistondagi muassasalardan biri "O'zbek davlat ilmiy tadqiqot instituti", hozirgi Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti 1929-yil tashkil qilingan bo'lib, hozirgi kunga qadar bu institut o'qitishning pedagogik konsepsiyalari maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim-tarbiya nazariyasini yaratuvchi yagona markaz hisoblanadi. Ushbu institutda Bendrikov, Leventuert, Zavarova, Yusupov, Tokanaev, Debenzov, Mirsharipov, Muhiddinov kabi olimlar faoliyat olib borishdi.[2]

XX asrning 50-yillaridan boshlab O'zbekiston psixologiyasida o'chmas iz qoldirgan bir qancha olima ayollar ham yetishib chiqa boshladi. Ulardan V.A.Tokareva, M.X.Rahmonova, K.Sh.Karimova, M.E.Zufarovalarsiz O'zbekiston

psixologiyasini tasavvur qilib bo‘lmasa kerak. Quyida ularning hayotiy faoliyati, ilmiy izlanishlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Xalq xo‘jaligini harbiy izga moslashtirmay turib frontni mustahkamklab bo‘lmas edi. Respublika sanoati qayta qurilib, front uchun zaruriy maxsulotlar ishlab chiqara boshladi. Mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun majburiy ishlab berish belgilandi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Aslida esa ish kuni 12-14 soat davom etardi. Ta’tillar esa bekor qilindi. Natijada ishchilar sonini oshirmay turib mehnat unumdorligini ko‘paytirishga erishildi. 1941-yilning dekabridan harbiy korxonalarning barcha ishchilari “safarbar etilgan”lar deb e’lon qilindi va ushbu korxonalarga biriktirib qo‘yildi. Korxonalardan o‘zboshimchalik bilan ketib qolganlar esa 5 yildan 8 yilgacha qamoqqa mahkum qilinardi. Lekin odamlar yuqoridagi qonunlarsiz ham Vatan uchun fidokorona mehnat qilardi. Kadrlar, xom ashyo, ishlab chiqarish uskunalari kamligiga qaramay 1941- yil dekabr oyida Respublikadagi 30 foiz korxona front uchun mahsulot ishlab chiqara boshladi. 1942-yil o‘rtalariga kelib O‘zbekistonda xalq xo‘jaligini front maqsadlariga yo‘naltirish asosan nihoyasiga yetkazildi. Urush yillarida O‘zbekistonda 280 ta yangi korxona qurildi, Rossiyaning urush bo‘layotgan hududlaridan jami 104 ta fabrika va zavod ko‘chirib keltirildi. Ko‘chirib keltirilgan zavod va fabrikalar xalqimizning jonbozligi sababli uzog‘i bilan bir oyda ishga tushirilar edi. Sanoat ishlab chiqarishida ishchi kuchi yetishmasligi natijasida 1942-yilga kelib ishchilarning 63,5 foizini ayollar tashkil etgan. Ushbu harbiy sanoat orqali O‘zbekistonliklar urush maydonlariga 718 798 dona aviabomba, 19800 ta aviamotor, 420 000 dona parashyut, 220 000 kilometr kabel, 18641 dona minamyot, 2403 dona samolyot va boshqa texnikalarni yetkazib berdi.[3]

O‘z fidokorona xizmatlarini g‘alaba uchun yetarli deb baholamagan xalqimiz mudofaa uchun jamg‘armalar tashkil etishda faol qatnashdi. Mudofaa jamg‘armasiga fuqarolar o‘z qimmatbaho boylikarini berish, ishchi ziyolilar haftada bir kun ish haqisiz ishlab berish, davlat zayomlarini sotib olish, o‘zlarida mavjud oziq-ovqat maxsulotlarini topshirish oraqli yordam berdilar. O‘zbekistonliklar mamlakat mudofaasi uchun urush yillarida jami 649,9 mln so‘m pul 22 kg oltin va kumush to‘pladi. Yig‘ilgan mablag‘lar hisobidan tank kalonnasi, bronepoezdlar, evakuvatsiya eskadriliyalari qurilib frontga jo‘natildi. Yurtimiz axolisi urushga ketga o‘z yaqinlari uchun issiq kiyimlar ham yig‘gan. Xususan urushning dastlabki olti oyi mobaynida 421,5 ming dona turli issiq kiyimlar frontga yuborildi. Qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini yetishtiruvchi dehqonlar ham yetishtirilgan maxsulotlari bilan frontdagi g‘alabaga o‘z xissasini qo‘shgan. Jumladan, urush yillarida jami 4 million 1478 ming tonna paxta,82

million pud g‘alla, 54067 tonna pilla va 159 ming tonna go‘sht maxsulotlari yetkazib berildi.

Mana shunday o‘z topgan barcha narsasini frontga jo‘natayotgan xalq o‘z insonparvarligini shunday og‘ir sharoitda ham saqlab qoldi. Yurtimizga urush bo‘layotgan hududlardan jami 1,5 million, shu jumladan 250 ming bola ko‘chirib keltirildi. Xalqimiz ularni mehmondo‘stlik bilan qabul qildi, ularga o‘z uyidan joy berdi, topgan nonini ular bilan baham ko‘rdi. O‘zbek oilalari ota-onasiz qolgan bolalarni o‘z bag‘riga oldi. Shu o‘rinda toshkentlik temirchi SH.SHomahmudovlar honadoni trariximizda o‘chmas bo‘lib qolgan. Ular turli millatga mansub 14 nafar bolani o‘z tarbiyasiga olgan. Urush bo‘layotgan joydan nafaqat tinch axoli evakuvatsiya qilindi, balki, urushda yarador bo‘lgan askarlar ham davolanish uchun yurtimizdsagi kasalxonalarga yuborilgan. Urush boshlangandayoq respublika hukumati gospital bazasini shakillantirishga kirishgan edi. 1941-yil 1-oktabrigacha O‘zbekiston sog‘liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o‘ringa ega 47 dona gospital barpo etilgan va zarur uskunalar bilan jihozlangan. Moskva, Kalinin, Rostov va boshqa viloyatlardan 15900 o‘rinli 48 dona gospital ko‘chirib keltirildi. 1942-yilning oxirida O‘zbekiston hududida 39140 o‘ringa ega 113 ta evakuvatsiya gospitallari joylashtirildi. [4]

Yuqoridagi barcha qiyinchiliklarga qaramay xalqimiz uchun eng kata yo‘qotish urush maydonlarida vafot etgan otalari, aka-ukalari, farzandlari bo‘ldi. Jumladan, urushga safarbar etilgan 1 950700 nafar o‘zbeklar jami O‘zbekiston aholisining 22 foizini tashkil etgan. Bu barcha mehnatga yaroqli axolining 40-42 foizini tashkil etgan. Urushda ishtirok etganlardan 538 366 kishi halok bo‘ldi, 158 036 kishi bedarak yo‘qoldi, 870 942 kishi mayib-majruh bo‘lib qoldi. Jang maydonlarida Vatani ozodligi uchun jon bergan yurtdoshlarimiz hususida O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti shunday deb yozgan edi: “Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g‘oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo‘lmasin, o‘z Vatani, el-yurtining yorug‘ kelajagi, beg‘ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo‘lganlarni, o‘z umrini bevaqt hazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz. Bu achchiq , lekin oddiy haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo‘q va bunga yo‘l ham bermaymiz”[5]

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, tarixda eng qirg‘inbarot hisoblangan ikkinchi jahon urushi insoniyatga qarata qilingan eng og‘ir jinoyatdir. Bu urush natijasida butun bir davlatlar tanazzulga uchradi. Jahondagi davlatlarni ilm-fan, ijtimoiy soha va insonlar turmush farovonligida bir necha o‘n yillarga ilgarilatib yuborishi mumkin bo‘lgan mablag‘lar insoniyatning bir birini yo‘q qilishi uchun sarflandi. Ushbu urushning hamma og‘ir yuki oddiy xalq zimmasiga tushdi va ular

tarixdagi eng qiyin davrlardan birini boshdan o‘tkazdilar. Mana shunday og‘ir sharoitda g‘alabaga faqatgina xalqning birligi, jipsligi bilan erishish mumkin edi va xalqimiz buni uddaladi. “Oltin o‘tda bilinadi” deganlaridek o‘zbeklar urush davrida o‘zlarining yuksak ma’naviyatini namoyon etdi. Frontda ham front ortida ham Vatan ozodligi uchun barcha imkoniyatlarini ishga solidi. Xalqimizning g‘alaba uchun qo‘shgan xissalari bilan bir qatorda urush joylaridan ko‘chirib keltirilganlarni o‘z og‘a-inilaridek qabul qilib, ularga qo‘llaridan kelgan barcha yordamni berganligi o‘zbeklarning ma’naviyat, insoniylik borasida dunyo xalqlari orasida yuqori pog‘onalarda turishini isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lafasov M. Jahon tarixi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –T.: Turon-Iqbol, 2016. –B.400
2. Usmonov Q. O‘bekiston tarixi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. -
3. Saidov A. Парк победи: философия мужества и стойкости.-T.: Toshkent, 2021.-B. 348
4. Lafasov M. Jahon tarixi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –T.: Turon-Iqbol, 2016. –B.400
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: O‘zbekiston, 1996. –B. 81

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMIDA KUTUBXONACHILIK ISHI

Abduraxmanova Nazokat Davlatboy qizi
Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Kutubxona axborot faoliyati yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalar bilan yangi mavzuni o‘rganishga kirishar ekan, oliy o‘quv yurti o‘qituvchisi oldida har doim savol tug‘iladi: metod qanday tanlanadi, qaysi didaktik materiallardan foydalanish kerak, o‘quv vazifalarini qaysi usullar bilan samarali yechish mumkin? Shu kabi muammolarga javob topish va talabalarga sifatli ta’lim berishni turli xil interfaol usullar orqali amalga oshirish, har bir mashg‘ulot turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o‘qituvchi o‘zining intellektual salohiyatini safarbar etish, ilg‘or pedagogik tajribadan foydalanishi va

nihoyat, metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozimligi ushbu maqolada yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kutubxonachilik, kitobxon, didaktik materiallar, ta'lim.

Аннотация: в данной статье, приступая к изучению новой темы со студентами, у преподавателя вуза всегда возникает вопрос: как выбрать метод, какие дидактические материалы следует использовать, какие методы позволяют эффективно решать учебные задачи? Чтобы найти ответы на подобные проблемы и обеспечить качественное образование обучающихся с помощью различных интерактивных методов, для достижения педагогических целей каждого вида обучения учителю необходимо мобилизовать свой интеллектуальный потенциал, использовать передовой педагогический опыт и, наконец, в данной статье поясняется, что выбор метод должен стать настоящим творческим актом.

Ключевые слова: библиотечное дело, читатель, дидактические материалы, образование.

Abstract: in this article, when starting to learn a new topic with students, the teacher of a higher educational institution always has a question: how to choose a method, which didactic materials should be used, which methods can effectively solve educational tasks ? To find answers to such problems and provide quality education to students through various interactive methods, to achieve the pedagogical goals of each type of training, the teacher must mobilize his intellectual potential, use advanced pedagogical experience, and finally, This article explains that choosing a method should become a real creative act.

Key words: librarianship, reader, didactic materials, education.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi davrda umumiy o'rta ta'lim maktablari kutubxonalarining faoliyati va vazifasi tubdan o'zgarib, ularning o'quv-tarbiya jarayoni metodik jihatdan ta`minlashdagi axamiyatini kuchaytirish, bunda yangi axborot texnologiyalari, elektron axborot tarqatuvchilarning rolini oshirish, shu tariqa kutubxonalarni kitobxonlarning axborot olish madaniyatini shakllantirish uchun xizmat qiladigan institutga aylantirish maksadi ko'zlandi, ushbu sohada yangilanishlar sari dadil kadamlar qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta`minlashni tashkil etish to'g'risida" gi PK -381 - sonli qarorida mamlakatimiz kutubxonachilik tizimini islox qilish hozirgi bosqichda eng muhim vazifa ekanligi davlat siyosati darajasida e`tirof etildi. Bugungi o'quvchilar va o'qituvchilarning kitob o'qish (mutolaa) madaniyatini oshirish maktab kutubxonalarida faoliyat ko'rsatayotgan kutubxonachi xodimlarning kasbiy

tayyorgarligini takomillashtirish va yangi kasbiy vazifalar asosida o‘z mahoratini oshirishigagina bog‘liq bo‘lmay, ko‘p jihatdan, pedagoglar, o‘quv fanlari o‘quvchilarining ular bilan bahamjihat ishlashlariga ham bog‘liq. Uqituvchilarning kasbiy bilim va mahoratini esa pedagogik va metodik adabiyotlardan xabardor bo‘lib borishga bo‘lgan ehtiyoj hamda ulardan foydalanish darajasi va sifati ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga bo‘lgan imkoniyatlar belgilab beradigan bo‘ldi. Jamiyatni axborotlashtirishning usuvchanligi, axborotlashtirish jarayonlarining global tavsifi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi – bu omillarning xammasi shaxsning aloxida madaniyati – axborot olish madaniyatini shakllantirish zarurligini shart kilib kuydi.

Tuplangan ish tajribalarini xisobga olganda, axborot olish madaniyatini shakllantirishning asosiy unsurlari kuyidagilardan iborat: kutubxonachilik-bibliografik bilimlar, kitob uqish madaniyati, shuningdek, kompyuter savodxonligi.

Kutubxonachilik-bibliografik bilimlarni yoyish va kitob o‘kish madaniyatini Yuksaltirish kuyidagilarda uz ifodasini topadi:

kerakli adabiyotlarni bibliografik kidirib topish va kitob bilan ishlash metodikasi buyicha yakka tartibdagi maslaxatlar;

~ idoralarga qarashli kutubxonalarning axborot tizimi, undan foydalanish koidalari xakida guruxli maslaxatlar, suhbatlar, ma`ruzalar;

~ kutubxona buylab sayoxat;

~ axborot resurslaridan foydalanish buyicha amaliy mashgulotlar utkazish;

~ kutubxonachilik darslari: foydalanilgan adabiyotlar ruyxatlarini rasmiylashirish metodikasiga urgatish yuzasidan mashgulotlar;

~ ishtirokchilarning kutubxonachilik-bibliografik savodxonlik daraja-sini, kutubxonaning ma`lumotnoma-bibliografik apparatidan, ma`lumotnoma adabiyotlardan, bibliografik kursatkichlar va shu kabilardan foydalanishga doir bilim, kunikma va malakalari saviyasini aniklaydigan kutubxonachi-likka oid anik bir mavzuga bagishlangan uyin musobakalar.

Kutubxonalarda kitobxonlarning kutubxonachilik-bibliografik savod-xonligi va kitob ukish madaniyatini egallaganlik saviyasiga baxo berishda kuyidagi bilim va malakalarni xisobga olish rusm tusiga kirgan:

~ turli xil darajadagi kutubxonalarning va axborot markazlarining imkoniyatlariga doir bilimlar, kutubxonaning ma`lumotnoma-bibliografik apparat, axborot nashrlarining ma`lumotnoma-kidirish apparatidan foydalanish malakalari;

~ ukish manbalarini tanlash, ongli ravishda mavzu ajratish xususiyatlariga doir bilimlar;

~ o‘qilganlar mazmunini o‘zlashtirish va qabul kilish malakalari (konspekt olish, kitob ukish rejalarini tuzish, annotatsiya yozish);

~ matbuot asarlari bilan avaylab muomala kilish malakasi.

Umumiy ta’lim muassasalarida ma`lumotnoma-bibliografik bilim va malakalar, shuningdek, kitob ukish madaniyatini tavsiflovchi bilim va malakalar umumiy o‘quv bilim va malakalari sifatida kursatilgan. Ularning shakllanishi pedagogikada o‘ta muhim vazifa sifatida o‘rganiladi, bu vazifani xal etish natijalari esa o‘quvchilar o‘quv faoliyatining mu- vaffakiyatini belgilab beradi. Umumiy o‘quv bilim va malakalari tarkibiga o‘quvchilarning mustakil ravishda chikishlar, ma`ruzalar, konspektlar tayyorlashlarini kiritish mumkin. Uz navbatida, bu narsa kutubxona imkoniyatlarini bilish, kerakli adabiyotlarni topa olish, reja tuzish, kuchirmalar olish, belgilangan shakldagi axborot kurinishida tayyorlangan matnni (insho, referat, takriz va boshqa.) rasmiylashtira bilishni talab etadi. Ayni umum o‘quv bilim va malakalari axborotga qayta ishlov berish bilan bogliq xar qanday faoliyatning: o‘quv, ilmiy biluv, mustakil bilim olish, bush vaqtni tashkil etish va boshqalarning asosi xisoblanadi. Ular o‘quvchilarga uz ustida ishlashni samarali amalga oshirish imkonini beradi. shu bilan birga bularsiz shaxs axborot olish madaniyatining qaror topishi mumkin emas.

Shaxsning axborot olish madaniyati – insonning umumiy madaniyati tarkibiy kismlaridan biri: axborot dunyokarashi majmuasi va an`anaviy xamda axborot texnologiyalaridan foydalangan xolda yakka tartibda axborot olish extiyojlarini kidirishga doir maqsadsari Yunaltirilgan mustakil faoliyatni ta`minlovchi bilim va malakalar tizimi.

Shaxsga axborot olish madaniyatini o‘rgatishning asosiy vazifalariga kuyidagilar kiradi:

- shaxsning axborot olish dunyokarashini shakllantirish, bu narsa axborotga, axborot zaxiralariga, axborot texnologiyasiga bo‘lgan umumlashgan karashlari tizimini ifoda etadi;

~ o‘quvchilarning o‘quv, kasb-kor yoki boshqa o‘quv-biluv faoliyatini, o‘z-o‘zini ta`minlashga doir bilim va malakalarni egallashlari; Axborot olish malakalarini xosil kilish axborot kidirishning an`anaviy va avtomatlashtirilgan (elektron) usullarini mustakil ravishda Yuritish malakalarini uzlashtirishni kuzda tutadi. Shaxsning axborot olish madaniyati darajasini sezilarli darajada oshirish maxsus axborot olish ta’limini, xususan, ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga o‘quvchilarda axborot bilan uz-uzini ta`minlash sohasidagi bilim va malakalarning bir butun tizimini shakllantirishni talab etadi. Bunga "Shaxsning axborot olish madaniyati asoslari" mashg‘ulotlarini majburiy kurs sifatida urgatish yo‘li bilan erishish mumkin. Kurs o‘quvchilarni axborotni umumilmiy, umumiy ta’lim va amaliy axamiyatga ega bo‘lgan extiyojlarini kondirish

maqsadida mustaqil aniqlash va foydalanish imkonini beradigan bilim, malaka va ko‘nikmalar olamiga olib kiradi.

Maktab kutubxonalari ham axborot olish madaniyatini o‘stirish uchun shart-sharoit yaratishi darkor.

Axborot olish madaniyati asoslarini o‘qitish metodikasini bilish xozirgi zamon kutubxonachisi kasbiy kompetentligining ajralmas tarkibiy qismidir.

Axborotdan foydalanuvchi yosh kitobxonlarni tayyorlash jarayonida kullaniladigan shakl va metodlar tizimida maxsus kutubxonachilik mashgulotlari, kutubxonachilik darslari eng faol foydalaniladigan ish usullari xisoblanadi. Bunday mashgulotlarni texnologik loyixalash – mutaxassisdan Yuksak kasb maxoratini va faoliyat samaradorligini talab etadigan zamonaviy jamiyatning ehtiyojidir.

O‘zbekistonda o‘sib kelayotgan yosh avlodning xalqimiz yaratgan madaniy meros va zamonaviy ilmiy, adabiy, madaniy sohaga oid axborotlarni qurbi etgancha to‘laroq o‘zlashtirishlarining muhim omili sifatida, ularda mutolaa madaniyatini shakllantirish, yoshlarni o‘qimishli fuqorolar etib tarbiyalash jamiyatning ma`naviy va iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy milliy muammoga aylanib qolayotgani xammaga ayon. Zero, hozirgi kunda bolalar va o‘smirlarda kitobxonlikni tarbiyalash, boshqacha aytganda, ularni axborot olishga o‘rgatish muammolari hal etilmay qolmaydi va bir butun chora-tadbirlar majmuasining qabul qilinishni talab etmoqda. Ana shunday chora-tadbirlar orasida, avvalo, kutubxonachi, pedagog, o‘quvchi va ota-onalarning axborot olish madaniyatini rivojlantirish, bu borada kutubxonachi bilan o‘qituvchi hamkorligini yo‘lga qo‘yishning zarurligi muhim pedagogik muammo sifatida e`tirof etilmoqda. Bunga bir qator ijtimoiy, psixologik, pedagogik va metodik omillar sabab bo‘lmoqda. Muammonint dolzarbligi hamda uning ijtimoiy omillari shundan iboratki, bugungi kunda kitobxon mugolaasi uchun qulay sharoit yaratib berishda qator kamchiliklar mavjud. Bosma mahsulotlarni nashr qilish, taratish, targ‘ib qilish, ularning o‘quvchilarga etib borishini ta`minlashda muayyan qiyinchiliklar ko‘zga tashlanadi. Kutubxonachi faqat axborotning elektron tashunchalarini ishga solib, o‘quv fanlari o‘qituvchilarining ko‘magi va hamkorligisiz o‘quv-tarbiya jarayoniga faol va samarali aralasha olmaydi. Shuningdek, pedagoglarning axborot olish madaniyati ham talab darajasida emas, o‘quv fani o‘qituvchilari bugungi kunda kitob do‘konlarida mavjud bo‘lgan metodik qo‘llanmalar bilan kifoyalangan holda faoliyat ko‘rsatadilar. Bu esa yaratilayotgan metodik adabiyotlarning bir qisminigina tashkil etadi. Ayrim qo‘llanmalar esa oz adadli nashrlar sanaladi. Metodik merosning katta qismi markaziy kutubxonalar fondida saqlanadi. Lekin o‘quvchilar muayyan masofa mavjudligi tufayli ko‘plab adabiyotlardan foydalana olmaydilar, ba`zilari esa mazkur adabiyotlardan mutlaqo bexabardirlar. Metodik merosning katta qismini markaziy

kutubxonalar fondida saqlanadi. O‘qituvchilarning o‘z ustida ishlash rejalarida ham bu jarayon o‘z ifodasini topmaydi. Bu ijtimoiy muammoning echimi axborot-resurs markazlarining faoliyati axborot olishning yangi texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq. Aynan shuning uchun ham, o‘quv jarayonlarini metodik ta`minlashda muhim o‘rin tutadigan bu jihat XXI asrning ibtidosida ta’lim jarayonini axborotlashtirishga katta e`tibor berilmoqda. Natijada kutubxonalar faoliyatiga komp’Yuter texnologiyalari jadal kirib kelmokda. Jumladan, yirik kutubxonalar qatorida maktab kutubxonalari ham axborot texnologiyalari tarmog‘iga, kompyuter kommunikatsiya tizimlarining barcha sohalariga kirib borish imkoniyatiga ega bo‘la boshladi. Kitob o‘qish ko‘ngil ochish emas, balki, shaxsni tarbiyalash,muallif qo‘ygan savollarni anglash,ularga javob izlash jarayonidir. Ma`lumki, yangi axborot texnologiyalari o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq, etilib, o‘quv-tarbiya jarayoni, metodik ta`minotiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Bugungi o‘quvda yangi axborot texnologiyalari o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib bormoqda. hamda o‘quv fanlari o‘qituvchilarining metodik ta`minotini takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shish imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Lekin kutubxonachi bilan o‘quv fanlari o‘qituvchilarining o‘zaro hamkorligi qanday shart va ko‘rinishda bo‘lishi, bu aloqadorlikning metod va usullari ishlab chiqilmagan. Shuningdek, ta’lim jarayonining zamonaviy talablari ta’limning metodik ta`minotida kutubxonachi bilan fan o‘qituvchilari hamkorligini tashkil etishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shuning uchun ham, o‘quv fani o‘qituvchilarining metodik ta`minoti masalasida katta qiyinchiliklarga duch kelinmokda. Bugungi kunda jadal tarzda kuchayib borayotgan axborotlardan xabardor bo‘lish, kerakli ma`lumotni ajratib olish va undan foydalanish mumkin bo‘lgan holatda qaydlash tezkorligini va sifati har bir shaxsning axborot olish madaniyati qay darajada shakllanayotganligiga bog‘liqdir. Bu hol, ayniqsa umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv jarayonini tashkil etish, xususan, uning metodik ta`minoti masalasiga alohida e`tibor karatishni taqazo etadi. Aynan shuning uchun ham, mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar umumiy o‘rta ta’lim muassasalari kutubxonalari faoliyatini ham zamonaviy talablar va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish, takomillashtirish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ymokda. Chunki ular ta’lim tizimi mazmunan va shaklan yangilanayotgan bir pallada xosil bo‘layotgan kuchli axborot oqimini kabul qilish, jamlash va o‘z o‘rnida ularni keng jamoatchilik, o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarga eng manzur yo‘llar bilan taqdim etishdek muhim vazifani bajarishlari lozim. Ushbu axborot manbalariga, birinchi galda, o‘quv adabiyotlari, me`yoriy xujjatlar, metodik ko‘llanmalar va bevosita ta’lim jarayoniga taalluqli bo‘lgan boshqa manbalar kiradi. Respublika maktab kutubxonalari tomonidan bolalarni kitobxonlikka o‘rgatish ijodiy faoliyatga jalb etish orqali o‘sib kelayotgan

yosh avlodni bilimli, ma`naviy barkamol shaxs etib shakllantirish borasida ma`lum ishlar bajarilmoqda. Jumladan, fanlar xaftaligi, turli sanalar munosabati bilan o‘gkaziladigan anjumanlar, tashkil etiladigan ko‘rgazmalar, yangi kitoblar taqdimoti kabi ommaviy tadbirlar o‘quvchi va o‘qituvchilar diqqatini ko‘prok jalb qilmokda.

Respublika miqiyosida bir necha yillardan buyon “Eng yaxshi maktab kutubxonasi”, “Eng yaxish kitobxon — kitoblar bilimdoni” ko‘rik-tanlovlari muntazam o‘tkazilib kelinmoqda. Bu maktab kutubxonalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirishda muhim vosita bo‘lmoqda, qorlaversa, o‘quvchilarning axborot olish madaniyatini oshirishga xizmat qilmokda. Lekin ta’lim sohasida kutubxonachilik faqatgina Yuqorida sanab o‘tilgan ishlar bilangina takomillashib, rivojlanib qolmaydi. Bu sohada o‘z echimini kutayotgan muammolar talaygina. Maktab kutubxonalarining kitob jamg‘armalarini to‘laqonli shakllantirish va ularni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, jarayonni avtomatlashtirish, shuningdek, maktab kutubxonalari xodimlarining nazariy va texnik malakalarini oshirish, ularda yangi axborot texnologiyalari bilan ishlash birikmalarini hosil etish bugungi kunda oldimizda turgan dolzarb vazifalardan xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta`minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli: Sotsiologiya fanlari doktori. Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtorefarati.-T.: 2005. –B. 23.

2. Mardiyev N. Milliy kutubxona elektron resurslari: yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatlari//Kutubxona.uz.-T.: Kamalak print. 2010. № 3. -B.19.

3. www.ziyonet.uz

4. Raisa Ratner. O‘quvchilarga kutubxona xizmati ko‘rsatishning yangi sifat darajasi// Kutubxona.uz. –T.: Aloqa print. 2009. № 2. –B. 36.

5. Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta`minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli: Sotsiologiya fanlari doktori. Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtorefarati.-T.: 2005.- B. 2

USMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI TARIXIDAN

Yo‘ldashev Safoxon A’loxon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada jahon tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan, 1299-yilda Usmon G‘oziy tomonidan asos solingan, va oradan 7 asrdan ko‘proq vaqt o‘tib, 1922-yilga kelibgina o‘z poyoniga yetgan, o‘z vaqtida Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimdan iborat bo‘lgan ulkan imperiya Usmoniylar (Usmonlilar, Ottomanlar, Porta) imperiyasi boshqaruv tizimi haqida malumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Usmon I, beklik, Murod I, sultonlik, Usmoniylar imperiyasi, sulton, Valide Sulton, Buyuk Vazir, Devon, Shayx ul-islom, beylarbey, sanjaq, yanicharlar, “Midxat konstitutsiyasi”.

ANNOTATION

In this article, Asia Minor, which left a unique mark in world history, was founded in 1299 by Osman Ghazi, and after more than 7 centuries, reached its end only by 1922, information about the administrative system of the Ottoman Empire (Ottomans, Ottomans, Porta), a huge empire consisting of Eastern Europe, the Middle East and North Africa, and partly the Caucasus and the Crimea.

Keywords: Osman I, beylik, Murad I, Sultanate, Ottoman Empire, Sultan, Valide Sultan, Grand Vizier, Devon, Sheikh ul-Islam, beylarbey, sanjak, janissaries, "Constitution of Midhat".

АННОТАЦИЯ

В данной статье Малая Азия, оставившая уникальный след в мировой истории, была основана Османом Гази в 1299 году и спустя более 7 веков достигла своего конца лишь к 1922 году. , сведения об административной системе Османской империи (османы , османы, Порта), огромная империя,

состоявшая из Восточной Европы, Ближнего Востока и Северной Африки, а также частично Кавказа и Крыма.

Ключевые слова: Осман I, Беклик, Мурад I, Султанат, Османская империя, Султан, Валиде Султан, Великий Визирь, Девон, Шейхуль-Ислам, Бейларбей, Санджак, Янычары, «Конституция Мидхата».

1299-yilda Usmon Gʻoziy tomonidan asos solingan Usmoniylar imperiyasi davomiyligi jihatdan rekordchilardan hisoblanadi va oradan 7 asrdan koʻproq vaqt oʻtib, 1922-yilga kelibgina oʻz poyoniga yetgan.

Usmonli turk imperiyasi (Yevropada Ottoman imperiyasi deb atalgan) – Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimdan iborat boʻlgan ulkan imperiya. Bu davlat dastlab Kichik Osiyoning Shimoliy-gʻarbiy qismi Eski shahar va Anatoliya hududida saljuqiylarning Koʻniya sultonligiga tobe kichik bir beklik (beylik) shaklida tashkil topgan. Bu beklikning ilk hukmdori Ertoʻgʻrul boʻlsa ham, uning oʻgʻli – Usmonbey davrida beklik mustaqil davlatga aylanganligi uchun uning nomi bilan Usmonli bekligi deb atalgan. Keyinchalik bu davlat Usmonli turklar imperiyasi nomini olib, oʻrta asrlarda jahonning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Usmon I va uning oʻgʻli Oʻrxon bek (bey) unvonini qabul qilgan boʻlsa, Oʻrxonning oʻgʻli Murod I davridan boshlab hukmdorlar sulton deb atalgan.

Usmonli imperiyasining davlat tashkiloti – ikki asosiy oʻlchovga ega tizim boʻlgan, harbiy ma'muriyat va fuqarolik ma'muriyatidan iborat. Sulton tizimdagi eng yuqori lavozim edi. Oliy ma'muriyatning muhim qismi sulton saroyi edi (XV asrda u 5 minggacha xizmatkor va ma'murga ega edi). Hovli tashqi (sulton) va ichki qismlarga (ayollar turar joyi) boʻlingan. Tashqi qismni amalda saroy vaziri boʻlgan va sulton mulkini tasarruf etuvchi boshqaruvchi (oq amaldorlarning boshligʻi) boshqargan. Ichki qism – sultonga yaqin boʻlgan qora amaldorlarning boshligʻi tomonidan boshqarilgan [1].

Usmonli sultoni, podshoh yoki “podshohlarning podshosi”, imperiyaning yagona regenti bo‘lib xizmat qilgan va u har doim ham to‘liq nazoratni amalga oshirmagan bo‘lsa ham, uning hukumatining mujassamligi deb hisoblangan. Sulton saroyida haram muhim rol o‘ynagan. Imperial Haram Usmonli sudining eng muhim vakolatlaridan biri edi. Uni Valide Sulton boshqargan. Ba'zida Valide Sulton davlat siyosatiga aralashgan. Haram ayollari bir muncha vaqt davomida “Ayollar sultonligi” deb nomlangan davrda davlatni samarali nazorat qilganlar.

Sulton oliy hukmdor bo‘lsa-da, sultonning siyosiy va ijro etuvchi hokimiyati turli davlat muassasalariga topshirilgan. Davlat siyosatida bir qancha maslahatchilar va vazirlar Devon nomi bilan tanilgan kengash atrofida to‘plandilar. Usmoniylar davlati hali ham Beylik bo‘lgan yillarda Devon qabila oqsoqollaridan iborat edi. Keyinchalik, uning tarkibiga harbiy ofitserlar va mahalliy elita (diniy va siyosiy maslahatchilar kabi) kiritilgan.

1320-yildan boshlab, sultonning ba'zi majburiyatlarini o‘z zimmasiga olishga Buyuk Vazir tayinlangan. Bu lavozim sulolaning boshidanoq ta’sis etilgan. Sulton nomidan ma’muriy, moliyaviy va harbiy ishlarni olib borgan. Buyuk Vazir, go‘yo sultonning davlat noibi hisoblangan (uning diniy masalalarga aloqasi yo‘q edi). U har doim Sulton huzuriga kirish imkoniga ega edi, uning ixtiyorida davlat muhri bor edi. Buyuk vazir amalda mustaqil davlat vakolatlariga ega edi (qonun chiqaruvchi vakolatlardan tashqari); mahalliy hukmdorlar, lashkarboshilar va qozilar unga itoat qilganlar. Sulton tomonidan tayinlangan Buyuk Vazir sultondan deyarli mustaqil bo‘lgan, lavozimidan ozod etish va ishdan bo‘shatish va nazorat qilish huquqiga ega bo‘lgan. XVI asr oxiridan boshlab sultonlar siyosatdan voz kechganlar va Buyuk Vazir amalda davlat rahbari bo‘lgan. Buyuk vazirning idorasi fransuzcha La Sublime Porte (“Brilliant darvoza”) deb atalgan.

Devon (Imperator kengashi): Bu kengash sultonga maslahat beradigan va davlat ishlari bo‘yicha qarorlar qabul qiladigan yuqori martabali amaldorlar va harbiy

boshliqlardan iborat bo‘lgan. Devon qonunchilik va boshqaruvda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Viloyat hokimlari (beklar va posholar): Imperiya viloyatlarga bo‘linib, har birida mahalliy boshqaruv, soliq yig‘ish va tartibni saqlash uchun mas’ul bo‘lgan bek yoki posho boshqarar edi. Ushbu markazlashtirilmagan yondashuv markaziy hokimiyatga sodiqlikni saqlab qolgan holda mahalliy boshqaruvga imkon berdi. Sud tizimi: Usmonlilar islom huquqi (shariat) va odat huquqidan (qonun) iborat ikki tomonlama huquqiy tizimni o‘rnatdilar. Qozilar (qozilar)

Buyuklardan tashqari, oliy martabali kishilar oddiy vazirlar edi (ularning soni yettitadan oshmagan), ularning vazifalari va tayinlanishi sulton tomonidan belgilangan. XVIII asrga kelib vazirlar (xuddi sadr o‘rinbosarlari hisoblangan) barqaror ixtisoslashgan vakolatlarga ega bo‘ldilar: vazir-kiyashi – sadr kotibi va ichki ishlar bo‘yicha vakolatli, reis-afendi – tashqi ishlarga, chaush-boshi – quyi ma’muriy-politsiya apparatiga, kapudan – flotga mas’ul bo‘lgan va hokazo. Buyuk vazir va uning yordamchilari buyuk imperator kengashi – Divanni tashkil qilishgan [2].

Davlat ishlarining ma’naviy-diniy qismini Shayx ul-islom boshqargan (bu lavozim 1424-yilda tashkil etilgan). Shayx ul-islom – sulton o‘zining ruhiy hokimiyatini ishonib topshirgan eng oliy musulmon ruhoniysidir. U “fatvo” berishga haqli edi, ya'ni hukumat hujjatining Qur'on va shariatga muvofiqligi haqida maxsus xulosa. Imperator kengashi Divon-i Humoyun maslahat organi vazifasini bajargan [3]. Shayx ul-islom butun ulamolar tabaqasini (qozilar, ilohiyot va huquqshunoslar – muftiylar, diniy maktablar o‘qituvchilari va boshqalarni ham o‘z ichiga olgan musulmon ruhoniylari) boshqargan. Shayx ul-islom nafaqat ma'muriy hokimiyatga, balki qonunchilik va adolatga ham ta'sir ko‘rsatgan, chunki sulton va hukumatning ko‘plab qonunlari va qarorlari fatvo shaklida uning qonuniy tasdiqlanishini olgan. Shayx ul-islom sulton tomonidan tayinlangan.

Usmoniylar tizimida uchta sud tizimi mavjud edi: biri musulmonlar uchun, biri musulmon bo‘lmaganlar uchun, va uchinchisi o‘zlarining diniy jamoalari ustidan

hukmronlik qilgan tayinlangan yahudiylar va nasroniylarni jalb qilgan holda va “savdo sudi”. Butun tizim yuqoridan ma'muriy Qonun, ya'ni qonunlar, islomgacha bo‘lgan davrda ishlab chiqilgan turkiy Yassa va Törega asoslangan tizim orqali tartibga solingan [4].

Usmonli imperiyasi dastlab XIV asr oxirida sulton tayinlagan hokimlar bilan belgilangan hududiy birliklar ma'nosida viloyatlarga bo‘lingan. Mamuriy bo‘linish eyaletlarga (viloyatlarga), ularga hokimlar – beylerbeylar (1590-yildan – valiylar) boshchilik qilgan. Beyelbeyning vazir unvoni va posho unvoni bor edi, shuning uchun eyaletlarni ko‘pincha pashalik deb atashgan. Vali Istanbuldan tayinlanib, ulug‘ vazirga bo‘ysundirildi. Har bir viloyatda yangichalar korpusi bor edi, ularning qo‘mondonlariham Istanbuldan tayinlangan.

Kichikroq ma’muriy birliklar “sanjaqlar” deb atalgan, boshchiligidagi harbiy boshliqlar – sanjaqbeylar. Dastlab ularning soni 50 tagacha bo‘lgan. Murod III davrida imperiya 21 eyyalet va 2500 ga yaqin sanjaqdan iborat edi. Sanjaqlar okruglarga (kazalar), okruglar volostlarga (naxiye) bo‘lingan [5].

Abdulhamid II (1876 – 1909) hukmronligi davrida Usmoniylar davlatining ichki va tashqi siyosatida, boshqaruv tizimida katta ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Abdulhamid II davrida Usmoniylar imperiyasi davlat boshqaruviga ko‘ra, birinchi Usmonli konstitutsiyasi “Kanun-i Esasi” e'lon qilingan va parlament yig‘ilgan. Ikki palatali parlament tuzilgan. 1876-yil 23-dekabrda qabul qilingan “Midxat konstitutsiyasi” Turkiyani konstitusion monarxiya deb e’lon qilgan. Lekin Konstitutsiya va parlament uzoqqa bormagan. Keyinchalik, 1908-yil 23-iyulda yangi Konstitutsiya qayta kuchga kirgan. Ikkinchi parlament chaqirilgan. Amalda Usmonlilar davlati respublika boshqaruvi sari qadam tashlagan [6].

Sultonning barcha fuqarolari ikki toifaga bo‘lingan: harbiy (askeriy) – professional askarlar, musulmon ruhoniylari, davlat amaldorlari; soliqqa tortiladigan

(raya) – barcha dindagi dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar. Birinchi toifa soliqdan ozod qilingan. Ikkinchi toifa – arab-musulmon an'analariga ko‘ra, soliq to‘laganlar [7].

Usmonli davlatining birinchi harbiy bo‘limi XIII asr oxirida Anadolu g‘arbiy qismida yashovchi qabilalardan Usmon I tomonidan tashkil qilingan qo‘shin edi. Harbiy tizim imperiyaning rivojlanishi bilan murakkab tashkilotga aylangan. Usmonli harbiylari yollash va ushlab turishning murakkab tizimi edi. Usmonli armiyasining asosiy korpusiga Yangiissariy, Sipaxi, Akinji va Mehteran kirgan. Usmonli armiyasi bir paytlar dunyodagi eng ilg‘or jangovar kuchlardan biri bo‘lib, birinchilardan bo‘lib mushaklar va to‘plardan foydalangan. Usmonli turklari Konstantinopol qamali paytida kalta, ammo keng zambaraklar bo‘lgan falaklardan foydalanishni boshladilar.

Usmonli otliq qo‘shinlari tez turkman va arab otlarida kamon va kalta qilichlardan foydalangan holda, og‘ir zirhga emas, balki yuqori tezlik va harakatchanlikka bog‘liq edi (zodagon poyga otining ajdodlari), va ko‘pincha mo‘g‘ullarnikiga o‘xshash taktikalarni qo‘llaganlar. Usmonli armiyasi XVII – XVIII asr boshlarida samarali jangovar kuch bo‘lib davom etgan [8].

O‘sha davrning yana bir e’tiborga molik voqeasi qo‘shin tarkibida sultonga yaqin bo‘lgan harbiy qismlarga kiritilgan askarlardan yanicharlar korpusining tashkil etilishi bo‘ldi. Chet elliklar tomonidan yanicharlar deb atalgan bu askarlar keyinchalik nasroniy oilalardan, xususan, Bolqon yarim orolidagi asirga olingan o‘g‘il bolalar orasidan jalb etila boshlandi. Devshirme tizimi nomi bilan mashhur bo‘lgan bu amaliyot Murod I (1362 – 1389) davrida joriy qilingan. Maqomi bo‘yicha sultonlarning qullari bo‘lgan yanichalar intizomli muntazam armiya bo‘lib, yaxshi tayyorgarlikdan o‘tgan va qurollangan piyoda askarlaridan iborat bo‘lib, jangovar qobiliyati bo‘yicha Lyudovik XIV davrida fransuz armiyasi paydo bo‘lgunga qadar Yevropadagi barcha o‘xshash qo‘shinlardan ustun edi.

Yanicharlar dastlabki yillarda juda qo‘rqinchli harbiy qism bo‘lgan, ammo G‘arbiy Yevropa o‘zining harbiy tashkil etish texnologiyasini modernizatsiya qilganidan so‘ng, ularni mavqeyi pasayib borgan. Asta-sekinlik bilan Usmonlilarning harbiy qudrati eskirgan, ammo yanicharlar o‘zlarining imtiyozlariga tahdid solinayotganini sezganlar va isyon ko‘targanlar. Sulton Mahmud II (1808 – 1839) 1826-yilda qo‘zg‘olonni bostirgan, rahbarlarni qatl qilgan va yirik tashkilotni tarqatib yuborgan [9]. Sulton Maxmud II Yanichar korpusini tugatgan va zamonaviy Usmonlilar armiyasini tashkil etgan. U ularni Nizom-i Cedid (Yangi tartib) deb nomlagan. Usmonli armiyasi, shuningdek, xorijiy mutaxassislarni yollagan va zobitlarini G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga o‘qishga yuborgan birinchi muassasa bo‘lgan [10]. Yanicharlar nasroniylar va boshqa ozchiliklardan yollangan bo‘lib, ularning bekor qilinishi Usmonli imperiyasini boshqarish uchun turk elitasining paydo bo‘lishiga imkon bergan.

Usmonli dengiz floti Yevropa qit'asida imperiya hududlarini kengaytirishga katta hissa qo‘shgan. U 1517-yilda Jazoir va Misrning Usmonli imperiyasiga qo‘shilishi bilan Shimoliy Afrikani zabt etishga kirishgan. 1821-yilda Yunoniston va 1830-yilda Jazoirni yo‘qotishdan boshlab, Usmonlilarning dengiz kuchlari va imperiyaning uzoq xorijdagi hududlari ustidan nazorat pasayib ketgan. Sulton Abdulaziz (1861 –1876) Angliya va Fransiyadan keyingi eng katta flotni qurib, kuchli Usmonli dengiz flotini tiklashga uringan. Angliyaning Barrou shahridagi kemasozlik zavodi 1886-yilda Usmonli imperiyasi uchun birinchi suvosti kemasini yasagan.

Biroq XVII asr oxiridan boshlab sultonlikning harbiy, siyosiy va iqtisodiy qudrati astasekin zaiflasha boshlagan. Birinchi jahon urushidan so‘ng Usmonlilar davlati mustaqilligi xavf ostida qolgan. Mustafo Kamol (keyinchalik “Otaturk” familiyasi berilgan) Turkiyaning Mustaqillik urushida g‘alaba qozongan (1919 – 1923).

Sultonlik 1922-yil 1-noyabrda tugatilgan va oxirgi sulton Mehmed VI (1918 – 1922) 1922-yil 17-noyabrda mamlakatni tark etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Османская империя / https://ru.wikipedia.org/wiki/ Османская_империя

2. Xronologik tartibda Usmonli imperiyasi tarixi. Usmonlilar imperiyasi Usmonlilar imperiyasi qachon paydo bo‘lgan? /https://goaravetisyan.ru/uz/istoriya osmanskoi-imperii-v-hronologicheskom-poryadke-osmanskaya-imperiya/

3. Usmonli imperiyasi. Asosiy narsa haqida qisqacha Usmonli imperiyasi qanday tashkil topgan / https://crazylike.ru/uz/osmanskaya-imperiya-korotko-o-glavnom-kak-obrazovalas.html

4.Османская империя / https://ru.wikipedia.org/wiki/ Османская_империя

5. Usmonli imperiyasi. Asosiy narsa haqida qisqacha Usmonli imperiyasi qanday tashkil topgan / https://crazylike.ru/uz/osmanskaya-imperiya-korotko-o-glavnom-kak-obrazovalas.html

6Османская империя / https://ru.wikipedia.org/wiki/ Османская_империя

7. Usmonli imperiyasi. Asosiy narsa haqida qisqacha Usmonli imperiyasi qanday tashkil topgan / https://crazylike.ru/uz/osmanskaya-imperiya-korotko-o-glavnom-kak-obrazovalas.html

8. Абдул-Азиз / https://ru.wikipedia.org/wiki/ Абдул-Азиз

9. Махмуд II / https://ru.wikipedia.org/wiki/ Махмуд_II

10.Османская империя / https://ru.wikipedia.org/wiki/ Османская_империя

SHAXSNING AXBOROT OLISH MADANIYATINI SHAKLANTIRISH, MAKTAB KUTUBXONASI ISHINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Abduraxmanova Nazokat Davlatboy qizi
Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Kutubxona axborot faoliyati yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxsning axborot olish madaniyatini shaklantirish, maktab kutubxonasi ishini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida batafsil ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, kutubxona, maktab modernizatsiya, kontseptsiya.

Аннотация: в данной статье представлена подробная информация об основных направлениях формирования информационно-ищущей культуры личности и совершенствования работы школьной библиотеки.

Ключевые слова: информация, библиотека, модернизация школы, концепция.

Abstract: this article provides detailed information on the main directions of forming the information-seeking culture of a person and improving the work of the school library.

Key words: information, library, school modernization, concept.

Respublikamizda ta’limni modernizatsiyalashtirilayotgan jarayonda jamiyatni tezkor axborotlashlashtirish, o`quv nashrlari bozorini barpo etish axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan uyg’un tarzda kechmokda. Bularniig barchasi umumiy o`rta ta`lim muassasalari kutubxonalarini maktab ta`lim jarayonining ajralmas qismi, chinakam axborot ta`minoti markazi, shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantiradigan bazasiga aylantirishni taqozo etadi. Ushbu vazifalarni bajarish yo`lida 2003 — 2004 o`quv yili Umumiy o`rta ta`lim muassasalari kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish o`quv yilida xalq ta`limi tizimida O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi tomonidan “Umumiy o`rta ta`lim muassasasi kutubxonasini rivojlantirish kontseptsiyasi” tasdiqlandi. Unga muvofiq ravishda umumiy o`rta ta`lim muassasasi kutubxonalarini rivojlantirishning asosiy g’oyasi, ta`lim sifatini oshirishda eng muhim omil bo`lgan yagona axborot muhitini vujudga keltirish bilan bog’liq yo`nalishlar va vazifalar mazmuni belgilab olindi. ”2003 — 2004 o`quv yilida umumiy o`rta ta`lim maktablari kutubxonalarini rivojlaitirish dasturi” doirasida umumiy o`rta ta`lim muassasalari kutubxonalarishshg me`yoriy-

xuquqiy bazasini takomillashtirish, ularni axborotlashtirish, ta`lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan ta`minlovchi markazlarga aylantirish borasida amaliy ishlar boshlandi. Bu ishlar, o`z navbatida muayyan ilmiy g'oyalar, kontseptsiyalar va nazariy ishlanmalar asosida tashkil etishni taqozo etdi hamda mazkur muammoning echimida quyidagilar diqqat markazida bo`lishi talab etiladi:

- Xalq ta`limi vazirligida O`zbekistondagi umumiy o`rta ta`limning barcha yo`nalishlarini kamrab oladigan yagona zamonaviy axborot muhitini yaratish.
- Zamonaviy axborot muhitini rivojlantirishi respublikamizda mavjud ilmiy-pedagogik saloxiyat hamda xorij tajribalaridan samarali foydalanish.
- Mazkur vazifalarni bajarish uchun elektron axborot resurslarini shakllantirish muammolarini hal etish.
- Internetdan foydalanish Yuzasidan kutubxonachilar va fan

o`qituvchilari orasida to`plangan tajribalarni samarali ommalashtirish.

Dunyo hamjamiyati o`rtasida rishtalarni mustahkamlayotgan virtual axborot olamiga uyg'unlashuvini ta`minlash. [1]

Bu omillar mamlakatimizda ta`lim-tarbiya sohasining rivojlanishi va zamonaviylashuviga yajobiy ta'sir ko`rsatdi. Shuni ta`kidlash kerakki, har bir ta`lim muassasasi global axborot tarmog'idan o`ziga zarur bo`lgan ma`lumotlarni olishi va qayta ishlab foydalanishi lozim. Ilgarilari moddiy ne`matlar jamg'arishga katta ahamiyat berilgan bo`lsa, endilikda axborotlar va bilimlar jamiyatining bosh resurslariga aylanib bormokda, ya`ni axborotga bo`lgan munosabat tubdan o`zgarib, u jamiyat va davlatni rivojlaktirkshking tabiiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarlari bilan bir qatorda turgan strategik resurs sifatida anglana boshlandi. Zamonaviy axborot resurslari, axborot tizimidagi xujjatlar okimining tavsif va xususiyatlari tobora o`zgarib bormoqda. Komp'Yuter texnikasi rivojlanishning bugungi darajasiga ko`ra, foiz shaklidagi axborot tashuvchilar elektron vositalarga o`tkazilmokda. Internet tarmog'idan foydalanshi imkoniyati axborotlarni mislsie tezligi er Yuzining istalgan kutasidan turib uzatish va qabul qilish imkonini bermoqda. Bugungi kunda kitob nashr qilish ko`lami kengaydi, jurnallar va gazetalar davriy nashrlar miqdori kun sayin ortib bormoqda, sifati yaxshilanmokda. Kompyuter texnikasi tufayli hayotimizga Internet kirib keldi, kitoblar ham, matbuot asarlari xam elektron variantda takdim etila boshlandi. Axborot oqimining bilan tanishish, qayd qilish, unga ishlov berish, undan foydalanishga bo`lgan munosabatni o`zgartirish, ya`ni axborot olish madaniyatini egallash zaruriyatini keltirib chiqardi. endi kutubxona deganda o`quvchilarning kitob o`qishi haqidagina emas, balki pedagoglar, o`quv fanlari o`qituvchilari, xalq ta`limi muassasalari xodimlari, boshqacha aytganda, aholining mutolaa madaniyati to`g'risida fikr yuritish odat tusiga aylandi. Jamiyatimiz beqiyos darajada axborotlashayotgan

shunday bir sharoitda kutubxonachining kasbiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash, kutubxonachilar, o`quvchilar va o`qituvchilarning axborot olish madaniyatini shakllantirish, bu borada ularniig o`zaro hamkorlik qilishlarini ta`minlash vazifasi yuzaga keldi, bu vazifa davlat buYurtmasiga aylandi. Axborotlashayotgan jamiyatda fuqorolarning axborot olish madaniyatini shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega. Mana shu jarayonnining samarali kechishida esa pedagoglar, o`quv fanlari o`qituvchilarning o`rni beqiyos. Uquvchining kitob ishi, pedagoglar va o`quv fanlari o`qituvchilarining nazariy, pedagogik va metodik adabietlar bklan o`z vaqtida tanishib borishlari, shu yo`l bilan o`e bilimlarini oshirishlari, dunyoqarashi, o`qimishli kishilarga xos jihatlarini tarbiyalashlari, kasb mahoratlarini Yuksaltirishlari bevosita axborot olish madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq.. Viloyat markazlari va viloyatlarning har bir tumanidagi tegishli maktablarda axborot-resurs markazlarining tashkil etilishi o`quvchilarga axborot olishning zamonaviy, avtomatlashgan shaklini takdim etadi.

Axborot-resurs markazlari - zamonaviy maktab kutubxonasi misolida axborot makoniniig quyi bo`g'ini sifatida shakllanishi lozim. Ushbu bo`g'in qanday bo`lishi lozimligi haqida fikr Yuritish alohida pedagogik masalaning echimiga olib keladi: chunki ayrim olimlar tomonidan axborot resurslarini parchalab Yuborish salbiy oibatlarga olib kelishi mumkin degan fikrlar ham ilgari surilmoqda. Tan olish lozimki, maktab kutubxonalarining amaldagi kitob fondi nafaqat o`kktuvchilar, balki o`quvchilarni kam kanoatlantira olmaydi. Aslida bugungi kundagi axborot makoni o`quv-tarbiya jarayonini axborot bilan muntazam ta`minlab turish imkonini berishi, shu bilan bir qatorda o`quvchilar va o`qituvchilarda axborot olish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. [2]

Maktab kutubxonasi, axborot resurs markazlari, tuman, shahar, viloyat markazlaridagi kutubxonalar, malaka oshirish institutlari, oliy o`quv Yurtlari kutubxonalari, yirik kutubxonalar fondi tadrijiy tarzda o`zaro farqlanadi. Lekin bu fondlar kelgusida Internet saytlari orqali yagona axborot makonini hosil qila oladi. Bunday yagona makon fond resurslarini yangilash va ularni o`z vaqtida boyitib turish, Internet saytlari orqali xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, axborot makonlari bilan bog'lanish esa mumkin qadar Er Yuzining axborot makonidan xabardor bo`lib borish imkonini beradi. Biroq bu imkoniyatdan mexanik tarzda foydalanish, uni ilmiy asoslangan axborot (shu jumladan o`quv axborotlari) olish manbai sifatida takdim etish maktab kutubxonalarining yagona modelini yaratishni taqozo etdi. Ana shu dastur asosida Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo, Toshkent, Samarkand viloyatlarida Osiyo Rivojlanish Banki bilan birgalikda ARM lar yaratilgan bo`lib, ularda keng ko`lamli tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Respublika ilmiy pedagogika

kutubxonasi ushbu markazlar faoliyatini metodik jihatdan tashkil etish va boshqarishi lozimligi bois muayyan nazariy-metodologik, tashkiliy-pedagogik tadbirlar, metodik ishlanmalar takdim etildi. Ushbu markazlar sinov maskanlari sifatida faoliyat ko`rsatib, o`quvchilar uchun mo`ljallangan fondni boyitish bilan birga nazariy, pedagogik va metodik adabiyotdar resurslariga ega blish asnosida kutubxonachi va pedagoglar, o`quv fanlari o`qituvchilar o`rtasidagi hamkorlikni yo`lga qo`ymoqda. Zero, kutubxona pedagogik va metodik adabiyotlar iste`molchilariga keng xizmat ko`rsata oladigan axborot-resurs markaziga aylanmas ekan, pedagoglar, o`qituvchilarning unga nisbatan ilgaridan shakllangan munosabatlarida jiddiy o`zgarishlarni kutish mumkin emas. Axborot olish madaniyati o`zi nima va u kutubxonachilar va kitobxonlardan qanday bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`lishni talab etadi? Pedagog va o`qituvchining axborot olish madaniyatini egallash yo`lida ko`rsatadigan o`quv-biluv faoliyati o`z- o`zidan izga tushib ketmaydi, albatta.

Ta`lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta`limning uzluksizligi va izchilligi, umumiy o`rta, shuningdek o`rta maxsus kasb- xunar ta`limining yo`nalishi, akademik litseyda yoki kasb-xunar kollejida o`qishni tanlashning ixtiyorlilig, ta`lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi, davlat ta`lim standartlari doirasida ta`lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv bilimli bo`lishni va iste`dodni rag'batlantirish, ta`lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Mazkur dasturning maqsadi-ta`lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, Yuksak ma`naviy va ahloqiy talablarda javob beruvchi Yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro`yobga chiqarish quyidagi vazifalarni xal etishni nazarda tutadi:

- «Ta`lim to`g'risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta`lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta`lim muassasalari hamda ta`lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta`lim tizimini yagona o`quv ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta`minlash;
- ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yaniglanish, rivojlangan demokratik xuquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini Yuqori malakali muraxassislar bilan ta`minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko`tarish;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat extiyojlaridan, fan,madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy Yutuqlaridan kelib chiqqan xolda qayta qurish;

- ta`lim oluvchilarning ma`naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma`rifiy ishlarning samaraliy shakillari hamda uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etish;
- ta`lim va kadrlar tayyorlash,ta`lim muassasalarini attestatsiyadan o`tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;
- yangi ijtimoiy –iqtisodiy sharoitlarda ta`limning talab qilinadigan darajasi va sifatini kadrlar tayyorlash tizimining kamalda faoliyat ko`rsatish va barqaror rivojlanishning kafolatlarini, ustivorligini ta`minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- ta`lim, fan va ishlab chiqarish samaraliy integratsiyalanuvni ta`minlash,tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nis'atan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buYurtmalarini shakillantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;
- uzluksiz ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimida bYujetdar tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- kadrlar tayyorlash soqasida o`zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.[3]

Maktab kutubxonalarini yangi tartibdagi extiyojlarini qondirish, ularning bo`sh vaqti va dam olishlarini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa Yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo`nalishlarda maktab kutubxonalarini tashkil etish mumkin.

Maktab kutubxonachilari tashkil etish va ularni faoliyat ko`rsatish tartibi qonun xujjatlarida belgilab qo`yiladi. Davlat oilada ta`lim olishga mustaqil ravishda ta`lim olishga ko`maklashadi. Bolalarni oilada o`qitish va mustaqil ravishda ta`lim olish tegishli ta`lim muassasalarining vakolatini davlat bo`yicha amalga oshiriladi. Ta`lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo`sinda yordam ko`rsatiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro`yobga chiqariladi. Jumladan:

Birinchi bosqich (1997-2001)-mavjud kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish va rivojlantirish uchun xuquqiy,kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur;

- «Ta`lim to`g'risida»gi Qonunga muvofiq ta`lim tizimi mazmunini tarkibiy qiyta qurish va tubdan yangilash;
- pedagogik va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

- ta`lim oluvchilarning Yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, ma`daniy va ma`rifiy –ahloqiy saviyasini sifatiga nisbatan qo`yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta`lim standlartlarini yaratish va joriy etish;
- o`quv uslubiy majmualarning hamda ta`lim jarayoni didaktik va axborot ta`minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;
- o`rta maxsus,kasb xunar ta`limi uchun zaruriy moddiy –texnika, o`quv uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;
- ta`lim va kadrlar tayyorlashga bYujetdan tashqari mablag'lar jalb etishning mexanizimlarini takmillashtirish, davlat ta`lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta`lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta`lim xizmati ko`rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujiga keltirish;
- Ta`lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo`lgan extiyojni monitoringni olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;
- xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytiri,xalqaro donorlik tashkilotlari va fontlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta`lim sohasiga chet investitsiyalarini jalb etish bo`yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro`yobga chiqarishning monitoringnini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-etti yoshdan maktabga qabul qilish ularning jismoniy va aqliy jihatidan rivojlanganligini e`tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o`quvchi o`rinlari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagogik kadrlar bilan ta`minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishning monitoringi asosida Milliy dasturni ro`yobga chiqarish,yo`nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) Milliy dasturni to`liq ro`yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini xisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb- xunar ta`imiga, shuningdek o`quvchilarning qobilyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta`limga to`liq amalga oshiriladi.Ta`lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedaog kadrlar bilan to`ldirish ta`minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslanga muhit vujudga keltiradi.

Ta`lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustaxkamlash davom ettiriladi, o`quv- tarbiya jarayoni Yuqori sifatli o`quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnogiyalar bilan ta`minlanadi. Uzluksiz ta`lim tizimini axborotlashtirish

amalga oshiriladi. Ta`lim xizmati ko`rsatish bozorini shakillantirish mexanizimlari to`liq ishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005-yil va undan keyingi yillar)- to`plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlashtizimii takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta`lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi. O`quv-tarbiya jarayoni yangi o`quv –uslubiy majmualar ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to`liq ta`minlanadi.

Milliy (Elita) oliy ta`lim muassasalarini qaror toptirish amalga oshiriladi. Kasb –xunar ta`limi muassasalarining mustaqil faoliyati Yuritish va o`zini –o`zi boshqirish shakillari mustaxkamlanadi.

Ta`lim jarayonini axborotlashtirish uzluksiz ta`lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to`liq qamrab olinadi.

Qonunda ko`rsatilishicha ta`lim muassasalarida, ayniqsa maktab kutubxonalari ish faoliyatida ham ishlarni isloh qilish, qonun talablari darajasida yo`lga qo`yish haqida ko`rsatmalar berilgan.

Maktab kutubxonasi maktabning ta`lim-tarbiya tizimini to`ldiruvchi muassasa sifatida faoliyat ko`rsatmoqqa o`ta ma`suliyatli va murakkab vazifasini amalga oshiradi. Maktab kutubxonasi o`sib kelayotgan yosh avlodni, bolalar va o`smirlarni yakka va kollektiv tartibdagi extiyojlarini qondirish, ularning bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazish, madaniy dam olishlarini yo`lga qo`yish, shuningdek fan asoslarini chuqurroq, yanada mukammalroq egallashlariga yordam berish maqsadida keng qamrovli faoliyat ko`rsatadi.

Milliy dasturni amalga oshirishning asosiy maqsadi ta`lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan batamom tozalash, Yuksakma`naviy va ahloqiy talablarga javob bera oladigan Yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

Bu ma`sulyatli vazifani xal qilishda maktab kutubxonalari g'oya dolzarb mavzularda targ'ibot tashviqot ishlarini amalga oshirishi darkor. Buning uchun kutubxonlarning jamg'armalarini talab darajasidan kelib chiqib qayta ko`rib chiqishlari, o`z jamg'armalarini zamonaviy adabiyotlar bilan to`ldirib borishlari, o`z milliy qadriyatlarimiz ularning asarlari, qarashlari o`gitlar, pand-nasixatlarni o`quvchiar ongiga quyishlari, turli uchrashuvlar, ommaviy tadbirlar, turli saboq beruvchi baxs-munozaralarini tashkil qilishlari, bu ishlarni amalga oshirishda maktabda nufuzli oilalar, jamoa tashkilotlarining vakillari ishtirokida va ular faoliyatlarini namunasi asosida tarbiyaviy ishlarni yo`lga qo`yishlari zurur. [4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘anieva D.A. Ta`lim maqsadlarini amalga oshrishda axborot-resurs markazlarining roli.-T.:A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009.-B. 17.

2. Sharifxo`jayev M.Sh. Istiqlol istiqbollari.-T.:O`zbekiston.2004. –B. 21.

3. G’aniyeva D.A. Tv`lim maqsadlarini amalga oshrishda axborot-resurs markazlarining roli.-T.:A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009.-B. 35.

4. www.ziyonet.uz

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЧЕРНОГО ДЕРЕВА В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ

Хусейн Турсунбаев – сын Хабибулло
tursunboevkhusaynjon@gmail.com
Студент Наманганского государственного университета, факультет естественных наук, химии (по специальностям)

Аннотация: В статье экстрагируется образец ежевики водой. Тонкослойную хроматографию проводили путем разделения на фракции по значениям Rf. Установлено, что растение содержит липиды, флавоновые агликоны и флавоновые гликозиды.

Ключевые слова: концентрирование, экстракция, тонкослойная хроматография, качественная реакция.

Abstract: In the article, a blackberry sample is extracted with water. Thin layer chromatography was carried out by dividing into fractions according to Rf values. It has been established that the plant contains lipids, flavone aglycones and flavone glycosides.

Key words: concentration, extraction, thin layer chromatography, qualitative reaction.

Annotatsiya: Maqolada qoratol darahti namunasini suvli ekstraktsiyasini olib fraksiyalarga bo'lish orqali yupqa qatlam xromatografiyasi o'tkazildi, Rf qiymatlariga ko'ra o'simlik tarkibida lipidlar, flavon aglikon va flavon glikozidlar borligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: qoratol, ekstraktsiya, yupqa qatlam xromatografiyasi, sifat reaksiya.

Salicaceae — семейство двудомных растений. Дерево, кустарник, иногда полукустарник. Растет в умеренном поясе Северного полушария, на полях, по берегам озер, на влажных землях. Встречаются 3 семейства ив, более 400 видов. В Средней Азии насчитывается 70 видов, 40 из которых являются местными. Было введено 30. Древесину используют для изготовления мебели, досок, спичек, строительства домов.

Род ив (Salix). Ива козья (Salix sangarica), ива водяная в дикой природе Узбекистана. (Salix nilhelmsiana), ива желтая (Salix euapiculata), ива Ольги (Salix Ольге Регель), ива голубая (Salix Coerullea), ива острая (Salix tenuijulis) растет в рощах по берегам реки. Ива амударьинская (Salix oxica), ива черная в городах, вдоль ручьев и прудов, в садах и парках. (Salix australior), ива белая (Salix alba), ива глянцевая (Salix micans), ива (Salix babylonica) мы можем увидеть, как сажают эти виды.

Блэкторн — самая крупная из североамериканских ив, иногда она бывает высокой. Более 18 метров. В долине реки Миссисипи некоторые черные дрозды достигают высоты более 30 метров. Мы также можем наблюдать, что оно увеличилось. Однако большинство из них довольно малы. Даже в виде куста. У них есть несколько основных органов. Там много чернокожих он хрупкий, поэтому ломается и погибает при сильном ветре.

Аспирин (ацетилсалициловая кислота) содержится в некоторых видах ив. Но, все типы содержат достаточное количество ацетилсалициловой кислоты, которая проявляет целебные свойства. Не встречается в количестве. Некоторые ивы: Ива белая (Salix alba), Ива пурпурная (Salix purpurea), Ива потрескавшаяся.

(Salix fragilis) и каратол (Salix nigra) обладают достаточными целебными свойствами. Есть информация о количестве ацетилсалициловой кислоты.

Согласно исследованиям, экстракт, приготовленный из коры ивы, обладает противомикробным действием. Активность подтверждена. Консервативным является 2,5-5,0% раствор этого экстракта. Было обнаружено наличие характеристик. Лучший лечебный эффект ежевики вещество, которое там показано, — ацетилсалициловая кислота, поэтому и болит голова, боль в мышцах или суставах, боль в яичниках во время и после менструации, ревматоидный артрит (РА), остеоартрит, подагра и заболевание позвоночника, называемое анкилозирующим спондилитом. Применяется при заболеваниях стоп. В частности, его широко применяют при нервных заболеваниях. Кору растения применяют для облегчения боли, лихорадки и воспаления. Если вы хотите приготовить экстракт и настойку из ивы, это займет немного больше времени. По этой причине, когда вы хотите приготовить настойку, как только появятся симптомы сыпи необходимо начать движение.

Количество экстрактивных веществ в черном перце необходимо определить и провести связанные с ними качественные реакции и идентифицировать их в дальнейшем будет. Для выполнения этих задач эксперименты планировались и проводились в соответствии с различными процедурами. В качестве исходного сырья для экспериментов использовалась ежевика, разбросанная в районе Мингбулок. Образцы, включая кору, ствол и кроны ежевики, были собраны в марте-апреле, высушены при комнатной температуре и измельчены. 15-20 грамм образцов помещались в специальную емкость и замачивались в воде на определенное время. Был извлечен во время Водный экстракт расположен в порядке возрастания полярности растворителей. Разделяли на гексановую, этилацетатную и бутанольную фракции. Из этих фракций методом тонкослойной хроматографии охарактеризованы липиды, флавоноидные агликоны и флавоноидные гликозиды появились пятна. Согласно

предварительным выводам, для каждого из пятен были рассчитаны значения RF. По полученным значениям RF было видно, что имеется 2 липида и 3 агликона.

Использованная литература:

1. Х. Х. Холматов, У. А. Ахмедов . Фармакогнозия. Т. Абу Али Ибн Сино нашриёти 1997 й. 429 б.
2. В.А. Акмурзина и др От анализа липидов к липидомике . Вестник МИТХТ, 2012, Т. 7, № 6
3. С. П. Макаренко и др. Жирнокислотный состав липидов эндосперма и зародыша Семян Pinus sibirica и Pinus sylvestris . Физиология растений. – 2008. – Т. 55, № 4. – С. 535–540. 11.

KIMYO FANINI O‘QITISHDA LABAROTORIYA MASHG‘ULOTLARINING O‘RNI VA EHTIYOTKORLIK CHORALARI

Tursunboyev Xusayn Xabibullo o‘g‘li
Namangan davlat universiteti talabasi
tursunboyevxusaynjon@gmail.com

Annotatsiya: Kimyo fanini o’qitishda laboratoriya mashg’ulotlari juda muhim ahamiyatga ega. Ular talabalarga nazariy bilimlarni amalda qo’llash imkoniyatini beradi va ilmiy jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Laboratoriya mashg’ulotlari talabalarning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularga mustaqil tadqiqot olib borish ko’nikmalarini beradi va jamoaviy ish ko’nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, laboratoriya mashg’ulotlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish talab etiladi, chunki kimyo fanida ishlatiladigan reaktivlar va uskunalar ba’zi holatlarda xavf tug’dirishi mumkin. Bular haqida maqolada batafsil to‘xtalamiz.

Kalit so'zlar: kimyoviy reaksiyalar, moddalar xossalari, reaktivlar, kimyoviy to'kilish.

Аннотация: Лабораторные занятия имеют большое значение в преподавании химии. Они дают студентам возможность применять теоретические знания на практике и помогают лучше понять научные процессы. Лабораторное обучение развивает у студентов аналитическое мышление, дает навыки проведения самостоятельных исследований, формирует навыки работы в команде. При этом необходимо соблюдать правила безопасности в лабораторной деятельности, поскольку реактивы и оборудование, используемые в химии, в некоторых случаях могут быть опасными. О них мы подробно поговорим в статье.

Ключевые слова: химические реакции, свойства веществ, реагенты, химический разлив.

Abstract: Laboratory exercises are very important in teaching chemistry. They give students the opportunity to apply theoretical knowledge in practice and help to better understand scientific processes. Laboratory training develops students' analytical thinking skills, gives them the skills to conduct independent research, and forms teamwork skills. At the same time, it is necessary to observe safety rules in laboratory activities, because the reagents and equipment used in chemistry can be dangerous in some cases. We will discuss these in detail in the article.

Key words: chemical reactions, substance properties, reactants, chemical spill.

Laboratoriya mashg'ulotlarining o'rni

Amaliy tajribalar: Laboratoriya mashg'ulotlari talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bu tajribalar talabalarni kimyoviy reaksiyalar, moddalar xossalari va usullari bilan tanishtiradi. Amaliy tajribalar orqali talabalarda nazariy bilimlarning mustahkamlanishi ta'minlanadi.

Tadqiqot ko'nikmalari: Laboratoriya mashg'ulotlari talabalarga ilmiy tadqiqotlar olib borish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish ko'nikmalarini o'rgatadi.

Bu ko'nikmalar kelajakda ilmiy faoliyatda katta ahamiyatga ega. Tadqiqot ko'nikmalari talabalarning ilmiy savodxonligini oshiradi va ularni kelajakda mustaqil tadqiqotlar olib borishga tayyorlaydi.

Jamoaviy ish: Laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar birgalikda ishlash, mas'uliyatni bo'lishish va o'zaro yordam berish orqali jamoa bo'lib ishlashni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar kelajakda professional faoliyatda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Muammolarni hal qilish: Laboratoriya mashg'ulotlari talabalarga muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar o'zlari duch kelgan muammolarni mustaqil ravishda hal qilishni o'rganadilar va bu jarayonda ilmiy yondashuvni qo'llaydilar.

Ehtiyotkorlik choralari

Xavfsizlik qoidalari: Har bir laboratoriya mashg'ulotidan oldin talabalarga xavfsizlik qoidalari eslatilishi kerak. Bu qoidalarga himoya kiyimlarini kiyish, ko'zoynak va qo'lqoplar taqish kiradi. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish laboratoriyada baxtsiz hodisalarning oldini olishga yordam beradi.

Reaktivlar bilan ishlash: Reaktivlar bilan ishlashda ehtiyot bo'lish zarur. Har bir reaktivning xavfsizlik ma'lumotlari bilan tanishish va ularga rioya qilish lozim. Reaktivlarni noto'g'ri aralashtirish yoki foydalanish baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Talabalarga reaktivlar bilan ishlashda maxsus usullar va texnikalarni o'rgatish zarur.

Uskunalar: Laboratoriya uskunalarini to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak. Uskunalarning ishlash prinsiplarini bilish va ularga rioya qilish zararli hodisalar oldini oladi. Uskunalarni noto'g'ri ishlatish jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun talabalarga uskunalarni xavfsiz ishlatish qoidalarini o'rgatish muhimdir.

Favqulodda vaziyatlar: Laboratoriyada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar uchun tayyor turish muhimdir. Yong'in, kimyoviy to'kilish yoki boshqa

hodisalar yuz berganda darhol tegishli choralarni ko'rish kerak. Talabalarga favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilishni o'rgatish zarur.

Xulosa qiladigan bo'lsak kimyo fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish va jamoaviy ishni o'rgatish kabi ko'plab afzalliklarni beradi. Shu bilan birga, laboratoriya mashg'ulotlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish talabalarning salomatligi va xavfsizligini ta'minlash uchun muhimdir. Ehtiyotkorlik choralari va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish orqali laboratoriya mashg'ulotlarini samarali va xavfsiz o'tkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, T.L., LeMay, H.E., Bursten, B.E., Murphy, C.J., Woodward, P.M. (2018). Chemistry: The Central Science. Pearson.

2. Hill, J.W., Petrucci, R.H., McCreary, T.W., Perry, S.S. (2017). General Chemistry. Pearson.

3. Silberberg, M.S. (2015). Chemistry: The Molecular Nature of Matter and Change. McGraw-Hill Education.

4. American Chemical Society (ACS). (2023). Safety in Academic Chemistry Laboratories. Washington, D.C.

5. Zare, R.N. (2007). Laboratory Safety for Chemistry Students. John Wiley & Sons, Inc.

DINAMO SPORT TASHKILOTI VA UNING SOVET ITTIFOQIDA TUTGAN O‘RNI

Jabborov Asadbek Ibrohim o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti magistri
E-mail: jabbarovasadbek4@gmail.com
Tel: +998883701511

Annotatsiya: Ushbu maqolada Dinamo sport tashkilotining vujudga kelishi, rivojlanishi va faoliyati, O‘zbekistonda, xususan Namangan viloyatidagi faoliyati haqida so‘z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о создании, развитии и деятельности спортивной организации «Динамо», ее деятельности в Узбекистане, в частности в Наманганской области.

Abstract: This article talks about the creation, development and activity of the Dinamo sports organization, its activities in Uzbekistan, in particular in the Namangan region.

Kalit so‘zlar: Dinamo, “Mexnat”, Sovet Ittifoqi, KGB, “Dinamo Moskva”, “Spartak”, Kontinental Xokkey legasi.

Ключевые слова: Динамо, «Мехнат», Советский Союз, КГБ, «Динамо Москва», «Спартак», Континентальная хоккейная лига.

Key words: Dynamo, "Mekhnat", Soviet Union, KGB, "Dynamo Moscow", "Spartak", Kontinental Hockey League.

Sovet ittifoqida sport sohasi alohida etiborga loyiq yo‘nalishlardan biri hisoblangan. Fuqarolarni sport bilan muntazam shug‘ullanishi, ularning jismoniy chiniqqanligi davlat tomonidan nazorat qilingan. Bu uchun Butunittifoq hududida sport tashkilotlalri, turli sport uyshmalari tashkil etilgan va faoliyat yuritgan. Bunday sport tashkilotlariga misol qilib “Spartak”, “Dinamo”, “Mexnat” kabi sport jamiyatlari va tashkilotlarini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu sport tashkilotlari fuqarolarnining turli qatlamlarini o‘z ichiga kiritishi bilan bir-biridan farqlangan. Shunday sport tashkilotlaridan biri sifatida “Dinamo” sport tashkiloti hisoblanadi. “Dinamo” sport tashkiloti Sovet ittifoqida alohida o‘rin tutgan. “Dinamo” sport tashkiloti 1923-yil 17-mayda tashkil etilgan. O‘sha paytda u sovet xavfsizlik xizmati xodimlari, jumladan, politsiya va boshqa huquq-tartibot idoralari xodimlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va

sportni rivojlantirishga qaratilgan jamiyat sifatida tuzilgan edi. Yillar davomida u keng doirada sport taurlari va sport klublarini qamrab olgan. Sovet Ittifoqidagi eng taniqli va tan olingan sport tashkilotlaridan biriga aylandi va postsovet Rossiyasi va boshqa mamlakatlarda rivojlanishda davom etgan. “Dinamo” sport tashkiloti Sovet Ittifoqidagi eng taniqli va tarixiy ahamiyatga ega sport jamiyatlaridan biri bo‘lib u hozirda Rossiyada va boshqa sovet ittifoqi tarkibiga kirgan davlatlarda turli shakllarda va nomlarda mavjud. “Dinamo” so‘zining ma’nosi esa yunonchadan tarjima qilinganda “kuch” yoki “qudrat” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tashkilotning kuch, hayotiylik va atletikaga e'tiborini aks ettirish uchun tanlangan. Dinamo sportning turli doiralari bilan shug‘ullangan. Bu esa turli yo‘nalishdagi sportchilarga bir xil bayroq ostida musobaqalashish imkonini bergan. Tashkilot huquq-tartibot idoralari xodimlari uchun foydali bo‘lgan yengil atletikaga e'tiborni qaratgan bo‘lsada, vaqt o‘tishi bilan turli sport turlariga o‘z eshiklarini ochgan. Keyingi davrda Dinamo futbol, muzli xokkey, basketbol, yengil atletika, kurash, qilichbozlik, gandbol, sambo va dzyudo kabi sport turlarni o‘z tarkibiga olgan. Taniqli klublaridan biri “Dinamo Moskva” hisoblanadi. Ushbu klub Sovet Oliy Ligasining ko‘plab chempionliklarida, SSSR kubogi va Yevropa musobaqalarida bir qator e'tiborga molik o‘yinlarni o‘tkazgan. Dinamo sport tashkiloti keyinchalik ko‘p tarmoqli sport klubi hisoblanganligi uchun sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha musobaqalarda ishtirok etgan. Bularga misol tariqasida “Dinamo Moskva” sport tashkilotining xokkey jamoasini (ushbu tashkilot ko‘p sport turlarini o‘z ichiga olgan va birlashtiruvchi tashkilot bo‘lgan) keltirish mumkin. Ushbu jamoa Sovet Ittifoqida ko‘plab chempionatlarda g‘alaba qozongan va Zamonaviy KHL (Kontinental Xokkey Ligasi) ga yaxshi natijalar bilan o‘tgan. Ushbu tashkilot bir vaqtining o‘zida sovet xalqining milliy g‘ururi ramzi hisoblangan. Dinamo klublari tarixan sovet madaniyatida kuch va sportni ifodalagan. Ularning sportchilari ayniqsa xalqaro musobaqalar paytida ramziy shaxslarga aylanishgan. “Dinamo” yengil atletikadan tashqari aholi orasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, tadbirlar, o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari va musobaqalarni tashkil etishda hal qiluvchi rol

o‘ynagan. Butun sovet davrida “Dinamo” nafaqat sport tashkiloti, balki davlatning o‘z mafkurasini targ‘ib qilish quroli ham bo‘lgan. Bu "sovet vatanparvarligi" ni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Xalqaro sportda esa davlatning qudratini namoyish etishda muhim rol o‘ynagan. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Dinamo klublariga katta mablag‘ ajratilgan. Bu ularga sport inshootlarini qurish, murabbiylarni tayyorlash va yollash hamda sportchilarni tayyorlash imkonini bergan. Ushbu qo‘llab-quvvatlash ularning ko‘plab sport turlari va sohalari bo‘yicha muvaffaqiyatga erishishiga sezilarli hissa qo‘shgan. Shu bilan bir qatorda SSSR nomini dunyoga yoygan sportchilan yetishib chiqqan. Bularga Valentina Karpovani misol qilib keltirish mumkin. "Dinamo" sport klubining ayollar atletikasining taniqli vakili hisoblanib, yengil atletikaga qo‘shgan hissasi bilan tanilgan. Viktor Saneyev esa afsonaviy uch hatlab sakrash bo‘yicha ko‘p karra Olimpiya chempioni va jahon rekordchisi unvoniga sazovor bo‘lgan. “Dinamo” klublari yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va yosh iste’dodlarni jalb etish maqsadida jamoat ishlari va yoshlar sporti dasturlarida o‘z qobiliyatlarini qayta kashf etishga e’tibor qaratgan.

Sovet davrida “Dinamo” har bir respublikada, jumladan, O‘zbekistonda ham yirik sport tashkilotlaridan biri bo‘lgan. Yengil atletikaga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi bois mintaqadagi ko‘plab iqtidorli sportchilarning “Dinamo” bayrog‘i ostida musobaqalarda qatnashishini hamda “Dinamo” inshootlarida mashg‘ulotlar olib borishini rag‘batlantirgan. Dinamo tashkilotining asosiy rollaridan biri sport infratuzilmasini rivojlantirish edi. SSSRda, jumladan, O‘zbekistonda ham qurilgan ko‘plab sport inshootlari aholi miqyosida turli sport turlarini ommalashtirishda muhim rol o‘ynagan. Dinamo klublari ko‘pincha sport orqali madaniy almashinuv uchun ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Ular O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar, jumladan, Rossiya sportchilari va murabbiylari o‘rtasida bilim, ko‘nikma va mashg‘ulotlar metodologiyasini almashishda yordam beradigan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. O‘zbekistondagi "Dinamo"ga qarashli klublar ko‘pincha futbolga yo‘naltirilgan yoshlar akademiyalarini boshqarib brogan. Ular quyi bosqichdagi yosh

iqtidorlarga qaratilgan. Ushbu akademiyalar kelajakdagi professional o‘yinchilarni tarbiyalash maqsadida texnik ko‘nikmalar, taktik tushunish va fitnessni rivojlantirishga asosiy etiborini qaratgan. Dinamoning ko‘plab klublari O‘zbekiston Superligasi kabi mahalliy ligalarda ishtirok etib, o‘yinchilarning raqobatini yuqori darajalariga ko‘tarilishlari uchun yo‘l yaratdi. Dinamo klublarining mavjudligi mahalliy o‘yinchilarni tarixiy ahamiyatga ega tashkilotning bir qismi bo‘lishga intilishga undagan. Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekiston, jumladan, Namangan kabi viloyatlarida ham sportning turli turlari bo‘yicha bir qancha taniqli sportchilar yetishib chiqdi. Namanganlik sportchilar yirik shaharlardagi arboblar kabi keng tan olinmasa-da, ba'zi shaxslar bu davrda o‘z sport turlariga katta hissa qo‘shgan. Bunday sportchilar qatoriga quyidagi sportchilarni qo‘shsish mumkin: Viktor Suxarev Namanganlik ko‘zga ko‘ringan polvonlardan biri sifatida tanilgan Viktor Suxarev sho‘rolar davrida erkin kurash bilan shug‘ullangan. Respublika musobaqalarida muvaffaqiyat qozonib, O‘zbekistonda kurash an’analarining mustahkamlanishiga hissa qo‘shgan. Dzyudo bo‘yicha mohir sportchi Rashid Qurbonov Respublika miqyosidagi turli musobaqalarda O‘zbekiston sharafini himoya qilib, gilamdagi mahorati bilan e’tirofga sazovor bo‘lgan. Uning yutuqlari dzyudoning vodiyda, xususan, Namanganda nufuzini oshirishga xizmat qilgan. Tursunbek Juvnov Sovet Ittifoqining sport dasturlari davomida e'tirof etilgan taniqli bokschi edi. Uning hissasi Namanganda boksga e'tibor qaratishga yordam berdi va mintaqadagi bokschilar avlodini ilhomlantirgan. Gulnora Aitova yengil atletika bo‘yicha iqtidorli sportchi sifatida yengil atletika musobaqalarida qatnashgan. O‘z faoliyati davomida u Namangan viloyati sharafini himoya qilib, turli sport yo‘nalishlarida O‘zbekiston obro‘siga hissa qo‘shgan. Futbolda ko‘zga ko‘ringan Vladimir Vasilev Namanganda mahalliy jamoalarda o‘ynagan va undan oldin yirik klublar vakili bo‘lgan. Uning milliy darajadagi futbol bilan shug‘ullanishi shahardagi kelajak avlod futbolchilarini ilhomlantirishga yordam berdi. Rinat G‘ofurov sovet davrida boks bilan shug‘ullanib, mahalliy musobaqalarda nom qozongan. U qattiq tayyorgarlik ko‘rdi va milliy chempionat davralarida

qatnashib, o‘zbek boksining obro‘sini oshirishga hissa qo‘shdi. Namanganlik mohir polvon Anvar Nasibov kurashning turli yo‘nalishlari bo‘yicha bellashib, Sovet Ittifoqi chempionatlarida qatnashgan. U o‘zining texnik mahorati va raqobatbardosh ruhi bilan mashhur edi. Shuhrat Hoshimov Yengil atletika, xususan, yengil atletika musobaqalarida erishgan yutuqlari bilan tanilgan sportchi edi. Shuhrat bir qancha nufuzli musobaqalarda Namangan shahri sharafini himoya qilib, viloyatda yengil atletikaning yuksalishiga hissa qo‘shgan. Dilorom Ahmedova Gimnastika bo‘yicha iqtidorli sportchi Dilorom astoydil shug‘ullanib, turli musobaqalarda o‘z viloyati sharafini himoya qildi. Uning intizomi va yutuqlari O‘zbekistonda badiiy gimnastikaning keng ommalashishiga xizmat qildi.

Naqmanganda sportning turli sohalari keng taraqqiy etsada kurashning ustunligi uning ko‘p qismi shug‘ullanishi bilan ajralib turgan. Kurash O‘zbekistonda chuqur ildizlarga ega bo‘lib, Sovet Ittifoqi davrida namanganlik ko‘plab mahalliy sportchilar ushbu sport turi bilan shug‘ullangan. Sport ko‘pincha ko‘pchilik uchun g‘urur nuqtasi sifatida qaralgan va sportchilar mashg‘ulotlar va musobaqalarda katta yordam olganlar. Namanganda mahalliy futbol klublarining tashkil etilishi kuchli futbol madaniyatini yuksaltirishga yordam berdi. Shaharda mashg‘ulotlar va o‘yinlar o‘tkazish uchun sharoitlar mavjud bo‘lib, bu yosh sportchilarni futbol bilan professional tarzda shug‘ullanishga undagan. Erkaklar sporti bilan bir qatorda Sovet davrida ayollarning sport bilan shug‘ullanishi ortib bordi va bu tendentsiyaga Namangan viloyati ham hissa qo‘shdi. Gimnastika, yengil atletika va jamoaviy sport turlari bo‘yicha sportchi qizlar ko‘proq e’tirof va qo‘llab-quvvatlana boshladi. Sovet Ittifoqi davridagi sport merosi bugungi kunda ham Namangan sport madaniyatiga ta'sir ko‘rsatmoqda. Ko‘plab mahalliy sportchilar O‘zbekiston nomidan xalqaro musobaqalarda, jumladan, Olimpiada va jahon chempionatlarida qatnashishdi. Shu vaqt mobaynida qo‘yilgan poydevor sportni jamiyat hayotining muhim qismi sifatida targ‘ib etishda davom etmoqda, yoshlarning faolligini va turli yo‘nalishlarda rivojlanishini rag‘batlantirgan. Sovet davridagi sport musobaqalari Namangan va

O‘zbekistonning sport manzarasini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Ular sportchilarga o‘z mahoratlarini namoyish etishlari, tajriba orttirishlari va yuqori natijalarga erishishlari uchun platformalar taqdim etdilar. Ushbu musobaqalar merosi mintaqa sport madaniyatiga ta'sir ko‘rsatishda davom etib, turli sport yo‘nalishlarida doimiy ishtirok etish va yuqori natijalarga erishishga yordam berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. James Riordan. Sport in Soviet Society.–London.–bet-215.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Voluntary Sports Societies of the Soviet Union. Qaraldi 27.09.2024, 9:39.
3. Great Soviet Encyclopedia (in Russian) (3rd ed.). Moscow: Sovetskaya Enciklopediya. 1972. vol. 8, p. 372
4. Boris Khavin (1979). All about Olympic Games (in Russian) (2nd ed.). Moscow: Fizkultura i sport.
5. Yearbook of the Great Soviet Encyclopedia (in Russian). Moscow: Sovetskaya Enciklopediya. 1983. p. 17
6. “Stalion haqiqati” gazetasi, 1948-yil 23-aprel, Viloyat jismoniy tarbiya va sport ishlari qo‘mitasi raisi X. Habibullayev.
7. “Stalion haqiqati” gazetasi, 1947-yil 1-aprel M. Ashurov maqolasi.

RANGTASVIRDA VITRAJ USLUBI VA UNING RIVOJLANISHI

Mamadjonova Shahlo To`ychiboy qizi
Namangan davlat universiteti, Pedogogika fakulteti
San`atshunoslik kafedrasi, rangtasvir (dastgohli) yo‘nalishi 4- bosqich talabasi
Tel:+998934058873
mamadjonovashahlo30@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san’atda vitraj uslubining rivojlanishi haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, mahobatli rangtasvirning vitraj turini egallash va uning o‘ziga xosliklari haqida qayd etilgan. Rangtasvirda vitraj uslubi va uning rivojlanishi bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: rangtasvir, vitraj, mozaika, arxitektura, kompozitsiya, bezak, san’at.

Mahobatli rangtasvirning mozaika, devoriy rasm, sgraffito va vitraj turlarini egallash fan dasturining keyingi bosqichlarida asta - sekin devoriy rasmlar turlarining plastik va zamonaviy uslublari bilan tanishtirilib boriladi. O’quv jarayoni ashyoda ishlash, kompozitsiya fani bilan uzviy bog‘langan tarzda davom ettirilib, shuningdek, mahobatli rangtasvir kompozitsiyasining arxitektura binosidagi faoliyati, uni bino bilan uyg‘unlashtirishni, devorda bajarish bosqichlarini o‘rgatadi.

Arxitekturani bezashda mahobatli rangtasvirning bir necha turlari mavjud: ya’ni, alfresko, rim mozaikasi, florensiya mozaikasi, sgraffito, rangli suvoqli inkmstatsiya, rangli levkas, klassik vitraj, alyuminiy armaturali vitraj, yelimlangan vitraj, betonli vitraj, quyma vitraj, mozaikali vitraj, kundal, silikatli rang-tasvir va boshqalar sanaladi. Bu turlardan foydalanishda binoning vazifasiga, joylashishiga, muhitiga qarab belgilanishi mumkin. Har doim arxitektor bilan hamkorlikda arxitektura va mahobatli rangtasvir sintezi, uyg‘unlik muvaffaqiyatli amalga oshirilsa yaxshi natijalarga erishish mumkin. Mahobatli bezak san’atining eng go‘zal va rangdorli turlaridan biri vitrajdir. Arxitektura binolarining derazasi o‘rnida bajarilib, bino intererini va ekster'erini bezashda keng qo‘llaniladi.

Har qanday vitraj, agar u yuqori professional yuksak darajada bajarilgan bo‘lsa, albatta umuminsoniy ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham vitraj san’at, madaniyat saroylariga va jamoat binolariga belgilangan loyihalashtiriladi. Vitrajning bajarilishiga qarab qo‘rg‘oshin sim armaturali, latun sim armaturali, alyuminiy sim armaturali, sement - beton bog‘lovchi, yelimlangan vitraj turlariga bo‘linishi mumkin.

Vitraj binoning intererini va ekster’erini bezatib turadi. Bundan tashqari zamonaviy arxitektura qurilishida mahobatli bezak vitraji oddiy deraza ko‘rinishida ham bo‘ladi. U injener -konstruktorlik va qurilish ashyolarida rangli shishaning badiiy estetik tomonlaridan foydalanib yaratiladi. Umuman vitraj deganda rangli oynalar tushunilsa ham, vitraj tarixida ba’zi hollarda slyuda, yupqa marmar parchalari, farfor va bugungi kunda sintetik smolalardan foydalanilganini bilamiz.

Gotika arxitekturasida, soborlarda vitrajdan keng qo‘llaniladi. Zamonaviy binolarda ham u bezak va tasviriy san’at turi sifatida o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Tabiiy ashyolar - yog‘och, tosh, metall kabilardan tashqari inson tomonidan yaratilgan sun’iy oyna shisha va oynaga rang berish amalda keng foydalanilib kelinmoqda. Zamonaviy shishasozlik sanoati xohlagan rangli oyna ishlab chiqarish sharoitiga ega. Shundan kelib chiqadiki, vitraj ishlab chiqarish ham keng ko‘nikmalarga ega.

Vitraj oyna shisha o‘ta yorqin rangli bo‘lishidan tashqari, rangsiz ham bo‘lishi mumkin. Rangli shishalar yordamida arxitekturada istalgan koloritli vitraj asari yaratish ko‘nikmasiga ega. U tasviriy yoki naqshinkor bezak ko‘rinishida tasvir aks etgan shisha bo‘lakchalari o‘zaro bir - biri bilan ulangan san’at asaridir. Deraza yordamida tushayotgan quyosh nuri ta’siriga mo‘ljallanib o‘ziga xos kamalak ranglarda jilolanib binoga alohida chiroy beradi. Alohida shaklda kesilgan yoki har xil yo‘llar bilan tayyorlangan shisha bo‘lakchalari bir - biri bilan o‘zaro qo‘rg‘oshin, latun, alyuminiy simlari, sintetik elim, sement beton yordamida yig‘ilib biriktiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir bosqich yuqori mahoratni talab qiladi. Vitraj san’atining ko‘nikmalari ijodkor, izlanuvchan rassomlar uchun kengdir. Vitraj rangli oyna shishalaridan o‘tgan quyosh yoki sun’iy yorug‘lik nuri kuchi ta’sirida bo‘lib, o‘ta dekorativ bezak asari sifatida paydo bo‘ladi. Yorug‘lik nurining yorqinligi yoki pastligi vitraj asarini har xil ko‘rinishlariga sabab bo‘ladi. Shuningdek, vitraj arxitektura binosi derazalarining quyoshga nisbatan joylashuvi ham yuqori ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudayberganov R.A. «Tasviriy san’atda rang». - T.: TDSI bosmoxonasi, 2004.

2. N.Normatov. «Ranglar yurtiga yo‘l». -T.: «Noshir» nashr, 2013.

3. Xudayberganov R.A. «Rangshunoslik asoslari». - T.: G‘.G‘ulom. nashr. 2006.

4. Xudayberganov R.A. «Kompozitsiya». - T.: «Sharq», 2007.

5. Vinner A.V. "Monumental-dekorativ rangtasvirning materiallari va texnikasi". -M .: "San'at",2003. 1-JILD, 3-SON (YO‘PA).

TASVIRIY SAN’AT JANRLARIDA BADIIY IJOD ASOSLARINING O‘ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

Mamadjonova Shahlo To‘ychiboy qizi
Namangan davlat universiteti
rangtasvir(dastgohli) yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Tasviriy san`atni o‘rganish har bir talaba uchun juda muhimdir. Uning natijasida insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o‘tmishda qolgan yoki yaratilayotgan taraqqiyot qonuniyatlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. San'atning turlari juda ko‘p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san'at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog‘oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. San'atkor real borliqni o‘z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko‘chirmaydi.

Kalitso`zlari: Natyurmort, animalistik, manzara, me’morlik, amaliy san’at, tasivriy san’at, grafika, haykaltaroshlik, avangard, impressionizm, kubizm, mazayika, vitraj, rangtasvir, rel’ef, barel’ef, gorel’ef, freska.

San’at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo‘ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi., go‘zallik hissi ortdi, voqelikdagi go‘zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi: aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san’at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Tasviriy san`atni o‘rganish har bir talaba uchun juda muhimdir.

Uning natijasida insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o‘tmishda qolgan yoki yaratilayotgan taraqqiyot qonuniyatlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. San'atning turlari juda ko‘p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san'at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog‘oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. San'atkor real borliqni o‘z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko‘chirmaydi. Aks holda, u yaratgan san'at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo‘lmay qoladi. San'atkorning vazifasi oliyroqdir. U hayotda mavjud bo‘lgan voqea va hodisalarni tasvirlar ekan, u tasvir orqali o‘zini hayajonlantirgan biron bir fikrni ilgari suradi, ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishga intiladi, ularga o‘z munosabatini bildiradi, hukmini chiqaradi. Masalan, rassom biror shaxsning rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o‘ziga o‘xshatishga intilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasviri orqali, avvalo, o‘zining fikr va tuyg‘ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Tomoshabin rasmda tasvirlangan olijanob, mard kishilar obrazini ko‘rib, undan g‘ururlanadi (chunki rassom ham g‘ururlanib shu rasmni ishlagan) unga taqlid qiladi, undan o‘rnak oladi. Agar asarda pastkash, razil odam tasvlrlangan bo‘lsa, tomoshabin undan nafratlanadi. Tomoshabin o‘zlda shunday xususiyatlar bo‘lmasligi uchun harakat qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari san'atning boshqa turlari - adabiyot, kino, teatr va hokazolar kabi insondagi ajoyib fazilat borliqni bilish, uni o‘rganish va sirlarini ochishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga faol ta’sir ko‘rsatadi. Tasviriy san'at asarlari ko‘rish uchun mo‘ljallangan san’atdir. Uni ko‘rish orqaligina zavq olish mumkin. Kuy va ashulaning go‘zalligini so‘z bilan ta'riflab bo‘lmaganidek, rassomning asarlarini ham so‘z bilan to‘liq ta'riflash mumkin emas. Tasviriy san'at asarlarini to‘g‘ri tushunishga oid ba'zi misollarga murojat qilaylik.

A.Plastovning «Peshin» deb nomlangan asarining sujeti juda sodda, hatto bir qarashda san'atga loyiq mavzu yo‘qqa ham o‘xshaydi. Shu asarni so‘z bilan ta'riflansa, eshitgan odam, xo‘sh, nima bo‘pti, deyishi va unga beparvo bo‘lishi ham mumkin. Lekin asarga qaragan tomoshabin hech qachon shunday demaydi. Ko‘rinishdan sodda bo‘lib tuyulgan bu asar uni o‘ylashga majbur qiladi, tevarak-atrofning naqadar go‘zal ekanligini his qilishga, shu go‘zallikdan hayajonlanishga da'vat etadi. Haqiqatdan ham beg‘ubor, kuchga to‘lgan sokin tabiat, zilol suv, kishi qalbiga orom beruvchi quyoshning mayin nurida qanchadan-qancha go‘zallik, latofat bor. Rassom shulardan quvonadi, shu quvonchini boshqalar bilan o‘rtoqlashishga intiladi. Bunga erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari kompozitsiya, kolorit, yorug‘, soya, chiziq, faktura imkoniyatlaridan foydalanadi. Rassom shunday kompozitsiya tanlaganki, bu voqeaning qachon va qayerda sodir bo‘layotganini ochib, rasm ishlangan yuza (xolst) - ning bir butun bo‘lib ko‘rinishini ta'minlagan. Shu rasmdan kompozitsiyadan biron-bir detalni, aytaylik, mototsiklni olib tashlaylik yoki obrazlarning birortasining o‘rnini o‘zgartirib ko‘raylik-chi, u holda tasvirning ta'sir kuchi yo‘qoladi. Kompozitsiya yaxlitligi buziladi. Rassom yorug‘ va soya imkoniyatlaridan foydalanib, voqea sodir bo‘layotgan vaqtni ko‘rsatishga erishgan. Suv ichayotganlarning tagiga tushayotgan soya voqeaning peshinda, quyoshning tikkaga kelgan paytida sodir bo‘layotganligidan dalolat beradi. Asar uchun tanlangan rang gammasi - kolorit yozning issiq jaziramasini his etishga xizmat qilgan. Quyosh nuriga to‘yingan sarg‘ish-yashil ko‘katlar hamda qizil mototsikl, quyosh nurida toblanib, qizargan odamlar gavdasining ranglari birgalikda butun asarning rang gammasini tashkil etadi. Shuning uchun ham asarga qaraganimizda shu issiq rang gamma hisobiga biz yozning jazirama issig‘ini his qilgandek bo‘lamiz. Kompozitsiya markazidagi buloq suvining salqini shu jaziramani yorib atrofga salqin havo taratayotgandek va hayotning o‘ziga xos kurashini tomoshabinga ko‘z-ko‘z qilayotgandek tuyuladi.Rassom asar yaratganda chiziqlarning emotsional imkoniyatlaridan ham foydalanadi. Ma'lumki, har xil chiziq kishida har xil taassurot qoldiradi. Silliq ehiziqlar ko‘p hollarda sokinlik, xotirjamlik baxsh etsa,

aksincha pala-partish, har tomonga yo‘nalgan egriziqlar notinchlik, hayajon tug‘diradi.Tasviriy san'at asarlarini kuzatganda undagi har bir obrazning psixologik kechinmalari qanday yechilganligini, ularning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olish ham muhim o‘rinni egallaydi. Shuning uchun rassom ishlatgan ranglar jilosiga ham, bo‘layotgan voqeaning kompozitsiyasiga ham, rassomning ishlash mahoratiga, tanlangan har bir shakl xarakteriga, umumiy rang gammasi-koloritiga, yuzaning xarakteriga (masalan, rassom ishlagan holat yuzasining silliqligi yoki g‘adir-budurligiga) ham e'tibor berish, ular nima uchun shunday olinganiga javob topishga harakat qilish zarur. Shundagina tasviriy san'at asarlarining asl mohiyatini tushunib yetish va ularni to‘g‘ri tahlil qila olishni o‘rganish mumkin.Tasviriy san’at tur va janrlari. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. Tasviriy san'at deyilganda, grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san'ati tushuniladi. Me'morchilik va dekorativ-amaliy san'at asarlari ham qisman tasviriy san'atga kiradi. Haqiqatda esa ularda mavjud borliq tasvirlanmaydi. Lekin bu san'at asarlarida ijodkorning maqsadi, fikri, his-tuyg‘ulari, orzu-istaklari o‘z aksini topadi. Demak, ijodkorning dunyoqarashida ma'lum miqdorda davr ruhi va mazmuni o‘z aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, me'morchilik va amaliy san'at buyumlari ham tasviriy san'at sifatida qaraladi. Tasviriy san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o‘xshashliklari bor. Lekin shu bilan birga, ulardan har birining o‘ziga xos tasviriy uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o‘rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator tur va janrlarga bo‘linadi.

Grafika. Hozirgi zamon san'atining keng tarqalgan turlaridan biri grafika san'atidir. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan su`rat, mavzulik kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasm, illyustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san'ati asarlari hajm jihatdan uncha katta bo‘lmay, ko‘p hollarda qog‘ozga ishlanadi. Grafikaning xarakterli tomonlaridan biri, uning seriyali qilib ishlanishi, ya'ni voqeani

bir necha qog‘ozda tasvirlanishidir. Bunday seriyali rasmlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ma'lum bir mazmunni ochib beradi. Grafika san'ati hozir javob san'atdir. Masalan, rassomlik asarlari yaratilishi uchun uzoq vaqt kerak bo‘ladi (axir ba'zi rassomchilik asarlarini yaratish uchun 15-20 yil kerak bo‘lgan), grafika san'ati asarlarida esa shu bugun sodir bo‘lgan voqea shu bugunoq o‘z aksini topishi mumkin. Grafika san'atida rang ishlatilmaydi, ishlatilsa ham, uning xarakterli tomonini belgilamaydi. Masalan, D. Moorning «Sen ko‘ngilli bo‘lib yozildingmi?», Toidzening «Ona Vatan chaqiradi!» degan plakatlarida odam kiyimi ochiq qizil rangda ko‘rsatilgan. Aslida hayotda bunday voqeani uchratish qiyin. Rassom rang orqali o‘z asarining yanada ta'sirchan bo‘lishiga erishgan. Kishi shu plakat oldidan o‘tib borar ekan, qizil rang uning diqqatini o‘ziga tortadi. Natijada u to‘xtab plakat mazmunini chuqurroq bilib oladi. Rus san'atining atoqli vakillari Mayakovskiy, Cheremnixlar qizil rangdan davlatning ramzi sifatida foydalanganlar, ular rus kishilarining rasmini qizil rang bilan, hokimiyatning dushmanlarini esa qora va ko‘k ranglarda ishlab, o‘z g‘oyalarini tez va oson tushunarli bo‘lishiga erishganlar. Grafika asarlari o‘zining bajaradigan funksiyasi va mazmuniga qarab, dastgoh grafikasi, kitob va gazeta-jurnal grafikasi, plakat hamda amaliy grafika san'atiga bo‘linadi. Dastgoh grafika san'atiga mustaqil xarakterga ega bo‘lgan, o‘zida tugal fikrni anglata oladigan, yangi g‘oyalarni ilgari suradigan grafika asarlariga aytiladi. Dastgoh grafika san'ati asarlarining ko‘rinishlaridan biri estampdir. Dastgoh grafikasi asarlarida biron-bir mazmun, odamlarning xatti-harakati, tabiat ko‘rinishi yoritiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasi turi dastgoh grafikasidan farq qilib, bevosita kitob va jurnal mazmuni bilan bog‘liq bo‘ladi hamda ularning maqsad va mazmunini to‘laroq ochib berish uchun xizmat qiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasiga rassom tomonidan kitob va gazetalarga chizilgan turli rasmlar, bezaklar, harf kompozitsiyalari kiradi. Kitob hamda gazeta-jurnal grafikasining ko‘rinishlaridan biri bu illustratsiyalardir. Illustratsiya biron-bir badiiy asar bilan bog‘liq bo‘lib, shu asarda tasvirlangan biron-bir lavhaning tasvirini aks ettiradigan rasmga aytiladi. Rassom biror-bir hikoya yoki kitobga illustratsiya

ishlashga o‘tishdan oldin uni sinchiklab o‘qiydi, matnda tasvirlangan har bir obrazning xarakterini, voqea sodir bo‘layotgan joyning xususiyatlarini o‘rganib chiqadi, shundan keyingina unga illustratsiya ishlashga kirishadi.Illustratsiyaning maqsadi badiiy asar mazmunining chuqurroq ochilishiga va ta'sirliroq bo‘lishiga yordam berishdir. Illustratsiyalar turli ko‘rinishda bo‘ladi. Illustratsiyalarda badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxs portreti, shuningdek, muhim voqealar tasvirlanishi mumkin. Kitob va gazeta-jurnal grafikasining ko‘rinishlaridan yana biri karikatura bo‘lib, u tanqidiy xarakterga ega bo‘ladi hamda o‘zida satira va yumorni mujassamlashtiradi.Karikaturachi rassom hayotda mavjud bo‘lgan voqea va hodisalarni o‘z asariga mavzu qilib oladi va uning ba'zi tomonlarini bo‘rttirish orqali rasmlarning qiziq va kulgili bo‘lishiga erishadi. Bu orqali rassom hayotdagi kamchiliklarni tanqid qiladi, jamiyat taraqqiyotiga xalaqit beradigan, zamonamiz, kishilarimiz sha'niga dog‘ bo‘lgan hodisa, illat va marazlarni qoralaydi, mavjud bo‘lgan nodonlik, xurofot, tekinxo‘rlik, poraxo‘rlik, davlat mulkiga xiyohat qiluvchilarning basharalarini ochib tashlaydi. Grafika san'atining turlaridan yana biri plakatdir. Plakat lotincha so‘zdan oUngan bo‘lib, «e'lon», «guvohnoma» degan ma'noni anglatadi. Grafika san'atining nihoyatda keng tarqalgan turlaridan biri amaliy grafikadir. Turli xildagi etiketkalar, konvert yuzasiga ishlanadigan bezak rasmlar, tabriknoma, telegrammalar, markalar grafikaning shu turiga mansub.

Amaliy grafika shunchaki bezak uchun ishlatiladigan san'at emas, u ham san'atning boshqa turlari kabi ijtimoiy hayotda faol qatnashadi, jamiyatda bo‘layotgan yangiliklar bilan ommani tanishtiradi. Hukumatning g‘oyalarini xalq orasida targ‘ib qiladi.Grafika san'ati eng demokratik san'atdir. U goh plakat tarzida, goh gugurt qutichasining yuzasiga ishlangan tasvir tariqasida, goh gazeta sahifalaridagi surat tarzida o‘lkaning uzoq chekkalariga kirib boradi, o‘sha yerlarda ma'rifat tarqatadi, kishilarni bo‘layotgan yangiliklar bilan tanishtiradi. Shuning uchun ham grafika san'ati katta g‘oyaviy-siyosiy ahamiyatga egadir.

Rangtasvir. Tasviriy san'atning ikkinchi bir turi rangtasvir san'nlidir. Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari shu

san'at turiga kiradi. Rangtasvirda rang muhim o‘rinni egallaydi. Agar grafika san'atida rang shunchaki yordamchi vazifani o‘tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ko‘rinarli obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini, hajmini ko‘rsatadi. Rangtasvir asarlari yana o‘zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko‘ra monumental, dastgoh va dekorativ turlarga bo‘linadi.

Monumental rangtasvir me'morlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar odatda uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi tufayli obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasvirga, mayda detallardan iloji boricha kamroq foydalanishga-harakat qilinadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to‘g‘risida real tasavvur berishi kerak. Monumental rangtasvir me'morchilikda ma'lum miqdorda bezash vazifasini ham o‘taydi, shuning uchun ham uni ba'zan monumental - dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi. Monumental rangtasvir asarlari bajarilish usuliga qarab o‘z navbatida bir necha turlarga bo‘linadi. Bular: freska, mozaika va pannodir. Freska odatda devorga to‘g‘ridan to‘g‘ri suvoq ustiga ishlanadi. Bolonka rangli tosh, shisha, bo‘yalgan oyna, sirli sopol parchalaridan ishlanadi. Devorga ishlangan surat yoki o‘yma naqshlar ba'zan har xil shakldagi ramkalar (to‘rtburchak, kvadrat, beshburchak va hokazolar) bilan chegaralangan bo‘ladi - bu pannodir. Panno dastlab alohida yuzada (xolstda, ganchda, yog‘ochda) ishlanib olinib bitgandan so‘ng devorlarda qoldirilgan maxsus o‘rinlarga o‘rnatiladi. Lekin mazmun jihatdan mustaqil xarakterga ega bo‘lishi ham mumkin. Ba'zi hollarda panno dastlab xolstga moy bo‘yoq bilan ishlanib, keyin kerak bo‘lgan o‘ringa yopishtiriladi.Dekorativ rangtasvir me'morchilik va amaliy san'at bilan bog‘liq bo‘lib, asosan bezash vazifasini o‘taydi. Dekorativ rang tasvirga naqqoshlik san'ati, teatr, kino dekoratsiyalari va qisman monumental rassomchilik ham kiradi. Dekorativ rangtasvir monumental rangtasvir singari to‘g‘ridan to‘g‘ri devorga ishlanishi, panno, mozayka tarzida bo‘lishi mumkin. Dastgoh rangtasvir hozirgi zamon tasviriy san'atida

yetakchi o‘rinni egallovchi san'at turlaridan biri hisoblanadi. Odatda u maxsus ramkaga tortilgan matolar ustiga ishlanadi. Bunday rasmlar molbert deb ataladigan alohida dastgohda ishlangani uchun ham ularni dastgohli rasmlar deyiladi.Bunday rassomchilik asarlari jamiyatda bo‘layotgan muhim voqea va hodisalarni aks ettirishidan tashqari, shaxsning individual xislatlarini, kechinmalari, his-tuyg‘ularini to‘liq ko‘rsatish imkoniyatiga egadir. Shuningdek, ularda tabiatda bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘zining yorqin ifodasini topadi. Dastgoh rangtasvir monumental va dekorativ rang tasvirdan farqli o‘laroq, mustaqil ahamiyatga ega, u boshqa biron san'atga bog‘lanmaydi. Dastgoh rassomligi birmuncha kech paydo bo‘lgan bo‘lib, uning rivojlanish davri Uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi. Hozirgi kunda esa tasviriy san'at turlari ichida uning keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda rassomchilikning bu turi asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo‘lgan. Hozirgi kunda u o‘zbek tasviriy san'atida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.Haykaltaroshlik. Tasviriy san'atning turlaridan biri bo‘lgan haykaltaroshlik asarlarida borliq hajmga ega bo‘lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Stol ustiga qo‘yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o‘rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning devorlariga, tanga, belgi, medal kabi buyumlarning yuzasidagi bo‘rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko‘rinishi hisoblanadi. Haykaltaroshlik asarlari o‘z ishlatilish o‘rni, bajaradigan vazifasi va tayyorlanish usuliga qarab turlicha nomlanadi. Ular odatda dumaloq va qabariq ko‘rinishda bo‘ladi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko‘rish mumkin bo‘lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo‘rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko‘riladi. Qabariq haykallar relef deb ataladi. «Relef» fransuzcha so‘z bo‘lib, yuza degan ma'noni bildiradi. Relefli haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda, kenglik, tabiat manzaralarining ko‘rinishi ham aks etadi. Shuning uchun bunday releflarni ba'zan perspektivali relef deb ham yuritiladi. Relef, o‘z navbatida, ikki turga bo‘linadi. Ulardan biri barelef, ikkinchi turi esa gorelefdir. «Barelef» ham fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, past relef degan ma'noni anglatadi. Barelefda haykal tekis yuzaga

nisbatan biroz qabargan (bo‘rtgan) bo‘lib, lekin uning qalinligi o‘zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshmasligi lozim. Masalan, tanga, znachok, medal yuzalaridagi bo‘rtma tasvirlar bunga misol bo‘la oladi. Bareleflar ayniqsa, amaliy san'at buyumlarini, me'morchilik binolarini bezashda juda qo‘l keladi. Qadimgi Gretsiyada hayotda ishlatiladigan turli xil buyumlar, masalan, ko‘za, guidon, qurol-aslahalarning yuzalarini bareleflar bilan bezaganlar, binolarning devorlariga turli hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo‘rtma tasvirlar ishlaganlar. «Gorelef» so‘zi ham fransuzcha bo‘lib, baland relef ma'nosini bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzadan sezilarli darajada bo‘rtib chiqqan bo‘lib, uning qalinligi o‘zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshgan bo‘lishi shart.

Relefning yana bir turi bor. Bu o‘yib ishlangan releflardir. Bunday releflar odatda tekis yuzaga o‘yib ishlanadi. Yuzani o‘yish natijasida hosil bo‘ladigan yorug‘-soya o‘yini hisobiga tasvir ko‘zga tashlanadi. Bunday releflarning imkoniyati chegaralangan bo‘lganidan ular amalda juda kam qo‘llaniladi. Bunday releflar qadimgi Misrda ishlatilgan. Haykaltaroshlik asarlari uchun turli xildagi materiallar ishlatiladi. Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulug‘vorlik, adabiylik baxsh etsa, aksincha, marmarda ishlangan haykallar nozik, ko‘rkam ko‘rinadi. Shuning uchun haykallar o‘zining mazmuni va o‘rnatiladigan joyiga qarab, har xil materiallardan ishlanadi. Haykaltaroshlik materiallari ko‘p. Bu plastilin, loy, yog‘och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatli metallar-oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo‘llanadi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Xalq haykaltaroshligida haykallarni bo‘yash hollari uchraydi. Bunga O‘zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo‘la oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o‘zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo‘linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida

o‘rnatilgan yirik o‘lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o‘zida katta mazmunni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo‘ladi. Lekin shu bilan birga, u bevosita muhit bilan bog‘liq bo‘lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg‘unlikda bo‘lishi lozim. Bu unga yanada ulug‘vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga xos bo‘lgan xysusiyatlardan biri bu tasvirlanayotgan qahramonlarning ko‘tarinki ruhdagi tasviridir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo‘ljallangan bo‘lganligi sababli ular uzoq turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza va hokazolardan ishlanadi. Bulardan tashqari, monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi sababli ularda katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda detallar, kiyimdagi buklanishlar, undagi mayda detallar ko‘rsatilmaydi. Istirohat bog‘lari, xiyobon va ko‘chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o‘zida mustaqil mazmunni anglatib, me'morchilikka ham, tevarak-atrofga ham tobe bo‘lmagan holda, kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik bilan bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlarini ishlashda obrazlarni ko‘tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida esa obrazlar biroz yumoristik tarzda talqin etiladi, bo‘rttiriladi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo‘rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli fontanlar, panjaralar, badiiy darvozalar ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan turli haykalchalar, loydan ishlangan o‘yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko‘rinishi hisoblanadi. Dastgoh haykaltaroshligiga o‘zida mustaqil mazmunni anglatadigan, san'atning bosh turlariga tobe bo‘lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko‘rgazmalarga

qo‘yish, uylarga qo‘yish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Haykaltaroshlikning bu turida voqelik o‘zining butun borlig‘i bilan aks etadi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi inson, psixologiyasidagi nozik o‘zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyatiga ega. Xuddi shu holda u tabiatdagi mavjud hayvon va jonivorlami ishlashda ham ularning hayoti, kuchi, xarakterini ko‘rsata oladi. Dastgoh haykaltaroshligining ko‘rinishlaridan biri byust bo‘lib, u odam gavdasini aks ettiruvchi dumaloq haykal hamda o‘zida bir qator obrazlarni mujassamlashtirgan haykallar guruhi (kompozitsiya) tarzida bo‘ladi. Haykaltaroshlik san'atining yana bir ko‘rinishi - terrakota hisoblanadi («terrakota» italyancha so‘z boiib, pishirilgan loy ma'nosini bildiradi). Terrakota keng ma'noda loydan yasalib, pechda pishirilgan haykaltaroshlik asarlaridir. Haykaltaroshlikda insonning faqat tashqi ko‘rinishi tinch turganligi holati yoki harakatdagi paytini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi. Undagi kechinmalar, uning hayajon va g‘amginligi, kelajakka intilishi va o‘tmishga qayg‘urishi ham o‘z ifodasini topadi. Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabati ham, qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda, albatta, eng avvalo, haykaltaroshning o‘ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o‘zgarishlarini to‘g‘ri ifodalashi muhim o‘rinni egallaydi. To‘g‘ri topilgan harakat yuzdagi mimik holat - bular uning ta'sirli bo‘lishiga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1. Amanullaev, A. (2022). SPECIFIC FACTORS OF COMPREHENSIVE STUDY AND ANALYSIS OF THE HISTORY AND CULTURE OF THE UZBEK PEOPLE. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(02), 1-4.

2. Amanullaev, A. A. (2022). CURRENT ISSUES IN THE TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(03), 1-3.

3. Абдимуминова, Д. А., & Амануллаев, А. А. (2018). Использование традиций этики" устоз-шогирд"(мастер и ученик) на занятиях прикладного искусства. *NovaInfo. Ru*, *2*(85), 203-206.

4. Abdumo'minovich, A. A. (2023). QADIMDA USTALARNING SHOGIRD TAYYORLASHDA O'ZIGA XOS MILLIY ANANAVIY ASOSLARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1440-1447.

5. ABDUMO'MINOVICH, A. A. (2023). BO'LG'USI TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA HOZIRGI DAVR DOLZARB MASALALARI. *Journal of Universal Science Research*, *1*(5), 1423-1429.

6. Muhammad, A. (2022). PECULIARITIES OF THE SCIENTIFIC STUDY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN COMPOSITION AND COLOR IN THE GENRE OF LANDSCAPE. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(02), 5-8.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

I.M.Madraximova – FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida integrativ yondashuv asosida shakllantirish masalasi tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan ta'lim modeli, fanlararo uyg'unlik va reflektivlik tamoyillari asosida kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, taniqli pedagoglarning qarashlari orqali integrativ yondashuvning nazariy asoslari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *integrativ yondashuv, pedagogik amaliyot, kasbiy kompetensiya, reflektivlik.*

Bugungi kunda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar oliy ta'lim tizimining mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqishni, uni zamon talablariga mos holda takomillashtirishni zarur etmoqda. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish

jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biri — pedagog kadrlar tayyorgarligi sifatini oshirish orqali ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirishdan iborat. Ta’limning yangilangan strategiyasi doirasida pedagog shaxsining ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va mas’uliyati sezilarli darajada ortmoqda. Shu bois, ta’lim jarayonining bosh maqsadi – kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega, ijodiy fikrlovchi, ijtimoiy faollik bilan ajralib turuvchi, zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lgan pedagogik kadrlarni shakllantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Ta’lim jarayoni nafaqat innovatsion bilimlarni egallash balki talabalarda amaliy ko‘nikma va hayotiy tajribani shakllantirish, ularni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadigan ijodiy muhit sifatida qaralmoqda. Ayni paytda mutaxassislar tayyorlashda, xususan, pedagogik ta’lim yo‘nalishida kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirishda pedagogik amaliyotning roli tobora ortib bormoqda.

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning kasbiy faoliyatga bo‘lgan tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda real ish faoliyatiga integratsiyalashgan holatda baholashda pedagogik amaliyot jarayoni muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishda ularning shaxsiy va kasbiy jihatdan shakllanishi, qobiliyat va salohiyatini aniqlashda integrativ yondashuvning ilmiy-metodik asoslarini chuqur o‘rganish, uning ijtimoiy va pedagogik zaruratlarini asoslash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik terminologiyada “integratsiya” tushunchasi turli fan, faoliyat turlari yoki mazmuniy yo‘nalishlarning bir butun tizimga keltirilishi, ularning o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda o‘quv jarayonida qo‘llanilishi sifatida izohlanadi. Mazkur yondashuv orqali talabalar bilimini chuqur va mantiqiy bog‘langan holda egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. “Integrativ yondashuv” esa o‘z navbatida, o‘quv faoliyatini turli komponentlar — ya’ni mazmun, metod, vosita, hamkorlik shakllari va natijaviy kompetensiyalarni uyg‘unlashtirish orqali tashkil etishni nazarda tutadi.

“Pedagogika” entsiklopediyasida keltirilishicha, integrativ yondashuv — bu ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishda bir nechta konseptual yondashuvlarni (masalan, vaziyatli, tizimli, innovatsion va boshqalar) uyg‘unlashtirib qo‘llashga asoslangan didaktik tamoyildir. Ushbu yondashuv pedagogik faoliyatda umumiy, kompleks va ko‘p yo‘nalishli nazariy asoslarga tayanadi hamda o‘quv jarayonining yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan o‘qitish modeli talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini faqat alohida fanlar doirasida emas, balki ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida shakllantirishni maqsad qiladi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini tizimli, mazmunan boy va amaliy jihatdan samarali qiladi. Ayniqsa, kasbiy kompetensiyalarni

shakllantirishda integratsiyaga asoslangan pedagogik strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayonda bilimlar oddiy yodlash emas, balki funksional, kontekstli o‘zlashtirish asosida egallanadi.

Integrativ yondashuvning samaradorligini belgilovchi tamoyillar quyidagilardan iborat:

Fanlararo uyg‘unlik – turli o‘quv fanlarining mazmuni o‘rtasida semantik va metodologik aloqalarni aniqlash, bu orqali ta’limni tizimli va kontekstual shakllantirish. Bunda bilimlar sun’iy chegaralarsiz, hayotiy mazmunga yaqin tarzda egallanishi ta’minlanadi.

Kompleks yondashuv – o‘quv jarayonini nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy faoliyat, kommunikativ ko‘nikmalar va ijtimoiy madaniy kontekst bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, bunda o‘quvchi faoliyatining barcha tarkibiy qismlari yagona pedagogik muhitda birlashtiriladi.

Uzviylik – ta’lim bosqichlarining izchilligi, mazmuniy bog‘liqligi va bosqichma-bosqichlik printsipiga asoslanadi. Bunday yondashuv bilimlarning tizimlashtirilgan, strukturaviy asosda egallanishini kafolatlaydi.

Reflektivlik – talaba/yosh mutaxassisning o‘z o‘quv faoliyatiga tanqidiy yondashishi, o‘zining bilim darajasini, kasbiy yondashuvlarini baholay olishi va takomillashtirishga intilishi. Integrativ yondashuvda bu tamoyil o‘quvchilarning o‘z bilimlariga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Amerikalik pedagog va faylasuf John Dyui ta’limni real hayotiy faoliyat bilan chambarchas bog‘lash tarafdori bo‘lgan. U integratsiyalashgan ta’lim modelini bolalarning real muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘zlashtirishi zarurligi bilan asoslagan. Dyui ta’limda fanlararo bog‘liqlik va tajriba asosidagi o‘qitishning muhimligini alohida ta’kidlagan.

Psixolog va pedagog Jean Piyaje bolalarning kognitiv rivojlanishi nazariyasiga asoslanib, bilimlarni o‘zlashtirish o‘quvchining fikrlash darajasiga mos bosqichlarda sodir bo‘lishi zarurligini isbotlagan. U integratsiyani aqliy faoliyatga asoslangan individual konstruksiya jarayoni deb baholaydi va ta’lim mazmunini bolalarning intellektual rivojlanishiga moslashtirish tarafdori bo‘lgan.

Rus olimi V. V. Davydovning takidlashicha, o‘quv faoliyatini tashkil etishda nazariy fikrlashni shakllantirishni asosiy vazifa sifatida belgilagan. U ta’lim mazmunining umumlashtirilgan tushunchalar asosida integratsiyalashgan bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Davydov nazariyasi asosida integrativ yondashuv talabaning analitik va reflektiv fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

A.Aripjonovaning takidlashicha zamonaviy o‘zbek pedagogikasida integratsiyalashgan yondashuv orqali pedagogik kompetensiyalar va kreativlikni

rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar muallifi. Aripjonovaga ko‘ra, kasbiy tayyorgarlikda turli yo‘nalishlardagi bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish orqali innovatsion didaktik muhit yaratish o‘qituvchi kompetentligini oshirishning muhim vositasidir.

Muayyan faoliyatni muntazam tashkil etish natijasida bo‘lajak o‘qituvchida tegishli ko‘nikmalar shakllanadi. Bu ko‘nikmalar doimiy amaliyot va faoliyatni uzluksiz davom ettirish jarayonida malakaga aylanishi bilan farqlanadi. Shakllangan malaka esa o‘qituvchining faoliyatini tez, sifatli va samarali bajarish imkonini beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish insoniyat uchun har doim muhim masala bo‘lib kelgan, shuningdek, pedagogning kasbiy rivojlanishi va malakaga ega bo‘lishi ham ayni darajada dolzarb hisoblanadi. Kasbiy malaka nafaqat ijtimoiy, balki shaxsiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Maqolada ko‘rsatib o‘tilgan integrativ yondashuv asosidagi yondashuvlar orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari samarali shakllanishi ta’kidlandi. Ushbu model o‘quvchilarni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy faoliyat orqali tayyorlashga imkon yaratadi. Bu esa ta’lim sifati va natijaviyligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. www.ziyonet.uz
2. Bordovskaya, N., Rean, A. Pedagogika. Sankt-Peterburg, 2001. – 10-bet.
3. Quzmanova, G.B. (2021). Approaches of mathematical and pedagogical scientists in the teaching of textual problems in general secondary schools. Current Research Journal of Pedagogics, 2(8), 80–83.
4. Quzmanova, G.B. (2021). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matnli masalalarni ta’limiy o‘qitish. Academic Research in Educational Sciences, 2(3), 1154–1159.

MUNDARIJA

1. **Kelajak o'qituvchisini tayyorlash vazifalari** 3
G.O.Ernazarova, R.F Avazova
2. **Zamonaviy pedagogikada global ta'lim** 7
M.Sh.Islamova, Z.E.Soxiboyev
3. **Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari va masofaviy ta'lim** 12
M.Islamova, A.Qodirova, N.Risqitillayeva
4. **Pedagogik ta'limda o'qituvchining mas'uliyati, mahorati va kompetensiyasi** 18
M.J.Aliyeva
5. **Tabiiy va aniq fanlarning rivojlanishida fizika fanining o'rni** 21
S. Botirjonova
6. **Innovatsion ta'lim jarayonlari rivojlantirish** 25
D.R.Raxmatullayeva
7. **Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari** 28
S.A.Ravshanov, F.Y.Tojiboyeva
8. **Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida informatikadan axborot kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va mohiyati** 31
M.O'.O'ktamov
9. **International team building and teamworking** 36
Sh.M.Turaeva
10. **The international use of english** 40
Sh.M.Turaeva
11. **Informatika va uni o'qitish metodikasi fanini o'tishda zamonaviy pedagogik texnologik vositalarni qo'llash** 45
M.O'.O'ktamov, J.N.Toshpo'lotova
12. **Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga informatika o'qitishda tarmoq texnologiyalaridan foydalanish** 49
J.H.Hamrayev
13. **Aqli zaif o'quvchilar shaxsi va ijtimoiy moslashuvi masalalari** 53
R.A.Omonova, S.A.Ravshanov
14. **Bo'lajak mutaxassislarning axborot xavfsizlik kompetensiyalari komponentlari** 37
D.R.Raxmatullayeva, Sh.Sh.Akbaraliyev
15. **Alisher navoiyning "mahbub ul-qulub" asarida aholining muayyan ijtimoiy qatlamini ifodalovchi leksik birliklar** 61
Sh.T.Adilova
16. **Ingliz tilida grammatik kompetensiyalarni shakllantirishda qo'llaniladigan mashq va topshiriqlar tipologiyasi** 67
F.S.Nazarova, F.N.Ziyatullayeva
17. **Aplikatsiya va uning ta'lim tizimidagi o'rni** 72
G.O'sarova

18. **"Case study" ta'lim texnologiyasi** 76
Z.Ergashova
19. **Ta'lim muhitida o'quvchilarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish masalalari** 79
M.T.Bozorboyeva
20. **Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faolligini shakllantirish pedagogik faoliyatni rivojlantirishning pedagogik omili sifatida** 83
O.X.Rashidova
21. **Zaryadlarning o'zaro ta'siri. Kulon qonuni** 88
L.I.Latipova
22. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturi orqali o'qish, matematika va tabiiy-ilmiy savodxonliklarini o'rganish tehnologiyasi 91
Sh.Sh.Burxonov, I.Nishonova
23. **Ta'lim tizimidagi innovatsion pedagogik texnologiyalar** 96
A.A.Bahromova
24. O'smirlarda delikvent axloqning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar 101
S.X.Asilova, D.Shokirjonova, M.Ibrohimova
25. **Развитие науки наноэлектроники и нанотехнологий** 106
Х.Абдиев, А.Мирзаев
26. **Bolalar o'rtasida bullingning kelib chiqish sabablari** 110
S.X.Asilova, M.Q.Mahmudov
27. **O'quvchi yoshlarga dizayn va modellashtirish haqida umumiy tushunchalar berish (savat, qutilarni bezash texnologiyasi)** 116
SH.S.Xudoyqulov, SH.S.Masalbekova
28. **Bolalardagi frustratsion holatlarda art terapiyadan foydalanish** 120
N.Usmonova, M.Ibrohimova
29. **Texnologiya ta'limi jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati** 128
A.X.Uzakova
30. **Ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar** 131
A.A.Mustafaqulov, U.A.Usanov
31. **Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkuri xususiyatlari** 135
S.X.Asilova
32. **Ona tilida amal-mansabga oid so'z va atamalarni o'qitish metodikasi** 140
A.T.Ergashev, I.Olimjonov
33. **Yoshlarda intellektuall madaniyatni shakllantirish – talab davri** 144
A.R.Buvrayev
34. **Talablarning intellektual mustaqilligi bilim olish jarayoni** 147
A.R.Buvrayev
35. **Tilimizda ishlatilgan amal-mansab so'zlarining tarixiga bir nazar** 150
A.Ergashev
36. **Yoshlar o'rtasida dolzarb bo'lgan psixologik muammoları** 154
S.X.Asilova, I.Shamsutdinova

37. **O‘quvchilarni milliy qadryatlar ruhida tarbiyalashning ahamiyati** 161
A.B.Bolqiyev

38. **Hozirgi o’zbek tilida yordamchi so’zlarning o’rganilishi** 165
SH.Burxonov

39. **O‘quvchilarnig vatanga muhabbatini shakillantirishda milliy qadryatlarning ta’siri** 171
A.B.Bolqiyev, S.Bolqiyeva

40. **Pisa natijalarini yaxshilash uchun qanday yondashuv lozim** 175
M.Jaxongirova

41. **Ingliz va o’zbek tillarida faol ish harakatini anglatuvchi fe’llar** 177
D.B.Turdiboyeva

42. **Inklyuziv ta’limda bolalar adabiyoti pedagogik instrument sifatida** 181
M.R.Rahimjanova

43. **Xorazm mutafakkiri - mahmud puryovaliy** 188
U.Zaripboyeva

44. **Bo‘lajak maktab menejerlarining iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi interfaol metodlar** 192
A.Qo‘shmurodov

45. **Aqli zaif o’quvchilarning shaxsi va xotira jarayonlari** 198
S.A.Ravshanov, R.A.Omonova

46. **Aqli zaif bolalarda nutq buzilishining o‘ziga xosligi** 202
J.A.Sobirov, S.A.Ravshanov

47. **Факторы, влияющие на разработку инновационных механизмов для развития духовности учеников начальных классов в сотрудничестве между школой, семьей и махаллей** 207
Д.Щ.Алибаев

48. **Ingliz tilini takomillashtirish mexanizmlari** 211
U.A.Alibayeva

49. **Ingliz tilida yozish ko‘nikmalari** 214
F.G‘.Axbutayeva

50. **Повышение математических знаний учащихся начальных классов и подготовка учителей к их дальнейшему применению математики** 217
Э.А.Хусанов

51. **Embracing information technologies for innovative pedagogy in the modern classroom** 221
R.Omirzakov

52. **Abu ali ibn sinoning o‘zbekiston psixologiyasi rivojlanishiga qo’shgan hissasi va bugungi kundagi ahamiyati** 224
S.A.Ravshanov, S.O.Norqulova

53. **Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar faoliyat jarayonining o‘ziga xosligi** 227
S.A.Jonzoqova, J.A.Sobirov

54. **Yangi o‘zbekiston kelajagi – yoshlar qo‘lida** 231
Z.Nurullayeva, M.Z.Xolmo‘minov

55. **Didaktika – pedagogik nazariya sifatida** 236
Z.SH.Jaloliddinova

56. **Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalarining o'rni** 241
M.F.Abdurahmonova

57. **Инновационные методы оценивания знаний: трансформация образования через онлайн-платформы и аналитику данных** 244
Р.И.Петров, **М.Э.Рустамович**

58. **Интеграция компетентности и ответственности в учебный процесс педагогического образования: практические аспекты и рекомендации** 250
М.Д.Рахибовна

59. **Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalarining o'rni** 254
M.F.Abdurahmonova

60. **Musiqa san'atining yoshlar ma'naviy kamolotidagi o'rni** 257
B.N.Samiyev

61. **Integrating english language teaching in inclusive education** 262
D.A.Mamadaliyeva

62. **Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuv** 265
M.A.Fayzullayeva

63. **Isajon sulton asarlaridagi tasavvifiy obrazlar talqini** 269
B.A.Jo'rayeva

64. **Pragmatik topshiriqlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishning dolzarbligi xususida** 273
SH.I.Nasimova

65. **Future teacher: problems and prospects** 277
L.I.Bakhramova

66. **Boshlangich sinflarda ijodiy mashqlar bilan ishlashning samaradorligi va bolalarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi** 280
M.Umaraliyeva

67. **Talim muassasalarida texnologik havfsizlik qoidalari** 283
M.Mamadjanov

68. **Информационные технологии и инновационный подход в современной педагогике** 290
Н.А.Абдулхаева

69. **Применение smart-технологий для улучшения взаимодействия между студентами и преподавателями в образовательном процессе** 295
М.М.Тиллаев

70. **Internet savodxonligini oshirishda zamonaviy ta'limdagi pedagogik sharoitlar** 299
M.O.Dedaxonova, D.D.Inamov

71. **Ona tili fanini o'qitishda iqtidorli talabalar bilan ishlashga doir milliy va xorijiy tajribalar tahlili** 302
SH.B.Yo'ldosheva

72. **O‘quvchilar va talabalarda masu‘liyat hissini tarbiyalash omillari** 307
I.I.Karimov

73. **Oliy ta’limda zamonaviy pedagogik madaniyatni rivojlantirishning dolzarbligi** 311
A.M.Turabov, A.A.Aqboev

74. **Logopedning rinolaliyada olib boradigan korreksion ishlari** 317
D.Ikromova, D.D.Oribboeva

75. **Use of innovative pedagogical technologies in education** 321
SH.N.Muxtorova, S.Z.Umarov

76. **Mamlakatimizda madaniyat siyosatining xususiyatlari** 327
M.B.Abdullayeva, M.Z.Xolmo‘minov

77. **The use of innovative technologies in the educational system** 331
SH.N.Muxtorova

78. **Информационные технологии и инновационные подходы в современной педагогике** 336
М.К Тошматова

79. **Title: exploring the impact of project-based learning (pbl) research inquiry in high school education** 340
M.A.Alibekova

80. **Innovatsion ta’lim texnologiyalari** 347
R.X.Xusniddinova, N.B.Ummatova, D.M.Yakubova

81. **Boshlang‘ich sinflarda dars jarayonlarida ijodiylik hissini shakillantirishning afzallilari** 351
F.A.Yo‘ldaasheva

82. **Fizika fanini turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o’qitish usullari** 355
A.A.Bahromova, Z.Z.Hamrayeva

83. **Turizm talabalari uchun xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy shakllari** 359
S.I.Quziyev

84. **Ta’limdagi masuliyatlilikning bola ilmiy dunyoqarashining rivojlanishiga tasiri** 363
D.Q.Abdullayeva

85. **Information culture of pupils of religious education based on an innovation approach** 368
A.A.Anvarov

86. **Pedagogik ta’limda mas’uliyat tushunchasi va uning ahamiyati** 372
F.S.Umrkulova, V.I.Ibragimova, D.Z.Ro’ziyeva

87. **Boshlang’ich sinf o’quvchilarini o’qish savodxonligini rivojlantirishda multimediya vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish** 376
Sh.F.Habibullayeva

88. **Oliy ta’lim muassasalarida bulutli texnologiyaning pedagogik samaradorligi** 379
A.O.Dedaxanov

89. **Muzey pedagogikasi vositasida bo’lajak o’qituvchilarda vatanparvarlikni shakllantirish** 382
S.M.Dadaboyev

90. **Musiqa cholg‘ularini maktabda qo‘llash metodikasi** 387
G.B.Mamatxonova, B.B.Shokirxanov

91. **Ma’lumotlarni tozalash bosqichlari tahlili** 393
N.B.Nomozov

92. **Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modeli** 400
SH.D.Mirzayeva

93. **Zamonaviy talablarga munosib o‘qituvchilarni tayyorlashga oid ayrim mulohazalar** 403
F.X.Mustafoyeva

94. **The significance of guided learning in language classrooms** 407
U.X.Ortikov

95. **Yoshlar va zamonaviy talim texnologiyalari** 413
Z.F.Sherqo‘ziyeva

96. **Развитие педагогической ответственности и правовой компетентности педагогов образовательных организаций посредством формирование правосознания** 417
С.А.Собиржонова

97. **Yoshlarni tarbiyalashda zamonaviy texnalogiyalardan samarali foydalanish** 421
X.A.Qosimov

98. **Ta’lim tarbiya jarayonlarida zamonaviy texnalogiyalarning o‘rni** 424
T.I.Ismoilov, X.A.Qosimov

99. **Yoshlarning barkamol avlod bolib yetishishida zamonaviy talim va texnalogiyalarning o‘rni** 428
G.B.Rahmonaliyeva

100 **Yuridik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvning o‘rni** 430
M.Z.Po‘latova

101 **Pedagogik ta’limda ma’sulyat va kompetensiya masalalari** 435
D.X.Axmedova, L.A.Karimova

102 **Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuv** 439
R.I.Karimjonova

103 **Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va tarbiya fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish** 442
B.A.Tillayev

104 **Huquq darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish** 445
B.B.Bayjanova, D.Oltinboyev

105 **Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasining rivojlanishi** 448
A.A.Abdurasulov

106 **Oila tarbiyasi masalalariga turkiston jadidchilarining qarashlari** 451
G.O.Ernazarova, S.S.Xamidov

107 **O'qitishda interfaol usullardan samarali foydalanish** 455
L.X.Raxmatullayeva, F.X.Ismailov

108 **Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati** 460
L.X.Raxmatullayeva, L.R.To'xtamuradova

109 **Professional ta'lim mazmunining texnologik jihatlari** 464
M.N.Shoxdorov, D.R.Nishonov

110 **Zamonaviy musiqiy ta'limda bolalar uchun foydali bo'lgan xorijiy uslublarning qisqacha tavsifi** 467
I.Q.Ergashev

111 **Maktabgacha ta'lim yoshidagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim sharoitida musiqiy ta'limni tashkil etish metodikasi** 470
A.M.O'rmonjonov

112 **Xizmat ko`rsatish sohalarida soliq tizimini xorijiy tajribalarga asoslangan holda takomillashtirishning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o`rni** 475
N.G'.Abdullabekova

113 **Инсон ҳуқуқлари – олий қадрият** 479
Н.Зокиржонов

114 **Ижодкор талабаларни эрта кашф қилиш – самарали ижод ва муваффақиятлар замини** 481
А.А.Абдурахманов

115 **Таълим жараёнларида ўқувчиларнинг коммуникатив компетентлигини шакллантириш технологияси** 485
Рахматуллаева Д.Р, Агалиева Х.Н

116 **Применение SMART-технологий для улучшения взаимодействия между студентами и преподавателями в образовательном процессе** 490
M.M.Тиллаев

117 **O'zbekistonda psixologiya fani rivojlanishida olima ayollarning o'rni** 493
S.A.Ravshanov

118 **Empowering efl education with ai for enhanced critical thinking** 497
Azizbek Kh. Mukhamedov

119 **Tiflopedagogika va surdopedagogikaning o'zaro bog'ligi** 503
M.B.Ziyovaddinova

120 **Boshlang'ich ta'limda chet tilini o'rganishda zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari** 507
M.K Toshmatova

121 **Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan erishilgan g'alabaga o'zbek xalqining qo'shgan hissasi** 512
I.O.Odilbayev

122 **O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida kutubxonachilik ishi** 515

N.D.Abduraxmanova
123 **USMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI TARIXIDAN** 522
S.A.Yo‘ldashev
124 **Shaxsning axborot olish madaniyatini shaklantirish, maktab kutubxonasi ishini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari** 530
N.D.Abduraxmanova
125 **Использование и химический состав черного дерева в народной медицине** 537
Х.Х.Турсунбаев
126 **Kimyo fanini o‘qitishda labarotoriya mashg‘ulotlarining o‘rni va ehtiyotkorlik choralari** 540
X.X.Tursunboyev
127 **Dinamo sport tashkiloti va uning sovet ittifoqida tutgan o‘rni** 554
A.I.Jabborov
128 **Rangtasvirda vitraj uslubi va uning rivojlanishi** 549
Sh.T.Mamadjonova
129 **Tasviriy san’at janrlarida badiiy ijod asoslarining o‘ziga hos hususiyatlari** 552
Sh.T.Mamadjonova
130 **Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish** 563
I.M.Madraximova

*"Kelajak o'qituvchisi - kelajak bunyodkori" mavzusidagi Respublika ilmiy-masofaviy anjumani materiallari to’plami NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-aprel 2024-yildagi 04-sonli kengaytirilgan yig’ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma **№ 04**). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

Texnik muharrir: A.O‘rmonjonov

“Kelajak o‘qituvchisi-kelajak bunyodkori” mavzusidagi Respublika ilmiy-masofaviy anjumani 572 sahifadan iborat bo‘lib 129 ta ilmiy maqola hamda tezisdan tashkil topgan.

TASHKILIY QO‘MITA:

Javoxir Yuldashev – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo’limi boshlig’i;

Ramziddin Tursunov – Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi boshlig’i;

Azizbek O‘rmonjonov - Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo’limi ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi, institut huzuridagi “Talabalar akademiyasi” prezidenti;

Doniyorbek Mahkamov - Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI

“TALABALAR AKADEMIYASI”

NAMANGAN 2024